

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



Hakim TO'XTAYEV

IJTIMOIIY FALSAFA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

HAKIM TO‘XTAYEV

IJTIMOIY FALSAFA

DARSLIK

60220500 – Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi

**Toshkent
“Ma’rifat”
2023**

UO‘K: 101.1:316(075)

KBK: 87.6ya7

T 98

To‘xtayev H. Ijtimoiy falsafa. Darslik. - T.: “Ma’rifat”, 2023. 364 bet.

Mazkur darslik, Oliy ta’lim Davlat standarti asosida fanning namunaviy o‘quv dasturiga mos ravishda, **60220500 – Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha)** ta’lim yo‘nalishining bakalavr bosqichi talabalari uchun tayyorlangan. Darslikdan, shuningdek, barcha ta’lim yo‘nalishlari talabalari, magistrant va mustaqil izlanuvchilar, fan o‘qituvchilari hamda “Ijtimoiy falsafa” fanini mustaqil o‘rganmoqchi bo‘lganlar foydalanishlari mumkin. Mazkur darslikda, “Ijtimoiy falsafa” fani mavzulariga oid nazariy matnlar, tayanch tushunchalar, konsultativ materiallar (sxema va tablitsalar), mavzularni mustaqil o‘zlashtirish uchun savollar, testlar, glossariy, asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati berilgan. Darslik O‘zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti Falsafa va mantiq kafedrasida tayyorlangan.

UO‘K: 101.1:316(075)

KBK: 87.6ya7

T 98

Mas’ul muharrir:

Madayeva Sh.O. – professor, falsafa fanlari doktori

Taqrizchilar:

Tuychiyev B.T. – professor, falsafa fanlari doktori

Ramatov J.J. – professor, falsafa fanlari doktori

Mazkur darslik Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Kengashida ko‘rib chiqib tasdiqlandi va nashrga tavsiya etildi (2023 yil 31 mart 8-sonli bayonnoma).

ISBN: 978-9943-9625-4-5

© “Ma’rifat” nashriyoti, Toshkent, 2023 y.

Annotatsiya

Darslik falsafa yoʻnalishi bakalavriat bosqichi talabalariga moʻljallangan boʻlib, u davlat taʼlim standartlari, malakaviy talablar va namunaviy oʻquv dasturi asosida tayyorlangan. Unda ijtimoiy falsafaning nazariy-metodologik asoslari, Sharq va Gʻarbda shakllangan ijtimoiy-falsafiy taʼlimotlar, jamiyat hayotining asosiy sohalari, inson falsafasi, ijtimoiy falsafada erkinlik va masʼuliyat masalasi, ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik mezonlari, ijtimoiy normalar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni hamda Yangi Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etishning oʻziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Darslik Falsafa yoʻnalishi mutaxassislari, shuningdek ijtimoiy falsafa haqida bilimga ega boʻlishni istagan mustaqil tadqiqotchilar, oʻqituvchilar va umuman, falsafa muammolari bilan qiziquvchilarga moʻljallangan.

Аннотация

Учебник предназначен для студентов философского направления бакалавриата и подготовлен на основе государственных образовательных стандартов, квалификационных требований и типового учебного плана. Он содержит теоретико-методологические основы социальной философии, социально-философские учения, сформировавшиеся на Востоке и Западе, основные сферы жизни общества, философию человека, проблему свободы и ответственности в социальной философии, критерии социальной устойчивости и нестабильности, социальные нормы и их роль в обществе, развитие гражданского общества в Новом Узбекистане.

Учебник предназначен для специалистов в области философии, а также самостоятельных исследователей, желающих получить знания о социальной философии, преподавателей и людей, интересующихся проблемами социальной философии в целом.

Abstract

The textbook is intended for students of the philosophical direction of the bachelor's degree and is prepared on the basis of state educational standards, qualification requirements and a standard curriculum. It contains the theoretical and methodological foundations of social philosophy, socio-philosophical doctrines formed in the East and West, the main spheres of society, human philosophy, the problem of freedom and responsibility in social philosophy, criteria of social stability and instability, social norms and their role in society, the development of civil society in the New Uzbekistan.

The textbook is intended for specialists in the field of philosophy, as well as independent researchers who want to gain knowledge about social philosophy, teachers and anyone interested in the problems of social philosophy in general.

SO‘Z BOSHI

So‘nggi yillarda jahonda juda murakkab va ziddiyatli jarayonlar sodir bo‘lmoqda, insoniyatning buguni va kelajagiga xavf tug‘diruvchi tahdidlar kuchayib, geosiyosiy manfaatlar to‘qnashuvi avj olmoqda. Ushbu voqea-hodisalarni falsafiy tahlil etish dolzarb hisoblanadi.

"Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" dadil qadamlar qo‘yayotgan Yangi O‘zbekistonda, oxirgi besh yil mobaynida jamiyat hayotining barcha jabhalarida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta‘lim tizimidagi, jumladan oliy ta‘lim sohasidagi yangilanishlar xalqimiz tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlandi, jahon jamoatchiligi tomonidan e‘tirof etildi. Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi – yosh avlodni har tomonlama barkamol, yuksak aql-zakovat va mustaqil fikr sohibi etib tarbiyalashdir. Bu esa, jamiyat intellektual salohiyatini oshirishning, Yangi O‘zbekistonni eng rivojlangan 50 ta davlat qatoriga ko‘tarishning asosiy sharti bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu islohotlar ijtimoiy-gumanitar fanlar rivojiga ham katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayni paytda, Prezident Shavkat Mirziyoyev "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida ta‘kidlaganidek, "Milliy ma‘naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati katta. Afsuski, hozirgi paytda bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda"¹. Ushbu asar xalqimiz va jahon afkor ommasi tomonidan Yangi O‘zbekistonni yaratish, Uchinchi Renessansning muhtasham binosini barpo etish dasturi sifatida qabul qilindi. Bu asarda belgilangan yuksak maqsadlar va dolzarb vazifalar ijtimoiy falsafa fani uchun ham dasturil-amal, tubdan yangilanish uchun g‘oyaviy zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur darslik "Falsafa" (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, unda, jamiyat, uning tuzilishi va sohalari, taraqqiyoti qonunlari, inson hayotining mohiyati va mazmuni, qadriyatlari, erkinligi va mas‘uliyati, sivilizatsiya (tamaddud)lar almashinuvi, globallashuv muammolari to‘g‘risida bilim beradi.

Darslikda jamiyat falsafasiga taalluqli masalalar 15 ta mavzuga bo‘lib talqin qilingan, har bir mavzuga tayanch tushunchalar, nazariy matn, mustaqil o‘zlashtirish uchun savollar, testlar, asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

¹ Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi./To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent, "O‘zbekiston", 2022, - 275 bet

1-MAVZU. IJTIMOYIY FALSAFANING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

1. Ijtimoiy falsafaning bahs mavzusi.
2. Ijtimoiy falsafaning tayanch tushuncha va kategoriyalari.
3. Jamiyatni yaxlit tizim sifatida o'rganish.
4. Ijtimoiy falsafaning funksiyalari.

Tayanch tushunchalar: falsafa, ijtimoiy falsafa, ijtimoiy falsafaning tushuncha, kategoriyalari, tamoyillari, falsafa va ijtimoiy falsafaning o'zaro aloqadorligi, ijtimoiy falsafaning funksiyalari.

Ijtimoiy falsafaning bahs mavzusi. Insonni o'rab turgan muhitni shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin: tabiat va jamiyatga. O'zbek tilidagi jamiyat so'zi arabcha "jama'a" fe'lidan yasalgan bo'lib, bir yerga to'planish, jam bo'lish ma'nosini beradi. Jamoa, majmua kabi so'zlar ham shu o'zakdan yasalgan. Falsafiy tushuncha sifatida jamiyat insonlar, ularning moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish faoliyati, turli guruh va qatlamlari, odamlar orasidagi munosabatlar yig'indisini anglatadi. Jamiyatga tegishli borliq, ijtimoiy sifat bilan ifodalanadi.

Qadimda olam haqidagi barcha bilimlarni o'zida jamlagan fan naturfilosofiya vujudga kelgan. Davrlar o'tgan sayin falsafa doirasidagi bilimlardan alohida fanlar ajralib chiqa boshlagan. Bu jarayon uzoq davom etib, avval matematika, geometriya, astronomiya, keyinchalik geologiya, geodeziya, tibbiyot, mexanika, fizika, ximiya, biologiya kabi fanlar ajralib chiqqan. Tasavvur qilingki, bir daraxt ildiz otib, ko'kka bo'y cho'zgan sari o'zidan ko'plab shohlar chiqaradi. Xuddi shunday – falsafadan ham turli fan tarmoqlari ajralib chiqqan.

Yangi davr – XVIII-XIX asrlarga kelib falsafa tarkibidagi bilim sohalari kengayib, mustaqil fanga aylandi. Gumanitar va ijtimoiy fanlar – sotsiologiya, etika, estetika, mantiq, siyosatshunoslik kabilar fan maqomiga erishdi.

Falsafiy bilimlarning takomillashuvi jamiyat, uning moddiy va ma'naviy hayoti, ijtimoiy munosabatlar, siyosiy, huquqiy, axloqiy muammolarning qo'yilishi va hal etilishi jamiyat va inson haqida ko'plab ta'limotlar yaratilishiga asos bo'lgan. Falsafa tarkibida ontologiya (borliq to'g'risidagi ta'limot), gnoseologiya (bilish nazariyasi), siyosat falsafasi,

tarix falsafasi, madaniyat falsafasi kabi sohalar rivojlangan. Ayni vaqtda falsafaning insonga va jamiyatga bevosita daxldor muammolari va bu muammolar doirasida erishilgan ilmiy bilimlar ijtimoiy falsafaning fan sifatida shakllanishiga sabab bo'lgan.

Ijtimoiy falsafa – jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy bilishning mohiyati, qonuniyatlari hamda tamoyillari haqidagi fandır.

Ijtimoiy falsafaning fan sifatidagi bahs mavzularini ijtimoiy borliq, insonning biosotsial mohiyatini namoyon etish imkoniyatlari, ijtimoiy jarayonlarning shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlari tashkil etadi.

Ijtimoiy falsafa shug'ullanadigan eng muhim masalalar quyidagilar:

a) jamiyat, uning ta'rifi va tavsifi, tizimli hamda strukturali-funksional tahlili;

b) ijtimoiy borliq, uning murakkab, xilma xil qirralari; ijtimoiy ong, uning turli shakllari; moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish;

s) inson, uning mohiyati, hayoti mazmuni, shaxsning jamiyat taraqqiyotidagi roli;

d) sivilizatsiya, uning mohiyati va shakllari; umumbashariy muammolar, ularni hal qilish yo'llari; globallashuv jarayonlari;

e) Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, fuqarolik jamiyatining falsafiy masalalari va h.k.

Ijtimoiy falsafa antik davrlardan e'tiboran asta-sekin shakllanib, O'rta asrlar va Yangi davrda yanada rivojlanib, keyinchalik fan sifatida ajralib chiqqan bo'lsa-da, u falsafaning tarkibiy qismi, muhim bo'lagi hisoblanadi. Falsafa odam va olam munosabatlari tahlili bilan shug'ullansa, ijtimoiy falsafa jamiyat va inson munosabatlarini tadqiq etadi. Agar falsafa olam, uning mohiyati, qonuniyatlari, odam, uning olamga munosabati to'g'risidagi fan bo'lsa; ijtimoiy falsafa olamning tarkibiy qismi - jamiyat haqidagi falsafiy bilimlar tizimi hisoblanadi.

Demak, shuning uchun ham ijtimoiy falsafani falsafiy ta'limotlarning o'ziga xos ko'rinishi sifatida tahlil qilmoq lozim.

Har qanday fan o'z tadqiqot predmeti, ob'ektiga ega bo'lgani singari, Ijtimoiy falsafa ham o'z o'rganish ob'ektiga ega – bu jamiyat va insondir. Kishilik jamiyatining kelib chiqishi, mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari,

inson, uning jamiyatga munosabati – kun tartibidan hech qachon olinmaydigan dolzarb va murakkab masalalardir. Mazkur fanning ahamiyati XX asr oxiri yangi asr boshidan beqiyos darajada ortib bormoqda. Chunki insoniyat hayotida yangi mayllar, jahondagi tinchlik va barqarorlikka yangicha tahdidlar yuzaga kelmoqda, sivilizatsiyalar to‘qnashuvi xavfi kuchaymoqda. Mana shunday tahlikali zamonda yangicha yondashuvga asoslangan ijtimoiy falsafagina insoniyatga mushkul holatdan chiqish, umumsayyoraviy muammolarni oqilona hal etish, ozmi-ko‘pmi yorug‘ istiqbolni ta‘minlash imkonini beradi.

Jamiyat, insonni o‘rganadigan fanlar tarix, iqtisodiyot nazariyasi, pedagogika, psixologiya fanlari ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumiga kiradi va ular jamiyatni o‘rganadi. Ular jamiyat hayotining muayyan bir tomoni, unda amal qilingan qonunlarni ochishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Ijtimoiy falsafa esa jamiyatni yaxlit ijtimoiy organizm sifatida tahlil etadi va jamiyatning ayrim sohalarini tadqiq etuvchi fan vakillari e‘tiborini jamiyatning normal ishlashi uchun uning har bir qismi va unsuri qanday rol o‘ynashini aniqlashga qaratadi.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan jamiyat o‘zini-o‘zi tashkillovchi va boshqaruvchi sistema bo‘lib, u o‘z ichki qonunlari bilan harakatlanadi, rivojlanadi va takomillashadi. Inson va uning uyushmalari (davlati, siyosiy partiyalari ijtimoiy harakatlari va b.) qonunlar doirasida faoliyat yo‘nalishini belgilasa, taraqqiyot tezlashadi, aksincha bo‘lsa, jamiyat tanazzulga uchraydi.

Binobarin, jamiyatni harakatga keltiruvchi qonunlar va u asosda o‘z faoliyatini belgilaydigan jamiyat subatomi - insondir. Odamning kelib chiqishi va jamiyatning shakllanishi, insonning jamiyatga munosabati, ularning o‘zaro aloqadorligi ijtimoiy falsafa tadqiq etadigan muammolardir.

Ijtimoiy falsafa doirasidagi eng muhim muammo - jamiyatni bilish muammosidir. Ijtimoiy falsafa jamiyatda kechadigan ijtimoiy voqea va jarayonlarni ilmiy bilishning metodologik asoslarini ishlab chiqadi.

Shunday qilib, ijtimoiy falsafaning muammolari deganda jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy bilish muammolari nazarda tutiladi.

Ijtimoiy falsafaning tayanch tushuncha va kategoriyalari. Har bir fanning o‘z tayanch tushunchalari bo‘lgani kabi, ijtimoiy falsafaning ham

o'z asosiy tushunchalari, ya'ni ilmiy kategoriyalari mavjud. Bular ijtimoiy hodisa va jarayonlarni bilishda muhim metodologik vazifani bajaradi.

Ijtimoiy falsafaning tayanch tushunchalari quyidagilar: «jamiyat», «ijtimoiy borliq», «ijtimoiy ong», «ijtimoiy munosabatlar», «moddiy ishlab chiqarish», «madaniyat», «ma'naviyat», «qadriyat», «inson», «shaxs», «oila», «ob'ektiv shart-sharoit», «sub'ektiv omillar», «manfaat», «ehtij», «sivilizatsiya» va h.k.

Bizga falsafa fanidan ma'lumki, «kategoriya» atamasi ilk bor Aristotel tomonidan «Kategoriyalar haqida» nomli risolada ilmiy muomalaga kiritilgan. Sharqda "Birinchi muallim" deb e'tirof etilgan Aristotel quyidagi kategoriyalarni qayd etgan edi: substansiya, miqdor, makon, vaqt, sifat, munosabat, joylashuv.

Arastu falsafasini yanada rivojlantirgan "Ikkinchi muallim" – Abu Nasr Forobiy bo'lgan. Uning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ijtimoiy hayot, sotsial guruhlarining kelib chiqishi, tarkibi va turlari, shuningdek jamiyat shakllari, shahar-davlat, (Al-madina) davlat boshqaruvining xususiyatlari masalalari atroflicha tahlil etilgan¹. Bundan tashqari fozil shahar tushunchasi sotsial model sifatida boshqa bir qator ijtimoiy-falsafiy tushunchalar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan: donishmand-boshqaruvchi, ezgulik, yaxshilikka yetaklovchi g'oya va boshqalar. Bular esa, Forobiy ta'limotiga ko'ra, jamiyatning yaxlitligini, uning ideal jamiyat tomon rivojlanishini ta'minlaydi. Forobiy bu ijtimoiy holatni sog'lom kishining organizmiga qiyoslaydi. Forobiy ijtimoiy falsafiy tushunchalar tizimini yaratdi. Mazkur tizimda, umumiy farovonlik masalasi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Aql va yuksak axloqiy normalar farovon ijtimoiy hayotning ma'naviy madaniyat takomilining substansional asosi bo'lib xizmat qiladi.

Kategoriyalar ijtimoiy voqelikning in'ikosi, uning muhim sifatli belgilarini umumlashtiruvchi tushunchalardir. Ular o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birlarisiz mavjud bo'la olmaydilar, ular o'zaro dialektik bog'liqlikda bo'ladi.

Kategoriyalar faqatgina mavhum umumiy tushunchalar bo'libgina qolmay ayni paytda ular amaliy ahamiyatga ham egadilar. Chunki ular

¹ Qarang: Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri – Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

ijtimoiy hodisalarni bilish bosqichi, «lahzasi» bo‘lib, bu jarayon sub’ektdan ob’ektga tomon doimiy rivojlanishda bo‘ladi. Ijtimoiy borliqning mohiyatini anglab yetishda haqqoniy bilimga ega bo‘lishda ijtimoiy amaliyot esa mezon vazifasini o‘taydi.

Jamiyat hayotini umumiy tarzda ikkiga bo‘lish mumkin:

- a) moddiy hayot sohasi;
- b) ma’naviy hayot sohasi.

Moddiy hayot sohasining o‘zagini tashkil qiladigan moddiy ishlab chiqarishga quyidagilar kiradi:

a) **ishlab chiqaruvchi kuchlar** (geografik muhit, tabiiy boyliklar, ya’ni mehnat vositalari, mehnat qurollari, ya’ni texnika, oddiy teshadan tortib zamonaviy stanovlargacha, inson, ya’ni malakasi, hunari, ixtisosligi bor odam, zamonaviy ilm-fan)

b) **ishlab chiqarish munosabatlari** (moddiy boyliklarga egalik qilish, ularni taqsimlash va tasarruf etish) – mulkchilikning turli shakllari, ijtimoiy munosabatlar, texnika va texnologiya, ilmiy-texnik progress, innovatsiya, hamkorlik, bozor munosabatlari va h.k.

Jamiyatning ma’naviy hayotini oladigan bo‘lsak, unda mazkur tizimga juda ko‘plab asosiy tushuncha va kategoriyalarni kiritish mumkin. Jumladan, ma’naviyat, ruhiyat, axborot, ijtimoiy munosabatlar, axloq, din, falsafa, sotsial psixologiya, mafkura, fan va boshqalar shular jumlasidandir.

Ma’naviy hayot sohasi ijtimoiy ong shakllarida yaratilgan boyliklar, madaniyat, ma’rifat, ilm-fan, san’at asarlarini o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy ongning quyidagi shakllari mavjud: din, axloq, san’at, ilm-fan, siyosiy ong, huquqiy ong, falsafa.

Keyingi yillarda bular qatoriga ekologik ong va aksiologik ong ham ijtimoiy ongning mustaqil shakli sifatida kiritilmoqda.

Ijtimoiy falsafa kategoriyalari o‘ziga xos xususiyatlaridan tashqari boshqa fanlarga xos bo‘lgan umumiy jihatlarni ham o‘zida mujassam etadi. Bir necha fan o‘rganadigan ijtimoiy-siyosiy sohaga bog‘liq asosiy kategoriyalar quyidagilardir:

- sotsial stratifikatsiya,
- sotsial mobillik,
- ijtimoiy guruh, qatlam, sinflar,

- urug‘, qabila, elat, millatlar,
- jamiyatning siyosiy tashkilotlari (davlat, partiya),
- davlatning tuzilishi, xarakteri, tabiati (monarxiya, demokratiya, avtoritarizm, totalitarizm, diktatura),
- islohotlar (reforma), mentalitet va h.k.

Tarixiy taraqqiyotning har bir bosqichi ijtimoiy falsafaning kategorial apparatini boyitib borib, rivojlantirmoqda. Kategoriyalar tizimini rivojlanishi va takomili ikki yo‘nalishda amalga oshadi. Birinchidan, ijtimoiy amaliyot ehtiyojlaridan kelib chiqib, ijtimoiy falsafa kategoriyalari shakllanadi va rivojlanadi. Bu jarayonni **kategoriyalarning intensiv rivojlanish jarayoni** deyish mumkin. Ikkinchidan, jamiyat taraqqiyoti jarayonida mavjud tushuncha va kategoriyalarning mazmun va mohiyati boyib, ta’sir doirasi yanada kengayib boradi, ya’ni **ekstensiv rivojlanish** xarakteriga ega bo‘ladi.

Ijtimoiy-madaniy sohaga bevosita aloqador kategoriyalar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- a) madaniyat, ijtimoiy-madaniy borliq, madaniy inqilob;
- b) siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, falsafiy madaniyat;
- v) ehtiyoj, manfaat, qadriyatlar;
- g) begonalashuv, qadrsizlanish, madaniyatsizlik;
- d) sivilizatsiya, ularning to‘qnashuvi va h.k.

Ayni paytda hayot va o‘lim, hayotning mazmuni, erkinlik, zaruriyat, ijtimoiy adolat, gumanizm, progress va regress kabi tushunchalar ham ushbu fan tizimiga kiradi.

Ijtimoiy falsafa fani kishilik jamiyati haqidagi ko‘plab fanlarning kategoriyalaridan ham foydalanadi. Ijtimoiy falsafaga chegaradosh fanlarning kategoriyalari ham ushbu fan doirasida keng qo‘llaniladi. Gap shundaki, ulardan foydalanish jarayonida ijtimoiy hodisalarni bilishning o‘ziga xos jihatlarni nazardan chetda qoldirmaslik lozim. Ana shunday kategoriyalar sifatida huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy fikr, ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy voqea va hodisalarni o‘rganishda qo‘llaniladigan umumiy tushunchalar sirasiga kiradi. Zero, bu tushunchalar siyosatshunoslik, siyosat nazariyasi, siyosat falsafasi, huquq falsafasi, davlat va huquq tarixi nazariyasi, madaniyatshunoslik, sotsiologiya kabi fanlarda ham keng qo‘llaniladi.

Jamiyat rivojlanishining umumiy qonunlari bor ekan, demak, uning kategoriyalari ham mavjud va, aksincha, kategoriyalar bo‘lmasa, qonunlar haqidagi haqqoniy bilimga ham erishib bo‘lmaydi. Zero, kategoriyalar bilish jarayonining vositasi, ilmiy bilim cho‘qqisiga olib chiqadigan pillapoyalardir.

Bir qarashda oddiy tuyulgan jamiyat, aslida ilmiy bilishning eng murakkab ob’ektlaridan biri hisoblanadi. Tarixni yaratuvchisi – xalq, oddiy mehnatkash kishilardir. Ular o‘z oldiga maqsad va vazifalari qo‘yadi, o‘z manfaatlarini belgilab oladi, shuningdek, orzu-intilishga yetmoq uchun kurash olib boradilar. Ayni paytda, buyuk shaxslarning tarixdagi va hozirgi zamondagi roli juda kattadir. Shaxsning rolini tadqiq etish bu fanning vazifasidir.

Zamonaviy ijtimoiy falsafa jahon falsafasi va o‘tmishdagi boy ijtimoiy falsafiy ta’limotlar yutuqlariga suyangan holda ijtimoiy voqelikni ilmiy tushuntirib voqea va hodisalar mohiyatini bilishda muhim metodologik vazifani bajaradigan kategoriyalar yangicha mazmuniga ega bo‘lib bormoqda.

Ijtimoiy falsafa fani kategoriyalar va qonunlarini bir-birlariga qarama-qarshi qo‘yish yoki ularni bir biridan ajratish mumkin emas. Ular bir-birlarini to‘ldiradi va boyitib boradi. Kategoriyalar real voqelikka mos ravishda shakllansagina ijtimoiy tizimlar rivojlanishi qonunlari haqida to‘laroq bilimga ega bo‘lishi mumkin. O‘z navbatida, jamiyat rivojlanishi qonunlari ijtimoiy falsafa fani kategoriyalarining ob’ektiv mazmunini tashkil etadi.

Inson faqat muayyan ijtimoiy muhit va munosabatlar olamidagina o‘zining haqiqiy mohiyatini, asl insoniy sifat va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqara oladi. Insoniy mohiyatning to‘la ro‘yobga chiqishiga imkon beradigan ijtimoiy borliq, ijtimoiy jarayonlarning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari ijtimoiy falsafaning bahs mavzuini tashkil etadi.

Insondagi insoniylikni ro‘yobga chiqaradigan ijtimoiy borliq nima? Uning siru sinoati nimadan iborat? Inson shaxsi qanday shakllanadi? Shaxsning jamiyat hayoti va tarixidagi roli nimadan iborat? Inson ijtimoiy borliq mohiyatini, o‘zi yashab turgan jamiyat istiqbolini oldindan bila oladimi? singari savollarga javob berish va kishilarda ishonchli, falsafiy dunyoqarashni shakllantirish ijtimoiy falsafaning muhim vazifasidir.

Kishilar moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jarayonida faqat tabiatni o'zgartiribgina qolmay, balki o'zlarini ham o'zgartiradilar, ishlab chiqarish jarayonida insoniy sifat va fazilatlarini takomillashtiradilar. Mehnat jamoalari insonning sotsiallashtirishida muhim institut sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy falsafa mehnatga iqtisodiy kategoriya sifatida emas, balki sotsial kategoriya sifatida qaraydi.

Ijtimoiy falsafa ijtimoiy hayotning barcha sohalarini (ishlab chiqarish, ta'lim, tarbiya, siyosat, huquq, axloq, din, fan, falsafa, mafkura va h.k.) ga insonning sotsiallashtirishini, ya'ni insondagi insoniylik, ijtimoiylik, ilohiylikning qay darajada namoyon bo'lishi nuqtai nazaridan yondashadi, ana shu jihati bilan huquq falsafasi, fan falsafasi, din falsafasi, iqtisodiyot falsafasi, inson falsafasi, axloq falsafasi va boshqalardan ajralib turadi. Zero, «ijtimoiylik» tushunchasida inson va u mansub bo'lgan jamiyatning tub mohiyati o'z ifodasini topgandir. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiyot ham, siyosat ham, fan ham va hokazo oxir oqibatda insondagi insoniylikni to'laroq ro'yobga chiqarish uchun yo'naltirilishi kerak. Ijtimoiy falsafaning barcha ijtimoiy fanlar uchun metodologik asos ekanligi ham shu bilan belgilanadi.

Jamiyatni yaxlit tizim sifatida o'rganish. Jamiyatni o'rganishga turlicha yondashish mumkin, shularning birinchisi **tizimli yondashuv**dir. Bunda ijtimoiy tizim elementlari bir-biri bilan uzviy bog'liq deb qaraladi, ular o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalari va ichki qonuniyatlarni o'rganishga alohida e'tibor beriladi.

Tarixiy yondashuvda jamiyat hayotida ro'y beradigan hodisa hamda jarayonlar o'zgarish va rivojlanish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ijtimoiy tizim tarkibiga kiruvchi har bir element boshqa elementlar bilan uzviy aloqadorlikda o'rganiladi. Zero ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishda ularni tarixiy asosdan sun'iy ravishda ajratib olish mumkin emas.

Ijtimoiy hodisa va jarayonlarning rivojlanish manbaini tashkil etuvchi ziddiyatlarni aniqlash hamda tahlil qilish ijtimoiy falsafaning muhim vazifalaridan biridir. Shu bilan birga ijtimoiy hodisa va jarayonlarni tarixiy vorisiylik nuqtai nazaridan o'rganish, taraqqiyotga halaqit berayotgan konservativ, reaksiyon hodisa va jarayonlarni aniqlash, jamiyat rivojlanishini tahlil qilishda mavhumlikdan aniqlikka va aksincha qarab borish ham mazkur fanga xosdir.

Ijtimoiy falsafa yuqoridagi tamoyillardan kelib chiqib boshqa fanlar singari ob'ektivlik, tarixiylik, konkretlik, mantiqiylik tamoyillariga amal qiladi.

Ijtimoiy falsafaning maqsadi jamiyat va insonni uzluksiz o'zgarib, rivojlanib boruvchi tizim sifatida o'rganish, ijtimoiy taraqqiyotning mazmun-mohiyati, shakl va ko'rinishlari, qonunlarini o'rganishdan iborat. U boshqa fanlar bilan, ayniqsa falsafa tarkibidagi **ontologiya, gnoseologiya, metodologiya, antropologiya** ta'limotlari bilan bevosita bog'liqdir.

Ijtimoiy falsafa borliq falsafasi, ontologiya ta'limoti bilan bevosita bog'liq. Falsafa borliqni bir butun yaxlit olam sifatida olib o'rganadi. Ijtimoiy falsafa borliqning o'ziga xos ko'rinishi, ijtimoiy borliq, ya'ni jamiyat, uning mohiyati, qonuniyatlarini, insonning jamiyatga munosabatini o'rganadi.

Ijtimoiy falsafa gnoseologiya (ilmi) bilan bevosita bog'liq. Falsafa olamni bilishga daxldor muammolar bilan shug'ullansa, ijtimoiy falsafaning diqqat markazida jamiyatni bilish muammolari turadi. Falsafa ob'ektiv olamning inson ongida aks etish masalalari, olamni bilish muammolari bilan shug'ullansa, ijtimoiy falsafa ijtimoiy hayotning inson ongida aks etish muammolarini o'rganadi va inson ongi jamiyatga «qanday munosabatda?», «Inson o'z ongi bilan jamiyatni bila oladimi?» degan savollarga javob izlaydi.

Falsafada olamni bilish yo'llari, usullari ishlab chiqilgan va bu metodologiya (usullar haqidagi ta'limot)da o'z ifodasini topgan. Ijtimoiy falsafa inson va jamiyatni o'rganish yo'llari, usullari haqida bahs yuritadi.

Ijtimoiy falsafa jamiyatga o'z-o'zini tashkillashtiruvchi uzluksiz taraqqiy etib boruvchi ijtimoiy organizm sifatida qaraydi. Ayni chog'da ma'lum tarixiy davrlarda ba'zi jamiyatlar va sivilizatsiyalar tanazzuli sabablarini ham tahlil etib, tarixiy xotirani shakllantiradi.

Falsafa fanining o'ziga xos tushunchalari va kategoriyalari mavjud. Masalan: borliq, makon va zamon, informatsiya, ong, sun'iy aql, sabab, oqibat, zaruriyat, tasodif, imkoniyat, voqeilik, mohiyat, hodisa, mazmun, shakl, ayrimlik, xususiylik, umumiylik, metafizika, dialektika, sofistika, sinergetika, ziddiyat, miqdor, sifat va boshqalar. Ta'kidlash lozimki, ba'zi bir tushuncha va kategoriyalar faqatgina bir fanning kategoriyalari

bo‘libgina qolmay, bunday kategoriyalar bir necha fanlarning asosiy kategoriyalar tizimiga kiritish mumkin. Masalan: inson, harakat, makon, zamon, jamiyat, siyosat, mafkura, din, ong, axloq, huquq va boshqalar shular jumlasidandir.

Falsafa va ijtimoiy falsafa uzviy birlikda va dialektik aloqadorlikdadir. Bu aloqadorlikda falsafa fani umumiylikni ifodalaydi, ijtimoiy falsafa esa ana shu umumiylik doirasidagi ayrimlik, xususiylkdir. Ijtimoiy falsafa umuman falsafiy bilimlar bilan birgalikda barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning metodologik asosi hisoblanadi.

Ijtimoiy falsafa sotsiologiya, tarix, antropologiya, psixologiya, etnografiya, iqtisodiy nazariya kabi fanlar bilan uzviy birlik va aloqadorlikda rivojlanib kelmoqda. Ijtimoiy falsafani antropologiya bilan ayniylashtirish yaramaydi. Ijtimoiy falsafa uchun insonning o‘zi emas, balki undagi insoniylik (ijtimoiylik) muhimdir. Holbuki, antropologiya insonni ayni bir vaqtda ham biologik, ham psixologik mavjudot sifatida o‘rganadi. Ijtimoiy falsafa uchun insonning asosiy ijtimoiy sifatlari, uning hayoti va shu orqali ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilash muhimdir.

Ijtimoiy falsafa sotsiologiya bilan bog‘liq. Ijtimoiy falsafa sotsiologiyadan o‘z predmeti, tushunchalari, bilish usullariga ko‘ra tubdan farq qiladi. Ijtimoiy falsafa-umumbashariy falsafaning tarkibiy qismi, yaxlit jamiyat to‘g‘risidagi ta‘limot, empirik tadqiqotlar va ilmiy faktlarga tayanib, konkret jamiyat to‘g‘risida aniq tushunchalar beradi.

U sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning xulosalari, yutuqlariga tayanib, jamiyatning umumiy manzarasi, ijtimoiy borliqning o‘ziga xos taraqqiyot qonunlari to‘g‘risida umumiy tasavvurlar hosil qilishga imkon yaratadi. Ijtimoiy falsafa jamiyatning eng umumiy muammolari ustida bahs yuritsa, sotsiologiya jamiyatning aniq muammolarini tadqiq etishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy falsafa nafaqat jamiyatni tadqiq etish bilan, ayni paytda jamiyat to‘g‘risidagi fanlarning yutuqlariga tayangan holda ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashni shakllantirish bilan ham mashg‘uldir. Uning tushunchalari (jamiyat, ijtimoiy borliq, ijtimoiy munosabatlar, industrial jamiyat, postindustrial jamiyat, xalq, millat, shaxs va h.k.) hayotda ko‘p

qo'llaniladi. Ushbu tushunchalar umumbashariyligi va teran mazmundorligi bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy falsafa barcha ijtimoiy va gumanitar fanlarga, xususan, sotsiologiyaga yo'nalish beradigan metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy fan vakillarining e'tiborini ijtimoiy organizmning normal faoliyat ko'rsatishida, har bir a'zo (element)ning qanday rol o'ynashiga, ijtimoiy taraqqiyotning bosh maqsadi nimadan iborat ekanligiga qaratadi. Ijtimoiy falsafa jamiyat hayotining moddiy, ma'naviy, siyosiy, huquqiy, madaniy, badiiy-estetik, ekologik, etnik, milliy, demografik jihatlariga alohida e'tibor beradi.

Ma'lumki, biron-bir ijtimoiy fan jamiyat hayotida ro'y berayotgan barcha hodisa va jarayonlarni to'laligicha qamrab ololmaydi. Ijtimoiy falsafa jamiyatni bilishda faqat fan xulosalarigagina emas, balki badiiy adabiyot, san'at, din, siyosat, mafkura sohasida erishilgan yutuqlarga ham tayanadi. Hozirgi paytda ijtimoiy falsafada xilma-xil oqimlar va maktablar vujudga kelganligining boisi ham ana shunda.

Ijtimoiy falsafa jamiyatda ro'y berayotgan jarayon va hodisalarning tub mohiyatini to'laroq aks ettirib, ijtimoiy amaliyotdan uzilib qolmasagina qadr-qimmatga, ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'ladi.

Shuningdek, ijtimoiy falsafa boshqa ijtimoiy fanlar: iqtisodiyot nazariyasi, politologiya, tarix, huquq, statistika kabi fanlar bilan yaqin aloqadadir. U mazkur fanlardan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

a) ijtimoiy hayotni yuqori darajada tahlil qiladi, mavhum tushunchalar, qonunlar va tendensiyalarni ochib beradi, o'z xulosalarini umumiy nazariya shaklida umumlashtiradi;

b) konkret ijtimoiy fanlar uchun ijtimoiy hodisalarni bilishda metodologik asos hisoblanadi;

s) jamiyat rivojlanishining umumiy qonunlari va tendensiyalarini o'rganadi, u tarixiy taraqqiyotning umumiy nazariyasi hisoblanadi.

Ijtimoiy falsafa tarixni anglashning metodologik asosi hisoblanadi. Tarix muammolarini hal qilish chuqur falsafiy tahlilga suyanadi.

Ijtimoiy falsafaning funksiyalari. Ijtimoiy falsafaning jamiyatdagi o'rnini qanday? Bu savolga javob berish uchun avvalo falsafaning funksiyalari eslashimiz, shundan kelib chiqib, ijtimoiy falsafaning quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

a) ijtimoiy falsafaning **dunyoqarash funksiyasi**. Dunyoqarash – insonni assimilyatsiya qilish va o‘zgartirishning boshlang‘ich nuqtasi va faol ma’naviy omilidir. Murakkab ma’naviy hodisa sifatida dunyoqarash e’tiqodlar, ideallar, maqsadlar, xulq-atvor motivlari, qiziqishlar, qiymat yo‘nalishlar, bilish tamoyillari, axloqiy me’yorlar, estetik qarashlar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Dunyoqarashning barcha elementlari nafaqat jismoniy shaxslarning, balki ijtimoiy guruhlar, sinflar, millatlar, umuman jamiyat ma’naviy ko‘rinishi va hayotiy pozitsiyasi ularning umumiyligini belgilaydi;

ijtimoiy falsafa xuddi falsafa kabi insonning jamiyat haqidagi ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi. Albatta inson dunyoqarashini shakllantirishda barcha bilim sohalari qatnashadi. Lekin ijtimoiy falsafa yaxlit ta’limot sifatida insonda jamiyat, insonning jamiyatdagi o‘rni haqidagi bilimlarining shakllanishiga yordam beradi, unga jamiyatda ro‘y beradigan turli ijtimoiy jarayonlarga o‘z ongli munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi;

b) ijtimoiy falsafaning **ontologik funksiyasi**. Ontologik funksiya – falsafaning "mavjudlik", "materiya", "tizim", "determinizm", "rivojlanish", "zaruriyat va tasodif", "imkoniyat va voqelik" va boshqa kategoriyalari orqali dunyoni tasvirlash usulidir. Falsafa barcha fanlarning yutuqlaridan keng foydalanadi, dunyoni tasvirlash, umumlashtirishga intiladi. Ontologik funksiya, dunyoning ilmiy-falsafiy manzarasini yaratishda zamonaviy ilmfan yutuqlaridan foydalanadi va ularni umumlashtiradi;

v) ijtimoiy falsafaning **gnoseologik funksiyasi** – jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari va tendensiyalari, shuningdek yirik ijtimoiy guruhlar darajasidagi ijtimoiy jarayonlarni eng ko‘p tadqiq qilish va tushuntirishdan iborat;

g) ijtimoiy falsafaning **ijtimoiy-madaniy funksiyasi**. Ijtimoiy falsafa, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, jamiyatni yaxlit organizm sifatida uning barcha tarkibiy qismlarining aloqasi va roli (iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy tuzilish, madaniyat va boshqalar)ni, jamiyatni o‘zgarishi va rivojlanishidagi ob’ektiv va sub’ektiv omillarning o‘rni, jamiyat rivojlanishining tarixiy bosqichlarini, insoniyat sivilizatsiyasi, madaniyatning ko‘p qirrali munosabatlari va insonning jamiyatdagi o‘z o‘rni va o‘z-o‘zini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini anglash, zamonaviy

voqealar rivoji hamda global paydo bo'lishi muammolari va istiqbollari o'rganadi;

d) ijtimoiy falsafaning **metodologik funksiyasi**. Ijtimoiy falsafa jamiyat tizimi va rivojlanishidagi umumiylik va ayrimlik o'rtasidagi yechimni topish, ijtimoiy hayot sohalarining o'rnini ko'rsatib berish, inson borlig'i va mohiyatini yoritishda, insoniyat tarixining mohiyatini tushuntirib berish bilan boshqa ijtimoiy fanlar uchun o'ziga xos metodologik asos vazifasini bajaradi. Ijtimoiy falsafaning metodologik funksiyasi deganda, ijtimoiy falsafaning jamiyatni ilmiy anglash metodlar haqidagi fan ekanligi nazarda tutiladi. Falsafa tarixida olamni, shu jumladan jamiyat va insonni bilishning ikkita asosiy metodi: **dialektika** va **metafizika** shakllangan. Ijtimoiy hayotni o'rganishda dialektika va metafizikaning o'ziga xos o'ri bor:

- agar dialektika ijtimoiy hayot hodisalarini o'rganishda, ular orasidagi eng umumiy universal aloqadorliklarga e'tibor berishni taqozo etsa, metafizika jamiyatning har bir tarkibiy qismini alohida holatda olib o'rganadi;

- agar dialektika ijtimoiy hayot va insonni pastdan yuqoriga, soddadan murakkabga qarab borayotgan jarayon sifatida o'rganishda taraqqiyot tamoyilidan kelib chiqsa, metafizika esa taraqqiyotni faqat miqdoriy o'zgarishlar sifatida talqin etadi;

- agar dialektika olamning barcha ko'rinishlari kabi jamiyat va inson olamining mohiyatida ham ziddiyatlar amal qilsa, ziddiyatlarning birligi va mutanosibligi jamiyat va inson mavjudligida namoyon bo'ladi, ayni vaqtda ziddiyatlar orasidagi munosabat taraqqiyotga olib boradi, deb bilsa, metafizika jamiyatdagi ziddiyatlar, ularning o'zining qarama - qarshi tomoniga og'ib ketishini e'tibordan soqit qiladi.

Ijtimoiy hayotga ilmiy munosabatlarni qaror toptirishda sinergetika metodining ham o'ziga xos o'ri bor. Bu metod yo'qlik (xaos)dan qanday qilib odam paydo bo'lgani va jamiyat o'zidan-o'zi shakllanganini anglab olishga aniqlik kiritadi. Bunda tabiat va jamiyatda bifurkatsiya hodisasi borligi nazarda tutiladi. Unga ko'ra, tasodiflar o'zidan-o'zi yig'ilib, muayyan miqdoriy parametrlar chegarasida qonuniy aloqadorliklarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Jamiyat rivoji va tanazzulida inson omili

muhim rol o‘ynashini nazarga olsak, sinergetika metodi tamoyillariga tegishli «amal qilish, bifurkatsiya» hodisasini nazarda tutish muhimdir;

ye) ijtimoiy falsafaning **insonparvarlik funksiyasi** yetuk va barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladi. Eng qadimiy davrlardan falsafani inson, uning mohiyati, qadr-qimmatini masalalari qiziqtirib kelgan. Aslida falsafa inson hayotining ma’nosini o‘ylashdan boshlangan. Ijtimoiy falsafa «Odam va olam» muammosini hal qilishga yordam beradi;

yo) ijtimoiy falsafaning **bashorat funksiyasi**. Ijtimoiy falsafa ijtimoiy jarayonlarni ilmiy boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘lda ijtimoiy taraqqiyot qonunlaridan kelib chiqib, ijtimoiy jarayonlar tendensiyasi (mayli) va istiqbolini, kelajakni anglash, ilmiy bashorat qilish imkonini beradi. Umuman olganda, ijtimoiy falsafaning bashorat qiluvchi funksiyasi ijtimoiy hayot va inson rivojlanishining umumiy tendensiyalari to‘g‘risidagi farazlarni yaratishdan iborat.

j) ijtimoiy falsafaning aksiologik yoki **qadrlash funksiyasi** - har qanday ijtimoiy-falsafiy konsepsiya o‘rganilayotgan ob’ektni baholashni o‘z ichiga oladi. Aksiologik funktsiya bu inson hamma narsaning o‘lchovi degan yondoshuvga asoslanib, uning barcha harakatlari, ishlari, kashfiyotlar, ixtirolar, ob’ektiv dunyoni yaratishi va boshqa natijalarini "yaxshilik" va "yomonlik" axloqiy kategoriyalari nuqtai nazaridan qadrlashda namoyon bo‘ladi;

z) ijtimoiy falsafaning **pedagogik-didaktik funksiyasi**. Ushbu funktsiya insonni tarbiyalashda, yuksak insoniy, axloqiy xislatlarni shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Insonni shakllantirish va rivojlantirish unda falsafiy fikrlash madaniyatini qaror toptirishni ham nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy falsafa bir qator muhim vazifalarni bajaradi, jamiyat va inson hayotini tartibga solish, boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, hozirgi sharoitda, Taraqqiyot strategiyasida maqsad qilib qo‘yilgan "ma’rifatli jamiyat" konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda ijtimoiy falsafaning o‘rni beqiyosdir.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ijtimoiy falsafaning bahs mavzusi, predmeti, ob’ekti va tadqiq etadigan muammolari to‘g‘risida gapirib bering.
2. Ijtimoiy falsafaning fan sifatidagi bahs mavzularini nimalardan iborat?

3. Ijtimoiy falsafa qanday tayanch tushuncha va kategoriyalarga ega?
4. Tarixiy yondashuvning mazmun-mohiyatini ochib bering.
5. Falsafa va ijtimoiy falsafa o‘zaro uzviy bog‘liqligi tahlil etib bering.
6. Ijtimoiy falsafaning sotsiologiya fani bilan bog‘liqligi va farqlari nimalarda namoyon bo‘ladi?

2-MAVZU. IJTIMOIIY FALSAFANING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

Reja:

1. Jamiyat hayotini tahlil qilishda umumiy metodlarni qo‘llashning o‘ziga xos jihatlari: dialektika va sinergetika.
2. Ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishda tarixiylik tamoyilining ahamiyati.
3. Ijtimoiy falsafaning metodologik funksiyasi. Konkret-sotsiologik tadqiqotlar va ijtimoiy hodisalarni bilishda ularning ahamiyati.
4. Jamiyatning tizimli yondashuv nuqtai-nazaridan talqini.

Tayanch tushunchalar: metod (usul), metodologiya (uslub), dialektika, sinergetika, tarixiylik tamoyili, konkret-sotsiologik tadqiqotlar, tizimli yondashuv, funksiya, ijtimoiy tizim.

Jamiyat hayotini tahlil qilishda umumiy metodlarni qo‘llashning o‘ziga xos jihatlari: dialektika va sinergetika. Bashariyat XXI asrga ilmu ma’rifat, texnologiya va innovatsiyalar beqiyos darajada rivojlangan holatda kirib keldi. Inson tafakkurining qudrati jamiyat hayotining barcha sohalarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. 2021 yili 580 yillik tavallud ayyomi jahon bo‘ylab keng nishonlangan, millatimizning faxri bo‘lmish Hazrat Alisher Navoiy aytganidek,

"Har neki qilmish odamizot,

Tafakkur birla bilmish odamizot".

Ko‘p ming yillik taraqqiyot mobaynida inson tafakkuri bir necha qonunlar va shakllarga ega bo‘ldi, olamni bilish uchun yuzlab usul va vositalar yaratdi. Falsafa ham olamni bilish, inson hayotining mazmuni va mohiyatini anglash uchun o‘ziga xos metod va yondashuvlar ishlab chiqqan.

Ilmiy falsafa dunyoni nazariy bilish vazifasini bevosita emas, ko‘proq bilvosita amalga oshiradi. Faylasuf biror laboratoriyaga kirib yoki tajriba maydonchasida o‘tirib ta’limot yaratmaydi. U moddiy va ruhiy

olamni, uning turli tomonlari va xususiyatlarini o'rganadigan maxsus fanlar yutuqlariga tayanadi. Falsafa matematika, fizika, astronomiya, ximiya, biologiya, geologiya va boshqa yuzlab shunday fanlar bergan ma'lumotlarni umumlashtiradi, "qaymog'ini" oladi. Bu ilm sohasi kundalik hayot tajribalari, oddiy kuzatuv va mushohadalardan ham oziq oladi.

Har bir fanda bo'lgani kabi, falsafada ham o'zining metodlari, ya'ni bilish usullari bor. Ularga yaqin-yaqinlargacha dialektika va metafizika, sofistika va eklektika kiritilar edi. Keyingi yarim asrda sinergetika metodi jadal rivojlandi va juda ko'p jumboqlarni hal etishga ko'maklashdi.

Dialektika – yunon tilida bahslashuv, munozara yuritish, suhbatlashuv san'ati ma'nolarini ifodalaydi. «Dialog» so'zining o'zi esa ikki kishining suhbatini ma'nosini bildiradi. Falsafiy bahs yuritish san'ati sifatida dialog qadimgi yunon faylasufi Suqrot tomonidan juda mahorat bilan amalga oshirilgan. Ushbu dialoglarda yutuvchi tomon ham, yutqazuvchi tomon ham bo'lmagan. Chunki bahs yurituvchilarning maqsadi – haqiqat izlashdan iborat bo'lgan. Shu ma'noda yutuvchi tomon kibrilanmagan, yutqazuvchi tomon ham alamzada bo'lmagan. Bahs yuritilgan masala yechimini topishidan ikki tomon ham birdek manfaatdor bo'lgan. Tomonlar bir-birining fikridagi noaniqlik, bir yoqlamalik yoki yuzakilikni topishda o'zaro yordam bergan. Dialoglar jarayonida borliq haqida tobora aniq, chuqur, ilmiy tasavvur shakllanishi asosiy muddao hisoblangan.

Yillar o'tib, mustaqil metod sifatida shakllangach, dialektika tushunchasi ikki ma'noda qo'llanildi:

- a) falsafiy bilim hosil qilish usuli sifatida;
- b) umumiy aloqadorlik to'g'risidagi ta'limot sifatida.

Dialektika bilish uslubi sifatida tafakkurdagi qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni yechish orqali haqiqiy bilimni kashf etish mahoratini anglatadi.

Ta'limot sifatida esa, dialektika borliqdagi barcha narsa va hodisalar, shu jumladan bilimlardagi eng umumiy bog'lanishlar, ular rivojlanishining yalpi umumiy qonunlari va hokazo haqidagi yaxlit bilim tizimi hisoblanadi.

Zero, bizni qo'rshab turgan bu dunyo cheksiz va murakkab, ko'p qirrali va turfa xildir, xususiyatlariga ko'ra esa, bepoyondir. Bu rang-

baranglikni falsafa maxsus fanlarni jalb etmagan holda qamrab ololmaydi. Falsafaning vazifasi – xilma-xillik asosida yotuvchi umumiylikni, ya’ni olam va odaning mohiyati, inson va tabiatning eng umumiy qonunlarini o’rganadi.

Dialektikaning o’z umumiy qonun va qonuniyatlari, nazariy va amaliy tamoyillari, usullari, asosiy tushunchalari, kategoriyalari mavjud. Bular tabiat hodisalarini xolisona tadqiq etishda, jamiytdagi tub o’zgarishlarni to’g’ri anglab olishda ham muhim o’rin egallaydi. Chunki tabiat, jamiyat va inson ongidagi o’zgarishlar dialektika qonunlariga mos ravishda amalga oshadi.

Shu o’rinda qayd etish lozimki ba’zi bir olimlar va tadqiqotchilar «dunyoga qaysi bir nuqtai nazardan munosabatda bo’lsang – dunyo senga shunday ko’rinadi» degan pozitsiyada turib, o’z fikr-mulohazalarini asoslashga harakat qiladilar. Bu fikr-mulohazalarda haqiqat unsurlari bor, albatta. Masalan, dunyoni tizimli yondashuv asosida yaxlit sistema sifatida, sinergetik tafakkur asosida esa, tartib va tartibsizlik holatini namoyon bo’lish shakli sifatida tasavvur qilish mumkin, degan fikr-mulohazalarida ma’no-mazmun mavjudligini inkor etib bo’lmaydi. Lekin ularning har birida o’ziga xos maqsad, manfaatlarni ifodalagan konseptual yondashuvlar shakllantirilgan. Aynan shunday bahs-munozarali masalalarni fundamental tadqiqotlarni olib borish orqali tartibga keltirib, aniq bir maqsadga yo’naltirish mumkin.

Sinergetika – olamning o’z-o’zini tashkil etishi, makon va zamonda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o’zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog’lanishlari asosida mavjudligini e’tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir.

Sinergetikada murakkab sistemalar o’z-o’zini tashkil qilish jarayonida barqarorlik va beqarorlik o’zaro munosabatini aniqlashtirishga alohida e’tibor beriladi. N.N.Moiseyev fikricha, “...rivojlanish mohiyatini yechishda, bu yo’nalish bo’yicha qarama-qarshi tendensiyalar dialektikasini bilish kalit bo’ladi. Chunki, sistema tashkillanishi murakkablanishi sayin bir vaqtning o’zida rivojlanish jarayoni tezlashuvi va barqarorligi darajasi pasayishiga olib keladi”¹.

¹ Моисеев Н.Н. Логика – систем и развитие природы и общества// Вопросы философии, 1999, №4, стр.-4

Rivojlanish jarayoni o‘z-o‘zini tashkil qilish tamoyili asosida moddiy sistemalarda aksil-entropiyali evolyusiya natijasi sifatida ko‘rinishi mumkin. Bu holat koinotdagi ba’zi jarayonlarning orqaga qaytmasligi bilan bog‘liq. Bu materiyani harakat va o‘z-o‘zini tashkil qilish tamoyili fizikaviy shaklidan boshqa shaklga o‘tish yo‘li bilan sodir bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan ham materiyaga xos o‘z-o‘zini tashkil qilish tamoyili darajalari, borliq suratining fizikaviy strukturasi haqidagi o‘ylarimizga yangilik kiritadi.

Sinergetikaning **asosiy xususiyatlari** quyidagilar:

birinchidan, u falsafada yangi metod hisoblanadi va shunday metod sifatida bir noxiziqlik bilan birga o‘z-o‘zini tashkillashtirish tamoyilini ham yoqlaydi. Bu tamoyillarga ko‘ra, taraqqiyot oldindan belgilab qo‘yilgan muqarrar yo‘ldan ketmaydi, har bir narsa va hodisaning ichki bir xususiyati va tashqi aloqadorligi bo‘ladi, buning negizida rivojlanish doimo yangi va betakror yo‘ldan boradi;

ikkinchidan, sinergetika notirik tabiatga ham o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi va o‘z-o‘zini tashkil qiluvchi sistema sifatida qaraydi. O‘z-o‘zini tashkil qiluvchi sistemalarning eng oddiy ko‘rinishi – bu berk idishdagi suyuflik isitilganda uning iliq va sovuq qatlamlari aralasha boshlaydi. Notirik tabiatda o‘z-o‘zini tashkil qilish jarayoni keng tarqalgan. Bu borliqning rivojlanishi ob’ektiv qonunlar asosida kechishini bildiradi. Ayni paytda, inson uchun haligacha noma’lum bo‘lgan voqeliklarni ochib berishga xizmat qiladi;

uchinchidan, sinergetika yerdagi hayotning kelib chiqishini tadqiq qilib, quyidagi xulosaga olib keladi: biosfera to‘liq o‘z-o‘zini tashkil qiluvchi sistemadir. Tirik tabiatdagi o‘z-o‘zini tashkil qilish jarayonida psixologik regulyatorlar xizmat qiladi, bu esa, notirik tabiatdagi shunday jarayonlardan farq qiladi.

Demak, sinergetika metodi ham, xuddi dialektika kabi, ilmiy bilish taraqqiyotida umumiy asosga ega bo‘lgan usul sifatida shakllangan, hozirda esa yanada takomillashib bormoqda. Shu ma’noda dialektika va sinergetikani yangicha tafakkur nuqtai nazardan o‘rganish uchun ilmiy bilish metodologiyasini ham chuqur o‘zlashtirish kerak bo‘ladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – dialektika va sinergetikani ilmiy bilish

taraqqiyotiga ta'siri, qo'shgan hissasi yoki ilmiy bilish rivojlanishini xolisona tadqiq etishdagi ahamiyatini aniqlashdir.

Metodologik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, dialektika va sinergetika tarixiy-falsafiy ana'nalarini ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berish hozirgi davr falsafiy tafakkur taraqqiyotini ta'minlashda va o'tmishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni to'g'ri tushunishda muhim ahamitga ega. Umuman olganda, sinergetika va dialektika tamoyillarini to'g'ri tushunishda ilmiy bilish mezonlariga muvofiq keladigan jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu esa, shu sohaga oid istiqboldagi izlanishlarni davom ettirishda juda muhimdir.

Falsafiy nuqtai-nazardan qaraydigan bo'lsak, endilikda sinergetika nafaqat dialektik tafakkurga yangi ma'no-mazmun olib kirdi, balki pozitivizm, ontologizm, relyativizm, postmodernizm g'oyalarining o'zgarishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Sinergetikada tabiat, jamiyat, inson, ma'naviy-estetik muhit, informatsion va texnogen faoliyatni yangicha tasvirlash, tahlil qilish, ularni guruhlariga ajratish, kuzatish, talqin qilishga doir integrativ tadqiqot metodlarini aniqlab olish imkoniyati mavjud.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirda dialektika va sinergetikaning texnik, texnologik, axloqiy, umumilmiy va gumanistik xarakterga ega bo'lgan ahamiyati tobora kuchayib bormoqda. Umuman olganda, dialektika va sinergetikaning bir-biri bilan uzviy bog'liq tarzda rivojlanish jarayonida ma'lum bir metodologik ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy g'oyalar va tajribalar sistemasi vujudga kelgan.

Hozirda dialektika va sinergetikaning falsafiy xususiyatlarini ilmiy tushuntirishda xilma-xil qarashlar, yondashuvlar mavjud. Ular esa, o'z navbatida, masalani turli tomondan yoritishga yordam beradi, bir-birini to'ldiradi, xilma-xil fikrlarni umumlashtirishga imkon yaratadi. Bu esa dialektika va sinergetikaning turli rivojlanish bosqichlarini tadqiq etishda, falsafiy tahlil va izohlash chegaralari kengayib, masalaning mazmun-mohiyatini anglash darajasi o'sib borayotganidan dalolat beradi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, sinergetika ham, dialektika ham falsafiy ta'limot sifatida tabiat, jamiyat va tafakkur jarayonidagi o'zgarishlarni tub mohiyatini tushunib yetishda o'ziga xos metodologik ahamiyat kasb etadi. Bunda sinergetika va dialektikani ilmiy-falsafiy

mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunish kerak bo'ladi. Ba'zi bir xorijlik tadqiqotchi olimlar sinergetika va dialektikani mavhumlashgan (abstrakt) falsafiy tafakkur uslubi sifatida ko'rsatishga harakat qilmoqda. Lekin bunday bir tomonlama yondashuv hali o'z ilmiy isbotini topgani yo'q. Sababi sinergetika va dialektikaning falsafiy ta'limot sifatida qadimdan shakllanib kelgan va charxlangan metodologik asosi mavjud bo'lib, uni tubdan o'zgartirish yoki inkor qilish ilmiylik mezonlari, talablariga ham to'g'ri kelmaydi.

Ayni shu ma'noda nafaqat bugungi kunda, balki kelajakda ham sinergetika, kibernetika, sistemali yondashuv bilan hamkorlikda falsafa va fanda katta ijobiy o'zgarishlar yasashi mumkin. Buning uchun sinergetikaning ilmiy-tadqiqot doirasini har bir fan sohasi vakili ozmi-ko'pmi bilishi kerak. Bu bilan biz:

birinchidan, insonning bilim faoliyatiga nisbatan sinergetikaning asosiy holatlari, ma'lum shaklda bo'lsa ham yuqori darajada yaqinlashganini bilish;

ikkinchidan, falsafadagi dunyoqarashning dolzarb muammolarini o'z-o'zini tashkil qilish nazariyasi pozitsiyasidan turib tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz;

uchinchidan, sinergetika ijtimoiy hayotning ba'zi sohalarini bashorat qilish va bu borada turli loyihalarni ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Binobarin, biz sinergetikani fanlararo tadqiqot metodi deb, e'tirof etishimiz. Ushbu metod ko'p fanlarning hamkorlik qilishi kerakligini. Bu o'rinda tabiat, jamiyat, dunyoning zamonaviy talablariga javob beradigan ilmiy manzarani yaratishga harakat qilgan turli fan soha vakillarining mehnatlari nazarda tutiladi. Aynan shuning uchun ham biz sinergetikani nafaqat konkret ilmiy metod tadqiqotlari, metodologik sistemalar, nazariy qurilmalar o'ziga xos sintezi, balki ularni postnoklassik fanning yangi o'lchamlariga o'tkazuvchi paradigmadir, deyishimiz ham mumkin.

Sinergetika eski tushunchalarning mohiyatini chuqurlashtirib, o'zgartirib yuboradi. Shuningdek, unda yangi tushunchalar tizimi yaratildi. Ilmiy bilish strategiyasini yangi yo'nalishga burib, olamning yangicha ilmiy manzarasini ishlab chiqishga yordam berdi va tabiatshunoslikning ko'plab fundamental tamoyillarini yangicha tavsiflashga imkon yaratdi.

Bugungi kunda sinergetika o'z-o'zini tashkillashtirish va murakkablikning umumiy nazariyasi sifatida yangi dunyoqarash yo'nalishidir. Sinergetik yondashuvgina shakllanishning umumiy mexanizmini o'rganish imkonini beradi.

Sinergetika fan taraqqiyotining postnoklassik, ya'ni noklassik fandan keyingi bosqichini xarakterlaydi. Falsafiy ma'noda aytganda sinergetik dunyoqarashda borliqdagi sistemalar ochiq sistema sifatida ta'rif va tasnif etiladi. U ilgari surgan tushuncha va tamoyillar hatto noklassik fan nuqtai nazaridan qaraganda ham nihoyatda g'ayrioddiy. Shuning uchun bu ta'limotning o'rganish ob'ekti, predmeti, uning o'rni, mavqei to'g'risida turlicha baholash, turlicha qarash bo'lishi tabiiy.

Rus olimi I.Prigojin «Insonning tabiat bilan yangicha dialogi» degan asarida sinergetika to'g'risida batafsil ma'lumot bergan. Uning fikricha, sistemalar xarakteri, xususiyatlari haqida bu ta'limot kiritgan ob'ekt va hodisalar mavjud. Bular qatoriga attraktorlar, bifurkatsiya, o'z-o'zidan tashkillanish (sinergetikadan oldin ham mavjud bo'lgan, ammo boshqa ma'noda qo'llanilgan), xaos va determinatsiyalangan xaos, nomuvozanat holatdagi ochiq tizimlar, fraktollar, dissipativ jarayonlar va boshqalar kiradi.

Sinergetik nuqtai nazarga ko'ra ta'sirlar tarqaladigan tizim dissipativ tizim hisoblanadi. Umuman olganda, bu flukuatsiyalar to'la qamrab olgan tizimning xususiyatidir. Har xil ta'sirlarga o'ta darajada beriluvchanlik va buning natijasida haddan tashqari beqarorlik dissipativ tizimning asosiy xossasidir. To'plamlarni o'ziga tortuvchi, elementlar intiladigan markazlarni hosil qiluvchi tuzilmani mutaxassislar attraktorlar deb ataydilar. Masalan, bir yerga olomon to'planganida, o'z yo'nalishida harakatlanayotgan alohida odam unga e'tibor bermasdan o'tib keta olmaydi. Uning traektoriyasi olomon tomonga buriladi. Kundalik hayotda bu ko'pincha qiziquvchanlik deb ataladi. O'z-o'zini tashkil etish nazariyasida mazkur jarayon «to'planish nuqtasi tomon siljish» deb nomlanadi. Attraktorlar o'z atrofiga stoxastik elementlarni to'playdi va shu tariqa muhitni tuzilmalarga ajratadi va hamda tartib o'rnatish ishtirokchisiga aylanadi.

Sinergetika ta'limoti va usuli bugun kundagi eng murakkab, o'z-o'zidan rivojlanuvchi tizimlarni o'rganmoqda hamda texnologik rivojlanishning strategiyasini belgilab bermoqda.

Ontologik nuqtai nazardan qaraganda, sinergetika bilan dialektika orasida deyarli farq yo'qqa o'xshab ko'rinadi. Zero, materiya bilangina ish ko'ruvchi hozirgi olim har ikkisinining ham ob'ekti – butun olam, cheksiz koinot deyishi mumkin. Ammo, dialektik tafakkurning buyuk daholari Suqrot, Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino amal qilgan dialektikaning predmeti faqat moddiy olam bilan cheklanmagan, u insonning ichki olami, ruhiyatini ham qamrab olgan. Demak, ularning tafakkur tarzi bugungi sinergetik olim tafakkuridan ancha keng bo'lgan.

Sinergetik olimlar moddiy olamning bir butunligi va unda inson ongining o'rnini yaqinda kashf etishdi. Platonchilar misolida qadimgi faylasuflar esa, har ikki olam dialektikasini bir ko'z bilan qamrab olgan edilar. Shunga qaramasdan, sinergetik metodning va tafakkurning insoniyat ongi evolyusiyasidagi rolini aslo inkor etib bo'lmaydi. Bu tafakkur dialektikaning mavhum ko'ringan juda ko'p g'oyalarni konkretlashtirdi, ratsional asosladi, misollar bilan boyitdi. Agar u shu taxlit rivojlanib borsa oxir oqibat dialektikaga juda yaqinlashib, hatto qo'shilib ketishi ham mumkin.

Hozirgi zamon falsafa va fan taraqqiyoti yangi bilimlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi paradigma va metodlarga katta ehtiyoj sezmoqda. Shu ma'noda sinergetikaning tabiiy-falsafiy va g'oyaviy asoslarini tahlil qilish, muqarrar ravishda, uning falsafa va fan uchun yangi paradigma hamda metodologik asos sifatida namoyon bo'lish xususiyatlari va asosiy tamoyillarini o'rganib chiqishni taqozo etadi. Shuningdek, sinergetikaning o'z-o'zini tashkil qilish nazariyasi ekanligini falsafiy va metodologik jihatdan tahlil qilish uning xususiyatlari va imkoniyatlarini, falsafa va fan taraqqiyotidagi o'rnini to'laroq o'rganish imkoniyatini beradi.

Sinergetika bag'rida fizika, kimyo, biologiya, geologiya va boshqa sohadagi masalalar o'z yechimini va izohini topmoqda.

Shu o'rinda biz sinergetikaning metodologik imkoniyatlariga doir bir qancha qarashlarni mavjudligiga va ular turli fan sohalariga tegishli ekanligiga alohida e'tibor qaratishimiz kerak bo'ladi.

Metodologik jihatdan qaraganda sinergetikaning nohiziqli fikrlash tamoyili noan'anaviy xususiyatga ega bo'lgan falsafiy bilimlar sistemasi asosida yuzaga kelgan. Shu ma'noda sinergetika tamoyillari falsafa va fanning turli sohalarini o'z ichiga qamrab olishi bilan alohida ajralib turadi. Shuningdek, sinergetika okkult (g'ayritabiiy) fanlar, teologik, teosofik qarashlar va shunga o'xshash boshqa noilmiy yondashuvlarni adekvat qabul qilish va to'g'ri baholashga intilishi bilan ham xarakterlanadi.

Hozirgi davrning eng yangi, postnoklassik fani bo'lgan sinergetika ijtimoiy taraqqiyotni qayta anglash masalasida yangi ijtimoiy konsepsiyani ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'ladigan g'oyalarni oldinga surdi, degan fikrlar ham bor.

Ushbu g'oyalarga ko'ra, borliqdagi barcha jarayonlar, xususan, ijtimoiy hayotda tartiblanish va betartiblik (Kosmos va Xaos) kuchlari teng huquqlidir. Lekin, ayni shu g'oyalardan turlicha mafkuraviy nuqtai nazardan turib foydalanish mumkinligi ham ko'rinmoqda. Masalan, Rossiyada bu g'oyadan "ko'p qutbli dunyo" nuqtai nazaridan yondoshilgan bo'lsa, transnatsional korporatsiyalar va AQSh undan o'zlarining "oltin milliard"¹ haqidagi g'oyalarini asoslashda foydalanishga intilmoqdalar. Chunki, bunda gap bilimda emas, balki bu bilimdan kim qanday manfaatni ko'zlab foydalanayotganida. Aksariyat G'arb mamlakatlarida ma'naviyat asosan individualistik, agressiv, aniqrog'i, xudbinlik axloqi mezonlariga asoslangan.

Kembrij universiteti professori, Nobel mukofoti sovrindori marhum Stiven Xoking Yer shari aholisi sonining eksponensial tarzda ortib ketishi oqibatida insoniyat hayoti boshi berk ko'chaga kirib qolganini e'lon qildi. Endilikda, uning fikriga ko'ra, insoniyat oldida ikki yo'l – yo yadro urushi boshlanib hamma halok bo'ladi, yoki insoniyat O'rta asrlar davrida yashagandek yashashga o'tishi kerak. "Lekin men pessimist emasman, shuning uchun fan bu muammoning yechimini topadi, deb o'ylayman"² – degan edi buyuk olim. Xokingning hisob-kitoblariga ko'ra, insoniyat yalpi inqirozi kompyuter texnologiyalari taraqqiyoti tufayli ham sodir bo'lishi mumkin. Ya'ni, uning tushuntirishicha kompyuterlarning intellekti inson

¹ Forum sayta "Organizatsiya vremeni": Taym-menedjerskiy forum: Obratimost vremeni i organizatsiya sebya i deyatelnosti v vechnosti . <http://urss.ru/cgi-in/db.pl?cp=&page=Book&id=38276&lang>

² Qarang: <http://www.smolensk.ru/user/sgma/MMORPH/N-6-html/MAKHNACH/makhnach.html>

intellektidan orqada ekanida xatar yo‘q, lekin keyinchalik uning “miyasi” tobora yaxshi va tez ishlaydigan vaqt keladi. Shunda kompyuter ongi inson biologik ongini boshqarishga o‘tadi. Bu esa insonning “aqli inson” sifatidagi inqirozidir. Buning oqibatida kompyuter planeta hayoti uchun eng muhim barcha manba va vositalarni – energiya, transport, mudofaa, informatsiya va boshqalarni o‘z nazorati ostiga oladi.¹

Sinergetika eski tushunchalarning mohiyatini chuqurlashtirib, o‘zgartirib yuboradi. Shuningdek, unda yangi tushunchalar tizimi yaratildi. Ilmiy bilish strategiyasini yangi yo‘nalishga burib, olamning yangicha ilmiy manzarasini ishlab chiqishga yordam berdi va tabiatshunoslikning ko‘plab fundamental tamoyillarini yangicha tavsiflashga imkon beradi. “Bugungi kunda sinergetika o‘z-o‘zini tashkillashtirish va murakkablikning umumiy nazariyasi sifatida yangi dunyo qarash yo‘nalishidir... Sinergetik yondashuvgina shakllanishning umumiy mexanizmini o‘rganish imkonini beradi²” .

Sinergetika fan taraqqiyotining postnoklassik, ya‘ni noklassik fandan keyingi bosqichini xarakterlaydi. Falsafiy ma‘noda aytganda sinergetik dunyoqarashda borliqdagi sistemalar ochiq sistema sifatida ta‘rif va tasnif etiladi.³ U ilgari surgan tushuncha va tamoyillar hatto noklassik fan nuqtai-nazaridan qaraganda ham nihoyatda g‘ayrioddiy. Shuning uchun bu ta‘limotning o‘rganish ob‘ekti, predmeti, uning o‘rni, mavqeyi to‘g‘risida turlicha baholash, turlicha qarash bo‘lishi fan tarixi jarayonida ajablanarli emas. I.Prigojin asarining «Insonning tabiat bilan yangicha dialogi» deb atalishining o‘zi buning asl ma‘nosidir. Sinergetikaning tizimlar xarakteri, xususiyatlari haqida o‘zi kiritgan ob‘ektlari va hodisalari mavjud: attraktorlar, bifurkatsiya, o‘z-o‘zidan tashkillanish (sinergetikadan oldin ham mavjud edi va boshqa ma‘no-tavsiflarda), xaos va determinatsiyalangan xaos, nomuvozanat holatdagi ochiq tizimlar, fraktollar, dissipativ jarayonlar va boshqalar shular jumlasidandir.

Xullas, birinchidan, sinergetika yangi falsafiy metod sifatida bir nochiziqilik bilan birga o‘z-o‘zini tashkillashtirish tamoyilini ham

¹ Махнач В. Л. «Свет во откровение языков». Очерки православной традиции. — М., 1998

² Abdullayeva M.N. Sinergetika-novye vozmojnosti poznavaniya i deystviya. Sinergetikaning tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolari. (Ilmiy nazariy seminar) tahrir hay‘ati M.N.Abdullayeva va boshq. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Namangan davlat un-ti, O‘zR FA I.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. – Namangan, 2009/ B.26

³ Qarang: D. Bozorov. Sinergetik paradigma., Toshkent- Tafakkur” nashriyoti- 2010.- B.106

yoqlaydi. Bu tamoyillar taraqqiyot oldindan belgilab qo'yilgan muqarrar yo'ldan ketmay, har bir narsaning ichki bir xususiyati va tashqi aloqadorligi negizida doimo yangi va betakror yo'ldan borishini ko'rsatadi. Biroq, ular voqelikning fikriy tuzilishiga asoslangan bo'lishi ham mumkin. Ikkinchidan, sinergetikada notirik tabiatga o'z - o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tashkillashtiruvchi sistema sifatida qaraladi. O'z - o'zini tashkillashtiruvchi sistemalarning eng oddiy ko'rinishi bu berk hajmda isitish oqibatida iliq va sovuq suyuqlik qatlamlarining aralashuv jarayoni bilan izohlanadi. Notirik tabiatda o'z-o'zini tashkillashtirish jarayoni hodisalarining keng tarqalganligi har holda borliq rivojini ob'ektiv qonunlar bilan asoslangan, o'z-o'zini tashkillashtiruvchi jarayon sifatida xarakterlashga yo'l qo'ymaydi. Bu esa inson uchun haligacha nomalum bo'lgan voqeliklarni ochib berishga xizmat qiladi. Uchinchidan, sinergetika yerdagi hayotning kelib chiqishi tadqiqoti shunday xulosa qilishga olib keladiki, biosfera to'liq o'z-o'zini tashkillashtiruvchi sistemadir. Tirik tabiatdagi o'z-o'zini tashkillashtirish jarayoni notirik tabiatdagi shunday jarayonlardan farqli o'laroq psixologik regulyatorlar xizmat qiladi.

Ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishda tarixiylik tamoyilining ahamiyati. Tarixiylik tamoyili – har qanday tarixiy hodisani rivojlanish jarayonida, muayyan vaziyatni hisobga olgan holda o'rganishni talab qiladigan bilim tamoyilidir. Bu tamoyil o'tmish va hozirgi zamon o'rtasidagi farqni aniqlash, tarixiy kontekstga rioya qilish, tarixni jarayon sifatida idrok etishni nazarda tutadigan, ilmiy tarixiy tadqiqotlar jarayonida foydali bilimlarni olishning o'ziga xos usullarini ko'rsatadigan tarixiy ongning asosidir. Tarixiylikning intellektual tendensiya sifatida shakllanishi tarixiy taraqqiyotning siklik tabiati va inson tabiatining o'zgarmasligi konsepsiyasidan rivojlanish jarayonining qaytarilmasligini va uning bosqichlari va davrlari o'rtasidagi sifat farqini tushunishga o'tish bilan bog'liq edi.

Tarixiylik prinsipi hodisa yoki narsaga uning paydo bo'lishidan tortib to shakllanishi va rivojlanishiga qadar o'tgan davrni o'rganishni taqozo etadi. Chunki o'z rivojlanishida ob'ekt bosib o'tgan asosiy bosqichlarni aniqlash orqali unga xos bo'lgan muhim, zaruriy va

qonuniyatli xususiyatlar va aloqalarni, sifatiy va miqdoriy tavsiflarni tushunish va anglash mumkin.

Bu tamoyil muayyan hodisa qanday paydo bo'lganligini, u o'z rivojida qanday asosiy bosqichlardan o'tganligini ochib beradi va uning shunday o'z-o'zidan rivojlanishiga qarab bilish sub'ekti bu hodisa nimaga aylanganligini, shuningdek kelgusida nimaga aylanishi mumkinligini ko'radi. Ob'ektning tarixini tashkil etgan zaruriy qonuniyatli aloqalarni aniqlab, ob'ektning borlig'ini tarixan avj olib boruvchi jarayon deb bilib, tarixiylik falsafiy tamoyildan ongli ravishda foydalanuvchi sub'ekt ob'ektning mohiyatiga chuqurroq tushunib yetadi, uning tuzilishini, mavjudlik qonuniyatini yaxshiroq biladi va binobarin, bilish ob'ektidan o'zining ongli amaliy faoliyatida ijodiy foydalana oladi.

XIX asrda Kont-Spenser tabiatshunosligidan farqli o'laroq, tarixni "tushuntirish qonunlari" orqali ijtimoiy jarayonlarning madaniy va tarixiy haqiqatning individualligi va o'ziga xosligiga e'tibor qaratdilar.

Shu bilan birga, ular zamonaviylikka qiziqish bilan bog'liq holda tarixning asliyatini o'rganishga da'vat qildilar. Tarixiylik tamoyili ilmiy tarixiy bilimlarning o'rnatilishi sifatida XX asrning ikkinchi yarmida postmodern tarixiy epistemologiya doirasida tanqid qilindi. Postmodernistlar tarixiy haqiqat bu biz o'ylaydigan narsadir, ya'ni o'tmish hozirgi zamonning sub'ektiv taqdimoti vazifasini bajaradi, deb hisoblashdi. Postmodern epistemologiyaning munosabatlari uning ilmiy strategiyasini amalga oshirishda tarixiylik tamoyili ta'kidlangan tarixiy tadqiqotlarning neoklassik modeli doirasida tanqid qilindi.

Neoklassik model doirasida tarixiylik tamoyilida quyidagi uchta jihat mavjud:

birinchidan, bu har bir davr inson ruhining o'ziga xos madaniyati va qadriyatlari bilan namoyon bo'lishi, bizning davrimiz va avvalgi davrlar o'rtasida jiddiy farqlar mavjudligini tan olishdir. Shuning uchun tarixiylik prinsipi o'tmish va hozirgi zamon o'rtasidagi farqlarni hisobga olishni, o'tmishdagi odamlar biz kabi tutgan va fikrlaydigan degan tushunchani yengib o'tishni talab qiladi;

ikkinchidan, ularni tarixiy kontekstga singdirish orqali tushuntirishdir. Tarixiylik prinsipi bu jihatdan tarixiy tadqiqotlar mavzusini atrofda muhitdan ajratib bo'lmasligini nazarda tutadi;

uchinchidan, tarixiy voqealarni alohida-alohida, bir-biridan ayro holatda ko‘rib chiqmaslik, balki tarixni jarayon va voqealar o‘rtasidagi bog‘liqlikni vaqt ichida aks ettirishni talab etadi.

Ijtimoiy falsafaning metodologik funksiyasi. Ijtimoiy fanlarning rivojlanishi hodisa va jarayonlarni tadqiq etishning umumiy yo‘nalishlarini belgilashda, uning qoidalaridan dastur amal sifatida foydalanishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning bashorat funksiyasiga ko‘ra jamiyatning rivojlanish istiqbollari oldindan ko‘rish – kishilar faoliyatining bo‘lajak natijalarini ilgaridan bilishga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyat taraqqiyoti mazmunini bilish va taxmin qilish uchun asos yaratadi.

Falsafiy metodologiya chuqurroq egalab borilgani sari ijtimoiy falsafaning funksiyalari yanada to‘laroq namoyon bo‘lib, ilmiy tafakkur madaniyatiga ega bo‘lgan kishilarda izchil va tizimli fikrlash, ijtimoiy hodisa va jarayonlarni dialektik bog‘liklikda o‘rganish qobiliyatini shakllantirib boradi. Har bir kishi, kasbi-kori va ixtisosligidan qat’i nazar, jamiyat to‘g‘risidagi falsafiy bilim va ta’limotlarni chuqur egallash orqaligina tevarak atrofda ro‘y berayotgan ijtimoiy hodisa va jarayonlarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini to‘g‘ri anglash, ularni boshqarish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shunday kishigina bunyodkor va yaratuvchan kuchga aylanishi mumkin. Aynan ana shu tamoyil ijtimoiy falsafaning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyatini belgilaydi.

O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash barobarida, uning faolligini oshirish, ayniqsa yoshlarning buyuk bunyodkor kuchga aylanishi uchun barcha sharoitlar muhayyo qilinmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil yakunlari bo‘yicha Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagilarni ta’kidladi: "Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz. Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar,

Ulugʻbeklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak."¹

Maʼlumki jamiyat toʻgʻrisidagi eng umumiy falsafiy bilimga ega boʻlish jamiyatni bir butun holda idrok etish orqaligina uni ijtimoiy tizim sifatida oʻrganish jamiyatni tashkil etuvchi elementlar faoliyatini muvofiqlashtirishga erishish, uning yaxlitligi va barqarorligini taʼminlashga imkon beradi. Bu esa, barcha ijtimoiy hodisalarning umumiy asosini aniqlash, yaʼni ijtimoiy hayot barqarorligini fundamental mezonlarini belgilash, jamiyatni yaxlit holda saqlab qolish va rivojlantirish uchun asos yaratadi.

Har qanday ijtimoiy fanning gumanitar bilimlar tizimidagi oʻrnini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Xuddi shunday bu fanning ijtimoiy bilimlar va ijtimoiy fanlar tizimidagi oʻrni, roli bahs mavzusi singari masalalarga aniqlik kiritish ayniqsa ijtimoiy falsafaning **sotsiologiya** va **tarix falsafasi** bilan oʻzaro munosabatini aniqlashga alohida diqqat qilish lozim.

Aslida ijtimoiy falsafa ushbu fanlardan oʻz predmeti tushunchalari, bilish usullariga koʻra tubdan farq qiladigan umumiy falsafaning tarkibiy qismi boʻlib ijtimoiy jarayonlar toʻgʻrisidagi tadqiqotlar va ilmiy faktlarga tayanadi, aniq jamiyat toʻgʻrisida aniq tushunchalarga asoslanadi. Shu asnodda u koʻplab ijtimoiy gumanitar fanlarning yutuqlariga tayanib jamiyatning umumiy manzarasi, ijtimoiy borliqning oʻziga xos taraqqiyot qonunlari toʻgʻrisida umumiy tasavvurlar hosil qilishga yordam beradi.

Kishilik jamiyatining paydo boʻlishi, uning mohiyati, insonning ijtimoiy tabiati, jamiyatdagi oʻrni va roli toʻgʻrisidagi mavzular bu fanning asosiy mazmunini belgilaydi. Ushbu yoʻnalishda u jamiyatni tadqiq etish emas, balki jamiyat toʻgʻrisidagi fanlarning yutuqlariga tayangan holda xos dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Jamiyat, inson, ijtimoiy borliq, ijtimoiy munosabatlar, jamiyat hayoti, xalq, millat, shaxs kabi hayotda koʻp qoʻllaniladigan tushunchalar ushbu fanning kategorial tizimini tashkil qiladi. Ijtimoiy falsafa kategoriyalari va tushunchalari umumbashariyligi va teran mazmundorligi bilan ajralib turadi. Har bir xalq, mamlakat yoki maʼlum bir jamiyat taraqqiyoti qanchalik noyob, oʻziga xos va betakror boʻlishiga qaramay, oʻz navbatida

¹ Qarang: <https://sputniknews-uz.com/20221220/shavkat-mirziyoev-30885939.html>

umumbashariylik, umumiylikning muhim belgilarini o'zida mujassamlashtiradi. Ana shu umumiy jihatlar qanchalik to'laroq, yaqqolroq namoyon bo'lishi bilan yaxlit jahon hamjamiyatining shakllanishi, umumiy tinchlik va totuvlikning qaror topishi uchun qulay imkoniyatlar vujudga keladi.

Shu ma'noda ijtimoiy falsafa butun e'tiborini aloxidalikdagi umumiylikka qaratadi, ya'ni ijtimoiy falsafa va sotsiologiyaning nisbati umumiylik va aloxidalikning o'zaro munosabatini anglatadiki, har bir aloxidalikda umumiylik va o'ziga xoslikni ko'rish mumkin.

Konkret-sotsiologik tadqiqotlar va ularni ijtimoiy hodisalarni bilishdagi ahamiyati. Sotsiologik tadqiqotlar - bu ularni keyinchalik amalda o'rganish uchun o'rganilayotgan hodisa yoki jarayon to'g'risida ob'ektiv, ishonchli ma'lumotlarni olishning umumiy maqsadi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan mantiqan izchil, uslubiy va tashkiliy-texnik protseduralar tizimidir.

Muayyan ijtimoiy hodisalar yoki jarayonlarning rivojlanish tendensiyalari to'g'risida ilmiy asoslangan prognozlarni ishlab chiqish maqsadida har qanday amaliy muammolarni hal qilishga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar "amaliy" deb nomlanadi. Birinchi navbatda ilmiy nazariyalarni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar asoslidir. Asosiylari ijtimoiy tendensiyalarni, rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan va jamiyatning murakkab muammolarini hal qilish bilan bog'liq. Amaliy narsalar aniq ob'ektlarni o'rganishga, muayyan ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Sotsiologik tadqiqot usullari va metodlaridan foydalangan holda ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishga yo'naltirilgan tadqiqotlar empirik deb nomlanadi va u qanday maqsadni qo'yganiga qarab ham fundamental, ham amaliy sotsiologiya doirasida amalga oshirilishi mumkin.

Izlanish tadqiqotlari parametrlari jihatidan eng sodda, mazmuni bo'yicha oddiy vazifalarni hal qiladi. Ular tadqiqot muammosi, ob'ekti yoki predmeti kam yoki umuman o'rganilmaganligini bildirganda foydalaniladi. Ular kichik aholini qamrab oladi. Ko'pincha ular chuqurroq tadqiqotning dastlabki bosqichi sifatida foydalaniladi, ularni tadqiqot ob'ekti va predmeti to'g'risida ma'lumot to'plash, farazlarni aniqlashtirish va h.k.

Ta'riflovchi tadqiqotlar o'rganilayotgan hodisalar, jarayonlar to'g'risida nisbatan yaxlit g'oyani yaratish uchun mo'ljallangan. U to'liq dasturga muvofiq, aniq, batafsil vositalardan foydalangan holda, asosan tahlil ob'ekti ma'lum ijtimoiy, kasbiy va demografik xususiyatlariga ega bo'lgan odamlar nisbatan katta jamoat bo'lganda amalga oshiriladi. Tuzilishi bo'yicha protseduralar to'plami izlanish tadqiqotidan ancha murakkabroq.

Analitik - nafaqat ijtimoiy hodisalar va ularning tarkibiy qismlarini tavsiflash, balki ularning paydo bo'lish sabablarini, ishlash mexanizmlarini aniqlash va ularni ta'minlovchi omillarni aniqlashdan iborat.

Sotsiologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan usullarga ko'ra so'rovnoma usuli, axborotni tahlil qilish usuli, eksperiment usuli, sotsiologik kuzatuv va ekspert baholash usuli ajratib ko'rsatiladi. Demak, sotsiologik tadqiqotlar bu nazariy va empirik protseduralar tizimidir.

Jamiyatning tizimli yondashuv nuqtai nazaridan talqini. Hozirgi vaqtga kelib, barcha fan sohalarida tadqiqot ob'ektini chuqurroq o'rganish maqsadida tizimli yondashuv, strukturaviy analiz usullari ishlab chiqildi. Bu usullarning qo'llanilishi ularning qanchalik darajada samarador va istiqbolli ekanligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, tizimli yondashuv usuli o'zining muhimligi, o'rganilayotgan predmet voqea-hodisalardagi barcha aloqadorlik va bog'lanishlarni hisobga olishi bilan alohida ajralib turadi.

Ilmiy bilish o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra ob'ektivlik, nazariy va empirik asoslarga tayanishi bilan xarakterlanadi. Bunda uning turli jihatlarini namoyon etuvchi shakllari g'oya, muammo, gipoteza, nazariyalar muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Fanlararo yondashuv esa ilmiy bilishning integrativ tomonlarini rivojlanishiga fundament yaratishi mumkinligi bilan ham alohida ahamiyatga egadir.

Tizimli yondashuv eski va yangi bilimlarda mavjud kamchiliklar va ziddiyatlarni (qarama-qarshiliklarni) aniqlash va bartaraf etishga, shuningdek ilmiy hamjamiyat tomonidan rasman bekor qilinmagan, ammo eski ilmiy muomalada yo'qolgani tufayli amal qilmay qo'ygan dogmatik bilimlardan tozalashga ko'maklashadi.

Tizimli yondashuv haqidagi tasavvurlar Aristotel, I.Kant, Gegelning yaxlitlik kategoriyasidan boshlangan bo'lsa-da, keyinchalik L.Fon Bertalanfning umumiy tizimlar nazariyasi hozirgi zamon murakkab va

ochiq tizimlarni o'rganuvchi sohalarni shakllanishi katta ahamiyat kasb etdi. Bu esa turli murakkab tizimlar mohiyatini chuqurroq tushunishga asos bo'ldi. Jumladan, o'zining uzoq yillik izlanishlaridan kelib chiqqan holda E.B.Kondilyak «Hatto yuqori tizim ham o'zining qismlarisiz hech qanday ahamiyatga ega emas»¹ degan xulosaga keladi.

Immanuil Kant esa, «Tizim ostida qandaydir ko'p obrazli bilimlarni yaxlit manzarasini bir g'oya atrofida birlashganini kuzatish mumkin» deb yozadi.

Tizimli yondashuv bevosita yangi o'ziga xos ko'rish, o'ziga xos tadqiqot «texnologiyasi»dir, ob'ektning bir butunligi, tashkillanishi, boshqarilishi haqidagi tasavvurlarga yo'naltirishdir»,² - degan ta'rif ham mavjud. Bu tarifga ko'ra, ob'ektni o'ziga xos ziddiyatni anglash, albatta, yangi bilim beradi. Umumilmiy tushunchalar, umumilmiy tamoyillar singari kategoriyalar keng o'rganilayotgan davr edi. Tizimli yondashuv tizimni morfologik nuqtai-nazardan (ya'ni uning ichki tuzilishini tahlil qilish), funksional nuqtai-nazardan (yani tizimning muhit bilan yoki komponentlari orasidagi o'zaro ta'sir faoliyatini tahlil qilish), informatsion holatini (ya'ni uning holat aniqligini va uning o'zgarishini tahlil qilish) imkonini beradi.

Tizimli yondashuv tizimlarning, ularning tabiatidan qat'iy nazar, yashashi va o'zgarishiga, ularning ichki mohiyatiga tegishli qandaydir umumiy tamoyillarini ochib beradi, ularni o'rganishda miqdoriy va mantiqiy metodlarni qo'llash, texnikaviy vositalarni qo'llagan holda modellashtirishga imkon beradi.

Tizimli yondashuv yangi tizimli o'lchamlar, voqelikning yangi, o'ziga xos parametrlarini beradi. Tizimli yondashuvga dunyoqarash tarzidagi universal tamoyil deb qarash, uning yordamida muhim metodologik masalalarni tizimlilik, bir butunlik nuqtai nazaridan qarovchi «umum tizimli nazariya» sifatida baholash ham mavjud edi. «Tizimlarning umumiy nazariyasi, - deb yozadi A.Rapoport, - bu fandagi nazariya atamasi ma'nosida emas, balki dunyoqarash yoki metodologiyadir. Uning nomi aytib turganidek, bu dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati – bu

¹ Кондиляк Э.Б. Трактат о системах, в которых вскрываются их недостатки и достоинства. – М.: 1938.

² Системный подход и психиатрия / Под общ. ред. П. П. Волкова. — Минск: Вишэйшая школа, 1986. - 304

predmetlar va hodisalarning tizimlarning konkret mazmunlaridan emas, balki umumiy xossalardan kelib chiqishidir».

Aslida tabiyotshunoslikning taraqqiyot ehtiyojlaridan kelib chiqqan «tizimlarning umumiy nazariyasi» pozitivizm, mexanisizm va empirizmdan farqli ravishda fanlararo to‘siqlarni yengib o‘tib, predmet va hodisalarning tizimlilikiga, bir butunligiga e‘tiborni qaratdi. Yana bir ilmiy yondashuv – kibernetika bilan birgalikda tizimlilikning integrativ (birlashtiruvchi), boshqariluvchi jihatlarini o‘rganishni old vazifa qilib ko‘rsatdi, biologiya va sotsiologiyada matematika va modellashtirishning o‘rnini kashf etdi.

Tizim boshqa tizimlardan ajralgan holda mavjud bo‘lmaydi. U boshqa tizimlar bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lib, muayyan shart-sharoitlarda yangi, murakkabroq tizimlar tashkil etadi. Bu oxirgilari esa boshqa yaxlit tizimlar bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lib, ular bilan birga yanada murakkabroq tizimlarni tashkil qiladi va ularning elementlariga aylanadi va h.k.¹

Tabiiyki, tizimli yondashuv qanday bo‘lmasin uzil-kesil yechim bermasada, tarixiy va zamonaviy bahs-munozaralarni yagona mantiqiy asosga olib keladi.

Agar “fazo” va “vaqt” uchun muayyan mantiqiy mavqe qabul qilinsa, unda triada(uchlik)ning qolgan tushunchalari uchun talqin qilib bo‘ladigan mohiyatlarni topish zarur bo‘ladi.

Tizimli yondashuv mazmunan fan taraqqiyoti komponentlarining o‘zaro ta’siri muammolariga ko‘proq e‘tibor qaratishni talab qiladi. Tizimli yondashuv fan muammolarining xilma-xilligini, birinchi navbatda, mazmun va shakllari jihatidan, yuqori darajadagi fanlararo aloqalarni rivojlantirish masalalariga ham taalluqlidir.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan ijtimoiy-tabiiy tizim, nafaqat jamiyatni, balki atrof tabiiy muhitni ham shakllantiruvchi va ularning rivojlanish manbasi xizmatini bajaruvchi, o‘ziga xos (spesifik) aloqalar (bog‘lanishlar) jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, I.S.Hoshimova fikriga ko‘ra, ekologiyada tizimli yondashuv yordami bilan murakkab tizim sifatida tabiiy muhit tahlil

¹ Имомалиева. Р.М. Природа связи и формы ее проявления; Дис... д-ра философ.наук.Тошкент.1990. С.238

qilinadi. Bu tizimning turli komponentlari dinamik muvozanatda bo'ladi, odamning tabiiy ekologik tizimlarga o'tkazadigan ta'sirini ochib beradi, odam bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish va ratsionallashtirish to'g'risidagi masalani o'rtaga qo'yadi.¹

Tizimli yondashuvning ontologik tomonlari asosan quyidagilar bilan bog'liq:

- borliqni tizimli yondashuv orqali izohlashda tizim muhim mezon sifatida namoyon bo'ladi. Ontologik ma'noda, tizim borliqdagi narsa va hodisalarning o'zaro aloqadorligi hamda yaxlitligini ifodalashda qo'l keladi;

- borliqni tizimli yondashuv orqali izohlashda struktura ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, borliqdagi aksariyat o'zgarishlar tizim strukturasi tashkillashtirish qobiliyatiga bog'liq. Buni sinergetik yondashuv ham tasdiqlamoqda. Masalan, jamiyat borlig'i bir butun tizim sifatida o'z tuzilishiga ega.

Falsafada tizim tushunchasidan foydalanish borliqning asosini tashkil etuvchi unsurlarni qidirishga chek qo'ydi. XXI asrning boshlarida tizim tushunchasi va u bilan bog'liq bo'lgan tizimli yondashish, yangi umumiy metodologik tamoyil sifatida fanning turli sohalariga tez sur'atlar bilan kirib keldi. Xususan, tilni tizim sifatida olib qarash, tilshunoslikda strukturalizmning paydo bo'lishiga, matematika ob'ektlariga tizimli yondashish turli xil formal tizimlarning yaratilishiga sabab bo'ldi. XXI asr o'rtalaridan boshlab kibernetikaning shakllanishi bilan birga "sistema" uning markaziy tushunchasiga aylandi.

Tizimlarning turli xil shakllarining tabiatini o'rganish, tizimga xos bo'lgan qator umumiy xususiyatlarni aniqlashga imkon berdi. Xususan, hozirgi paytda tizim umumiy holda o'zaro aloqada bo'lgan unsurlarning yaxlit majmuasi yaxlitlik, butunlik-xolizm sifatida tushuniladi. Har qanday moddiy yoki ideal ob'ekt tizim sifatida olib qaralishi mumkin. Tizimda umumiy xususiyat shakllanadi, bu xususiyat tizimning tashkil etuvchi elementlar komponentlarga xos emas. Bu tizimning o'ziga xos xususiyatidir.

¹ Qarang: Xoshimova I.S. Ekologiya problemasida global va zonal munosabatlar dialektikasi. - Toshkent. 1986.- B.102.

Tizim tushunchasi hozirgi paytda butun va qism, tuzilma, informatsiya kabi kategoriyalar bilan birgalikda ilmiy va falsafiy bilishda keng qo'llaniladi.

Tabiatda va jamiyatda ba'zida tarkibiy o'xshash elementlardan tuzilgan bir butun tizimlarning xossalari turlicha bo'ladi. Jumladan, biz ishlab chiqarish munosabatlarini misol qilib olsak, unda uch turli munosabat bor: mulk shakliga doir, faoliyat almashinuvi va taqsimotga doir munosabatlar. Ularning har uchasi ham muhim va qonuniydir. Biroq, ular ichida mulkka (yoki mulk shakliga) munosabat integrallashtiruvchi munosabatdir. Integrallashtiruvchi struktura tizimning yetakchi asosidir.

Struktura tushunchasi. Har bir butun tizimga o'z strukturasi mos keladi. Butun murakkablashib borgani sari, uning komponentlari soni ortib boradi, differentsiallashib borgani sari uning strukturasi ham murakkablashib boradi. Shu ma'noda, yuqori tur jonivorlar strukturasi quyi tur jonivornikiga qaraganda murakkabdir. Struktura tushunchasi barqaror tartiblanganlikni bildiradi.

Strukturada uchta darajani ko'rsatish mumkin:

- a) tizim komponentlarining xossalari orasidagi bog'lanish,
- b) tizim komponentlari xossalari bilan tizimning xossalari orasidagi bog'lanish,
- v) tizimning tizimli integral xossalarining o'zaro bir-biri bog'lanishidir.

Tizim strukturasi uning mohiyatini belgilab, shu sohadagi hodisalarga tegishli qonunlar majmuida o'z aksini topadi. Agar ijtimoiy tizimning strukturasi haqida gap ketayotgan bo'lsa, u faqat kishilarning bir-biriga munosabati tarzida namoyon bo'lmaydi. Jamiyatning turli sohalari – iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy, huquqiy va boshqa sohalaridagi munosabatlar ham struktura elementlari hisoblanadi. Bu ma'noda mamlakatimiz fuqarolarining milliy istiqloq mafkurasini tashkil etuvchi g'oyalarga ijobiy munosabati, diniy ekstremizm, fundamentalizm g'oyalarga salbiy munosabatlari jamiyatimizning tizim sifatidagi tartiblanganligiga katta ta'sir ko'rsatadi va nihoyat, struktura kishilarning iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy, huquqiy jarayonlarga munosabatidir. Shu ma'noda fuqarolarimizning bozor iqtisodi munosabatlariga, o'tish davrida

iqtisodni erkinlashtirish, mulkni xususiylashtirish, ijtimoiy hayotni liberallashtirish, demokratlashtirish jarayonlariga munosabatlari ham jamiyatimiz strukturasi tartiblanganlik darajasini oshirishda katta rol o'ynashi tabiiydir.

Funksiya (ya'ni hayotiy faollik qobiliyati) bir butun tizimga ham, uning komponentlariga ham taalluqlidir. Tizimning funksiyasi uni tashkil qilgan komponentlarning faolliklarining integrallashuvidan yuzaga keladi. Tizimning funksiyalarida uning o'ziga xos bo'lgan qonuniyatlar bilan ifodalanuvchi tabiati namoyon bo'ladi. Mustahkam tizimlar tabiatlariga ko'ra faqat tashqi muhit ta'sirida faoliyat ko'rsatuvchi, ya'ni reaktiv bo'lmay, balki muhitga ta'sir qiluvchi (faol) xarakterda bo'ladi. Biologik, ijtimoiy, texnikaviy tizimlarning maqsadga yonaltirilgan tabiati mavjuddir. Tizimning funksiyalari degani tizimning ana shunday maqsadga yo'naltirilgan faoliyati, faolligi demakdir.

Umuman olganda, tizimli yondashuv - bu o'rganilayotgan ob'ektni tizim tahlili nuqtai nazaridan o'rganishdir. Alohida tarkibiy qismlarning barcha o'zaro aloqalari hisobga olinadi, ularning har birining tizim faoliyatining umumiy jarayonida tutgan o'rni va aksincha, umuman tizimning alohida elementlariga ta'siri aniqlanadi. Tizimli yondashuvning asosiy vazifasi jamiyatning qanday ishlashini tushuntirishdir. Tizim - bu ma'lum bir tartibda buyurtma qilingan, o'zaro bog'langan va o'ziga xos yaxlit birlikni tashkil etuvchi elementlarning to'plamidir.

Ijtimoiy tizim bu yaxlit ta'lim bo'lib, uning asosiy elementi odamlar, ularning aloqalari, o'zaro aloqalari va munosabatlari, ijtimoiy institutlar va tashkilotlar, ijtimoiy guruhlar va jamoalar, me'yorlar va qadriyatlaridir. Ijtimoiy tizimning ushbu elementlarining har biri boshqalar bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ma'lum bir joyni egallaydi va unda o'ziga xos rol o'ynaydi. Ushbu aloqalar, o'zaro ta'sirlar va munosabatlar barqaror va tarixiy jarayonda takrorlanib, avloddan avlodga o'tib boradi. Jamiyatni o'rganish uning elementlarini ularning ahamiyatli prizmasi orqali o'rganishni talab qiladi. Bular butun jamiyatni qayta ishlab chiqaruvchi elementlari bo'lib, nafaqat jamiyatning tarkibiy elementlarining ko'pligini aytib berishi, balki barqaror, takrorlanadigan epizodik, ahamiyatsiz, tasodifiy, ya'ni ajralib turishi kerakligini ko'rsatadi.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Jamiyat hayotini tahlili qilishda umumiy metodlarni qo'llashning o'ziga xos jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Dialektika va sinergetikaning falsafiy xususiyatlarini, ilmiy tushuntirishdagi xilma-xil qarashlar va yondashuvlarni tahlil etib bering.
3. Sinergetikada murakkab sistemalar o'z-o'zini tashkil qilish jarayonida barqarorlik va beqarorlik o'zaro munosabatini aniqlashtirishga alohida e'tibor beriladi. Bu tushunchani misol yordamida tahlil qilib bering.
4. Sinergetika va dialektika orasida qanday farqlar mavjud?
5. Ijtimoiy hodisalarni tahlili qilishda tarixiylik tamoyilining ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
6. Ijtimoiy falsafaning metodologik funksiyasini tariflab bering.

3-MAVZU: SHARQ VA G'ARB SIVILIZATSIYASIDA SHAKLLANGAN IJTIMOIIY - FALSAFIY TA'LIMOTLAR

Reja:

1. Qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlari inson va jamiyatning mohiyati to'g'risida.
2. Qadimgi Hindiston va Xitoy mutafakkirlari falsafiy qarashlarida ijtimoiy falsafiy munosabatlar masalasi.
3. O'rta asrlar, Uyg'onish va yangi davr falsafasida davlat va jamiyat boshqaruviga oid qarashlarning o'ziga xosligi.
4. Yangi davr Yevropa mutafakkirlarining ijtimoiy – falsafiy g'oyalari.

Tayanch tushunchalar: Qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlari inson va jamiyatning mohiyati to'g'risida, Qadimgi Hindiston va Xitoy mutafakkirlari falsafiy qarashlarida ijtimoiy falsafiy munosabatlar masalasi, O'rta asrlar, Uyg'onish va yangi davr falsafasida davlat va jamiyat boshqaruviga oid qarashlar.

Qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlari inson va jamiyatning mohiyati to'g'risida. Ijtimoiy falsafa jamiyat haqidagi falsafiy bilimlarni o'zida mujassamlashtiradi. Falsafa fanining shakllanishi va taraqqiyot tarixi ayni vaqtda ijtimoiy falsafaga ham bevosita daxldor, zotan falsafiy bilimlar eng qadimiy davrlardan boshlab inson va uning olamga

munosabati muammosini o'z ichiga oladi. Falsafa tarixi ayni vaqtda ijtimoiy falsafa tarixi hamdir.

Ijtimoiy-falsafiy bilimlarning shakllanishi va taraqqiyoti antik davr falsafasidan tortib to XXI asrga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Davrda ilgari surilgan falsafiy qarashlar nafaqat olam, tabiat haqidagi bilimlarni, ayni vaqtda jamiyat va inson, insonning jamiyatga munosabati haqidagi bilimlarni ham o'z ichiga qamrab olgan edi. Shundan kelib chiqqan holda ijtimoiy-falsafiy bilimlar odamlar jamiyat bo'lib yashay boshlagan davrlardan shakllana boshlagan, degan xulosaga kelish o'rinli.

Eramizdan avvalgi IV asrdan boshlab Qadimgi Yunoniston va Rim falsafasida jamiyat, inson muammolari tahlil qilingan.

Sokrat (Suqrot) falsafasida inson va jamiyat haqidagi qarashlar. Suqrot falsafasining asosiy mazmuni inson, uning ongi masalalariga qaratilgan. U inson qadr-qimmatini, ma'naviyati, axloqiy go'zalligini tahlil qilar ekan, shaxsning ongi, uning bilish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Suqrot insonning o'zligini bilishi falsafada muhim bo'lib, falsafaning o'rganish ob'ektini tashkil etadi deb ta'kidlaydi. Uning "o'z - o'zingni anglab yet" degan mashhur iborasi falsafiy tafakkur taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega, chunki o'zligini yerga urish, tubanlashish, nodonlikdan boshqa narsa emas. "Donolik o'zini mag'lub etishdan iborat bo'lsa, johillik o'ziga mag'lub bo'lishga olib keladi", degan edi donishmand.

Suqrot o'z fikriy salohiyati bilan haqiqat, adolat haqidagi eski qarashlarni yangicha tahlil qildi. Uningcha, adolat davlat tizimi tomonidan olib boriladigan yaxshilikdir. Suqrot yaxshilik va adolat kabi tushunchalarning mazmunini ochib berishga harakat qildi.

Mutafakkir falsafasining asosida inson, uning hayoti, maqsadi, adolatli jamiyat yotadi. U yaxshilik va yomonlikni odamlar bilan suhbatlashish orqali aniqlash mumkin, dedi. Uning fikricha, falsafa bilimlarni sevish haqidagi ta'limot ekan, ana shu bilimlar inson axloqiy faoliyatini yaxshilikka qaratish asosida namoyon bo'ladi. Inson haqiqatni qancha chuqurroq bilsa, yomonlikka shunchalik kam qo'l uradi. Yomonlik haqiqatni bilmaslik natijasida paydo bo'ladi deb ko'rsatadi. Demak, axloqiy kamolotning manbai ham bilim, ya'ni haqiqatni bilishdir. Yaxshi davlat arbobi adolatparvar hukmdor ham, bilimdon va donishmand bo'lishi

kerakligini aytadi. Bilim va shu asosidagi yaxshilik insonni baxtli qiladi deydi donishmand.

Yunon faylasufi **Platon (Aflotun)** asarlari boshqalar keltirgan qisqa parchalarda emas, balki to'liq saqlanib qolgan. Platonning deyarli barcha asarlari dialoglar shaklida yozilgan (suhbatning ko'p qismini Suqrot boshqarardi), ularning tili va tarkibi yuqori badiiy xizmat bilan ajralib turadi. Uning jamiyat, inson, uning jamiyatga munosabati haqidagi ijtimoiy falsafiy qarashlari jamiyatni ilmiy anglashga yordam bergan.

Platon ideal davlat to'g'risidagi orzulari negizida adolat g'oyasi yotadi. Uning fikricha jamiyat barcha a'zolarining odil jamiyatdagi qonunlariga bo'ysunishi, ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir.

Platon ijtimoiy siyosiy masalalarga doir "Davlat", "Qonunlar", "Siyosat" va "Kritiy" nomli asarlar yozib qoldirgan. "Davlat" asarida jamiyat haqida, uning ideal siyosiy tuzumi to'g'risidagi qarashlarini markaziy ta'limoti g'oyalar nazariyasi bilan uzviy bog'liq holda ilgari surgan. Uning fikricha davlatning to'rt shakli mavjud: teokratiya, aligarxiya, demokratiya, teraniya.

«Davlat» va «Qonunlar» degan risolalarida Platon orzudagidek polis (shahar-davlat) namunasini yaratdiki, unda tabaqalarga bo'linganlik tizimi o'zining quyi tabaqalar faoliyati ustidan jamiyat yuqori tabaqalarining qat'iy nazorati o'rnatilishi orqali sinchkovlik bilan ishlab chiqilgan edi. Polis tepasida bilimga ega bo'lgan kishilar, faylasuflar turishi lozim edi. Platonning fikricha, demokratiyaning beboshligi tufayli polis halokat yoqasida turibdi, negaki, u tabiiy kelib chiqishi jihatidan boshqarishga qobiliyati yo'q odamlarni boshliq qilib, o'rnatilgan tartibni buzdi. Bundan chiqish yo'lini u, polis xilidagi davlatlarga xos bo'lgan dastlabki asoslarni qayta tiklashda ko'rdi. Ular quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bo'ysunish tartibidagi tizimni tashkil etadilarki, unda uchta davlat tabaqasining faoliyat doirasi aniq ajratilgan: hukmdor faylasuflar, harbiylar va yerga ishlov beruvchilar. Har kim o'z ishi bilan shug'ullanadi, davlat esa barcha ish tartibini belgilaydi va hammani nazorat qiladi. Platon fikricha, davlatning farovonligi uning fuqarolarining qanchalik tarbiya topganliklariga bog'liqdir. Platon bunga shunchalik katta ahamiyat beradiki, muayyan yoshga yetgandan keyin bolalarni ota-onalari ixtiyoridan olib, davlat tarbiyasiga berishni tavsiya etdi.

Aristotel (Arastu) falsafiy qarashlarida jamiyatga taalluqli bir qator muammolar ko'tarilgan. Bular: jamiyatning kelib chiqishi, mehnat taqsimoti; qullik, tabaqalanishning kelib chiqishi; ta'lim-tarbiya; iqtisodiy va siyosiy hayot masalalari va hokazolar.

Ayni vaqtda Aristotel qarashlarida jamiyatni falsafiy anglashning ikki asosiy tomoni o'z aksini topgan. Bu, birinchidan, Aristotelning axloqiy ta'limoti va ikkinchidan, davlat to'g'risidagi ta'limoti. Aristotel jamiyatni davlat bilan uzviy birlikda olib qaraydi. Uning fikricha, jamiyatni davlatdan ajratib bo'lmaydi, inson siyosiy mavjudot hisoblanadi. Aristotel qadimiy Yunonistonning 158 shahar davlatlari tarixini tiklashga muvaffaq bo'lgan.

Aristotelning jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limoti "Davlat", "Siyosat" kabi asarlarida bayon etilgan. Uning fikricha, davlat boshqaruvi jamiyatning erkin va farovon hayoti uchun xizmat qilishi lozim. Baxtli hayot mazmuni faqat moddiy mo'l-ko'lchilik bilan belgilanmaydi, balki ma'murlik, ma'naviy boylik bilan uyg'un bo'lgandagina, jamiyat baxtli hayot kechiradi. Davlatning boyligi, asosan, o'rtacha mulkka ega bo'lgan fuqarolarning mehnati bilan ta'minlanadi. Aristotelning bu boradagi qarashlari bugungi kunda Vatanimizda kichik va o'rta biznes sohasini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan islohotlar mohiyatiga juda hamohangdir.

Rimning yirik vakillari Seneka va Mark Avreliy. Ular dunyoviy aql va dunyoviy ruh bilan bog'langan tabiat va jamiyatning yagonaligi haqidagi ravoqiylik qoidalaridan kelib chiqdilar. Har bir odamdagi aqllar-logoslar va ruhlar dunyoviy aql va dunyoviy ruhning emanatsiyasi (o'zidan nur chiqarishi) ekanligini ta'kidladilar. Ular fikricha, kishilar dono va fazilatli odamlar biladigan yagona hukmronlik qiluvchi koinot qonunlari zarurligini idrok etgan holda, ularga ko'ngilli ravishda bo'ysunishlari lozim. Ular yana shu to'g'rida mushohada yuritdilarki, har kim butun narsa qarshisida o'z burchini bajarib, taqdir tomonidan unga belgilab berilgan joyda biror-bir narsani o'zgartirishga intilmasdan, nolishsiz qolish majburiyatini olishi kerak.

Seneka uchun «yaxshi» imperator qanday bo'lishi kerak degan savol katta ahamiyatga ega edi, negaki, imperatorning bo'lishligi zaruriyat hisoblanar edi. Imperator me'yorsiz maqto'vni talab qilmasligi,

fuqarolardan ularning mulkini tortib olmasligi, senat va «yaxshi» odamlar bilan hisoblashishi, o'z bilganicha ish tutmasligi, fuqarolarning umumiy foydasi uchun mehnat qilmog'i zarur ediki, buning evaziga ular unga sadoqat ko'rsatib, uni sharaflashlari lozim edi.

Mark Avreliy nuqtai nazariga ko'ra, dunyoda biror-bir narsani o'zgartirib yoki to'g'rilab bo'lmaydi. Uning ta'kidlashicha, barcha kishilar har doim laganbardor, yolg'onchi va o'z manfaatini ko'zlovchi bo'lganlar, hozir ham shunday va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladilar. Bu tartibsizlik orasida nima qoladi? Faqat o'z zakovatiga xizmat qilish, o'zini kamolotga yetkazish va ezgulik. Ammo bunday o'zini qo'yarga joy topolmaydigan, hayotda hech qanday maqsadi bo'lmagan ezgulik insoniyatga xizmat qilish borasidagi o'z ma'nosini yo'qotar edi. Negaki, insoniyat o'zgarmas va illatlardan holi bo'lmaganligi uchun, uni hech qachon ilhomlantirib bo'lmas edi.¹

Eramizning III asri faylasufi **Plotin** uchun oliy nuqtai nazar bir butun oliy ezgulik ediki, nega deganda u mukammal g'oyalar dunyosini ifoda qilardi. Kurash va baxtsizlik borliqning ko'pligi va uzilganligidan paydo bo'ladi. Ularni bartaraf etish oliy ezgulik bilan qo'shib ketishlikdadirki, unga bilim bilan emas, balki ekstaz (karaxtlik) holati, ya'ni barcha yerdagi narsalarni tark etish, ruhni razolatdan xuddi oltin quymasini unga yopishgan loydan tozalash kabi yo'l bilan erishib bo'ladi. Bu oliy ezgulikni talab qiladi. Ammo Plotin «fuqaroviy» ezgulikni ham rad etmaydi. Bunga erishish uchun har kim o'z burchini dunyo voqealarida vijdonan o'ynashi kerak. Har kim shuni unutmasligi kerakki, dunyodagi yomonlik, rasmdagi soya kabi zarurdir va u o'zining shaxsiy farovonligidan kelib chiqmasdan, balki butun ezgulikdan kelib chiqmog'i lozim. Yomon odamlar hukmronlik qilmoqda, yaxshilar esa azob chekmoqda degan doimiy shikoyatlar bema'nilikdir. Negaki, xudolar yig'layotgan va ibodat qilayotganlarga emas, balki kim mehnat qilayotgan va kurashayotgan bo'lsa, o'shalarga yordam beradilar.

Plotinning ta'limoti keng omma uchun juda ham murakkab edi. Uning o'zi ham uni xoslarga mo'ljallagan edi. Keyinchalik yangi

¹ Qarang: Axmedova M. Falsafa - 2005 yil.- 43 – 50 betlar

aflotunchilik bir qator o'zgarishlarga duchor bo'lib, asosan, sharqdagi shahar ziyolilarining falsafasiga aylandi¹.

Qadimgi Hindiston va Xitoy mutafakkirlari falsafiy qarashlarida ijtimoiy falsafiy munosabatlar masalasi. Eramizdan oldingi VI-III asrlarda Xitoyda, asosan, oltita falsafiy ta'limot (maktab) shakllangan: konfutsiychilik, daosizm, moizm, legizmlar va boshqalar. Xitoy falsafasi Shan (e.o. XVIII-XII asrlar) va Chjou (e.o. XI-III asrlar) dinastiyalari davrida shakllangan. Uning manbalarini mifologik dunyoqarashlar tashkil etgan. Shan dinastiyasi davrida butun olamni yaratuvchi oliy ibtido - ilohiy shandi (Oliy imperator), Chjou davrida esa "Osmonning irodasi" bo'lgan. Xitoy falsafasida inson masalasi: Inson tabiat va koinot bilan bir deb tushunilsada, jamiyatning bir bo'lagi sifatida inson borlig'i markaziy o'rinni egallaydi.

Xitoy falsafasida inson tushunchasi aniq yoritilmaydi, inson mohiyatini aniq tushunchalar bilan emas, balki inson obrazini yaratish va uni o'rganish bilan anglashga intiladi (shuning uchun Xitoy falsafasida inson tushunchasi emas, obraz tushunchalar, nafaqat inson, balki narsalar obrazi haqida gapirish to'g'ri bo'ladi).

Inson hayoti boshlanishini tug'ilishdan emas, balki homilalik vaqtidan hisoblaydi; inson munosabatlari sistemasidan insonning o'limidan so'ng ham olib tashlamaydi, ya'ni inson (uning ayrim material holatga ega ruhi – "shen") o'lganidan so'ng ham insoniy munosabatlar sistemasida qoladi - mehrga muhtoj, avvalgi mansabini saqlab qoladi, u ko'tarilishi, mukofotlanishi mumkin, avlodlarining axloqidan kelib chiqib amaldan olib tashlanishi, jazolanishi mumkin; insonning ma'naviy ruhiy markazi qilib boshni (miya, yuz, ko'z va b.) emas, yurakni belgilaydi, insonni tabiat va koinotning bo'lagi sifatida qabul qiladi. Insonning tabiat va boshqa jonzotlar ustidagi hukmronligini tan olmaydi. Individualizm va bir shaxsning jamiyatning boshqa vakillariga qarshiligi tan olinmaydi; Yerdagi hayotni qadrlashga va uni uzaytirishga harakat qilishga chaqiradi.

Qadimgi Xitoy madaniyati Yerdagi hayotning, jonli va jonsiz tabiatning vujudga kelishining mifologik-falsafiy talqinini beradi, bu jarayon o'z ichiga bir necha etaplarni oladi.

¹ Qarang: Axmedova M. Falsafa - 2005 yil.- 43 – 50 betlar

Qadimgi falsafiy asar “I-Szin” olamning besh elementdan paydo bo‘lishini tushuntirib beradi – yer, daraxt, metall, olov va suvdan, bular doimiy aylanishda bo‘lishadi. Qadimgi Xitoy mifologiyasi va falsafasi olam, inson va tabiatning vujudga kelishining birinchi tushuntirishini berdi, insonni anglash, tabiat hodisalarini talqin qilinishi Xitoyning olamga mashhur falsafa maktablari – daosizm, konfutsianchilik, legizmning yaralishiga zamin yaratdi.

“**Konfutsiylik**”. Uning asoschisi e.o.551-479 yillarda yashab ijod etgan **Konfutsiy**dir. Konfutsiychilik ta’limoti bo‘yicha har bir ijtimoiy qatlamning axloq normalari mavjud bo‘lib, uni o‘zgartirish mantiqqa ziddir. Masalan, boshqaruvchilar toifasiga kirgan kishilar axloq normalarini iqtisodiy kam ta’minlangan ijtimoiy qatlam axloq qoidalariga qarab ishlab chiqishi mumkin emas. Axloq mezonlari kishilarning jamiyatdagi mavqelariga, iqtisodiy ta’minlanganlik darajasiga qarab o‘zgarib, takomillashib boruvchi ijtimoiy jarayondir. Konfutsianchilik – qadimiy falsafiy maktab, insonni ,avvalambor, ijtimoiy hayot qatnashchisi sifatida ko‘rib chiqadi. Asosiy manbasi Lun Yuy («Suhbatlar va mulohazalar») asari.

Konfutsianchilik xususiyatlari. Konfutsianchilik hal etadigan masalalar: insonlarni qanday boshqarish kerak va jamiyatda inson o‘zini qanday tutishi kerak. Mazkur maktab namoyondalari jamiyatni yumshoq boshqarish tarafdorlari. Misol tariqasida otaning o‘g‘illar ustidagi hokimiyati keltiriladi, asosiy shart sifatida esa, boshliqlarning qo‘l ostidagilarga otalik munosabati, qo‘l ostidagilarning esa boshliqqa nisbatan o‘g‘illik munosabati. Konfutsianchilikning jamiyatda insonlar o‘zini tutishining oltin qonuni: o‘zingga ravo ko‘rmagan narsani birovga ravo ko‘rma.

Konfutsiy "Osmon" kategoriyasini tabiat bilan emas, balki eng ,avvalo, inson bilan bog‘liq holda qarab chiqadi. Inson, uning aqliy va axloqiy kamoli va xulqi Konfutsiy falsafasining negizini tashkil etadi. Konfutsiy o‘zining asosiy e’tiborini ideal insonni tarbiyalash (ideal inson - szyun-szi) masalasiga qaratadi: inson o‘z atrofidagi kishilarga va jamiyatga hurmat ruhida tarbiya topgan bo‘lmog‘i kerak, inson jamiyatning funksional elementi bo‘lishi, shunga ko‘ra, u jamiyatga bo‘ysunishi lozim.

Xulq-atvor va tarbiyaning barcha ijtimoiy va axloqiy meyorlari Konfutsiy ta'limotida diniy tartib-qoida tusini oladi. Konfutsiy tartib-qoidada donishmandlik va falsafaning yangi tipini ko'radi. Donishmandlikning mohiyati tartib-qoidaga rioya qilish, falsafaning mohiyati esa uni to'g'ri talqin qilish va tushunishdan iboratdir.

Inson uchun diniy tartib-qoidaning ahamiyatini ta'kidlar ekan, Yerdagi bu ilohiy kuchni Konfutsiy ,avvalambor, an'anaviy xarakterga ega bo'lgan tartib-qoidada ko'radi. Ideal insonni, oliyjanob arbobni tarbiyalashning mohiyatini tushunish uchun Konfutsiy o'z falsafasida "jen" kategoriyasini keng qo'llaydi. Konfutsiy talqinida "jen" tushunchasi turlicha ma'noni ifodalaydi: yaxshi fazilat, oliyjanoblik, insonni sevish, rahm-shafqat va h.k. "Jen" mohiyatini insoniylik tashkil etadi. Insoniylik - bu insonga qo'yiladigan talab. Konfutsiy "jen" kategoriyasini konkretlashtiradi: "O'zingga ravo ko'rmagan narsani birovga ham ravo ko'rmagin", "O'zing erishmoqchi bo'lgan narsada boshqalarga ham ko'mak ber" va h.k.

Konfutsiyning fikriga ko'ra, jamiyatning asosiy bo'g'ini - oiladir. Jamiyatni, davlatni u katta oila, deb tushunadi. Oilada azal-azaldan o'rnatilgan tartib-qoidaga ko'ra – kichiklar kattalarga bo'ysunishi lozim bo'lganidek, davlatda ham kichiklar kattalarga bo'ysunishlari darkor. Oiladagi tartib-intizom qavm-qarindoshlik, urug'-aymoqchilik belgilariga asoslansa, davlatda o'rnatilgan tartib-intizom ko'pincha shaxsning ijtimoiy mavqeiga, jamiyatda egallagan o'rniga qarab belgilanadi.

Qadimgi Xitoy faylasufi Konfutsiyning jamiyatni boshqarish haqidagi fikr-mulohazalarining markazida "Hikmatli zot" turadi. "Hikmatli zot" hukmron tabaqaning ideal namoyondasidir. Bunday davlat arbobi o'zida fuqarolar farovonligini ta'minlay oladigan barcha olijanob fazilatlarni mujassamlashtirmog'i lozim. Konfutsiy o'zining suhbatlarida jamiyat boshqaruv iplarini qo'lida ushlab turgan "Hikmatli zot"ning beshta insoniy xislatlar: burch, adolat, mardlik, urf-odatlariga rioya qilish, bilimdonlik bezab turmog'i lozim, deydi. "Hikmatli zot" fuqarolarga nisbatan muruvatli, xizmat vazifasini sidqidildan bajaruvchi, egallab turgan lavozimidan o'ziga shon-shuhrat orttirish uchun emas, balki jamiyat a'zolari farovonligini ta'minlashga qaratmog'i darkor. Uning hatti-harakatlari ohista va xotirjam, tabiatiga dag'allik va fahmsizlik begona,

kiyinishlari ozoda va o'ziga munosib, jamiyatda o'rnatilgan ma'naviy-axloqiy qoidalarning mohiyatini chuqur anglab yetuvchi, boylik va martabani "taqdir in'omi" deb, ularga atayin intilmaydigan, xayru-saxovatli, lekin isrofgarchilikka yo'l bermaydigan, halollik bobida sobitqadam va duch kelgan guruhga qo'shib ketavermaydigan kishidir. Konfutsiy bunday xislatlar sohibi bo'lgan kishini "Go'zal inson" deb biladi. Jamiyatni, davlatni shunday "Go'zal inson"lar boshqarsa, shubhasiz, unday yurtda farovonlik ta'minlanadi.

Konfutsiy "Himmatli zot" shaxsining antipodini – "Nobakor kimsa" deb ataydi. "Nobakor kimsa"ning xatti-harakati, "Himmatli zot"nikiga teskari. U o'z nafsining quli, burch, insof nimaligini umuman bilmaydi. Jamiyatda o'rnatilgan tartib-intizomni makkorlik bilan buzadi. Jamiyatning hukmdori bo'lgan "Osmon o'g'li" xohish-irodasini sezmaydi. Uning bisotida jamiyatning martabali kishilariga, donishmandlariga, olimu-fozillariga hurmat-izzat bo'lmaydi. Eng muhimi o'z qadr-qimmatini bilmaydi, hatto talonchilik qilishdan ham uyalmaydi.

Shunday qilib, Konfutsiy ta'limotida insonning shaxsiy, axloqiy xislatlari chuqur ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan me'yorga aylanadi.

Konfutsiyning e'tirof etishicha, "Hikmatli zot" hasad bilan shug'ullanmasligi, hasadgo'ylar davrasida bo'lmasligi, birovlariga hasad bilan qaramasligi, o'zidan yuqori martabali kishilarga izzat-ikromli, qo'l ostida ishlovchi fuqarolarga muruvvatli, xalqni boshqarishda adolatli, o'z hayotini garovga qo'yib bo'lsada to'g'rilikni himoya qilishi zarur. Mamlakatni boshqarganda, beshta go'zal usulga astoydil amal qilishni va to'rtta holatdan o'zini olib qochishi zarur. Chunonchi, "Himmatli zot" jamiyatni boshqarganda, eng avvalo, isrofgarchilikka yo'l qo'ymasligi; ish paytida talabchan bo'lishi, lekin boshqalarda norozilik uyg'otmasligi; istak-xoxishini ro'yobga chiqarayotganda ochko'zlik qilmasligi; keng xulq-atvorga ega bo'lishi, lekin takabbur bo'lmasligi; hamisha o'zining ulug'vorligi bilan ajralib turishi, lekin atrofdagilarga vajohat solmasligi kerak.

Qadimgi Xitoy mutafakkiri insonda insoniylik xususiyatlarining shakllanishida jamiyatni boshqarib turgan rahbarning muruvvatli bo'lishi katta ahamiyatga ega ekanligiga e'tiborni qaratadi. Muruvvatli rahbar deganda, eng avvalo, xalqqa foyda keltiruvchi yumushlar bilan

shug‘ullanishni; fuqarolarning qobiliyatlariga qarab ish berishni va berilgan ishni o‘z vaqtida bajarilishini talab qilishni; katta va kichik, bosiq va tez odamlar bilan bir xil muomalada bo‘lishni; qarashlaridagi qat’iyatni tushunadi. Bunday xislatlar “Himmatli zot”ni yanada ulug‘vor qilib ko‘rsatadi.

Daosizm. (Xitoycha dao szya - dao maktabi). Konfutsiylik bilan bir qatorda e.o. birinchi ming yillikning ikkinchi yarmida vujudga keladi. Uning asoschilari - Lao szi va Chjuan-szi hisoblanadi.

Bu falsafiy ta’limotning markazida dao (aynan - yo‘l degani) kategoriyasi turadi. Dao bu tabiat, jamiyat, inson xulqi va tafakkurining ko‘zga ko‘rinmaydigan eng umumiy tabiiy qonunidir. Dao moddiy olamdan tashqarida alohida yashamaydi, binobarin, u olamni boshqaradi. Daosizm – Xitoyning qadimiy falsafiy ta’limoti, olamning tuzilishi va mavjudligi (yashashi)ni tushuntirishga va inson, tabiat, koinot yurishi kerak bo‘lgan yo‘lni topishga harakat qiladi. Dao ta’limotida sodda dialektik fikrning elementlari ko‘zga tashlanadi: dao - bo‘shliq va ayni vaqtda bitmas-tugamas narsa; u harakatsiz, ayni vaqtda hamma narsani amalga oshiradi; u sukunatda va ayni vaqtda harakatda bo‘ladi; u o‘z-o‘ziga asos, biroq unda na ibtido va intiho mavjud. Daoni bilish ayni vaqtda umumiylikni, tabiat va uning tuzilishini bilish bilan tengdir.

Legizm (qonunchilar maktabi, yoki Faszya) – Qadimgi Xitoyning boshqa ijtimoiy ta’limoti. Legizm asoschilari - Shan Yan (mil. avv.390 - 338 yy.) va Xan Fey (mil. avv.288 - 233 yy.). Shunday qilib, legizm – kuchli davlat hokimiyati falsafasi.

Legizmning asosiy qoidalari: inson harakatlarining asosiy omili – shaxsiy egoistik qiziqishlar; Davlat (armiya, amaldorlar timsolida) qonunlarga rioya etadigan fuqarolarni rag‘batlantirishi kerak va aybdorlarni shavqatsiz jazolashi kerak; qonuniy va noqonuniy harakatlarni, jazo qo‘llashning belgilovchisi bo‘lib qonunlar xizmat qilishi kerak; qonunlar barcha uchun barobar bo‘lishi va qonun buzilganda oddiy insonlar uchun ham amaldorlar uchun ham bir xil qo‘llanishi lozim; davlat apparati mutaxassislardan tashkil topishi lozim (ya’ni, amallar faqat zarur bilimga ega bo‘lgan va ishbilarmon nomzodlarga berilishi lozim, vorislik bo‘lib o‘tishi mumkin emas); davlat – jamiyatning asosiy tartibga soluvchi

mexanizmi, shunga ko‘ra u ijtimoiy munosabatlar, iqtisod va fuqarolarning shaxsiy hayotiga aralashish huquqiga ega.

Demak, qadimgi Xitoy falsafasi ko‘proq kundalik turmush donishmandligini hal etishga qaratiladi, narsa-hodisalarning tabiiy holatini belgilashga intiladi.

Qadimgi Hind falsafasi aniq ifodalangan diniy xarakterga ega bo‘lgan. Hindistonda falsafiy tafakkur shakllanishining ibtidosi braxmanlar (qohinlar) ta‘limoti bilan uzviy bog‘langan. Braxmanizm o‘z aqidalarida vedalarga asoslangan. “Veda”lar e.o. II-I asrlarda yuzaga kelgan bo‘lib, qadimgi hind ma‘budalariga, xudolarga bag‘ishlangan gimnlar majmuidan iborat (sanskrit - "bilim").

Veda davri (mil. avv. XV – VI asrlar). Vedalar (“bilimlar”) – diniy-falsafiy yozmalar (traktatlar). Vedalardan joy olgan matnlarning barchasi muqaddas kitoblar sanalgan, ularni braxmanlar (e.o. birinchi ming yillik o‘rtalari) talqin va targ‘ib etganlar. Eradan oldingi ikkinchi ming yillikdan to VI asrgacha bo‘lgan muddat veda adabiyotlari davri deb ataladi. Eng qadimgi vedalarni to‘rt to‘plam (sanxit) tashkil etgan: 1. Rigveda - gimnlar to‘plami; 2. Yajurveda - fidoyilik hikmatlari; 3. Samaveda - fidoyilik qo‘shiqlari; 4. Atxarvaveda - iltijo qo‘shiqlari. Ularning falsafiy sharhlari, falsafiy mushohadaga oid qismlari "Upanishad"lar deb nomlandi. Qadimgi hind falsafiy maktablari ikki guruhga bo‘linib, ular Astika va Nastika deb ataladi. Astika guruhiga kiruvchi falsafiy maktablar Vedanta, Sankhya, Yoga, Vaysheshika, Nyaya va Mimansa maktablari "Veda“ning ilohiyligini tan olishadi va bu yozma yodgorlikni haqiqatning yagona manbasi deb bilishadi. Nastika guruhiga kiruvchi maktablar sifatida Chorvaka, Lokayata, buddizm, jaynizm maktablari qayd qilinadi. Karma – inson hayotining, taqdirining belgilanganligi. Karmaning maqsadi – insonni sinovlardan o‘tkazish, uning ruhi komillikka intilishi va eng yuqori ma‘naviy rivojlanishga – mokshaga yetishishiga erishish. Bu maqsadga erishish uchun ruh o‘nlab, yuzlab yer hayotidan o‘tishi mumkin. Moksha – eng yuqori ma‘naviy komillik, unga yetgandan so‘ng ruh evolyusiyasi (karma) tugaydi. Mokshaga erishish (ruhning evolyusion rivojlanishing tugashi). Har bir ruhning yerdagi hayotda erishishi mumkin bo‘lgan eng oliy maqsadi.

«Veda»larning xulosa qismini Upanishadalar (ustoz oldida tiz cho‘kib o‘tirish degan ma‘noni bildiradi) tashkil etgan. Ular falsafa uchun birinchi ahamiyatli bo‘lgan matnlardan tashkil topgan.

Upanishada falsafasining asosiy belgilari quyidagicha: tabiat hodisalari va insonning paydo bo‘lishi, braxman (ma‘naviy ibtido, u ko‘proq xudo) bilan atman - (ruh, alohida jon) o‘rtasidagi munosabat asosida tushuntiriladi; ma‘naviy mohiyat insonda va tabiatda aynandir; bilimlar ikki turga bo‘linadi: sodda bilimlar va oliy bilimlar. Sodda bilimlar ko‘proq va asosan kundalik amaliy hayot bilan bog‘liq bo‘ladi, oliy bilimlar ma‘naviy mutloqlik haqidagi bilim bo‘lib, borliqni yaxlit holda idrok etishni bildiradi.

Ijtimoiy falsafiy bilimlar qadim-qadimdan mavjud bo‘lgan. Dastlabki ijtimoiy falsafiy bilimlar ko‘plab Sharq va G‘arb mamlakatlarida vujudga kelganligi jahon olimlari tomonidan e‘tirof etilgan. Qadimgi Sharq mamlakatlarida (Hindiston, Xitoy, Misr, Xorazm, Baqtriya, Sug‘diyona, Shosh, Afrosiyob) inson va jamiyat, masalalariga alohida ahamiyat qaratilgan.

«**Avesto**» ta‘limoti. Qadimgi yunon donishmandi Pliniy ta‘biri bilan aytganda, «bir million qo‘shiqdan iborat» bo‘lgan «Avesto»da din nazariyasi, amaliyoti bilan bir qatorda Movarounnahr va qadimgi Eron xalqlari tarixi, madaniyatiga oid qimmatli dalillar mavjud.

«Avesto» ta‘limotida Markaziy Osiyo xalqlarining olam, kosmos nur sochuvchi sfera va jannatdan iboratdir, degan tasavvurlari o‘rin olgan: koinot Yer, okean, osmon bilan o‘ralgan. Yer yetti qismdan iborat bo‘lib, turlicha iqlim va yil fasllari bilan bog‘langan. Osmon to‘rt sferadan iborat: birinchisi yerga eng yaqin - yulduzlar (Katta ayiq, Vega, Sirius, Kanopus). Ikkinchisi - Oy, uchinchisi - Quyosh sferasi, to‘rtinchisi - yorug‘lik maydoni yoki jannat sferasi. Oy sferasi olti fazaga bo‘linadi, ularning har biri besh kundan iborat. Yulduzlar, Oy va Quyosh xudo Axura Mazdaning tanasini o‘zlarida gavdalantiradi.

Zardo‘shiylik ta‘limoti diniy shaklda berilgan, kimki Zardo‘sh ta‘limotiga amal qilsa, u yer, suv, yilqi uchun maydon, ayvonli uy, o‘n besh yoshli kelinga muyassar bo‘ladi; kimki o‘z uyida xotini bilan tinch-osoyshta yashasa, ko‘p farzand ko‘rsa, oilasini mehnat qilib boqsa, u pokdomondir.

Zardo'shtiylikda axloqiy ta'limot uch asosga: "ezgu fikr" (gumata), "ezgu so'z" (gukta), "ezgu amal" (gvarishta)ga tayanadi. Ezgu fikr - xudo Axura Mazdaning timsoli, yomon fikr esa yovuzlik timsoli Axrimanning belgisi. Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal - inson butun umri davomida amal qiladigan tamoyillar bo'lib, shu uch xislatga ega bo'lgan halol mehnat sohibi inson oliy haqiqatga erishadi.

Zardo'shtiylikda huquqiy qarashlar ham o'z ifodasini topgan. Kishilarning jamiyatdagi munosabatlarini tartibga solib turuvchi urf-odatlar va axloqiy qoidalar Axura Mazda tarafidan ilohiy qonun darajasiga ko'tarilgan. Huquqiy sohalar jinoyat, fuqarolik, oila, yer-suv huquqi kabilarga ajratilgan. Suv jazosi o'ta shafqatsiz bo'lgan. Jazolashda o't, qizdirilgan temir, qamchidan keng foydalanilgan. Bosh hakam Axura Mazdaning o'zi bo'lgan.

Umuman olganda, hozirgi zamon kishisi ayniqsa biz uchun "Avesto"da madh etilgan umuminsoniy, axloqiy o'gitlar, tabiatni va insonni muqaddas deb bilish, uni asrab avaylash haqidagi ko'rsatmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda shuni taassuflar bilan qayd etish o'rinli, bizning "Avesto" va undagi umuminsoniy axloqiy, huquqiy, ma'naviy va boshqa qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlarimiz haligacha sayoz. Holbuki, bu ulug' meros tarix sinovidan o'tgan, xalqimiz ruhi, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, talab va ehtiyojlariga nihoyatda mos tushadigan dunyoqarashimiz va milliy falsafamizning tamal toshi, eng qadimgi manbalardan biridir. Uni har tomonlama chuqur o'rganish undagi tushuncha va tamoyillarga amal qilish barchamizning mas'uliyatli vazifalarimizdandir.

O'rta asrlar, Uyg'onish va yangi davr falsafasida davlat va jamiyat boshqaruviga oid qarashlarning o'ziga xosligi. X-XI asrlar Sharq davlatchiligida davlat boshqaruv nazariyasini ishlab chiqishni qayta yo'lga qo'yish uchun konseptual siyosiy-huquqiy ta'limotlar yaratilgan davr ekanligi bilan ham ajralib turadi. Bunday turkumdagi davlatchilikka oid manbalar bo'lib, ularni X-XI asr davlat boshqaruvining nazariy-amaliy manbalari namunasi sifatida qayd etish mumkin. Abu Mansur al-Moturidiyning "Maoxiz ash-sharoyi" ("Musaffo yo'l") va "Kitob at-tavhid", Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", "Shaharni o'rganish haqida kitob", "Millat (xalq) va shaharni boshqarish huquqlari

to'g'risida so'z", "Askarlarni boshqarish haqida so'z", "Umumiy boshqarish (siyosat) kitobi", As-Sobiyning "Rusum dar al-xilafa", Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma", al-Movardiyning "Ahkom", "Nasihat al-mulk", "Siyosat al-mulk", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", "Dastur al-vuzaro", "Qonun al-muluk", G'azzoliyning "Nasihat al-muluk" kabi asarlari shular jumlasidandir¹. Bu kabi o'tmishda yashab o'tgan ulug' zotlarning asarlaridagi yuksak ta'limotlarida davlat faoliyatida qonun va tartib ustuvorligi, hukmdorlarning ularga bo'lgan munosabati masalasi eng muhim tamoyil sifatida ilgari surganlar.

Jumladan, Husayn Voiz Koshifiyning fikricha: "davlat va jamiyatni siyosatsiz, boshqaruvsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki bularsiz dunyoning muhim ishlarini tartibga solish vazifasini amalga oshirish mumkin emas, tarbiya va jazo haqidagi qonunlarning bo'lmaganligi davlat faoliyatining buzilishiga olib keladi". U boshqaruvning ikki ko'rinishi, ya'ni o'z qalbini boshqarish va qo'l ostidagilarni boshqarish haqida so'z yuritgan. Mutafakkirning fikricha, "jamiyatda boshqaruv bo'lmasa, bir-birini o'zaro qo'llab-quvvatlash bo'lmaydi, chunki har kim o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab boshqalarga zarar yetkazadi, o'zaro kurash, buzg'unchilik va zo'ravonlik kabi illatlar avj oladi".

O'rta asrlar Sharq mutafakkirlari boshqaruvni hukmdorlar faoliyatiga tenglashtirib, buni ularning shaxsiy fazilatlariga bog'liq deb hisoblaydilar. Chunonchi, Forobiyning ta'kidlashicha, hukmdor o'zida o'n ikki yoki hech bo'lmaganda, olti ijobiy xislatni mujassam etsa, o'z davlatini boshqara oladi. Ularning eng muhimlari: donolik va zukkolik, mulohazakorlik, ong va tasavvurga ega bo'lish, ishontira bilishdir. **Forobiy**ning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ijtimoiy hayot haqidagi fanning predmeti va vazifalari, ijtimoiy guruhlarining kelib chiqishi, tarkibi va turlari, shuningdek jamiyat shakllari, shahar-davlat, (Al-madina), davlat boshqaruvining xususiyatlari masalalari atroflicha tahlil etiladi.

Forobiy jamiyatlarni fozil va johillarga ajratgan. Fozil shahar yuksak axloqiy va ma'rifatli kishilar tomonidan boshqarilib, bu davlat shahar aholisining o'zaro ko'maklashuviga, bir biriga yordam berishiga

¹ Jo'rayev Z. "Movardiyning Sharq davlatchilik ta'limoti" (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti (№ 7228/1) va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nodir (№ 63) qo'lyozmalari asosida), -T.; A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015 y.119 betlar

asoslangan. Odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi ibtido – insoniylikdir.

Bundan tashqari fozil shahar tushunchasi sotsial model sifatida boshqa bir qator ijtimoiy-falsafiy tushunchalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, donishmand boshqaruvchi, ezgulik, yaxshilikka yetaklovchi g‘oya va boshqalar, Bular esa, Forobiy ta‘limotiga ko‘ra, jamiyatni yaxlitligini, uning barqaror ideal jamiyat tomon rivojlanishini ta‘minlaydi. Forobiy bu ijtimoiy holatni sog‘lom kishining organizmiga qiyoslaydi. Demak, Forobiy ijtimoiy-falsafiy tushunchalar tizimini yaratdi.

Mazkur tizimda umumiy farovonlik masalasi markaziy o‘rindan birini egallaydi. Aql va yuksak axloqiy normalar farovon ijtimoiy hayotning ma‘naviy madaniyat takomilining substansional asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Abu Rayxon Beruniy. U yashagan davr, ijtimoiy-siyosiy muhit g‘oyatda murakkab bo‘lgan. Bu haqda taniqli arxeolog, O‘zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi akademigi Ya.G‘.G‘ulomovning “Beruniy yashagan davr” degan salmoqli maqolasi ham bor.¹ Beruniy siyosiy kurashlar avj olgan, toju taxt uchun beayov olishuvlar kechayotgan murakkab muhitning farzandi edi.

O‘z zamonasining har qancha og‘ir sinovlariga qaramay bu qomusiy alloma 150 dan ortiq sermazmun asarlar yozdi. Ilm-fanning qariyb barcha sohalari uchun qimmatli ahamiyatga molik tadqiqotlar olib bordi. Yana bir muhim jihati shuki, u nima yozmasin nihoyatda yuqori ilmiy darajada, bugungi til bilan aytganda, akademik saviyada bo‘lganini jahon olimlari e‘tirof etishgan.

Abu Rayhon Beruniyga ko‘ra, inson zoti azaldan uning nazaridan yashirin barcha narsalarni bilishga talpinadi. Ilmni egallash yoki nodonlik va johillikni o‘ziga martaba bilish kishilarning oddiy munosabati bo‘libgina qolmasdan, balki axloq-odob sohasining muhim tamoyili bo‘lib xizmat qiladi. Bu tushunchalar o‘z mohiyatiga ko‘ra, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va illat singari talqin qilinishi lozim. Kimningki mijozi buzuq, tarbiyasi nomaqbul, pastkash xulqi ustuvor tursa, unda ilmga qiziqish, uning g‘aroyib lazzatidan bahramand bo‘lish ishtiyoqi ham kamol

¹ Muhiddinova F. “Adolatnoma” // “Huquq va burch” ijtimoiy huquqiy jurnali № 12. -T.: 2008 B.3.

topmaydi. Ilmni egallashga bo‘lgan har qanday intilish kishini e‘zozlaydi va uning martabasini yuksaltiradi.

Beruniyning ishonchi komilki, kishilar ilm-fanning xilma-xil sohalariga murojaat qilib turishi, ilm ahlini hurmat qilishi jamiyat intellektual mulkini rivoj topishiga, uning kundan-kunga ko‘payib borishiga turtkidir. Ilmning kamol topishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish – odamlarni boshqaradigan hukmdorlarning asosiy vazifasi, burchidir. Hukmdorlar olimlarni kundalik tashvishlar, ularni kutib turgan xavf-xatarlardan muhofaza qilmog‘i, hayot kechirishi uchun zarur hamma narsani yaratib berishi lozim. Ana o‘shandagina hurmatga loyiq buyuk ishlarni ado etishga ularni safarbar qilish mumkin, chunki qalb haqiqatni sevish va ardoqlash, yolg‘on-yashiqdan nafratlanish uchun yaratilgan.

Ilm-fan jamiyat hayotida ustuvor mavqega ega bo‘lmog‘i darkor, degan fikr Beruniyni bir daqiqa ham tark etmaydi. Ilm barcha dunyoviy va diniy masalalarda hal etuvchi rol o‘ynaydi. U tufayli iymon-e‘tiqod mustahkam poydevorga ega bo‘ladi. Ilmni rad etgan e‘tiqod kemptikdir, u sinovlarga bardosh bera olmaydi. Olimning ta‘kidlashicha, Alloh olamni behudaga yaratmagan. Yaratishdan kutilgan maqsad oqilu nodonlarga o‘zining yagona va qudratli ekanligidan shahodat berib turishdir. Bu vazifani bekamu ko‘st ado etilishini ta‘minlash uchun inson zotiga sezgilar, xotira va aql quvvatlarini in‘om etgan.

Abu Rayhon Beruniy tadqiqotlar xulosalarining ob‘ektivligini ta‘minlash maqsadida kurash olib borar ekan, samarali istiqbolni chalkashtiradigan barcha shakl-shamoyillar va vositalarni qoralaydi. Maqsad muayyan fikr-mulohazalarning haqiqiy yoki nohaqiqiy ekanligini aniqlashdan iboratligini chuqur his qilgan mutafakkir bahs-munozaralarga kirishuvchi tomonlarning qarashlariga shunday yondashish lozimki, toki ular bizda g‘arazgo‘ylik va yolg‘onchilik ko‘rib, dillarida shubha tug‘ilmasin, degan xulosaga keladi.

Xullas, Abu Rayhon Beruniyning ilm-ma‘rifat va inson axloqiy kamoloti haqidagi evristik g‘oyalari ilmiy tadqiqotlarga bo‘lgan mas‘uliyatni yanada oshirdi va ilm-fan buyuk qadriyat ekanligiga alohida urg‘u berganligi bilan ajralib turadi.

Shuni ta‘kidlash lozimki, Beruniy falsafa, axloq ilmi, ta‘lim-tarbiya sohasida maxsus risolalar bitmagan, bu sohalarda yaxlit ta‘limot

yaratmagan bo‘lsa-da, o‘zining tabiatshunoslikka oid asarlarida, Ibn Sino bilan yozishmalarida falsafa, borliq va bilish haqida fikr yuritadi, jamiyat, inson, hayot tarzi, odamiylik, muruvvat, futuvvat, sahovat, kasb-hunarni egallash, insonning turli-tuman ehtiyojlari, ilm-fanning jamiyatdagi o‘rni haqida o‘z mulohazalarini bayon qiladi, odamlarda uchradigan tuban illatlarni qoralaydi.

Bu borada Beruniyning “Mineralogiya” (“Javohirot kitobi”) kitobining muqaddimasida muruvvat va futuvvat, ya’ni mardlik masalasiga katta e’tibor beriladi. Eng avvalo shuni ta’kidlash to‘g‘ri bo‘ladiki, u ushbu tushunchalarni keng ma’noda talqin qiladi. Olim bu ikki tushunchani tahlil qilgan ekan, ularni qiyosiy o‘rganadi, bir-birini to‘ldiruvchi yaqin xislatlar ekanligini ta’kidlab, ayni vaqtda farq qiluvchi jihatlarini ochib tashlaydi. “Odamgarchilik, ya’ni muruvvat kishining o‘zi, urug‘-aymog‘i va o‘z ahvoliga ta’sir etish bilan chegaralanadi. Mardlik – futuvvat esa undan ham ustun turib, o‘zidan tashqariga ham o‘tadi. Muruvvatli mard kishi o‘zidagi va o‘ziniki ekanligiga hech kim tortishib o‘tirmaydigan narsadan boshqasiga egalik qila olmaydi”.¹ Bu yerda Beruniy mardlik – futuvvatni muruvvatdan ham yuqori qo‘ymoqda. U xayr-ehson, sahovat, iffatlilik, shodhurralik, mardlikda namoyon bo‘lishini alohida ta’kidlaydi. Olim fikricha, agar biron kishi “odamlarning osoyishtaligi deb mashaqqatlarga chidasa: ziqnalik qilmasdan, boshqalarga nasib etmay, unga ato qilingan narsalarni birovlarga bersa, bunday odam o‘shanday qudrat bilan shuhrat topgan mard kishi sanaladi; u o‘zining halimligi, muloyimligi, irodasi mustahkamligi, kamtarinligi tufayli, ulug‘vorligi bilan tanilib, garchi u shu martaba ahlidan bo‘lmasa ham, oliy darajaga ko‘tariladi”.²

Beruniyning hozirgi vaqtda ham tarbiyaviy kuchini yo‘qotmasdan kelayotgan qimmatli fikrlaridan biri bu – tozalik, pokizalik va ozodalikdir. Olim fikricha, ular muruvvat va yaxshilik belgisidir. Tozalik va pokizalik “muruvvatning o‘qi” sanaladi. “Kimki tozalik va pokizalikka o‘z ixtiyori bilan berilib, uni tutishga qodir bo‘lsa, - deydi Beruniy, - u ma’murchilikka erishadi. Kimda-kim tozalikka erisholmagan bo‘lsa, - faqirlikda umr kechiradi. Serne’matlik faqirlik bilan bo‘ladi”.³

¹ Ya.G‘.G‘ulomov. Abu Rayxon Beruniy yashagan davr. //Beruniy va ijtimoiy fanlar. Mas’ul muharrir: O‘zFa akademigi I.M.Mo‘minov — T.: “Fan”, 1973, 26-35-sahifalar.

² Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T.: Fan, 1988. B.12

³ Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T.: Fan, 1988. B.12

Mutafakkir Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida yoshlarning ilmga nisbatan ehtiyoj va talablarni qondirish fanning vazifasi ekanligini ta’kidlab, ilm-ma’rifatga chorlagan: “Ilm dargohiga kerak ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko‘r qilib qo‘yadigan holatlardan, chunonchi qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko‘zlikning quli bo‘lishdan ozod bo‘lmog‘i darkor”¹. Beruniyning fikricha, yoshlarning ijtimoiy kamoloti ilm-fan yordami bilan tarbiyalanadigan yuksak intellektual va axloqiy qoidalarni hamma joyda joriy qilish jarayonida amalga oshiriladi.

Beruniy kishilar jamiyati paydo bo‘lishi haqida fikr yuritar ekan, insonlar o‘rtasida tafovutlar bo‘lsada, kishilarning ichki tuzilishi barchada umumiydir, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, davlatning paydo bo‘lishi kishilarning zaruriy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liqdir. Boshqacha qilib aytganda, odamlar dushmanlardan himoya qilinish, ijtimoiy adolatli tartib va qoida o‘rnatish uchun davlatga birlashadilar, degan g‘oyani ilgari suradi.

Mutafakkir asarlarida ijtimoiy adolatga ham e’tibor qaratdi. U ijtimoiy adolatni mol–mulkka bo‘lgan munosabat, inson qadr–qimmatini, mol ayriboshlash va savdo–sotiq, ta’lim va tarbiya, davlatni adolatli qonunlar asosida boshqarish masalalari bilan bog‘liq holda batafsil bayon etadi. Alloma ijtimoiy adolatga zo‘ravonlik va inson qadr-qimmatini tahqirlashni qarshi qo‘yadi: “Agar adolat butun kamolotning majmui bo‘lsa, yomonlik uning qarama-qarshisidir, butun nuqsonlarning yig‘indisidir”, – deb ta’kidlaydi. Beruniy bunday yomonliklar–u, falokatlarning sababchisi, adolatsizlik va qonunsizlikdir, deb tushunadi.

Beruniy davlat va huquqning paydo bo‘lishi, ularning vazifalari masalalarini Forobiy kabi tabiiy ehtiyojdan deb biladi. Beruniy ehtiyojning o‘zgarishi bilan davlat va huquq ham o‘zgarib borishi haqidagi muhim g‘oyani ilgari suradi.

Xulosa o‘rnida shuni qayd qilish lozimki, Abu Rayhon Beruniy siyosiy qarashlarining eng muhim xususiyati shundaki, birinchidan, u jamiyatning paydo bo‘lish sababini, tabiiy muhit va kishilarning moddiy ehtiyojlari orqali tushuntirib beradi. Ikkinchidan, u kishilarning ehtiyoji, ijtimoiy holatini uning aqli, mehnati, o‘z hayot faoliyatini mustaqil tanlay

¹ Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T.: Fan, 1988. B.12

olishini belgilaydi, deb hisoblaydi. Uchinchi, uning siyosiy qarashlarida jamiyat asosida kishilarning eng sof intilishlari qarindosh - urug'larning birlashuvi, o'zaro yordam, adolat, do'stlik, ahillik, ehtiyojlarning birgalikda qondirilishi, umumiy manfaatlarini tushunish g'oyalari yotadi. To'rtinchidan, Beruniy boshqa mutafakkirlar singari jamiyatda mavjud yovuzliklarni yo'qotishga qodir bo'lgan odil va aqlli hukmdorlar bo'lishiga ishonadi. U adolatli hukmdorning asosiy vazifasi kuchli va kuchsizlar o'rtasida tenglik, yuqori va quyi darajadagilar orasida adolat o'rnatish deb biladi.

Abu Ali Ibn Sino. Buyuk alloma va mutafakkir Ibn Sinodan qolgan ma'naviy meros taxminan 280 nomdan ziyodroq. Ular tibbiyot, falsafa, mantiq, psixologiya, axloq, musiqa va boshqa sohalarga bag'ishlangan. Olimning "Shifo" kitobi, "Tib qonunlari", "Tabiat durdonasi" kabi asarlari mashhurdir.

Mutafakkir o'z asarlarida ilm va axloq – odob uyg'unligi, inson komoloti, baxt – saodat, ijtimoiy adolat, kishilarning o'zaro hamkorligi, hukmdor burchi to'g'risida qiziqarli g'oyalarni ilgari surgan. Uning ta'kidlashicha barchani bir xil ijtimoiy mavqega erishtirib bo'lmaydi. Aslida ular uchun muayyan sharoit yaratib bermoq lozim. Barchaning boy va mansabdor bo'lishi, yoki hammaning qashshoq bo'lishi jamiyatning tanazzuli, hamda inqirozidir. Lekin inson o'zgalarga mehr – oqibatli, g'amxo'r bo'lmog'i, kerak vaqtda sahovat, muruvvat qo'lini nochorlarga uzatishi zarur. Inson tug'ilishidan boshlab axloqli yoki axloqsiz bo'layvermaydi. U hayotda shaxsiy va o'zgalar tajribasi, ajdodlar an'analari, ta'lim tarbiya natijasida shakllanadi. Va u muayyan ijtimoiy mavqega erishadi.

Ibn Sino aqlni ikki turga ajratadi. Biri xudbin aql, ikkinchisi esa nafs, hirs va idrokning xatolaridan ozod bo'lgan faol aqldir. Inson bu faol aql yordamida o'z jonini anglashi mumkin va uni faqat o'zi moddiylik tuzog'idan ozod qila oladi. Uni fikricha, har bir insonning o'zi komillikka intilishi va o'zi ustidan ishlashi, o'zining nafs va hirslari bilan kurashishi aql idrokdagi kamchiliklarni qalb yordamida tuzatish kerak. Inson yomon illatlardan xalos bo'lgandagina faol aqlga erishishi mumkin.

Ibn Sino insonlarning jamiyatdagi o'rni va vazifalariga qarab uch guruhga ajratadi:

a) davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishlari bilan shug'ullanuvchilar;

b) bevosita xom-ashyo zarur mahsulotlar ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lganlar;

s) davlatni qo'riqlash uni turli tashqi hujumlardan saqlovchi harbiylar.

Ibn Sino fikricha har qanday jamiyat, davlat ma'lum adolatni himoya etuvchi huquqiy qonunlar asosida idora etilishi, adolatsizlikka yo'l qo'ymasligi kerak.

XIV asrning o'rtalariga kelib, **Amir Temurning** mustaqil markazlashgan davlatni barpo etishga qaratilgan birinchi qadami uni mo'g'ullardan batamom ozod etish va saltanatni boshqarishda yangi va mukammal tartib va qoidalar joriy etishi edi. Amir Temur asos solgan davlat o'rta asrlarga xos musulmon Sharqida hukm surgan davlatlardan unchalik farq qilmasa-da, ammo saltanatdagi boshqaruv tizimlari qadim Turon-Turkiston davlatchiligining asriy an'analari hamda yangi tartib va qonunlar bilan takomillashtirilgan edi. Buning yorqin misoli "Temur tuzuklari" hisoblanadi¹. Sohibqiron tomonidan yaratilgan tuzuklarda davlat boshqaruvi, ma'muriy amaldorlar va ularning vazifalari, turli ijtimoiy toifalarning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqidagi qat'iy tartib va qonunlar ishlab chiqilgan.²

Amir Temurning saltanat boshqaruvi ikki idoradan: dargoh va devon (vazirlik)dan iborat bo'lib, dargohni oliy hukmdor boshqargan. Dargoh faoliyatini boshqarish, uning devonlar, mahalliy hokimiyat idoralari bilan bog'lanib turish ishlari oliy devon zimmasida bo'lgan. Saroydagi dargoh - Oliy kengashda ichki va tashqi siyosatning eng muhim masalalari, hokimiyatning yuqori amallariga mansabdor shaxslar tayinlash va boshqa masalalarni muhokama qilgan. Amir Temur davlatining markaziy ijro ma'muriyati bosh vazir - devonbegi boshliq yetti vazirlikdan iborat arkoni davlat - Vazirlar Kengashi tomonidan boshqarilgan. Amir Temur davlati idoralarida farmonlar o'ziga xos yangi usulda - sarnoma (fors. kirish, muqaddima, ibora) usulida joriy qilingan. Bu usul Amir Temurni hukmdor sifatida namoyon etib, farmonlar chiqarish tartibiga qo'yilgan talablar

¹ Qarang: Timur tuzuklari - Toshkent, O'zbekiston, NMIU, 2011

² Muqimov Z. "O'zbekiston davlati va huquqi tarixi", // Darslik, -Toshkent, "Adolat", 2003 y. 158-bet

uning avlodlari tomonidan ham qabul qilingan. Amir Temur amalga oshirgan davlat va jamiyat boshqaruvi tizimidagi samarali islohotlarining mazmuni - erkin va sivilizatsiyalashgan institut sifatida davlatchilik g'oyasini asoslash va uni himoya qilish edi.

Alisher Navoiy. Mutafakkir o'z asarlarida ideal jamiyat qiyofasini chizgan. Uning asarlarida bosh mavzu komil inson, xalq farovonligi, Vatan ravnaqi va barcha teng baxt-saodatli bo'lgan, mukammal, adolatli jamiyat haqidagi orzulari bilan bog'liq. Alisher Navoiyning asarlarida yaxshilik, muhabbat, do'stlik, sadoqat, adolat, tinchlik va boshqa abadiy g'oyalari, umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlanganligi uchun ham bugungi kunda ularni o'rganish komil insonlarni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Mutafakkir mamlakat obodonchiligi, ravnaqi va osoyishtaligi yo'lida ko'p ishlar qildi. Maktab, madrasa, maschit va xonaqolar, ko'prik, robotlar, shifoxonalar qurdirdi. Muhtoj kambag'allarga yordam berdi. Olimu shoirlarga homiylik qildi.

Navoiyning ijodiy falsafiy fikrlarga boy bo'lib, unda jamiyat va inson munosabati, insonning baxt saodati, komil inson va fozil jamoa, ta'lim tarbiya haqidagi fikr o'ylari o'z ifodasini topgan. Navoiyning ijodiy merosida insonparvarlik va komil inson g'oyasi muhim o'rin egallaydi. Navoiy xalq orasida insonparvarlik g'oyalarini yoydi. Turli millat va elatlar orasidagi do'stlikni ulug'laydi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqalar singari mukammal jamiyat haqida fikr yuritdi. Xalqni farovonlikka baxt-saodatga eltuvchi, hamma teng, zulm istamlardan xoli bo'lgan davlat tuzimini orzu qildi. U ilm-fanni egallashni afzal bildi, mol-mulkka, boylikka hirs qo'yishni, tamagirlikni qoraladi.

Navoiyning yaxshilik, ezgulik, muhabbat, do'stlik, adolat, osoyishtalik va boshqa go'zal fazilatlar ma'naviy – axloqiy qadriyatlar to'g'risidagi qimmatli fikrlari, hozirgi kunda komil insonni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Jadidchilik harakati - XIX asr oxiri - XX asr boshidagi ko'plab Sharq mamlakatlaridagi milliy - taraqqiyparvar ziyolilarning islohotchilik harakati. Bu harakat O'rta Osiyo xalqlarining madaniy, milliy-siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo'ldi. "Jadidlar" degan nomning o'zi "usuli jadid" ("Yangi usullar") tushunchasi asosida kelib

chiqqan. Bu atama ostida o'qitishning yangi usullari tushunilar, yangi usuldagi maktablar shu asosda qurilgan edi.

Ma'rifatparvarlik bilan bir qatorda, jadidlar ijtimoiy va siyosiy huquqiy holatlarning eski tizimini taraqqiyotning ilg'or usullari bilan almashtirmoqchi bo'ldilar. U dunyo ahamiyatiga molik insonparvarlik va milliy qadriyatlarga asoslanib, jamiyat taraqqiyotining yetilgan ehtiyojlari va o'lkaning tub aholisi manfaatlariga javob berdi. M.Behbudiy, A.Fitrat, Cho'pon, A.Qodiriy, U.Asadullaxo'jayev, Munavvar Qori, A.Avloniy, S.Ayniy, F.Xo'jayev, T.Norbo'tayev va boshqa mashhur nomlar ushbu harakat bilan bog'liq.

«Sharq va G'arb» mavzusi - jadidlarning dunyoqarashini aniqlash bilan bog'liq muhim masala hisoblanadi. Jadidlar O'rta Osiyoning G'arbiy Yevropa bilan tarixiy aloqalarining bugungi kun bilan bog'lab xulosalar chiqarishga moyil edilar. Ular haqli ravishda aynan islom madaniyati Yevropa uchun Platon va Aristotelni qutqarib qoldi deb hisoblardilar, o'zlarini esa ular falsafiy g'oyalarining muxlislarigina emas, balki muayyan darajada ularning targ'ibotchilari deb bilardilar. Chunonchi, M.Behbudiy - O.Kant, A.Fitrat - Sh.Senobos, A.Avloniy - Platon, Suqrot va Aristotellarning merosi bilan qiziqdilar, ularning ma'rifat, ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qarashlariga asosiy e'tiborni qaratdilar. Ularni g'arbparastlikda ayblab qilingan ta'nalar asossiz edi, chunki ular G'arb falsafasiga tanlagan holda yondashib, faqat milliy g'oya negizlari bilan birga yashay oladigan muhim unsurlarnigina undan olgan edilar. Jadidlarning nazariy qarashlari chuqur genetik asosga ega bo'lib, ular nafaqat Sharq, balki G'arb faylasuflari va ma'rifatparvarlarining ham ilmiy merosidan xabardor edilar. Ular mamlakat taraqqiyotining asosini Sharq va G'arb madaniyatining uyg'unligida, ulardan har birining yutuqlaridan foydalanishda deb bildilar. Sharq va G'arb falsafasi va tarixi sohasidagi chuqur bilimlar ularga o'z xalqini jahon tamadduni yutuqlariga daxldor hisoblagan holda, o'zlarining milliy tajribaga asoslangan davlatni rivojlantirish bo'yicha nazariyalarini mafkuraviy va metodologik jihatdan asoslash imkonini yaratdi. Shu bilan birga, ular marksistik falsafani xayoliy va turkistonliklar uchun yaroqsiz hisoblab, mutlaqo qabul qilmadilar.

O‘zlarining rivojlangan davlat qurish haqidagi g‘oyalarini amalga oshirish uchun jadidlarga keng ildiz o‘tgan qoloqlik, jaholat, mutaassiblik, loqaydlik bilan kurashishga asosiy e‘tibor qaratishlariga to‘g‘ri keldi. O‘z asarlarida Sharq va G‘arbning bir-biriga ta‘siri g‘oyasini qo‘llab-quvvatlagan jadidlar hamisha Yevropa davlatlarining ilg‘or yutuqlariga tarixdan misollar keltiradilar.

Ma‘rifatparvar, adabiyotshunos, dramaturg, faylasuf, siyosiy arbob madaniyatshunoslik nazariyotchisi va amaliyotchisi **Mahmudxo‘ja Behbudiy** (1874-1919 y.) jadidchilik harakatining yirik rahnamo va nazariyotchilaridan biri edi. "O‘sha davr Turkiston jadidlaridan birortasi siyosiy, ijtimoiy faoliyati hamda bilim doirasining keng va chuqurligi jihatidan unga tenglasha olmas edi"¹, - deb yozgan edi F.Xo‘jayev.

Behbudiyning maorif masalasidan tortib mustaqillik mavzuigacha bo‘lgan barcha asarlari - Turkistonning taqdirini belgilaydigan muhim muammolarga bag‘ishlangan. Uning barcha fikrlarini jamiyat va mamlakatni rivojlantirishning izchil nazariy konsepsiyasi sifatida kurish mumkin. Albatta, u quruq nazariya bilan cheklanmay, yangiliklarni hayotga joriy etishning amaliy usullarini ham ishlab chiqqan.

M.Behbudiy ko‘targan masalalar ko‘lami juda keng. Ular orasida maorif masalalari, siyosiy muammolar, ma‘naviyat va axloq-odob ham, nikoh va jinsiy tarbiya masalalari, tarixiy-geografik mavzular ham, til siyosati masalalari, etnografiya muammolari va boshqalar ham bor.

Odob-axloq masalalari Sharq falsafasida hamisha asosiy o‘rin tutib kelgan, **Abdulla Avloniy** (1874-1934 y.) ijodi, birinchi navbatda, uning «Turkiy Guliston yoxud axloq»² asarida o‘z aksini topdi.

Avloniy uchun axloq hammadan avval amaliy-pedagogik yo‘nalishni kasb etadi. U «Insonlarni yaxshilikga chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur». Bu ilm «Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar» yordamida ifodalashga asoslanishi kerak³.

Avloniy yorqin kelajakni yaxshi xulqli insonni tarbiyalab yetishtirishdan ayri holda tasavvur qilolmasdi. Shuning uchun ham,

¹ Xo‘jayev F. Uch jildlik. 1-jild. Toshkent, 1996 yil, 78-b

² Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud ahloq // Tanlangan asarlar. Toshkent, 1998. 34-bet

³ O‘sha joyda. 34-bet

insoniy faoliyatning turli ko‘rinishlari va inson fe‘l-atvorining belgilarini axloqiy mezonlar nuqtai nazaridan qarab chiqadi. Jumladan, bilish va bilmaslik uning uchun shunchaki bilish faolligi va bilish nazariyasi tushunchasi hodisalaridan iborat emas. Ilm «bizga yaxshini yomondan, ezgulikni yovuzlikdan, joizni nojoizdan, pokni nopokdan xatosiz farqlash imkonini beradi, ayni paytda, nodonlik - yomon xulqlar, xudbinlik va yovuzlikning ibtidosi»¹.

Chunonchi, intizom to‘g‘risida gapirar ekan, A.Avloniy uni alohida bir kishining xususiyati emas, balki birmuncha keng-jamiyatdagi ishlarning ahvoli nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi. U «har bir millatning taraqqiy va taoliysi ishlarini vaqtida nizomdan chiqarmay, tartibi ila yuritmag‘a bog‘lidir» .

Avloniy shaxsning shakllanishida tarbiya yetakchi rol o‘ynashiga alohida urg‘u beradi. Uning nuqtai nazariga ko‘ra, inson iste‘dodli va iqtidorli, ezgulik va yovuzlikni farqlashga layoqatli qilib yaratilgan, lekin bu xususiyatlar tarbiya jarayonida rivojlanadi va bunda axloq muhim rol o‘ynaydi.

Jadidchilikning yana bir yorqin namoyandasi **Abdurauf Fitrat** (1886-1938 y.). Fitrat ilk ijodining markaziy g‘oyalaridan biri bu – «hayot» g‘oyasi. Hayot - butun Koinotning asosi. Hayot bo‘lmasa, hech narsa bo‘lmas edi. U o‘zining mashhur «Rahbari najot» («Najot yo‘li») asarida u yozadi: «hech shak-shubha yo‘qki, garchi kishilar turli dinlarga e‘tiqod qilib, turli mamlakatlarda yashasalar-da, turli qabila va millatlarga mansub bo‘lsalar-da, ularning barchasi yagona otaning farzandlari hisoblanadilar va yagona insoniyatga taalluqlidirlar. Boshqacha aytganda, ular - og‘aini. Shunday ekan, ular bir-birlarini sevishlari va umumiy birodarlik ittifoqini tuzishlari kerak. Dunyoviy hayot muvaffaqiyati umumiy birodarliksiz mumkin emas»².

Shunday qilib, ma‘naviyat va axloq masalalari jadidlarning diqqat markazida turadi. Ular ushbu masalalarni ilgari surish bilan birga, o‘zlari ham bu sohada dunyo tajribasi unsurlarini o‘ziga singdirgan «yangi musulmon axloqi»ning namoyandalari edilar.

¹ Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud ahloq // Tanlangan asarlar. Toshkent, 1998. 184 – 185 betlar

² Fitrat A. Najot yo‘li (Raqbari najot). Toshkent, 2001. 159-b.

Mustaqillikka erishgandan so'ng bu harakatni xolisona va ilmiy nuqtai nazardan tadqiq qilish imkoniyati tug'ildi. Jadidlarning millatparvarlik va vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan asarlari, ular qoldirgan boy meros bugungi falsafiy jarayonlar, xalqimizning o'zligini anglashi, milliy g'oyani aholi, ayniqsa yosh avlod qalbi va ongiga singdirishning ma'naviy asoslaridan biri bo'lmoqda.

Yangi davr Yevropa mutafakkirlarining ijtimoiy – falsafiy g'oyalari. Ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588-1679), Jon Lokk: fransuz mutafakkiri Jan Jak Russo (1712-1778), Sen Simon (1760-1825); ingliz olimlari Adam Smit va David Rikardolar jamiyat, uning tarkibi haqidagi ilmiy bilimlarni ilgari surdilar.

Ingliz faylasufi **Tomas Gobbs.** Jamiyat taraqqiyoti va unda davlatning o'rni hamda kelib chiqishi masalasida Gobbs ko'proq xususiy mulkchilikka asoslanadi. Shu bilan birga, uning fikricha, davlatning monarxiya shakli maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

Ingliz falsafasida **Jon Lokk.** Ijtimoiy-siyosiy qarashlariga ko'ra Lokk davlatning o'ziga xos quyidagi tamoyillarini ta'riflaydi: 1. Hokimiyatning qonun chiqaruvchi tizimi; 2. Hokimiyatning ijro etuvchi organlari; 3. Ittifoq federativ hokimiyati. Ana shu tamoyillar uyg'un bo'lganida davlatning faoliyati samarali amalga oshadi, deydi.

Fransuz mutafakkiri **Jan Jak Russo** «Odamlar o'rtasidagi tengsizlikning kelib chiqishi va uning sabablari haqidagi mulohazalar» asarida mulkiy tengsizlik, jamiyatning boy va qashshoqlarga bo'linishi ijtimoiy tengsizlikning birinchi bosqichidir, deb hisoblaydi. Ikkinchi bosqich davlatning paydo bo'lishi bilan bogliq. Uchinchi bosqichda hokimiyat zulm va adolatsizlik hokimiyatga aylanadi, deb tahlil etish asosida ideal jamiyat goyasini ilgari suradi.

Fransuz faylasufi **Volter** jamiyat manfaatlaridan yiroq monarxiya hokimiyatiga qarshi kurashga o'zining butun umrini bag'ishladi va jamiyatni aql-zakovat asosida o'zgartirish mumkinligiga ishonadi.

Nemis olimi, ma'rifatparvar **Gerder** «Insoniyat tarixi falsafasiga doir goyalar» asarida Germaniyada XVII asr oxirigacha hukm surgan tarixni teologik tushinishga qarshi kurashadi. Ijtimoiy falsafa taraqqiyotining ikkinchi bosqichi XIX asrda ilgari surilgan falsafiy goyalarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichning uziga xos tomoni shuki, jamiyat haqidagi uzoq tarix

davomida to'plangan falsafiy bilimlar ijtimoiy falsafaning fan sifatida falsafa bag'ridan ajralib chiqishi, mustaqil ilm sohasiga aylanishiga sababchi bo'ladi. Shu davrdan e'tiboran ijtimoiy falsafaning predmeti, muammolari doirasida ilmiy tahlil etish boshlanadi.

Ijtimoiy falsafaning mustaqil ilm sohasiga aylanishida olimlar Gegel, Kont, Spenserlarning o'ziga xos o'rinlari bor.

Vilgel'm Fridrix Gegel (1770-1831) nemis klassik falsafasining yirik namoyondasi. Gegelning ta'lim berishicha, ijtimoiy strukturaning tub asosini ma'naviy madaniyat tashkil etadi. Ma'naviy madaniyat o'z mohiyatiga ko'ra ob'ektiv xarakterga ega bo'lib, uning mavjudligi yoki amal qilishi ayrim individlarning xohish-irodasiga bog'liq emasdir. Balki aksincha, har bir individ jamiyatga xos bo'lgan ma'naviy madaniyat qadriyatlarini o'zlashtiradi, madaniyat talablariga bo'ysunadi. Agar ayrim kishilar ijtimoiy shartlangan madaniy qadriyatlarni tushunmasa va anglamasa, madaniy qadriyatlar unga nisbatan tashqi majbur qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Gegelning fikricha, ma'naviy madaniyat «jahoniy aql» («mutlaq ruh») muqarrar va to'xtovsiz ravishda amal qiladi. Gegel faqat ma'naviy madaniyatgina jamiyatning bir butun sistema sifatida rivojlanishi uchun imkon beradi, deb hisobladi. U ayniqsa o'ziga zamondosh bo'lgan G'arbiy Yevropa madaniyatiga alohida e'tibor berdi. U ana shu madaniyatning keng yoyilishi, barcha qit'a va mamlakatlarning jipslashuviga, jahon hamjamiyatining qaror topishiga olib keladi, deb ta'kidladi.

U o'zining «Ruh fenomenologiyasi», «Tarix falsafasi» asarlarida jamiyatni falsafiy anglashning yaxlit tizimini ishlab chiqdi. U jamiyat tarixining, undan tarixiy jarayonlarning mohiyati, umuman jamiyat, uning tarkibiy tuzilishi, fuqorolik jamiyati, davlatni boshqarish usuli, axloq, oila haqidagi chuqur tahlilga asoslangan falsafiy fikrlarni ilgari suradi.

Gegel ijtimoiy falsafani fan darajasiga ko'taradi. Uning fikricha, jamiyat taraqqiyoti tabiiy –tarixiy jarayon bo'lib, u to'g'ri chiziqli tarzda bir farmatsiyadan ikkinchisiga o'tib boradi.

Buyuk fransuz mutafakkiri **Ogyust Kont** (1798-1856) jamiyat to'g'risidagi ilmiy nazariyaga, pozitiv falsafa va sotsiologiyaga asos soldi. U birinchi bo'lib metafizik falsafani keskin tanqid qildi: real ijtimoiy hayotdan ajralib qolgan metafizik falsafiy ta'limotlar o'rniga kishilar

uchun foydali va ahamiyatli bo'lgan jamiyat to'g'risidagi pozitiv fan yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

O.Kont jamiyat to'g'risidagi yangi fanni «pozitiv falsafa» deb atagan bo'lsa ham, uning qarashlarida ijtimoiy falsafa va sotsiologiya bir-biridan ajralmagan edi (dastlabki qadam sifatida shunday bo'lishi tabiiy edi). Kontning fikricha, jamiyat individlarning oddiy majmuidan iborat emas: «ijtimoiy atomlar» ham emas, balki rivojlangan individlar uyushmasidir. Ijtimoiy sub'ektlarning o'zaro aloqadorligidir.

Kontning ta'kidlashicha, jamiyat vujudga kelishi va rivojlanishiga ko'ra yaxlit ijtimoiy organizm bo'lib, u sub'ektlar (individ, tabaqa, sinf) ning rivojlanishiga bog'liqdir. Kont ijtimoiy falsafaga «ijtimoiy statika» tushunchasini olib kirdi. Uning yordamida jamiyat strukturasi tavsifladi. Ijtimoiy falsafa tushunchalarini rivojlantirdi. U «Pozitiv falsafa kursi», «Pozitiv siyosat sistemasi» va boshqa asarlarida falsafa va sosiologiyani pozitiv fan deb atadi. Bu fanlar ilmiy dalillar va ilmiy kuzatishlarga asoslanadi. Kont falsafa yo'nalishida yangi oqimga - pozitivizmga asos soldi.

Kontning pozitiv ijtimoiy falsafasida jamiyat rivojlanishining bosh negizi va uning qonuniy xarakterga ega ekanligi muammosi muhim o'rin tutadi. Kont insoniyatning intellektual evolyusiyasini «uch bosqich qonuni» orqali tushuntirishga harakat qildi. Bu qonunga muvofiq insoniyatni bilish faoliyati uning ijtimoiy ongi butun insoniyat tarixi o'z taraqqiyotida quyidagi uch bosqichni: teologik, iloxiy rivojlanish; metafizik bosqich; pozitiv yuksalish bosqichlarini kechiradi.

Kont jamiyat to'g'risidagi fanning rivojlanish muammolarini biologiya va astronomiya qonunlari bilan bog'lashga va hal etishga harakat qildi. Hatto jamiyatning rivojlanishiga iqlim va aholining irqiy tuzilishi ta'sir etadi, deb hisobladi. Kontning fikricha, jamiyat rivojlanishining asosiy omili insoniyatning intellektual evolyusiyasidir.

Fan inson intellektual evolyusiyasining oliy tipi, yuqori bosqichidir. Jamiyatning rivojlanishi qonuniy va progressiv jarayondir. Rivojlanish jarayonida ijtimoiy mehnat taqsimoti muhim ijobiy rol' o'ynaydi.

Kont «Pozitiv siyosat sistemasi» asarida kishilarning siyosiy faoliyatiga alohida e'tibor berdi. Sivilizatsiya taraqqiyotida insoniyat uzluksiz ravishda jismoniy, axloqiy, aqliy va siyosiy jihatdan rivojlanadi.

Bu esa insoniyatning intellektual evolyusiyasi asosida sodir bo‘ladi. Kont o‘z ta’limotida jamiyat rivojlanishida garmoniya (uyg‘unlik) muammosini hal etishga, jamiyat barqarorligiga erishish yo‘llarini ko‘rsatishga harakat qildi.

Kont jamiyat garmoniyasi deganda ijtimoiy sistemaning qismlari va bo‘laklari ichidagi ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy biologik tomonlarning uyg‘unlashuvini nazarda tutdi. Jamiyat garmoniyasi har xil shaxslar va ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini uyg‘unlashtirish va moslashtirishdan iboratdir.

Siyosiy hokimiyat siyosatchilar va ijtimoiy sub’ektlarning manfaatlarini adolatli ravishda moslashtirishi lozim. Kont fikricha, jamiyat garmoniyasi va barqarorlikning muhim sharti jamiyatda tabaqalar, xalq va shaxsning normal yashash imkoniyatidir. Jamiyat garmoniyasi va barqarorligi faqat fan yordamida hal etiladi. Fan jamiyatdagi barcha qism va uyushmalar o‘rtasidagi munosabatlar mexanizmini yaratadi, ijtimoiy qatlam va shaxslararo manfaatlarni muvofiqlashtiradi.

O.Kontning ijtimoiy falsafaga oid qarashlari hozirgi davr uchun ham ahamiyatlidir. U jamiyatga yaxlit ijtimoiy sistema sifatida qaradi. Jamiyat rivojlanishining qonuniyatli va progressiv xarakterga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu jarayonda mehnat taqsimotining rivojlanishi, kishilarning siyosiy faolligi, fan va ma’naviy madaniyatning katta rol’ o‘ynashini alohida ta’kidladi.

Kont tomonidan ilgari surilgan jamiyatning garmoniyali rivojlanishi, ijtimoiy barqarorlik omillari va ijtimoiy sub’ektlar manfaatlarini moslashtirish zarurligi to‘g‘risidagi g‘oyalar bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir. Kontning pozitiv ta’limotida falsafa, tabiiy va ijtimoiy fanlarning dalillaridan keng foydalanish, jamiyatga ijtimoiy organizm deb qarash yetakchi o‘rinni egalladi.

Ijtimoiy falsafiy ta’limot yaratishga ingliz olimi va faylasufi **Gerbert Spenser** (1820-1903) munosib hissa qo‘shdi. U «Sintetik falsafa» asarida tabiiy va ijtimoiy hodisalarni sintetik asosda talqin etdi. Spenser yana «Boshlang‘ich asoslar», «Ilmiy-siyosiy va falsafiy tajribalar» kabi asarlarida jamiyatning organik nazariyasini yaratdi. Unda jamiyat rivojlanishida biologik va ijtimoiylik tomonlarning o‘zaro ta’sirini

ko'rsatdi. Jamiyatga biologik va ijtimoiy omillarning yaxlit birligi sifatida qaradi. Jamiyatni ijtimoiy-tabiiy birlik sifatida ta'rifladi.

G.Spenser evolyusiya muammosini o'ziga xos tarzda hal etdi, evolyusiyaga xos quyidagi muhim belgilarni ko'rsatdi: oddiydan murakkabga o'tish (integratsiya); bir xillikdan ko'p xillikka o'tish (differensiasiya); beqarorlikdan barqarorlikka o'tish.

G.Spenser ham O.Kont singari jamiyatga muvozanat, garmoniya va barqarorlik zarurligini ta'kidladi. Ijtimoiy muvozanat deganda kishilar hattiharakatining moslashuvini, ular manfaatlarining uyg'unlashuvini, ijtimoiy guruh va institutlar harakatida murosasozlik, o'zaro kelishuvlar bo'lishini nazarda tutdi. Ijtimoiy muvozanat kishilar va ijtimoiy institutlarning o'zaro aloqalarining tengligi sharoitida amal qiladi. Bu omil ijtimoiy barqarorlikni vujudga keltiradi.

Spenserning fikricha, jamiyatning inqirozga yuz tutishi ijtimoiy muvozanat, garmoniya va ijtimoiy barqarorlikni istisno etadi. Jamiyatning inqirozi (tanazzuli) Spenserning fikricha, davlat institutlari faoliyatining samarasizligi tufayli vujudga keladi. Hokimiyat, armiya, tashkilot institutlarning yaroqsizligi ham inqirozni yanada kuchaytiradi. Omma harakatiga ayrim shaxslar, siyosatchilar halaqit beradilar, harakatlarning birlashishi buzuladi, markazdan qochish tendensiyasi kuchayadi. Tartibsizlik sanoat va savdo tashkilotlarining faoliyatini izdan chiqaradi.

Spenserning ta'limoti hozirgi sharoitda katta ahamiyatga egadir. Pozitivizm falsafasi asoschilari O.Kont va G.Spenserning jamiyatdagi garmoniya va muvozanat ijtimoiy barqarorlikning asosidir, degan g'oyasi g'oyatda qimmatlidir.

Nemis faylasufi Maks Veber (1869-1920) ijtimoiy falsafa rivojiga salmoqli hissa qo'shdi va ijtimoiy falsafa tarixiy jarayon xarakteriga mos ravishda yangicha qarashlarni ilgari surdi.

Maks Veber o'zining «Protestantlik axloqi va kapitalizm ruhi», «Xo'jalik va jamiyat», «Sosial-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy bilishning ob'ektivligi», «Tushunish sosiologiyasining ayrim kategoriyalari to'g'risida» va boshqa asarlarida ijtimoiy falsafa muammolarini hal etishga harakat qiladi.

M.Veber ijtimoiy falsafani nazariy sotsiologiya deb ta'rifladi: ijtimoiy falsafa kishilar faoliyatini va xulq-atvorini o'rganishi kerak.

Jamiyat ayrim individlardan yoki ijtimoiy gruppalardan iborat bo'lishi mumkin. Ular inson faoliyatining dastlabki uyushmalaridir. Shunga muvofiq ijtimoiy falsafaning muhim masalasi ijtimoiy harakatlarni o'rganishdir. Ijtimoiy harakat, M.Veberning fikricha, kishilarning ongli, anglagan o'zaro munosabatlari sistemasi, o'zaro birbiriga ta'siridir. Inson harakati uning boshqa kishilarning harakatiga nisbatan javobidir. Ijtimoiy harakatdagi motivlarni, qadriyatlarni hisobga olish kerak. Ijtimoiy harakat sub'ektining ma'naviy dunyosini, qadriyatli yo'nalishini tushunmoq zarur.

M.Veber ijtimoiy falsafada ideal tiplar konsepsiyasi (g'oyasi)ni rivojlantirdi. Ideal tip nazariyasida ideal modelni yaratdi. Bu model inson uchun foydali bo'lib, uning manfaatlarini ifodalaydi. Ideal tiplarda axloqiy, siyosiy, diniy va boshqa qadriyatlar asosiy o'rin egallaydi. Shunga muvofiq kishilarning faoliyati va axloqining qoida va normalari belgilanadi. Ideal tiplarning ijtimoiy holati hokimiyat, shaxslararo munosabat, individual va guruh onglari holatlariga qarab belgilanadi. Ma'naviy va boshqa qadriyatlarning o'zaro aloqasi ideal tiplarni ijtimoiy ahamiyatli hodisalar darajasiga ko'taradi, inson hatti harakatining maqsadini belgilaydi, uni faollikka undaydi.

Shuningdek, Veber huquqiy davlat haqidagi nazariyasida bu davlat fuqarolarning munosabatlarini ratsionallashtiradi, qonunga asoslanadi, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy normalarga tayanadi, degan g'oyani ilgari surdi.

Umuman olganda, ijtimoiy falsafa tarixiy jarayon xarakteriga mos qarashlarni ilgari surmoqda. Ijtimoiy falsafa yo'nalishlari ko'p qirrali bo'lganligi sababli tarixiy jarayonning mohiyati va uning harakatlantiruvchi kuchlari to'g'risida ham turlicha qarashlar vujudga keldi.

Ijtimoiy falsafa bugungi dunyoda va mamlakatimizda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni tushunish ularga to'g'ri munosabatni shakllantirish, ularni hozirgi kunning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib baholash, voqelikdan oqilona xulosa chiqarishga yordam beradigan fandır. Shu ma'noda bugungi kunda ijtimoiy falsafa yo'nalishiga doir falsafiy masalalar tahlili ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada ijtimoiy falsafiy fikrlar rivojiga doir qarashlar, tarixining asl durdonalari nafaqat G'arb balki Sharqda yaratilgani yurtimiz sivilizatsiyasining ulkan hissasi

jahon madaniyatini eng buyuk yutuqlari sifatida muqarrar suratda e'tirof etilishi bugungi davrning asosiy haqiqatlaridan biridir.

Ijtimoiy falsafa masalalari o'tmishda ham hozir ham, u yoki bu olim mutaxassis yashagan davr uni o'rab turgan ijtimoiy muhit jarayonlari va voqealari bilan aloqadorlikda uzviy bog'liqlikda izohlanadi.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Suqrot falsafasida inson va jamiyat haqidagi qarashlarini tahlil qilib bering.
2. Platon ideal davlat to'g'risidagi orzulari negizida adolat g'oyasi yotadi. G'oyalar tahlilini ta'riflab bering.
3. Qadimgi Hind falsafiy qarashlarida ijtimoiy falsafiy munosabatlar masalasi qanday izohlab berilgan?
4. Qadimgi Xitoy mutafakkirlari falsafiy qarashlarida ijtimoiy falsafiy munosabatlar masalasini ochib bering.
5. O'rta asrlar, Uyg'onish va yangi davr falsafasida davlat va jamiyat boshqaruviga oid qarashlarning o'ziga xosligi nimalarda namoyon bo'ladi?
6. Zamonaviy O'zbekistonda ijtimoiy falsafa va uning rivojlanish istiqbollari to'g'isida fikringiz.

4-MAVZU: JAMIYAT YAXLIT IJTIMOIIY TUZILMA SIFATIDA

Reja:

1. Jamiyatning paydo bo'lishi to'g'risidagi paradigmalar.
2. Jamiyat tushunchasining zamonaviy talqinlari.
3. Tabiat va jamiyat qonunlari: umumiy va farqli jihatlar.

Tayanch tushunchalar: jamiyat, paradigma, ijtimoiy borliq, ijtimoiy hayot, ijtimoiy nazariya, ijtimoiy makon, ijtimoiy davr, iqtisodiy hayot, zamonaviy jamiyat, ochiq jamiyat, yopiq jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyat, axborotlashgan jamiyat, modernizatsiya.

Jamiyatning paydo bo'lishi to'g'risidagi paradigmalar. Biz avvalgi mashg'ulotlarda jamiyat tushunchasiga ta'rif berdik, uni insonlar, ular orasidagi munosabatlar, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy ongning shakllari va yana juda ko'plab tarkibiy qismlardan iborat ekanini aytib o'tdik. Jamiyat g'oyat murakkab va serqirra hodisa bo'lib, u muttasil

ravishda rivojlanib, o'zgarib boradi. O'zbekiston jamiyati misolida olsak, Harakatlar strategiyasi qabul qilingan 2017- yildan buyon o'tgan davrda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub o'zgarishlar, yangilanishlar ro'y berdi. Bularning bari xalq ommasining bunyodkorligi, rahbariyatning siyosiy irodasi tufayli sodir bo'lmoqda.

Insoniyatning ulug' allomalari juda qadim zamonlardan boshlab jamiyatning mohiyatini bilishga, insonning jamiyatdagi o'rni va rolini belgilashga harakat qilganlar. Turli tarixiy davrlarda jamiyatning kelib chiqishi va rivojlanishi to'g'risida mifologik, diniy, ilmiy va falsafiy qarashlar, tasavvurlar shakllangan. Insoniyat aqliy salohiyati yuksalib borgani sayin jamiyat to'g'risidagi qarashlar ham tobora takomillashib, o'ta sodda mifologik, diniy qarashlar o'rniga ilmiy-falsafiy ta'limotlar vujudga kelgan.

Jamiyat to'g'risidagi izchil ilmiy-falsafiy qarashlarning rivojlanishiga Markaziy Osiyo mutafakkirlari, qomusiy bilim egalari: Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino singari ulug' allomalar salmoqli hissa qo'shganlar. Ularning ilg'or qarashlari ko'p asrlar davomida ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish, komil inson shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi va hozirgacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino birinchi bo'lib jamiyat qanday paydo bo'lgan, degan savolga ilmiy asosda javob berishga harakat qilganlar. Insoniyat jamiyatining paydo bo'lish sabablarini odamlarda aql va tafakkurning rivojlanishi, kishilarning birdamlikka bo'lgan tabiiy intilishi bilan bog'laganlar. Ibn Sino jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni normal, ya'ni tabiiy holat ekanini ta'kidlagan. Mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega ekanini asoslagan. Markaziy Osiyo allomalarining jamiyat to'g'risidagi qarashlari keyinchalik Yevropa olimlari tomonidan yanada rivojlantirildi.

O'rta asrlarda Yevropa ijtimoiy-falsafiy tafakkurida diniy qarashlar yetakchi mavqeni egallagan edi. Bu davr mutafakkirlari (nominalistlar va realistlar) inson va jamiyatning qay biri oldin vujudga kelgan, degan masala atrofida bahs-munozara yuritganlar. Mashhur ilohiyotchi, Akviniyalik Tomas (ilgari Foma Akvinskiy deb noto'g'ri talaffuz qilingan) va uning izdoshlari inson va jamiyatning paydo bo'lishi Xudoning

irodasiga bog'liq, deb hisoblaganlar. Mana shunday qarashlar yaqin-yaqinlargacha hukmron bo'lgan.

XIX asr o'rtalariga kelib jamiyatni ilmiy asosda tadqiq etish, uning rivojlanish istiqbollari oldindan ko'rish, yetilgan ijtimoiy muammolarni ilmiy asosda hal etish hayotiy zaruriyatga aylandi. Bu davrda tabiiyotshunoslik fanlari sohasida erishilgan ulkan kashfiyotlar olimlarni jamiyat to'g'risida ham ilmiy nazariya yaratishga rag'batlantirdi. Tabiiyotshunoslik fanlarining ilmiy bilish metodlarini jamiyatni bilishga tatbiq etish yaxshi natijalar berishi mumkin, degan xulosaga chiqarildi. Jamiyat to'g'risida ilmiy nazariya – **sotsiologiya** fani vujudga keldi. Ijtimoiy falsafa sotsiologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning xulosalariga tayanib, jamiyat to'g'risida yaxlit ta'limot va dunyoqarash yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Yevropa ijtimoiy-falsafiy tafakkuri jamiyat to'g'risida yaxlit ta'limot yaratguniga qadar g'oyat mashaqqatli g'oyaviy kurash yo'lini bosib o'tdi.

Yevropa ijtimoiy falsafasida jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi to'g'risida izchil ta'limot yaratishga intilgan buyuk faylasuf Immanuel Kant (1724 – 1774) kishilik jamiyatining paydo bo'lishi axloqiy ongning rivojlanishi, oilaning vujudga kelishi bilan bog'ladi. Uning vatandoshi Georg Fridrix Vilgelm Gegel (1770 – 1831) jamiyatning paydo bo'lish sababini mutlaq ruh taraqqiyotining qonuniy natijasi sifatida izohladi.

Sotsiologiya faniga asos solgan fransuz faylasufi Ogyust Kont (1758 – 1820) esa, jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanishini insoniyatning ma'naviy taraqqiyoti mahsuli sifatida talqin etdi.

Ingliz faylasufi Gerbert Spenser (1820 – 1903) jamiyatni tabiatning ajralmas bir qismi, umumiy evolyusion jarayon mahsuli sifatida tushuntirdi; jamiyat va tabiatni bir-biri bilan qiyoslash orqali ular o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni ko'rsatdi.

Jamiyatning mohiyati, rivojlanish qonuniyatlarini turli ta'limotlar turlicha tushuntiradi. Jamiyat to'g'risidagi har bir falsafiy ta'limotda konkret tarixiy davrning ruhi, ma'naviy salohiyati o'z ifodasini topadi. Gegel iborasi bilan aytganda, jamiyat falsafa orqali o'zligini anglaydi. Chunonchi, sotsial darvinizm, marksizm, psixologizm (freйдizm, instinktivizm, xalqlar psixologiyasi) singari falsafiy ta'limotlar o'z qoida

va tamoyillaridan kelib chiqib jamiyatni tushuntirishga uringan. Bunday ijtimoiy qarashlar biryoqlama va hayotga zid bo'lgani uchun hozirgi paytda tanazzulga uchrab, o'z ahamiyatini yo'qotgan. Hozirgi zamon ijtimoiy falsafasi ana shu ta'limotlarning xato va kamchiliklarini to'g'rilab, ijtimoiy hayotga mos keladigan ilmiy nazariya yaratmoqda.

Ijtimoiy hayot sohalari. Etimologik nuqtai nazardan «ijtimoiy» degan so'z jamiyatga tegishli deganidir. U keng ma'noda jamiyatning barcha sohalari – iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa sohalari anglatadi. Tor ma'noda "ijtimoiy soha" deganda jamiyatning turli qatlam, guruh, sinflarga bo'linishi, aholining tug'ilishi, bandligi, ta'minoti va yana boshqa ko'plab jabhalar tushuniladi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 4-ustuvor yo'nalishi "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish"¹ deb nomlangan. Bu yo'nalish ishsiz yoshlarni kasbga o'qitish, ish bilan ta'minlash, maktabgacha ta'limdan boshlab barcha ta'lim turlari, sog'liqni saqlash va shu kabi 33 ta maqsadni ko'zda tutadi. Boshqa yo'nalishlarda bu darajada ko'p masalalar qamrab olinmagan.

Ijtimoiy sohaning asosini shaxsning ijtimoiylashuvi tashkil qiladi, ya'ni bunga uning me'yorlar, qadriyatlar, namunali xulq ko'rsatmalarini bajarishi kiradi. Agar iqtisodiy va ma'naviy sohalarda individ moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqaruvchi va ehtiyojlarni ta'minlovchi bo'lsa, siyosiy sohada siyosatning ob'ekti va sub'ekti bo'lsa, ijtimoiy sohada u ijtimoiy individdir, ya'ni u sotsium (jamiyat) a'zosi. Individ sotsiumga turli guruh va birlashmalar orqali a'zo bo'lgani uchun turli guruh va birlashmalarning faoliyati ijtimoiy sohaning asosiy mazmunini tashkil etadi. Ijtimoiy birlashmalar va guruhlar jamiyatning sotsial strukturasi tashkil qiladi.

Iqtisodiy hayot sohasi jamiyatdagi mavjud moddiy ishlab chiqarishni, yuksak darajada rivojlangan korxonalar, zavod va fabrikalarni nazarda tutadi. U jamiyat hayotining iqtisodiy sharoitlarini yaratishdan iborat bo'lgan murakkab ijtimoiy jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy hayot – bu odamlar faoliyatining jarayonlari va usullari majmuidir. Ijtimoiy hayotni qayta tiklashning uzluksiz jarayoni individlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni: "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvar. // <https://lex.uz/ru/docs/5841063>

va ular jamoalarining faol harakatlari tufayligina amalga oshishi mumkin. Turli jamiyatlarda inson faoliyatining turlari ularning ijtimoiy faoliyatini amalga oshirish texnologiyalari, usullari, vositalari va tashkil etish shakllariga ko'ra va bu faoliyat qaratilgan predmetlariga ko'ra xilma-xil bo'ladi. Inson faoliyatining predmetlari turli-tumandir. Ular orasida tabiatdan olingan predmetlar ham, sun'iy yaratilganlari (texnika) ham, ijtimoiy institutlar, biror narsa yoki inson to'g'risidagi g'oyalar va obrazlar ham bo'lishi mumkin. Inson o'zini ham o'z faoliyati yoki o'z g'alalar faoliyat predmetiga aylantirishi mumkin, ijtimoiy reallikning biror komponenti (jarayonlari, munosabati, strukturasi va h.k.) ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jamiyatning mavjudligi (yashashi) va faoliyat ko'rsatib turishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy faoliyat turlarining tobora progressiv differensiyalashib borishi ma'nosidagi mehnat taqsimoti jamiyat ijtimoiy hayoti va sotsial strukturasi nisbatan mustaqil bo'lgan sohalarini shakllantiradi. Aholining turli qatlamlari, guruhlari o'zlari bajaradigan faoliyat turiga ko'ra ijtimoiy hayotda o'z vazifasi, mansabi va o'riniga ega bo'ladi.

Ijtimoiy hayot va tabiat. Inson ongidan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan voqelik ikki turga bo'linadi: tabiiy voqelik va ijtimoiy voqelik. Ijtimoiy voqelikning o'ziga xosligini aniqlash uchun uni tabiat bilan taqqoslanadi. Maqsad – qanday qilib va qay darajada jamiyat va tarix o'zaro bog'liq ekanini aniqlash. Bu o'rinda birinchi navbatda jamiyat bilan jonli tabiatning munosabati to'g'risida gap ketadi. Hayot – bu alohida turdagi borliqdir va barcha jonli narsa tug'iladi, yashaydi, umri tugab vafot etadi.

Hayot – bu alohida organizmlar hayotimi, biologik populyatsiyalar, jinslar yoki turlar hayotimi, yoki Yer sharida mavjud «bir butun» hayotmi, biosferami – hammasi uzluksiz yangilanib turuvchi jarayondir. Ma'lumki, o'z-o'zidan yaralish qobiliyati hayotning eng umumiy va zaruriy belgisidir. Shubhasiz, jamiyat hayotining o'z-o'zini tiklash qobiliyati uning butun taraqqiyoti davomida hayot evolyutsiyasining biologik protsesslaridan farq qiladi. Biroq, barcha hollarda hayot organizmlarning (jumladan, ijtimoiy organizmlarning) yashash (mavjudlik) usuli bo'lgani uchun o'z-o'zini qayta tiklab turadi. Bunday «o'z-o'zidagi hayot» odamlarning maqsadga muvofiq faoliyati tufayli, sun'iy qurollar va vositalar yaratishdan farqli

o‘laroq, o‘z-o‘zini yaratuvchi jarayon, unga o‘zining yashashi va qayta yaratilishidan boshqa maqsadlar begona. Barcha tirik mavjudotning maqsadi o‘z hayotini davom ettirish, barcha tirik jonzot hayot faoliyatining bosh mahsuli o‘z naslini davom ettiruvchi tirik organizmda o‘zini qayta tiklab turishdir. Hayot, uning barcha shakllari va modifikatsiyalari o‘z-o‘zini saqlaydi, rivojlantiradi va tashqaridan o‘zining hayotiy faoliyati mahsulotlarini «ob’ektivlaydi».

Jamiyatlar va ularni tashkil qiluvchi odamlarning yashash usuli – bu ham shuningdek ularning birgalikdagi hayoti, faqat biologik emas, xos ijtimoiy hayoti hamdir. Ijtimoiy falsafada «hayot» tushunchasi – bu metafara yoki analogiya emas, undan ancha yuqoriroqdir. Bu tushuncha jamiyatning o‘ziga xos ijtimoiy reallik tarzida yashash usuli (borlig‘i)ni ochib beradi, u umuman hayotga o‘xshab, jamiyat va individlarning o‘z – o‘zini uzluksiz ravishda o‘z – o‘zidan qayta tiklash jarayonidir, bunday o‘z – o‘zidan tiklanish manbalari va maqsadlari ularning o‘z – o‘zida. Ijtimoiy hayotni qayta ishlab chiqarish jarayonining sub’ekti va mahsuli jamiyatning o‘zidir, u hayotlari vaqtida cheklangan odamlarning yashash usulidir.

Alohida individlar hayoti va jamiyat hayoti – bir narsa emas. Odamlarning, individuallarning tirik mavjudotlar organizmdagi bevosita biologik hayoti; ikkinchidan, individlarning konkret jamiyat tarkibidagi (tegishli ijtimoiy sifatlar bilan yo‘g‘rilgan) ijtimoiy mavjudligidir. Bu ikkisi har xil hayot emas, balki bir inson hayotining ikki o‘lchamidir. Odamlar – tirik mavjudotlar (organik ma’noda hayvonlar) bo‘lgani me’yorida jamiyatda ularning bevosita biologik hayotlari (tug‘ilish, yashash, o‘lish) qayta tiklanish amalga oshiriladi.

Hayot falsafiy tushunchasi ijtimoiy va biologik hayotni yagona bir hayotning har xil turlari sifatida yaqinlashtirsa, inson jamiyati hayot faoliyati usuli bilan hayvonlarning biologik jarayonlardagi xulqini taqqoslash ularning prinsipial farqini namoyon qiladi.

Jamiyat tushunchasining zamonaviy talqinlari. Ijtimoiy fanlarda, ayniqsa, falsafada jamiyat haqida juda katta hajmdagi ma’lumot va bilim to‘plangan. Lekin rivojlanish dialektikasi shundayki, har bir davr tahlil va tadqiq uchun yangi material beradi. Jamiyat to‘g‘risidagi shu paytgacha

mavjud qarashlar umumlashtirilganda, quyidagi xulosalar kelib. Chunonchi, jamiyat:

- moddiy dunyoning bir qismi bo'lib, odamlarning birligi va jamoaviy shakllarining tarixan rivojlanayotgan barcha usullari majmuidir;
- odamlarning tarixiy jihatdan o'zaro ta'sir usuli va birligi shaklidir;
- yashash vaqti va yashash joyi bir bo'lgan odamlarning (mintaqa, mamlakat va b.) majmui;
- odamlarning ma'lum maqsad yo'lida birlashishi;
- o'z vaqtini birgalikda o'tkazuvchi odamlar guruhi va boshqalar.

Jamiyat tushunchasining mohiyatini turli falsafiy maktab va yo'nalishlar, shuningdek alohida olingan olimlar turli yo'llar bilan tushuntiradilar.

Fransuz faylasufi va sotsiologi Emil Dyurkgeym (1858 – 1917) ning fikricha, «jamiyat – bu individlarning oddiy yig'indisidan iborat bo'lmay, maxsus xususiyatlarga ega bo'lgan, ularning birlashmasidan tashkil topgan, reallikni o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan «sui generis» (noyob holda) aks ettiradigan sistemadir».

Nemis faylasufi Maks Veber (1864 – 1920) jamiyatni insonlarning o'zaro ta'siridan, ya'ni ijtimoiy hatti-harakatidan tashkil topgan sistema deb ta'riflagan; bu hatti-harakatlar, uning fikricha, boshqa odamlarning hatti-harakatiga qarshi javob tariqasida yo'naltirilgandir. Maks Veber jamiyat rivojining asosini ijtimoiy faoliyatda, deb hisoblaydi.

Amerika sotsiologi va ijtimoiy falsafa bo'yicha mutaxassis – faylasuf Tolkott Parsons (1902 – 1979) fikricha, jamiyat qadriyatlar va me'yorlar bilan bog'langan odamlarning munosabatiga asoslangan tizimdir. Inson shularga asoslanib o'z ijtimoiy faoliyatini amalga oshiradi. Parsonsni ma'lum ma'noda Maks Veberning g'oyaviy merosxo'ri deyish mumkin.

Hozirgi davrning taniqli faylasuflari R.Aron, D.Bell, P.Blau, A.Giddens, R.Darendorf, G.Zimmel, F.Znaneskiy, T.Kun, K.Levi-Stross, K.Manngeym, R.Merton, X.Ortega-i-Gasset, K.Popper, P.A.Sorokin, E.Fromm, K.Yaspers va boshqalar jamiyat to'g'risidagi o'ziga xos fikrlarni bildirganlar. Ko'pchilik mutafakkirlar jamiyatning mohiyatini bir yoki bir nechta asosiy prinsip orqali tushuntiradilar. Masalan, O.To'fflerda – plyuralizm, U.Rostouda – bosqichma bosqichlik, K.Popperda – ochiqlik, R.Mertonda – universallik tamoyili ustunlik qiladi. Lekin masalaga jiddiy

qarovchi faylasuflar hatto o‘zlarining prinsiplarini ham mutlaq, o‘zgarmas deb hisoblamaydilar.

«Jamiyat» tushunchasini bir ma’noda ta’rif qilinsa bir qancha nazariy, metodologik va etimologik murakkabliklar yuzaga keladi:

birinchidan, bu tushuncha hajmi va mazmuni jihatdan juda keng;

ikkinchidan, bu tushuncha mavhum, ya’ni falsafiy kategoriyadir;

uchinchidan, bu tushuncha dinamik, ya’ni rivojlanuvchandir;

to‘rtinchidan, jamiyat faqat falsafa fanining predmeti bo‘lmasdan, hamma ijtimoiy fanlar tomonidan tadqiq etiladi;

beshinchidan, «jamiyat» atamasi turli ma’nolarda ishlatilishi mumkin.

Taniqli rossiyalik tadqiqotchi E.V.Tadevosyan o‘zining jamiyatga berilgan ta’rifida uning barqarorlik, bir butunlik, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘ziga to‘qlik, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, odamlarning ma’lum aloqadorligi va o‘zaro ta’sirda bo‘lishi, muayyan ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarning mavjudligi kabi xususiyatlarni ajratib ko‘rsatdi¹.

Jamiyat tushunchasi, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ma’nolardan tashqari, yana: biologik tizimlarning eng rivojlangan bosqichi; konkret aniq sotsium; ijtimoiy aloqalar va o‘zaro ta’sirlar shakli sifatida tushuniladi. Jamiyatni ajratib turadigan dastlabki xususiyati – bu odamlar hayotining ijtimoiy mohiyatini, ularning o‘zaro munosabatlari va o‘zaro ta’sirining ijtimoiy xususiyatlarini ifoda etadigan ijtimoiy birlikning mavjudligi.

Jamiyatni ajratib turadigan keyingi xususiyat – bu uning ijtimoiy makonda va ijtimoiy davrda mavjudligidir. Bundan tashqari, ijtimoiy makon va vaqt har doim ham jismoniy makon va vaqtga to‘g‘ri kelavermaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy makon ba’zi hududiy chegaralar va o‘z hududlari doirasidan tashqarida ham mavjud bo‘lishi mumkin.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida "ma’naviy makon" tushunchasi ilmiy muomalaga kiritildi. Yurtboshimiz bunday deb ta’kidlaydi: "Yangi ma’naviy makon nima? Mening nazarimda, u – biz orzu qilayotgan Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasini aks

¹ Qarang: Тадевосян Э.В. Социология. - М., 1999. 120-130-стр.

ettiradigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir"¹.

Jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda o'z-o'zini boshqarish va takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun maxsus organlar - ijtimoiy institutlar mavjud bo'lib, ulardan eng muhimi boshqalarning paydo bo'lishi va mavjudligini belgilaydigan oilaning ijtimoiy institutidir (nikoh, tarbiya, ta'lim, din va boshqalar). Quyida XX asrda vujudga kelgan va ma'lum bir ilmiy asosga ega bo'lgan nazariyalar keltirib o'tiladi:

Zamonaviy jamiyat. Jamiyat ochiq, yopiq, axborotlashgan va fuqarolik jamiyati kabi shakl ko'rinishlarga ega. Bir qarashga ko'ra, har qanday sivilizatsiyalashgan jamiyatning asosiy masalasi – uni tashkil etish masalasidir. Zamonaviy jamiyat ko'plab iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy-madaniy determinantlar asosida tashkil etilgan. Uni sanoatdan postindustrial (informatsion) jamiyatga "o'tish davri" deb atash mumkin.

Yopiq va ochiq jamiyat. Jamiyat ijtimoiy tizim sifatida ichkaridan ijtimoiy tuzilma bilan, tashqi tomondan esa, atrof-muhit tomonidan tashkil etilgan. Demak, mumkin bo'lgan tipologiyalardan biri – bu K.Popper (1902 – 1994) tomonidan turli xil jamiyatlarga xos bo'lgan madaniy, tarixiy va siyosiy tizimlar rivojlanishining turli bosqichlarida tavsiflash uchun joriy etilgan ochiq va yopiq jamiyatga bo'lishdir.

Yopiq jamiyat – K.Popper fikriga ko'ra – bu turg'un ijtimoiy tuzilish, harakatchanlikning cheklanganligi, yangilik qila olmaslik, an'anaviylik, dogmatik avtoritar mafkura bilan ajralib turadigan jamiyat turi. K.Popper demokratik tizimning himoyachisi sifatida totalitarizmga qarshi o'zining ochiq jamiyat g'oyasini ilgari surdi. Bu jamiyat individ erkinligi va hurfikrlilik asosiga qurilgan, ratsionallikka (oqillikka) asoslangan jamiyatdir. Ochiq jamiyat – bu dinamik ijtimoiy tuzilish, yuqori harakatchanligi, yangilik yaratish qobiliyati, tanqid qilish, individualizm va demokratik plyuralistik mafkurasi bilan ajralib turadigan jamiyat turidir².

K.Popperning “ochiq jamiyati” bir qancha qonuniyatlarga asoslangan. Jumladan, xalq hokimiyatchiligi (demokratiya); fikrlar xilma-

¹ Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, O'zbekiston, 2021, B.266.

² Поппер К. Открытое общество и его враги. - М., 1992. 15-стр

xilligi (plyuralizm); xususiy mulkchilik; individual erkinlik; ratsionallikka asoslangan individual manfaatdorlik. Popper “yopiq jamiyatlar” ni quyidagi qonuniyatlarini ko‘rsatib o‘tadi: totalitarizm, kollektivizm, irratsionalizm, utopizm.

K.Popper “ochiq va yopiq jamiyat tushunchalarni ijtimoiy falsafaga olib kirib, yopiq jamiyatni – totalitar siyosiy tuzumning mahsuli sifatida, ochiq jamiyatni esa, fuqarolar shaxs sifatida hisoblanadigan, muayyan qarorlar qabul qilishda fuqarolar ishtirok etadigan jamiyat deb ta’riflaydi. Ochiq jamiyat bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik erkinligi bilan bog‘liqdir. Uning fikricha dunyoda insonparvarlik tamoyiliga asoslangan ijtimoiy tuzumni tashkil etish uchun insoniyat quyidagi muhim vazifalarni ado etishi zarur:

- erkinlikni mustahkamlash, undan kelib chiqadigan mas’uliyatni anglash;

- dunyoda tinchlik o‘rnatish;

- qashshoqlikka qarshi kurash;

- zo‘ravonlikka qarshi ta’lim tarbiyani jadallashtirish.¹

Yigirmanchi asrda insoniyat tarixini quyidagi tarzda davrlarga ajratish rusum bo‘ldi:

- industrial (sanoat rivojlangan) bosqichgacha bo‘lgan jamiyat;

- industrial jamiyat;

- postindustrial jamiyat.

Industrial (sanoat rivojlangan) bosqichgacha bo‘lgan jamiyat.

Bugungi kunda ham hali sanoat to‘liq rivojlanmagan bosqichda yashayotgan mintaqalar bor. Jumladan, Afrika mamlakatlarining ko‘pchiligi, Lotin Amerikasi va Janubiy Osiyodagi qator davlatlar tarixning shu quyi bosqichida qolib kelmoqda. Bu o‘lkalarda asosan dehqonchilik, baliqchilik, chorvachilik, tog‘ va kon sanoati rivojlangan. Bularning bari tabiiy resurslardan bevosita foydalanishga qaratilgan sohalardir. Industrial jamiyatgacha bo‘lgan bosqichda hali o‘zlashtirilmagan tabiiy resurslardan foydalanish odamlarning hayotiy faoliyatida asosiy tamoyilni tashkil etadi.

Industrial jamiyat. Bu tur industrial jamiyatda shu mamlakatdagi energiya va boshqa resurslardan foydalaniladi. Bundan maqsad – xalq iste’mol tovarlarini ko‘proq ishlab chiqarish, jamiyat hayotini yaxshilash,

¹ Qarang: Поппер К. Открытое общество и его враги. - М., 1992. 15-стр

qulaylik yaratish. Ishlab chiqarishda avtomatlashtirishdan ko'ra mexanizatsiyalash ustun turadi, ommaviy standartlashgan tovarlar ishlab chiqarish ustun ravishda rivojlanadi. Bellning fikricha, industrial jamiyatning asosiy tamoyili o'zlashtirilgan tabiat uchun insonlar o'rtasida "kim o'zar" qabilida raqobat qilishdir. Toffler fikricha, ma'lum me'yorda ishlaydigan jamiyat odamlar standart asosida ishlash, yashash, turmush kechirishga ko'nikishi odamning o'zi ham standartlashib borishi asosida vujudga keladi.

Postindustrial jamiyat. AQSh, Yaponiya va Yevropadagi qator mamlakatlar postindustrial jamiyat bosqichiga o'tdi, bu jamiyatning eng asosiy tomoni – ijtimoiy ishlab chiqarishda informatsiya olishga, uni qayta ishlash va saqlashga qaratilgan. Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonida odamlar industrial jamiyatga qaraganda kam band bo'lmoqda. Mehnatga yaroqli kishilarning xizmat sohalaridagi ulushi ko'payib bormoqda.

Postindustrial jamiyatda taraqqiyot fan yutuqlarini ishlab chiqarishga maqsadli va tez joriy qilish asosida boradi. Fundamental fanlar ishlab chiqarishga izchillik bilan va ayni vaqtda jamiyatni fojeali oqibatlardan holi qilgan holda tatbiq etiladi. Jamiyatning hayotiy prinsiplari tubdan o'zgaradi. Inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabat ikkinchi o'ringa o'tib, inson bilan inson orasidagi munosabat asosiy o'ringa chiqadi. Insonlar o'rtasidagi munosabat tabiatga bo'lgan munosabatga emas, balki, aksincha, tabiatga bo'lgan munosabat insonlar o'rtasidagi munosabatga bog'liq bo'lib qoladi. Chunki insoniy munosabatlarni namoyon qilishi asosida odamzot tabiat va jamiyatni o'z uyiga aylantirish mumkin.

"Uchinchi to'lqin". Postindustrial jamiyat nazariyasiga yaqin ta'limotni O.Toffler o'zining "uchinchi to'lqin" nazariyasida bayon etgan. Uning fikricha, insoniyat uch texnologik to'lqinni boshidan kechirgan. Birinchi to'lqinda asosiy boylik Yer hisoblansa, ikkinchi to'lqinda ishlab chiqarish vositalari, texnika va texnologiya eng katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu to'lqin XIX asrdan boshlanib, XX asrning birinchi yarmiga kelib yakunlandi. Uchinchi – texnologik to'lqin avtomatika, elektronika va kompyuter texnikasini joriy qilish bilan belgilanadi. Bular keng ko'lamda ishga solingan konveyerlar bo'lib, ommaviy ishlab chiqarishni standartlashni cheklashga olib keladi.

“Uchinchi to‘lqin” jarayonida turmush tarzi bevosita shaxsiy ehtiyojni qondirishga qaratiladi, shaxsiy buyurtma, shaxsiy talab – konkret buyurtmani hisobga olishga tomon o‘tiladi. “Uchinchi to‘lqin” iqtisodiyoti shaxsdan ma’lum standartdagi qoida va vazifalarni bajarishni emas, mexanik harakatning tarkibiy qismi bo‘lib faoliyat ko‘rsatishini emas, balki zudlik bilan shaxsiy ehtiyojga muvofiq o‘zgara bilish, ijodiy yondosha bilishni talab qiladi. Natijada, uchinchi to‘lqin iqtisodiyotida, har bir yumushchidan tadbirkor bo‘lish, tashabbuskor bo‘lish talab qilinadi. Buning uchun shaxs ehtiyojini, uning estetik didi va axloqiy qiyofasini bilish taqozo etiladi. Bularning barchasi odamlar bilan samimiy munosabatda namoyon bo‘ladi. Insonlar har tomonlama rivojlangan bo‘lishi talab qilinadi. Jamiyat uchinchi to‘lqin bosqichiga kirar ekan, ta’limning ahamiyati yanada ortadi: undan keng bilimli, yuksak ma’naviy qiyofali shaxsni tayyorlash talab qilinadi. Bunday jamiyatda tarbiya, yoshlar muammosi, o‘tmish bilan vorislik, sog‘lom avlod masalasi birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘ladi.

Aynan shu mayllarni hisobga olib Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘zining "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi"¹ asarida davlatimizni dunyodagi eng rivojlangan 50 ta davlat qatoriga ko‘tarish uchun eng avvalo ta’lim sohasini, ilm-fan va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish – asosiy maqsad bo‘lishi kerakligini ta’kidladi.

Modernizatsiya nazariyasi. XX asrning 70-yillarida ijtimoiy hayotda “modernizatsiya” deb atalgan konsepsiya haqida turlicha fikrlar vujudga keldi. Ushbu asr hosilasi bo‘lgan postindustrial jamiyat va "uchinchi to‘lqin" dan so‘ng modernizatsiya nazariyasi jamiyatning izchillik bilan rivojlanish evolyusiyasini ko‘rsatib berdi. Shuningdek bu uchta nazariya ijtimoiy hayotning hozirgi bosqichida evolyusiyaning turli davrida turgan mamlakatlarni tahlil qilishda fundamental nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Jamiyatlar bir-biridan ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va texnologiya jihatdangina emas, balki insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning xillari nuqtai nazaridan ham, yangi dunyoqarash, yangi munosabatlarning vujudga kelishi bilan ham farq qiladi.

Modernizatsiya nazariyasi, o‘tmish nazariyasidan farqli o‘laroq, jamiyatning dunyo miqyosidagi turli-tumanligini chuqurroq o‘rganadi. Bu

¹ Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, O‘zbekiston, 2021, B. 128-200

nazariya ijtimoiy hayotni G'arb mamlakatlari nuqtai nazaridangina emas, undan tashqaridagi dunyo nuqtai nazaridan va hodisalar asosida kengroq tahlil qiladi. Modernizatsiya nazariyasiga ko'ra, jamiyat ikki xilga bo'linadi: an'anaviy jamiyat va hozirgi jamiyat. An'anaviy jamiyatdan hozirgi jamiyatga o'tish jarayoni modernizatsiya deb ataladi.

G'arbda modernizatsiya XIX asrning birinchi o'n yilligidan XX asrning 50 -yiligacha bo'lgan davrni tashkil qilgan. Modernizatsiya davri ma'lum darajada D.Bellning industrial jamiyat haqidagi konsepsiyasiga mos keladi.

Modernizatsiya nazariyasiga ko'ra, an'anaviy jamiyat hayotida diniy va mifologik tasavvurlar ustuvor bo'ladi, rivojlanish bosqichma-bosqich o'tadi. Jamoaviylik asosiy o'rinni egallab, shaxsning individualligi e'tiborga olinmaydi. Aql-idrok, ijodiy tafakkur, narsalar va buyumlar qadriga unchalik ahamiyat berilmaydi; hokimiyat asosan avtoritar xarakterga ega bo'ladi, inson ruhiyatida an'analar, eski urf-odatlariga asosiy e'tibor qaratiladi, yangiliklar ustidan an'analar hukmronlik qiladi.

Hozirgi modernizatsiyalashgan jamiyat tushunchasi an'anaviy jamiyatdan tubdan farq qiladi. Bunda an'anaga qaraganda yangilik ustun turadi. Sotsial hayotning ilmiy talqin qilinishi, bosqichli rivojlanishi, shaxsning o'ziga xosligining ajratilishi, amaliy hayot qadriyatiga ustun darajada e'tibor berish; hokimiyat tizimida liberal-demokratiya o'rnatilishi, ishlab chiqarishning maqsadi kundalik ehtiyojni qondirishga emas, balki kelajakka qaratilishi, ko'pchilik odamlarning faollashishi, faoliyatda bo'lish psixologiyasining shakllanishi ro'y beradi. Modernizatsiya nazariyasiga ko'ra, "hozirgi" tushunchasi xronologik ma'noni bildirmaydi. Bugungi kunda mavjud bo'lganlar jamiyatlar hammasi ham "hozirgi" bo'lavermaydi. Ularning ko'pi an'anaviy bo'lib qolib kelmoqda. Ba'zi davlatlar esa, postmodernizatsiya jamiyatiga o'ta boshladi.

Demak, hozirgi zamon ijtimoiy hayot tipiga jamiyatning o'ziga xosligi, ma'lum qiyofasi, qalbi, ruhi, hayot tarzi, fikrlash uslubi kiradi. Bu "modernizm" atamasi bilan ataladi. Hozirgidan keyingi jamiyat esa "postmodernizm" deb ataladi. Modernizatsiya jarayonida liberallashtirish (erkinlashtirish) va hozirgi zamon ilmiy-texnik jarayonni o'zlashtirish qadriyatga aylanib boradi. Bu ikki qadriyat jamiyatda hal qiluvchi kuchga ega bo'ladi.

Bizning davrimizda liberallashtirishning ikki turini farq qiladilar: siyosiy va iqtisodiy erkinlashish. Bugungi kunda liberallashtirish yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Jamiyatning faqat siyosiy va iqtisodiy sohalarini emas, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalarini demokratlashtirish va erkinlashtirish muhim hisoblanadi.

Axborotlashgan jamiyat – ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish, eng avvalo axborot tayyorlash, unga “ishlov berish”, saqlash va jamiyat a'zolariga yetkazish bilan bog'liq bo'ladigan ishlarga sharoit yaratuvchi jamiyatdir. Axborotlashgan jamiyat muammolari bilan yetakchi sotsiolog va faylasuflar – D.Bell, A.To'ffler, M.Kastels, U.Rostou va boshqalar shug'ullandilar.

Yapon olimlarining hisobiga ko'ra, axborotlashgan jamiyatda kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manбайдan foydalanish, axborotlarni tayyorlash va ijtimoiy sohalarda axborotni qayta ishlashni avtomatlashtirishning yuqori darajasini ta'minlashga imkon beradi.

Axborotlashgan jamiyat tushunchasini birinchi bo'lib ilmiy muomalaga 1960 yilning ikkinchi yarmida Tokio texnologiya universiteti professori Yu.Xayash kiritdi. Uning fikricha, moddiy mahsulot emas, balki axborotlashuv mahsuloti jamiyatning shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Axborotlashgan jamiyatda ishlab chiqarishning manbai bilimni to'plash texnologiyalari, axborotni qayta ishlash va axborot kommunikatsiyalariga bog'liq bo'ladi. Bilim va axborot hozirgi kunda jamiyat rivojining asosiy manbai hisoblanadi. Axborotlash jamiyat haqidagi qiziqarli konsepsiyalardan yana biri I.Mas'udaga tegishlidir. Uning fikricha, axborotlashgan jamiyatda insoniy qadriyatlar o'zgaradi, bu jamiyat sinflarga bo'linmaydi va ziddiyatsiz, ya'ni ahil va tinch-totuvlikda hayot kechiruvchi jamiyat bo'lib, uni yuqoriroq hukumat va davlat apparati boshqaradi.

Axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga O'zbekistonda ham kuchli e'tibor qaratilmoqda. 2020-yilni respublikamizda "Ilm-fan, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinishi, Prezident Farmoni asosida Davlat dasturining qabul qilinishi bu fikrimiz isbotidir.

Tabiat va jamiyat qonunlari: umumiy va farqli jihatlar. Jamiyat g'oyat murakkab va serqirra hodisa bo'lib, mustaqil ravishda o'zgarish va rivojlanish xususiyatiga ega. Insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish asosiga qurilgan bu ijtimoiy tuzum ob'ektiv qonunlar asosida rivojlanib boradi.

Shu o'rinda muayyan tizimlarni tartibga soluvchi va ularning taraqqiyot tendensiyalarini ifodalovchi qonun haqida to'xtalish lozim. Qonun muayyan shart-sharoitda voqealar rivojining xususiyati va yo'nalishini belgilaydigan, ma'lum qat'iy natijani taqozo etadigan ob'ektiv dunyodagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlaridir.

Har qanday qonun ma'lum shart-sharoitda ijtimoiy hodisa va jarayonlar rivojlanishining tabiati va yo'nalishini belgilab beradi. Shunday ekan "shart-sharoit" tushunchasi qonunlarning ta'sir doirasi, qonun namoyon bo'lish shakli bilan o'zaro nisbati, umumiy va juz'iy qonunlarning o'zaro aloqadorligi, tarixiy xususiyati, qonunlarni bilish va ulardan amalda foydalanish masalalarini o'rganish va ularning mohiyatini ochib berish uchun kalit bo'lib xizmat qiladi. Xullas, qonun muammosini o'rganishning hamma jihatlarini "shart-sharoit" tushunchasi bilan umumiy, muhim va zaruriy aloqada bo'lib, bunda "shart-sharoit" tushunchasi "qonun" kategoriyasining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Har qanday ijtimoiy hodisa va jarayonlarning rivojlanishi nafaqat qonunlar bilan, balki ma'lum tarixiy shart-sharoit bilan ham belgilanadi. Shuning uchun ijtimoiy jarayonlarni ilmiy bilish va boshqarish vazifasi faqat qonunlarni emas, balki shu qonunlar ta'sirini belgilab beradigan shart-sharoitni ham chuqur va batafsil o'rganishni talab etadi.

Bizga ma'lumki, hodisa – turli xususiyatga ega bo'lgan bog'lanishlar va aloqador tomonlarning birligi, qonun esa hodisadagi turli xil aloqalar va bog'lanishlarning barchasini emas, faqat ayrimlarini, ya'ni biz yuqorida aytib o'tganlarini aks ettiradi. O'z-o'zidan ravshanki, hodisaning qolgan barcha bog'lanishlari, tomonlari qonunning ro'yobga chiqishi, amal qilishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi. Qonunning shart-sharoit bilan bog'liqligi masalasi qonunlarning o'zaro aloqadorligi masalasi bilan uzviydir.

Chunki ijtimoiy borliq, undagi hodisa va jarayonlar, ular o'rtasidagi aloqadorlik va bog'lanishlarni kuzatsak, jamiyatning bir tizimidagi qonunlar uning ikkinchi tizimidagi qonunlarga shart-sharoit bo'lishini payqaymiz.

Ijtimoiy hodisa va jarayonlar vujudga kelishining sabablariga qarab shu hodisalarni, voqealarni keltirib chiqaradigan bosh shart-sharoitlar bo'ladi. Respublikamiz, xalqimiz uchun ana shunday bosh shart-sharoit mustaqillikdir. Mustaqillik bizning jamiyatimiz uchun yana "zaruriy shart-sharoit" ham hisoblanadi. "Zaruriy shart-sharoit" deganda biz sabab va oqibat zanjiridagi bog'lavchi xalqani tushunamiz. Chunki faqat zaruriy shart-sharoitdagina ma'lum oqibatlar vujudga kelishi mumkin.

Qonunlar amal qilish sohasiga qarab tabiat va jamiyat qonunlariga bo'linadi. Bu qonunlarning quyidagi farqlari mavjud bo'lib, ular: tabiat qonunlari tabiatdagi stixiyali kuchlarning o'zaro ta'siri shaklida namoyon bo'lsa, ijtimoiy taraqqiyot qonunlari esa ongga ega bo'lgan kishilarning faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Uzoq amal qiluvchi tabiat qonunlaridan farq qiluvchi jamiyat qonunlari qisqaroq vaqt ichida amal qilish xususiyatiga ega; tabiat qonunlariga ko'ra jamiyat qonunlari yuqori tezlikda rivojlanadi; tabiat qonunlari yer yuzida insonlar bo'lmagan vaqtda ham mavjud bo'lgan. Jamiyat qonunlari esa inson faoliyati natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy shart-sharoitlar bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan. Yuqoridagi farqlardan kelib chiqib, jamiyat qonunlariga shunday ta'rif berish mumkin: jamiyat qonunlari – jamiyatning muayyan ijtimoiy, tarixiy shart-sharoitida ijtimoiy jarayonlar rivojining xususiyati va yo'nalishini belgilaydigan, ma'lum bir qat'iy natijani taqozo etadigan, nisbiy barqaror munosabatlaridir.

Jamiyat qonunlari ham tabiat qonunlari kabi ob'ektivdir. U qonunlar kishilarning irodasi va ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lib, ma'lum sharoitda insonlar bu qonunlarni bilishlari va ulardan foydalanishlari mumkin. Lekin bu qonunlarni ular bekor qilmaydilar yoki yo'q qila olmaydilar.

Qonunlarning amal qilish muddati va jarayonlar qamrovi muayyan ijtimoiy shart-sharoitlarni taqozo etadi. Uning o'zgarishi yoki faoliyatini to'xtatib boshqa qonunlarga o'z o'rnini bo'shatib berishi inson xohish-istaklari va irodasiga bog'liq bo'lmay, balki shu qonunlar faolligini

ta'minlab turgan muayyan ijtimoiy shart-sharoitlarning o'zgarishi yoki yo'qolishi bilan bog'liqdir. Jamiyat qonunlari alohida ijtimoiy jarayonlarni qamrab olmaydi, balki dialektika qonunlari asosida o'zaro ta'sirda, uyg'unlikda amal qiladi. Jamiyat qonunlari ham dialektika qonunlariga ko'ra tadrijiy o'zgarib borish, o'z kuchini yo'qotish va yangisiga o'z o'rnini bo'shatib berish, intensiv rivojlanib borish, ekstensiv kengayib borish va yangilarni keltirib chiqarish, o'zaro aloqadorlikda faoliyat yuritish xususiyatlariga ega.

Jamiyat taraqqiyotining muhim qonunlaridan biri jamiyatning o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini tashkil qilish qonunlaridir. Har bir jamiyat tarixning orqaga qaytmas rivojlanish jarayonida o'z taraqqiyotini avvalo shu ikki qonun asosida belgilaydi va yo'naltiradi. Bu jamiyatning xuddi biologiyadan odamning va boshqa jonzotlarning ob'ektiv shart-sharoitlariga adaptatsiya, ya'ni moslashuvi sifatidagi o'z-o'zini takomillashtirib boruvchi tabiiy jarayonning ijtimoiy shaklidir. Ammo jamiyatning bunday shakllanib borishi o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Bu jarayon: avvalo taraqqiyot sub'ektlari: inson va alohida yetakchining nazariy va amaliy faoliyatiga hamda intellektual va ma'naviy salohiyati darajasiga bog'liq holda amalga oshadi. Bundan quyidagi xulosaga kelinadi: jamiyat o'z-o'zini boshqaruvchi va tashkil qiluvchi sistemadir.

Ammo bu ikki qonunning namoyon bo'lishi uchun muhim ijtimoiy shart-sharoitlar kerak bo'ladi. Bular: jamiyatning siyosiy jihatdan mustaqil bo'lishligi; jamiyatdagi insonlar siyosiy jihatdan faol bo'lishi, kuchli ijtimoiylashuv muhitining mavjudligi; huquqiy-siyosiy ong va madaniyatning yetukligidir. Birinchi omil asosiy omil hisoblanib, keyingi omillar uning natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Ayrim hollarda esa, qolgan omillar birinchi omilni yuzaga keltiradi yoki bir vaqtda o'zaro dialektik aloqada ta'sir ko'rsatadi.

Sobiq Ittifoqning mustabid totalitar tuzumi hukmronligi davrida bu qonunlar deyarli amalda bo'lmadi. Bu qonunlarni jamiyat taraqqiyotiga to'g'ri va xolisona yo'naltirilishini nazorat qiluvchi mezon – inson omilidir. Ya'ni har bir ijtimoiy qonun insonning baxt-saodati uchun yo'naltirmog'i kerak. Jamiyat qonunlarini to'g'ri anglab olish va amaliyotga qo'llash ijtimoiy faoliyatning insonparvarlik tamoyilidan kelib chiqmog'i lozim. Jamiyatning o'z-o'zini tashkillashtirish qonuni inson

faoliyati bilan bog'liq holda kechadigan ijtimoiy jarayondir. Uning sub'ekti inson va xalqdir. O'z-o'zini boshqarish qonuniga ko'ra jamiyat ikki sistema uyg'unligidan iborat: boshqaruvchi ichki tizim va boshqariluvchi ichki tizim.

Avvalo bu qonun jamiyatning siyosiy hayotini aks ettiruvchi qonun bo'lib, ijtimoiy hayotning boshqa sohalariga ham bevosita ta'sir etish xususiyatiga ega. Bu qonunning asosiy mohiyati shundaki, jamiyat boshqaruvchi tizimni o'z manfaati yo'lida yaratadi. Boshqariluvchi tizim ko'pchilikni tashkil etib, jamiyatda «xo'jayin» hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini tashkil qilish qonunlari demokratik boshqaruv tizimlarida faol harakat qiladi. Bu ikki qonun jamiyatning va uni boshqaruvchi ichki tizim bo'lgan davlat apparatining normal va uzoq vaqt faoliyat yuritishini kafolatlaydi.

Jamiyatning o'z-o'zini boshqarish qonuni demokratik jarayonlardagi o'z-o'zini tashkil qilish qonuni bilan o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Aynan demokratiya – o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini tashkil qilish qonunlarining eng yuksak shaklidir. Ammo demokratiyani bu qonunlar bilan aynanlashtirib qo'ymasligimiz lozim. Bular ma'lum tamoyillarga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Jamiyatning har ikki qonuni ham o'z navbatida bir-biridan farq qiladi va bir-birini o'zaro to'ldiradi. Bunday farqlar va uyg'unlik dialektika qonunlarining namoyon bo'lishi bilan amalga oshadi.

Jamiyat qonunlarining ta'siri va namoyon bo'lishi, ba'zan anglangan, ba'zan esa anglanmagan shaklda ro'yobga chiqadi. Jamiyat rivojlanishi tabiiy-tarixiy jarayon sifatida ikki siyosiy xususiyatga ega:

birinchidan, odamlar o'z tarixlarini faqat ma'lum ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitda yaratadilar. Har bir avlod undan ilgarigi avlod yaratgan va ma'naviy boyliklarga ega bo'ladi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish jarayonini rivojlantirib borish uchun o'tmish avlodlar faoliyatiga tayanib ish ko'radi;

ikkinchidan, inson moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish jarayonini jamiyatning uzoq kelajakdagi oqibatlarini hisobga olib emas, balki o'zining shaxsiy va guruhij ehtiyoji hamda manfaatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirib boradi. Shu jarayonda kishilarning turli xil manfaatlari ba'zan to'qnash kelib qoladi. Albatta, inson har bir hatti-

xarakati bilan ma'lum maqsadni ko'zlasa-da, ushbu maqsadga kamdan-kam holatlardagina erishadi. Ko'pincha inson faoliyatining natijasi kutilmagan salbiy oqibatlarga olib keladi. Bu shundan dalolat beradiki, har bir avlod ijtimoiy hayotga qadam qo'yar ekan, jamiyatda muqim o'rnatilgan munosabatlarga duch keladi va o'z xohish-irodasiga qarshi ravishda unga bo'ysunishga majbur bo'ladi. Bu o'rinda biz qonunlarning anglanmagan ravishda amal qilishini kuzatamiz.

Jamiyat qonunlarining anglangan kuch shaklida namoyon bo'lishiga, avvalo, jamiyat va inson tomonidan ongli ravishda ba'zi qonunlar ta'sir doirasini cheklash va ba'zilari uchun esa, aksincha, keng sharoit yaratish orqali erishiladi.

Inson jamiyat qonunlarning ob'ektiv talablarini va ular amal qilishi uchun qulay shart-sharoit yaratish zarurligini anglab yetmas ekan, bu qonunlar uning xohish-irodasiga teskari ta'sir etish orqali uni o'zining passiv xizmatkoriga aylantirib qo'yadi.

Kishilarning jamiyat qonunlarini bilishga va ulardan o'z amaliy faoliyatida foydalanishga intilishlari tabiiydir. Lekin ijtimoiy jarayonlar juda murakkab, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'zining rivojlanish bosqichlarida juda ko'p hollarda ziddiyatli munosabatlar ta'sirida bo'lganligi tufayli "hukmron yo'nalish shaklida" namoyon bo'ladi. Bunda qonun talabidan kelib chiqadigan ijtimoiy-tarixiy jarayon umumiy rivojlanish yo'nalishidan bevosita emas, balki juda ko'p chetga chiqishlar, buzilishlar bilan birga kelib chiqadi. Natijada bu jarayonlarning bizga oldindan ma'lum bo'lgan qonuniyatlarini ham o'z vaqtida va to'g'ri anglamay qolamiz.

Jamiyat qonunlari muayyan tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqib, "mutlaq zaruriyat" shaklida, ya'ni aniq namoyon bo'ladi. Jamiyat qonunlarining aniq namoyon bo'lishi, qonun talablaridan kelib chiqadigan va unga mos keladigan natijalarga erishishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoit yetilgan vaqtda ro'y beradi. Bunday hollarda tarixiy jarayonlarning kechishi, jamiyat a'zolarining yaratuvchanlik yo'lidagi sa'y-harakatlari tezlashuviga sabab bo'ladigan qonunlar talablarini o'z vaqtida anglab yetish va zaruriy shart-sharoitni ta'minlash asosida amalga oshadi. Bunga misol qilib biz totalitar tuzumdan demokratik tuzumga o'tish davrida davlatning islohotlarga boshchilik qilishini keltirishimiz mumkin, chunki

bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning aralashuvisiz mavjud resurslardan samarali foydalanib bo'lmaydi; davlat esa iqtisodiyotini tartibga solib, talab hamda takliflarni o'zaro muvofiqlashtiradi va shu asosda iqtisodiyotni tanazuldan olib chiqadi.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, har qanday ijtimoiy qonun kishilarning amaliy faoliyati natijasidagina namoyon bo'ladi. Shu tufayli ham bu qonunlar ba'zan jamiyatdagi ma'lum guruhlar, qatlamlarga duch keladi, oqibatda qonunlar "to'liq bo'lmagan" holda, "kam kuch" bilan namoyon bo'ladi, amalga oshadi. Jamiyat qonunlarning yetarlicha namoyon bo'lmasligi ba'zan boshqa bir qonunlarning ta'siri sabab bo'lishi mumkin. Qonunlarning bunday o'zaro ta'siri natijasida ularning ta'sir kuchi ba'zan bir-biriga qarshi, to'qnash holda amal qilishi tabiiydir.

Jamiyat qonunlarining "kam kuch" bilan namoyon bo'lishining sabablaridan yana biri – ularning ro'yobga chiqishi uchun noqulay shart-sharoitning mavjudligidir. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, muayyan jamiyat, davlat, ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar mazkur jamiyatdagi mavjud ijtimoiy guruhlar, tabaqalarning ehtiyoj va manfaatlarini hamda ular o'rtasidagi mutanosiblikni, mavjud iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlarni yetarli darajada e'tiborga olmasliklari va atroflicha bilmasliklari tufayli ko'pincha o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga to'liq erisha olmaganlar.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Jamiyat paydo bo'lishi haqidagi qanday paradigmalarni bilasiz?
2. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining jamiyat to'g'risidagi qarashlarini tahlil qilib bering.
3. Til va tafakkurning o'zaro aloqadorligi nimalarda namoyon bo'ladi va ularning qanday ijtimoiy funksiyalari mavjud?
4. Ijtimoiy hayot sohalari deganda nimani tushunasiz?
5. Iqtisodiy hayot sohasi nima?
6. Jamiyat tushunchasining zamonaviy talqinlari to'g'risida gapirib bering.
7. Tabiat va jamiyat qonunlari qanday umumiy va farqli jihatlarga ega?

5-MAVZU: JAMIYAT HAYOTINING ASOSIY SOHALARI

Reja:

1. Jamiyat hayotining moddiy sohasi. Iqtisodiyot va ma'naviyatning o'zviy bog'liqligi.
2. Jamiyat hayotining ijtimoiy sohasi.
3. Jamiyat hayotining siyosiy sohasi. Jamiyat siyosiy hayotida davlatning o'rni.
4. Jamiyat hayotining ma'naviy sohasi.

Tayanch tushunchalar: Jamiyating moddiy hayoti, moddiy ishlab chiqarish, iqtisodiy hayot sohasi, moddiy munosabatlar, iqtisodiy munosabatlar, mulkiy munosabatlar, jamiyatning ijtimoiy hayoti, jamiyat hayotining siyosiy sohasi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, fuqarolik jamiyati, milliy davlatchilik xususiyatlari.

Jamiyat hayotining moddiy sohasi. Iqtisodiyot va ma'naviyatning uzviy bog'liqligi. Har bir inson hayotining turli sohalarida (o'qish, ish, oila) aylangani kabi, ijtimoiy hayot ham odamlar faoliyatining turli sohalar bilan ifodalanadi.

Jamiyat hayotining to'rtta asosiy quyi tizimi yoki sohasi mavjud: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy.

Jamiyatning moddiy hayoti moddiy qadriyatlarni ishlab chiqarish va odamlarning moddiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq ijtimoiy hayot sohasidir.

Jamiyatning moddiy hayotiga: kishilarning yashashlari, shaxs sifatida kamol topishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar; oziq-ovqat, kiyim - kechak, turarjoy, yoqilg'i, kommunikasiya vositalari; moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish; ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasi; moddiy boyliklar, tabiiy zahiralari kiradi. Odatda, jamiyat moddiy hayotining quyidagi elementlari ajratiladi.

Moddiy ehtiyojlar. Ehtiyoj - bu sub'ektning normal faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ehtiyoj yoki kamchilikni sezadigan holatidir. Moddiy ehtiyojlarga misollar: oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy - joy, texnik qurilmalarga bo'lgan ehtiyoj va boshqalar kiradi. Jamiyatning moddiy hayoti kishilar uchun tirikchilik ne'matlari, vositalari yaratishga qaratilgan. U kishilarning moddiy ehtiyojlarini qondirishga imkon

beradi. Moddiy ishlab chiqarishda jismoniy mehnat kishisi asosiy rol o'ynaydi. To'g'ri, bu sohada aqliy mehnat kishilari, (injener, agronom, zootexnik, rahbarlar va h.k.) ham faoliyat ko'rsatadi, biroq yetakchi mavqeni jismoniy mehnat xodimlari egallaydilar. «Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish va olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish - bu sohadagi o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlaridir¹.»

Moddiy faoliyat. Moddiy faoliyat moddiy qiymatliklarni ishlab chiqarish bilan bog'liq jarayondir. Moddiy faoliyatning asosiy elementi moddiy ishlab chiqarishdir. Bu odamlar tabiat ob'ektlarini o'z ehtiyojlarini qondirish uchun aylantiradigan jarayondir. Moddiy munosabatlar - jamiyatning moddiy hayotidagi predmetlar orasida paydo bo'ladigan bog'lanishlardir. Bularga: 1) ishlab chiqarish munosabatlari; 2) ishlab chiqaruvchi kuchlar; 3) tashkiliy-texnik munosabatlar (masalan, dizayner va sozlovchi, peshqadam va jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatlar) kiradi.

Moddiy ishlab chiqarishsiz jamiyat hayotining normal tabiiy rivojlanishini hatto tasavvur etib bo'lmaydi. Biroq moddiy soha ahamiyatini haddan tashqari bo'rttirishni, butun e'tiborni moddiy ishlab chiqarishga qaratish ham jamiyatni ma'naviy inqirozga olib kelishi mumkin. Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, hozirgi paytda tovar ishlab chiqarishga nisbatan xizmat ko'rsatish sohasi foydaliroq bo'lib qolyapti. D.Bell, 3.Bzejnskiy singari G'arb olimlari o'z tadqiqotlarida postindustrial jamiyatda moddiy ishlab chiqarishning ahamiyati tobora kamayib borishini ko'rsatganlar.

Moddiy soha-ishlab chiqarishning faoliyat ko'rsatish sohasi, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini bevosita amalga oshirish, xalq ishlab chiqarish munosabatlarining butun majmuini amalga oshirish, shu jumladan, ishlab chiqarish vositalariga egalik munosabatlari, faoliyat almashinuvi va moddiy tovarlar taqsimoti.

Moddiy sohaga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarish - taqsimot-ayirboshlash moddiy tovarlar sarfi.

¹ Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.- Toshkent, «O'zbekiston», 2000.-B.31.

Moddiy soha mamlakatning iqtisodiy hayoti tashkil etiladigan, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarining o‘zaro aloqasi hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlik amalga oshiriladigan iqtisodiy makon vazifasini bajaradi. Bu yerda kishilarning iqtisodiy ongi, ularning ishlab chiqarish faoliyati natijalariga moddiy qiziqishi hamda ijodiy qobiliyatlari bevosita amalga oshiriladi. Bu yerda xo‘jalik boshqaruvi institutlari faoliyati ham amalga oshirilmoqda.

Moddiy ijtimoiy munosabatlar xilma-xil bo‘lib, ularning eng asosiysi - moddiy ishlab chiqarish munosabatlaridir. Moddiy ishlab chiqarish deganda, avvalo inson hayoti uchun zarur bo‘lgan, moddiy ne‘matlarni ishlab chiqarish nazarda tutiladi. Ayni vaqtda moddiy ishlab chiqarish inson hayotining o‘zini ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Moddiy ishlab chiqarish jamiyat a‘zolarining moddiy hayot uchun zarur bo‘lgan moddiy ehtiyojlarni qondirish zarurati tufayli amalga oshiriladi. Jamiyat kishilar hayoti uchun zarur bo‘lgan moddiy ne‘matlarni va o‘z – o‘zini ishlab chiqarmasdan turib mavjud bo‘lmaydi. Aslida insoniyat tarixi tirikchilik vositalarini ishlab chiqarishdan boshlagan. Moddiy ishlab chiqarish ikki asosiy tarkibiy elementdan tashkil topgan.

1. Ishlab chiqarishning texnologik usuli,
2. Iqtisodiy ishlab chiqarish usuli.

Ishlab chiqarishning texnologik usuli deganda, kishilarning mehnat predmetlari va mehnat vositalariga munosabatlari nazarda tutiladi. Ishlab chiqarishning texnologik usuli “texnika”, “texnologiya” tushunchalarida o‘z ifodasini topadi. Texnika yunoncha so‘z bo‘lib san‘at, mahorat ma‘nolarini anglatadi. Texnika odamzotning turli xil qurollari, asbob uskunalari, yaratish san‘ati ma‘nosini ifodalaydi. Texnika tushunchasi kishilar tomonidan ishlab chiqilgan asbob uskunalari, mehnat qurollariga nisbatan qo‘llaniladi. Inson tabiatga ta‘sir etishda ulardan foydalanadi.

Moddiy ishlab chiqarish munosabatlarining harakteri ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Moddiy ishlab chiqarish munosabatlarining negizini iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Iqtisodiy munosabatlar bu kishilar uchun zarur bo‘lgan hayotiy ne‘matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste‘mol qilish

jarayonida vujudga keladigan munosabatlardir. Ular takror ishlab chiqarish munosabatlari ham deyiladi.

Muayyan taraqqiyot darajasidagi ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari muayyan turining birligi va o'zaro ta'siri ishlab chiqarish usulini tashkil etadi.

Iqtisodiy ishlab chiqarish usuli deganda ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari nazarda tutiladi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlariga: ishchi kuchi; ishlab chiqarish vositalari; mehnat qurollari; mehnat vositalari kiradi.

Ishlab chiqarish vositalariga: ishlab chiqarish munosabatlari; ayriboshlash munosabatlari; taqsimot munosabatlari; iste'mol munosabatlari kiradi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar jamiyat iqtisodiy hayotining muhim tomonini tashkil etadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish jarayonida kishilarning tabiatga munosabatini ifodalaydi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar deganda moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish jarayonining sub'ekti va predmet elementlarini nazarda tutadi.

Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish jarayonida individlararo sodir bo'ladigan aloqa va munosabatlar ishlab chiqarish munosabatlari deb yuritiladi.

Ishlab chiqarish munosabatlari faqat ishlab chiqaruvchi kuchlar bilangina o'zaro aloqada bo'lib qolmaydi. Ular bir vaqtda bazis ham hisoblanib, uning ustida ishlab chiqarish munosabatlarning ushbu tizimga xos bo'lgan alohida huquqiy, siyosiy, mafkuraviy, milliy, oilaviy va boshqa ijtimoiy munosabatlar hamda tartibotlarning alohida turlari qad ko'taradi. Ana shularning yig'indisi jamiyatning ustqurmasini tashkil etadi. Siyosat, huquq, axloq va ustqurmaning boshqa elementlari ham faol rol o'ynaydi, o'zlarini vujudga keltirgan ishlab chiqarish munosabatlariga, ular orqali jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlariga ham aks ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyat hayotining iqtisodiy sohasi - mamlakat, jamiyat, oila va boshqalarning iqtisodiy faoliyatidir. Iqtisodiy sohaning asosiy elementlariga: ishlab chiqarish (moddiy tovarlar yaratish); taqsimot (yaratilgan tovarlar ishlab chiqaruvchilar, bozorlar, iste'molchilar o'rtasida bo'linishi); birja (savdo, barter); iste'mol (ishlab chiqarilgan mahsulotlardan foydalanish) kiradi.

Iqtisodiy hayot sohasi - jamiyatdagi mavjud moddiy ishlab chiqarishni nazarda tutadi. U jamiyat hayotining iqtisodiy sharoitlarini yaratishdan iborat bo‘lgan murakkab ijtimoiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, kishilarning o‘z moddiy hayot sharoitlarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha faoliyat turlari hamda shu jarayonda shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar jamiyatning iqtisodiy hayot sohasini tashkil etadi. Bu soha jamiyat hayotining boshqa barcha sohalarini tashkil etish uchun mablag‘ olish imkonini beradi, chunki moddiy tovarlar ishlab chiqarish xalq hayotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek, “Biz avvalo iqtisodiyotni isloh qilish va erkinlashtirish borasidagi ishlarimizni yanada chuqurlashtirish, uning soha va tarmoqlarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish bo‘yicha boshlangan ishlarni jadallashtirishimiz kerak.”¹

Jamiyat hayotining iqtisodiy sohasiga: qishloq xo‘jaligi, sanoat, ishlab chiqarish, bozor va bank tizimlari va boshqalar kiradi.

Jamiyatning iqtisodiyot sohasi, keng ma’noda, jamiyatning moddiy ishlab chiqarishi bilan bog‘liq barcha faoliyat turlari, ularga oid ishlab chiqarish, taqsimot, iste’mol va mulkiy munosabatlarning jamini o‘z ichiga oladi. O‘ta keng kategorial ma’noda sosiumning iqtisodiy sohasi, tabiat bilan insonlar o‘rtasida individ va kishilar guruhining ongli faoliyati orqali o‘zaro aloqalarini aks ettiradi. Obrazli qilib aytganda, iqtisodiyot jamiyat hayotining „anatomiyasi“ni tashkil qiladi. Uning asosini insonning buyumlashgan mehnati tashkil etadi. Iqtisodiyot jamiyatning iqtisodiy tizimi sifatida: ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-iqtisodiy, boshqaruv-iqtisodiy munosabatlardan iborat bo‘ladi.

Insonning ishlab chiqarish jarayonida tabiatga munosabati tashkiliy – iqtisodiy munosabatlar deb yuritiladi. Ishlab chiqarish jarayonida kishilar o‘rtasida sodir bo‘ladigan munosabatlar ishlab chiqarish munosabatlari yoki ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar deyiladi. Tashkiliy iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonida kelib chiqadi. Ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar esa ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik munosabatlarini ifodalaydi. Yani, iqtisodiy munosabatlarning asosini esa mulkiy munosabatlar tashkil qiladi. Mulkiy munosabatlarning

¹ Mirziyoyev Sh.M. - Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. - Toshkent, O‘zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1 - jild, 2017 yil, 146 bet

turli-tumanligi jamiyatda mulkning turli shakllarnini vujudga keltirgan. Jamiyatning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida o‘rni va vaqtiga ko‘ra turli xil mulk shakllari mavjud bo‘lgan. Insoniyat tarixida mulkning 2 shakli qaror topgan: xususiy va umumiy.

Jamiyatlar taraqqiyoti jarayonida mulkning shakllari o‘zgarib, xilma – xillashib borgan. O‘zbekiston Respublikasining “Mulkchilik to‘g‘risidagi”¹ qonuniga muvofiq jamiyatimiz iqtisodiyoti ko‘p ukladli iqtisodiyot bo‘lib hisoblanadi va uning negizini 5 xil mulk shakli tashkil etadi. Ya’ni: xususiy mulk; shirkat (jamoat) mulki; davlat mulki; aralash mulk; boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar mulki.

Demak, ko‘rib chiqqanimizdek, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari jamiyatning iqtisodiy ishlab chiqarish usulini tashkil etadi. Jamiyatning iqtisodiy sohasi insonning faqat jismoniy mehnati bilangina emas, balki uning ongi, tafakkuri mahsuli — ilm-fan, texnika va texnologiya bilan ham bog‘liqdir. Moddiy ishlab chiqarishning asosini hamisha inson intellekti — fan texnika taraqqiyoti, ilg‘or texnologiya tashkil etadi.

Hozirgi davrga kelib, jamiyatning iqtisodiy sohasida fan va texnika — ishlab chiqaruvchi kuchlar sifatida, texnologiya esa insonning mehnat predmetlariga fan va texnika imkoniyatlari, talablari asosida ta’sir etish usuli tarzida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kun — XXI asrda fan-texnika taraqqiyoti tufayli butun jamiyat hayoti, jumladan, uning iqtisodiy sohasi tobora intellektuallashib bormoqda, jamiyat taraqqiyotida iqtisodiyotning o‘rni va roli muhim ahamiyat kashf etmoqda. Lekin bundan iqtisodiyot jamiyat taraqqiyotining asosiy hal qiluvchi yagona sohasi degan xulosa chiqarish muammoga bir tomonlama yondashuvga olib keladi. Sababi: jamiyat hayotining boshqa sohalari, xususan, ijtimoiy - siyosiy va madaniy - ma’naviy sohalari o‘z o‘rnida jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega, ular biri ikkinchisiz mavjud bo‘lolmaydi.

Jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini bir-biridan farqlash ijtimoiy hayot mohiyatini chuqurroq bilishga imkon beradi. Aslida real

¹ <https://lex.uz/docs/-111466>

hayotda ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda kechadi. Ilmiy nazariya va amaliyotda jamiyatning moddiy va ma‘naviy hayotini bir-biridan ajratish, ulardan birini muhimroq, boshqasini nomuhim deb hisoblash jamiyatning tabiiy-tarixiy rivojlanishini izdan chiqaradi.

Jamiyatning ma‘naviy-intellektual taraqqiyoti uchun iqtisodiy zamin yaratish qanchalik muhim bo‘lsa, moddiy farovonlikni ta‘minlash uchun ma‘naviy-intellektual salohiyatni kuchaytirish ham shunchalik muhimdir. Jamiyat hayotida moddiy va ma‘naviy ishlab chiqarish qanchalik muhim o‘rin tusa, uni boshqarish ham shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning turli elementlari normal ishlashi, bir-biriga muvofiq faoliyat ko‘rsatishi uchun uni boshqarish talab etiladi.

Boshqarish davlatdan tortib korxonalar va oilagacha bo‘lgan keng sohani qamrab oladi. Boshqarish bilan maxsus kishilar, siyosatchilar, rahbar xodimlar shug‘ullanadilar. Boshqarish turli darajalarda amalga oshirilsa ham, boshqarish faoliyatining eng yuqori shakli siyosiy faoliyat hisoblanadi.

Moddiy soha mamlakatning iqtisodiy hayoti tashkil etiladigan, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarining o‘zaro aloqasi hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlik amalga oshiriladigan iqtisodiy makon vazifasini bajaradi. Bu yerda kishilarning iqtisodiy ongi, ularning ishlab chiqarish faoliyati natijalariga moddiy qiziqishi hamda ijodiy qobiliyatlari bevosita amalga oshiriladi. Bu yerda xo‘jalik boshqaruvi institutlari faoliyati ham amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy sohada iqtisodiy rivojlanishning barcha ob‘ektiv va sub‘ektiv omillari o‘zaro ta‘sir ko‘rsatadi. Bu sohaning jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyati kattadir.

Jamiyat hayotining ijtimoiy sohasi. Jamiyat bu avvalo, o‘zaro bir-biri bilan ijtimoiy aloqada bo‘lgan kishilarning birligini ifodalaydi. Jamiyatning ijtimoiy hayoti undagi mavjud kishilar, turli ijtimoiy birliklar va guruhlar orasidagi turli tuman aloqa va munosabatlarni kamrab oladi. Ijtimoiy birliklar deganda, elat, xalq, millat; ijtimoiy guruhlar, sinflar, jamoa, mehnat jamoasi, oila kabilar nazarda tutiladi. Ijtimoiy birlik tarixan tarkib topgan, o‘zaro barqaror ijtimoiy munosabatlarga kirishadigan, o‘ziga xos umumiy xususiyatlarga ega bo‘lgan kishilar birlashuvidir. Ijtimoiy birliklar vaqtincha, kiska muddatli va barqaror bo‘lishi mumkin. Aynan barqaror, ichki aloqa va munosabatlar bilan o‘zaro boglangan kishilarning

uyushuvidan iborat ijtimoiy birliklar jamiyat ijgimoiy xayonining mazmunini ifodalaydi.

Ijtimoiy birliklarning o'ziga xos jihatlari deganda quyidagilar nazarda tutiladi: a) muayyan ijtimoiy birliklarni tashkil etuvchi kishilarning uyushuvi ular orasidagi ob'ektiv tarzda yuz beradigan ijtimoiy aloqa va munosabatlar asosida shakllanadi. b) ijtimoiy birliklar kishilar ijtimoiy hayotining mavjudlik shakli hisoblanadi. v) ijtimoiy birliklarning shakllanishiga xilma-xil iqtisodiy va ma'naviy omillar ta'sir kursatadi.

Jamiyatning ijtimoiy sohasi ajralmas tizim bo'lib, uning asosiy elementlari insonlar, shuningdek ularning bog'lanishlari, o'zaro munosabatlari va avloddan - avlodga o'zatiladigan munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy sohani tizim orqali belgilab, uning gomeostaz¹ini saqlab qolishga intiluvchi ochiq, dinamik tizim ekanligiga e'tibor berishimiz kerak, ammo uning entropiyasi o'ta yuqori bo'lib, insoniyat jamiyati murakkablashib borgan sari ko'payib, kengayib boradi.

Ijtimoiy soha tuzilishi - jamiyatning turli tabaqalarini tabaqalashtirish va ierarxik tashkil etish hamda ular o'rtasidagi institutlar va munosabatlar majmui bilan belgilanadi. Ijtimoiy tuzilma kastalar va mulklardan tabaqalarga qarab rivojlanadi.

Ijtimoiy sohani - odamlar, ijtimoiy jamoalar va guruhlar, xalqlar, sinflar va mulklar tashkil etadi. Bir tomondan, ijtimoiy soha butun jamiyatni, jumladan, hudud, millat, demografik xususiyatlar va mentalitetni ifodalaydi. Boshqa tomondan, bu aholi farovonligi uchun mas'ul bo'lgan tashkilot va muassasalar majmui (masalan, ta'lim, transport, sog'liqni saqlash, umumiy ovqatlanish, aloqa va boshqalar.).

Jamiyat hayotining siyosiy sohasi. Jamiyatning siyosiy hayotida davlatning o'rni. Jamiyat hayotida moddiy ishlab chiqarish qanchalik zarur bo'lmasin, uning hayoti ko'pdan-ko'p sohalar bilan bog'liq ravishda kechadi. Kishilar yashashning iqtisodiy sharoitlariga ega bo'lishlari uchun muayyan tarzda birlashganlar va bu hol ijtimoiy faoliyatning xilma-xil ko'rinishlarini keltirib chiqargan; shu asosda siyosiy tizim shakllangan.

¹ Homeostaz - (yunon tilidan. "homoyos" - xuddi shunday va "stazis"- davlat) o'z-o'zini boshqarish, ochiq tizimning dinamik muvozanatni saqlashga qaratilgan muvofiqlashtirilgan reaksiyalar orqali ichki holatining barqarorligini saqlab qolish qobiliyati. Tizimning o'zini qayta tiklash, yo'qolgan muvozanatni tiklash, tashqi muhitning qarshiligini engish istagi. (atama birinchi marta 1929 yilda amerikalik fiziolog Valter Cannon tomonidan kiritilgan.

Jamiyatning siyosiy tizimi jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan. Ma'lumki, jamiyat avvalo kishilar faoliyatlari va shu asosda shakllanadigan ijtimoiy aloqa va munosabatlari mahsuli. Jamiyat siyosiy hayotining ildizlari odamlarning ijtimoiy hayotda muayyan tartib intizomlar muhitida yashash ehtiyojlari bizlan bog'liq holda yuzaga kelgan.

Jamiyatning siyosiy hayoti deganda sinflar, millatlar, siyosiy kuchlarning o'zaro munosabatlari, ularning davlat hokimiyatini qo'lga kiritish va mustahkamlash borasidagi ongli faoliyati nazarda tutiladi. Jamiyatning siyosiy hayoti sohasi siyosat tushunchasi yordamida ifodalanadi. Siyosiy soha, bu jamiyatning siyosiy munosabatlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy hayot sohasi. Siyosiy soha sinflarning, ijtimoiy qatlamlarning va guruhlarining, Millatlar va davlatlarning hokimiyatni egallash va undan foydalanish, shuningdek, davlat hokimiyatini amalga oshirish bo'yicha o'zaro munosabatlaridan iborat.

Siyosiy soha – hokimiyatni amalga oshirish muammolari, jamiyat xavfsizligi, davlat tuzilishi va sud tizimi bilan bog'liq xalq faoliyati sohasidir.

Bu sohaning asosiy qismlari davlat, siyosiy partiyalar va tashkilotlar hamda qonun hujjatlaridir. Jamiyatning siyosiy sohasi odamlarning tinch-totuv yashashini ta'minlaydi, ularning birgalikdagi faoliyatini tartibga soladi, ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishini belgilab beradi.

Jamiyatning siyosiy hayoti sohasi odamlar, siyosiy kuchlar - sinflar, millatlarning o'zaro siyosiy munosabatlarini, ularning davlat hokimiyatini qo'lga kiritish va mustahkamlash borasidagi ongli faoliyatlarini qamrab oladi.

Siyosiy soha tarkibi: siyosiy institutlar (davlat, siyosat. partiya, kasaba uyushmalari, turli jamoat tashkilotlari); siyosiy munosabatlar (davlat ichida – davlat va shaxs o'rtasida, siyosat o'rtasida. va xalqaro); siyosiy faoliyat; siyosiy tushuncha (siyosiy mafkura va siyosiy psixologiya).

Siyosiy sohaning asosiy bo'g'ini jamiyatni siyosiy boshqarish mexanizmi sifatida davlatdir. Davlat uchun quyidagi xususiyatlar mavjud hukumat shakli (monarxiya, respublika); davlat tuzilishi shakli (unitar, Federativ); siyosiy rejim (demokratik, avtoritar, totalitar).

Siyosat murakkab ijtimoiy munosabat ko‘rinishi sifatida davlat hokimiyatining shakllanishi bilan bog‘lik holda yuzaga keladi. Siyosat davlat miqyosida va davlatlararo munosabatlarda amalga oshiriladigan, jamiyatni boshqarish bilan bog‘lik faoliyat. Ko‘p hollarda «davlat siyosati» degan tushuncha keng qo‘llaniladi. Har qanday davlatning siyosati ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: a) ichki siyosat; b) tashqi siyosat.

Davlat ko‘plab funksiyalarni bajaradi: jamoat tartibini va mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimini saqlab qolish, iqtisodiy (ishlab chiqarish, mulkiy munosabatlarni tartibga solish, xalq xo‘jaligini rejalashtirish va boshqalar); ijtimoiy (ijtimoiy himoyalangan qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, sog‘liqni saqlashni tashkil etish, ta‘lim, pensiya va boshqalar) va boshqalar.

Tashqi vazifalar: mamlakatni himoya qilish, boshqa davlatlar bilan munosabatlarda uning manfaatlarini himoya qilish va boshqalar.

Jamiyatning siyosiy hayoti uning siyosiy tizimida o‘z ifodasini topadi. Siyosiy tizim deganda jamiyatda muayyan siyosiy funksiyalarni bajaradigan ijtimoiy institutlar tizimi nazarda tutiladi. Siyosiy tizim 2 ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. a) mamlakat siyosiy tizimi; b) xalqaro siyosiy tizim. Alohida olingan mamlakatning siyosiy tizimi deganda davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, jamoat tashkilotlari nazarda tutiladi.

Odamlar faoliyati umumiy tarzda olganda, ijtimoiy xarakterga ega. Ular o‘zaro bir-birlari bilan birlashmasdan, aloqa bog‘lamasdan turib faoliyatga kirisha olmaydilar. Individ ijtimoiy faoliyatining murakkablashib borishi, ularni boshqarishni taqozo etadi. Aynan boshqaruv tufayli odamlar birlashadilar va shu asosda ularning ehtiyojlari qondiriladi. Boshqaruv kishilar faoliyatlari xarakteriga bog‘liq. Mulkiy munosabatlarni rivojlantirish va takomillashtirish uchun odamlar birlashuvlari lozim bo‘lgan. Bu birlashuv dastlab tabiiylik, qon-qardoshlik asosida yuz bergan. Shundan urug‘chilik, qabilachilik tizimi va munosabatlari shakllangan.

Jamiyat boshqaruvining tarixan ikki shakli mavjud:

1) **O‘z-o‘zini boshqaruv yoki jamoaviy boshqaruv.** O‘z-o‘zini boshqaruvning xususiyati shundan iboratki, unda jamiyat a‘zolarining barchasi tayanch ishtirok etadi va shu asosda o‘z ehtiyojlarini ta‘minlaydi.

2) **Maxsus boshqaruv.** Boshqaruvning bu turi unda majburiylik jihatlarining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Maxsus boshqaruv deganda muayyan tashkilot yordamida boshqaruv nazarda tutiladi. Har qanday maxsus boshqaruvning asosiy bo‘g‘inini davlat hokimiyati tashkil etadi.

Davlat – jamiyat siyosiy tizimining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Davlat - jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga kelgan jamiyatning siyosiy tashkilotidir. Davlat insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishining mahsuli va ko‘rinishi, xalqlar va millatlar hayotini huquq va qonun asosida tashkil etishining siyosiy shaklidir. Davlatning o‘ziga xos belgilari: 1) maxsus boshqaruv sifatida hokimiyatning mavjudligi. Bunda muayyan vazifalari bo‘lgan tashkilot va muassasa nazarda tutiladi; 2) aholi (fuqarolar); 3) hudud va chegaralar; 4) suverenitet; 5) huquq ijodkorligi.

Davlatning o‘ziga xos vazifalari mavjud. Bular: hududiy yaxlitlik va chegaralar daxlsizligini, mamlakat xavfsizligini ta’minlash, jamiyatda barqaror va tinch, farovon hayotga erishish; jinoyatchilikka qarshi kurashish; fuqarolarning huquq va mulk daxlsizliklarini himoya qilish; tashqi aloqalar; islohotlarni amalga oshirish.

Davlat, uning kelib chiqishi masalasi qadimdan faylasuflarni qiziqtirib kelgan. Qadimgi yunon faylasufi Platon (e.a. 427-347 y.) «ideal davlat» ta’limotini yaratgan. U ideal davlatning kelib chiqishini «goyalar dunyosiga» bog‘langan va bunda Yunon polis - davlatini nazarda tutgan. Uning fikricha, ideal davlatda kosmos, davlat va ayrim inson o‘zaro bir - biriga mushtarak bo‘ladi. Adolatli inson adolatli davlatga o‘xshaydi. Ideal davlat adolatli boshqaruvga asoslangan davlatdir. Qonun va adolat unda mujassam bo‘lmog‘i lozim. Aristotel fikricha, davlatni jamiyatdan ajratishi mumkin emas. Aristotel davlatni eng oliy darajadagi insonlar uyushmasi, deb bilgan. Uning fikricha, avval oila, unda er va ayol munosabatlari, so‘ng xujayin qul munosabatlari kelib chiqqan. Oilalar birlashib jamoani tashkil qilgan, bir qancha jamoalardan davlat tashkil topgan. Taraqqiy etgan jamiyat - bu davlat. Aristotel qonun doirasida yashamaydigan odamlarni xayvoniy deb bilgan. Qonun esa davlat tufayli kelib chiqqan. Davlatning vazifasi madaniyatli, aristokratok aql-zakovatga ega odamlarni tarbiyalash. Yaxshi va yomon davlatlar o‘zaro bir-biridan davlat tepasida turgan boshliqlar axloqi bilan farqlanadi.

Markaziy Osiyo mutafakkiri Abu Nasr Forobiy (873-950 yillar) ning adolatli, fazilatli jamiyat, davlat xaqidagi fikrlari diqqatga sazovor. Mutafakkirning orzusidagi adolatli jamiyatda kishilarning samarali mehnatiga, ilm sohiblariga. ularning aql-zakovatiga, fazilatli axloq - odobiga yuksak baho beriladi. Uning fikricha, adolatli jamiyatda teng huquqlilik va erkinlik saltanati hukmronlik qiladi, yakka hokimlikka barham beriladi. Davlat boshliqlarini fuqarolarning o'zlari saylaydilar. Saylangan boshliqlar xalq manfaatiga zid harakat qilsalar, ular o'z amalmansablaridan chetlashtiriladilar. Orzudagi davlat arboblari o'z faoliyatlarida adolat, teng huquqlilik, fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab ish tutadilar.

Abu Rayhon Beruniy fikricha, jamiyatni boshqarish amaldorlardan o'z huzur-halovatidan aniq muddat mobaynida mahrum bo'lish, zo'ravonlardan aziyat chekkanlarning huquqlarini tiklash, gunohkorlarni jazolashdan iborat bo'lmog'i lozim. Odil hukmdorlarning asosiy vazifasi yuqori va quyi tabaqa vakillari o'rtasida adolat o'rnatishdir.

Boshqaruv shakllari, tuzilishi va undagi mavjud siyosiy rejimga ko'ra davlatning turli ko'rinishlari mavjud. Davlat boshqaruv shakllariga ko'ra monarxiya va respublika ko'rinishlariga ega. Davlatning monarxiya shakli hokimiyatning bir kishi (monarx) tomonidan boshqarishiga asoslanadi. Respublikada hokimiyatni saylash orqali shakllantiriladi. Davlatlar tuzilishiga ko'ra, unitar, federativ va konfederativ davlatlardan iborat. Demokratik davlat deganda barcha fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklariga kafolat beradigan, hokimiyat tizimining bo'linishi asosiga qurilgan, hammaning qonun oldidagi tengligini ta'minlaydigan, jamiyatdagi barcha kuchlarni birlashtirib, mamlakat taraqqiyotiga safarbar qiladigan davlat nazarda tutiladi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot yo'li insonparvar huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan iborat. Jamiyatimiz siyosiy hayotini takomillashtirish, demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qaror toptirish masalalari Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoev asarlarida¹ atroflicha tahlil qilingan va nazariy asoslangan.

¹ Qarang: Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2022. - 464 bet..

Jamiyat hayotida moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish qanchalik muhim o'rin tusa, uni boshqarish ham shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning turli elementlari normal ishlashi, bir-biriga muvofiq faoliyat ko'rsatishi uchun uni boshqarish talab etiladi. Boshqarish davlatdan tortib korxonalar va oilagacha bo'lgan keng sohani qamrab oladi. Boshqarish bilan maxsus kishilar, siyosatchilar, rahbar xodimlar shug'ullanadilar. Boshqarish turli darajalarda amalga oshirilsa ham, boshqarish faoliyatining eng yuqori shakli siyosiy faoliyat hisoblanadi.

Jamiyatni siyosiy boshqarishning xilma-xil shakllari mavjud bo'lib, har bir mamlakatning milliy mentaliteti, an'analariga mos ravishda siyosiy boshqarishning monarxiya, aristokratiya, respublika shakllari qo'llaniladi. Bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan yangi ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish davrida qadriyatlarni qaytadan baholash, jamiyat hayotida davlat, oila, mehnat, mulk, siyosiy partiyalar, din, fan va boshqa ijtimoiy institutlar mohiyatini yangicha tushunish zaruriyati vujudga keladi. Bunda faqat mazmunga emas, balki shakl ham qayta quriladi.

Jamiyatni boshqarish tizimi har bir xalqning milliy xususiyat, psixologiyasi, an'nalari, madaniy salohiyatiga mos ravishda vujudga keladi. Turli jamiyatlarda siyosiy boshqarish usullarining turlicha xarakteri ularning ilg'or yoki qoloq ekanligidan dalolat bermaydi. Siyosiy boshqarishning har bir usuli turli tarixiy sharoitlarda turlicha samara berishi mumkin. Jamiyatning ma'naviy salohiyati yuksalib borgani sayin siyosiy boshqaruv usullari ham tobora insoniylashib boradi. Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi siyosiy boshqaruvning demokratik shakli ancha qulay va insonparvar ekanligini ko'rsatdi. Milliy mustaqillik yillarida O'zbekistonning respublika deb e'lon qilinishi va mamlakat Konstitutsiyasining qabul qilinishi jamiyatimizni siyosiy boshqarish jahon hamjamiyatining ilg'or tajribalariga, xalqimizning ma'naviy salohiyatiga tayanishidan dalolat beradi.

Davlatning jamiyat hayotidagi o'рни va roli. Davlat - jamiyatni boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan alohida bir muassasadir. Davlat umuminsoniy qadriyat, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining muhim yutug'idir.

Jamiyatning ma'naviy salohiyati yuksalib borishi bilan siyosiy boshqarish shakllari va usullari ham takomillashib boradi. O'zgargan

tarixiy sharoitda davlatning mohiyati, mazmuni va vazifalarini yangicha tushunish zaruriyati vujudga keldi.

Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik an'analarining tiklanishi bilan davlatning tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati yangicha mazmun va ahamiyat kasb etdi.

Mamlakatimizning siyosiy, huquqiy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar siyosiy boshqaruvni yanada takomillashtirishga, yurtimizda huquqiy davlat, yangi demokratik jamiyat barpo etishga, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tishga qaratilgandir. «Yangi sharoitda davlatning, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining g'oyat muhim vazifasi siyosiy partiyalar, nodavlat, ijtimoiy strukturalar, fuqarolik jamiyatining endigina paydo bo'lib kelayotgan xilma xil institutlari bilan ishlash va hamkorlik qilishning yangidan-yangi shakllarini izlab topishdan iboratdir¹».

Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar ham faoliyat ko'rsatadi. Ularni shartli ravishda davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlarga ajratish mumkin. Bu tashkilotlarga siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, turli jamg'armalar, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar uyushmasi, mahalla qo'mitalari va boshqalar kiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyati barpo etishga qaratilgandir.

Ochiq demokratik jamiyatda davlat ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy islohotlar tashabbuskori, jamiyat rahnamosi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Demokratik jamiyatda siyosiy boshqarish huquqiy davlatchilik asoslarini yaratishni taqozo etadi. Qonun ustuvorligi demokratik jamiyat va davlat hayotining muhim sharti hisoblanadi. Demokratik davlat jamiyatni boshqarishda konstitutsiya talablariga bo'ysunar ekan, u jamiyatni tanho boshqarish da'vosini qilmaydi. Balki jamiyatni boshqarishda turli diniy, ilmiy tashkilotlarga, jamoat tashkilotlariga, aholining o'z-o'zini boshqarish organlariga keng vakolatlar beradi. Demokratik jamiyatda dinning davlatdan, maktabning diniy muassasalardan ajratilishi, kishilarga vijdon

¹ Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...» - Toshkent, 1997. – B.159. .

erkinligi huquqining berilishi progressiv hodisa, jamiyat erkin rivojlanishining muhim shartidir.

Odatda dunyoviy va diniy davlatlar bir-biridan farqlanadi. Dunyoviy davlatlar konstitutsiyaga, ilm-fan xulosalariga asoslanadi. Diniy yoki teokratik davlatlar diniy ta'limot va shariat hukmiga asoslanadi. Bunday davlatlar o'z fuqarolarining vijdon erkinligini ta'qiqalaydi; ta'lim-tarbiya asosan diniy ruhda olib boriladi.

Demokratik davlatda ta'lim-tarbiya muassasalari jamiyatni oqilona boshqarishga yaqindan yordam beradi; yosh avlodga puxta siyosiy va huquqiy bilim beradi, mavjud ahloqiy, huquqiy normalarni singdiradi, siyosiy ong va madaniyatni rivojlantiradi. «Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini ta'minlash -mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning asosiy yo'nalishidir»¹.

Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, etilgan muammolarni oqilona hal etish, mamlakat fuqarolarining siyosiy faolligini oshirish-jamiyat siyosiy sistemasini tashkil etuvchi barcha boshqaruv organlari va tashkilotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Jamiyat a'zolarini umumiy maqsad yo'lida yanada jipslashtirish, ijtimoiy-siyosiy faollikni kuchaytirishda milliy g'oya va milliy mafkura muhim rol o'ynaydi. G'oyaviy mushtaraklik jamiyatdagi turli ijtimoiy guruh, qatlam va sinflarda birdamlik tuyg'usini kuchaytiradi, turli siyosiy harakat va partiyalar faoliyatini bunyodkorlik ishlariga yo'naltiradi.

Fuqarolik jamiyatini barpo etish - O'zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadi. Fuqarolik jamiyati - kishilarning yuksak axloqiy, siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichidir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko'p qirrali aloqasi bo'lib, davlat qonunlarini hurmat qilish va bajarish, jamiyat tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o'zaro kelishuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyati umuminsoniy tamoyillar, milliy davlatchilik xususiyatlari, o'ziga xos turmush tarzi va hayot falsafasi negizida qaror topadi. O'zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillaridanoq

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.- Toshkent, «O'zbekiston» 2000, 29 bet.

yurtimizda fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

«Biz uchun fuqarolik jamiyati ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishiga... yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to‘la darajada ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashadi¹». Fuqarolik jamiyatida davlatning qator vazifalari fuqarolarning o‘z - o‘zini boshqarish organlari qo‘liga o‘ta boshlaydi, mahalliy hokimiyat organlarining vakolati kengayadi. Fuqarolik jamiyati asoslarni barpo etish kishilarning yuksak siyosiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy-siyosiy faolligiga tayanadi. Mamlakatimizda mahalla hokimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining kengaytirilishi xalqimizning o‘z - o‘zini boshqarish, idora etish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla kishilarda yaxshi insoniy fazilatlarni kamol toptirish, o‘z - o‘zini boshqarish, demokratik qadriyatlarni ro‘yoga chiqarish maktabidir.

Sharqda fuqarolik jamiyatining tub negizlari asta - sekinlik bilan shakllangan va taraqqiy etgan. Sharq donishmandlari ijtimoiy jarayonlarga har qanday sun‘iy aralashuvning mudhish oqibatlarini ko‘rsatganlar. Shuning uchun ham jamiyat hayotidagi barcha o‘zgarishlar xalqlarning fikrlash tarzi, milliy an‘analari, urf - odatlariga muvofiq ravishda tadrijiy ravishda ro‘y bergan. Ijtimoiy adolat, tartib-intizom, aholi tinch - totuvligini ta‘minlashga alohida e‘tibor berilgan; hurfikrlilik, boshqa dinlarga nisbatan sabr toqatlilik mavjud bo‘lgan. Davlat fuqarolarning shaxsiy va oilaviy hayotiga deyarli aralashmagan.

Savdo - sotiq, hunarmandchilik, odob - axloq, milliy an‘analar asosida rivojlangan. Davlat dehqonchilik ishlab chiqarishi uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan sun‘iy sug‘orish inshootlari qurishga bevosita rahnamolik qilgan. Sharqda odamlar asrlar davomida jamoa bo‘lib yashagan va mehnat qilgan, jamoatchilik asoslari xalq ongiga chuqur singib ketgan.

Demokratik qadriyatlarni qaror toptirish – siyosiy islohotlarning bosh maqsadidir.

Jamiyat hayotining ma‘naviy sohasi. Jamiyatning ma‘naviy hayot sohasi ma‘naviy boyliklar yaratishga qaratilgan faoliyat va uning

¹ Karimov I.A. «O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida» - T., 1997. –B.173

natijalarini (xilma-xil qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar, fan, adabiyot, san'at, ta'lim-tarbiya kabi), ma'naviy munosabatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Ma'naviy soha - jamiyatning ma'naviy-axloqiy hayotini aks ettiruvchi, madaniyat, fan, din, axloq, mafkura, san'at kabi unsurlar bilan ifodalangan sohadir.

Ma'naviy sohaning asosiy vazifasi yangi bilim va qadriyatlarni ishlab chiqarish va uzatishdir. Qadriyatlar ta'rifi tufayli jamoatchilik ongining rivojlanish darajasini tushunish mumkin.

Jamoatchilik ongi - mamlakat, shahar yoki ijtimoiy guruh aholisining ma'lum qismi dunyoqarashini belgilovchi faol omillar va jarayonlar majmui. Jamoatchilik ongi jamiyat hayotining ma'naviy sohasining asosiy elementi hisoblanadi. Ma'lum ma'noda shuni aytish mumkinki, jamoatchilik ongi muayyan madaniyat mahsulidir. Ijtimoiy ong falsafiy, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, estetik, huquqiy, diniy ong shakllarini o'z ichiga oladi, ularning har biri ham mafkura, ham psixologiya elementlariga ega.

Va nihoyat, jamiyatning barcha sohalari bir-biriga o'zaro bog'liq. Masalan, mamlakat iqtisodiy sektori (iqtisodiy soha)ning rivojlanishi aniq boshqaruvsiz (siyosiy soha) mumkin emas, yoki xalqlar o'rtasidagi tinch munosabatlar (ijtimoiy soha) muayyan diniy, madaniy va axloqiy e'tiqodlarsiz (ma'naviy soha) mumkin emas.

Jamiyatning ma'naviy hayoti deganda kishilarning ma'naviy boyliklar yaratish faoliyatlari, uning natijalari ham da ma'naviy boyliklar yaratish jarayonida shakllanadigan aloqa va munosabatlar nazarda tutiladi.

Ma'lumki, ishlab chiqarishsiz jamiyatning o'zi bo'lishi mumkin emas, zotan ishlab chiqarish kishilarning ehtiyojlarini qondirishga yunaltirilgan.

Ishlab chiqarish faoliyati ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: 1) moddiy ishlab chiqarish faoliyati; 2) ma'naviy ishlab chiqarish faoliyati.

Ma'naviy ishlab chiqarish deganda ong, goyalar, qarashlarni ishlab chiqarish nazarda tutiladi. Odamlarning jamiyat bo'lib yashashga o'tishi murakkab ijtimoiy jarayon bo'lib, uning natijasida ma'naviy xayotga kuchli ehtiyoj paydo bo'lgan, chunki odamlar muayyan dunyoqarash bilan bog'liq holda namoyon bo'ladigan ma'naviyatsiz jamiyat bo'lib yashay olmaydilar.

Jamiyatning ma'naviy hayot sohasi keng qamrovli bo'lib, eng oddiy tuyg'u, his-hayajon, tajriba, odatlardan tortib, ijtimoiy ongning barcha ko'rinishlari va darajalarini ayni vaqtda ma'naviy hayot sohasiga oid hodisalar bilan taqozolangan muassasa va tashkilotlarni o'z ichiga qamrab oladi. Jamiyat hayotining barcha sohalari kabi ma'naviy hayot ham odamlar ehtiyojlari tufayli vujudga kelgan.

Jamiyatning ma'naviy hayoti avvalo dunyoqarash bilan bevosita bog'liq. Mifologik va diniy dunyoqarash odamlarning ma'naviy ehtiyojlari tufayli o'zidan - o'zi vujudga kelgan hamda tarixan ular ma'naviyatning qaror topishida muhim rol uynaganlar. Hozirgi dunyo ma'naviy madaniyatida mifologik dunyoqarash unsurlari mavjud. Ayni chog'da diniy dunyoqarash asosida shakllangan ma'naviyat bilan birga ilmiy-falsafiy dunyoqarash negizida yonma-yon (parallel) mavjud bo'lgan ma'naviyat bor. Demak, ma'naviyat dunyoviy va diniy bilimlar asosida shakllanadi. Ma'naviyat inson va jamiyat ruhiyatidagi umumiylikni ifodalaydi.

Zamonaviy jamiyat na faqat texnika va iqtisodiyot ayni vaqtda yuksak ma'naviylikni talab qiladi. Ma'naviyat ijtimoiy hodisa va umumiy tushuncha sifatida o'ziga xos ko'plab xususiyatlarga ega bo'lib, falsafaning tahlil ob'ekti hisoblanadi. Barcha davrlarda yashagan mutafakkirlar «ruh», «ma'naviyat», «ma'naviylik» tushunchalari ustida bosh qotirganlar. Ma'naviyat insonlarning hayotiy tajribalari va o'zaro munosabatlari asosida shakllanadi. Ma'naviyat odamlar ruhiyagi, botiniy dunyosining o'ziga xos ifodasi bo'lib hisoblanadi.

Jamiyatning ma'naviy hayoti deganda unda ishlab chiqarilgan xilma xil qarashlar, goyalar nazarda tutiladi. Jamiyatning ma'naviy hayoti o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega. Uning asosiy elementlari deganda: a) ma'naviy faoliyat; b) ma'naviy ehtiyoj; v) ma'naviy o'zlashtirish; g) ma'naviy munosabatlar nazarda tutiladi.

Ma'naviy faoliyat yoki ma'naviy ishlab chiqarish inson faoliyatining muhimi bo'lib, kishilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan narsalarni yaratishni nazarda tutadi. Ma'naviy ishlab chiqarish insonning olamga foal munosabatini ifodalaydi.

Ayni vaqtda ma'naviy ishlab chiqarish o'zining bir qator jihatlari bilan moddiy ishlab chiqarishdan farqlanadi: a) Agar moddiy ishlab

chiqarish natijalari narsalar dunyosini ishlab chiqarishga, moddiy qadriyatlarni yaratishga qaratilgan bo'lsa. Ma'naviy faoliyat natijalari goyalar bilimlar, ma'naviy qadriyatlarning shakllanishiga olib keladi; b) Moddiy ishlab chiqarish kishilar hayotiga bevosita zarur narsalarni yaratishga yo'naltirilgani holda ma'naviy ishlab chiqarish jamiyat hayoti uchun oqibat natijada muhim ahamiyat kasb etadi; v) Moddiy ishlab chiqarish natijalari bo'lmish mahsulotlar predmetli harakterga ega bo'lsa, ma'naviy ishlab chiqarish natijalari aksari hollarda, bilim, axborotlar shaklida namoyon bo'ladi; g) Ma'naviy ishlab chiqarish jamiyat hayotining boshqa barcha sohalarini (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy) ning yanada takomillashib borishiga xizmat qiladi; d) Ma'naviy ishlab chiqarish ijtimoiy fikrning shakllanishiga xizmat qiladi. Bunda g'oya, g'oyaviylik muhim o'rin tutadi; e) Ma'naviy ishlab chiqarish olamni nazariy, rasional bilish asosida quriladi; j) Ma'naviy ishlab chiqarishda ijodning ustivorligi kuzatiladi; z) Ma'naviy ishlab chiqarish uning natijalari hisoblanmish goyalarni jamiyat hayotiga yoyish ham nazarda tutiladi.

Ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni insonni, uning ongini o'stiradi, boyitadi. Ayni vaqtda odamlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bilimlar, goyalar, nazariyalar, badiiy obrazlar va boshqa ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ma'naviy va moddiy ishlab chiqarishni aslo bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Bu yaxlit ishlab chiqarish jarayonining o'zaro uzviy bog'liq ikki tomonini tashkil etadi. Ma'naviy ishlab chiqarish jarayonining o'zi muttasil rivojlanib boradi. Dastlab ma'naviy ishlab chiqarish xalq ijodiyotida o'z ifodasini topgan.

Aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajratib chiqishi ma'naviy ishlab chiqarish sohalarining shakllanishi va taraqqiyotiga xizmat qilgan. Shu asosda ma'naviy ishlab chiqarish ixtisoslashib borgan. Ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni, uning natijasida yaratilgan jamiki narsa: adabiyot, axloq, til, san'at, fan jamiyat ma'naviy hayotining shakllanishi va rivojlanishiga sababchi bo'ladi.

Ma'naviy ishlab chiqarish keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, bu jarayonda: a) obrazlar, goyalar, nazariyalar yaratiladi. b) insonning o'zi va jamiyat takomillashib boradi. Jamiyatning ma'naviy hayoti uzviy bir - biriga bog'liq jarayonlar tizimidan iborat. Bu tizimning asosiy

elementlarini ma'naviy ehtiyoj ma'naviy faoliyat - ma'naviy o'zlashtirish tarzida ifodalash lozim. Jamiyatning ma'naviy hayoti ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan.

Ma'naviy ehtiyoj deganda, ma'naviy qadriyatlarni yaratish va o'zlashtirish ehtiyoji nazarda tutiladi. Inson o'z tabiatiga ko'ra faqat «Qorin g'ami», «tirikchilik tashvishi» bilangina yashay olmaydi. Unda moddiy ehtiyojdan kam ahamiyatga ega bo'lmagan ma'naviy ehtiyoj ham bor. Bu ehtiyoj «ruh ehtiyoji» deb ham yuritiladi. Inson aqliy yetuklikka, axloqiy barkamollikka intiladi. U o'z tabiatiga ko'ra olamni tobora ko'proq bila boradi, doimo go'zallikka intiladi. Bularning hammasi ma'naviy ehtiyojga taalluqli. Insoniyat jamiyati taraqqiyotining quyi bosqichlarida ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlardan ajralmagan va kishilarning kundalik hayoti va faoliyati bilan taqozolangan holda mavjud bo'lgan. Moddiy ishlab chiqarish taraqqiyoti ma'naviy ehtiyojlar uchun dastlabki imkoniyatlarni yaratgan davridan boshlab ma'naviy ishlab chiqarishni yo'lga quyish orqali ma'naviy ehtiyojlarni qondirish imkoni yaratilgan. Tarixan ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlardan keyin shakllangan, lekin bundan ma'naviy ehtiyoj faqat moddiy ehtiyojlardan kelib chiqadi, degan bir yo'qlama xulosaga kelish xatodir.

Ma'naviy o'zlashtirish, deganda ma'naviy qadriyatlar: bilim, til, adabiyot, san'at, axlok normalari kabilarni iste'mol qilish nazarda tutiladi.

Ma'naviy ishlab chiqarish natijalari (bilimlar, badiiy va hokazo ijod namunalari)ning jamiyat hayotiga kirib borishi-ma'naviy o'zlashtirishdir. Jamiyat o'zaro bir-biri bilan aloqa - munosabatga kirishgan kishilar jamoasidir. Jamiyat a'zolari orasida ob'ektiv tarzda yuzaga keladigan aloqa va munosabatlar ijtimoiy munosabatlar, deb yuritiladi.

Kishilar orasidagi aloqa va munosabatlar qanchalik xima-xil bo'lmasin, ular ikki asosiy ko'rinishga ega: a) Moddiy, iqtisodiy munosabatlar; b) Ma'naviy munosabatlar.

Ma'naviy munosabatlar deganda axloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy kabi munosabatlar nazarda tutiladi. Moddiy, iqtisodiy munosabatlar inson ongidan tashkarida, unga bog'liq bulmagan xolda shakllanadi. Ma'naviy munosabatlar ong orqali amalga oshadi va bunda jamiyatdagi goyalar, ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy munosabatlarga hal qiluvchi darajada ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy munosabatlarning o'ziga xos ko'rinishi - shaxslararo

munosabatlardir. Jamiyat ma'naviy hayoti ma'naviyat tushunchasida o'z ifodasini topadi.

Umuman olganda, ma'naviyat - kishilarning o'zaro munosabatlari va hayotiy tajribalari davomida shakllanadigan va rivojlanadigan qadriyatlar tizimi. Ma'naviyat insonning inson bo'lib shakllanishiga turtki beradigan buyuk komillikdir. Ma'naviyat keng qamrovli tushuncha bo'lib, u insonning - botiniy dunyosi, ruhiyati, o'z - o'zini anglashi; ongliligi, qobiliyati, intilishlari; - did-farosati, aql - zakovati, yaxshilikni yomonlikdan, adolatni razolatdan, go'zallikni xunuklikdan, oqillikni johillikdan ajrata bilish qobiliyatini ifodalaydi. Ayni vaqtda ma'naviyat jamiyatga nisbatan jamiyat ma'naviyati sifatida qo'llanadi.

Til, adabiyot, san'at, diniy e'tiqod, fan, axborot tizimlari, ommaviy axborot vositalari; ta'lim - tarbiya jamiyat ma'naviyatini ifodalaydigan ijtimoiy hodisalardir. Jamiyat ma'naviy hayotining asosini ijtimoiy ong tashkil etadi. Ijtimoiy ong jamiyat hayoti - ijtimoiy borliqning inson miyasidagi in'ikosidir. Ijtimoiy ong jamiyatda yaratilgan xilma-xil ijtimoiy qarashlar (axloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy, ilmiy va x.k) tasavvurlar, goyalar, nazariyalarni o'z ichiga qamrab oladi. Ijtimoiy ong jamiyat ma'naviy hayotini o'zida mujassamlashtirgan murakkab tizimli ijtimoiy hodisadir.

Ijtimoiy ong murakkab tuzilishga ega. Ijtimoiy ongning strukturasi a) ijtimoiy ong bosqichlari; b) ijtimoiy ong darajalari; v) ijtimoiy ong shakllari kiradi. Ijtimoiy ong bosqichlariga kundalik va nazariy ong: darajalariga - ijtimoiy ruhiyat va ijtimoiy mafkura, shakllariga axloqiy, falsafiy, estetik, diniy, siyosiy, huquqiy ong kiradi. Shuningdek, ijtimoiy ongning maxsus shakllari bor. Bu - fan va falsafa. Ijtimoiy ong jamiyatda kechadigan o'zgarishlar, jarayonlarni anglash orqali shakllanadi. Jamiyat ma'naviy hayotida amal qiladigan umumiy qonuniyat, bu - ijtimoiy ongning ijtimoiy borliqdan nisbiy mustaqilligidir. Bu qonunning amal qilishi ijtimoiy ong va borliqning birligi va uzviy aloqadorligida, ijtimoiy ong taraqqiyotidagi vorislikda, ijtimoiy ongning jamiyat hayotiga faol ta'sirida namoyon bo'ladi. Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish konsepsiyasining muhim tomonini jamiyat ma'naviyatiga daxldor muammolar tashkil etadi. Mamlakatimizda milliy ma'naviyatni

tiklash va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylanganligi jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotiga xizmat qiladi.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Jamiyat hayotining moddiy sohasi deganda nimani tushunasiz?
2. Iqtisodiyot va maʼnaviyatning uzviy bogʻliqligi nimalarda namoyon boʻladi?
3. Moddiy ishlab chiqarishning jamiyat hayoti rivojidadagi oʻrni nimalardan iborat?
4. Yangi Oʻzbekistonda iqtisodiy hayot sohasining bugungi kundagi oʻrnini asoslab bering. Misollar keltiring.
5. Jamiyatning moddiy va maʼnaviy hayotini bir-biridan farqlash ijtimoiy hayot mohiyatini chuqurroq bilishga imkon beradi. Jumlani tahlil etib bering.

6-MAVZU. IJTIMOIIY ONG

Reja:

1. Ijtimoiy ong tushunchasining zamonaviy talqini.
2. Ijtimoiy ongning shakllari, darajalari.
3. Innovatsion ong - ijtimoiy ongning oʻziga xos shakli. Ijtimoiy ong va individual ong, ularning oʻzaro aloqasi.
4. Milliy gʻoya – ijtimoiy ongning tarkibiy qismi. Ijtimoiy psixologiya va mafkura.

Tayanch tushunchalar: Ijtimoiy ong, ong falsafasi, ongning sistemaviy sifatlari, ongning intensional qobiliyati, ongning epistemik sifati, kundalik ong, nazariy ong, huquqiy ong, siyosiy ong, axloqiy ong, estetik ong, diniy ong, aksiologik ong, iqtisodiy ong, innovatsion ong, individual ong.

Ijtimoiy ong tushunchasining zamonaviy talqini. Har bir insonning tanasi va ruhi, moddiy va maʼnaviy dunyosi boʻlgani kabi, jamiyatning ham oʻz ijtimoiy borligʻi va ijtimoiy ongi mavjud. Falsafaning ong kategoriyasi juda katta kuchga ega boʻlgan, murakkab va serqirra hodisani anglatadi. Ongni oʻzgartirmay, uni bunyodkorlik sari yoʻnaltirmay koʻzlangan maqsadlarga erishish mumkin emas.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "Taraqqiyot stretagiyasi" ham innovatsion ong mahsuli bo'lib, aholi keng qatlamlari ongni o'zgartirishga, binobarin, hayotning barcha sohalarini yangilashga qaratilgan. Prezident Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir"¹.

Ong juda murakkab va o'ziga xos fenomen bo'lgan, uning ko'plab sirlari haligacha jumboq bo'lib qolmoqda. Falsafa paydo bo'libdiki, ong muammosi uning diqqat markazida turadi. Antik davrda Platon va Aristotel ongni materiyadan ajralgan ontologik haqiqat sifatida mavjud deb hisoblashgan. Parmenid esa, ong – mavjudlik va tafakkur birligidir, deb ta'kidlagan.

Yangi davr mutafakkirlari Dekart, Spinoza, Lokk va Yum konsepsiyalarida ong muhim tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan. XIX asrda Artur Shopengauer ongni "olamning parchasi" deb atab, ong siri butun insoniyat bilimlari korpusida (kolleksiyasida) eng qorong'i joy bo'lib qolishiga ishora qildi.

XX asrda ong falsafasi eng mashhur tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy amerikalik faylasuf Richard Rorti fikriga ko'ra bugungi kunda falsafada ong masalasi o'zining haqiqiy o'rniga ega.

Hozirgi vaqtda fanda ongni tadqiq qilish fanlararo xarakterga ega. Ong falsafasi nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki, ongning falsafiy tushunchasi psixologiya, lingvistika, semiotika, mantiq, antropologiya, biologiya, madaniyatshunoslik va ularga tutash bo'lgan fanlarda olingan yangi natijalarni umumlashtiradi. Ong haqidagi bugungi mulohazalar falsafiy va ilmiy argumentlarning shunday bog'lanishlari bilan xarakterlanadiki, bular chegarasida bu jihatlarni amalda ajratib bo'lmaydi. Shu ma'noda ong haqidagi fanlararo tushunchalarning fenomenologik falsafa prinsiplari asosida sintez qilinishini ko'rsatish mumkin, uning asosida «sun'iy intellekt» modelini qurish mumkin.

Ma'lumki, XX asr boshlarida fenomenologiya asoschisi E.Gusserl ongni sof imkoniyatlar majmui sifatida qaragan edi. O'tgan yuz yillik oxirida bu ta'rif «sun'iy intellekt»ning virtual (potensial, mumkin bo'lgan) reallik deb nazariy asoslash dasturini yaratishda juda asqotdi. «Sof imkoniyatlar» tarzidagi ongni inson ongi va «sun'iy intellekt» tipidagi

¹ Qarang: <https://yuz.uz/news/jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-joni-va-ruhi-manaviyatdir>

hodisalarga nisbiylashtirib, bu hodisalarni ongning konkret gavdalanish shakllari aks etgan ideal deb tushuncha boshladilar.

Ayrim inson ongi yoki «sun'iy intellekt» modelini «sof ong»ning imkoniyatlarining amalga oshgan xususiy holi deb hisoblash mumkin. Aynan shu sababli ongning fenomenologik tushunchasi ongning informatsion – bilish modellarini qurishda samarali va optimal vosita bo'lib xizmat qildi.

Ong tushunchasining shakllanish tarixi bizga uning asosiy sifatlari haqida mulohaza yuritishimizga imkon beradi. **Birinchidan**, bu ongning instrumental (kognitiv va kommunikativ) jihozlanganiga tegishli. Agar aytish mumkin bo'lsa gap avvalo ongning turli – tuman til (nutq), tushuncha (mantiqiy) va obrazli – sezgi vositalari ustida ketmoqda, bu vositalar odamlarning kundalik hayotlarini, ularning bilish va kommunikativ faoliyatlarini ta'minlaydi. Ongning instrumental vositalari insonning nafaqat bilim olishi va muomala qilish, balki ularni saqlash, qayta tiklash va baholashga, tanlashni amalga oshirib, qaror qabul qilishga imkon beradi. Ongning instrumental vositalari odamlarning ijodiy faoliyatida, uning barcha ko'rinishlarida namoyon bo'lgani holda nihoyatda sezilarli rol o'ynaydi. Bundan tashqari, inson ongli hulqining instrumental xarakteri, bizga inson yashash tarzining qolgan barcha tirik mavjudotlarning yashash tarzidan farq qilishini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ongning sistemaviy sifatlari: bu sifatlarga ongning bir butun tarzida bog'langanligi va uning alohida strukturalari o'zaro ta'sirining muvofiqlanganligidir. Bog'langanlik va muvofiqlanganlik sifatlari tufayli ong turli turdagi jarayonlardan iborat eng murakkab sistema sifatida ishlaydi: ular fikrlash, hissiy (sezgi, qabullash, tasavvur) va shuningdek, taasurotlar va intuitsiyadir.

Onglash jarayonining kechishi, unga tegishli bo'lgan strukturalarning resurslari bilan ta'minlanadi. Ongning har bir strukturasi boshqa strukturalar bilan o'zaro ta'sirlashib, yetakchi rol o'ynashi mumkin. Masalan, emotsional ong yoki xotirlash deb gapiriladigan bo'lsa, bu degani ongning boshqa strukturalari uning ishida qatnashmayapti degani emas.

Uchinchidan, ongning intensional qobiliyati, bu ongning nimagadir, kimgadir yo'naltirilganligida, yoki nimadir yoki kimdir to'g'risida bo'lganligida ifodalanadi. Ongning yo'nalganlik xossasi insonning dunyo

bilan munosabatlarida, insonning tarixiy, ijtimoiy, kulturologik individual – shaxsiy turli – tuman aspektlarining munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Ongning yo‘nalganlik konkret xossalardan odamlarning ongning faoliyatlarining predmeti kim (nima) ekanligi to‘g‘risida fikrlash mumkin. Ong yo‘nalganligining «ichiga» yo‘nalganlik va «tashqari»ga yo‘nalganlikni farqlash lozim. Ong inson borlig‘ining tashqi dunyosiga, shuningdek, uning ichki dunyosiga yo‘nalgan bo‘lishi mumkin.

Insonning ichki dunyosiga yo‘nalganda uning yo‘nalganligi o‘z – o‘zini onglash, o‘z – o‘zini nazorat qilish, o‘z – o‘zini tahlil qilish, baholash va o‘z – o‘zini tartibga keltirish va shunga o‘xshashda namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchidan, ongning epistemik sifati inson ichki dunyosining holatini ifodalaydi. Ongning epistemik sifatida odatda shubhalanish, ishonch holati, erk, ishontirish singari holatlar nazarda tutiladi. Ongning bu holatlarining tabiati turli belgilarning mujassamlanishidan iborat bo‘ladi. Masalan, ongning har bir holati o‘zida bilim va boshqa informatsiyalari elementlari emotsiyalarning baholi – qadriyatli sifatlari, erk xossasi, ongsizlik psixika elementlarini mujassamlashtirishi, shuningdek, boshqa psixik va jism – tana omillarining ta’sirida bo‘lishi mumkin.

Masalan, biz biror narsada aybdorligimizni anglasak, qo‘rquv hissini sezamiz, hayajonlanamiz, o‘zimizning ishonchimizni ifodalaymiz yoki qoniqish lazzatlanish hissini sezamiz, bunday holatlarning umumiy belgilari ularning anglanganligining, ishonchlilikning, qanoatlanlikning, yoqimlilikning, qadriyatlilikning va shularga o‘xshashlarning anglanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy ong tabiiy va ijtimoiy voqelikning in’ikosi jamiyatning muayyan davriga yoki qismiga tegishli bo‘lgan umumiy his tuyg‘ular kayfiyatlar, qarashlar, g‘oyalar, nazariyalar majmuidir. Ijtimoiy ong tufayli jamiyatni o‘z - o‘zini anglash sodir bo‘ladi, kechayotgan jarayonlarga munosabati shakllanadi. Ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda ijtimoiy ong ham rivojlanib o‘zgarib boradi. Ammo bundan aslo ijtimoiy ongning taraqqiyoti faqat ijtimoiy voqelikdagi o‘zgarishlarga bog‘liq ekan degan xulosa kelib chiqmaydi. Zero, ijtimoiy ong o‘z taraqqiyotida nisbiy mustaqillik xarakteriga va ijtimoiy voqelikka faol aks ta’sir eta olish xususiyatiga ham egadir. Ijtimoiy ongning bunday xususiyatlari avvalo

ijtimoiy ongga vorisiylik xos ekanligini ta'kidlash lozim. Bu ijtimoiy ong shakllarining o'z rivojlanish mantig'iga qonuniyatlariga ega ekanligida yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ijtimoiy ong rivojida uning turli shakllarining o'zaro ta'siri ham muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy ong undagi o'zgarishlar voqelikka hamma vaqt aks ta'sir etib kelgan. Bilimlar ko'lami, tarixiy tajriba har bir davrida ayricha bo'lganidek, bu ta'sirning kuchi ham turlicha bo'lgan. Ijtimoiy ongning mohiyati uni individual ong bilan solishtirganda yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy (kollektiv) ongning ikki eng muhim sifati keng tan olingan: aynan uning ob'ektivligi va individlar onglariga nisbatan yasamaligi (majburiyligi). Har bir inson uchun jamiyatda yuzaga kelgan va tan olingan fikrlar, g'oyalar va tasavvurlar unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan ob'ektivlikdir. Bu kollektiv ong individlar tomonidan o'zlashtiriladi va kelgusida ular tomonidan o'zgartirilishi mumkin, biroq uning mavjudligi va mazmuni bilan hisoblashishga majburdirlar. Individual onglarga nisbatan ijtimoiy ong shakllantiruvchi va obro'li majburiylik ahamiyatiga egadir. Mazkur jamiyatdagi e'tiqod, diniy va qadriyat tasavvurlari bilan, huquq va axloq normalarini nazarga olmagan individ o'zlariga kollektiv ongning majburiy ta'sirini o'z taqdirlarida boshdan o'tkazadilar.

Shu munosabat bilan ko'plab ijtimoiy – falsafiy nazariyalar ijtimoiy – tarixiy reallikni kollektiv ongga bog'liq holda tushuntirishga intildilar. Kollektiv ong jamiyatning barcha qolgan ijtimoiy jarayon va hodisalarini aniqlovchi ma'naviy asosi deb talqin qilindi. Ijtimoiy hayotda ongning, g'oyalar, qadriyat va normativ tasavvurlarning rollini tan olmaslik mumkin emas, biroq shuni ham tan olish kerakki, bunday tasavvurlarga munosabatni bo'rttirishlarga qarshi aytiladigan argumentlar ham ancha asoslidir. Asosiy ikki argumentni ko'rsatib o'tish yetarli. Birinchidan, yuqorida bayon qilinganidek, ijtimoiy hayotning, odamlar faoliyatining oqibati sifatidagi ko'plab jarayonlari, mexanizmlari va strukturalari ularning onglangan maqsadlaridan tashqarida, ularni chetlab ro'y beradi, odatda ularning onglarida adekvat ravishda fahmlanmaydi va nazorat qilinmaydi. Binobarin, ular ushbu ong bilan tushuntirilishi mumkin emas. Ikkinchidan, mazkur tarixiy konkret jamiyatning (guruh, tabaqa, sinf va sh.o'.) ongida aynan shu g'oyalar hukmronlik qiladi, boshqalari g'oya va

qadriyatlar emas, degan narsani tahlil qilishda shu narsani payqash osonki, ularning o'zi – real ijtimoiy – tarixiy jamiyatning yaratganlari va ifodalanishidir. G'oyalar va qadriyatlar hammadan avval tarixi va madaniyatning ildizlari bo'lishdan ko'proq mevasidir – ong real hayotga tegishli, real hayot ongga emas.

Ijtimoiy ongning shakllari va darajalari. Ijtimoiy ong shakl va mazmuni jihatdan rang – barangdir. Ijtimoiy ongning huquqiy, siyosiy, axloqiy, estetik, diniy, ekologik, aksiologik, iqtisodiy va innovatsion kabi shakllari mavjud. Nima uchun ijtimoiy ongning aynan yuqoridagi shakllari ajratiladi. Boshqacha aytganda, ular qanday mezonlar asosida farqlanadi. Avvalo ijtimoiy ong shakllarining xilma – xilligi ob'ektiv olamning turli tumanligidan, voqelikning muayyan tomonlarinigina aks ettirishidan kelib chiqishini ko'rsatish zarur. Ya'ni ijtimoiy ong shakllari birinchi navbatda o'zlarining aks ettirish ob'ektiga ko'ra farqlanadi. Shu bilan birga ijtimoiy ong shakllari bir - biridan voqelikni aks ettirish usuliga ko'ra ham ajralib turadi. Masalan, huquqiy normalar, qonunlar, qoidalar vositasida, estetik ong badiiy obrazlar yordamida voqelikni aks ettirishini bir qarashdayoq sezish mumkin. Bundan tashqari ijtimoiy ongning barcha shakllariga bilish, tarbiyalash, qadrlash kabi funksiyalarning xosligi ayni paytda bunday o'xshashlikni din va falsafa, axloqiy va huquqiy ong o'rtasida yana ham kuchliligi bunga misol bo'la oladi.

Jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy ong shakllariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Huquqiy ong. Huquqiy ong kishilar, ijtimoiy guruhlar, millatlar, jamiyatning qonunchilikka bo'lgan munosabatini ifodalovchi tasavvurlar, qarashlar, g'oyalar yig'indisidir.

Huquqiy ong – qisqacha qilib aytganda huquq va qonunchilikka oid odamlarning tasavvurlari, ularning his - tuyg'ulari, amaliy tajribalar ta'sirida paydo bo'lgan huquqqa nisbatan munosabatini ifodalaydi.

Huquqiy ong normativ ongdir. U davlat bilan birga paydo bo'ladi. Huquq xulq-atvor normasi sifatida davlat tomonidan joriy etiladi, muhofaza qilinadi va qo'llab-quvvatlanadi. Xulq, eng avvalo guruh manfaatlarini, keyin xalq manfaatlarini himoya qiladi. Huquqiy ong ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turish zaruriyati tufayli paydo bo'ladi. Huquqiy ongda jamiyatda qabul qilingan normalar gavdalanadi.

Ayni paytda huquqning amal qilishi, qo'llanilishi va unga rioya qilinishi huquqiy ongga bog'liqdir. Huquqiy ong qanchalik chuqur bo'lsa, ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishga yo'naltirilgan huquqiy normalar shunchalik to'g'ri, to'liq va qamrovli bo'ladi. Huquqiy ongning pastligi eng to'g'ri qonunlarning amal qilishini ham yo'qqa chiqarishi mumkin.

Huquqiy ongning xususiyatlari haqida gap ketar ekan, uning o'zgaruvchan ekanligini ta'kidlash zarur. O'zgarib turuvchi ijtimoiy jarayonlarni tartibga solib turish zaruriyati, ayni paytda mavjud huquqiy aktlarning nisbatan o'zgarmasligi, barqarorligi har doim muayyan huquqiy bo'shliqni yuzaga keltirib turadi va jamiyat uni to'ldirish yo'llarini izlaydi.

Huquqiy ong ikki shaklda namoyon bo'ladi:

a) huquqiy ong ijtimoiy psixologiya shaklida kishilarga qonuniy va qonunsizlik, adolat va adolatsizlik haqida, sinflar, millatlar, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar haqida tasavvur beradi. Huquqiy hodisalarga adolat hissi, jinoyatga nisbatan chora ko'rish zarurligi, burch va javobgarlik singari hodisalarni kishilar huquqiy ong darajasida baholaydilar va unga o'z munosabatlarini bildiradilar.

v) huquqiy ong ideologiya darajasida huquqiy qarashlarning ma'lum sistemasi: huquq nazariyasi, ta'limot, kodekslar va boshqalarni ifoda etadi. Huquqiy ong ijtimoiy aloqalar tizimida qator funksiyalarni bajaradi:

bilish, ma'lumot berish, ma'rifat tarqatish funksiyasi: huquqiy ongning shaxs, individ tomonidan o'zlashtirilishi va boshqalar;

baholash funksiyasi: sub'ekt o'zining manfaat, maqsadi nuqtai nazaridan qat'iy nazar ma'lum huquqiy kategoriyalarga asoslanib baho beradi. «Minnatdorchilik», «ezgulik», «yaxshilik», «yomonlik», «foйда», «zarar» va boshqalar to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi;

v) boshqarish funksiyasi: huquqiy ong kishilarning huquqiy fe'l-atvori, hatti-harakatini boshqaradi. Shuningdek, ularning huquqiy munosabatlari, ehtiyojlarini ham belgilaydi va boshqaradi.

Huquqiy ong ijtimoiy ongning barcha shakllari bilan, ayniqsa, siyosiy ong, axloqiy ong bilan uzviy bog'langandir. Axloqiy ong huquqiy ongga nisbatan kengroq tushunchadir. Voqea va hodisalarni axloqiy baholashda huquqiy ong ham hisobga olinadi.

Axloqiy ong. Axloq ham ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida kishilarning jamiyatdagi hatti-harakatlari, yashash normalari, yurish-

turishlari, prinsiplari, qoidalari shuningdek ularning o‘zaro bir-birlariga hamda ijtimoiy birlashmalarga bo‘lgan munosabatlarini ifodalaydi.

Axloq jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichida paydo bo‘lgan. Uning paydo bo‘lishida kishilarning munosabatlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Axloq jamiyatda kishilarning hatti-harakatlarini, xulq atvorlarini tartibga soluvchi ehtiyojlar mavjud bo‘lganligi uchun kelib chiqadi. Axloq inson hayotidan, ularning moddiy hayot sharoitlaridan ajralgan holda yuzaga kelmaydi. Axloqiy ong axloqiy faoliyat bilan uzviy bog‘langan. Kishilarning hamma faoliyatlarida xulq-atvor, yurish-turish bilan bog‘lik bo‘lgan jihatlar, tomonlar bor. Ammo ularning barchasi axloqiy faoliyatni tashkil etmaydi. Axloqiy faoliyat muayyan axloqiy maqsadlarga ongli ravishda bo‘ysundirilgan bo‘ladi. Masalan: yaxshilik qilish, burchga sodiqlik va hokazo.

Axloq eng avvalo umuminsoniy, an’anaviy hodisadir. Asosiy axloqiy qadriyatlar, axloqiy tushunchalar, axloqiy tamoyil va me’yorlar barcha mintaqalar hamda millatlar uchun bir xil ma’no kasb etadi. Chunonchi, muhabbat, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, vijdon, burch, insonparvarlik va odamiylik, baxt to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, saxiylik va baxillik singari fazilat hamda illatlar tom ma’noda umuminsoniy hodisalardir. Shuningdek, axloqning umuminsoniy xususiyatidan tashqari, mintaqaviylik va milliylik xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy ong va axloqiy munosabatlar qotib qolgan emas, ular doim o‘zgarib turadi. Kishilarning hayot sharoitlari, ular yashab turgan ijtimoiy tuzum o‘zgarishi bilan axloqiy ong va munosabatlar ham o‘zgarib takomillashib boradi.

Axloqiy ongda axloqiy tamoyillar katta ahamiyatga egadir. Ular jamiyat tomonidan shaxsga qo‘yiladigan talab tarzida namoyon bo‘lib, insonning axloqiy mohiyatini uning hayotiy mazmunini, odamlar bilan o‘zaro aloqalaridagi asosiy jihatlarini belgilab beradi. Axloqiy tamoyillarning eng qadimiy va eng muhimlaridan biri insonparvarlikdir. Insonparvarlik dastavval Sharqda o‘rtaga tashlangan. U umumiy qadriyatlar sirasiga kirib uning markazida muayyan shaxs turadi. Har bir shaxs insoniy huquqlarini ta’minlash uchun kurashish insonparvarlikning asosiy vazifasidir. Bu borada umumbashariy ma’naviy qadriyatlarni ustivor deb bilgan bizning davlatimiz mamlakat ichkarisida, ham dunyo

miqiyosida ko'zga ko'rinarli ishlar qilmoqda. Shuningdek, axloqda erkparvarlik tamoyili ham muhim ahamiyatga egadir. Erkparvarlik insonning eng oliy huquqi, erkin, ozod yashash huquqini himoya qilish bilan muhimdir. Zero, erksiz inson - asir, erksiz millat qul, erksiz mamlakat - mustamlaka.

Erkparvarlik avvalo, o'z millat o'z Vatani erki uchun, qolayversa, boshqa millatlar va vatanlar erki uchun kurashishni hayotining maqsadi qilib qo'ygan insoniy tamoyildir.

Yana bir eng muhim axloqiy tamoyillardan biri bu vatanparvarlikdir. U insonning o'z Vatanga muhabbatini, uni asrab avaylashga bo'lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha, u eng avvalo, o'z vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, inson ozodligi yo'lidagi hatti-harakatlaridir. Vatan bilan g'ururlanish, uni asrab-avaylash, vatanparvarlikdir.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuygusini tarbiyalash, ularni Vatan ma'nosini teran anglab yetishga o'rgatish, vatanparvarlik - yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish fanimizning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Yana bir muhim axloqiy tamoyil bu millatparvarlik. Millatparvarlik boshqalarni kamsitmagan holda o'z millati ravnaqi uchun kurashish, bu yo'lda lozim bo'lsa, o'z hayotini ham fido qilish demakdir. U insonparvarlik bilan chambarchas bog'lik. Inson milliy o'zligini anglab yetgandagina millatparvar bo'la oladi. Axloqiy ongni shakllantirishda axloqiy tarbiyaning roli nihoyatda kattadir. Ota bobolarimiz e'tiqod qilib kelgan islom ta'limoti va Sharq falsafasida o'z aksini topgan umuminsoniy ahamiyatga molik odob - axloq qoidalari mustaqillik sharofati bilan yanada tiklanib xalqimizning madaniy - ma'naviy poklanishi va yuksalishiga xizmat qilib kelmoqda.

Estetik ong. Estetik ong ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, estetik his – tuyg'ular, did, qarashlar, ideallar va nazariyalarning o'ziga xos betakror tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Inson voqelikni turlicha, har xil ko'rinishlarda qabul qiladi. Bu qabul qilishning ilk bosqichi his tuyg'u-idrokdir. Ularning o'ziga xos shakli esa estetik his-tuyg'ular va estetik idrokdir. Unda voqelik badiiy emotsional shakl oladi va insonning estetik ehtiyojlarining in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi.

Estetik his tuyg'u idrokka tarixiy o'zgaruvchanlik xususiyatiga xosdir. Aynan mana shunday o'zgaruvchanlik tufayli ular har bir davrda

o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi. Kishilarning estetik his tuyg'ulari, idrokning rivojlanishiga ijtimoiy bilimlar taraqqiyoti, madaniyatining rivojlanganlik darajasi, jamiyatdagi ta'lim tarbiya tizimi kabi turli sotsial omillar muntazam ta'sir o'tkazib turadi. Estetik idrokning natijasi sifatida estetik kechinmalar paydo bo'ladi, unda idrok etilayotgan ob'ektlar, hodisa, jarayonlar emotsional shaklda baholanadi. Estetik kechinmalar darajasi idrok etilayotgan ob'ektning qimmatiga shaxsning sub'ektiv idealiga, didiga muayyan darajada bog'liq bo'ladi. Estetik baholashda kishilar go'zallik – xunuklik, ulug'vorlik, tubanlik, fojaviylik, kulgulilik kabi tushunchalar bilan ish ko'radilar. Estetik hissiyotlar, kechinmalar, did va ideallar, ularning individual va gruppaviy ko'rinishlari estetik ongning birinchi tomonidir. Uning ikkinchi tomoni voqelikni badiiy obrazli anglashni ifodalaydigan san'atdir. Estetik ongning bu ikki tomoni o'zaro bog'liqdir. San'at estetik hissiyotlar, did, ideallarning shakllanishida bosh rol o'ynaydi.

Badiiy obrazlar, qahramonlarning kishilar hulqiga ta'siri tom ma'noda ulkan va beqiyosdir. Aynan mana shuni nazarda tutib, yozuvchi A.Qahhor "Adabiyot atomdan kuchli..." degan edi. Haqiqattan ham, agar san'at asarlari zo'rlik, g'ayriinsoniylik, adovat, nafrat tuyg'ularining o'sishiga xizmat qilsa, o'zidan so'ng singan inson taqdirini, buzilgan avlod va ma'naviy bo'shliqni qoldiradi. Bu har qanday atom bombasi portlashi natijalaridan ham xavfliroq va fojeliroqdir. San'at asarlari, ezgu g'oyalar mehr – muhabbat tuyg'ulari bilan yo'g'irilgan bo'lsa, do'stlik va qardoshlikni tarannum esa, ma'naviy yuksalish uchun xizmat qiladi, hushyorlikka, faollikka chorlaydi.

Siyosiy ong. Siyosiy ong jamiyat rivojlanishining ancha yuqori bosqichida, jamiyat siyosiy tizimining qaror topa borishi va siyosatning faoliyat sohasi sifatida paydo bo'lishi bilan bir vaqtda yuzaga keladi. Siyosat va siyosiy ong o'zaro uzviy bog'liqdir. Siyosat ongli maqsadga qaratilgan faoliyat turi ekan unga ijtimoiy ongning muayyan shakli mos keladi. Demak, siyosiy ong davlat hokimiyatiga ijtimoiy guruhlar millatlar siyosiy institutlar va muassasalar faoliyatiga bo'lgan munosabatlarni ifoda etuvchi kayfiyatlar, tasavvurlar, qarashlar va e'tiqodlar majmuidir.

Siyosiy ongda davrning mamlakatning eng chuqur muammolari o'z ifodasini topadi. Zero, kishilarni siyosiy muammolar, voqealar doimo

o'ziga tortadi, diqqatini jalb qiladi. Siyosiy ong o'zining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususan u ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy manfaatlari bilan o'zaro bog'liq. Ikkinchidan, siyosiy ongning o'ziga xosligi davlat va hokimiyat masalalari bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, uchinchidan jamiyat hayotiga va ijtimoiy ongning boshqa shakllariga ustun darajada ta'sir qila olishida ko'rinadi. Siyosiy ong bir butun yaxlit hodisa sifatida nisbatan murakkab ichki strukturaga egadir.

Birinchi navbatda siyosiy ongning darajalariga va shakllariga bo'linishini qayd etish lozim. Siyosiy ongning kundalik - amaliy va g'oyaviy – nazariy darajalarini ajratish mumkin.

Kundalik - amaliy siyosiy ongda, kundalik tasavvurlar, shakllangan an'analar, odatlar elementlari hukmronlik qiladi. Kundalik - amaliy siyosiy ongda nazariy formulalar, tushunchalar, falsafiy kategoriyalarga deyarli o'rin bo'lmaydi. Unda voqelik, amaliy, foydalilik nuqtai – nazaridan tushuniladi va baholaniladi. Siyosiy ongning yuqori darajasi g'oyaviy – nazariy ongdir. Mohiyatan siyosiy mafkuragina sof nazariy xarakterga ega. Chunki u muayyan ijtimoiy guruhlar, jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda dasturlar, ideallar, boshqacha aytganda siyosiy voqelikning konseptual ifodasini yaratadi. Shuning uchun ham odatda g'oyaviy nazariy siyosiy ongni ishlab chiqish bilan siyosiy va ijtimoiy fanlar, siyosiy institutlar va muassasalar shug'ullanadilar.

Siyosiy ong shakllarini turli asoslariga ko'ra farqlash mumkin. Asos sifatida siyosiy ongning sub'ekti olinadigan bo'lsa, shaxs, guruh, millat va fuqarolik siyosiy ongini farqlash mumkin. Ayni paytda yo'nalishiga ko'ra demokratik nodemokratik siyosiy ong shakllarini ajratish mumkin.

Diniy ong. Ijtimoiy ongni shakllaridan yana biri diniy ongdir. Bu masalani yoritishimiz uchun ,avvalo, din savollarga javob berishimiz lozim.

Din insoniyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismidir. Din tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri, insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan qarash va ta'limotdir. Diniy dunyoqarashning shakllanishi tadrijiy va jiddiy jarayon bo'lib, u o'z ichiga animizm, fetishizm, totemizm,

sehrgarlik kabilarni qamrab oladi. Qadimgi davrda politeizm xalq milliy dinlari paydo bo'lgan. Jamiyat taraqqiyotida feodal tizimining qaror topishi bilan jahon dinlari: buddizm (eramizdan avvalgi VI-V asrlarda Hindistonda); xristianlik (eramizning I asrida Rim imperiyasi), Islom (eramizning VII asrida G'arbiy Arabistonda) kelib chiqqan.

Diniy ongning umumiy belgisi mezoni diniy e'tiqoddir. Diniy e'tiqod u diniy goy'alar tasavvurlar tushunchalari afsonalarni haqiqat sifatida qabul qilish hamda iloxiy kuchning mavjudligiga ishonishni o'z ichiga oladi. Diniy e'tiqodda hissiyotlari qo'rqish, zavqlanish quvonch umid va boshqalar diniy tasavvurlar bilan qo'shib ketib tegishli yo'nalish ma'no kasb etishi mumkin.

Diniy ong diniy faoliyat bilan uzviy bog'langan. Diniy faoliyatga dindorlarning diniy majburiyatlarini bajarish, diniy marosimlarni amalga oshirish ularda ishtirok etish bilan bog'lik bo'lgan faoliyatlari diniy qarashlarni himoya qilish targ'ib qilish va diniy tashkilotlarning faoliyatlari kiradi. Diniy ong diniy munosabatlar bilan ham uzviy aloqadorlikda. Bu munosabatlarga dindorlarning o'zaro munosabatlari, diniy tashkilotlar bilan dindorlar o'rtasidagi munosabatlar va boshqalar kiradi.

Diniy ongning shakllanishida diniy aqidalar muhim rol o'ynaydi. Har bir dinning o'ziga xos aqidalari mavjuddir. Masalan: Islom dinida e'tirof etilgan aqidalar yettita Ollohning yagonaligiga, farishtalarga muqaddas kitoblarga, paygambarlarga, oxiratga, taqdirning iloxiyiligiga va inson o'limdan so'ng qayta tirilishga ishonish.

Diniy ongning shakllanishi va rivojlanishida diniy dasturlarning ishlab chiqarishi, shuningdek turli diniy bayramlarning o'tkazilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Din o'zining tantanali bayramlari, marosilari bilan kishilar ko'nglida ko'tarinki kayfiyat, xursandchilik, sabr-toqat, qanoatchilik, vijdon, burch, poklik va shu kabi insoniy fazilatlarni shakllantiradi, ma'naviy kamol toptiradi. Diniy faoliyat ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: muqaddas joylarni ziyorat qilish katta o'rin tutadi. Masalan: Makka va Madinaga borib, u yerdagi muqaddas joylarni ziyorat qilish, turli marosimlarni bajarish qurbonlik qilish va hokazo.

Bunday joylar Markaziy Osiyo hududida ham uchraydi. Samarqanddagi Shohi Zinda, Guri Amir, Ismoil Buxoriy, Buxorodagi

Xo‘ja Bahouddin, Qiz bibi, Turkistondagi Axmad Yassaviy, Toshkent viloyatidagi Zangi ota va boshqalar shular jumlasidandir.

Aksiologik ong. Ma’lumki bizni o‘rab olgan olam cheksiz, ko‘p qirralidir. Albatta uni anglash, o‘zlashtirish, mohiyatiga yetish, munosabat bildirish ham xilma – xil, turlicha. Bu xilma – xil olamga qadriyatli munosabat, qadriyatli yondshuv va aksiologik ongni ham o‘zida aks ettiradi.

“Aksiologik ong – qadriyatlarni anglash jarayonida vujudga keladigan qadrlash tuyg‘usi, aksiologik tushuncha, qarashlarni, xulosalarni ifodalaydigan va aks ettiradigan ijtimoiy ong shakli. Aksiologik ongda qadriyatlar, ularning mohiyati, mazmuni namoyon bo‘lish shakllari, ahamiyati va xususiyatlari o‘z aksini topadi”¹. Aksiologik ong – ijtimoiy ongning maxsus shakli bo‘lib, biroq ijtimoiy fanlarda ijtimoiy ong shakllari ilmiy tushuncha sifatida qaraladi.

Aksiologik ong – olam, voqea – hodisa, bir – biriga bo‘lgan insonparvarlik g‘oyalari asosida o‘ziga xos tarzda aks etadi. Unga asoslangan qadriyatli yondashuv, qadriyatli munosabat, amaliyot va faoliyatlar ham boshqalardan farq qiladi. Masalan, yuqorida ta’kidlaganimizdek, huquqiy ong kishilarning huquqiy munosabatlari va bu boradagi faoliyatni aks ettirsa huquqiy talab va normalar esa qonun va qoidalarga aylangan, muayyan hujjatlarda aks ettiriladi. Ularga rioya qilish ko‘p hollarda majburiy hisoblanadi, bu borada qator idora va tashkilotlar ish olib boradi.

Aksiologik bilishda “qadrlash tuyg‘usi” va aksiologik idrok muhim ahamiyat kasb etadi. “Qadrlash tuyg‘usi” aksiologik ongning eng asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, tabiiy va ijtimoiy hodisalarning qadrini anglash, insonlarning bir – birini qadriga yetish, mas’uliyat hissini sezish va boshqalarda namoyon bo‘ladigan tushunchadir.

Bizni o‘rab olgan olam va odam o‘z ahamiyati bilan qadrlidir. Olamdagi voqea va hodisa va jarayonlar odamlar uchun qadrlash tuyg‘usini uyg‘otuvchi asosdir. Shu bilan birga, olam, odam va hayot deb atalmish serqirra ma’nolar qadrlash tuyg‘usini shakllantiradigan asosiy mezonlardir.

¹ Nazarov Q., Tuxtayev X. Aksiologiya. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent, “Universitet” nashriyoti, 2022, b.201

Aksiologik dunyoqarash – kishilarning voqea – hodisaga qadriyatli munosabati va faoliyatining yo‘nalishini belgilaydigan aksiologik qarashlar, tamoyillar va maslaklar majmuasi.

Olamga qadriyatli munosabat shakllanishi har bir kishining yetuk inson sifatida voyaga yetishi jarayonining tarkibiy qismidir. Kishi kamolot sari borar ekan, o‘zi, o‘zgaralar, tashqi muhit, olam, umr, hayot, vaqt, davr va boshqalarning haqiqiy qadrini anglayveradi. Bu mazkur kishida aksiologik munosabat shakllanishining shaxsiy jarayonini anglatadi.

Iqtisodiy ong. Ijtimoiy ong shakllaridan yana biri iqtisodiy ongdur. Iqtisodiy jarayonda kishilar mehnati hal qiluvchi vazifani bajaradi. Ular jamiyat ishlab chiqarish jarayonining sub’ektlari sifatida maydonga chiqishlari uchun yetarli darajada malaka, ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur. Bu esa odamlar onglilik darajasi yetarli bo‘lishini talab qiladi.

Iqtisodiy ong iqtisodiy hayot sohasida kishilar tomonidan erishilgan natijalarni, jamiyat tomonidan qo‘lga kiritilgan iqtisodiy tajribani nisbatan umumlashgan holda aks ettiradi. U iqtisodiy siyosatning ta’sirchanligiga, boshqaruvning sifatiga har bir xodim mehnatining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, iqtisodiy qonunlardan foydalanishning muhim ekanligini anglatadi. Har qanday jamiyatning iqtisodiy ong, pirovardida undagi alohida shaxslar iqtisodiy ong darajasining majmui sifatida maydonga chiqadi. Ma’lumki, shaxsning iqtisodiy madaniyati uni o‘zlashtirgan iqtisodiy bilimlari, malakalarini amaliyotda turmush tarzda me’yor va an’analarda ro‘yobga chiqarish borasidagi faol mehnati bilan bog‘liq. Demak, shaxsning iqtisodiy ongi uning o‘zini rivojlantirish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Iqtisodiy ongning rivojlanganlik darajasi har bir muayyan jamiyatdagi iqtisodiy mafkura, xo‘jalik yuritish usullari va shart-sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi.

Iqtisodiy hayot ob’ektiv iqtisodiy qonunlar majmui asosida harakat qiladi. Bu qonunlarning mazmunini ommaviy ravishda teran anglab yetish iqtisodiy ong taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan biridir.

Ekologik ong. Jamiyat muayyan ehtiyojlar va ma’naviy ishlab chiqarishning yangi sohalari vujudga kelishi bilan ijtimoiy ongning yangi shakllari vujudga keldi. Ijtimoiy borliqning muayyan bog‘lanishi va aloqadorliklarini, ifodalovchi ijtimoiy ongning barcha shakllari kabi

ekologik ong ham ijtimoiy munosbatlar tizimida «tabiat-jamiyat» munosabatlarining aks etishi sifatida qaralmog‘i lozim. Insonning yashab turgan tabiiy atrof muhitiga bo‘lgan munosabatlari majmuasi faqat amaliy faoliyat bo‘lmasdan, balki ma’naviy qarashlarni ham o‘z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, tabiatga nisbatan amaliy va nazariy munosabat dialektik bog‘lanishda, aloqadorlikdadir. Insonning barcha amaliy faoliyati ongli faoliyatdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida insoniyat atrof-muhitga turlicha munosabatda bo‘lib kelgan. Mehnat quollarining takomillashuvi bilan insonning tabiat ustidan «hukmronligi» kuchayib borgan. Natijada «jamiyat-tabiat» munosabatlarining mutanosibligi buzilib, tabiatni muhofaza qilish orqali insonni o‘zini muhofaza qilish zarurati paydo bo‘ldi. Bu ob‘ektiv zarurat o‘z navbatida aynan shu masalani o‘rganuvchi yo‘nalishlarni (ekologiyani) vujudga keltirdi. Ekologik ong tabiatga, uning boyliklariga, o‘simlik olamiga, hayvonot dunyosiga keltiriladigan g‘oyat katta zarar, xavf natijasida kishilarda paydo bo‘lgan achinish, xafa bo‘lish, vahimaga tushush, qayg‘urish va boshqa his-tuyg‘u kayfiyatlarni o‘z ichiga oladi. Ekologiya ong tabiatning go‘zal olami, ajoyib boyliklaridan unumi, tejab-tergab foydalanib, o‘simlik, hayvonot olamini qirilib ketishining oldini olish, suv, havo, tuproq, tog‘ jinslarining kamayib ketishini oldini olishga qaratilgan qarashlar, g‘oyalar nazariyalardan iborat. Inson va tabiat o‘rtasida munosabat mutanosiblikda bo‘lishi kerak.

Innovatsion ong - ijtimoiy ongning o‘ziga xos shakli. “Innovatsiya” termini “yangilik” ma’nosini anglatadi. Innovatsiya yangi moddiy va ma’naviy boyliklar yaratishga qaratilgan murakkab jarayon bo‘lib, u kishilarning yangicha faoliyatiga asoslangan va jamiyatda muhim ijtimoiy o‘zgarishlarga olib keladigan ijtimoiy fenomendir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek, «Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz... Innovatsiya bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondoshuv asosida boshlashimiz

kerak.¹» Jamiyat hayotiga innovatsiyalarning kirib kelishi bugungi kunda hodisa emas, o'zining ma'lum qonunlari va tamoyillariga asoslangan ijtimoiy fenomenga va ob'ektiv jarayonga aylandi.

Innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy va madaniy taraqqiyotining muhim xususiyati sifatida uning to'la qaytadan qurilishiga olib kelmoqda. Bularning natijasida innovatsion ong, innovatsion yoki kreativ (ijodiy) yondashuv, innovatsion faoliyat va ularga asoslangan innovatsion jamiyat shakllanmoqda.

Innovatsion jamiyat yangilanib, muntazam takomillashib va taraqqiy etib borayotgan jamiyatdir. Innovatsiyalar barcha sohalarda tarqalayotgan zamonaviy yangiliklar bo'lib, ular yangi texnologiyalar, metodlar, yangicha yondashuvlar, zamonaviy va qulay tovarlar, fan va texnikaning eng oldingi yutuqlari, nanotexnologiya, madaniyatning yangi elementlari kabilardan tashkil topadi. Hozirgi kunda innovatsiyalar jamiyat tarixi va taraqqiyotini, dinamikasini belgilab beruvchi omillardan biriga aylanib bormoqda. Innovatsion faoliyat va innovatsion ong hozirgi modernizatsiya kontekstida yanada dolzarb muammolardan biri bo'lib qoldi hamda ob'ektiv ravishda ijtimoiy taraqqiyotning shartiga aylandi. Innovatsion ong asosida innovatsion faoliyat shakllanadi. Innovatsion faoliyat yangilik yaratish va uning natijalarini amalda qo'llash orqali sohani takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, u mavjud tizimga yangilik asosida o'zgartirish kiritish bilan ko'proq samara olishga qaratilgan. Bunday faoliyat orqali kishilar innovatsion jamiyatning yangicha munosabatlarini shakllantiradilar, o'zlari ham bunday munosabatlarga chuqurroq kirib boradilar va tobora faollashadilar.

Shuni ta'kidlash zarurki, innovatsiyalar faqatgina iqtisod, texnika va texnologiyalar sohasi bilan cheklanib qolmay, jamiyatning barcha sohalarini qamrab oladi. Innovatsiyalar haqida gap ketganda, siyosat, ta'lim, sog'liqni saqlash, boshqaruv, tashkilotchilik, madaniyat, turmush tarzi va boshqa sohalarda qo'llanadigan innovatsiyalar va innovatsion faoliyat ham nazarda tutiladi. Demak, innovatsiyalar natijasida evolyusion tarzda insonlarning faoliyati ham o'zgarib boradi, bu esa jamiyatda innovatsion ongning shakllanib borishi va kishilar innovatsion

¹ Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil, - 88 bet

faoliyatining kengayib borishiga olib keladi. Bu jarayonlarsiz ulkan ilmiy kashfiyotlar, fan va texnika sohasida yangiliklar, buyuk san'at asarlarining yaratilishi, madaniyat va ma'naviyatning rivoji mumkin bo'lmas edi.

Innovatsiyani tatbiq qiluvchilar, albatta, sub'ektlardir. Ularning modernizatsiya va innovatsiyalarga munosabatlari, potensiali, onglik darajasi, taraqqiyot talablari va "chaqiriqlariga javob bera olishlari", o'z hayotlari va faoliyatlarida ularni qo'llay olishlari innovatsion jamiyatning yuzaga kelishi, innovatsion ong va innovatsion faoliyatning shakllanishi pirovardida modernizatsiyaning sur'atlarini belgilaydi. Hozirgi kunda innovatsiyalar jamiyat va uning a'zolari aksiologik ong va aksiologik tizimining tubdan o'zgarib borishiga sabab bo'lmoqda. Ular tobora an'anaviy qadriyatlar o'rnini egallay borib shaxs aksiologik tizimining zaruriy elementlaridan biriga aylanmoqda. Bu holat jamiyatning aksiologik orientatsiyasiga ham ta'sir etib, uning ko'proq innovatsiyalarga intilishiga, sub'ektlarning kreativ, ya'ni yangicha yondashuvga asoslangan innovatsion ongi va innovatsion faoliyati kengayishiga olib kelmoqda. Innovatsion ong jamiyatga kirib kelayotgan yangiliklar, innovatsiyalar va unga bog'liq bo'lgan innovatsion o'zgarishlarni aks ettiradi. Innovatsion ongning muhim xususiyati ijodiylik, innovatsion yondashuv, innovatsion tafakkur hisoblanadi. Jamiyatda shakllanib borayotgan yangi ko'nikmalar, yondashuvlar asosida innovatsiyalar ko'payib borgani sari jamiyat a'zolari ongida innovatsion jamiyatda yuzaga kelayotgan munosabatlar, yangicha yondashuvlar, yangicha turmush tarzining turli jihatlari, hayotga faol munosabat, o'z faoliyatida esa kreativlik xususiyatlari ko'proq aks etib boradi. Bunday ong so'nggi davrdagi falsafiy adabiyotlarda "innovatsion ong" deb yuritilmoqda.

Demak, innovatsion ong yangicha asosga ega bo'lgan qadriyatlar, ko'nikmalar, yangicha yo'naltirilgan va ko'proq yangilikka intilayotgan dunyoqarash asosida taraqqiy etadi. Innovatsion ong ijodiy ong bo'lib, u insonning o'z hayotida muntazam ijodiy yondashuvga ega bo'lishini, kreativlikni, o'zidan o'zib ketish uchun intilishini talab etadi. Innovatsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy hayot va kishilarning kundalik turmush tarzi, faoliyatiga chuqur kirib kelayotgani sababli sub'ektlarning amalda innovatsion texnologiyalar va metodlarni qo'llashlari va ulardan keng foydalanishlari, mazkur o'zgarishlar, yangiliklarni anglab yetgan holda

zamon ruhiga javob bera olishlari va o'z faoliyatlarini innovatsiyalarga moslashtira olishlari zarur bo'ladi. Bu nuqtai nazardan jamiyat a'zolarining: a) innovatsion jamiyatni aks ettiruvchi innovatsion ongga asoslanishlari; b) innovatsion faoliyat olib borishlari muhim ahamiyatga ega. Innovatsiyalar har bir sub'ekt, guruh va guruh rahbari yoki yetakchining faoliyatida qo'llanadigan muhim xususiyat sifatida ob'ektiv zaruriyatga aylanib qoldi. Bugungi modernizatsiya sharoitida raqobatbardosh bo'lish, innovatsion ongga va kreativlik xususiyatlariga ega bo'lish, ular asosida muntazam ravishda innovatsion faoliyatini rivojlantirib borish ham shaxsning zarur ehtiyojiga, ham unga jamiyat tomonidan qo'yilgan talabga aylanib qolmoqda. Chunki faoliyatida innovatsiyalarga munosabat, kreativ yondashuv, soha faoliyatini yaxshilashga qaratilgan yangiliklarni izlab topish, yangi texnologiyalarni joriy etish jamoa a'zolariga, ularning ongi, qadriyatlar tizimi va faoliyatiga, albatta, ta'sir ko'rsatadi. Har qanday innovatsion faoliyat jarayoni yuqori samaradorlikka erishishga qaratilgan.

Bu jarayonning qanday borishi va natijalari sub'ektlarning: innovatsiyalarni qidirib topishga intilishi va ularni o'z faoliyatiga tatbiq qila olishi; jamoa faoliyatini innovatsion asosda qura olishi; innovatsion g'oyalarni bera olishi; ilg'or fikrlarni anglab yetishi va qabul qilishi; innovatsion ong va innovatsion tafakkurga ega bo'lishi hamda unga asoslangan innovatsion faoliyat olib borishi bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan sub'ektning intellektual salohiyati darajasi ahamiyatli bo'lib, bunday potensialning realizatsiya qilinishi tashkilot va sohaning rivoji va pirovardida jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan jarayonlar jamiyatda innovatsion muhitning shakllanishiga olib keladi. Bunday muhit esa o'z navbatida kishilar ongida innovatsiyalarga intilish, ijodiylik, yangiliklarni izlab topish kabi xususiyatlarni shakllantiradi. Bundan tashqari innovatsion muhit: innovatsion ong taraqqiyoti va innovatsion faoliyatning kengayib borishi; innovatsion guruhlar harakatlarining birlasha olishi; guruhlarning ijodiy jamoa bo'lib ishlay olishi; innovatsion faoliyatni to'g'ri yo'naltira olish orqali har bir a'zoning intellektual potensialini yuzaga chiqara olishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsiyalar asta-sekin kishilar faoliyatining o‘ziga xos mezoniga, zamonaviy qadriyatlar tizimining muhim elementiga aylanib boradi. Yangi O‘zbekistonda modernizatsiya jarayonida innovatsiyalar taraqqiyoti, innovatsion jamiyatning shakllanishi innovatsion ongga, ilg‘or qadriyatlar orientatsiyasiga ega shaxslar, jamoalar va ularning salohiyati muhim rol o‘ynaydi. Ular yetakchilik xususiyatlariga ega bo‘lgan holda, ijtimoiy hayotning zamonaviy ehtiyojlariga javob bera oladigan va intellektual potentsiali kuchli bo‘lgan kreativ fikrlovchi shaxslarni ergashtira olishi bilan innovatsion jamiyat shakllanishiga ta’sir ko‘rsata oladilar.

Ijtimoiy ong va individual ong ularning o‘zaro aloqasi. Ma’lumki har bir kishiga xos individual ong bo‘lishi isbot talab qilmaydigan hol. Odamzod bir – biri bilan aloqalarini tartibga solib turadigan ma’naviy, axloqiy mezonlar, umumiy qarash va intilishlar, manfaat va maqsadlar ham borlig‘ini anglaganidayoq, ijtimoiy ong mavjudligini mohiyatini tushungan.

Individual ong - muayyan guruh, elat millatga mansub bo‘lgan ayrim shaxsning ongi. Voqelik va real borliqning alohida olingan shaxs ongida aks ettirishidir. Individual ong sohibi, sub’ekti alohida olingan individdir.

Individual ong taraqqiyotiga ijtimoiy ong bilan birga shu shaxs bo‘lgan temperament, xarakter kabi xususiyatlar moddiy holat, oilaviy, diniy, milliy – madaniy mansublik kabi omillar hamda ijtimoiy munosabatlar xarakteri ham muayyan darajada ta’sir ko‘rsatildi.

Individual ong ayrim sohalarida ijtimoiy ongdan o‘zib ketishi, yoki orqada qolib ketishi mumkin. Fan tarixida keskin burilishlar yasagan olimlar jamiyat taraqqiyoti istiqbollari oldindan aytib bergan mutafakkirlarning qarashlari, individual ong ba’zan ijtimoiy ongdan nechoqli ilgarilab ketishiga yorqin misol qilib bo‘ladi.

Ijtimoiy va individual ongning mohiyatini chuqurroq anglash uchun ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlarini tushunish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy va individual ong o‘rtasidagi o‘xshashlik bir tomondan, har ikkalasining ham ijtimoiy voqelikning aks ettirishida ko‘rinadi. Boshqa tomondan ijtimoiy ong voqelikni individ ongi orqali aks ettiradi. Chunki

ijtimoiy voqelikda yuz beradigan o'zgarishlar avvalo alohida kishilar ongida o'z aksini topadi va undan so'nggina ijtimoiy ongda gavdalanadi.

Ijtimoiy va individual ong o'rtasidagi farqli tomonlar quyidagilarda ko'rinadi: birinchidan, individual ongning sohibi, sub'ekti alohida olingan individ bo'lsa, ijtimoiy ongning sub'ekti jamiyatdir; ikkinchidan, ularning farqi shakllanishi shart sharoitlarida ko'rinadi. Zero ijtimoiy ong ijtimoiy voqelikni in'ikosi bo'lsa, individual ong taraqqiyotiga ijtimoiy ong bilan bir qatorda shu shaxsgagina xos bo'lgan temperament xarakter kabi xususiyatlar uning moddiy ahvoli oilaviy, diniy, milliy - madaniy mansubligi kabi omillar hamda u bevosita tortilgan ijtimoiy munosabatlarning xarakteri ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy ongga ko'lamlilik keng qamrovlilik, individual ongga esa o'ziga xos betakrorlik xosdir; uchinchidan, ijtimoiy ong ijtimoiy voqelikni aks ettirganligi uchun muayyan qonuniyatlarga buysunadi, ular asosida rivojlanadi. Individual ong esa, ayrim individning tug'ilishi bilan shakllanib, taraqqiy qilib borib, uning vafoti bilan barham topadi. Ammo bu individ ongining butunlay barham topishini hamma vaqt ham anglatavermaydi. Chunki individ ongi u yaratgan asarlar, kashfiyotlar shaklini olib, keyingi avlodlar tomonidan meros sifatida qabul qilib olinishi mumkin. Masalan, Gippokrat va Ibn Sino ta'limotlari, Aflotun va Beruniyning G'oyalari, Navoiy va Gandining gumanizmi kishilar uchun hamon katta ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda; To'rtinchidan, individual ong ayrim sohalarda ijtimoiy ongdan o'zib ketishi yoki orqada qolishi mumkin. Fan tarixida keskin burilishlar yasagan olimlarning, jamiyat taraqqiyotining istiqbollari oldindan aytib bergan mutafakkirlarning qarashlari individual ong ba'zan ijtimoiy ongdan nechoqlik ilgarilab ketishi mumkinligiga yorqin misol bo'la oladi.

Odamlar faoliyati qanchalik xilma – xil ularning ijtimoiy munosabatlari qanchalik boy bo'lsa, ijtimoiy ong ham shunchalik boy va murakkab bo'ladi.

Voqelikni aks ettirish darajasiga ko'ra ijtimoiy ong odatiy (kundalik) ong va nazariy ongga bo'linadi. Odatiy (kundalik) ong – hayotiy tajriba asosida vujudga kelgan oddiy xulosalar qarashlar majmuidan iborat bo'lib kishilarning kundalik hayotidagi voqealarni aks ettiradi va rivojlanadi. Uning sohiblari sub'ektlari alohida olingan shaxslarning hayotiy tajribasi,

qiziqishlari, qobiliyatlari, bilimlari hayotda egallagan mavqelari hech qachon bir xil bo'lmaydi. Odatiy kundalik ongda nazariy bilimlarga dalil va asos bo'lib xizmat qiladigan elementlar bo'ladi. Olimlar san'atkorlar, turli nazariyalar badiiy obrazlar yaratishda hayotiy va kundalik ongga asoslanadilar undan ma'naviy ozuqa oladilar. Odatiy ongda xalq donishmandligi, an'ana urf – odatlar kundalik turmush qoida va talablari tabiat haqidagi bilimlar, shuningdek turli uydirmalar noto'g'ri qarashlar ham o'z ifodasini topadi. Ko'p asrlik hayotiy tajribani ixcham shaklda o'zida mujassamlashtirgan xalq maqollari bunga misol bo'ladi.

Odatiy kundalik ong sof holda uchramaydi. Chunki inson farzandi bolalik davridayoq o'z atrofida gilar so'ngra kitoblar ta'lim tizimi yordamida inson zakovati erishgan ilmiy bilimlarni ham o'zlashtirishga kirishadi. Boshqacha aytganda sodir bo'layotgan voqealarga nafaqat o'z tajribasi balki ilmiy bilimlar nuqtai nazaridan ham baho bera boshlaydi. Nazariy ong ta'sirida bo'ladi. Nazariy ong deganda nazariyotchilar, olimlar tomonidan ishlab chiqqan nazariy qarashlar va ilmiy bilimlar tizimi tushuniladi. Odatiy ongdan farqli o'laroq nazariy ong o'zgaruvchan xarakterga ega. Bu o'zgaruvchanlik ilmiy bilimlarning shiddatli rivojlanishi, voqelik haqidagi bilimlarning doimiy chuqurlashib va kengayib borishi bilan belgilanadi.

Shuningdek, odatiy ongga voqealarning tashqi tomonini ifodalash xos bo'lsa, nazariy ong voqealarning mohiyatini rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ham u odatiy ongga faol ta'sir ko'rsatadi va kundalik tajriba asosida hosil qilingan bilimlarni saralashga yordam beradi.

Milliy g'oya ijtimoiy ongning tarkibiy qismi. Milliy g'oya va milliy mafkuraning nazariy-falsafiy asoslarini yaratish umum davlat siyosatiga aylangan bugungi kunda hozirgi zamon fani va falsafasining inson to'g'risidagi bilim va xulosalarini umumlashtirish, ayniqsa, muhimdir. Chunki milliy g'oya va milliy mafkura o'zining tub mohiyati bilan bevosita insonga, uning hayotiy maqsad, orzu umidlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgandir.

Jahon falsafiy tafakkuri inson mohiyatini bilishda katta yutuqlarga erishdi, turli falsafiy oqim va maktablar vujudga keldi. Biroq, afsuski, mamlakatimizda uzoq yillar davomida hukm surib kelgan biryoqlama

siyosiy mafkura va materialistik dunyoqarash inson mohiyatini biryoqlama talqin etdi, jahon falsafasi yutuqlarini buzib ko'rsatishga harakat qildi. Jahon falsafasining ilg'or yutuqlaridan xalqimizni bahramand etish, inson to'g'risidagi ilg'or g'oyalarni chuqur o'rganish hayotiy zaruriyatga aylandi. Chunonchi, mustaqillikka erishgan xalqimizning bugungi taraqqiyot yo'li va rivojlanish tamoyillari, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonining falsafiy, ma'naviy omillari, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari ta'sirida, aholining ongi va tafakkurida ro'y berayotgan o'zgarishlarni ham o'zida aks ettiradi.

Ijtimoiy psixologiya va mafkura. Ijtimoiy ongni kishilar hayotida tutgan o'rniga qarab ikki qismga ajratish mumkin: Ijtimoiy psixologiya (ruhiyat) va mafkura (ideologiya).

Ijtimoiy psixologiya kishilarning mehnat va kundalik turmush faoliyatida stixiyali ravishda vujudga keladi, uni sistemalashtirish va nazariy jihatdan asoslash qiyin. U quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: Kishilarning barqaror psixik holatlari (hissiy kechinmalari, emotsiya, kayfiyati, urf - odatlar); ruhiy hodisalar; odat, udum, ko'nikma; turli kechinmalar; ruhiy jarayonlar; taqlid qilish, ishontirish va shunga o'xshash xususiyatlar; sezgi, idrok, faxm, tasavvur, tafakkur, g'oya (siyosiy, huquqiy, diniy, axloqiy belgilar) kabilar.

Yuqorida qayd etilgan xususiyatlarning barchasi asta - sekin ishonch, e'tiqod, udum, ko'nikma, ijtimoiy pozitsiyani ifoda eta boshlaydi.

Ijtimoiy psixologiya sotsial muhit, kundalik turmush sharoitlari ta'siri ostida vujudga keladi va rivojlanadi. Uni subektiga ko'ra muayyan ijtimoiy guruh, elat, millat psixologiyasi kabi turlarga bo'lish mumkin.

Millatlarning etnosotsial birlik sifatida shakllanishida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ustuvor ahamiyatga ega. Tarixga nazar tashlar ekanmiz, ayrim hududda yashagan aholining doimiy aloqada bo'lishi, o'zaro ta'siri, munosabati natijasida tilda, madaniyatda umumiylikning shakllanishga ta'sir qilganligini ko'ramiz. Bunday sharoitda psixologiyada ham o'xshash tomonlar yuzaga kela borganligi tabiiy, albatta.

Alohida olingan bir millatga xos bo'lgan psixologik jihatlarni ushbu millat bosib o'tgan tarixiy yo'ldan, xalqaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlardan qidirish zarur. Ijtimoiy voqelikning o'zgarishi bilan

milliy psixologiyaga xos bo'lgan xususiyatlar ham o'zgarib boradi. Ammo bu o'zgarishlar nisbatan sekin kechganligi tufayli, u hamma vaqt ham tezda ko'zga tashlanavermaydi.

Milliy psixologiyaga xos jihatlarni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishda inobatga olish muhim ahamiyatga egadir. Bu amalga oshirilayotgan siyosatning xalq ko'nglidan chuqur joy olishini hamda ushbu o'zgarishlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ijtimoiy psixologiya - keng ommaviy ong bo'lib, u bevosita moddiy ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'ladi: odat, ko'nikma shakliga kiradi.

Ijtimoiy psixologiya ibtidoiy jamoa tuzumi davrida urug' va qabila a'zolari tomonidan guruh ongi sifatida stixiyali ravishda shakllangan. Bu ong shakli moddiy ne'matlar ishlab chiqarish uchun xizmat qilgan.

Shuningdek, ibtidoiy jamoalarning barcha sohalari odat, udum, sadoqat kabilar yordamida boshqarilgan va hayotning barcha tomonlariga keng yoyilgan.

Jamiyatning rivojlanishi bilan ijtimoiy guruhlar (sinflar, elat, oila) va boshqa ijtimoiy uyushmalar shakllandi. Natijada ularning o'ziga xos manfaatlari, psixologiyasi, ongi ham vujudga keldi.

Ijtimoiy psixologiyadan sinf, elat, xalq, millat, oila va boshqa ijtimoiy guruhlar psixologiyasi ajralib chiqdi. Ijtimoiy psixologiya nihoyatda murakkab va ziddiyatlidir.

Ijtimoiy psixologiyaning barqaror elementlari (hissiyot, xarakteri) ijtimoiy strukturani saqlash va uni mustahkamlashga yordam beradi. Ijtimoiy psixologiyaning dinamik elementlari (ommaviy psixik holat, norozilik, ko'nikmaslik, ruhiyatning o'zgarishi) jamiyatda tub o'zgarish qilishni talab etadi. Ijtimoiy psixologiya stixiyali ravishda xalq ichida shakllanadi, har bir ijtimoiy guruh o'ziga xos psixologiyaga ega bo'ladi.

Ijtimoiy mafkura (ideologiya) ijtimoiy psixologiyadan tubdan farq qiladi. Ijtimoiy psixologiya sotsial guruhlar hayotini muayyan his-tuyg'ular, kayfiyatlarda bevosita aks ettirsa, ijtimoiy ideologiya sotsial guruhlar ehtiyojlari, manfaatlarining ichki mohiyatini, sababini har xil g'oyalar, nazariyalar, ta'limotlar shaklida aks ettiradi. Shuning uchun ham u ijtimoiy hayotga aks ta'sir o'tkaza olish xususiyatiga ega bo'ladi. Ayni paytda, ideologiyaning g'oyalar tizimi sifatida chiqishida, uning o'zi uchun katta xavf ham yashiringanligini ta'kidlash zarur. U real voqelikdan, shu

jumladan, kishilar ruhiyatida sodir bo'layotgan jarayonlardan uzoqlashib hayotiyligini yo'qotgan. G'oyalar - dogmalar sistemasiga ham aylanib qolishi mumkin. Bunday hollarda mafkura taraqqiyot tormoziga aylanib, oxiroqibatda halokatga yuz tutadi.

G'oyalar o'z mohiyati bilan nazariy shaklda paydo bo'ladi. Ular jamiyat taraqqiyotini belgilaydi, rivojlanishga turtki beradi. Har bir nazariya va g'oya o'z vazifasini o'tab bo'lgandan so'ng ommaviy ongga aylanadi.

Mafkura ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lib ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarining tizimga solingan nazariy ko'rinishda aks ettiradigan va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash yoki o'zgartirishga xizmat qiladigan g'oyalar qarashlar majmuidan iboratdir. Mafkura mazmunini ijtimoiy rivojlanishning, muhim dolzarb va yechishni talab qiladigan ziddiyatlari tashkil etadi. Shunga muvofiq yuz berayotgan jarayonlar mazmuniga va ijtimoiy muammolarning yechish yo'llariga nisbatan alohida yondashuvni aks ettiruvchi ayrim nazariy mulohazar yuzaga keladi. Bu mafkuraning shakli hisoblanadi. Uning mazmuni esa muayyan ijtimoiy guruh, etnik guruh, sinf, hukmron elita yoki uning muxolifati va hokazolarning manfaatlarini ifoda etishda iborat. Mafkura shaklan ob'ektiv lekin mazmun jihatidan subektivdir. U nazariy jihatdan tizimga solingan ko'rinishda ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariga bo'lgan munosabatini aks ettiradi va ularning ijtimoiy siyosiy natijalarini nazariy jihatdan asoslash va oqlashga harakat qiladi. Professor A.Ochildiyev istiqlol mafkurasi va jamiyat mafkurasi kabilarni farqlaydi. Istiqlol mafkurasi millat, jamiyat, davlatni mustaqil taraqqiyot yo'liga boshlaydigan uni belgilab beradigan erkin va ozod rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan, g'oyalar qarashlar tizimidir. Ustoz fikricha, har qanday davlat o'z faoliyatida yagona etnosotsial birlik sifatida chiqadigan millat manfaatini himoya qilishga qaratilishi, uning jipsligi, taraqqiyotini ta'minlaydigan milliy mafkuraga tayanmog'i lozim.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ijtimoiy ong tushunchasining qanday zamonaviy talqinlari mavjud?
2. Yangi davr mutafakkirlari Dekart, Spinoza, Lokk va Yum ta'limotlarida ijtimoiy ong masalalari. Tahlil qilib bering.

3. Ijtimoiy ongning qanday shakllari mavjud? Ular o'rtasidagi farq va bog'liklar to'g'risida gapirib bering.
4. Huquqiy ong va uning jamiyatdagi o'rni nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Axloqiy va estetik ong to'g'risida gapirib bering.
6. Siyosiy ongning bugungi kundagi ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy ongning o'zgarish dinamikasini qanday izohlaysiz?

7-MAVZU. IJTIMOY BILISH

Reja:

1. Ijtimoiy bilishning mazmun-mohiyati.
2. Ijtimoiy bilishda kuzatishning o'rni.
3. Ijtimoiy bilishning nazariy metodlari: Tarixiy va mantiqiy metodlar. Modellashtirish.
4. Ijtimoiy bashorat. Ilmiy bashoratning mohiyati. Kelajak falsafiy muammo sifatida.

Tayanch tushunchalar: Ijtimoiy bilish, jamiyat, ijtimoiy borliq, ilmiy bilish, naturalizm, gumanitarizm, ijtimoiy haqiqat, nazariy bilish, empirik bilish, ijtimoiy eksperiment, faktga munosabat, tarixiy paralellar metodi, ijtimoiy bashorat, sayyoraviy ong.

Ijtimoiy bilishning mazmun-mohiyati. Ijtimoiy bilish bu jamiyat, ijtimoiy-madaniy, jarayonlar, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy tizimlar, xossalar va qonuniyatlar haqidagi tasavvurlar, g'oyalar va ta'limotlarni ishlab chiqarish jabhasi va majmuasidir. O'z navbatida ijtimoiy bilish kundalik hayot tajribasini odamlar ongida umumlashtirish, mafkuraviy tizimlarni yaratish, ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlar o'tkazish jarayonida shakllanadi.

Odatda ijtimoiy bilish tushunchasi ikki ma'noda qo'llaniladi. Birinchidan, jamiyat tomonidan bizni o'rab turgan olamni bilish, ikkinchidan, jamiyatni bilish degan ma'noni anglatadi. Biz ikkinchi ma'nodagi ijtimoiy-bilish haqida fikr yuritamiz.

Avvalo, e'tiborni ijtimoiy borliqni bilish bilan boshqa ob'ektlarni bilish o'rtasidagi muhim tafovutlarga qaratish maqsadga muvofiqdir.

- Ijtimoiy bilish ilmiy bilishning eng murakkab shakllaridan biri bo'lib ijtimoiy rivojlanishning eng yuqori shaklini eks ettiradi. Ijtimoiy hodisa va jarayonlarning asosiy mohiyati shundaki, noorganik va organik tabiatni tadqiq etish jarayonida ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qonunlari aniqlanadi.

- Ijtimoiy bilish jamiyat hayotining moddiy (iqtisodiy) tomoni bilan ideal va ma'naviy tomonlarini uzviy bog'liqlikda o'rganishni taqozo etadi. Bu munosabatlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tabiatdagi aloqalarga nisbatan murakkab, ko'p tarmoqli va ichki qarama-qarshiliklarga ega.

- Jamiyatni bilish ham ob'ektiv, ham sub'ektiv xarakterga ega, ya'ni kishilar o'z tarixini o'zlari yaratadilar va ularni o'rganadilar.

Ob'ekt va sub'ektning bunday o'xshashligidan kelib chiqib, ularni bir xilda baholab bo'lmaydi. Bir tomondan, bu ijtimoiy ahamiyatga egadir. Jamiyatda bo'lib turadigan voqealar uni o'rganayotgan sub'ektga taalluqli va taalluqli bo'lmaganligi bu jarayonlar mohiyatini chuqurroq va to'g'ri bilishga yordam beradi. Ikkinchi tomondan, sub'ektiv bilish jarayoni turlicha bo'ladi: ba'zan sub'ektning irodasi, qiziqishlari, maqsadlari ob'ektga nihoyatda qarama-qarshi bo'ladi. Natijada tarixiy jarayonlar va ularni bilishga sub'ektivizm elementlari namoyon bo'ladi. Shu o'rinda quyidagi mashhur hikmatni eslaylik: agar Pifagor teoremlari insonlarning juda muhim shaxsiy manfaatlariga zid bo'lganida, ular bu teoremlarni rad qilgan bo'lar edilar.

Ijtimoiy bilishdagi bir yoqlamaliklardan yana biri, tabiiyotshunoslikning bilish metodlarini jamiyatshunoslikda ham qo'llash mumkinligini rad etishdir. Albatta, konkret metodlar bir-biridan haqiqatan ham farq qiladi. Masalan, tarixiy tadqiqot metodi o'z ichiga: tarixiy faktlarni qayd qilish va lokalizatsiya qilish, shaxsning identifikatsiya qilish metodikasi singari komponentlarni oladi. Lekin konkret metodlarning o'ziga xosligini mutlaqlashtirish xato. Xususiy metodlarda bir-birini to'ldirish hollari uchraydi. Biologiya o'ziga xos metodlar bilan sotsiologiya, psixologiya metodlaridan, ijtimoiy antropologiya, biologiya metodlaridan foydalanadi, nihoyat hamma tabiiy va ijtimoiy fanlar qanday tadqiqot olib borishidan qat'i nazar, yagona falsafiy metodga tayanadi.

Ijtimoiy bilishning ob'ektivligi masalasida faylasuflar o'rtasida bahslar davom ettirmoqda. Ma'lumki, ijtimoiy bilishning shakllanishiga bilish sohibining ijtimoiy mavqei, uni ijtimoiy hodisalarga bo'lgan munosabati, mafkura ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat tabiat emas. Jamiyat odamlar faoliyatining jarayoni va natijasidir. Jamiyatdagi an'analar, mafkuralar, madaniy – ma'naviy omillar jamiyat haqidagi bilimlarimizga ta'sir ko'rsatib, muayyan xulosalar chiqarishni taqozo etadi.

Ijtimoiy bilish jamiyat, insonning jamiyatda tutgan o'rni haqidagi turli g'oyalar, tushunchalar, qarashlar majmuasini bildiradi. Bunday ijtimoiy bilish qadim zamonlardan beri mavjud. Shu ma'noda, ijtimoiy bilish turli falsafiy va diniy ta'limotlar tarkibida bo'lgan deyish ham mumkin. Masalan, "Veda", "Upanishada", «Avesto» kabi asarlarda ijtimoiy munosabatlar xususida qarashlar, ta'limotlar ifodalangan.

Ijtimoiy bilishning ob'ekti jamiyat, ijtimoiy munosabatlar tizimidir. O'z navbatida, uning bir tomoni tabiat bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun ham tabiat va jamiyat tutashgan chegarani o'rganadigan ijtimoiy bilish yo'nalishi ham mavjud bo'lib, u ijtimoiy ekologiya deb ataladi. Bu fan jamiyat va tabiat o'rtasidagi aloqadorlik va ta'sirni, mavjud ijtimoiy munosabatlarni tabiatga ko'rsatgan ta'sirini xarakteri va oqibatini tadqiq qiladi.

Jamiyatni, ijtimoiy reallikni anglashga qaratilgan ijtimoiy bilish turli darajalar, sohalar va maqomlarda mavjud bo'lishi mumkin. Nazariy daraja va salohiyatni ko'zda tutsak, ijtimoiy bilishning quyi darajasi va shakli ommaviy ongda o'rin olgan. Bu kishilarning jamiyat, davlat, ijtimoiy jarayonlar haqidagi bilimlaridir. Bunday bilimlarda tartiblashmagan, tahlildan o'tkazilmagan, stixiyali jihatlar ko'p bo'ladi.

Ijtimoiy – falsafiy bilishda jamiyatning mohiyati, taraqqiyot qonunlari olam, borliq, inson, hayot ma'nosi, qadriyatlar muammolari bilan bog'langan holda tavsiflanadi.

Ijtimoiy – gumanitar bilish. Bu yo'nalish inson va jamiyat o'rtasidagi aloqadorlik hamda munosabatlarni o'rganish doirasida shakllangan. Bunga ijtimoiy psixologiya, pedagogika, tilshunoslik kabilar kiradi. Shunday qilib, ijtimoiy bilish doimo yuksalayotgan, murakkablashayotgan fanlar differentsiatsiyasi va integratsiyasi

jarayonlaridan ta'sirlanayotgan jabha bo'lib, u tabiiyot, falsafa va insonshunoslik bilan uzviy aloqa bog'lagan holda rivojlanib bormoqda.

Ijtimoiy bilish hozirgi davr falsafasining ham muhim muammosi bo'lib hisoblanadi. Inson o'z ongi, tafakkuri bilan jamiyatni bila oladimi? Uning ijtimoiy bilimlari qay darajada haqiqat bo'la oladi? degan savollariga javob hozirgi davr falsafasida ijtimoiy bilishga doir ikki xil munosabatni keltirib chiqardi. Bu naturalizm va gumanitarizm falsafiy yo'nalishlarining shakllanishiga turtki bo'ldi.

Naturalizm - tabiiy bilimlarning ahamiyatini bo'rtirish asosida ijtimoiy bilimlarning keragi yo'qligini asoslaydi.

Gumanitarizm - ijtimoiy bilimlarni mutloqlashtirish g'oyasini ilgari suradi.

Naturalizm yo'nalishi tarafdorlari tabiiy va ijtimoiy bilish orasida hech qanday farq yo'q, deb hisoblaydilar. Polyak olimi Ye.Topolskiy tarixiy bilishni inkor qiladi. Uning fikricha, tarixni bilishga doir muammolar bir vaqtning o'zida bilishning boshqa shakllarida ham mavjud. Bundan tabiiy fanlar sohasidagi bilimlarga haqiqiy ilmiy bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqariladi. Garchi bu qarash hozirgi davr falsafasiga xos hisoblansada, aslida bunday qarashlarning ildizi

Yevropaga, XVII-XVIII asrlarga borib taqaladi. Ma'lumki, XVII-XVIII asrlarda tabiatshunoslik rivojlanish bosqichiga kirgan, mexanika eng rivojlangan fan edi. Mexanika qonunlarini jamiyatni tushunishga tatbiq etish mumkin, degan qarash yuzaga keldi.

Shunday nuqtai-nazar nemis olimi Genrix Rikkert (1863-1936 y.) qarashlariga xos. U fanlarni tarixiy fanlar va qonun yaratuvchi fanlarga bo'ladi va ularni o'zaro bir-birlarini inkor etuvchi sohalar, deb biladi. Uning fikricha, tabiiy ilmiy bilish umumiy qonuniyatlarni bilishga qaratilgandir; tarix bo'lsa, yagona, betakror hodisalarni o'rgatadi. Rikkert o'z qarashlarida tarixiy qonuniyatlarni inkor etadi.

Ikkinchi nuqtai-nazar – gumanitarizm. Mazkur nuqtai-nazar yangi tarix falsafasi namoyondalari nemis olimi Osvald Shpengler (1880 - 1936 y.), ingliz olimi Arnold Toynbi (1889-1975 y.) asarlarida aks etgan.

Ijtimoiy bilish ilmiy bilishning o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi. Ilmiy bilish olamni chuqur, atroflicha o'rganishni talab qiladi. Ilmiy bilish

natijalari ilmiy bilimlarda, fan mazmunida o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy bilish jamiyat, insonni chuqur o'rganishni talab qiladi.

Ijtimoiy bilish - jamiyatni, unda kechayotgan ijtimoiy hodisa, jarayonlarning mohiyatini, ularning kelib chiqishi, yashashi va rivojlanish qonuniyatlarini bilishdir. Ijtimoiy bilishdan ko'zda tutilgan maqsad jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot haqidagi ob'ektiv mazmunga ega bilimni - ijtimoiy haqiqatlarni hosil qilishdir.

Ijtimoiy haqiqat deganda ijtimoiy bilimlarning ijtimoiy borliqqa, jamiyatga mos kelishi (adekvatligi) nazarda tutiladi.

Ijtimoiy bilish o'zining bir qator jihatlari bilan tabiatni bilishdan farqlanadi.

Jamiyat - moddiy olamning eng murakkab ko'rinishi. Jamiyatni bilish deganda, unda kechgan va kechayotgan voqea-hodisalarni, ijtimoiy jarayonlarni anglash nazarda tutiladi.

Jamiyat uni tashkil etuvchi kishilar, turli ijtimoiy guruhlar, tarixiy-etnik birliklar faoliyatlarining barcha ko'rinishlarini hamda ularning mahsul-natijalarini o'z ichiga qamrab oladi. Jamiyat o'z-o'zidan shakllanuvchi, o'z-o'zidan rivojlanib boruvchi ijtimoiy tizim. Bu tizimning barcha xususiyatlari kishilar faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi. Demakki, jamiyatni bilish deganda avvalo kishilar faoliyatlarini va shu faoliyatning asosiy motivlari (kishilarning maqsad - manfaatlari)ni tahlil etish nazarda tutiladi. Kishilar faoliyatlari mohiyatini anglash jamiyat haqida chin bilimlar hosil qilish imkonini beradi.

Odamlar faoliyatlari jarayonida o'zaro bir-birlari bilan aloqa-munosabatga kirishadilar. Shu ma'noda jamiyat kishilararo ob'ektiv tarzda sodir bo'ladigan ijtimoiy aloqa va munosabatlarning mahsuli va ko'rinishidir. Bu aloqa va munosabatlar jamiyat hayotining barcha sohalarini, moddiy va ma'naviy hayotini qamrab oladi. Shunday ekan, jamiyatni bilish uchun undagi mavjud turli ijtimoiy aloqa va munosabatlarni o'rganish talab qilinadi.

Ijtimoiy bilish ijtimoiy ehtiyoj va manfaatlarni o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Ijtimoiy manfaatlarda esa tarixiy zaruriyat o'z ifodasini topadi. Tarixiy zaruriyatni anglash jamiyatdagi o'zgarishlarning mohiyatini anglash asosida yuzaga keladi.

Falsafiy tafakkur olamga, shu jumladan jamiyatga dialektik munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Jamiyat o'zida uzluksiz harakat, o'zgarish, taraqqiyot jarayonlarini kechiradigan ijtimoiy tizimdir. Bu uzluksiz qayta shakllanib, rivojlanib boradigan ijtimoiy bilimlarda o'z ifodasini topadi.

Ijtimoiy bilish o'zining mazmuni, qanday maqsadga yo'naltirilganligi, tarkibi, unda qo'llaniladigan o'ziga xos usul va vositalariga ko'ra bilimning boshqa ko'rinishlaridan farqlanadi.

Ijtimoiy bilimning mazmunida jamiyat hayoti to'laligicha, barcha aloqa va munosabatlari bilan birga yaxlitlik, bir butunlik sifatida aks etadi. Bu hol jamiyatni to'g'ri anglash, taraqqiyot tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi.

Ijtimoiy bilish jamiyat hayotni to'g'ri anglash va shu asosda ongli faoliyat ko'rsatish imkonini beradi. Jamiyatni bilish uni oqilona boshqarish va kelajak taraqqiyoti istiqbollari aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ijtimoiy bilish tarkibiga, ijtimoiy bilish sub'ekti, ob'ekti va ijtimoiy bilishning o'zi kiradi. Ijtimoiy bilish sub'ekti - inson (tadqiqotchi), ob'ekti - jamiyat hayoti.

Ijtimoiy bilish murakkab dialektik xarakterga ega jarayon bo'lib hisoblanadi. Umuman ilmiy bilish, shu jumladan ijtimoiy bilish uzviy ravishda, o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ikki darajada namoyon bo'ladi: ijtimoiy bilishning empirik darajasi va nazariy daraja.

Ijtimoiy bilishning bu ikki darajasi o'z mazmuniga ko'ra, ko'zda tutilgan maqsadi hamda bilimni hosil qilishda qo'llaniladigan usullarga ko'ra o'zaro birbiridan farq qiladi.

Empirik bilish metodlari: kuzatish, statistik usul (fakt), ijtimoiy eksperiment, hujjatlar, manbalar bilan ishlash.

Nazariy bilish metodlari: tarixiylik va mantiqiylik, modellashtirish, tarixiy analogiya, ijtimoiy bashorat.

Empirik bilish jarayonida o'rganilayotgan ijtimoiy ob'ekt haqida dastlabki bilimlar hosil bo'ladi. Bu bilimlarning qayta ishlanishi, maxsus metodlar qo'llanishi natijasida ijtimoiy ob'ekt haqida chin bilimlar hosil bo'ladi. Empirik bilishda dastlab qo'llaniladigan maxsus usul kuzatish, deb yuritiladi.

Ijtimoiy bilishda kuzatishning o‘rni. Kuzatish metodi eng qadimgi davrlardan boshlab qo‘llanilgan. Kuzatish metodidan foydalanishda uning o‘ziga xosligini hisobga olish muhimdir. Kuzatuv orqali muayyan ijtimoiy jarayonlar, kishilar, ijtimoiy guruhlarining hatti-harakatlari, faoliyati o‘rganiladi.

Kuzatuv har xil metodlarda olib borilishi mumkin. Bularga: a) muntazam kuzatuv, ma’lum bir vaqt mobaynida davomli kuzatuv; b) epizodlik kuzatuv; v) dala sharoitida kuzatuv, g) maxsus laboratoriya sharoitidagi kuzatuvlarni misol qilib olish mumkin.

Ijtimoiy falsafa kuzatishning o‘ziga xos tomonlaridan biri chetdan kuzatish usulidir. Bu usul tabiiy fanlarda ham qo‘llaniladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, jamiyatshunoslikda – jonli ob’ektlarni bilish, o‘rganish haqida so‘z boradi. Masalan, yulduzlarni kuzatishni olib qarasak, ular kuzatuvchilarning maqsadlariga erishmog‘i uchun xalal bermaydi, chunki yulduzlar asrlar mobaynida o‘zgarimas bo‘lib kelgan. Biroq jamiyatda bunday emas: u muttasal o‘zgarib turadi. Odatda, o‘rganilayotgan ob’ekt tadqiqotchiga qarshilik ko‘rsatadi, bu esa kuzatishning boshidanoq biror natija olishga halaqit beradi yoki kuzatishning o‘rtalariga kelganda tadqiqot buzilishi yoki kutilmaganligi tufayli olingan natijalarning tahlili o‘zgarib ketishi mumkin.

Shuning uchun ham sotsiologiyada, tarixda, ijtimoiy psixologiyada «birgalikda kuzatish» (ichki kuzatish) usulining afzalliklari alohida qayd etiladi. Aktiv va passiv kuzatish usullari mavjud. Birinchi usulda kuzatuvchi mehnat jamoasi diniy jamoaga, ishchilar brigadasiga va hokazolarga aslo sezdirilmagan holda qo‘shilib oladi. Bunday qo‘shilish yaxshi natijalar beradi, chunki o‘rganilayotgan ob’ekt o‘zini tadqiqotchidan olib qochmaydi, kuzatuvchiga qarshilik ko‘rsatmaydi. Passiv birgalikdagi kuzatishda sub’ekt va ob’ekt o‘rtasida bir-birini yaxshi tushunish talab etiladi. Buning uchun tadqiqotchi tomonidan hech qanday zarar yetmasligini tushuntirish talab etiladi.

Tadqiqotchi o‘zini qiziqtirayotgan ijtimoiy hayotning parametrlari va indikatorlarini o‘lchashga qurbi yetmaganligi uchun statistik malumotlarga murojaat qilishga majbur bo‘ladi. Bu tadqiqotchidan juda katta ehtiyotkorlikni talab etadi. Statistika to‘g‘risida shunday aforizm mavjud: «Yolg‘onning uch turi bor: oddiy yolg‘on, jirkanch yolg‘on va statistika».

Bu yerda gap statistika fani to'g'risida emas, balki ayrim mamlakatlar siyosiy doiralarning manfaatlari bilan bog'liq statistika to'g'risida aytilgan.

Kuzatuv metodidan to'g'ri foydalana bilish muhim ahamiyatga ega. Bunda kuzatuvning maqsadini aniq belgilash, ob'ektning holat, xususiyatlariga e'tibor berish; kuzatuv natijalarini qayd qilib borish; to'plangan natijalarni matematik statistika metodlari yordamida hisoblab chiqish talab etiladi. Ijtimoiy jarayonlarni kuzatish tabiiy jarayonlarni kuzatishdan jiddiy farqlanadi. Tabiiy jarayonlar kuzatilganda insonning ob'ektga ta'siri unda muayyan bir o'zgarishni hosil qilish shart emas. Tabiiy jarayonlar qanday bo'lsa, shundayligicha, yoki maxsus laboratoriya ishlari jarayonida o'rganilishi mumkin. Ijtimoiy jarayonlarni kuzatish deganda jamiyat a'zolari: alohida kishilar, ijtimoiy guruhlar faoliyati, hattiharakatlari, munosabatlarini o'rganish nazarda tutiladi. Bunda kuzatuvchi kuzatiladigan ob'ektga befarq bo'la olmaydi. Ishonarli natijani qo'lga kiritmoq uchun ko'proq ichda kuzatish usulidan foydalaniladi. Kuzatuvni o'rganilayotgan ob'ekt (inson, muayyan ijtimoiy gurux)ni shu jamoaga a'zo bo'lgan boshqa odamlarga qiyoslash orqali amalga oshirish mumkin bo'ladi. Kuzatish ijtimoiy ob'ektlarda xrono kartalar yuritish shaklida olib borilishi mumkin.

Sotsial eksperiment. Ijtimoiy bilish jarayonida haqiqat va uning mezonlarini aniqlashda ijtimoiy eksperiment ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy eksperiment - ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni o'rganish, uning rivojlanishini boshqaruvchi va boshqaruvchi omillar ta'sirida ijtimoiy ob'ekt o'zgarishini kuzatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy eksperiment quyidagilarni o'z ichiga oladi: mavjud munosabatlarga o'zgartirishlar kiritish; o'zgarishlarning shaxslar va ijtimoiy guruhlarining faoliyati va hatti-harakatlariga ta'sirini nazorat qilish; ushbu ta'sir natijalarini tahlil qilish va baholash.

Ijtimoiy eksperimentlar, shuningdek, atrofdagi jamiyatda (odatda, mafkuraviy yoki diniy asosda) qabul qilinganidan farq qiladigan prinsiplarga muvofiq hayot kechiradigan kollektivlarni (g'oyaviy jamoalarni) yaratishga urinishlarni ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy

eksperiment natijalari jamiyat amaliy faoliyatida qo'llashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ijtimoiy eksperimentning quyidagi xususiyatlari alohida qayd etiladi:

1. Ijtimoiy eksperiment o'zining aniq natijalariga ega. Fizika, ximiya, biologiya fanlaridagi eksperimentlar turli davrlarda turli mamlakatlarda takrorlanishi mumkin, chunki tabiatning rivojlanishi qonuniyatlari, ishlab chiqarish munosabatlari shakliga ham, tipiga ham, milliy va tarixiy o'ziga xoslikka ham bog'liq emas.

Ijtimoiy eksperimentlar iqtisodni qayta qurishga, milliy davlat tizimi, ta'lim va tarbiya tizimiga qaratilgan bo'lib, ular turli tarixiy davrlarda turlicha bo'lib qolmay, balki butunlay qarama-qarshi natijalarni berishi mumkin.

2. Ijtimoiy eksperiment ob'ekti barcha sotsiumlar ta'siridan va eksperimentdan tashqaridagi ob'ektlardan ozroq miqdorda himoyalanaadi. Bu yerda ishonchli himoyalovchi asboblari bo'lgan vakuum nasoslari, himoya ekranlarini qo'llash yaxshi natijalar bermasligi mumkin. Bular jismoniy eksperimentlarda qo'llaniladi. Bundan kelib chiqadiki, ijtimoiy eksperiment, fan tili bilan aytganda, sof sharoitsizlikka uchrashi shunday holatlarga bog'liqdir. Misol uchun Sh.Fure va uning tarafdorlari tomonidan olib borgan tadqiqotlarni ko'rsak, bu o'ziga xos ideal va garmonik jamiyatni barpo etish edi. R.Ouen tadqiqotidagi kooperativlar barpo etish, Angliya va Amerika kommunallarini tashkil etish va hokazo tadqiqot natijalari umuman o'ylab ko'rilmagan.

Ijtimoiy eksperimentda texnika xavfsizligini ta'minlashga juda -katta talablar qo'yiladi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy eksperimentlar va ilmiy eksperimentlar o'rtasidagi chegara kamaya boshladi, lekin u hali saqlanmoqda. Hozir gap har kuni har soatda odamlarga ta'sir qiladigan, ularning jismoniy va psixologik sog'liklariga ta'sir qiladigan eksperimentlar haqida ketmoqda. eksprement olib borilayotgan vaqtda oddiygina narsalarning ham to'g'ri tashkil qilinmasligi odamlarga yomon ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday eksperiment tashkilotchilarining faoliyatini oqlab bo'lmaydi.

Eksperiment boshlanmasdan oldin insonparvarlik g'oyasi uning dasturiga kiritilishi shart.

Ijtimoiy eksperiment loyihaviy bilimlar olish uchun o'tkaziladi. Bu eksperiment ikki vazifani o'z ichiga oladi: o'rganuvchi va amaliy. Aytaylik, akademik I.P.Pavlov va uning shogirdlari itlar va maymunlarda o'tkazgan tajribalarida oliy nerv faoliyatidagi fiziologik o'zgarishlarni bilish orqali ilmiy nazariyani yaratishgan edi. Shunga qaramay eksperimentlar amaliy maqsadda ham ishlatilishi mumkin edi.

Insonlar ustida tajriba o'tkazish qanchalik yaxshi istiqbolga ega bo'lishiga qaramay g'ayriinsoniydir. Ijtimoiy eksperimentning asosiy vazifasi bu jamoa faoliyatini jonlashtirishdir. U holda eksperimentning nazariy ahamiyati nimada?

Birinchi, ijtimoiy eksperiment katta nazariy dalilga ega bo'lishi kerak. Agar dalil bo'lmasa, ijtimoiy eksperiment ilmiy bo'lmaydi. Ikkinchi, uning natijalari, albatta boshqa fanlar va unga yaqin bo'lgan fanlar (meditsina va arxitektura) bilan hisobga olinishi kerak, lekin bunda nazariyani tasdiqlash, undan o'zib ketish eksperimentning maqsadiga aylanmaydi.

Faktga munosabat. Fanning empirik darajasining asosiy vazifasi faktlarni to'plashdir. Lotin tilida "factum" (facere fe'lidan - qilish) "bajarilgan", "mukammal" degan ma'noni anglatadi. Ish tartibi sifatida aytishimiz mumkinki, fakt allaqachon mavjud bo'lgan aniq faktning bir qismidir.

Fanda "fakt" atamasi ikki ma'noda ishlatiladi: birinchi, fakt ob'ektiv mavjud (yoki mavjud bo'lgan) hodisa sifatida; ikkinchi, faktni ma'lum bir konsepsiya doirasida tavsiflash. Ushbu noaniqlikni hisobga olgan holda, darhol berilgan ish ta'rifiga qo'shimcha kiritilishi mumkin.

O'z-o'zidan "noaniq" fakt (fakt - voqea), qoida tariqasida, o'tkinchi va tarixiy o'tmishga kirib boradi. Uning saqlanib qolishi va fan tarkibiga kiritilishi, faktlarni aniqlovchi jummalarda til yordamida sodir bo'ladi.

Faktni izlash, qayd qilish, baho berish, xulosa chiqarish g'oya, nazariy tasavvurlar, umumiy xulosalar asosida yo'naltirilgan bo'ladi. Demak, bilish fakti nazariy g'oya bilan sug'orilgan bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, faktni nafaqat faktning bir bo'laki sifatida, balki inson tomonidan o'rnatiladigan va hech bo'lmaganda umumiy ma'noda u tomonidan ma'lum bo'lgan qism sifatida ko'rib chiqish kerak.

Shunday qilib, faktning ilmiy fiksatsiyasi ob'ektiv va sub'ektiv qotishmalarni ochib beradi, bu bizning ba'zi faktlarni tavsiflovchi manbalarga bo'lgan munosabatimizni belgilashi kerak. Bir tomondan, ushbu tavsiflarda tadqiqotchining siyosiy, diniy, sinfiy qarashlari bilan bog'liq bo'lgan sub'ektivlik elementini hisobga olish kerak.

Ammo, boshqa tomondan, ushbu sub'ektiv reytdan tasvirlangan faktning ob'ektiv mazmunini yashirmasligi kerak, chunki aks holda biz beixtiyor tarixiy haqiqatni shunchaki inson xayoli yaratgan degan xulosaga kelamiz.

Olim R.Yu.Vippening fikricha "faktlar narsalarning o'zaro munosabatlarini emas, balki bizning aqliy tajribamizni aks ettiradi".

Aslida, faktlar ob'ektiv ravishda mavjud bo'lib, ular hech kimning iltimosiga binoan yo'q bo'lib ketmaydi. Va biz har qadamda "faktlar o'jar narsa" ekanligiga aminmiz. Bu aforizmni to'g'ri tushunishimiz kerak. Faktlar har doim mavjud. Umumiy holda o'rganilayotgan ob'ektda, biz tekshirilgan faktlarni chiqarib tashlasak, unda o'rganilishi mumkin bo'lgan masala faktlarga aylanadi.

Haqiqatga erishish uchun, ma'lum bir davrning mohiyatini tavsiflovchi barcha faktlar tizimi (agar tarixiy davr o'rganilayotgan bo'lsa), ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy tizim, ma'lum bir tarixiy shaxsning faoliyati va boshqalar tekshirilishi kerak. Shunday qilib, faktlarni tizimlashtirishning o'zi ilmiy nazariyani qurish yo'lidagi birinchi qadam bo'lib xizmat qiladi.

Tarixiy faktlarning o'ziga xos xususiyati ularning o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Fizik, kimyogar, biolog qiziqishi orqali faktlarni qayta – qayta o'rganishi, tajribada ko'rib chiqishi mumkin, biroq tarixchi bunday imkoniyatdan mahrum bo'ladi - u ko'p hollarda o'tmishni olingan manba ma'lumotlari natijasida qayta tahlil qilishga majbur (to'g'ridan-to'g'ri arxeologik qazishmalar yoki sotsiologik tadqiqotlar mualliflari tomonidan olib boriladigan ma'lumotlar).

Tarixiy ilm-fan uchun manbaga bo'lgan munosabat muammosi o'ta muhimdir. Shuning uchun, tarixiy ilm-fan haqiqiylikini aniqlashda, manbada tasvirlangan faktlarning ishonchliligini o'rnatish zarur.

Ijtimoiy fanlar bo'yicha tadqiqotlar o'ta muhim tarixiy faktning o'ziga xosligidan kelib chiqadi.

Agar tarixiy haqiqatda, aniq sana va uning paydo bo'lishi to'g'risida aniq faktlar kiritilmasa, unda tarixiy jarayon makon va vaqt koordinatalarining haqiqiylikidan mahrum bo'ladi, strukturaviy – genetik tarixiy xususiyatini yo'qotadi va tarixiy jarayonning murakkab holatini soddalashtiradi.

Demak, ijtimoiy bilishni salohiyati faktlarni haqiqiy ma'nosiga kirib borish, yakka va ayrim hodisani orqasidagi umumiylikni anglashi bilan belgilanadi. Inson faktlarni ma'lum tasavvur, g'oya yoki ta'limot nuqtai nazarda turib tafsilotini beradi. Shunday bo'lsada faktlar ijtimoiy bilish, umuman ilmiy bilishni fundamentini tashkil qiladi.

Faktlarni izohlash va tushuntirish jarayonida gipoteza yoki dastlabki g'oya tasdiqlanadi, nazariya tug'iladi. Boshqacha bo'lishi ham mumkin. Yangi faktlarni mavjud nazariya asosida tushuntirib berish imkoniyati bo'lmasligi mumkin. Bunda mavjud nazariya o'z o'rnini yangi nazariyaga bo'shatib beradi.

Ijtimoiy bilishning nazariy bilish metodlari: Tarixiy va mantiqiy metodlar. Modellashtirish. Nazariy bilishda ijtimoiy jarayonlarni chuqur o'rganish va unda maxsus metodlardan foydalana bilish talab etiladi. Nazariy bilish metodlariga tarixiylik va mantiqiylik, modellashtirish, tarixiy analogiya, ijtimoiy bashorat kabilar kiradi.

Tarixiylik va mantiqiylik metodi: biz o'rganilayotgan ob'ektni chuqur anglashimiz uchun uning kelib chiqishi, asosi nimalardan iborat ekanini aniqlaymiz. Tarixiylik ob'ektning real tarixini o'rganishni, unda mavjud bo'lgan hodisalarni aniqlashni talab etadi. Tarixiy dalillarni mantiqiy asoslar bilan berish ob'ektni to'g'ri anglash imkonini tug'diradi.

Modellashtirish usulida ijtimoiy jarayonlar mohiyatini anglash uchun ob'ekt asos bo'la olmagan sharoitda uning o'xshashini yaratish va shu asosda o'rganish nazarda tutiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy bilish jamiyat, undagi ijtimoiy jarayonlarni to'g'ri anglash va baholash, jamiyatni ilmiy asosda boshqarish imkoniyatlarini yaratadi, shuningdek jamiyat taraqqiyoti istiqbollari oldindan ko'ra bilish mumkinligini dalillaydi. Inson o'z kelajagini taxmin va gumonlarga asoslanib emas, balki fan amaliyotining chuqur ilmiy xulosalariga asoslanib bilib oladi. Bundan jamiyatni ilmiy bilish uniig kelajagini prognoz qilishga yordam beradi, degan xulosani chiqarish

mumkin. Inson va insoniyat bilimlari bugungi hayot notekisliklarini tushuntiribgina qolmay, kelajakni oldindan ko'ra bilishga imkon yaratadi.

Tarixiy paralellar metodi. Ijtimoiy fan uchun o'ziga xos narsa bu tarixiy paralellik usulidan foydalanishdir. Ma'lum darajada bu usul umumiy ilmiy analogiya uslubining modifikatsiyasi hisoblanadi, ammo modifikatsiya, biz ko'rib turganimizdek, juda muhimdir.

O'xshashlik asosida xulosa chiqarish - bu analogiya. Analogiya (yunoncha moslik, o'xshashlik) bevosita xulosa chiqarishning bir turidir. Analogiya xulosa chiqarishda bir juz'iy holatdan, boshqa juz'iy holatga qarab harakatlanadi. Analogiyada predmetlarning o'xshash xossalari asoslanib xulosa chiqariladi. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish ob'ektiv reallikning cheksiz ko'rinishlari, hamda unda mavjud bo'lgan turli sistemalarning xossalari, munosabatlari tarkibidagi o'xshashliklarga asoslanadi. Bilishda muhim va nomuhim xossalar o'xshashligi asosida analogiya bo'yicha xulosa chiqariladi. Analogiya vositasida bir predmetdan boshqa predmetga axborot o'tkaziladi.

Analogiya bo'yicha xulosa quyidagi shaklga ega:

A mavzusida a, b, c, d, e, f ... belgilari mavjud.

B mavzusida a, b, c, d, e ... belgilari mavjud.

Shuning uchun: B elementida, ehtimol, "e" belgisi mavjud.

Ushbu uslubning ijtimoiy fanlarda qo'llanilishining xususiyatlari qanday?

Birinchidan, o'rganilayotgan tabiat hodisalarining analogini jismoniy shaklda modellashtirish mumkin, ijtimoiy jarayonlar va hodisalarni o'rganishda esa, analog mavjud bo'lmasligi mumkin. Shu nuqtai nazardan, shunga o'xshash o'tgan voqealar haqidagi bilimlar ko'pincha o'rganilayotgan hodisaning analogidir. Ikkinchidan, tarixiy jarayonda voqea va hodisalar to'liq takrorlanmaydi. Tarix falsafasi bo'yicha ma'ruzalarida Hegel quyidagilarni ta'kidladi: "Hukmdorlarga, davlat arboblari va xalqlarga tarix tajribasidan saboq olish qat'iy tavsiya qilinadi. Ammo tajriba va tarix shuni o'rgatdiki, xalqlar va hukumatlar tarixdan o'rganish mumkin bo'lgan ta'limotga muvofiq harakat qilganlar. Har bir davr shunday individual holatki, bu davrda faqat shu holatning o'zidan kelib chiqadigan qarorlarni qabul qilish zarur va mumkin. Dunyo voqealarining shovqin-suronida umumiy tamoyil yoki shunga o'xshash

holatlarni eslash yordam bermaydi, chunki o'tmishni xira eslash hozirgi hayot va hayot erkinligi bilan taqqoslaganda hech qanday kuchga ega emas.

”Uchinchidan, tarixiy analoglar odatiyroq bo‘lib, ularning ehtimollik mohiyati ijtimoiy voqealar rivoji va natijalarida, sub’ektiv omil - odamlarning ongli faoliyatiga har doim ham yetarlicha hisobga olinmaydigan ulkan rolga ega bo‘lishi bilan kuchayadi.

Ushbu xususiyatlar tufayli ijtimoiy fandagi o‘xshashliklar tarixiy parallellik shaklini oladi. "Tarixiy parallelliklar" atamasining o‘zi ham to‘liq tasodif, ijtimoiy hodisalarni mutlaqo takrorlash g‘oyalariga qarshi chiqmoqda. Ammo turli xil tarixiy sharoitlarda sodir bo‘lgan voqealar mutlaqo boshqacha natijalarga olib keladi. Shuning uchun ham tarixiy parallellik usulidan foydalanish ijtimoiy hodisalarni tipifikatsiyalashning eng muhim tamoyillarini oldindan ishlab chiqishni nazarda tutadi. Falsafiy va tarixiy-uslubiy adabiyotimizdagi bu vazifa haligacha hal qilinmagan bo‘lsa-da, ularning ba’zilari allaqachon inkor etib bo‘lmaydigan tarzda aniqlangan.

Tarixiy parallellik usuli - bu avvalgi tarixiy tajribani bugungi kun bilan taqqoslashda umumlashtirishda qo‘llaniladigan usuldir. Bu bizga tarixning "vertikal o‘qlarini" tushunishda yordam beradi, ammo uning "gorizontal o‘qlari" ning keng tarqalgan tizimini to‘liq va har tomonlama bilish uchun bu yetarli emas, ya’ni bu tarixiy bosqich turli davlatlar va xalqlarning rivojlanishida keng tarqalgan.

Tarixiy o‘tmish va hozirgi zamonning ishonchli manzarasi bizning oldimizda faqat ijtimoiy bilish usullarining butun tizimidan bir vaqtda foydalanish bilan paydo bo‘ladi.

Ijtimoiy bashorat. Ilmiy bashoratning mohiyati. Bilish jarayonida ijtimoiy bashorat masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Bizga ma’lumki, inson o‘zining aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati orqali tarix zarvaraqlarini yaratadi. U har doim kelajakni bilishga intiladi. Uni mamalakatning taqdiri qiziqtirishi yoki qiziqtirmasligi mumkin. Biroq informatsion-kompyuter davriga kelib uning qanday bo‘lishi deyarli barchani qiziqtirmoqda. Shu bilan birga insoniyat xayotining xavf ostida qolganligi hech kimni o‘ylantirmaydi. Bunday qiziqish futurologik portlashga olib keladi. Faylasuflar, sotsiologlar, iqtisodchilar, tarixchilar,

kelajakni keng miqyosda o'rganishga harakat qilmoqdalar, ular 2000 yil muammolaridan tortib to keyingi million yil ichida insoniyatning hayot yoki hayot bo'lmasligi masalalarigacha o'rganmoqdalar.

Bashorat (prognoz) biron-bir hodisaning kelajakdagi holati haqidagi ilmiy tadqiqotlarga asoslangan ehtimoliy xarakterdagi mulohaza. Bashorat: a) tabiiyilmiy; b) ijtimoiy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy bashoratdan jamiyat xayotida keng foydalaniladi; ular yordamida fan va texnika taraqqiyoti prognozlari, iqtisodiy prognozlar, siyosiy prognozlar ilgari surilishi mumkin. Fan va amaliyot jamiyatni oldindan bilishning eng ishonchli qurolidir.

Bashoratning mohiyatini ko'proq XX asrning buyuk fiziologlaridan biri bo'lgan P.K.Anoxin ochgan. U bashoratni haqqoniyatning vaqtdan ilgari aks etishi sifatida ta'riflagan. Anoxinning nazariyasida «vaqtdan ilgari in'ikos etish» haqida gap boradi. Bu qo'zg'alish barcha biologik olamga, hayvonlargagina emas, balki o'simliklarga ham xosdir. Tirik organizm oldindan ko'ra bilish qobiliyatiga ega. Inson bashorat qilish jarayonida yo'q ob'ektga, kuzatish mumkin bo'lmagan ob'ektga, hattoki, hayoti davomida uchramagan ob'ektlarga duch keladi. Shunday qilib, ijtimoiy bashoratning mohiyatini tushuntirish ancha qiyindir.

Hozirgi paytda bashoratga ijtimoiy amaliyot mobaynida rivojlangan inson ongiga xos xususiyat sifatida qaralmoqda. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, oldindan ko'ra bilish individual bashoratda emperik malakaga asoslanganligiga qaramasdan inson faktologik ma'lumotlardan ozod bo'la olmaydi. Bu - jamiyatning inson ongiga ta'siridir.

Ijtimoiy bashoratning tabiati ilmiy bashoratning tuzilishida yaqqol ko'rinadi. Ilmiy bashorat hech qanday mistikaga asoslanmaydi. Bizni qiziqtirayotgan hodisa, jarayon va tendensiyalarning keyingi rivojlanishi hali o'rganilmagan, lekin aniq bilimlarga tayanadi. Shu o'rinda ilmiy bashoratning karomat qilishdan prinsipial farqlarini aytib o'tish joizdir. Oldindan aytib berish real borliqqa tayanadi.

Ilmiy bashorat kelajakni mutlaq va to'liq bilishga da'vo qilmaydi: Kelajakni aytib berish va utopiya (xom xayolliklar)ning xatoligini ilmiy dalillar va mulohazalar bilan isbotlab bo'lmaydi, chunki u bir-biriga bog'liqdir. Bashoratlarni esa ilmiy - nazariy mulohazalar yordamida tekshirib ko'rish mumkin. Bu esa ularning to'g'riligini isbotlashi yoki

isbotlamasligi mumkin. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ilmiy bashorat bilimlarining ehtimolligidir. Uning to'g'rilik darajasi kelajakni oldindan aytib berishning qandayligiga bog'liq, yaqin kelajakni oldindan aytib berish (bizdan 20 - 30 yil oldingi davr) obrazi (keyingi 100 yillikdan keyingi davrlar). Bu bilimlarning qaysi darajada yo'nalganligiga qarab ishonchli asos topish oson. Birinshi holatda ishonchli prognozlar bo'lishi mumkin.

Ikkinchi holatda bilimlar haqiqatdan ustun keladi. Ular bo'lmagan induksiyaga asoslangan. Uchinchisida biz juda katta farazlarga (gipotezalarga) duch kelamiz. Ikkinchidan, oldindan ko'ra bilish darajasi bilimlarga qay darajada tayanganligi bilan bog'liq. Uchinchidan, oldindan ko'ra bilish ishonchlilik darajasiga prognoz qilinayotgan jamiyat holatini va uning alohida komponentlari murakkabligini hisobga olish bilan bog'liq.

Demak, ijtimoiy bilish jamiyat, undagi ijtimoiy jarayonlarni to'g'ri anglash va baholash, jamiyatni ilmiy asosda boshqarish imkoniyatlarini yaratadi, shuningdek jamiyat taraqqiyoti istiqbollari oldindan ko'ra bilish mumkinligini dalillaydi. Inson o'z kelajagini taxmin va gumonlarga asoslanib emas, balki fan amaliyotining chuqur ilmiy xulosalariga asoslanib bilib oladi. Bundan jamiyatni ilmiy bilish uning kelajagini prognoz qilishga yordam beradi, degan xulosani chiqarish mumkin. Inson va insoniyat bilimlari bugungi hayot notekisliklarini tushuntiribgina qolmay, kelajakni oldindan ko'ra bilishga imkon yaratadi.

Sayyoraviy ongning zarurati. Kelajak falsafiy muammo sifatida. Ijtimoiy bilish jarayonida sayyoraviy ongning zarurligi ham ba'zi adabiyotlarda alohida qayd etilmoqda. Chunki, sayyoraviy ongning shakllanishi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Darhaqiqat, milliy muammolar milliy o'zlikni anglashda o'z aksini topganidek, XXI asrning global muammolar sistemasi umum sayyoraviy o'z-o'zini anglashda o'z ifodasini topadi.

Sayyoraviy ongning muhim sifatlari quyidagilardan iborat: Birinchidan, umuminsoniy qadriyatlar xususiy (regional, milliy, sinfiy) qadriyatlardan ustun bo'lib, sayyoraviy ongda dominantlik qiladi. Mana shu dominantlikka loqaydlik sayyoraviy ong ma'nosining yo'qolishiga olib

keladi. Sayyoraviy ong yaratilgan taqdirda ham dunyoviy hamkorlik turli-tumanligicha va qarama - qarshiligicha qolayveradi.

Rivojlangan davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy ziddiyatlar saqlanib qoladi: O'tkir va xavfli nizolar (konfliktlar) ni keltirib chiqaradi. Shimol va Janubning qarama-qarshiligi sinflar o'rtasidagi, etnik guruhlar o'rtasidagi tanglik ko'p mamlakat va mintaqalarda haligacha saqlanib qolmoqda.

Sayyoraviy ongning vazifasi yuqorida tilga olingan muammolarni keyingi planga surib, global muammolarni hal etishda barcha mamlakat va xalqlarning izchil hamkorligini ta'minlashdan iboratdir. «Butun dunyo halok bo'lsin, lekin haqiqat tantana qilsin» degan prinsip har qanday insonparvarlik mazmunidan maxrum edi, lekin bugun halokat yoqasida turgan dunyoda bu prinsipga amal qilish jinoyatga aylanmoqda. Dastlab dunyoni hozirgi kunda qanday bo'lsa shundayligicha saqlab qolish kerak. Xuddi mana shu buyuk vazifa sayyoraviy ongni yuzaga keltirdi. Sayyoraviy ong tushunchasini aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ko'pchilikka taalluqli ong ekanligi nazarda tutiladi, u faqatgina professional siyosatchilargagina taalluqli emas.

Ikkinchidan, sayyoraviy ong ayrim xalqlar va mamlakatlarning ijtimoiy ongini, shuningdek, individual ongini tuzatishga olib keladi. O'zini jahon fuqarosi sifatida his etish hozirgi paytda siyosiy madaniyatning uzviy elementiga aylandi. Bu holat individualizm va kollektivizm munosabatlarini ijtimoiy madaniyat qadriyatlarini sifatida rivojlanishiga turtki berdi. Asrlar mobaynida hukmron bo'lib kelgan mamlakatlar va xalqlarning individualizmi sayyoraviy kollektivizm tomon ko'proq siljimoqda. Dunyoni qutqarish uchun bundan boshqacha yo'lning bo'lishi ham mumkin emas. Sayyoraviy birdamlik ong faktidan umuminsoniy amaliyotga aylanishi kerak. Darvoqe, bu haqda butun jahon faylasuflarining XIX kongressida aytib o'tilgan edi. Bugungi kunda rivojlangan G'arb mamlakatlarida kollektivizm foydasiga sezilarli siljishlar kuzatilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday siljishlarning xalqaro va ichki variantlari bir yo'nalishga ega.

Uchinchidan, sayyoraviy ong tabiiy, texnikaviy, gumanitar, falsafiy fanlarning yangi yutuqlarini chetlab o'tish orqali global muammolarni «sog'lom fikrlash» yordamida hal qila olmaydi.

Sayyoraviy ong sinergetikaning muhim xulosalarini o‘z ichiga oladi. Ularning ayrimlariga to‘xtalamiz:

a) murakkab tuzilgan tizimda (xuddi shunday «jamiyat-tabiat» tizimi ularning rivojlanish yo‘llarini to‘sib qo‘masligi kerak, balki ularni tushunish, ularning o‘z yo‘llarini topish zarur);

b) Murakkab tizimlar uchun rivojlanishning bir necha muqobil yo‘llari mavjud, ularni o‘rgangan holda apokalistik variantlarni rad qilish kerak, ilmiytexnikaviy rivojlanish yutuqlaridan foydalangan holda keyingi rivojlanishning shunday variantini topish kerakki, u insonlarni qoniqtirish va tabiatning yemirilishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

v) murakkab tizimni va boshqaruvni ishonchli tekshirish uchun kuch muhim emas.

Xullas, birinchidan, ijtimoiy bilish jamiyatni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish, undagi voqea, jarayon va hodisalarni ilmiylik va mantiqiylik asosida o‘rganish, nazariy va amaliy tadqiqot o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta‘minlash, insonda bu murakkab tizim to‘g‘risida mustaqil bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish tuyg‘usini shakllantirishga yordam beradi. Ikkinchidan, ijtimoiy bilishga muqarrar ravishda siyosiy mafkura, qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy ideallar o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Shu boisdan ham ijtimoiy va tabiiy-ilmiy bilishni bir-biri bilan tenglashtirish yaramaydi. Uchinchidan, ijtimoiy bilish orqali inson doimo o‘zining tabiat dunyosiga, boshqa odamlar dunyosiga, o‘z tarixi va madaniyatiga munosabatini, o‘zining o‘ziga munosabatini bilishga intiladi, o‘z hayotining ideallari, qadriyatlari va normalarini aniqlab oladi. To‘rtinchidan, demokratik jamiyat qurish va barkamol avlodni tarbiyalashda ijtimoiy falsafaning o‘rni va ahamiyati, bu jarayonning samarasini oshirishga imkon beradigan usul va vositalar ham ijtimoiy bilishning holati, yutuqlari, istiqbollari bo‘yicha qo‘lga kiritilgan ilmiy yutuqlar bilan belgilanadi. Zero, ijtimoiy bilish va muloqotning ko‘plab sirlari inson faoliyatini ajralmas bo‘lagi hisoblanadi.

Ijtimoiy-tarixiy bilish ob‘ekti odamlar tomonidan nafaqat o‘rganiladi, balki yaratiladi ham, demak, ob‘ektga aylanishdan oldin u yaratilishi, shakllantirilishi lozim.

Shunday qilib, ijtimoiy bilishda inson o‘z faoliyatining mahsuli, amaliy faol jonzot bo‘lgan o‘zi bilan ham ish ko‘radi. Bilish sub‘ekti

bo'lgan inson shu tariqa uning ob'ektiga ham aylanadi. Shu ma'noda ijtimoiy bilish insonning ijtimoiy o'zlikni anglash jarayonidir. Bunda inson tarixiy rivojlanish jarayonida yaratiladigan o'zining ijtimoiy mohiyatini o'zi uchun kashf etadi va o'rganadi.

Shu sababli ijtimoiy bilishda sub'ekt va ob'ektning o'zaro aloqasi murakkablashadi, bu yerda ob'ekt bir vaqtning o'zida tarixiy ijod sub'ekti hamdir.

Ijtimoiy bilishda hamma narsa va hodisalar inson sohasida aylanadi: bilish ob'ekti – odamlarning o'zi va ular faoliyatining natijalari, bilish sub'ekti ham insondir. Bilish jarayoni shohidlarning guvohliklari, hujjatlar, so'rovlar, so'rovnomalarsiz, odamlar yaratgan mehnat qurollari va madaniy yodgorliklarisiz bo'lishi mumkin emas.

Bularning barchasi ijtimoiy bilishga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi va uning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi. Ayni shu sababli ijtimoiy bilishda olimning grajdanlik pozitsiyasi, uning ma'naviy qiyofasi, haqiqat ideallariga sodiqligi juda muhimdir.

Insoniyat kelajagi har doim muhim mafkuraviy va uslubiy muammo bo'lib kelgan va ijtimoiy prognoz har doim bo'lajak taraqqiyotning aqliy modeli, ya'ni kelajakni falsafiy anglash vazifasini bajargan. Ayni haqiqat, ijtimoiy o'zgarishlar mavjud ekan, bu ijtimoiy o'zgarishlarning o'zi mustahkam falsafiy asosga muhtoj.

A.Shopengauer o'z davrida ta'kidlaganidek, falsafa, o'z mohiyatida siyosiy qarorlar va texnologik retseptlarga aylanishga intilmaydigan falsafiy asosni aks ettiradi."

Falsafa zamonaviy ilmiy bilimlarning uslubiy va mafkuraviy sintezini amalga oshirishga va uni madaniyatga qo'shilishi uchun falsafiy asos berishga, yangi asrda fanni yangi kategorik apparat bilan ta'minlashga chaqiradi.

Jamoat amaliyoti ijtimoiy falsafadan ilmiy-texnik taraqqiyot va uning oqibatlarini har tomonlama o'rganishni, ilmiy-texnik va ijtimoiy taraqqiyot o'rtasidagi mavjud ziddiyatlarni chuqur anglashni, texnogen sivilizatsiya uchun an'anaviy va allaqachon eskirgan qadriyatlarni tanqidiy tahlil qilishni talab etadi.

Sayyoraviy ongining zarurligini ham, uning eng muhim xususiyatlarini, unga xos bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarni ham falsafiy

asoslash talab qilinadi. Ushbu "ijtimoiy buyurtma"ning bajarilishi, dunyoni saqlab qolish uchun mo'ljallangan, Sayyoraviy ongini shakllantirishda falsafaning mumkin va shu bilan birga g'ayritabiiy ishtiroki falsafaning o'zi va uning davolanish qobiliyatining asl ma'nosiga mos keladi.

Inson, eng xavfli global muammolar yechimini topishda falsafadan ma'naviy yordam kutmoqda. Axir, Inson o'zining barcha istaklari va umidlarini kelajak bilan bog'laydi, uning sub'ektiv intilishlari kelajakning haqiqiy istiqbollari qanchalik "to'g'ri kelishini" bilishni xoxlamaydi.

"Hayotga falsafiy nazar bilan qarang" - biz do'stlarimizga ular uchun qiyin paytlarda falsafaning o'ziga xos optimizm mohiyatini yodda tutib maslahat beramiz. "Donolikning o'ziga xos xususiyati, - ta'kidladi M.Montaigne, - bu hayotni doimo quvonchli idrok etish; u, oy ustidagi dunyodagi hamma narsalar singari, hech qachon yo'qolmaydigan ravshanlik bilan ajralib turadi. " Garchi zamonaviy, aniq dramatik vaziyat ushbu so'zlarda mavjud bo'lgan xushchaqchqlik va kategoriya uchun tegishli ma'lum bir asos yaratmasa-da, bu falsafani muvozanatli optimizm pozitsiyasida saqlashga imkon beradi. Insonga bunday optimizmni singdirish orqali falsafa o'zining eng muhim - insonparvarlik vazifasini sharaf bilan bajaradi.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ijtimoiy bilishning mazmun – mohiyati to'g'risida gapirib bering.
2. Ijtimoiy bilish hozirgi davr falsafasining ham muhim muammosi bo'lib hisoblanadi. Inson o'z ongi, tafakkuri bilan jamiyatni bila oladimi? Uning ijtimoiy bilimlari qay darajada haqiqat bo'la oladi?
3. Ijtimoiy bilish o'zining qaysi qator jihatlari bilan tabiatni bilishdan farqlanadi?
4. Empirik bilish metodlarini tahlil qilib bering.
5. Nazariy bilish metodlarini tahlil qilib bering.
6. Ijtimoiy bilishda kuzatishning o'rnini. Misollar yordamida tushuntirib bering.

8-MAVZU. INSON FALSAFASI

Reja:

1. Inson, uning mohiyati va mazmuni. Inson borlig'i.
2. Sharq ijtimoiy falsafasida inson muammosi.
3. G'arb falsafasi insonning mohiyati to'g'risida.
4. Antropologiya – inson to'g'risidagi fan.

Tayanch tushunchalar: inson tushunchasi, uning ta'rifi va tavsifi, insonning mohiyati, hayot mazmuni, inson borlig'i, ong, antropologiya, falsafiy antropologiya, individ, individualizm, shaxs, shaxsning sharqona modeli.

Inson, uning mohiyati va mazmuni. Inson borlig'i. Ijtimoiy falsafa insonga olam, borliqning tarkibiy qismi sifatida qaraydi va shu nuqtai nazardan «Insonning mohiyati nima?», «Inson olamda qanday o'rin egallaydi?», «Inson omili deganda nimalar nazarda tutiladi?» kabi savollarga javob beradi. Inson – borliqning oliy ko'rinishi. Uning kelib chiqishi, hayoti, taraqqiyoti moddiy olamga, jami borliqqa aloqador. Inson va jamiyat olam taraqqiyoti, tabiat tadrijiy rivojining mahsuli va ko'rinishidir.

Jahonda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga sinchkov nazar tashlasak, hamma mintaqalarda ham insonga birday e'tibor, uning haq-huquqlariga birday hurmat yo'qligini ko'ramiz. Ayrim davlatlar boshqa davlat odamlari ustiga olov-bombalar tashlamoqda. Eng badavlat mamlakatlar ochlikdan qirilib ketayotgan xalqlar taqdiriga beparvo qarab turibdi. Har qanday jamiyatning kelajagi oddiy bir insonga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, mehr-muruvvatga bog'liq ekanini hali hamma ham birdek tushunib yetmagan.

Shu ma'noda O'zbekistonda inson qadrini ulug'lash – davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangani, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023 yil – "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"¹ deb e'lon qilingani yurtimizda insonparvarlik eng oliy qadriyat darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi.

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022 yil 20 dekabr. // <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>

Insonning mohiyati haqidagi ta'riflar rang-barang. Suqrotning "O'zingni angla" degan fikri har bir davrda yangicha ma'no kasb etadi. Sharq falsafasi tarixida ham inson bosh mavzulardan biri bo'lib kelgan. Masalan, Forobiy falsafasida inson butun borliq taraqqiyotining mahsuli sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir insonning barcha olijanob fazilatlari ilm tufayli ekanligini, inson hayotining mazmuni – baxtli bo'lishga intilish, bunga esa faqat ilm va ma'rifat orqali erishish mumkinligini ko'rsatdi.

Beruniy va Ibn Sino insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi aql va tafakkuri tufayli ekanligini isbotlashga harakat qildilar. Bundan farqli o'laroq, Abu Homid G'azzoliy bu ustunlikni aqlda emas, balki inson qalbida ekanligini ko'rsatdi. Aql imkoniyatlari cheklanganligini isbotlashga harakat qilgan tasavvuf ta'limotida komil inson asosiy g'oyalardan biri edi. Bu komillik, asosan, ma'naviy barkamollik, ruhiy yuksalish, orzu-istaklarni idora qila bilishda namoyon bo'lishi uqtirilgan. Sharq falsafasida inson to'g'risidagi qarashlar sharqona tafakkur va turmush tarzi bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan.

G'arb mutafakkirlari ham insonni turlicha ta'riflaganlar. Bu ta'riflarni falsafa tarixida insonning mavjudligi yagona ishonchli dalil asosida aniqlangan davrda dunyoga kelgan ta'riflar bilan tenglashtirish mumkin. Masalan, Rene Dekartning «kogito ergo sum» - «fikrlayapman – demak, mavjudman» yoki Jorj Berklining «mavjud bo'lish - idrok etilish demak», Men de Biranning «volo erga sum» - «xohlayapman, demak, mavjudman», Alber Kamyuning «isyon qilyapman, demak, yashayapman» kabi fikrlari ham inson tabiati va mohiyatining yangi-yangi qirralarini namoyon etadi. Fridrix Nisshe «hokimiyatga intilish» - insonning bosh g'oyasi deb e'lon qilgan, Zigmund Freyd yashirin jinsiy mayl – libido inson borlig'ining asosini tashkil qiladi, degan. Iqtisodiy materializm moddiy omilning rolini mutlaqlashtirgan. Ko'rinib turibdiki, inson to'g'risidagi fan – falsafiy antropologiyaning muammolar doirasi nihoyatda keng ekan.

Hozirgi zamon falsafasining yirik vakillaridan biri Erix Fromm insonga bo'lgan sof va samimiy muhabbatni butun yer yuzi xalqlari o'rtasida tinchlik, totuvlik, hamkorlik munosabatlarini qaror toptirishning muhim omili deb hisoblagan; insonning eng muhim qobiliyati sifatida

sevish qobiliyati, san'atlar ichida eng muhimi – sevish san'ati ekanligini ko'rsatgan.

Bunday ta'riflar insonning umumiy obrazini yaratadi. Zero, inson barcha zamonlarda va xalqlarda dunyoning eng buyuk siri bo'lib qolayotir. Bu haqdagi turli-tuman fikr-mulohazalar va qarashlarni umumlashtirgan holda ushbu tushunchaga muayyan ta'rif berish mumkin. Inson o'zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassamlashtirgan, o'z hayoti va faoliyatini o'zi tashkil etish hamda boshqarish, tashqi olam va o'zga kishilar bilan muayyan munosabatlarga kirishish qobiliyatiga ega bo'lgan ongli mavjudotdir. U ana shu xususiyatlari orqali yaxlit bir tizimni tashkil etadi, ongli mavjudot sifatida o'z ehtiyojlarini qondiradi va insoniyat hayotining davomiyligi va vorisiyligini ta'minlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda insonning tabiiy-ijtimoiy borlig'i va ruhiy kechinmalar dunyosi mavjudligi tan olinadi. Bu borada biologizm, sotsiologizm va psixologizm kabi yondashuvlar mavjud.

Insonning biologik xususiyatlariga ovqatlanish, himoyalanih, zurriyot qoldirish, sharoitga moslashish kabilar xos. Ana shu xususiyatlarga tayanadigan biologizm ancha cheklangan, chunki u insoniy munosabatlar me'yorlarining evolyusion-biologik asoslariga ko'proq e'tibor qaratadi.

Inson boshqa mavjudotlardan ijtimoiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Chunonchi, til, muomala, ramziy belgilar, bilim, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, iste'mol qilish, boshqarish, o'z-o'zini idora etish, badiiy ijod, axloq, nutq, tafakkur, qadriyatlar shular jumlasidandir. Mazkur xususiyatlarni ustuvor biladigan sotsiologizm inson tabiatini ijtimoiy ahamiyatga molik sabablar bilan tushuntiradi va insonning ijtimoiy-madaniy obrazini yaratadi. Ushbu yondashuvga xos bo'lgan «Inson barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidir», degan xulosa aynan ijtimoiylik inson hayoti negizini tashkil etishini tushunish imkonini beradi.

Insonning psixik xususiyatlariga ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g'am, tashvish, qayg'u, iztirob chekish, zavqlanish, kayfiyat kabilar kiradi. Insonni tahlil qilishdagi psixologizm ana shunda namoyon bo'ladi. Ammo gohida bu sohada ham muayyan darajada ushbu jihatning ahamiyatini bo'rttirish holatlariga yo'l qo'yiladi.

Insonning kelib chiqishi haqidagi ta'limotlar. Insonga berilgan ta'riflar juda ko'p. Amerikalik olim B. Franklin insonni mehnat qurollarini yaratuvchi jonzot, deb ataydi. Oilaviy munosabatlar va axloqiy normalar insonni hayvondan farq qiluvchi eng muhim xususiyatlaridan biri ekani barchaga ma'lum. Bunday normalar insoniylikning eng oddiy ko'rinishlari paydo bo'layotganidan dalolat berardi. Ular asta-sekin rivojlanib, umuminsoniy qadriyatlarning vujudga kelishi uchun zamin yaratgan. Ko'rinib turibdiki, antroposotsiogenez (yunoncha antropo – inson, genezis – kelib chiqish) tufayli inson axloqiy mavjudot sifatida ham shakllandi, biologik mavjudotning ijtimoiy mavjudotga aylanishi jarayoni sodir bo'ldi. Oddiy axloqiy normalar yordamida ibtidoiy jamoa o'z a'zolarini barchaga maqbul bo'lgan tartib va intizomlarni bajarishga majbur qildi. Xuddi shu holat insonning hayvondan uzil-kesil ajralib chiqqanidan dalolat beradi. Odamning ongli ravishda mehnat qilishi, mehnat qurollari yasashi, axloqiy me'yorlarga rioya eta boshlashi ulkan inqilobiy burilish bo'lgan.

Bugungi kunda faylasuflar inson uch buyuk qudrat: tana, ruhiyat, ma'naviyatning yig'indisi ekanini uqtirmoqdalar. Insonning biologik holati deganda, uning tanasida sodir bo'ladigan morfologik va fiziologik, miyasida ro'y beradigan elektrik va ximik o'zgarishlar, uning yoshi, irqi va jinsini ifodalovchi alomatlar tushuniladi. Insonning ruhiy holati haqida fikr yuritganda uning his-tuyg'ulari, kayfiyati, kechinmalari, irodasi, temperamenti anglanadi. Insonning ma'naviyati jamiyatda mavjud bo'lgan ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omillar natijasida shakllangan fazilatlar, xislatlar, qobiliyatlar, malakalar yig'indisidir. Yuqoridagi fikr-mulohazalar insonning murakkab, bir butun, biosotsial jonzot ekanligidan dalolat beradi.

Sharq ijtimoiy falsafasida inson muammosi. Inson muammosi eng qadimiy muammo, desak mubolag'a bo'lmaydi. Qadimgi Hindistonda inson to'g'risidagi dastlabki falsafiy fikrlarning vujudga kelganligidan dalolat beradigan ishonchli manbalardan biri – eramizdan avvalgi XII-VII asrlarda shakllangan Vedalardir. Qadimgi Hind Vedalarida (to'rt asosiy muqaddas kitob: Rigveda, Atharvaveda, Samaveda va Yajurveda), ya'ni diniy bilimlar, gimnlar, qo'shiqlar, urf-odatlar to'plamlarida odamning insoniy xususiyatlari haqidagi dastlabki fikr-mulohazalarni uchratish

mumkin. Hind Vedalarida bayon qilingan inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar mifologik-diniy qarashlar bilan qo'shib-qorishib ketgan edi.¹

Vedalarning yakunlovchi qismi Upanishadlar bo'lib, bularda koinot bilan odam orasidagi o'zaro aloqadorlik haqida bir talay falsafiy fikr-mulohazalar bayon etilgan. Xususan, olamdagi barcha hodisalar, voqealar, shu jumladan inson xulq-atvori, hatti-harakati ham olam bilan bog'liq, doimo o'zgarib turadi, deb ta'kidlangan.

Koinotdagi, odamdagi o'zgarishlarning asosida shaxssiz vujud yotadi. Shaxssiz vujud esa dunyoviy jon bilan individual jonning birligidan iborat. Dunyoviy jon nafaqat olamning, balki odamning ham ruhiy asosini tashkil etadi. Shuningdek, upanishadlarda jonning aylanma harakati, uning o'lmasligi, abadiyligi haqidagi qarashlar ham bayon qilingan. Bunday qarashlarga muvofiq, odam hayoti go'yo bir zanjirki, u doimo o'zgarishda bo'ladi, ya'ni bir tug'ilish holatidan boshqa tug'ilish holatiga o'tib turadi. Qayta tug'ilish o'tgan zamondagi odam hayotining natijasi, yangi formadagi shaklidir, deb ta'kidlanadi. Qayta tug'ilish natijasida odam insonga ham, yoki biror hayvonga ham aylanib qolishi mumkin. Unda insoniy xislatlar, fazilatlar vujudga keladi. Qadimgi yodgorlikda ta'kidlanishicha, kim yaxshi xulq-atvor, hatti-harakat egasi bo'lsa, savob ishlar qilsa, keyingi safar tug'ilganida braxman, kshatriy yoki vaysha bo'lib tug'iladi.

Qadimgi hind Vedalarida inson tushunchasi "hammabop", barchaga xos "umumiylikni ifodalamasdan, balki o'zining kelib chiqishi va rivojlanish tarixiga ega bo'lgan ayrimlik, yakkalik ramzi sifatida ta'riflangan. Vedalarda ta'kidlanishicha, ayrim kishidagi hammaga xos, barchaga taalluqli fazilatlarining vujudga kelishiga sabab braxmanlardir. Braxmanlar tufayli odamda insoniy xislatlar, fazilatlar shakllangan. Chunki o'sha braxmanlar jamiki mavjudotning asosi, uning vujudga kelishi uchun dastlabki absolyut substansiya vazifasini bajarar ekan.

Xullas, qadimgi hind Vedalarida aytilishicha, olam bir butun, tirik mavjudotlarning hammasi o'sha butunning zarralaridir. Inson esa o'sha tirik zotlarning o'ziga xos shakli, ko'rinishidir. Hozirgi odamzot tanasining shakli jonning bir shaklli tanadan boshqa shaklli tanaga son-sanoqsiz marta ko'chib o'tishi natijasida sodir bo'lgan. Hind falsafasidagi ortodoksal

¹ Qarang: Choriyev A. Inson falsafasi - O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent, 2007

oqimning shakllanishiga: sankhya, vaysheshika, nyaya, yoga, mimansa diniy-falsafiy maktablarning ijodkorlari katta hissa qo'shishgan bo'lsa, noortodoksal oqim rivojida: jaynizm, buddizm, lokayata, chorvaka maktablari muxlislarining ulushi salmoqli bo'lgan.

Ortodoksal oqimning shakllanishiga beqiyos hissa qo'shgan sankhya maktabining asoschisi eramizdan avvalgi VII -asrlarda yashagan Kapila edi.¹ Ushbu maktab ijodkorlari Vedalarda bayon qilingan olam va odam borlig'i haqidagi fikrlarni yanada rivojlantirdilar. Ularning fikriga ko'ra, olam va odam borlig'i biri ikkinchisi bilan chambarchas bog'liq, yaxlit bir butun bo'lib, yagona qudrat tufayli vujudga kelgan. O'sha yagona qudrat Purushadir. Shuning uchun ham dastlabki odam bolasining yaratuvchisi, uni inson darajasiga ko'targan ham Purushadir. Purusha odamda sodir bo'lgan barcha o'zgarishlarga guvoh bo'lib, kosmos kabi abadiy, o'zgarmas, koinotdan tashqarida turuvchi, ya'ni sof transendental ongdir. Uni jismga ham, his - tuyg'uga ham, aqlga ham, intellektga ham tenglashtirib bo'lmas edi.

Noortodoksal oqimning shakllanishiga salmoqli hissa qo'shgan diniy-falsafiy maktablardan biri jaynizmdir.² Jaynizm maktabi ijodkorlari karma konsepsiyasini ishlab chiqdilar. Ushbu konsepsiyaga muvofiq, moddiylik bilan ma'naviylik orasidagi o'zaro aloqadorlikning sakkizta turi bo'ladi. O'sha sakkizta tur biri ikkinchisidan o'ziga xos xususiyatlari bilan tubdan farq qiladi. Lekin o'sha sakkiz xususiyat orasida muhim ikki fundamental xususiyat: yaxshilik va yomonlik inson amaliy faoliyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Xuddi o'sha yaxshilik va yomonlikka bo'lgan munosabat insonning olamdagi hodisa va voqealarga bo'lgan munosabatini belgilaydi, kishining ruhiy-ma'naviy olamini boshqaradi.

Jaynizm ta'limotining axloqiy qoidalari negizida uchta asosiy tamoyil yotadi. Chunonchi: 1) to'g'ri e'tiqodga ega bo'lish; 2) to'g'ri e'tiqodga ega bo'lish uchun to'g'ri bilimga asoslanish; 3) to'g'ri hayotiy mo'ljalga ega bo'lish. Ushbu prinsiplarga rioya qilgan insonning ruhiy-ma'naviy qiyofasi har qanday axloqiy zaifliklardan, ayniqsa xudbinlik, ichiqoraliklardan ozod bo'ladi, degan fikr mulohazalarni bayon qiladilar.

¹ Qarang: История философии. - Москва, 1999, 28-бет.

² Qarang: Чаттверджи С. и Датта Д. Введение в индийскую философию. - Москва, 1995, 73-105-бетлар.

Insonning boshqa tirik mavjudotlardan farq qiluvchi eng muhim xususiyati erkinlikka intilishdir. Hind faylasuflari inson tabiatida uchraydigan ijtimoiy illatlarni bartaraf etish, o'z navbatida, kishilarning erkinlikka erishish yo'llarini qidirdilar.

Inson to'g'risidagi dastlabki fikr-mulohazalarni qadimgi Xitoy manbalarida ham yaqqol ko'rish mumkin. Bunga qadimgi Xitoy madaniy merosining toji hisoblangan uch asosiy kitob: "Ashulalar kitobi" ("Shi szin"), "O'zgarish kitobi" ("I szin"), "Tarix kitobi" guvohlik beradi.

"O'zgarish kitobi" da bayon qilinishicha, odam olam bilan bevosita bog'liq. Olamni olam qilib ushlab turgan o'nta asosiy ustun bor. Bular: yan, in, osmon, yer, inson, olov, suv, metall, yog'och, urug'. O'sha ustunlarning mustahkamligi inson va uning amaliy faoliyati bilan bog'liq. Inson faoliyati esa, dunyoqarash bilan aloqador. Osmon, yer va inson dunyoqarashning asosiy elementlari sanaladi.

Ko'rinib turibdiki, qadimgi Xitoy manbalarida inson, osmon, yer orasida o'zaro aloqadorlik mavjudligi e'tirof etiladi. Ularda ta'kidlanishicha, odamzot hayotida kosmos bilan oqilona munosabatda bo'lish hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'sha uyg'unlashuv (garmoniya) insonning xulq-atvorida, hatti-harakatida, rasm-rusumlari, urf-odatlarida, taomlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Inson hatti-harakatida yaxshilik va yomonlikning vujudga kelishi uchun turtki beradi. Yomonlik kosmos bilan inson orasidagi nooqilona munosabatlarning natijasi sanaladi.

Odamdagi insoniylik, eng avvalo, insonparvarlikda o'z ifodasini topadi. Insonparvarlik deganda axloqiy normalar, udumlar, etiketlarga amal qilish, xususan to'g'riso'zli, oqko'ngil, mard bo'lish tushuniladi. Shuningdek, odamdagi insonparvarlik, xayrixohlik har bir kishi o'ziga topshirilgan vazifani aniq bajarishi bilan amalga oshirilmog'i, chunonchi, davlat boshlig'i – davlat ishlarini, ota – otalik, o'g'il – o'g'illik vazifasini bajarishi zarur.

Inson to'g'risidagi mifologik-diniy qarashlar o'rni asta-sekin falsafiy qarashlar egallay boshladi. Bunday qarashlarni qadimgi Xitoy falsafa maktablaridan Yan in szi (eramizdan avvalgi VIII-VI asrlar) da ko'rish mumkin. Ushbu maktab muxlislarining fikriga ko'ra, Koinotda tartibsiz uchib yurgan o'n ming narsalar zamirida ikki ilohiy qudrat: Yan va In vujudga keldi. Yan (erkak xohish-irodasining asosi) butun osmonni

boshqargan bo'lsa, In (ayollikning asosi) yerni boshqaradi. O'sha ikki qudrat orasidagi o'zaro aloqadorlik butun olam binosining asosini barpo etadi. Erkaklik va ayollik, shuningdek "besh stixiya": suv, olov, metall, yog'och, urug' orasidagi o'zaro aloqadorlik inson ruhiy-ma'naviy qiyofasining asosini tashkil etadi.

Qadimgi Xitoyda inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar doirasi uzluksiz kengaya boshladi. Chunonchi, qadimgi daosizm ta'limotida odamning inson darajasiga ko'tarilish jarayoni, insonning insoniyligini ifodalovchi prinsiplar, ularning farovon turmushi, baxt-saodati haqida bir qator yangi fikr-mulohazalar bayon etilgan. Daosizm ta'limotiga eramizdan avvalgi VI-V asrlarda yashagan Lao-szi asos solgan. Bu ta'limotga muvofiq, insonning insoniyligi ishonch, umid prinsipiga rioya qilishiga qarab belgilanadi. Umidga esa istakni, orzuni cheklash vositasi yordamida erishiladi. Istak, orzuni cheklay olmaslik insonda xudbinlik, ichiqoralik kabi illatlarning paydo bo'lishiga turtki beradi. Kishilarning xudbinligi nafaqat odamni, hatto olamni ham deformatsiyaga giriftor qiladi. Bunday holat olamning asosi bo'lgan daoning garmonik tabiatiga, ya'ni "Har bir kishi hamma narsa uchun" qoidasiga mos tushmaydi.

Daosizm ta'limotiga ko'ra, insonning baxt-iqboli, farovon turmushi hukmdor (imperator) faoliyati bilan bog'liq. Hukmdor fuqarolarning orzu-istaklarini ezgulik tomon boshqarishi lozim. Shuning uchun ham hukmdor faoliyatining asosida xalq daosi bilan osmon daosining aralashuvi yotmog'i darkor. Osmon daosi tabiat qo'ynida yashovchi oddiy odamlarning ideal jamiyatini bunyod etishga harakat qiladi. Donishmand imperator osmon daosi muddaosini, ya'ni ideal jamiyat qurish istagini turli amaldorlar yordamida bajaradi. O'sha amaldorlar ideal jamiyat qurish jarayonida vujudga kelgan turli nifoqlarni oqilona bartaraf etmoqlari lozim. Shunday qilib, daosizm ta'limotida ijtimoiy ideal, har tomonlama rivojlangan inson osmon daosi siyomosida namoyon bo'ladi.¹

Qadimgi Xitoy falsafasida inson to'g'risidagi fikr-mulohazalar Konfutsiy ta'limotida yanada yangi bosqichga ko'tarildi.² Konfutsiy

¹ Qarang: Степанянс М.Т. Восточная философия. М., 1997.

² Konfutsiy eramizdan avvalgi 551-479 yillarda yashagan. Konfutsiy nomi "Kun" va "Futsizm" so'zlari asosida vujudga kelgan. Hozirgi zamon qoidalariga asosan tahlil qilsak, "Kon" familiyasini bildirsa, "fu" so'zi faylasuf, "szi" o'qituvchi, ustoz, muallim ma'nosini anglatadi. Xitoyliklar uni "Kunsizm", ya'ni "Faylasuf ustoz Kun" deb atashgan.

o‘zidan meros qilib hech qanday asar qoldirgani yo‘q. U o‘zining falsafiy qarashlarini og‘zaki bayon qilgan. Konfutsiy vafotidan so‘ng uning shogirdlari ustoz suhbatlarini to‘plab, “Lunyun” nomi bilan alohida risola etib rasmiylashtirganlar.

Konfutsiy ham o‘z o‘tmishdoshlarining olam va odam to‘g‘risidagi fikr mulohazalarini davom ettirib, osmon – bu tabiat, xudo va insondir, deb tushuntirdi. Osmon ularga kuch va aql ato etgan. Shuning uchun ham inson o‘z ixtiyori bilan harakat qilolmaydi, o‘zini-o‘zi yarata olmaydi. Chinakam inson o‘z faoliyatining osmon bilan bog‘liqligi uchun o‘z taqdiridan hamisha minnatdor bo‘lmog‘i kerak.

Konfutsiyning fikriga ko‘ra, osmon va yerda tug‘ilganlar ichida eng qudratlisi insondir. Inson o‘z mohiyatiga ko‘ra yaxlit, bir butundir. Shuning uchun ham odamlar o‘z tabiatiga ko‘ra bir-birlariga yaqindirlar. Lekin o‘zlarining xulq-atvorlari, urf-odatlariga ko‘ra bir-birlaridan yiroqdirlar. Inson o‘zining ichki mohiyatiga ko‘ra boshqalarga yaxshilik qilishga, ezgulikka moyilligi bor. Xususan, boshqalarga xayrixohlik (jen), adolatparvarlik (i), samimiyat (sin), urug‘-aymoq, qavm-qarindoshlarga hurmat (syao), hukmdorga sadoqat (chjun) shular jumlasidandir.

Lekin bunday olijanobliklar insonning amaliy faoliyatida birdan namoyon bo‘ladi, deyish noto‘g‘ri. Hamma ham bunday oliyanobliklardan huzur-halovat oladi, deb ham bo‘lmaydi. Yaxshi odam o‘zining oliyanob ishlarida yuksak axloqiy prinsiplarga asoslanadi. O‘sha axloqiy prinsiplar asta-sekin insonning tashqi qiyofasida, amaliy faoliyatida namoyon bo‘la boshlaydi. Turli urf-odatlar, rasm-rusumlar va udumlar axloqiy prinsiplarning ro‘yobga chiqishi uchun ichki impuls beradi. Kim o‘zining qalbi va aqli imkoniyatlaridan to‘la foydalansa, o‘zligini namoyon qiladi. O‘zligini namoyon qila turib, butun borlig‘ini namoyon qiladi. Shunday qilib, mashhur xitoylik mutafakkir insonparvarlik bilan yaxshilik orasida uyg‘unlik – ko‘prik o‘rnatadi. Bunday uyg‘unlik qadimgi zamon Xitoy falsafasida yaratilgan axloqiylikning “oltin qoidasi” edi. Xuddi shu qoida asta-sekin “so‘z bilan ish” orasidagi mutanosiblikning vujudga kelishi uchun zamin yaratdi.

Konfutsiy falsafasidagi insonparvarlik bilan yaxshilik orasidagi uyg‘unlik insonning insoniyligini ifodalovchi oliyanoblik ko‘rinishlarini yagona bir butunga birlashtiradi va qudratli ijtimoiy tartib-intizom

tizimining vujudga kelishi uchun asos yaratdi. O‘z navbatida, bunday tartib-intizom insonning ezgulikka qaratilgan xayrli ishlarida namoyon bo‘ladi. Agar o‘sha xayrli ishlar davlat tomonidan boshqarilsa – kishilar tarbiyasida tub burilish sodir bo‘ladi. Konfutsiy Xitoy falsafasi tarixida birinchilardan bo‘lib, odamning inson darajasiga ko‘tarilishida jamiyat, davlat, ijtimoiy muhitning ta’siri bo‘ladi, degan g‘oyani ilgari suradi. O‘zi faoliyat ko‘rsatayotgan jamiyatda, fuqarolarning to‘q-farovon yashashlari uchun zarur bo‘lgan siyosiy, ma’naviy-axloqiy prinsiplarni ishlab chiqishga harakat qiladi.

Barcha tartib-intizomlar, axloqiy qoidalar, Konfutsiy qarashlarida – “Li” degan tushunchada o‘z ifodasini topgan. Jamiyatda “Li” bo‘lmasa tartib-intizom ham bo‘lmaydi, tartib-intizom yo‘q joyda esa, rivojlanish ham bo‘lmaydi, degan fikr-mulohazalar Konfutsiy ta’limotida markaziy o‘rinni egallaydi.

Xullas, qadimgi Hind faylasuflari – inson ikki yirik qudrat: tana bilan jonning uyushmasidan iboratligi, jon tanani tark etib ruhga aylanib turishi, ruh esa o‘lmasligi, u ma’lum vaqt o‘tgach yana boshqa tanaga qaytib kirishi mumkinligini, tana bilan jon biri ikkinchisi bilan bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisiga hamisha ta’sir o‘tkazib borishi, odamzot tanasining shakli (jismi) uzoq davom etgan evolyusion o‘zgarishlarning natijasi ekanligini isbotlashga uringan bo‘lsa, qadimgi Xitoy faylasuflari inson kundalik amaliy faoliyatini axloqiy normalar yordamida boshqarish mumkinligi, ayniqsa, kishidagi insoniy fazilatlarning shakllantirishda tarbiya, tartib-intizom muhim ahamiyatga ega ekanligi, inson kamolotida tabiiy-ijtimoiy muhit hal qiluvchi omilligini tushuntirib berishga harakat qildilar. Shuningdek, inson axloqining ijtimoiy maqomini (statusini) yaratishga asos soldilar.

Qadimgi Hind va Xitoy faylasuflari, inson hayotining ma’no va mazmunini boyitish uchun fuqarolar tashvishlarini kamaytirish yo‘llarini izladilar. Eng muhimi, farovon turmush qurishni orzu qildilar. Ana shunday hayotni barpo etishda, asosan, insonning o‘zi mutasaddi ekanligini isbotlashga urindilar. Shuning uchun ham insonni buyuk qadriyat, deb e’lon qildilar.

Inson to‘g‘risidagi qarashlarni eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlari, xususan Eron va Turonda keng

tarqalgan mifologik, diniy, diniy-falsafiy ta'limotlarda yaqqol ko'rish mumkin. Ana shunday ta'limotlardan biri Zardushtiylik bo'lib, uning asosiy qoidalari muqaddas kitob "Avesto" da bayon etilgan. "Avesto" bir kunda yoki bir yilda vujudga kelgan emas, balki asrlar davomida to'ldirib, boyitib borilgan.

Zardushtiylik ta'limotining markaziy muammosi olam bilan odam o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik jarayoni, odamning inson darajasiga ko'tarilganligini ifodalovchi ko'rsatgichlar tahliliga qaratilganligi edi. Bu ta'limotga ko'ra, odam borlig'i olam borlig'i bilan bevosita aloqador. Ushbu ta'limotga muvofiq, butun olam borlig'i to'rt unsurdan (chor unsur): tuproq, suv, havo, olovdan iborat. Olam borlig'ining eng murakkab shakllaridan biri bo'lgan odamning tabiati ham, shubhasiz, o'sha to'rt unsur bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham, ushbu to'rt unsur hamisha muqaddas hisoblangan. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra inson bilan tabiat orasidagi o'zaro aloqadorlikka putur yetkazmaslik darkor. Yer, suv, havoni ifloslantirish gunohi a'zim hisoblangan. Hatto, suvga tupurgan kishiga o'lim jazosi tayinlangan. Zardushtiylik ta'limotida bayon qilinishicha, hatto insonning mijozi ham olam borlig'i tarkibidagi chor unsur bilan bevosita bog'liq. Vazmin, bosiq odamlarni "hoksor" deb atash, g'ayratli, harakatchan kishilarni "jo'shqin", "toshqin", "qaynoq qon" deb baholash yoki beburd, yengiltak kishilarni "havoyi", "bodiy" deb atash ham o'sha zamonlardan qolgan udumlardir.

"Avesto" kitoblaridan biri - "Yasht"da ta'kidlanishicha, inson o'lgandan so'ng, uning butun umri davomida qilgan ishlariga adolatli baho berilmog'i darkor. O'limdan so'ng marhum bilan vidolashilayotgan eng so'nggi kezlarda uning bosib o'tgan hayot yo'li adolat tarozisiga qo'yiladi. Adolat tarozisining bir pallasida marhum qilgan jamiki yaxshi ishlari, boshqa bir pallasiga yovuzlik, jaholat bilan bog'liq nojo'ya hatti-harakatlari qo'yiladi. Yaxshilik, ezgulikka qaratilgan ishlari og'irlik qilsa, marhum ruhi jannatga, yovuzlik va jaholatga qaratilgan ishlari ustunlik qilsa do'zaxga jo'natiladi.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, olam biri-ikkinchisiga qarama-qarshi kuchlar, xususan, yaxshilik bilan yomonlik, haqiqat bilan yolg'on, yorug'lik bilan zulmat orasidagi kurashga asoslangan. Bu kurashda hech qachon murosa bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu kurash butun koinotni

qamrab oladi. Yaxshilik, yorug‘lik, rostgo‘ylik Ahura Mazda, yomonlik, zulmat esa Ahura Manu (Ahriman) Xudolari timsolida namoyon bo‘ladi.

Zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra, inson faoliyatini boshqarib turgan eng muhim qudrat - axloq-odob normalaridir. Shuning uchun Zardusht oliy ibtido – Ahura Mazdadan insonning kundalik amaliy faoliyatini axloqiy kamolot tomon boshqaruvchi qonun-qoidalarni aniqlab berishni so‘raydi. Ana shunda Ahura Mazda butun olam borlig‘i ikki yirik boshlang‘ich asos – ezgulik va yovuzlik atrofida mujassam ekanligini xabar qiladi. Biri ikkinchisiga zid bo‘lgan ushbu asoslar doimo o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi. Bunday holat hayot va o‘lim, osmon va jahannam orasidagi kurashda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Zardushtiylik ta’limotida “hayotning eng yomon onlari”, ya’ni yomonlik jahannamga, yaxshilik, ezgulik esa musaffo, beg‘ubor osmonga qiyos qilinadi. Yaxshilik va yomonlik olamda mavjud bo‘lgan hodisalar, voqealar mohiyatidan kelib chiqadi. Iymonli, e’tiqodli kishilar yaxshilik bilan yomonlik orasidagi uzoq vaqtdan buyon davom etib kelayotgan dushmanlikni ustakorlik bilan bartaraf etishlari darkor.

Zardushtiylik ta’limotda yaxshilik, ezgulikning barcha qirralarini o‘zida mujassamlashtirgan, adolatli barkamol insonni shakllantirish g‘oyasi markaziy o‘rinni egallaydi. Zardushtiylikning yaxshilik Xudosi Ahura Mazda odamlarni insof, diyonatga undaydi, bir-birlari bilan murosa qilib yashashni odat qilishlari, g‘arazgo‘ylik, hasadgo‘ylik, kalondimog‘lik, shuhratparastlik kabi g‘ayriinsoniy qiliqlardan o‘zini tiyib yurishga chorlaydi. “Avesto” (“Yasht”) sahifalarida insonparvarlik, vatanparvarlik, odamlarga yaxshilikni ravo ko‘rish har tomonlama ulug‘lanadi. G‘aflat va loqaydlik esa qoralanadi. Birovlarga jabr-zulm o‘tkazgan kimsalardan uzoq yurishga, behuda qirg‘inbarot urushlardan zarar ko‘rgan jabrdiydalarga yordam qo‘lini cho‘zishga chaqiriladi.

Shunday qilib, Turonda qadimgi zamonda keng tarqalgan zardushtiylik ta’limotida inson kamoloti, ayniqsa uning ma’naviy-axloqiy pokligi, iymon-e’tiqodi bilan amaliy faoliyatining mushtarakligiga e’tiborni qaratganligidan dalolat beradi. Ushbu ta’limotda ona-Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik, ayniqsa yoshlar tarbiyasida kattalarning shaxsiy o‘rnak ko‘rsatishi kabi insonparvarlik

g'oyalari olg'a suriladi. Odamlarni ezgulikka, yaxshilikka undaydi, tinchlik, osoyishtalik, halol mehnat har tomonlama ulug'landi.

Islom ta'limotiga ko'ra, Alloh Odam suratini (Odam Atoni) loydan yasagan, keyin unga jon ato etgan, so'ngra Momo Havo yaratgan. Barcha odamlar Odam Ato va Momo Havodan tarqalgan, degan g'oya ilgari surilgan. Qur'oni Karimning al-Isro surasida: «Biz odam bolalarini aziz - mukarram qildik ... va ularni o'zimiz yaratgan juda ko'p jonzotlardan afzal, ustun qilib qo'ydik», deyilgan.

Inson muammosi O'rta asrlar Markaziy Osiyo faylasuflari qarashlarida muhim o'rin tutadi. Abu Nasr Forobiy fikriga ko'ra, odamning tanasi paydo bo'lishi bilan, unda «oziqlantiruvchi quvvat» vujudga keladi. O'sha quvvat yordamida inson tanasi oziqlanib turadi va shu jarayonda sezgi organlari paydo bo'ladi. Sezgi a'zolari tufayli insonda his, tasavvur, xotira birlashib, xayol hosil bo'ladi. Xayol quvvati yordamida inson bilim, hunar egallaydi, faoliyat ko'rsatadi, foyda, zararining farqiga boradi. Inson o'zining aql-zakovati bilan olamdagi boshqa tirik mavjudotlardan farqlanadi. Uning aql-zakovati borliq turli-tuman ko'rinishlarining in'ikosidir. O'rta asr sharoitida odamning insoniy fazilatlari, xislatlarini aniqlashda Forobiy o'z zamondoshlaridan ancha ilgari ketadi. Forobiy «Baxt-saodatga erishuv haqida» nomli risolasida insonning xislatlari, fazilatlari haqida fikr yuritadi.

Abu Ali ibn Sino inson tana va jondan tashkil topgan, u boshqa tirik mavjudotlardan o'zining fikr yuritish qobiliyati bilan tubdan farq qiladi, deb hisoblaydi. Abu Rayhon Beruniyning fikricha, inson olamdagi barcha mavjudotlardan o'zining yaratuvchanligi bilan tubdan farq qiladi; yaxshilik, rostguylilik, oliyjanoblik, mehr-shafqat, muhabbat kabi fazilatlar insonni ulug'laydi; yolg'onchilik, yomonlik, ichiqoralik, qo'pollik, o'g'rilik, tuhmatchilik kabi illatlar insonni tubanlashtiradi. Beruniy inson o'z mehnati bilan ulug'dir, mehnat yordamida inson o'z badanini turli illatlardan, xususan, dangasalik, yalqovlik, ishyoqmaslikdan qutqaradi, degan fikrni ilgari suradi.

Yusuf Xos Xojib kishilarni axloqiy barkamolligi yoki axloqsizligiga qarab yaxshi va yomon odamlarga bo'ladi. U kamtar, oddiy, halol, haqgo'y kishilar – jamiyatning bebaho boyligi; munofiq, yolg'onchi kishilar yurt uchun zararli illat ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi.

G‘azzoliyning ta’lim berishicha, aql inson vujudini to‘la boshqarishga o‘zidir, u xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Dil esa yanglishmaydi, u vujudni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal etish, mushkul muammolarni yechish vaqtidagina aql maslahatlariga murojat qilishi mumkin.

G‘azzoliydan farqli ravishda uning buyuk zamondoshi Umar Hayyom inson va olamning yaratilishi, inson qismati to‘g‘risidagi diniy qarashlarni aql tarozisidan o‘tkazishga, inson mohiyati, uning yorug‘ dunyoga kelib-ketish sabablarini bilishga harakat qildi. U falsafiy mushohadalarga boy ruboiylarida taqdiri azal, oxirat to‘g‘risidagi diniy qarashlarning aql va mantiq nuqtai nazaridan puch narsa ekanligini, inson olamning gultoji, taraqqiyot mahsuli, aziz va tabarruk mavjudot ekanligini ko‘rsatdi.

Tasavvuf taraqqiyotida vujudga kelgan turli tariqatlar o‘zgargan davr talabiga mos ravishda barkamol inson shaxsini kamol toptirish yo‘lidagi izlanishlar edi. Markaziy Osiyo va butun Yaqin Sharqda keng yoyilgan va ta’sirchan kuchga ega bo‘lgan naqshbandiya tariqati insonning ma’naviy ehtiyojlari uning moddiy ehtiyojlaridan ustuvor ekanligiga asoslangan va bu muhim g‘oya «Dil ba yoru, dast ba kor» shiorida o‘z ifodasini topgan edi.

Tasavvuf falsafasining komil inson to‘g‘risidagi ilg‘or g‘oyalari Alisher Navoiy, Abdulqodir Bedil, Boborahim Mashrab, Xo‘janazar Huvaydo singari mutafakkirlar ijodida yangi bosqichga ko‘tarildi. Navoiy aql va tafakkurni inson borlig‘ining eng muhim asosi sifatida ta’rifladi, insonni eng tabarruk mavjudot sifatida ulug‘ladi. U odamlar haqida qayg‘urish va insonparvarlikni yuksak fazilat deb bildi. U insonga ozor berishni Ka’bani vayron qilish bilan teng deb, bir g‘arib ko‘nglini shod etishni Ka’bani obod qilish bilan barobar, deb hisoblardi.

Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan ulug‘ mutafakkirlarning inson to‘g‘risidagi qarashlari islom dini g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq ravishda vujudga kelgan va sharqona hayot, tafakkur va turmush tarzi bilan bog‘liq ravishda rivojlangan edi.

G‘arb ijtimoiy falsafasi insonning mohiyati to‘g‘risida. Qadimgi Yevropa sivilizatsiyasi beshigi hisoblangan Gresiyada deyarli barcha faylasuflar inson to‘g‘risida o‘z qarashlarini bayon etganlar. Efeslik

faylasuf Geraklit (er.av. 544-483) fikricha, inson faoliyati donishmandlik degan ilohiy qudrat tomonidan kechayu-kunduz uzluksiz kuzatib turiladi. U, yaxshilik, haqqoniylik, diyonat kabi fazilatlar inson o'lgandan so'ng ham osmonda mangu yashayveradi, oliyjanob, botir odamlarning ruhi osmonu-falakning eng baland cho'qqisiga ko'tariladi, deb uqtirgan edi. Geraklit zardushtiylik ta'limoti ta'sirida insonning vafotidan keyingi taqdiri haqidagi nazariyani ishlab chiqdi. Bunday nazariyaning yaratilishi qadimgi yunon falsafasi uchun mutlaqo yangi kashfiyot edi.¹

Demokritning (er.av. 460-370) fikriga muvofiq, jon inson tanasini harakatga keltiruvchi manba bo'lib, u atomlardan tashkil topgan. Tana o'lishi bilan jon ham o'ladi. Chunki olamda tanadan tashqarida yashaydigan jon yo'q. O'lim esa atomlarning o'zaro to'qnashuvlari oqibatida sodir bo'lgan parchalanishning oqibatidir. Uning tushuntirishicha, odam deb ataluvchi jonli mavjudot hamisha tabiatga taqlid qilib yashaydi. Tabiatdagi go'zallik ta'sirida rassomlik vujudga kelgan. Inson o'rgimchak to'qigan to'rdan – to'qimachilikni, asalaridan – imorat qurishni, bulbuldan – musiqani o'rgangan. Inson moddiy olamni o'zining sezgilari yordamida his qiladi. U olamdagi turli hodisalarni, voqealarni bilishda hissiyot bilan tafakkur, aql-farosatning o'zaro aloqadorlikda faoliyat ko'rsatishi lozimligini dalillashga urindi.

Demokritning fikriga asosan, odamning boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladigan eng muhim xususiyati – nutqidir. Nutq tirik mavjudotlarning olam bilan bo'lgan o'zaro aloqalari, amaliy faoliyatlari tufayli vujudga kelgan. Odamlar o'zlarining yashash sharoitini o'zgartirib turishlari, ularning sovuqdan saqlanish, oziq-ovqat qidirib topishning yangi uslublarini izlab topishga majbur qildi. Ana shunday munosabatlar doirasida odam asta-sekin inson sifatida shakllanib bordi.

Inson to'g'risidagi dastlabki fikrlar taraqqiyotiga eramizdan avvalgi VI – V asrlarda “Buyuk Yunoniston”ning g'arbiy hududida joylashgan, Janubiy Italiyaning Eley shahri nomi bilan ataluvchi “Eley falsafa maktabi” namoyondalari – Ksenofon, Parmenid, Zenon ham munosib hissa qo'shdilar.

Eley falsafa maktabining asoschilaridan biri, shoir Ksenofon Kolofoniy (taxminan eramizdan avvalgi 565-470 y.) olam va odamning

¹ Sulaymonova F. Sharq va G'arb - Toshkent, 1997, 32-34 betlar.

paydo bo'lishi, rivojlanishi to'g'risidagi Gomer va Gesiodning mifologik, diniy qarashlarini tanqid qilib, odamlar xudolarni o'zlariga o'xshatib yaratdilar, degan fikrni bayon qilgan bo'lsa, Parmenid (taxminan eramizdan avvalgi 540-470 y.) inson olamni bilishga qodir ekanligi haqida to'xtalib, insonning his-tuyg'ulari olam to'g'risida aniq ma'lumot bera olmaydi, degan g'oyani olg'a suradi. U his-tuyg'ular orqali olingan bilimlarga ishonmaydi va aqlning roliga katta e'tibor qaratadi. Parmenidning shogirdlaridan biri Eleylik Zenon ham (taxminan eramizdan avvalgi 460 yilda tug'ilgan) bilishda aqlning roliga asosiy e'tiborni qaratadi. Shunday qilib, Eley falsafa maktabining namoyondalari olamni bilishda hissiylik va aqliylik orasidagi o'zaro aloqadorlikni tan olmadilar.

Eley falsafa maktabi ta'sirida shakllangan sofistlarning ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri Protagor (eramizdan avvalgi 481-411y.) falsafiy tafakkur tarixida birinchilardan bo'lib, inson olamdagi jamiki mavjudotlarning asosiy mezonidir, degan fikrni bayon qildi. Uning e'tirof etishicha, "inson hamma narsalarning o'lchovidir: mavjud bo'lib turganlar uchun – mavjuddir, mavjud emaslar uchun – mavjud emasdir". Inson uchun yoqimli bo'lgan narsalarning hammasi – yaxshi, nimaki unga azob-uqubat olib kelsa – yomondir.

Yaxshilik va yomonlikni baholovchi mezon – alohida olingan individdir. Xuddi shuning uchun ham sofistlar bilish to'g'risidagi fikr-mulohazalarining asosiga yakka kishini (individni) qo'yishdi. Yakka kishining (individning) o'ziga xos fazilatlari, xislatlarini o'rganishni – bilishning sub'ekti, deb e'lon qilishdi.

Qadimgi yunon falsafasida inson borlig'i haqidagi fikr-mulohazalar ummonida Suqrotning (er.av. 469-399 y.) ulushi beqiyosdir. Suqrot inson muammosini o'rganish falsafaning asosiy masalasi ekanligini e'tirof etishi bilan o'z zamondoshlarining falsafiy qarashlaridan ancha ilgarilab ketdi. Uning falsafiy fikr-mulohazalari markazida inson va uning ongini o'rganish turar edi. U "O'zligingni bil" degan hikmatni tez-tez takrorlagan. Suqrotning tushuntirishicha, insonning ongi turli holatlarda, darajalarda sodir bo'lib, bir necha qatlamlardan iborat bo'ladi. O'sha murakkab ongning sohibi – individdir. Individning ongi esa ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Ongning mazmunini oliy instansiya belgilab beradi, oliy

instansiya esa, Suqrotning tushuntirishicha, aqlidir. Aql turli bilimlarni vujudga keltiruvchi manbadir.

Suqrotning fikriga muvofiq, aql hamma narsaga doimo tanqidiy qaramog‘i darkor. Aqlning tanqidiy ishi tufayli chinakam adolatga erishish, yaxshilikni tushunish mumkin. Jamiyatda mavjud bo‘lgan yaxshilik va yomonlik haqida fikr yuritgan mutafakkir, odamlarning bir-biriga bo‘lgan xayri-xohligini har tomonlama ulug‘laydi, kishilar orasidagi turli munosabatlarning asosida adolat yotishi zarur ekanligini qayta-qayta takrorlaydi, “adolat” va “yaxshilik” tushunchalarining mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Faylasufning tushuntirishicha, “yaxshilik” va “yomonlik” ning mohiyatini tushunmasdan turib, inson haqida, u yashayotgan jamiyat haqida aniq, to‘la ma’lumot olish qiyin. Suqrot fikriga ko‘ra, axloqsizlik – haqiqatni bilmaslikdir. Agar inson nima yaxshi, nima yomonligini bilsa, yomonlikka qo‘l urmaydi. Insondagi yomonliklar – bilimsizlik natijasidir. Hech kim o‘z ixtiyori bilan hech qachon xatoga yo‘l qo‘ymaydi. Axloqiy nopokliklarning ildizi bilimsizlikka borib taqalar ekan, demak bilim – axloqiy kamolotning negizidir. Shuning uchun mustahkam bilimga ega bo‘lish, Suqrotning tushuntirishicha, yaxshilik tomon borish, insonni, albatta, baxtga olib boradi.

Shunday qilib, Suqrot falsafasining markazida inson hayoti, uning jamiyatdagi o‘rni, odamlar farovonligini ta’minlovchi adolatli tuzumni barpo etish muammolari turardi. U odamlarni ma’rifatli qilish orqali chinakam axloqiy kamolotga erishish mumkin, deb hisoblardi. Afsuski, butun umrini bilim, ziyo orqali odamlarni ezgulikka, halollik va insofga chorlagan mashhur Yunon faylasufi Suqrotning o‘zi qadimgi zamonda yaxshilik bilan baxt orasida uyg‘unlashuv yo‘q ekanligiga guvoh bo‘ldi.

Platon (Aflotun, er.av. 427-347 y.) tomonidan inson masalasi yanada rivojlantirildi. Uning qarashlariga ko‘ra, odam deb ataluvchi mavjudot universal “dunyoviy ruh” bilan ham bevosita aloqadordir. Individual inson joni o‘sha “dunyoviy ruh” ning sadosi, soyasidir. Xudolar esa, jon ato etilgan, tiriltirilgan g‘oyalardan boshqa narsa emas. Shunga ko‘ra, odam degan mavjudot ham o‘sha ilohiy g‘oyalarning moddiylashuvidan iboratdir. Har bir kishining joni, Platon tomonidan inson bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik kontekstida tahlil qilinadi. Uning tushuntirishicha, inson degan mavjudot hech qachon o‘z ehtiyojini yakka

o‘zi qondira olmaydi. Shuning uchun odamlar hamkorlikda va jamoa bo‘lib faoliyat ko‘rsatishga hamisha zaruriyat sezadilar. Platon o‘zining “Davlat” nomli asarida yozganidek, “Har bir kishi o‘z ehtiyojini o‘zi qondira olmaydi, chunki u ko‘p narsaga ehtiyoj sezadi”. Shuning uchun insonga davlat va ijtimoiy aloqadorlikning qandaydir bir shakli zarurdir.

Ijtimoiy turmush har bir kishiga bajarishi zarur konkret talablar qo‘ydi. Bunday talablarni bajarish uchun insonga ma‘lum ijtimoiy fazilatlar, xislatlar lozim bo‘ladi. Platonning ta‘kidlashicha, insonga kerak bo‘ladigan o‘sha fazilatlar, xislatlar tug‘ma bo‘lmaydi, balki ular o‘qitish, tarbiya qilish yordamida hosil qilinadi. Insonning ijtimoiy fazilatlari va xislatlari, uning jamiyatdagi o‘rni haqida fikr yuritgan mutafakkir, mehnat taqsimoti, odamlarning mehnatga ishtiroki haqida ham bir qator fikr-mulohazalarni o‘rtaga tashlaydi. U jamiyat a‘zolarini mehnatdagi ishtirokiga qarab, bir necha toifalarga bo‘ldi. Uning tushuntirishicha, har bir toifaning jamiyatda bajarishi lozim bo‘lgan o‘ziga xos vazifasi mavjud bo‘lmog‘i darkor. Xuddi shuning uchun ham, tengsizlik har qanday davlat tuzumining asosiy tamoyili bo‘lishi lozim ekanligini e‘lon qiladi.

Platon odamlarni uchta katta toifaga bo‘lgan. Birinchi toifadagi kishilar – aqlli kishilar, ikkinchi toifa – his-hayajonga beriluvchilar, uchinchi toifaga mansub odamlar esa – dohiylarga, yo‘lboshchilarga sajda qiluvchilar deb atagan. Odamlarning jonida ana shu uch toifaning qaysi xislatlari ko‘p bo‘lsa, o‘shanga qarab shu uch toifaning biriga mansub bo‘ladi, deb tushuntirgan. Birinchi toifaga mansub kishilar faoliyatida hamisha aql-zakovat ustunlik qiladi. Ular doimo go‘zallik, ezgulik tomon intilishadi. Bunday kishilar faoliyatida tartib-intizom kuchli bo‘lib, ular hamisha farovonlikka intiladilar. To‘g‘rilik, adolat, insofga doim moyil bo‘ladilar. Bundaylarni Platon donishmandlar, deb hisoblaydi. O‘zi barpo etmoqchi bo‘lgan davlatdan, ular uchun rahbarlik lavozimlaridan o‘rin ajratadi. Mashhur faylasufning fikriga ko‘ra, ikkinchi toifaga mansub kishilarda xayrli his-tuyg‘ular, ayniqsa, mardlik, jasorat, boshliqlarga bo‘ysunish kabi xislatlar serob bo‘ladi. Ana shunday fazilatlar harbiylar, davlat xavfsizligini ta‘minlovchi posbonlar uchun, ayniqsa, juda zarur, deydi Platon. Uchinchi toifaga mansub kishilarda jismoniy ishga moyillik ko‘p bo‘ladi. Bunday odamlar toifasiga dehqonlar, hunarmandlar kiradi.

Shu toifaga mansub kishilar davlatning moddiy asoslarini yaratishlari lozimligini alohida ta'kidlaydi.

Platon inson his-hayajonlari, tuyg'ularining yirik bilimdoni edi. Inson ehtirolari mohiyatini o'ta sinchkovlik bilan anglab olar edi. Insondagi individual qobiliyat va real imkoniyatlarni mohirlik bilan fahmlar va uni yuksak qadrlar, o'sha qobiliyatlarni yuzaga chiqarish yo'llarini izlardi. Eng muhimi, inson kelajagi haqida juda ko'p o'ylar edi.

Aristotel (e.a. 384-322) inson jismi va ijtimoiy qiyofasi orasidagi aloqadorlikni tushuntirib berishda o'z o'tmishdoshlaridan ancha ilgarilab ketdi. Uning ta'kidlashicha, tana oliy darajali aql uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Aql esa, tanaga bog'liq bo'lmaydi. Oliy darajadagi aql o'zining faoliyat ko'rsatishi, yaratuvchanligi bilan faqat qabul qilish xususiyatiga ega bo'lgan passiv aqldan tubdan farq qiladi.

Aristotel inson deb ataluvchi tirik mavjudotni, bir tomondan, "butun va bo'linmas" deb talqin etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, unga o'ziga o'xshaganlar bilan yashashga mahkum etilgan "Siyosiy maxluq" sifatida qaraydi. U o'zining "Siyosat" nomli asarida insonga quyidagicha ta'rif beradi: "... inson o'z tabiatiga ko'ra siyosiy mavjudotdir".

Aristotel odamning inson darajasiga ko'tarilishida jamiyat hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini alohida qayd etadi. Odamlar faqat jamiyatda inson bo'lib shakllanadilar, axloqiy mavjudot bo'lib tarkib topadilar. Lekin bunday tarbiya faqat adolatli davlat sharoitida amalga oshishi mumkin. Haqiqiy adolat prinsiplari va normalari asosida yaratilgan qonunlar ustuvorligiga erishish, ularga amal qilinishni ta'minlash, fuqarolarda chinakam insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi.¹

Aristotel fikricha, odamlarni faqat moddiy farovonlik emas, balki ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya qilishi ezgulik tomon boshlaydi. U ezgulik deganda aql-zakovat bilan ish ko'rishni, mehribonlikni, mardlik, ochiq ko'ngillik, to'g'rilik, xayrixoxlikni tushunadi. Faylasufning e'tirof etishicha, kimki o'zining xulq-atvori uchun javob bermaydigan holatda bo'lsa, bunday kishi o'ziga-o'zi xo'jayinlik qila olmaydi. Bunday kimsalar insof, adolat va boshqa ezgulikka chorlovchi fazilatlardan benasib bo'ladilar. Bunday qul o'z tabiatiga ko'ra boshqa kishining irodasini ijro etadi, xolos.

¹ Аристотел. Сочинения. В четырех томах. Том 4. М., 1983, 462-бет

“Tabiat insonning qo‘liga intellektual va axloqiy kuch-quvvat qurolini berdi”,- deb yozgan edi u. Aristotel bunday fikr-mulohazalarni bayon qilish yordamida inson bilan hayvon o‘rtasidagi farqni ko‘rsatib bermoqchi edi. Aristotel odamlar o‘z tabiatlariga muvofiq aslida bir-birlari bilan teng bo‘lmashliklari darkor, deb tushuntiradi. O‘z ustoz Platon qarashlarini quvvatlab, odamlar o‘z tabiatlariga ko‘ra bir-birlariga teng emas ekanlar, xuddi shu holat ularning ijtimoiy hayotda ham notengligiga olib keladi, aynan shu sababli ham bировlar hukmdorlik qilish uchun tug‘ilsa, boshqa bировlar bo‘ysunib yashash, tobe bo‘lish uchun dunyoga keladilar, deydi. Ko‘rinib turibdiki, Aristotel jamiyatda ijtimoiy tengsizlik vujudga kelishining haqiqiy sababini tushuntirib bera olmaydi.

Xullas, Qadimgi Yunon faylasuflari inson bilan boshqa tirik mavjudotlar orasida prinsipial farq bor ekanligiga hech qanday shubha qilmas edilar. Inson “aqlga ega ijtimoiy hayvon”, “siyosiy maxluq” ekanligini isbotlashga urinish, odamlar turmush tarzi bilan aql-farosati orasidagi aloqadorlikni e‘tirof etish, yunon falsafiy fikrlash madaniyatining jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan hissasidan dalolatdir.

Yevropa Uyg‘onish davri falsafasida har tomonlama rivojlangan shaxs g‘oyasi olg‘a surilgan. Mashhur ingliz gumanisti Tomas Mor «Utopiya» asarida inson shaxsi tubanlashuvining sabablari haqida fikr yuritib, o‘g‘rilik, daydilik tubanlashuvning ko‘rinishlaridir, bu kabi illatlarni tugatmoq uchun nopok yo‘llar bilan topilgan boyliklarni yo‘qotish darkor, degan xulosaga keladi. XVII – XVIII asr G‘arbiy Yevropa falsafasida inson to‘g‘risidagi diniy qarashlar tanqid ostiga olinib, inson, uning mohiyati kelib chiqishi haqida yangi ilgor g‘oyalar ilgari surildi.

Mashhur ingliz faylasufi F.Bekon (1561-1626 y.) o‘zining «Yangi Organon» asarida insoning tabiat ustidan hukmron bo‘lishida fan yutuqlariga tayanish zarurligini isbotlab berdi.

Mashhur ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588-1679 y.) fikriga ko‘ra, jamiyat - juda katta mexanizm, inson o‘sha buyuk mexanizmning bir muruvatidir. Inson degan mavjudot bir-biridan mutlaqo farq qiluvchi ikki muhim bo‘lakdan iborat. Uning birinchi bo‘lagini jismoniy, ikkinchi bo‘lagini – ma‘naviy qobiliyatlar tashkil etadi. Insondagi ma‘naviy qobiliyatlar tabiat tomonidan in‘om etilmaydi, balki ular o‘zlashtiriladi.

Gobbs insonning ma'naviy qobiliyatlarini mavjud ijtimoiy shart-sharoitlar bilan bog'lab tushuntirishga harakat qiladi.

Ingliz faylasufi Djon Lokk (1632-1704 y.) «Inson aqli to'g'risidagi tajriba» asarida inson qalbi xuddi oq qog'oz varog'idek tozza bo'lib, faqat tajriba o'sha qog'oz sahifasini turli yozuvlar bilan to'ldiradi. Insonni yangi bilimlar bilan qurollantirmoq uchun tajribaga tayanmoq lozim. Har qanday bilim yoki g'oyaning manbai – tajribadir, degan fikrni ilgari suradi. «Aqlni boshqarish haqida risola» asarida inson faoliyat ko'rsatishda o'z aqlida mavjud bo'lgan bilimga tayanadi, deb ta'riflaydi.

XVIII asr fransuz olimi, ma'rifatparvar Jan Jak Russo (1712-1778) inson muammosiga doir falsafiy fikrlarini o'zining «Odamlar orasida tengsizlikning kelib chiqishi va asoslari haqida mulohaza», «Ijtimoiy shartnoma», «Emil yoki tarbiya to'g'risida» kabi asarlarida bayon etgan.

Inson muammosi nemis klassik falsafasida muhim o'rin tutadi. Uning yirik vakillari – Immanuel Kant, Gegel, Fixte, Shelling, Lyudvig Feyerbax – insonshunoslik sohasidagi bilimlar rivojiga katta hissa qo'shdilar. Kant (1724-1804) insonga ta'rif berganda uch muhim tomonga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi: 1) tirik mavjudot sifatida insonda hayvoniy alomatlarining borligi; 2) tirik va aqlli mavjudot sifatida unda insoniylik alomatlarining borligi; 3) aqlli mavjudot va shuning bilan birga unda fikr-mulohazalarni singdirish imkoniyati mavjud bo'lgan shaxs alomatlari borligi. Kant o'z diqqatini inson faoliyatini, uning qobiliyatlarini, malakalarini o'rganishga qaratdi.

Inson kamoloti masalasi Georg Vilgelm Gegel (1770-1831) dunyoqarashining markazida bo'ldi. Uning fikricha, inson - dunyoviy ruhning begonalashuvidan o'zga narsa emas. Gegel insonning shakllanishi jarayoni ruhning chuqurlashishidan iborat, degan fikrni ilgari surdi.

Inson muammosi Lyudvig Fon Feyerbax (1704-1782) falsafiy qarashlarida alohida o'rin tutadi. Feyerbax uchun inson – eng avvalo moddiy ob'ekt. Insonni xudo yaratgan emas, inson xudoni yaratgan. Feyerbax inson fazilatlarining shakllanishida biologik omillarning tutgan o'rinni mutloqlashtirdi. Feyerbax jamiyatdagi barcha odamlar mavjudligining eng muhim element vazifasini muhabbat bajaradi, degan g'oyani ilgari surgan.

Antropologiya - inson to'g'risidagi fan. Falsafiy qiziqishlari markazida tabiat va inson mohiyati to'g'risidagi masala turuvchi fan «Falsafiy antropologiya» deb ataladi. Antropologik yondashuv inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi, inson hayoti va faoliyati muammolari tahlili bilan shug'ullanadi.

Falsafiy antropologiya fani XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga keldi. Hozirgi zamon G'arb falsafasining yo'nalishi sifatidagi falsafiy antropologiya dastlab nemis faylasufi va sotsiologi M.Sheller (1874-1928) asarlarida ishlab chiqilgan, germaniyalik faylasuf X.Plesner (1892-1985), nemis mutafakkiri A.Gelen (1904-1976) asarlarida esa rivojlantirilgan.

Inson haqidagi ta'limot fransuz ma'rifatparvarlari davridagi mushohadalarning bosh muammosiga aylandi. O'sha davrda yaratilgan eng muhim asarlarning sarlavhalariga chiqarilgan mavzular buning yorqin namunasidir. Masalan, Lametri birinchi falsafiy asarini «Jonning tabiiy tarixi» deb, asosiy falsafiy asarini esa «Inson – mashina» deb nomlagan. Gelvesiy «Aql haqida» «Inson, uning aqliy qobiliyati va tarbiyasi haqida» kabi asarlarida o'z qarashlarini bayon qilgan. Faylasuf she'riy asarini «Baxt» deb nomlagan. Inson borlig'ining barcha shakllarida ma'rifat muhim o'rin tutishini tan olish ushbu davrga xos bo'lgan.

Bu davr g'oyalari antropologiyaning eng yangi konsepsiyalarida o'ziga xos tarzda aks etdi. Shu ma'noda, insonni uning ongi atamalarida tavsiflash va ta'riflash mumkin, degan fikr diqqatga sazovor. Bu holda barcha empirik metodlar, xususan, kuzatish metodining samarasizligi ayon bo'ladi. Inson tabiatining yangicha talqini aynan fikr insonni boshqaruvchi asos ekanligini tushunish bilan bog'liq bo'lishi lozim. Ammo bu yondashuv inson o'z tabiatiga ko'ra, to'la ratsional emasligini tan olishga asoslanadi. E.Kassirer ta'biri bilan aytganda, «inson o'zidan – o'zi tinimsiz izlaydigan, o'z mavjudligining har bir lahzasida shu mavjudlikning shart-sharoitlarini sinovdan o'tkazadigan va qayta tekshiradigan jonzotdir».¹

Zamonaviy falsafiy antropologiya vakillaridan biri A.Markvard esa, insonni "homo kompensator" deb ataydi va uning fikricha, inson hayvonot olamidan ajralib chiqqan nomukammal biologik zot bo'lib u o'zining aqli tufayli o'zining kemptikliklarini to'ldirishga harakat qiladi.

¹ Qarang: Qobulniyazova G. Falsafiy antropologiya. O'quv qo'llanma –Toshkent, 2021 y

Zamonaviy falsafiy antropologiyaning yirik vakillaridan biri M.Landman insonning faoliyatida ob'ektiv ruhning ta'siri va harakatini ko'radi, uning, fikriga ko'ra inson tabiatida ruhiy jihatlar asosiy rol o'ynaydi, inson bu ruhiy va biologik jihatlarining ierarxiyasidan iborat.

V.Bryuning falsafiy antropologiya predmeti haqida gapirar ekan, bu tushunchani tor va keng ma'noda ishlatish mumkin deb hisoblaydi. Keng ma'noda falsafiy antropologiya predmetiga inson haqidagi barcha falsafiy ta'limotlarni kiritgan bo'lsa, tor ma'noda esa falsafiy antropologiyaga, insonni kelib chiqishini, inson tabiatining biologik, ijtimoiy va ruhiy mohiyatini o'rganuvchi fanlarni kiritgan.

P.S.Gurevich "Falsafiy antropologiya" kitobida ushbu fanning predmetiga quyidagicha ta'rif beradi: "Falsafiy antropologiya fani – bu insonni mavjudlikning alohida bir turi sifatida o'rganadigan falsafiy fan bo'lib, u inson tabiati, mohiyati va mavjudligini anglab yetish, inson mavjudligining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish, olamning antropotsentrik manzarasining ichki imkoniyatlarini aniqlash bilan shug'ullanadi".

Maks Sheller falsafiy antropologiya fanining asoschisi bo'lib, uning ijodi ko'p qirrali. Insonning ruhiy borlig'i Sheller ta'limotining asosiy mavzusi hisoblanadi. Uning inson tabiatini tushunishi xristianlik falsafasidagi qarashlar bilan chambarchas bog'liqdir. Sheller falsafiy antropologiyasining asosiy uslubi xristianlik dunyoqarashiga asoslanadi. Inson o'zining tor tabiiy chegaralaridan chiqib ketib, olamning mohiyati bo'lgan xudoni anglashga, u bilan qo'shilishga qodir, natijada inson uni yaratgan xudoning timsoliga aylanadi. Inson koinotdan farq qiladi, lekin shu bilan bir qatorda inson koinot bilan bir yaxlitlikni tashkil etadi. Inson falsafasi inson haqidagi metafizik bilimlarni konkret fanlardagi bilimlar bilan birlashtirishi kerak. Lekin Sheller bu vazifani bajara olmadi, buning sabablaridan biri shundaki, Sheller antropologiyasi ikki bir biriga qarama-qarshi qutbni, ya'ni xristianlik bilan nissheanlikni birlashtirishga harakat qilgan edi. Ilohiy ruhga bo'lgan ishonch kosmik tabiatga ega bo'lgan iroda tushunchasi bilan mutanosiblik, garmoniya holatiga kela olmadi.

Hozirgi zamon antropologik falsafasining inson mohiyati to'g'risidagi xulosalari quyidagicha:

- inson tabiatan noyob va universaldir. U tabiat rivojining buyuk mahsuli, noyob qobiliyat sohibidir. Inson uchun instinkt ham, nozik did ham, ulug'vorlik va yaratuvchanlik ham xosdir;

- insonda ichki va tashqi olam mujassamlashgan. Insonning ichki olami faoliyatning turli shakllarida - mehnat, muloqot, badiiy ijod, xulq-atvor kabilarda namoyon bo'ladi;

- inson juda ko'p qismlardan tashkil topgan yaxlit birlikdir. Har bir insonda tabiiylik, ijtimoiylik, aqllilik, hissiylik, axloqiylik mujassamlashgan;

- inson tarixiy mavjudotdir. U o'zining ana shu xususiyati bilan kelajagini yaratadi. Inson ertangi kuniga doimo tashvish bilan qaraydi, chunki uni har doim inqirozlar, omadsizliklar ta'qib etadi;

- inson mas'uliyat hissidan qochib qutula olmaydi. Gumanizm nuqtai nazaridan va individuallikni uyg'unlashtirish orqaligina u shunday vaziyatdan chiqadi.

Individ, shaxs va individuallik tushunchalari, ularning uzviy bogliqligi va o'ziga xosligi. "Individ" (lot. individuum – bo'linmas) – inson shaxsi va uning hayotining alohidaliligi, shaxs huquqlarining mutlaqligi hamda o'ziga xosligini ifodalovchi falsafiy tushuncha. Individ – eng avvalo qandaydir ko'plikni bir vakili, ko'plarning biri. Shu ma'noda deyarli har bir odam – individ. Mazkur tushunchaning ma'naviy, nazariy jihatlarini o'z ichiga oladigan konseptual va real hayotiy yondashuvni aks ettiruvchi amaliy jihatlar mavjud.

Uning nazariy talqini asosida shaxsning jamiyatdagi o'ziga xosligini va huquqlarini mutlaqlashtirish yotadi. Aksariyat hollarda individ inson tabiatining o'zida yashiringan deb hisoblanadi. Individning mohiyatini asoslashga qaratilgan qarashlar "individualizm» tushunchasida ifodalanadi. U shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlaridan ustun qo'yishni ifodalovchi tamoyil sifatida xususiy mulkning paydo bo'lishi bilan bir paytda shakllangan. Individuallik – individning o'ziga xosligini, ichki dunyosining betakrorligini aks ettiradi, bu insonga xos umumiy va ayrim xususiyatlarning uzviy birligidir.

"Shaxs" alohida kishi, ijtimoiy-axloqiy mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan individ ma'nosini anglatadigan tushunchadir. Bu tushuncha barcha ijtimoiy gumanitar fanlarning o'z predmeti nuqtai

nazaridan qoʻllaniladi. Shaxsning xilma-xil talqinlari bor. Shaxs – biofiziologik, ijtimoiy, maʼnaviy, axloqiy, estetik fazilat va xislatlarning yaxlit bir butunlikka aylanishi hamda munosabatlar tizimi bilan qamrab olinishidir.

Shaxsning shakllanishida quyidagi omillar qatnashadi: biologik omil (irsiyat, nasl-nasab); tabiiy, ijtimoiy va madaniy muhit; ijtimoiy tajriba; odamlar bilan munosabat. Shaxsning biofiziologik jihati ovqatlanish, oila qurish, farzand tugʻilishi kabi individual faoliyati bilan bogʻliq hodisalardir.

Ijtimoiy falsafada shaxs muammosi – bu eng avvalo insonning mohiyati, uning dunyodagi, tarixdagi va jamiyatdagi oʻrni muammosidir. Muayyan ijtimoiy munosabatlar maʼlum bir tarixiy tipdagi shaxsning shakllanish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻladi. Antik davr odami uchun eng asosiy deb yaxshi fikrlar, intilishlar, istaklar hisoblangan va ular ijtimoiy amaliyotda qanchalik roʻyobga chiqishiga umuman olganda katta ahamiyat berilmagan: «Insonni faqat uning ishlariga qarab emas, intilishlariga qarab ham baholash lozim», degan edi Demokrit. Aristotel fikriga koʻra, «Axloqiy fazilatlar niyatlar bilan bogʻliqlikda koʻzga tashlanadi». Antik davr mutafakkirlari nazarida chinakam shaxs deb shunday odamni aytish mumkinki: birinchidan, u axloqli; ikkinchidan, aql-idrok egasi; uchinchidan, boshqalar bilan muloqotga kirishadigan; toʻrtinchidan siyosiy va davlat mavjudotidir.

Oʻrta asrlar bizga shaxsning boshqacha tipini koʻrsatdi. Mazkur davr uchun jamiyatning tabaqalanganligi, kastalarga boʻlinishi va qatʼiy korporativlik xosdir. Shu sababli muayyan tabaqaga, kastaga, sexga, gildiyaga mansublik, uning qonunlariga, odatlariga, anʼanalariga boʻysunish shaxsning individual sifatlarining namoyon boʻlishidan koʻra muhimroq va kuchliroq edi.

Yangi davrga kelib ayrim olingan inson shaxsining qimmatini, avtonomligi, oʻziga xosligi qaror topadi. Bu ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy fikr uchun xosdir. Ijtimoiy faollik, tadbirkorlik, ongli va foydali faoliyat, mustaqillik, individualizm, shaxsiy masʼuliyat, oʻz qadr-qimmatini bilish tuygʻusi - mana bular shaxsning Gʻarb, Yevropa-Amerika konsepsiyalari yuksak qadrlanadigan sifatleri hisoblanadi.

Shaxsning sharqona modeli esa boshqachadir. Shaxsning Sharqqa xos modelining bir nechta modifikatsiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin (islom, budda, konfutsiy va hokazo). Shaxsning sharq tipiga xos asosiy xususiyatlari quyidagilardir: mas'uliyat va majburiyatlarning inson huquqlari oldida ustuvorligi, xulq-atvordagi traditsionalizm, hulq-atvorning, jamoaviy modellarining individual me'yorlardan ustunligi, sotsiumga ko'proq qaramlik, ijtimoiy muhit bilan aloqaning ko'pligi.

Shuni esda tutish lozimki, shaxs tipi ijtimoiy munosabatlarning real tizimining in'ikosidir. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishining muhim omili sifatida uning ijtimoiy faoliyati, sotsium hayotida muayyan rolni bajarishi namoyon bo'ladi. Individ shaxs sifatida faqat turli tuman ijtimoiy munosabatlardagina o'z-o'zini namoyon etishi mumkin. Abdurahmon Jomiy «Qo'llaring baquvvat ekan, mavjud ekan kundalik mehnatga ko'ngil qo'y» deya da'vat etgan bo'lsa, Ibn Sino «Bekorchilik va ishyoqmaslik faqat nodonlikka sabab bo'libgina qolmay, ayni paytda kasalliklarga ham sabab bo'ladi» deb ogohlantirgan edi.

Kishilar shaxs bo'lib tug'ilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo'lib shakllanadi va rivojlanadi. Shaxsga xos belgilar quyidagilardan iborat:

- o'z-o'zini nazorat qilish,
- o'z-o'zini tarbiyalash,
- yuksak mas'uliyatni his etish,
- g'oya uchun kurashish,
- mustahkam e'tiqodga ega bo'lish,
- o'z fikr-mulohazalarni erkin bayon etish,
- ijtimoiy-siyosiy faollik va h.k.

Shaxs – bu ,avvalambor, mustahkam iymon-e'tiqod, g'oya va insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, Vatan, millat tuyg'usi bilan yashaydigan, o'zida davr xususiyatlarni ifoda etadigan insondir. Shaxs – insondagi insoniylikni, ilohiy iste'dodni, oliyjanoblik, ezgulikni o'zida aks ettiradi. Demak, shaxs – o'zida ijtimoiy fazilatlarni mujassamlashtirgan insonni ifoda etadi. Inson nihoyatda murakkab, ko'p qirrali va ko'p o'lchamli mavjudot bo'lib, uning mohiyatini anglash uzoq vaqt davom etadigan jarayon. Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlangan. Ularning barchasi inson tabiati va mohiyati bilan bog'liq. Inson – ijtimoiy munosabatlar mahsuli va yaratuvchisidir.

"Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz" g'oyasi o'rtaga tashlangan, "Inson qadrini ulug'lash deb nomlangan (2022) yilda amalga oshirilgan ishlar bari davlatimiz siyosati izchil va mukammal insonparvarlik negiziga qurilganidan dalolat beradi.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Insonning mohiyati haqidagi ta'riflar rang-barangligining mazmun mohiyatini ochib bering.
2. Qadimgi Hind falsafasida inson muammosi haqida tushuncha bering.
3. Konfutsiy falsafiy ta'limotida insonga munosabat masalasiga qanday yondashilgan?
4. G'arb ijtimoiy falsafasida insonning mohiyati to'g'risidagi ta'limotlardan nimalarni bilasiz?
5. Uyg'onish davri G'arbiy Yevropa falsafiy ta'limotlarida insonga munosabat masalasi qanday o'ringa ega bo'lgan?
6. Zamonaviy falsafiy antropologiya vakillarining inson haqidagi qarashlarini tahlil qilib bering.

9 - MAVZU. IJTIMOIIY FALSAFADA ERKINLIK VA MA'SULIYAT MASALASI

Reja:

1. Shaxs erkinligi – tarixiy zaruriyatni anglash, ma'naviy kamolotga erishish imkoniyati sifatida.
2. Shaxsning mas'uliyatligini oshirishda ijtimoiy normalarning roli.
3. Shaxs erkinligi va mas'uliyatining uzviy bog'liqligi.

Tayanch tushunchalar: Shaxs erkinligi, iroda erkinligi, ma'naviy kamolot, qobiliyat, insoniy burch, erkin faoliyat, shaxs erkinligi, shaxsiy mas'uliyat, ijtimoiy mas'uliyat, ma'naviy erkinlik, inson erkinligi.

Shaxs erkinligi – tarixiy zaruriyatni anglash, ma'naviy kamolotga erishish imkoniyati sifatida. Shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, erkinligi va ijtimoiy mas'uliyatning o'zaro munosabati masalasiga nisbatan ijtimoiy-falsafiy jihatdan yondashish muhim masalalardan biridir.

Erkinlik shunchaki ideal yoki qo'l yetmas yuksak orzu emas, u insoniyat borlig'ining zaruriy shartidir. Erkinlik - eng umumiy ma'noda,

voqea natijalari uchun tanlovning mavjudlig variantidir. Erkinlik - insonning intellektual – ma'naviy kamolotga erishuvining zarur sharti, anglanganligidir.

Erkinlik tufayligina inson yaratuvchan qobiliyatini namoyon etadi, shaxsiy mas'uliyat va insoniy burchini to'la his etadi. Shu nuqtai – nazarda, erkinlik tushunchasi har qanday shaxsga nisbatan emas, balki o'z xatti- harakati, xulq – atvori va faoliyati uchun javobgarlikni his etadigan, ma'naviy jihatdan barkamol insonga nisbatan qo'llaniladi. Jamiyatning ma'naviy salohiyati yuksalib borgani sayin, kishilar erkinlikka o'zboshimchalik, nimani xohlasa shuni qilish deb emas, balki ma'naviy – intellektual rivojlanish imkoniyat deb qaraydilar. Bozor munosabatlari sharoitida kishilarning xulq – atvori va faoliyatini boshqarishda huquqiy normalar muhim rol o'ynaydi.

Erkinlik - insonga yuklatilgan yuksak mas'uliyatdir. Bunday mas'ullik insonning jamiyat oldidagi muhim vazifalaridan hisoblanadi. Erkinlik va mas'uliyat insonning o'zligini anglash darajasini ham anglatadi. Inson o'z mohiyatini, vazifasini, ayniqsa jamiyat va yaqinlari oldidagi mas'ulligini chuqur anglab yetgan holda ish tushsagina yuksak darajada erkin bo'lib borayveradi.

Insonning tanlov huquqi uning erkinligini ifodalovchi omildir. Ammo kishi o'z faoliyati va xatti-harakatlar yo'nalishini tanlar ekan, u shaxs sifatida o'zini o'zi ham tanlaydi. U o'zini tashkillashtiradi, ma'naviy qiyofasini o'ziga xos tarzda shakllantirishga harakat qiladi.

Erkinlik bu insonning o'zi uchun yaratilgan imkoniyatlardan teng darajada foydalanish va o'z mehnati mevalarini hamda o'z taqdirini tasarruf etish huquqidir.

Ya'ni, erkinlik bu tanlash imkoniyatidir. Darhaqiqat, ongli ravishda amalga oshiriladigan har qanday tanlash kabi, erkinlik ham shaxs uchun muqobil imkoniyatlardan birini afzal ko'rish va boshqasidan voz kechish bilan bog'liq. Tanlash shaxsning keyingi faoliyatini cheklovchi omilga aylanmasligi uchun u muhim qoidaga amal qilishi lozim: har safar tanlashni amalga oshirayotganda keyingi tanlashlar istiqboli toraymasligiga, balki insonga o'zining yangi kasbiy, axloqiy va intellektual imkoniyatlarini aniqlash imkonini berib, kengayib borishiga erishishga harakat qilish kerak.

Erkinlik beboshlik va anarxiya emas, qonundan tashqari chiqqan an'anadan chekinib, axloqsizlik qilgan odam erkin odam emas, balki buzg'unchi va boshqalar erkiga tajovuz qiluvchi kishidir. Bu haqida ingliz mutaffakiri T.Gobbs shunday deydi: "Insonni tom ma'nodagi erkinligi uni qonunlarni quli bo'lishini anglatadi".¹ Tabiiyki, inson doimo erkin va ozod yashashga intiladi, u hayotida qaysidir ma'noda cheklashlar yuzaga kelganligini sezishi bilan ana shu cheklashlarni bartaraf etishga jon-jahti bilan harakat qiladi.

Sharq va G'arb falsafasi hayotning tub va o'zak masalalari bo'yicha bir birini to'ldirib, boyitib kelgan, bir-biridan oziqlangan, bir-biridan ta'sirlanib kelgan. Shaxsning hayotiy maslagini belgilovchi falsafiy-axloqiy kategoriya bo'lgan erkinlik masalasi tadqiqida ham Sharq va G'arb qomusiy bilim egalari ana shu me'yoriy uyg'unlikni saqlaganlar. Jumladan, antik davr faylasuflaridan biri Avreliy Avgustin "Erkinlik, tafakkurning ne'mati emas, inson irodasining xususiyati"² degan nuqtai-nazarni ilgari sursa, B.Spinoza "Erkinlik insonning yashashga intilishi, muhabbati, ishtiyoqi asosida shakllangan zaruratdir"³ - degan fikrni tasdiqlashga urinadi.

Erkinlikning o'ziga xos ko'rinishi hisoblangan iroda erkinligi tushunchasi eng umumiy ma'noda insonning mustaqil ravishda o'zi qabul qilgan dunyoqarashga ko'ra, o'z hatti-harakatlarini belgilab olishi, o'z qaroriga asosan ish yuritishni bildiradi.

Erkinlik - iroda erkinligi (qasddan iroda, ongli erkinlik) yoki stoxastik qonun (hodisa natijasini oldindan aytib bo'lmaydiganligi, ongsiz erkinlik) tomonidan boshqariladigan tasodifning namoyon bo'lish turlaridan biridir. Shu ma'noda "erkinlik" tushunchasi "zarurat" tushunchasiga qarama-qarshidir. Falsafada "erkinlik" insonning irodasi mavjudligi bilan bog'liq. Erkin iroda insonga mas'uliyatni yuklaydi va uning so'zlari va ishlariga ishonadi.

Axloqiy ma'noda inson biror harakat sodir etar ekan, yaxshilik va yomonlik, axloqiylik va axloqsizlik o'rtasida chegarani aniqlashga harakat

¹ Qarang: Бачинин В.А. Философия права и преступления. Худож. -офор -мител Д.Гапчинский. -Харков: Фолио, 1999. -559 с

² Qarang: Шаповалов. В.Ф. Основы философии от классики к современности. Учебное пособие. – М.: Фаир -Пресс, 1998. – 158 с.

³ Спиноза Бенедикт. Сочинения: В 2-х т. Том II. (Изд-е второе, стереотипное) серия: Слово о сущем. СПб Наука СПб. 2006. – 489 с

qiladi. Ushbu holat insonning irodasiga bog'liq bo'lgani uchun ham u axloqiy mas'uliyat kasb etadi. Ya'ni uning qilmishi qoralanishi, olqishlanishi yoki tuzatilishi mumkin. Demak, inson o'z fe'l-atvorini, kayfiyatini boshqarishga qobilligini iroda erkinligi asosida ro'yobga chiqaradi.

Qonunda erkinlik nafaqat sub'ektning uning hatti-harakatlari uchun javobgarligi bilan bog'liq bo'ladi, balki bu uning javobgarlik o'lchovi darajasi bilan bog'liq irodasini ham bildiradi. Javobgarlik o'lchovi adolatli jazo chorasi talabidan kelib chiqadi.

Erkinlik konsepsiyasining rivojlanish tarixida ijodiy erkinlik tushunchasi o'rnini ozodlik tushunchasi (majburlash, sababiylik, taqdir) egallaydi. Qadimgi falsafada biz birinchi navbatda taqdirdagi erkinlik haqida (Suqrot va Platon), keyin siyosiy despotizmdan ozodlik to'g'risida (Aristotel va Epikur tomonidan) va insoniyat mavjudotining falokatlari to'g'risida (Epikur, Stoiklar tomonidan, Neoplatonizm) so'z boradi.¹ O'rta asrlarda insonning axloqiy jihatdan talab qilingan erkinligi, din talab qilgan Xudoning qudratliligi va gunohlardan xalos bo'lish nazarda tutilgan. Uyg'onish davri va undan keyingi davrda erkinlik inson shaxsining har tomonlama to'siqsiz joylashuvi sifatida tushunilgan.

Sharq Uyg'onishi hamda G'arb Renessansi va ma'rifatchiligi davrlaridagi allomalarni aql-idroki orqali chuqur tadqiq qilingan qadriyatlar: iroda kuchi, tirishqoqlik, ishchanlik, tashabbuskorlik, qobiliyat va hokazolar hozirgi davr shaxs erkinligi hamda mas'uliyatini uyg'unlashtiruvchi asosiy xususiyat bo'lib qolmoqda. Bu xususiyatlarning shakllanishi shaxs erkinligini namoyon bo'lishida ilgari tashlangan qadamlar edi.

Ammo, bugungi kundagi global hodisalar, bashariyat tafakkuridagi tig'iz o'zgarishlar, ayni shu erkinlik darajasida shaxsda xudbinlik, shavfqatsizlik, shaxsiyatparastlik illatlarining mavjudligi bilan ham ifodalanayotganligini unutmash kerak.

Inson shaxsining bu jihati faqat induvidial tabiatga ega bo'lmay, balki keng ijtimoiy mazmunga ham ega. Ya'ni shaxslargina emas, balki katta yoki kichik elatlar, millatlar va xalqlar ham taqdiriga tegishli hollarning barchasida ijtimoiy tanlov erkinligiga egadir. Lekin bular shaxs

¹ Qarang: Философское понятие свободы. Свобода и ответственность. - <https://studfilosed.ru/> 2021 g

va ijtimoiy kuchlar sof sub'ektivligining natijasi emas, balki provardida ob'ektiv taqozolanganligi oqibatidir. Bunday taqozolanganlik shaxs erkinligi bilan chambarchas bog'liqdir.

XX asr Yevropa mutafakirlaridan M.Xaydegger, K.Yaspers va J.P.Sartr inson ichki erkinligi masalasida muhim qarashlarni ilgari surgan.¹ Ularning fikricha, haqiqiy erkin tanlov bu individualning ichki ehtiyojiga muvofiq qilingan tanlov bo'lib, bu individning ichki e'tiqodi, samimiyligi, sofdilligi bilan bog'liq.

Tashqi erkinlik bu dastavval mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxs o'rni va ahamiyatining ifodalanishi uning ichki erkinligining hissiy-buyumlashgan tarzda namoyon bo'lishidir.

Yaspersning ekzistensializmiga ko'ra², inson o'zini tanlashda dunyo mavjudligini yengib, hamma narsani qamrab oluvchi transsendensiyaga erishishi mumkin. Erkin bo'lish yaxshi yoki yomon irodani amalga oshirishni anglatadi. Yaxshi niyat so'zsiz, ilohiyning aniqligiga ega; bu oddiy aniq mavjudot va asl mavjudotning ongsiz ravishda qaysarligi bilan cheklanadi.

Sartr ekzistensializmiga ko'ra³, erkinlik insonning mulki emas, balki uning mohiyatidir. Inson erkinlik namoyon bo'lishini o'z erkinligidan farq qila olmaydi. Inson erkin bo'lganligi sababli o'zini erkin tanlagan maqsadga yo'naltirishi mumkin va bu maqsad uning kimligini aniqlaydi.

Ayni paytda erkin, mustaqil faoliyat insonning o'z tashvishlari va quvonchlariga o'ralashib qolishi, egotsentristik kayfiyatning shakllanishi uchun sharoit yaratadi. Bunday kayfiyatni yuzaga kelishining yana bir sababi, insonning tabiatidagi o'ziga xoslik hamda erkinlikka turfa xil yondashuv bilan bog'liq. Yozuvchi, faylasuf-mutafakkir F.M.Dostoevskiy yozganidek, «Inson kim bo'lishidan qat'iy nazar har doim va har qachon unga ta'sir etuvchi aql hukmi bilan emas, balki o'zi xohlagan, iroda erkinligi asosida faoliyat ko'rsatishni xush ko'radi. Inson agar uning aqli,

¹ Qarang: Новакова О.В. Гуманистические идеи экзистенциализма в развитии современной педагогической мысли Германии: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук: (13.00.01) / О.В. Новакова. - Волгоград, 2002. – 19стр.

² Qarang: Философское понятие свободы.Свобода и ответственность. - <https://studfilosed.ru/> 2021 g

³ Qarang: Философское понятие свободы.Свобода и ответственность. - <https://studfilosed.ru/> 2021 g

uning erkiga soya soluvchi hukmga kelsa hech ikkilanmay uni rad etishga tayyordir.¹

Insondagi ana shu iroda erkinligi ko'p holatlarda mas'uliyat va mas'uliyatsizlikni to'qnashuviga olib keladi. Agar inson dunyoqarashi bilimi, saviyasi nisbatan pastroq bo'lib mulkdan oladigan daromadi yuqori bo'lsa, unda salbiy holatlar kalondimog'lik, boyluk ketidan quvish, qo'l ostida ishlovchi xodimlar manfaatini mensimaslik, jamoa oldidagi insoniy burch va mas'uliyatni unutish holatlari yuzaga keladi. Turgan gapki, bunday nomutanosiblikning ortib borishi inson erkinligi va mas'uliyatini uyg'unlashuv jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ayniqsa, ana shunday muhitda ishlayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan yoshlarga bu holat salbiy ta'sir etishi mumkin. Demak, yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etayotgan paytda shaxs tabiatidagi ana shu jihatlar e'tiborga olinishi undagi qusrlarni bartaraf etish choralari ko'rilishi zarur. Buning uchun har bir yoshni iqtidori, salohiyatini ro'yobga chiqarish undagi ishchanlik va boshqa ijobiy fazilatlarni kamol toptirish zarur.

Yangi O'zbekistonda yoshlar muammosi davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar va hozirda yoshlar kamoloti yo'lida respublika rahbariyati, shaxsan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik fikrimizning yorqin isbotidir. "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir."²

O'zbekiston Yoshlar ittifoqining tuzilishi, iste'dodlarni tanlash markazlarini tashkil etilishi, yoshlarni ma'naviy va jismoniy shakllantirish, iqtidorli yoshlarni tanlash, rag'batlantirish borasida davlatimiz yuritayotgan odilona siyosat ana shular jumlasidandir.

Fuqarolar ijtimoiy aloqalarni erkinlashtirishlari uchun imkoniyat kengaydi. Bunday vaziyatni vujudga kelishi insonni o'zini-o'zi ko'proq bilishga o'zida mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlarini izlab topishi uchun

¹ Qarang: Достоевский Ф.М. Полное собрание сочинений Ф.М.Достоевского. –М.: Том 5 Издание шестое СПб Типография П.Ф. Пантелеева 1904. – 114 б

² Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2017 - 1 tom 27 bet

zaruriyatni kuchaytirib yubordi. Aniqroq qilib aytganimizda, inson o'zida mavjud bo'lgan barcha qobiliyatlarini, iste'dodlarini tashabbuslarini namoyon qilish uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni o'z qo'li bilan yaratishga kirishdi. Mulkni yangi shakllarning rivojlanishi odamlarning vijdonan mehnat qilishlari uchun barcha qulayliklarni yaratmoqda. Insonning o'zi uchun o'zining qilgan halol mehnatidan olinadigan daromadlar hajmi ko'paymoqda. Real daromadlarning oshib borishi odamlarning nafaqat erkinligi va mas'uliyatini uyg'unlashtirishga balki ularni mustahkam hayotiy pozitsiyasini qaror topishi, tashabbuskorlik, faollik va fidoyilik hislatlarini ham kamol topishga zamin yaratadi.

Inson erkin faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmasa, o'zining biologik qobiliyati va iste'dodini hamda ijtimoiy mohiyatini ifodalab berolmaydi. Insonning erkin faoliyati tabiat va ijtimoiy borliqning turli sohaslarida amalga oshiriladi. U hayotning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohasini qamrab olishi mumkin. bu erkin faoliyat ko'rsatishning ijtimoiy tomonidir. Ammo inson erkin faoliyatining ijtimoiy tomoni bilan biologik tomonining o'zaro aloqadorligini tan olmog'i zarur. «Insonni, ijtimoiy faoliyati uning antropologik va psixofiziologik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq. Insonning erkin faoliyati ijtimoiy hayot sharoitlari yoki zaruriyatlarini bilishi bilangina ifodalanmaydi, balki u qanday psixofiziologik imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ham ifodalanadi»¹.

Erkinlik insonning na faqat tabiat ustidan, balki o'z ustidan hukmronlik qilishini ham ifodalaydi². Bu hukmronlik oqibatida qanday natija berishi insonni aqlidanda ustun turadigan hissiyot va ehtiroslar hoyu-havas va anglanmagan ehtiyojlar asosida junbushga keluvchi insonni iroda erkinligi bilan bog'liq. O'z tuyg'ularini idora qiladigan aql-farosat bilan ish ko'ruvchi yoshlarda iroda erkinligi ezgu ishlarga yo'naltirilsa, ayrim yoshlarda buni aksini ko'ramiz. Zamonaviy deb atalayotgan «moda»larga munosabatda ham ana shu iroda erkinligi turadi. Yoshlarning «moda»larga berilib ketishiga quyidagi sabablarni ko'rsatish mumkin: kitob mutoalasi, ajdodlarimiz ma'naviy merosiga ishtiyoqni yoshlar orasida nisbatan

¹ Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – B. 92-93.

² Шодиметов Ю. Человек: Социально -экономические аспекты здоровья. – Т.: Ўзбекистон, 1990. -18 стр.

sustligi; sivilizatsiyalararo muloqotning jadal o'sishi, globallashuvni ma'naviy hayotimizga shiddat bilan kirib kelishi; oila muhiti, tarbiya jarayonidagi an'anaviylik bilan zamonaviylikni uzviy aloqasini ta'minlashdagi uzilishlar.

Ana shu sabablarni yuzaga kelishini ijtimoiy asosida oila, mahalla, maktab hamda ta'lim-tarbiya muassasalarini ayrim holatlarda yoshlar tarbiyasiga jiddiy mas'uliyat bilan yondasha olmayotganligi, yoshlar hatti-harakati, fe'l-atvoridagi o'zgarishlarga jamoatchilikni yetarli darajada nazorati o'rnatilmaganligi kabi omillar turadi.

Inson erkinligi va mas'uliyatining uyg'unlashayotganligini nafaqat ishlab chiqarish, tadbirkorlik faoliyatidan shu bilan birga ijtimoiy munosabatlar, ajdodlar merosi, qadriyatlar, san'at va adabiyotga yangicha yondoshishlarida ham ko'zga tashlanmoqda. Mamlakatimiz zamonaviy yigit - qizlarni nafaqat milliy madaniyatga bo'lgan qiziqishlari, balki jahonning boshqa xalqlari, ayniqsa, Sharq mamlakatlarining musiqasi, adabiyoti, san'atiga bo'lgan qiziqishi bilan boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat bilan qarash mas'uliyati shakllanishi yuqori darajadadir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Mayli yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda, o'zligini unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib o'zligiga sodiq qolishga undab tursin.¹" Bu ijobiy hol albatta. Ammo shuni taassuf bilan ta'kidlash kerakki, ayrim yoshlarimiz G'arb madaniyatiga ko'r-ko'rona munosabatda bo'lishi, milliy mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan yevropacha an'analarga taqlid qilish holatlari ham tez-tez ko'zga tashlanmoqda. Darhaqiqat, bugun aholi gavjum hududning biron-bir burchagida turib olib, atrofga razm solsangiz, turli, bir-biriga aslo o'xshamagan manzaralarni ko'rasiz. Bu manzaralarning qahramoni yoshlar bo'ladi. Birlari burniga zirak taqqan bo'lsa, boshqasi labiga nimanidir ilganiga ko'zimiz tushadi. Prezidentimiz fikrlarini davom ettirar ekanlar, "Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish – turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilm- hunarga o'rgatmasak,

¹ Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjamiyat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik.// Xalq so'zi, 2017,16 iyun

munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas.¹

Ma'lumki, iroda erkinligi masalasida ko'plab faylasuflar har xil fikrlar bayon etishgan va inson o'z xulq-atvorida erkinmi, ya'ni ixtiyori o'z qo'lidami, degan savolga javob topishga intilganlar.

Abu Nasr Forobiy yashagan vaqtda zaruriyat yoki zo'rlik haqidagi nazariya ko'pchilik tomonidan qabul qilingan deb hisoblanar edi. Alloma shu vaqtgacha qo'llanilmagan «ixtiyor» istilohini ilmiy adabiyotga olib kirish bilan, insonning iroda erkinligini uning taqdiriga ta'sir etishi mumkinligi masalasini o'rta tashlab, haqiqatda keng yoyilgan nazariyaga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdi. U bunday fikrni yoyish bilan birga kishilarni shunga da'vat etdiki, inson tabiiy, irsiy, sinfiy to'siqlarga qaramasdan o'z bilganicha, o'zini qaytadan shakllantirishi va siyosiy nuqtai-nazardan ham madaniy jamiyatning «yetuk» va «barkamol» a'zosi bo'lishi mumkin.

Abu Rayhon Beruniy fikricha, aql, mehnat, erkin tanlash insonning hayotini va ijtimoiy holatini belgilaydi. Mutafakkir inson boshqa odamlarning baxt-saodati haqida doim o'ylashi kerak deydi va shunday yozadi: "Muayyan vazifalarni bajarish zarurati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir". Bu fikrni davom ettirib insonning qadr-qimmatini, erkinligi va yuksak mas'uliyatini a'lo darajada bajarishidan, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o'zni mehnat bilan belgilanishidan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Zero, inson o'z erkinligiga asosan mehnat tufayli erishadi. Binobarin, u «Insonlarning maqsad va niyatlari har xil bo'lgach, san'at va hunar ham turlicha bo'la boshlaydi»², – deydi. Bu esa mehnatning taqsimlanishiga olib keladi, degan fikrni olg'a suradi.

Erkinlik - insondagi tafakkur, mushohada uyg'unligini ijtimoiy amaliyot bilan bog'langan uning mayl hamda istaklarni ro'yobga chiqarishdagi ijodiy yaratuvchilik o'z oldiga qo'ygan maqsadi, muddaolarini amalga oshirishdagi ehtiyoji bilan aloqador bo'lgan hayotiy zaruriyat bo'lib, u ijtimoiylikning xosilasidir.

¹ Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjamiyat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. // Xalq so'zi, 2017, 16 iyun

² Beruniy A.R. Turar joylar [orasidagi] masofalarni aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash [Geodeziya] // Tanlangan asarlar. III jild. - Toshkent: Fan, 1982. - 83 b.

Erkinlik asosida shaxs amaliy faoliyati ro'yobga chiqadigan muayyan jarayon hodisalarga nisbatan uning mustaqil fikri qat'iy xulosasi hamda qarashlari yuzaga keladi. Zero, inson erkinligi uning mas'uliyati bilan ham bevosita bog'liq.

Falsafiy fikr tarixidan ma'lumki, erkinlik, avvalo, shaxsning tanlov erkinligi asosida yuzaga keladi va unda sababiy bog'lanishlar ustuvorlik qiladi, degan tamoyil ustuvor edi. Shu ma'noda, tarixchi olim G.P.Fedotov "Erkinlik bu avvalo, yashash imkoniyati, hech qanday bog'lanishlardan, ijtimoiy asoratlardan tortinmay yashamoqlikdir" degan edi. Insonning erkinlikka, adolatga, mehr muhabbatga, go'zallikka, kamolotga intilishi, qobiliyatlarini namoyon etishga, ijod etishga urinishi – uning ma'naviy ehtiyojidir. Ushbu mulohazalarda, muayyan mantiqiy aloqadorlik bor. Bu aloqadorlik shaxs mustaqilligi, erkin fikr va tafakkuri bilan bog'liq bo'lib, erkinlik inson ruhiy olamining muayyan darajadagi mahsuli ekanligini ham anglatadi. Zero, har qanday ijodkorlik zamirida ham muayyan tanlov erkinligi turadi, muammo shundaki, ana shu erkinlikni inson ruhiy olamidagi kechinmalar bilan bog'lab o'rganishdadir.

Shaxsning mas'uliyatligini oshirishda ijtimoiy normalarning roli. Shaxs jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy va huquqiy normalarga, qonun qoidalarga o'z ixtiyori bilan amal qilmog'i darkor. Ushbu masalada ham ijtimoiy falsafiy fikr tarixida e'tiborli, muayyan darajada ilmiy asoslangan g'oyalar mavjud.

Biz bunday ilg'or g'oyalarni yaqin o'tmishga dahldor G'arb mutafakkirlari va O'rta asrlardagi Markaziy Osiyo allomalari qarashlarida ham uchratamiz.

Jumladan, Z.Freyd "Libido – xohish-istak jamiyat taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, degan g'oyani ilgari surib, insoniy mayl, qiziqishlar ijtimoiy taraqqiyot sur'atlari mohiyati va mazmunini tashkil etishi"ni¹ asoslashga intilsa, rus olimi N.Berdiyayev ijtimoiy taraqqiyot mavhum tushuncha bo'lmasdan, har qanday jamiyat a'zolarining kamolot darajalari majmuidan iborat ekanligini asoslashga harakat qilgan². Ulardan ancha avval yashab ijod etgan sharq mutafakkiri, Husayn Voiz Koshifiy esa, shaxs erkinligining asosida qonun ustuvorligi turganligini alohida

¹ Qarang: Фрейд З. Методика и техника психоанализа. – М.: Госиздат, 1993. – 47 с.

² Qarang: Бердяев Н. Смысл истории. – М.: Мисл, 1990. – 71 с.

uqtirib, “Agar mamlakatda tarbiya va jazo haqida qonun bo‘lmasa, mamlakatda alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib, tartibsizlik avjiga chiqadi”¹, - deb yozadi. Koshifiyning mas‘uliyat haqida, ayniqsa, raiyatga rahnamo bo‘lgan podshoh yoki hukmdorning mas‘uliyati to‘g‘risidagi fikrlari bugungi kun uchun ham g‘oyat ahamiyatlidir.

Erkinlik tushunchasi o‘zining namoyon bo‘lish shakllari va xususiyatlariga ko‘ra turli murakkabliklarni qamrab oladi. Ya‘ni, siyosiy erkinlik, ma‘naviy erkinlik, vijdon erkinligi, huquqiy erkinlik iqtisodiy erkinlik va boshqalarni tahlil qilishda turli nuqtai-nazarlar mavjud.

Siyosiy erkinlik. Siyosiy erkinlikni insonga normal hayotiy faoliyatni ta‘minlovchi fuqarolar huquqlari yig‘indisi deyishimiz mumkin. Shu bilan birga siyosiy erkinlik boshqa erkinliklar: iqtisodiy, g‘oyaviy va hokazolar bilan uzviy aloqadorlikka ham ega. Siyosiy erkinlik bir vaqtning o‘zida ham vosita, ham qadriyat hisoblanadi. Zero, rivojlangan jamiyatni umumiy va teng saylov huquqsiz, adolatli milliy davlat qurilmasisiz, xalqning to‘g‘ridan - to‘g‘ri hamma masalalar yechimida ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Siyosiy komfortga ehtiyoj demokratiya bilan ta‘minlanadi.

Huquqiy erkinlik. Huquq ijtimoiy norma bo‘lib, inson yashayotgan hayot me‘yori, chegarasining xarakterini belgilab beradi. Huquq jamiyat a‘zolarining erkinliklarini ro‘yobga chiqarishning muhim shartidir. Agar inson o‘zi yashayotgan, o‘zi ishlayotgan jamiyatda erkin faoliyat ko‘rsatishni istasa, u o‘z erkinligini boshqalarni ham erkin bo‘lishi uchun ma‘lum ma‘noda chegaralashi darkor. Xuddi shu holat huquqiy munosabatlarning namoyon bo‘lishidir. Huquq shuning uchun ham muqaddaski, u erkinlikning zohir bo‘lishidir. Aniqroq qilib aytganimizda, erkinlik huquqda o‘z ifodasini topsa, tartib-intizom qonunda rasmiylashtiriladi. Shuning uchun, ham qaerda erkinlik chinakamiga reallikka aylangan bo‘lsa, o‘sha yerda inson huquqlari kafolatlangan bo‘ladi. Faqat chinakam huquq insonning erkin faoliyat ko‘rsatishi uchun real imkoniyatni vujudga keltiradi. O‘z o‘rnida takomilga yetgan huquqiy me‘yorlar shaxsda mas‘uliyat tuyg‘usini kamol topishiga ham xizmat qiladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta‘kidlab o‘tganlaridek, “Bizning faoliyatimiz eng muhim konstitutsiyaviy qoidaga – ijtimoiy adolat

¹ Qarang: Koshifiy. Axloqi Muhsiniy. – Konpur: 1994. –B. 136 -137.

tamoyilini ta'minlashga qaratilishi shart. Ijtimoiy adolat, bu siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashdir.¹”

Ma'naviy erkinlik. Ma'naviy erkinlik bu dunyoqarash, milliy g'oya, milliy qadriyat va umuminsoniylik tamoyillarini targ'ib qilish erkinligi demakdir. Odatda, ma'naviy erkinlik masalasi asosiy rasmiy hujjatlar, umumiy adabiyotlarda “vijdon erkinligi” deb yuritiladi. Etimologik jihatdan bu tushuncha keng ma'noga da'vogarlik qilsa-da, u qo'llanilganda insonning e'tiqod erkinligi huquqi yoki umuman e'tiqod qilmasligini anglatuvchi vijdon erkinligini ham nazarda tutadi.

Vijdon erkinligi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31 moddasida: “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xoxlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi”², – deb yozib qo'yilgan. Hozirda mamlakatimizda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida” qonun loyihasi qabul qilingan bo'lib, unda vijdon erkinligining mamlakatimizda amal qilishining asosiy tamoyillari o'z ifodasini topgan.³

Bundan ma'lum bo'ladiki, vijdon erkinligi demokratiyaning ajralmas, tarkibiy qismidir. Mazkur tushuncha fuqarolarning dinga munosabatlaridan qat'iy nazar, teng huquqligi, barcha diniy konfessiyalarning qonun oldida tengligi, dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslikka nisbatan hech qanday majburiyat yo'qligi, diniy idoralar ishiga davlatning aralashmasligini, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanish mumkin emasligini bildiradi. O'zbekiston fuqarolari millati, irqi, jinsi, kasb-kori, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar fuqaro sifatida qonun oldida huquqan teng va birdek mas'uliyatlidirlar. Shuning uchun ham mavjud muammolarni bartaraf etishda fuqarolarning o'z fuqarolik huquqlarini bilib olishlari va ular himoya qilishlari hamda burchlarini chuqur anglab yetishlari uchun ularni huquqiy jihatdan tarbiyalab borish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayon fuqarolar uchun

¹ Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir – Toshkent, O'zbekiston, 2018, 2 tom, - 35 bet

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 8 b.

³ Qarang: «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonun loyixasi. – 15.09.2020 y // <https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/100738>

ma'naviy kamolot manbai bo'lishi bilan birga, ularning bu boradagi mas'uliyatini yanada oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Insoniyat qadr-qimmatini, burchi va mas'uliyatini ularning teng va ajralmas huquqlarini himoya qilish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan ustuvor siyosat natijasi o'laroq jamiyatda adolat tantana qilmoqda. Zotan, inson omili va mezoni barcha islohotlarning pirovard natijasi, odil fuqarolik jamiyatining asos-mohiyatidir.

Erkinlik, xususan **shaxs erkinligi** masalasi ijtimoiy falsafaning ham dolzarb masalalaridadir. Shaxsning erkinligi, o'z navbatida, uning o'zi yashayotgan jamiyat a'zolari oldidagi burchi va mas'uliyatini seza bilish tuyg'usi bilan ham bog'liq. Shaxsning erkinligi deganda, ijtimoiy – axloqiy tamoyillarga mos va inson huquqlarini ta'minlash darajasini anglatuvchi hodisa tushuniladi.

Chunonchi, bu holatda shaxs erkinligiga o'z hayoti va faoliyatini amalga oshirishi, ozod shaxs sifatida mehnat qilishi, bilim olish, o'zi istagan kasb, hunarni, diniy etiqod va boshqalarni ixtiyoriy tanlashi xos bo'ladi. Shu bilan birga, shaxs erkinligining tarkibiy qismlari sifatida shaxsning daxlsizligi, qadr-qimmatini, diniy e'tiqod, vijdon, so'z, ijod erkinligi, xususiy mulkka egalik huquqi va boshqalarni keltirish mumkin.

Demak, shaxs erkinligi u yashayotgan ijtimoiy tuzum mohiyatiga, ijtimoiy munosabatlarning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy xarakteriga, odamlar ma'naviyatining darajasiga bog'liq bo'ladi. Shu ma'noda, "...ma'naviyatni yo'qotsak, o'zimizni va o'zligimizni yo'qotamiz. Ma'naviyatni yuksaltirsak, o'z murod-maqsadimizga yetishga kuchli madad topamiz"¹.

Shaxs erkinligi va tarixiy zaruriyat bir – biri bilan uzviy bog'liq tushunchalardir. Mamlakatimizning taraqqiyot yo'lida paydo bo'lgan qiyinchilik va muammolar mohiyatini anglash shaxsni o'z bilimi va mahoratini oshirishga, yuksak g'oyalarga sodiq bo'lib yashash va ularni jadal amalga oshirishga undaydi.

Shaxs erkinligi demokratik qadriyatlar tizimida alohida o'rin tutadi.

Shaxs erkinligi avvalo axloqiy, so'z, vijdon, matbuot erkinligida ro'yobga chiqadi. Demokratik jamiyat shaxs erkinligini ta'minlashning huquqiy asoslarini yaratish bilan cheklanib qolmay, ilm – fan, san'at, din,

¹ Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. -58 b.

huquq va hokazolarni rivojlantirishga alohida e'tibor beradi. Shaxs – erkinlik huquqi va majburiyatiga ega bo'lgan o'z huquqini nazorat qila oladigan avtonom va aqlli mavjudod (mohiyat) sifatida ishonch va hurmat asosidagina shakllanadi.

Shaxs erkinligi va mas'uliyatining uzviy bog'liqligi. Erkinlik va mas'uliyat inson bir butun ongli faoliyatning ikki tomonidir. Erkinlikni to'g'ri anglash orqali shaxsda mas'uliyat hissi kuchayib boradi, bu jarayon esa uning ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan murakkabliklarni hal etishdagi ishtirokini tobora faollashuviga olib keladi.

Ob'ektiv zaruriyatga asoslanib erkin faoliyat ko'rsatayotgan insonda bir vaqtning o'zida, uning xulq-atvori, xatti-harakati uchun jamiyat oldidagi mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish mumkin. Mas'uliyat ijtimoiy ongning qay darajada rivojlanganligi, ijtimoiy munosabatlar holati, jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan ijtimoiy institutlar, jamoat tashkilotlarining ishi bilan bog'liq. Xuddi shuning uchun ham, mamlakatimizda insonparvar, demokratik jamiyat qurilayotgan hozirgi sharoitda inson erkinligi va mas'uliyatini uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda¹.

Shaxs – ijtimoiy – tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy – tarixiy faoliyat mahsuli, ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida muayyan erkinlikka tayanar ekan, ana shu erkinlikni o'zida ham shaxsiy, ham ijtimoiy mas'uliyatni his qilib yashamog'i zarur.

Shaxsning erkinligi, o'z navbatida, uning o'zi yashayotgan jamiyat a'zolari oldidagi burchi va mas'uliyatini seza bilish tuyg'usi bilan ham bog'liq.

“Mas'uliyat” keng qamrovli tushuncha bo'lib, u falsafiy kategoriya sifatida ijtimoiy voqelikda inson hatti-harakatlarini anglagan holatda amalga oshirishini anglatadi. Falsafada bu tushuncha shaxsni jamiyatning ma'naviy axloqiy talablarini bajarishi nuqtai-nazaridan ta'rif va tasnif etiladi.

Mas'uliyatga aniq munosabatlar bilan yondashish kerak va bunda huquq va majburiyatlarning mushtarak birligidan kelib chiqish lozim bo'lib, individ yoki odamlar guruhi ijtimoiy aloqalar tizimida qanday o'rin egallashini ham hisobga olish zarur. Individlarning ijtimoiy vakolatlari va

¹ Qarang: Choriyev A. Inson falsafasi - mustaqil shaxs. II. –T.: Chinor , 2002. - 248 b.

real imkoniyatlari qanchalik keng bo'lsa, ularning mas'uliyat darajasi shu qadar yuqoridir. Mas'uliyat oxir-oqibatda insonning real axloqiy erkinligi haqidagi masala bo'lib, shaxsning barcha xususiyatlari uyg'unlikda rivojlangan holdagina to'liq amalga oshadi.

Ijtimoiy mas'uliyat esa, shaxsning xulq – atvorida namoyon bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlar va ularning bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

“Ijtimoiy mas'uliyat deganda shaxsning ijtimoiy munosabatlardagi faolligi va ratsional faoliyatini belgilab beruvchi axloqiy omil tushuniladi”¹. Ijtimoiy mas'uliyat deganda o'z mohiyatiga ko'ra muayyan shaxsning oila, millat, davlat, jamiyat oldidagi burchi, vazifalarini anglash asosida yuzaga keladigan, ijtimoiy falsafiy, ma'naviy axloqiy, ruhiy-emotsional tuyg'ular mushtarakligi tushunilishini ta'kidlash joiz. Shuning uchun ham ijtimoiy mas'uliyat shaxs ma'naviy-axloqiy fazilatlarning barcha tomonlarini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy mas'uliyat bu jamoada mavjud axloqiy talablarni inson o'z faoliyati davomida erkin bajarishi, vazifadorligini yoki aybdorligini ratsional his qilishi demakdir.

Ijtimoiy mas'uliyat – shaxsdan boshlab, davlat va jamiyat qurilishi va uni boshqaruviga tomon tizim sifatida ierarxik tarzda tavsiflanadi.

Ma'naviy-axloqiy fazilatlarning shaxs fe'l-atvori muayyan hodisalarga munosabat va unga nisbatan mas'uliyat bilan qarash tuyg'usini shakllanishi avvalo uning faoliyati, amaliy harakati asosida tarkib topishi ham aynan ijtimoiy mas'uliyat orqali namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy mas'uliyat xizmat, oilaviy, fuqarolik, jamoat va shaxsiy xizmatlarni bajarayotganda vujudga keladi. U shaxsning xulq-atvori, jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlar va ularning bajarilishi uchun javob beradi. Bu jarayon quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, shaxs ma'naviy kamolotini davr va zamon talablari asosida ta'minlab borish orqali, eng avvalo, davlat va jamiyat qurilishida maqsadlilik va kasbiy yo'naltirganlik hamda istiqboldagi hayotini to'g'ri belgilashni aniq yo'naltirish mumkin bo'ladi;

Ikkinchidan, shaxs ma'naviy kamolotini to'g'ri shakllantirish oila, maktab, jamoada, ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish bilan belgilanadi;

¹ Парамонова И.М. Социальная ответственность как система // Известия СПбГЕТУ. Сер. "Гуманитарные и социальные экономические науки", 2000. т.Вип. 1.-С.16.

Uchinchidan, bugungi globallashuv jarayonida yoshlar o'rtasida ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada yuksaltirish, mafkuraviy immunitetni oqilona shakllantirish, ommaviy madaniyat ko'rinishlaridan, buzg'unchi va yot g'oyalar ta'siriga tushib qolmaslik chora-tadbirlaridan ogohlantirish, ularning ijtimoiy mas'uliyatlarini to'g'ri shakllantirish orqali amalga oshadi.

Shaxs ma'naviy kamolotida ma'naviy mas'uliyat masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi va u jamiyatda quyidagicha ko'rinishda tarkib topadi: ijtimoiy qatlamlarda; institutlar, tashkilotlar, uyushmalar, partiyalar; boshqaruv irearxiyasi; oila, maktab, mehnat jamoalari. Bu ketma-ketlik o'zining amal qilish doirasi tasnifida, mas'uliyat ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlarning in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, har bir bosqichda o'ziga xos tarzda ichki daraja ham mavjudki bu bilvosita shaxslararo, guruhlararo, davlat va jamiyatlararo munosabatlar tarzida namoyon bo'ladi. Shuningdek, har bir bosqichda o'z ifodasini topgan mas'uliyat darajasi uni tasniflovchi jihatlar shaxs ma'naviy faoliyati, uning turfa xususiyatlari bilan bir butunlikda kechadi. Demak, ijtimoiy mas'uliyat insoniyatning asosiy ma'naviy hayot mazmun-mohiyatini tashkil qiluvchi bosh omil hisoblanadi.

Shaxs erkinligi va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiruvchi omillar quyidagicha:

- axloqiy tushuncha va tamoyillar shaxsda erkinlik hamda mas'uliyatni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra haqiqiy erkin va mas'uliyatli shaxs o'z vijdoni da'vatiga monand yashaydi, bu yo'lda har qanday azoblardan va hatto o'limdan ham qo'rqmaydi;

- huquqiy jihatdan shaxs erkinligining ta'minlanishi va ijtimoiy mas'uliyatining oshib borishi yuksak darajadagi faoliyat mezoniga aylanadi;

- iqtisodiy jihatdan shakllantiriladigan erkinlik va ijtimoiy mas'uliyat esa insonning moddiy farovonligida muhim o'rinni egallaydi, shuningdek, uning mulkka bo'lgan munosabatini o'zgarishiga ham olib keladi;

- siyosiy erkinlik va ijtimoiy mas'uliyat esa, fuqarolarning o'z davlati oldidagi burch va javobgarligini anglab yetishlarida, shunga mos ravishda faoliyat olib borishlarida muhim ahamiyat kasb etadi;

- ma'naviy erkinlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish ham insonning turli doiradagi murakkab ruhiy faoliyati va zo'riqishlarini bartaraf etishda munosib o'rinni egallaydi;

- ijod erkinligi va ijtimoiy mas'uliyat esa, shaxs ijodiy qobiliyatining namoyon bo'lishida muhim mezon hisoblanadi. Zero, ijod o'zida erkinlik ruhini aks ettirgan va insonni dunyodagi majburlik, qullikdan xalos etadigan, uni o'zga olamga borliqni o'zgacha tushunishga olib keladigan jarayondir.

Shaxs erkinligi va ijtimoiy mas'uliyatining shakllantiruvchi mazkur omillar mustaqil holda biron bir ma'no-mazmun kasb etmaydi. Bundan ma'lum bo'ladiki, ular o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikgina muayyan ma'nodagi mukammallik kasb etadi.

Inson erkinligi va ijtimoiy mas'uliyatining uyg'unlashuvi ishlab chiqarish, tadbirkorlik faoliyatida, ijtimoiy munosabatlar, ajdodlar merosi, qadriyatlar, san'at va adabiyotga yangicha yondoshishlarida ham ko'zga tashlanadi.

Shaxs hayotining qadri, qimmatini uning o'tkinchiligi bilan belgilanadi. Hayot azaldan baxtiyorlik uchun ham, bebaxtlik uchun ham moslashtirilgan emas.

Demak, hayotning qanday bo'lishi har bir shaxsning o'z erkinligi va mas'uliyatini qanday his qilishi va unga qanday ma'no - mazmun baxsh etishiga bog'liqdir.

Shaxs hayotning ma'nosi ham bu fazilatlarni qanday tushunishi bilan belgilanadi.

Amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, jamiyatimiz fuqarolari va har bir shaxsning, mamlakatni modernizatsiya etishda, faol ishtirokini ta'minlash uslublarini takomillashtirish; shaxsning huquqiy saviyasi va madaniyatini muntazam takomillashtirib borishga erishish asosida ularda aniq hayotiy maslakga ega bo'lish va unga erishish uchun iroda erkinligini tarbiyalash; oila, maktab, ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda erkinlik tushunchasi uning mohiyati, shaxs erkinligining ijtimoiy mazmunini kishilar ongi va qalbiga singdirishni eng sodda mexanizmini yaratish; erkinlik, burch va mas'uliyat uyg'unligini ta'minlashning ma'naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlab borish; ishlab chiqarish va mehnatga munosabatda mas'uliyat va mas'uliyatsizlikni ijtimoiy oqibatlarini ilmiy

prognozlash va mehnatga ongli munosabatni tarbiyalash; milliy g'oya va istiqloq mafkurasini insonparvarlik tamoyillarini har bir shaxs ruhiyatiga singdirish, iqtisodiyot bilan ma'naviyatning huquqiy madaniyat bilan ma'rifat hamda mafkura bilan uyg'unligini ta'minlash orqali ularda mustahkam hayotiy pozitsiyani shakllantirish va takomillashtirib borishni talab etadi. Yuqoridagilarni hayotga tadbiq etish har tomonlama barkamol rivojlangan shaxsning dunyoqarashini yanada boyitishga ularda shaxs ma'naviy kamolotida erkinlik va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'unligini mohiyatan anglab yetishiga imkon beradi.

Umuman olganda, erkinlik tushunchasi o'zining namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlariga ko'ra turli murakkabliklarni qamrab oladi. Erkinlik, xususan shaxs erkinligi masalasi ijtimoiy falsafaning ham e'tiborli masalalaridandir. Biroq, uning asosida ko'proq huquqiy va iqtisodiy omillarni o'zaro uyg'un holda namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin.

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan shaxs erkinligi har bir davrda nisbiy ma'noda amal qiladi. Tanazzulga uchrayotgan jamiyatlarda turli zo'ravonlik, nohaqliklar tufayli shaxs erkinligining buzilishi, insonlarning qadr-qimmatini yo'qolib borishiga sabab bo'ladi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, shaxs erkinligi insonning vatan, xalq, jamiyat oldidagi insoniy burchlar, mas'uliyatlarini inkor qilmasligi lozim.

Chunonchi, shaxs erkinligidan ko'p foydalanuvchilar emas, balki vijdon, iymon, insof kabi burchlarni his qilganlarga haqiqiy insonlardir. Zero, burch va mas'uliyat shaxs erkinligini oqilona boshqarib turadi. Ya'ni o'z burchini, mas'uliyatini yaxshi bilgan odamlarning el, yurt oldida obro'yi, qadr-qimmatini ham oshib boradi, bunday shaxslarni xalq e'zozlaydi.

Shaxs erkinligini yuzaki, biryoqlama tushungan odamlar barcha ishlarda faqat o'z manfaatini o'ylab, boshqalarning haq-huquqlarini toptashga urinadi. Davlatning qonun orqali Inson haq-huquqlarini himoya qilishi fuqarolarning ilm olish, mehnat qilish, jamiyat hayotida yuz berayotgan voqea-hodisalar haqida erkin so'zlash, ijobiy yoki tanqidiy fikrni aytish, halol mehnat bilan topilgan mulkka egalik qilish huquqlaridan foydalanishga imkon beradi.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Erkinlik tushunchasiga ta'rif bering
2. Mutafakkirlarning erkinlik to'g'risida ta'riflarini tahlil qilib bering.
3. Erkinlik tushunchasining namoyon bo'lish shakllar nimalardan iborat?
4. Siyosiy va huquqiy erkinlikning bir biridan farqi nimalardan iborat?
5. Ma'naviy erkinlik nima?
6. Vijdon erkinligi masalasining taraqqiyot rivojidadagi o'rni?

10-MAVZU. IJTIMOY FALSAFADA IJTIMOY BARQARORLIK VA BEQARORLIK MEZONLARI

Reja:

1. Ijtimoiy barqarorlik – jamiyat moddiy farovonligini ta'minlash, barkamol inson shaxsini shakllantirish, ozod va obod vatan, erkin va farovon turmush sharoitlarini yaratishning muhim asosi.
2. Ijtimoiy beqarorlikning ijtimoiy ofatlarning paydo bo'lishiga, konfliktlarning keskinlashuviga olib kelishi.
3. Ijtimoiy beqarorlikning taraqqiyotga zidligi.

Tayanch tushunchalar: ijtimoiy barqarorlik, barkamol inson shaxsini shakllantirish, ijtimoiy beqarorlik, ijtimoiy beqarorlikning taraqqiyotga zidligi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, beqarorlik, xaos, tartibsizlik.

Ijtimoiy barqarorlik - jamiyat moddiy farovonligini ta'minlash, barkamol inson shaxsini shakllantirish, ozod va obod vatan, erkin va farovon turmush sharoitlarini yaratishning muhim asosi. Jamiyat rivojlanish dialektikasiga ko'ra har bir yangi tarixiy bosqichda o'ziga xos yangi qonuniyatlar va mayllar yuzaga keladi, amaldagi tizimga yangicha funksiyalar yuklanadi. Ushbu funksiyalar quyidagilarga xizmat qiladi:

- ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimda barqarorlik va ichki tartib, muvozanatni saqlash;
- jamiyatning bir butun yaxlit ijtimoiy tizim sifatida doimiy rivojlanib borishini ta'minlash;
- yaxlit ijtimoiy tizim qismlari o'rtasida ob'ektiv, zaruriy, muhim va har tomonlama qulay munosabatlar muhiti va tarkibini yaratish va saqlash;
- teng imkoniyatlar kayfiyatini rag'batlantirish;

- muayyan ijtimoiy tizimning tashqi tizimlar bilan munosabatlarida muvozanatni saqlash;

- yaxlit ijtimoiy tizimning ichki va tashqi xavfsizligini himoya qilish va h.k.

Jamiyat yaxlit bir ijtimoiy tizim ekanligi nazarda tutilsa, uning tarkibiy qismlari – ijtimoiy guruhlar, jamiyat a'zolari, davlat fuqarolaridir. Fuqarolarning turmushi jamiyat hayotini tashkil etadi, munosabatlaridagi sifat, manfaatlar doirasi va ularga erishish usullari, vositalari yoki jamiyat taraqqiyotiga yohud tanazzuliga olib keladi.

Jamiyatdagi har qanday o'zgarishlar inson ehtiyojlari doirasining kengayib borishi bilan bog'liq. Har bir ongli odam o'z oldiga muayyan maqsad qo'yadi, unga erishish uchun harakat qiladi. Buning uchun insonga tinchlik va osoyishtalik zarur bo'ladi. Shu kabi har qanday jamiyat ham o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, istiqbolda erishishi lozim bo'lgan maqsad va vazifalarni belgilaydi. Binobarin, jamiyat ham o'z oldiga qo'ygan vazifalarni ado etishi uchun tinchlikka, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi. Jamiyatning maqsad va muddaolari, reja va strategiyasi davlatning konstitutsiyasida, qonunlarida, ichki va tashqi siyosatida o'z ifodasini topadi.

Masalan, O'zbekiston jamiyati misolida olsak, 2017-yildan buyon har yil yakunlari va yangi yilga mo'ljallangan vazifalar bo'yicha Oliy Majlisda Prezident Murojaatnomasi o'qib eshittiriladi. Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish uchun Prezident Farmonida¹ jamiyatimiz hayotining barcha sohalarini yuksaklikka ko'tarish uchun 100 ta maqsad belgilangan.

Ma'lumki, ijtimoiy rivojlanish borasida xalqlar odatda ikki yo'ldan birini tanlashga haqli; bittasi – inqilobiy (revolyusion) yo'l, ikkinchisi tadrijiy (evolyusion) yo'l. Insoniyat tajribasi ijtimoiy rivojlanishning keskin inqilobiy o'zgarishlar yo'li nomaqbul va yaroqsiz ekanini, jamiyatning tadrijiy (evolyusion) taraqqiyoti barqaror, tabiiy rivojlanish yo'li ekanini ko'rsatdi. Jamiyat o'z oldiga qo'ygan vazifalarni ado etish uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi.

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022 yil 20 dekabr.//

Barqarorlik – jamiyatning tadrijiy ravishda, bosqichma-bosqich rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko‘rsatishi uchun yaratiladigan imkoniyatdir.

Bashariyat tarixi, jamiyat taraqqiyoti hech qachon qandaydir bir bo‘shliqda amalga oshmaydi, balki o‘tmish ajdodlarining mehnati, ma’naviy, ijodiy, intellektual faoliyatining umumlashtiruvchi natijasi sifatida sodir bo‘ladi. Ijtimoiy taraqqiyot negizida o‘z borlig‘i, erishgan marralaridan qoniqmaslik hissi yotadi. Mana shu qoniqmaslik tufayli yangi ehtiyojlar paydo bo‘laveradi.

Inson yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni bartaraf etishi, yangi kuch, g‘ayrat to‘plashi uchun sabr-toqatli bo‘lishi lozim. Buning uchun esa, ijtimoiy munosabatlar barqaror bo‘lishi darkor. Barqarorlik va sabr-toqatlikni o‘zining ijtimoiy borlig‘idan qoniqish bilan chalkashtirmaslik lozim. Barqarorlik va sabr-toqat rivojlanishning diskret, muvaqqat hodisasi, ehtiyojlarni takomillashtirishga, yuksaltirishga intilish esa, doimiy hodisadir.

Har qanday mamlakatda ham har bir avlod texnikada, texnologiyada, ishlab chiqarishda, farovonlik darajasida, ma’naviy madaniyatda olg‘a siljishga qulay sharoitga ega bo‘lavermaydi. Biroq barkamol avlod meros qilib oladigan ishlab chiqarish munosabatlari ishlab chiqarish kuchlarining o‘rishiga olib kelsa va o‘zi ham hech bo‘lmasa ushbu tuzum doirasida takomillashadigan bo‘lsa, yangi avlod ishlab chiqarishni, texnikani, texnologiyani, fanni, ta’limni, madaniyatni rivojlantirish masalalarini o‘zi muvaffaqiyatli hal etgan bo‘lardir. Bunda, aslida, inson muammosi, uning ehtiyojlarini qondirish, qobiliyatini namoyon etish, jismoniy, madaniy va intellektual jihatdan kamol topish, ijtimoiy hayotning turli sohalarida faol ishtirok etish uchun sharoit yaratish muammosi global nuqtai nazardan diqqat markazida turadi. Turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarning tarixiy ustuvorliklari ko‘p jihatdan ularda aynan shu masalalar qanchalik muvaffaqiyatli hal etilayotgani bilan belgilanadi.

XX asrga kelib nafaqat ijtimoiy fanlarda, balki fanning boshqa sohalarida ham tadqiqot ob’ektini tizimli tarzda o‘rganish, ya’ni yaxlit olingan sistemaning xususiyatlarini, tarkibiy qismlari, ularning sifatlarini aniqlashga alohida e’tibor berildi. Yangi davrga kelib "mexanizm" tushunchasi olimlar e’tiborini tortdi. Buning sababi – mexanizm aniq kuch-

quvvat ta'sirida bir vaqtda faoliyat yurituvchi, bir-biriga bog'liq qism-elementlarning ichki harakatini yuzaga keltiruvchi majmua hisoblanadi. Buni jamiyat tuzilishiga ham tatbiq etsa bo'ladi. Chunki jamiyat ham o'zaro aloqador va bir biriga o'zaro ta'sir o'tkazuvchi elementlar – ijtimoiy institutlar, guruhlar, individumlardan iborat bo'lib, muayyan «quvvat» ta'sirida ichki harakat yuzaga keladi.

Keng qamrovli islohotlar amalga oshirilayotgan O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy hayotni ayni vaqtda murvati buralgan zalvorli yangi soatga o'xshatish mumkin: bu soatning hamma qismlari bor kuchi bilan ishlashga tayyor, yuqori darajadagi salohiyat va imkoniyatlarga ega, bu mexanizmning harakatlantiruvchi kuch manbalari ham mavjud, ammo barcha imkoniyatlarni to'la ishga tushirish uchun uning ehtiyoji nisbatan ko'proq quvvat talab qiladi.

Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik hukmron bo'lgan jamiyatda yuzaga keladigan barcha muammolar zo'rliksiz, kuch ishlatmasdan, muzokaralar, mashvaratlar, ma'lum darajada yon berishlar, bir-birlarini tushunishga intilishlar, konsensuslar orqali hal qilinadi. Bunday imkoniyat mamlakatlararo, millatlararo va shaxslararo munosabatlarga ham taalluqlidir.

Umuman, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ikki omil: ham ichki, ham tashqi omillar, ya'ni siyosat bilan belgilanadi. Barcha mamlakatlar bilan o'zaro tenglik, manfaatdorlik, kuch ishlatmaslik, tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligini tan olish, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalarini va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa normalariga asoslangan Yangi O'zbekistonning tashqi siyosati va uning samaradorligi tashqi omilni ifoda etadi.

Darhaqiqat, Prezident Shavkat Mirziyoyev «Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammiti: o'zaro bog'liqlikdagi dunyoda muloqot va hamkorlik» sarlavhali maqolasida ta'kidlanganidek, «Bunday murakkab sharoitda bir haqiqat aniq: hech bir mamlakat yolg'iz holda ushbu global xavf-xatarlarni chetlab o'tish yoki bartaraf etishga qodir emas»¹.

¹ Shavkat Mirziyoyev. «Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammiti: o'zaro bog'liqlikdagi dunyoda muloqot va hamkorlik». // <https://www.xabar.uz/siyosat/shanxay-hamkorlik-tashkilotining-samarqand-sammiti>

Barcha fuqarolar uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish uchun, ularning kundalik moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, mamlakatda tinchlik, millatlararo totuvlik, hamjihatlik o'rnatish uchun olib boriladigan faoliyat esa, mamlakat ichki siyosatning mohiyatini ko'rsatadi.

Iqtisodiy barqarorlik ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning asosini tashkil qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Binobarin, iqtisodiy islohotlar natijasida qo'lga kiritilgan asosiy yutuqlar, iqtisodiy rivojlanish darajalari ijtimoiy-siyosiy barqarorlik orqali o'zini namoyon etadi. Ya'ni, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik iqtisodiy islohotlarning asosiy mezonidir.

Jahon tajribasi shuni yaqqol isbotlaganki, har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti boshqaruv tizimining optimallik darajasini oshirilishi evaziga ta'minlanadi. Yangi O'zbekistonda ham bu masala izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Jumladan:

- hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda davlat instituti rolining keskin qisqarib borishi;

- davlat zimmasida uning faol ishtirokisiz amalga oshmaydigan strategik vazifalarni qolishi (makroiqtisodiy barqarorlik, islohotlar dasturlari va iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ijtimoiy soha, kommunikatsiya tizimida ustuvor dasturlarni amalga oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va hokazo);

- mamlakat darajasidagi vakolatlarning ayrim bir qismini hududiy boshqaruv organlariga o'tkazish.

Vazifalarning bunday tarzda taqsimlanishi, bir tomondan hududiy boshqaruv organlarining belgilangan vazifalarni bajarishda mas'uliyatini oshiradi (avvalo, bandlik, ijtimoiy rivojlanish va aholi turmush farovonligini yuksaltirishga taalluqlidir), ikkinchi tomondan, ularning samaradorligini kuchaytiradi, zero, hududlarning o'ziga xos jihatlari e'tiborga olinadi. Masalan, kam ta'minlangan oilalarga nafaqa to'lash vazifasining davlat boshqaruv organlaridan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazilishi xalqaro miqyosda e'tirof etilgan. Buning asosiy sababi – aynan muayyan hududda joylashgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari kim ijtimoiy yordamga ko'proq muhtojligini bilishidadir. Har bir sohada davlat tomonidan belgilab

berilgan aniq va samarali tizim va standartlar asosida ish tutish amaliyoti keng joriy etilmoqda.

Bugungi jamiyatimizda milliy mafkura shakllangan bo'lib, uning asoslarini komil inson bo'lish, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik tashkil qiladi. Mafkuraviy tarbiya izchil yo'lga qo'yildi va u milliy g'oyani "odamlar ongiga singdirish, zararli ma'naviy-mafkuraviy xurujlar, turli ko'rinishdagi tazyiqlarning oldini olishga qaratilgan uslub va vositalarni ishlab chiqish, amalga tatbiq etish va boshqarishga"¹ asoslanadi. Jamiyatimizda mafkuraviy barqarorlik ta'minlangan bo'lib, uning asosini tinchlik, taraqqiyot va farovonlik maqsadlari tashkil qiladi. Shu ma'noda, mafkuraviy madaniyat shaxsni milliy mafkuraga asosan mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashga safarbar qiladi. Bularning barchasi mafkuraviy madaniyatning tamoyillaridir.

Yangi O'zbekistonni yanada obod, farovon, xalqimizni – baxtli saodatli qilishdek muqaddas va keng vazifalarni bajarish, milliy tiklanishdan milliy yuksalishga va jadal taraqqiyotga erishish imkoniyatini beruvchi islohotlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi zamonda milliy va diniy bag'rikenglik dunyoda tinchlik va barqarorlikni asrash hamda diniy ekstremizm, fundamentalizm va aqidaparastlikka qarshi kurashni, butun jahon hamjamiyatining hamkorligini nazarda tutadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asnoda Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustivor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o'zining to'liq ifodasini topdi"². Shu tamoyilga asoslangan Yangi O'zbekiston turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylash, barcha fuqarolar o'z e'tiqodini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo

¹ Falsafa. Qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. – Toshkent: Sharq, 2004. – 249 b.

² Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2017, 1 tom, - 295 bet

hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o'rtasidagi qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Ko'p millatli Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikning ta'minlanishini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

birinchidan, demokratik talablar asosida boshqaruv tizimining isloh qilinishi natijasida davlat tashkilotlari qonunga tayanadigan, qonunni himoya qiladigan oliy nazorat tizimiga aylandi. Kuchli ijroiya hokimiyati vujudga kelishi, o'z navbatida jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash uchun shart-sharoit yaratdi. Bu borada mahalliy hokimiyatlar vakolatlarining kengayishi, o'zini o'zi boshqaruv tizimining shakllanishi, nodavlat tashkilotlar va jamoat birlashmalari faoliyatining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etdi;

ikkinchidan, xalqning o'z fikri, xohish-irodasi, maqsad va muddaolarini erkin, demokratik tarzda namoyon etish imkoniyatining yaratilishi, shuningdek, millatlararo munosabatlarda o'zaro hurmat va hamkorlikning yuzaga kelishi hal qiluvchi rol o'ynadi;

uchinchidan, bozor munosabatlariga o'tilishi hamda yangicha xo'jalik yuritish tizimi va yangicha iqtisodiy siyosat natijasida ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning erkinliklari, huquqlarining himoya qilinishi;

to'rtinchidan, globallasuv davrida, ya'ni iqtisodiy tanglik sharoitida aholini kuchli ijtimoiy himoya qilinishi natijasida moddiy turmush darajasining bir me'yorda ushlab turilishi;

beshinchidan, Yangi O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga har tomonlama faol integratsiyalashuvi, shuningdek, uning MDH va Markaziy Osiyo davlatlari bilan ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama iqtisodiy aloqalari. Mazkur harakatlar orqali eng avvalo mintaqada, shu bilan birga jahonda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Boshqaruvning ijtimoiy-falsafiy asoslari turli xil falsafiy konsepsiya, dunyoqarash, ta'limotlarga asoslanadi. Ularni bilish va hisobga olish boshqaruvning ijtimoiy-falsafiy asoslari to'g'risida rahbardagi bilim va

tajribani boyitadi, shu bilan birga boshqaruvni unumli tashkil etish yo‘llarini ham o‘rgatadi.¹

Hozirgi davrda plyuralizm ham ijtimoiy mezon sifatida, ham fikrlar xilma xilligining real namunasi sifatida rahbarlik faoliyatida ham keng qo‘llanilmoqda. Rahbar uchun, plyuralizm quyidagi metodologik yo‘nalish va yordamni beradi:

- fikrlar va dunyoqarashning xilma-xilligini e‘tirof etish hamda amaliy faoliyatda unga asoslanib ish olib borish;

- demokratiyaning xilma-xilligini, ular o‘rtasidagi umumiylik va farqni hisobga olish;

- urf-odat, an‘analarning madaniy meros va qadriyatlarning xilma-xilligini tan olish;

- maqsadlarning mushtarakligiga, murosaga (konsensusga) erishish yo‘llarini topishga harakat qilish va hokozalar.

Falsafiy ta‘limotlar: Pragmatizm (grekchada: pragma, praxis ish, faoliyat degan ma‘noni anglatadi) - Insonning mohiyati faoliyatida; Inson tafakkuri faoliyatga xizmat qilishi kerak (qadriyat); Tafakkur faoliyati vositasi sifatida qaraladi. (G.Pirs, D.Dyui, U.Djems); Ekzistensializm (eksistentia – mavjud bo‘lmoq ma‘nosini anglatadi) - Hayotning o‘zidan kelib chiqib, uni tushunishga harakat qilish (intellektni tan olmaydi); Mavjudlik falsafasi (Rossiya, Germaniya, Fransiyada XX asr boshida paydo bo‘lgan). (Bergson, Zimmel, Diltey, Keyzerlin...); Freydizm - Inson ongsizlik holatining asosi: inson ruhiy-psixologik holatini, tarixiy voqealar va ijtimoiy hodisalarni – axloq, san‘at, din, davlat, huquq, urushlarning sababini inson ruhiyatida deb biladi (Z.Freyd); Pozitivizm (O.Kant, J.Mill, G.Spenser); Neopozitivizm (L.Vitgenshteyn, M.Shmik, R.Karnal, G.Reyxenbax, B.Rassel, A.Aer va bosh.); Hayot falsafasi (F.Nisshe, V.Diltey, G.Zimmel, O.Shpengler, A.Bergson); Neotomizm (D.Merse, J.Mariten, E.Jilson); Xristianlik falsafasi – Teyyardizm (T. De Sharden); Ruhiiy tahlil maktabi (Z.Freyd, A.Adler, K.Yung, E.Fromm); Ekzistensializm asoschisi (Kerkegor) diniy yo‘nalishda (K.Yaspers), ateistik yo‘nalishda (M.Xaydeger J.P.Sartr, A.Kamyu); Germenevtika (F.Shleermaxer, V.Diltey, X.Gudumer); Strukturalizm (Levi-Stross,

¹ Filosofiya. Chast vtoraya. Osnovnie problemi filosofii. M., Yurist, 2000, str.45.

M.Fuko, J.Lakon, R.Bart); Sinergetika (G.Xaken, I.Prigojin) bo'lib, ularning qarashlarida boshqarish bilan bog'liq jihatlar mavjud.

Biz ikkinchi mavzu doirasida XX asrning oxirgi o'n yilligida tabiat fanlari yutuqlari asosida paydo bo'lgan fanlararo yangi yo'nalish – "Sinergetika" (yunoncha sinergos – o'zaro muvofiqlik (kelishuv) asosida faoliyatda bo'luvchi, birgalikda) – to'g'risida ma'lumot bergan edik. Sinergetika – ochiq chiziqsiz tizimning o'zini-o'zi tashkil etish jarayonlarining umumiy qonuniyatlarini o'rganadigan metod ekanini ham ta'kidlagan edik. Bunga qo'shimcha qilib, tabiatda tizim va o'z-o'zini tashkil etish sinergetika orqali quyidagi uzviy bog'liqlikni hisobga olishini qayd etmoqchimiz: masalan, mikrodunyo: elementar zarrachalar, atom yadrosi, atomlar, molekulalar; makrodunyo: Yerdagi tirik va jonsiz tabiat; megadunyo: Yer, sayyoralar, Quyosh tizimi, yulduzlar, Somon yo'li, galaktikalar tizimi – bularning bari koinotda ham o'z-o'zini tashkil etish bilan bog'liq ichki qonuniyatlarga asoslanadi.

Ochiq tizim tashqi muhit bilan doimiy aloqada bo'ladi va o'zaro almashib turadi. Jamiyatda ham ana shu holat sodir bo'ladi. Ushbu holatda o'z-o'zini tashkil etish mavjud bo'lib, u ichki sabablar bilan bog'lanadi va muayyan shart-sharoitda: muvozanat holatiga mos dinamik rejimda bo'ladi; tasodifiy chekinishlar ta'sirida hamda teng bo'lmagan holatlarda beqaror (tizim) bo'ladi. Bu holat – fluktuatsiya deb nomlanadi. Lotinchada "fluctuatio" – tebranish demakdir. Bu holat yaxlit tizimning u yoki bu tomonga o'zgarishiga, yangilanishiga olib keladi. (masalan, bozor munosabatlari; mustaqillik sharoitida jamiyat tizimining o'zgarishlari). Bu fanda "bifurkatsiya" deb ataladi. Lotinchada "bifurcus"- yangilanish ma'nosini beradi.

Jamiyatda ham tasodifiy chekinishlar, ajralishlar, bo'linishlar rivojlanishning chiziqsiz jarayonini yuzaga keltiradi. Jarayon rivojlanishi ko'pgina imkoniyatdagi tuzilishdan birini shakllantirishi mumkin. Shunday qilib, jamiyatda yangi barqaror (teng kuchli) tizim beqaror, teng kuchga ega bo'lmagan ijtimoiy holatdan ham tashkil topadi.

Beqarorlikdan – barqarorlik, xaosdan, tartibsiz harakatdan – tartib paydo bo'lishi mumkin, degan g'oya asoslanadi. Tizim o'zini-o'zi tashkil etadi. Bunda quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi: tasodif; chiziqsizlik,

ko'p variantli rivojlanish; o'z-o'zidan rivojlanish; tartiblilik va tartibsizlik; barqarorlik va beqarorlik.

Rivojlanish faqat zaruratga asoslanib qolmay, balki tasodiflarni ham tan oladi. Tartibsizlik, beqarorlik, kaos, sinergetika nuqtai nazaridan buzuvchi, qo'poruvchi omil emas, konstruktiv holatning boshlanishi, yangi murakkab tuzilmaning paydo bo'lishidir.

Sinergetika nuqtai nazaridan murakkab o'zini-o'zi tashkil etuvchi tizimlarni boshqarish, agar u o'z-o'zini tashkil etishi ichki jarayonlari bilan kelisha, muvofiq bo'lsa, foydalidir. Kelishilmagan va o'zaro muvofiq bo'lmagan holatda tizimga ta'sir etishlar kutilmagan oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan: insonning tabiatga ta'siri insoniyatning o'zini xavf ostida qoldirmoqda; tabiatni bo'ysundirish kerak emas, u bilan muvofiq yashash kerak; sotsial jarayonlarga; iqtisodga; siyosatga; madaniyatga ham, tizim osti va jamiyat yaxlit holda ham xuddi shunday bo'ladi.

Jamiyatda ham uning sohalarida ichki o'z-o'zini tashkil jarayonlari bir-biriga mos va muvofiq bo'lsa foydali bo'ladi.

Ijtimoiy beqarorlikning ijtimoiy ofatlarning paydo bo'lishiga, konfliktlarning keskinlashuviga olib kelishi. Ijtimoiy beqarorlikning taraqqiyotga zidligi. Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gurkirab rivojlanish bilan almashinib turadi. Jamiyatning ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarida muayyan yutuqlarga erishilgach, ijtimoiy imkoniyatlar ro'yobga chiqarilib bo'lgach, uning bundan keyingi taraqqiyot yo'lida yangi muammolar tug'iladi va ularni hal etish vazifasi paydo bo'ladi. Siyosiy tuzum kishilarni boshqarishning o'ziga xos yangi usullarini hayotga tadbiq etishi lozim bo'ladi.

Insoniyat tarixida jamiyat barqarorligini ta'minlashning monarxiyaga asoslangan totalitar va demokratik usullari tajribadan o'tgan. Beqarorlik ichki va tashqi jarayon va tahdidlar natijasida vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy tizimdan boshqa ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish davrida keskinlashishi mumkin.

Jamiyat barqarorligining izdan chiqishi quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- kishilar psixologiyasidagi salbiy o'zgarishlarda,
- jamiyatda qonunlarning ishlamasligida,

- ijtimoiy burchning ado etilmasligida,
- ijtimoiy ideallarning yo‘qolishida,
- g‘oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida,
- turli jinoiy guruhlarining paydo bo‘lishida,
- ijtimoiy adolat mezonlarining buzilishida,
- davlat idoralarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida,
- turli ziddiyatlarning keskinlashuvida.¹

Ma'lumki, jahon tajribasi har bir mamlakat va xalqning o'z taraqqiyot yo'lini tanlash huquqiga ega bo'lishi, umumiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash garovi ekanini ko'rsatdi. O'zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan keyin o'z milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyot yo'lini tanlash, rivojlanishning "o'zbek modeli"ni yaratish imkoniga ega bo'ldi. Taraqqiyotning o'zbek modeli – jamiyatning tadrijiy rivojlanishi konsepsiyasi sifatida butun insoniyatning ilg'or tajribasiga, xalqimizning milliy xususiyatlari va mentalitetiga tayanadi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va rahbarligida "Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi" tamoyiliga asosan yettita ustuvor yo'nalish ishlab chiqilda va izchil amalga oshirilmoqda "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ijtimoiy-falsafiy bilimlar rivojida muhim o'rin tutadi. Zotan bu hujjat Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslarini belgilab beradi, ularni tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan zamon talablari asosida jadal rivojlantirishning uchun ilmiy-nazariy, amaliy-konstruktiv zamin tayyorlaydi, taraqqiyotning yangi bosqichi uchun mo'ljallangan muhim dasturilamal hisoblanadi.

2017 yil 19 sentabr kuni Nyu-York shahrida BMT Bosh qarorgohida o'z ishini boshlangan Bosh Assambleyaning 72-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladı. U o'z nutqida BMTning global xavfsizlik va barqarorlikni saqlash, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etish, terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, uyushgan jinoyatchilik hamda bugungi kunning boshqa xavf va tahdidlariga qarshi kurashishda tutgan o'rnini alohida qayd etdi. Zero,

¹ Falsafa asoslari. O'quv qo'llanma – Toshkent, O'zbekiston, 2005 yil, - 286 bet

dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ushbu muammolarni bartaraf etishning ishonchli vositalarini, mukammal dasturlarini ishlab chiqishga xarakat qilinmoqda, katta miqdordagi mablag‘lar ajratilmoqda.

Bunday global xavfsizlik va barqarorlikni saqlash jarayoni ilm-fan, texnika taraqqiyoti bilan birgalikda inson ma’naviyatiga ham o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ayni shu mazmundagi, turli darajadagi muammolar kishilik jamiyati istiqboliga nisbatan tahdidlarga qarshi bo‘lgan yangicha tafakkur uslubi qadriyatlarini xolisona moddiy va ma’naviy taraqqiyot talablariga mos ravishda saralashni taqozo qiladi. Bu esa o‘z navbatida shaxslar, turli millat va din vakillari, madaniyatlar o‘rtasidagi barqaror muloqot ishtirokchi tomonlarining har biri uchun qimmatli bo‘lgan qadriyatlarni saralab olishga keng imkoniyat yaratmoqda. Bugungi murakkab globallashuv davrida ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma’naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratish talab qilinmoqda.

Keskin globallashuv asosan moddiy manfaat va ehtiyojlarni qondirishga intiladigan, o‘z maqsadlari yo‘lida har qanday g‘oyani qo‘llashga tayyor turgan shaxslarni yaratib bormoqda. Darhaqiqat, globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tezkorlik bilan kirib kelayotgani, har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi jahon miqyosida boshqa mintaqalar va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib borishi, biron bir mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini anglash qiyin emas. Chunki bunday globallashuv jarayoni ta’siri tufayli rivojlangan Sharq va G‘arb davlatlari ma’lum maqsadlar yo‘lida, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamkorlik yo‘lini tutmoqdalar. Bu esa, davlatlar, mintaqalar o‘rtasida integratsiya jarayonlarini kuchayishi, xalqaro munosabatlarni shakllanishi, ekologiyani buzilishi natijasida yuzaga kelgan tabiiy ofatlar mahsuli bo‘lmish talofatlar vaqtida o‘zaro ijtimoiy yordam ko‘rsatilishi yoki jahonshumul muammo sifatida qaralishi, ilm-fan yutuqlarini tezlik bilan dunyoning har bir yeriga yetib borishi va rivojlanishi, xavfsizliklarga birgalikda kurash olib borilishiga sabab bo‘lmoqda.

Insoniyat XXI asrning dastlabki choragida bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch kelmoqda. Urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm, odam savdosi kabi muammolar ana shular jumlasidandir. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari "O'zbekiston va butun Markaziy Osiyoda amalga oshirilayotgan rivojlanish jarayonlarida BMTni yanada faol ishtirok etishga, shuningdek, xavfsizlikni ta'minlash borasidagi mintaqaviy dolzarb masalalarni hal qilishda hamkorlikda ishlash muhim samara berishiga katta ishonch bildiraman", deb ta'kidladi. Markaziy Osiyo global jihatdan dunyodagi yetakchi davlatlar uchun hamisha muhim ahamiyat kasb etib kelgan bo'lsada, avvalgi tizimning yopiq tabiati bu mintaqqa bilan har qanday aloqa o'rnatishga imkon bermagan edi.

Uzoq yillar mobaynida xom ashyo bazasi bo'lib kelgan Markaziy Osiyo mintaqasi tabiiy zahiralari bo'yicha dunyodagi eng boy hududlardan biri hisoblanadi. Shu ma'noda, hozirgi vaqtda mintaqqa atrofida kechayotgan global jarayonlar, ayniqsa, etno-siyosiy va diniy omillarga alohida e'tibor berishni, ayrim hududlarda vujudga kelayotgan tahlikali vaziyatlar, ayniqsa tashqi kuchlar ushbu omillardan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Masalan, bir necha yillardan buyon mintaqada ekstremistik va fundamentalistik g'oyalarni tarqatish oqibatida ro'y bergan mudhish voqealar shundan dalolat beradi. Keyingi vaqtda xorijiy OAVda mintaqadagi millatlararo munosabatlarning xatarli jihatlari xususida chiqishlar kuchayib ketdi. Bu axborot xurujining asosan tashqi siyosiy kuchlarning buyurtmasi bilan amalga oshirilayotgani hamda mintaqadagi millatlararo munosabatlarni keskinlashtirishga yo'naltirilgani Markaziy Osiyodagi etnoglobal masalaga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi takomillashtirilmoqda. Ushbu muhim hujjatda tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va o'zaro ishonch ruhidagi aloqalarimizni yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonning asosiy xorijiy sheriklari hisoblangan Rossiya, Xitoy, Amerika Qo'shma Shtatlari, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston,

Pokiston, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa davlatlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli aloqalari yanada kengaymoqda. O'zbekiston Afg'onistonning yaqin qo'shnisi sifatida bu mamlakatda tezroq tinchlik va barqarorlik o'rnatilishidan manfaatdordir.

Globallashuv vositalari "ommaviy madaniyat"ni keng yoyilishiga imkoniyat yaratayotgan ayni bir paytda, ayniqsa dunyo yoshlarining soni ikki milliarddan oshib ketgani, xalqaro terrorizm va esktremizm shiddat bilan o'sib borayotganligi va ularning kelajagi uchun himoya zarurligi muhim masaladir. "Ommaviy madaniyat" o'zbek xalqining tafakkuriga, musiqasi, kiyinishi, o'zaro muomalasi, oilasi, oilaviy munosabatlariga, hatto orzulariga ham chang solmoqda.

Bizga qarshi ma'naviy qo'poruvchilik olib borayotgan mafkura poligonlari o'z maqsadiga erishish uchun ko'plab mablag' sarflab, eng zamonaviy usullarni qo'llagan holda, hamma vositalarni ishga solmoqda, yoshlarni o'ziga rom etadigan turli tomoshalar, ko'ngilochar ko'rsatuvlar, musiqiy kanallar tashkil etilmoqda. Bunday manbalar orqali buzg'unchi g'oyalar targ'ib etilib, oq-qoraning farqiga bormaydigan, ishonuvchan, ta'sirga beriluvchan yoshlarimizning tarbiyasiga ta'sir ko'rsatayapti.

Yoshlarimiz o'z dunyoqarashida milliy qadriyatlarga tayanmasa, ularning ongi va tafakkuridan mutloqo begona qadriyatlar joy oladi. O'zining milliy qadriyatlariga nisbatan bepisandlik bilan qarash shakllanadi. Yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatining bugungi holatini ratsional o'rganish, ularning amaliy faoliyatlarida ko'proq qaysi qadriyatlar ustivor bo'lib borayotganini aniqlashga yordam beradi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan sadoqatni mustahkamlashdan iboratdir.

Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik falokatlarning real xavfi, avvalo Orol dengizi qurishi, ichimlik suvi yetishmasligi, yer va suv resurslarining sifati yomonlashuvi bilan bog'liqdir. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Markaziy Osiyo mamlakatlarining har tomonlama manfaatlarini hisobga olmay turib suv resurs muammolarini hal etishning muqobil yechimi yo'q. O'zbekiston preventiv diplomatiya bo'yicha BMT Mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo

va Sirdaryo havzasida suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi konvensiyasini to'liq qo'llab-quvvatlaydi"¹.

Markaziy Osiyo davlatlarining global jarayonlar etno-siyosiy va mintaqaviy muammolar o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ayniqsa hozirgi kunda Afg'oniston hududida xalqaro terrorchi guruhlarining harakatlari avj olgani, harbiy va siyosiy xavfsizlikni o'zgartirayotgani, Markaziy Osiyo davlatlarining tinchligiga rahna solayotgani, ayniqsa Markaziy Osiyo davlatlari narko savdoning "ajralmas" tranzit yo'liga aylanayotganligi, mintaqa davlatlarining milliy xavfsizligi nuqtai nazaridan o'ta xavfli vaziyat, ya'ni mintaqa davlatlari hududining narkotik moddalari tranzit yo'ligina emas, balki uning iste'molchilariga aylanib qolishi xavfini kuchaytirmoqda.

Xullas, beqarorlik keltirib chiqarayotgan ofatlarga qarshi kurashda, yuqoridagi bir qator murakkab global va mintaqaviy muammolarni hal qilishda ko'p tomonlama xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni qayta yo'lga qo'yish eng oqilona yo'ldir.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Barqarorlik tushunchasini mazmun mohiyati to'g'risida gapirib bering.
2. Ijtimoiy siyosiy turg'unlik tushunchasi nima?
3. Insoniyat hayoti tarixida jamiyat barqarorligini ta'minlashning qanday usullari mavjud?
4. Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gullab yashnashi bilan almashib turishining o'ziga xos xususiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Beqarorlikning bir ijtimoiy siyosiy tuzumdan boshqa siyosiy tuzumga o'tish davrida keskinlashishining sababi nimada?
6. Jamiyatda beqarorlik qanday ziddiyatlarning keskinlashuvida o'z ifodasini topadi?

¹ <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/ozbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72-sessiyasida-nutq-sozladi.html>

11-MAVZU. IJTIMOIIY NORMALAR VA ULARNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Reja:

1. “Ijtimoiy normalar” tushunchasi va uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati.
2. Ijtimoiy normalarning turlari va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni.
3. Deviant xulq-atvorni oldini olishda ijtimoiy normalarning roli.
4. Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojida ijtimoiy normalarning ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: Ijtimoiy normalar, ijtimoiy normalarning turlari, deviant xulq-atvorni oldini olishda ijtimoiy normalarning roli, axloqiy, huquqiy, korporativ, diniy normalar, estetik normalar, til normalari.

“Ijtimoiy normalar” tushunchasi va uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati. Jamiyat hayotining turli sohalarini, insonlar faoliyati va munosabatlarini tartibga soluvchi me‘yorlar, ya‘ni xalqaro leksikonda norma deb qabul qilingan mezonlar hozirgi zamon falsafasining eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur muammo doirasida asosiy e‘tibor normativ tamoyillar va inson faoliyati mexanizmlarini ilmiy bilish, anglash yo‘llariga qaratilmoqda.

Normalar insonning maqsadlari va manfaatlarini ifodalaydi. Shuningdek, jamiyat manfaatlari va maqsadlariga mutanosib bo‘lishi zarur, ya‘ni normalarga shaxs va jamiyat manfaatlarini o‘zaro uyg‘unlashishi, har qanday sub‘ektivlikdan xalos etish, shaxsiy va umumiy manfaatlarni kelishtirish, shaxsning qadriyatli dunyoqarashi jamiyat qadriyatli dunyoqarashi tomon uyg‘unlashib, mujassamlashib boradi.

Shaxs jamiyatda yashar ekan, u ongli yoki ongsiz tarzda normalarga amal qilmasligi, uning oqibatida jamiyat manfaatlariga zid xatti-harakatlarni vujudga kelishini tushunishi zarur.

Normalar – bu, faqatgina, ba‘zi talqinlarga binoan va ayrim hayotiy vaziyatlarda kuzatilgani kabi, hukmron kuchlar irodasini bo‘ysunuvchilarga tiqishtirish emas. Ularning mazmuni va roli undan boyroq. Chunki, normalar salmoqli intellektual yuk tashuvchilari, tabiat, jamiyat va inson tabiatining rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy anglash mahsuli hisoblanadi. Shuningdek, ular jamiyat a‘zolarining asosiy qadriyatlarini tasdiqlaydigan, rag‘batlantiradigan va himoya qiladigan

emotsional quvvat hamdir. Ammo, normaning tartibga soluvchi funksiyasi ko‘proq uning axborot tashish, uzatish tabiati bilan bog‘liqdir.

Individ va guruhga nisbatan olib qaraganda, norma **mo‘ljalga yo‘naltirish, dasturlash va prognozlash** kabi uchta asosiy axborot funksiyalarini bajaradi. Ushbu funksiyalar maqsad va vositalarni tanlash, qaror qabul qilish va hatti-harakatni rejalashtirish, xulq-atvorning ob‘ektiv va sub‘ektiv oqibatlarini baholash va oldindan ko‘ra bilish imkonini beradi. Yanada aniq aytganda, norma:

- maqsadlar qo‘yish yoki oldingi maqsadlarni o‘zgartirishga imkon beradi;

- pozitiv maqsadlarga erishishning optimal shart-sharoitlari haqida xabar beradi;

- sub‘ektga avval ma‘lum bo‘lmagan xulq-atvor variantlari haqidagi ma‘lumotni o‘z ichiga oladi;

- turli sohalarda boshqa shaxslarning ehtimoliy xulq-atvorlari haqida axborot beradi;

- sub‘ektdagi turli hatti-harakatlarning ehtimoldagi pozitiv yoki negativ oqibatlari haqida xabar beradi;

- hatti-harakatga davlat, jamiyat yoki guruh tomonidan beriladigan bahoni o‘z ichiga oladi;

- imkoniyatdagi mas‘uliyat, uning xarakteri, ko‘lami va ehtimollik darajasi haqida axborot beradi.

Ko‘rinib turibdiki, normalar ko‘plab axborotlar va funksiyalarni o‘z ichiga oladi. Axborot nuqtai nazaridan olib qaraganda, norma sub‘ektga uning vaziyat, hatti-harakat, holat va mas‘uliyat bilan o‘zaro aloqasining tavsifini beradi. Shu ma‘noda, normaning axborot-qadriyatli aspektining ajratib olinishi, ularni “iroda”, “ta’sir” va “majburlash” kabi atamalarda ifoda etishdan ko‘ra samaraliroq bo‘ladi. Inson – o‘zi uchun maqsad va unga erishish vositalari hamda taqdirini tanlab olishga qodir ijtimoiy hayotning faol sub‘ektidir. Normalar esa, yuqorida keltirilgan funksiya va jihatlaridan qat’i nazar, konkret hatti-harakatni amalga oshirish yoki oshirmaslik uchun qarorlarga olib keladigan omillar zanjiridagi bir bo‘g‘in hisoblanadi.

Turli normalarni qiyoslagan holda ta’kidlash joizki, umuman olganda, norma bir vaqtning o‘zida mazmuniga taqiq, ijozat va yo‘l-yo‘riq

elementlarini mujassamlashtiradi. Har qanday jamiyatdagi odamlarning xulq-atvori, qoida tariqasida, inson hayotining barcha sohalarida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy e'tirof etilgan ijtimoiy normalarga mos keladi: uning mehnat faoliyati; ta'lim faoliyati va o'z-o'zini tarbiyalash; odamlarning kundalik hayotdagi munosabatlari, bo'sh vaqt va dam olish paytida, uning oila a'zolari, boshqa odamlar bilan aloqasi va boshqalar. Ushbu ijtimoiy normalar inson hatti-harakatlarining muayyan qoidalarini ifodalaydi, ularning buzilishi jamiyat tomonidan qoralanadi. Jamiyat ijtimoiy normalarni buzganlarga nisbatan turli xil ijtimoiy javobgarlik choralarini qo'llashi mumkin.

Insoniyat davlat paydo bo'lgunga qadar davrda, ya'ni ibtidoiy jamiyatda ijtimoiy normalar qadimiy urf-odatlar, tarixiy ravishda o'rnatilgan hatti-harakat qoidalarini bilan ifodalanar edi. Ular uzoq vaqt davomida takroriy foydalanish natijasida odat tusiga kirgan va tabiiy hayotiy ehtiyojga aylangan. Oila a'zolarining ishini, hayotini, oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi odamlar, ya'ni ular ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi bo'lib xizmat qilgan (ularning ko'plari bir vaqtning o'zida ibtidoiy axloq va din me'yorlari bog'liq bo'lgan marosimlar bilan singdirilgan).¹

Ijtimoiy normalar – bu shaxslar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi tartiblilikni, barqarorlikni va ijtimoiy o'zaro ta'sirning barqarorligini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan, odatda tan olingan qoidalar, xatti-harakatlar shakli va faoliyat standartlari. Muayyan bir jamoada ishlaydigan normalar to'plami ajralmas tizimni tashkil qiladi, uning turli elementlari bir-biriga bog'liq bo'ladi.²

Ijtimoiy normalar jamiyatda kishilarning xatti-harakatlarini, faoliyatlarini, ijtimoiy uyushtirish jarayonida, albatta jamiyatdagi mavjud qadriyatlarga tayanadi. Mazkur qadriyatlar maqsad va manfaatlarini umumlashgan, sintezlangan holda ifodalaydi, ijodiy faoliyatining samaradorligini, tabiat va ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatini tartibga keltiradi.

¹ Pozdnyakova U.S. — Ponyatiye, priznaki i formi deviantnogo i delinkventnogo povedeniya detey // Psixolog. – 2013. – № 10. – S. 5

² https://ru.wikipedia.org/wiki/Sotsialnaya_norma

Oddiy ko‘rinishda, jamiyat faoliyatining norasmiy munosabatlarida ham, munosabatlarning uyushqoqligini ta‘minlashda, kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichda tashkil etishda ham ijtimoiy normalar muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy normalar jamoa manfaatlarini ifodasi sifatida normalarning tashkiliy tuzilishi sistematik tarzda guruhlarga bo‘linib, kodeks va me‘yoriy, normativ xujjatlarda o‘z ifodasini topadi. Agar normalar shaxsga nisbatan **rag‘batlantiruvchi funksiyani** bajarsa, demak shaxs va jamoa manfaatlari bir-biriga mutanosib bo‘ladi. Agar, **taqiqlovchi funksiyani** bajarsa, demak shaxs va jamoa manfaatlari mutanosib emas, yoki qarama-qarshi xarakterda bo‘ladi.

Bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy normalarni tadqiq qilishga yangicha yondashuv talab etilmoqda, umumlashgan, differensial, rag‘batlantiruvchi, ijtimoiy normalarning ishlab chiqilishi, ularda shaxsning erkinligi, huquq va majburiyatlari to‘liq ifodalanishi va ularning me‘yoriy hujjatlarda aks etishi, jamiyatning barqaror izchil rivojlanishini ta‘minlaydi.

Barcha ijtimoiy normalarga xos bo‘lgan asosiy xususiyat – chegaralovchi, cheklovchi xarakterga ega ekanligidir. Ular ruxsat etilgan hatti-harakatlarning oralig‘ini belgilab, erkin harakat qilish chegaralarini o‘rnatadi va shuning bilan birga aktiv faoliyat uchun o‘zida uyg‘otuvchi, rag‘batlantiruvchi kuchni ifodalaydi. Shuning uchun ham, ijtimoiy normalar ijtimoiy munosabatlar tizimini tartibga soluvchi ta‘sir kuchiga egadir.

Ijtimoiy normalarni shakllantiradigan ob‘ektiv va sub‘ektiv omillar birligi juda muhim hisoblanadi. Bunda **ob‘ektiv omillar** qatoriga tarixan shakllangan milliy qadriyatlarning mavjudligi, xalqning ma‘naviy rivojlanish darajasi, ya‘ni zaruriyatni anglashi, mas‘uliyatni his qilishi, burchini anglashi kiritiladi. Ta‘lim, tarbiya tizimi va ularning modernizatsiyalashtirish imkoniyatlari, siyosiy va ijtimoiy institutlarning faoliyatlari (oilalar, mahalla, siyosiy partiyalar va boshqalar), ijtimoiy munosabatlarga kirishishdagi emotsional ruhiy holatlar **sub‘ektiv omillar** bo‘lib ta‘sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarni nazorat qiluvchi normalar ilmiy tadqiqoti yo‘lida katta yutuqlar qo‘lga kiritilishiga qaramasdan,

ularning jadal ravishda rivojlanmayotganligining sabablari, muammolarining hal qilish imkoniyatlari qonunchilikning asosiy yo‘nalishini tashkil qiladi. Shunga ko‘ra, ijtimoiy normalarni harakatga keltirish yo‘lida bajarilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalar ham mavjud. Ushbu **muhim vazifalar** qatoriga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy normalarni o‘rganishda, fuqarolarning boy axloqiy merosimizdan unumli foydalanib, huquqiy va siyosiy madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega;

- insonning qonuniy huquq, erkinligi va xavfsizligini ta‘minlashning ijtimoiy-falsafiy izohlab, yosh avlod tafakkuri madaniyatini yanada yuksaltirish lozim bo‘ladi;

- ijtimoiy normalarni harakatga keltirish va ular samaradorligini oshirishda ommaviy axborot vositalari faoliyatiga ham alohida e‘tibor berish zarur bo‘ladi;

- G‘arbning huquqiy tamoyilini Sharqning axloqiy tamoyili bilan uyg‘unlashtirish ijtimoiy normalarning zamonaviy jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin egallashini belgilab beradi.

Jamiyat hayotida ijtimoiy normalarni rivojlantirish faqatgina nazariy muammo bo‘libgina qolmay, balki amaliy ahamiyatga molik masalalardan bo‘lib, uni ijtimoiy-falsafiy tahlil etish olimlarimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligini barcha jamiyat vakillari anglab yetishi lozim.

Ijtimoiy normalar: guruh odatlari - bu kichik guruhlarning me‘yorlari, faqat kichik guruhlarda (oilalar, sport jamoalari, do‘stona kompaniyalar) mavjud bo‘ladi; umumiy qoidalar - bu katta guruhlarning me‘yorlari (umuman jamiyat). Bunda, har bir ijtimoiy guruhning o‘ziga xos urf-odatlari, xulq-atvor qoidalari, an‘analari mavjud bo‘ladi; ijtimoiy hatti-harakatlarning me‘yorliligi insonning umuman jamiyatdagi, ijtimoiy guruhdagi roli, funksiyalari bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu funksiyalar uning bunday guruhdagi maqomi bilan belgilanadi. Insonga, guruhga va jamiyatga singdirilgan ijtimoiy norma kutilgan hatti-harakatlarni belgilaydi.

Har bir odamda to‘g‘ri xulq-atvor to‘g‘risida stereotiplar shakllanadi.

Ijtimoiy normalarning vazifalari quyidagilar:

- shaxslarni guruhlarga, guruhlarni esa jamiyatga birlashtirish;
- ijtimoiylashuvning umumiy yo‘nalishini tartibga solish;

- deviant xatti-harakatlarni boshqarish;
- modellar, xulq-atvor standartlarini shakllantirish.

Ijtimoiy normalar yordamida bunga erishish uchun bir kishining boshqasiga yoki boshqa odamlarga nisbatan javobgarligini oshirish talab etiladi. Binobarin, ijtimoiy normalar guruhning, jamiyatning ijtimoiy munosabatlar tarmog'ini shakllantiradi. Ijtimoiy normalar – bu kichik guruh, katta guruh va umuman jamiyatning umid-istaklari desak ham bo'ladi. Ijtimoiy normalarga rioya qilgan har bir odam jamiyatda o'zini tuta bilishi kerak. Jamoat transporti yo'lovchilari ham bir qator qoidalarga amal qilishi kerak, chunki bu o'rinda ham o'zaro munosabatlar vujudga keladi. Norma buzilganda to'qnashuvlar va chalkashliklar yuzaga kelishi muqarrar. Binobarin, ijtimoiy me'yorlar harakat sub'ektlari motivlari, maqsadlari, yo'nalishini, harakatni, kutishni, baholashni va vositalarni o'z ichiga olgan ijtimoiy o'zaro ta'sir tizimining shakllanishini belgilaydi.

Ijtimoiy normalar o'zlarini namoyon qilish sifatiga qarab o'z funksiyalarini bajaradilar: xulq-atvor standartlari sifatida (qoidalar, talablar, vazifalar); xulq-atvorni tuzatish sifatida (stereotiplar, boshqa odamlarning reaksiyalari).

Ijtimoiy normalar universalidir. Ijtimoiy norma, har qanday hatti-harakat qoidasini belgilab, ma'lum bir shaxsgagina ta'sir qilmaydi, ayni paytda shunga o'xshash vaziyatdagi barcha odamlarga ta'sir qiladi. Ijtimoiy norma amalda hayotda ildiz otgan faoliyat turini yaxshilash, tuzatishga imkon yaratadi. Binobarin, sodir etilgan ishlar yozilmagan qonun, bitilmagan qoidaga aylanadi. Ijtimoiy norma har bir shaxsning ob'ektiv omillari bilan belgilanadigan maqsadga muvofiq faoliyatining shakllanishini belgilaydi. Ushbu omillar ijtimoiy normalarni "ob'ektiv vakolat" deb atashga imkon beradi. Ijtimoiy normalar, shuningdek, har bir inson o'zini ijtimoiy qoidalarga muvofiq harakat qilganda his qiladigan, lekin ularni e'tiborsiz qoldirishi mumkin bo'lgan inson hatti-harakatlarining nisbatan erkinligini nazarda tutadi. Shu bilan birga, shaxs o'zini tutish qoidalarini buzganda, u muayyan turdagi sanksiyalarni qo'llashga tayyor bo'lishi kerak, bu choralar qo'llanilishi, jamiyat shaxslarning ijtimoiy qoidalariga hurmat bilan munosabatini ta'minlaydi.

Ijtimoiy normalar yordamida jamiyat ma'lum ijtimoiy funksiyalar bajarilishini ta'minlashga intiladi. Ushbu funksiyalar jamoatchilik

manfaatiga mos tushadi. Biroq, bu ijtimoiy ma'noda, ijtimoiy normalar yordamida, avvalambor, jamiyat rivojining ma'lum bir bosqichida, uning mavjudligini ta'minlaydigan ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun shaxslarning harakatlarini muvofiqlashtirishni ta'minlaydi.

Hozirgi paytda ijtimoiy normalar bir necha guruhlariga ajratib tahlil qilinadi. Bular:

- 1) urf-odatlar, marosimlar;
- 2) axloqiy me'yorlar;
- 3) huquqiy normalar;
- 4) korporativ (jamoat birlashmalari) normalari;
- 5) diniy normalar va h.k.

Ko'rinib turibdiki, ijtimoiy normalarning dastlabki beshta guruhi, garchi ular jamiyatdagi odamlarning hatti-harakatlarini tartibga solish uchun muhim bo'lsa-da, faqat ommaviy ta'sir choralari bilan amalga oshirilishi va kuzatilishi kafolatlanadi.

Ijtimoiy normalarning turlari va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. Ijtimoiy normalarning turlari bir necha xil va ular o'z xususiyatidan kelib chiqib muayyan funksiyalarni bajaradi. Xususan:

Urf-odatlar – bu jamiyatda takrorlash natijasida shakllangan xulq-atvor qoidalaridir. Ko'pgina urf-odatlar ibtidoiy davrda, ularning bajarilishi inson uchun hayotiy zarurat bo'lganida paydo bo'lgan. Masalan, mehmondo'stlik odati odamlarga oziq-ovqat va boshpana olishlariga imkon berish orqali umumiy yashashni qo'llab-quvvatlagan. Jamiyat rivojlanishi bilan ba'zi urf-odatlar yangilariga yo'l berib o'zi yo'qolib ketgan, boshqalari bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Marosimlar – bular urf-odatlarining o'ziga xos turi bo'lib, ijro etilishi qat'iy shaklni olgan hatti-harakatlardir. Ular ham juda qadimgi davrlarda paydo bo'lgan va aksariyati haligacha xalq madaniyatida saqlanib kelmoqda. Ilmiy tilda ularning amal qilishi ritualizm deb ataladi va bu holat hozirgi zamon madaniyat uchun ham begona emas. Buning yorqin misoli sifatida tug'ilgan kuni nishonlanayotgan bolaning tort ustiga qo'yilgan shamlarni puflab o'chirishini keltirish mumkin.

An'analar, urf-odatlardan farqli o'laroq, jamiyatda o'z-o'zidan paydo bo'lishi mumkin. Ular amalga oshirilgandan so'ng, takrorlash

natijasida ijtimoiy normaga aylanadi. An'analar ijtimoiy qadriyatlarni saqlagan holda avloddan avlodga meros bo'lib o'tishi mumkin. Jumladan, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan har qanday ijtimoiy, moddiy, ma'naviy narsa yoki hodisa o'tmishda ijtimoiy ahamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak avlod istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo'lgani sababli an'anaga, qadriyatga aylanadi. Jamiyat a'zolarining aksariyati tomonidan bajariladigan urf-odatlar uning madaniyatiga aylanadi.

Axloqiy me'yorlar – bu inson xulq-atvorining ijtimoiy qoidalari bo'lib, jamiyatning yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik haqidagi g'oyasini ifodalaydi. Jamiyat axloqi nafaqat odamlarning harakatlarini, balki ularning motivlarini ham baholaydi. Axloqiy qoidalarga rioya qilish jamoat ongining vakolati bilan ta'minlansa, ularning buzilishi jamiyat tomonidan qoralanadi.

Madaniyatli inson o'zining xatti-harakatlarini vijdon, sharaf, burch tuyg'usi va o'zini o'zi qadrlash kabi shaxsiy fazilatlari bilan baholaydi. Masalan, "axloqning oltin qoidasi" Konfutsiy ta'kidlab o'tganidek, o'zingga ravo ko'rmagan narsani boshqaga ham ravo ko'rma. Ushbu umuminsoniy axloqiy postulatni Alisher Navoiy quyidagicha ta'riflagan:

"Nekim o'z qoshingda erur noravo,
Ulusg'a oni ko'rma aslo ravo".

Axloqiy normalar – axloqiy ong va axloqiy amaliyotning tashkiliy-funksional xarakteristikasini ifodalaydi. Axloqiy normalarning ob'ekti ham, biz quyida tahlil qiladigan huquqiy normalarniki bilan bir xil, biroq ularning ta'siri insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga keltirishga qaratilgan bo'ladi. Bu ikki normativ tizimning xususiyatlari bir birlaridan nafaqat tartibga solish ob'ektlari bilan, balki uni amalga oshirish usullari bilan ham farq qiladilar.

Huquqiy normalar – ta'qiqlovchi, ruxsat etuvchi yoki majburlovchi xususiyatlar bilan xarakterlanadi va uni amalga oshirishda davlat hokimiyati organlari kuchiga tayaniladi.

Huquqiy normalar davlat tomonidan o'rnatiladi va uning vakolati va majburlov kuchi yordamida amalga oshiriladi. Qonunlar yoki boshqa qoidalar har doim yozma ravishda ifodalanadi. Ushbu qoidalar yordamida

barcha eng muhim ijtimoiy munosabatlar – siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqalar tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoidalari qonun ustuvorligining namunasidir.

Huquqiy normalarni buzgan shaxslar turli xil huquqiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Chunonchi, jinoiy, ma’muriy, intizomiy, fuqarolik, moddiy va boshqa javobgarlik turlari mavjud. Qonun ustuvorligida maxsus organlar tomonidan ijro etiladigan aniq belgilangan jazo tizimi mavjud. Bu huquqiy normalar va diniy ijtimoiy normalar o‘rtasidagi asosiy farqlardan biridir.

Ijtimoiy normalarning aksariyat turlari yozma manbalarda (hujjatlarda) konsolidatsiya shaklida rasmiylashtirilishini talab qilmaydi. Shu bilan birga, jamiyat va davlat uchun eng muhim ijtimoiy munosabatlar, odatda, yozma manba shaklida o‘rnatiladigan (moddiylashtirilgan) ijtimoiy normalarning maxsus turi - normativ-huquqiy hujjat sifatida huquq normalari bilan tartibga solinadi.

Axloqiy va huquqiy normalar munosabati: umumiylik va xususiylik. Axloqiy normalar ham ta’qiqlovchi, ham majburlovchi funksiyalarni bajaradi. Axloqiy normaning tuzilishi shundayki, u ta’qiq etilayotgan xatti-harakatning namunasi bo‘lishi mumkin yoki aksincha. Ta’qiq va namuna talab etilgan hatti-harakatlarining ikki tomoni, ruxsat etilgan yoki ruxsat etilmagan hatti-harakatlar o‘rtasidagi chegara deb, e’tirof etish mumkin. Huquqiy normalardan farq qilib, axloqiy normalar buyruq beruvchi shaklda bo‘lsa-da, majburlovchi kuchga ega emas, ularning harakatlantiruvchi kuchlari jamoatchilik fikriga va shuningdek insonlarning axloqiy munosabatlarini qanchalik darajada anglab yetganiga, binobarin, vijdoniga bog‘liq bo‘ladi.

Axloqiy normalar inson ongining motivlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Nima uchun huquq va axloq bir tartibga soluvchi ob’ektning bir biridan farq qiluvchi turli tomonlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi? Nima uchun huquq normasi o‘zining ta’sirini amalga oshirishda shaxsga tayanadi, axloqiy norma esa ongga asoslanadi? Mana shu savollarga javob topish uchun yurtimizda to‘plangan tajribaga murojaat qilish yetarli. Zero, bozor munosabatlari sharoitida, huquqiy demokratik davlat barpo etish jarayonida, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish bilan bog‘liq

muammolarning hal etishda shaxsning axloqiy yetuklik darajasi jamiyat barqarorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

“Fuqarolik jamiyati barpo etish, yurtdoshlarimizning erkinlik va tashabbuslarini, mamlakatimiz ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish kelgusida ham O‘zbekiston siyosiy tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi”.

Huquqiy va axloqiy normalar ijtimoiy ongning turli shakllariga mansub bo‘lsa-da, garchi ularning mazmuni bir biridan farq qilsa-da, ular birgalikda jamiyatdagi munosabatlarning izchil, barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Biroq, huquqiy va axloqiy normalarni diqqat bilan tahlil qiladigan bo‘lsak, axloqiy normalar huquqiy normalardan farq qilib, o‘z adresiga (aynan yo‘naltirilgan) ega emas, ya’ni, shaxssiz xarakterda bo‘ladi. Buning ma’nosi ular konkret individga emas, balki umuman jamoaga qaratilgan bo‘ladi. Shuning uchun ham axloqiy normalar umumiylik xususiyatiga ega bo‘ladi.

Axloqiy normalarning shaxssizlik xarakteri ularning sub’ektlari yo‘q ekan deb hisoblashga asos bo‘la olmaydi. Chunki har qanday axloqiy talab ma’lum sub’ektlardan kelib chiqadi, bu sub’ekt inson, guruh yoki jamiyat bo‘lishi mumkin.

Endi **sanksiya** haqida bir oz to‘xtalib o‘tsak. Sanksiya normalar orqali aniqlanmaydi, balki hayot shart-sharoitlari asosida vujudga keladi. Ular axloqiy ongning bir butun darajalarini aks ettirib, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va uning taraqqiyotini ta'minlash uchun shart-sharoit yaratib beradi. Ta’qiq va namunaning o‘zaro munosabati axloqiy talabning ikki tomoni hisoblanadi. Ijtimoiy ong va madaniyatning taraqqiyotida umumiy miqyosda ijobiy talablarning ahamiyati ortib borish tendensiyasini aytib o‘tish joiz. Biroq, bu tendensiya ta’qiqlovchi normalar rolini ortib borishini, hatti-harakatlardagi qat’iy chegaralarning kuchayishini xarakterlovchi jihatlarini umumiy taraqqiyot yo‘nalishidan og‘ishini istisno etmaydi. Bunday og‘ish jarayonlari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning inqirozi, ma’naviy madaniyatning pasayishi holatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Ideallar rag‘batlantiruvchi omil vazifasini bajarmay qo‘yadi. Bunday sharoitda huquqiy, ma’muriy chegaralanishga tayanish kuchayib boradi, axloqiy normalarda esa qat’iy talab qo‘yuvchi, erkin qarorlar qabul qilishga to‘sqinlik qiluvchi rejalar ilgari suriladi.

Yangi tipdagi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi jarayonida axloqiy normalarning roli ortib boradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ayniqsa, ichki, o'zini o'zi boshqarish hatti-harakatlarida ko'proq ijobiy, axloqiy talablarga asoslanishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Biroq, bu tashqi regulyatorlarning, ya'ni, huquqiy, ma'muriy va tashkiliy normativlarning insonlar xatti-harakatlariga ta'sirining susayishi hisobiga amalga oshmaydi. Hozircha shaxslar rivoji va maqomidagi tengsizlik saqlanib turar ekan, ijobiy normalardan turli xil og'ish (amal qilmaslik) holatlari saqlanar ekan, tashqi ta'sirlar, shu jumladan ta'qiqlovchi axloqiy normalar ham saqlanib qoladi.

Masalaning mohiyati shundan iboratki, axloqiy normalar strukturasi taraqqiyotida yetakchilik tendensiyasini to'g'ri aniqlab olish va uni hatti-harakatlarning normativ namunalarini axloqiy ongning g'oyaviy yo'nalishlari bilan uyg'unligini ta'minlash zarur.

Mas'uliyat ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxsning o'z o'rnini, o'z burchini anglashi va ma'naviy majburiyatini ifodalashi asosida paydo bo'ladi. Shunday ekan, zaruriyatni anglash, erkinlikni namoyon qilish, ularni reglamentlashtiruvchi ijtimoiy normalarga bo'lgan ehtiyoj vujudga keladi.

Har qanday jamiyatda shaxs ehtiyojlari bir tomondan, ikkinchi tomondan manfaatlari jamiyatning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Bu esa sub'ektiv omil sifatida ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda ijtimoiy normalarning roli ham muhimdir. Agarda, ularning rivojlanishiga konformizm hodisasi nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, salbiy holatlarga olib borishi mumkin.

Shuningdek, «takomillashgan, xalq manfaatiga xizmat qiladigan, uzoqni ko'zlab chiqarilgan qonunlar huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning eng muhim normativ asosi hisoblanadi. Jahon andozalariga mos keladigan, shu bilan birga, o'zbek xalqining mentaliteti, turmush tarzini ifodalaydigan milliy huquqiy tizimini shakllantirish bosh maqsadga erishish yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi».

Ijtimoiy normalarning (axloqiy, huquqiy, estetik, ekologik, siyosiy, diniy va h.k) O'zbekiston aholisining barcha qatlamlari uchun tushunarli, qisqa ifodalanishi uni harakatga keltiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy amaliyotda bu ijobiy samara berishi kuzatiladi. Xususan, qayd

qilish mumkinki, «...normani tuzishda xalqqa grammatik qurilmalardan foydalanilmasdan, gaplar uzundan uzun tuzilmasdan, fikrlarni ifodalashda o'ta aniqlik, qisqalik va mantiqiy izchillik kabi prinsiplarga rioya qilmasa, bu huquqiy norma o'ta mavhumlik kasb etadi. Natijada uni har kim o'zi bilganicha tushunib, turli nojo'ya harakatlarga sabab bo'ladi».

Quyida normaning xulq-atvorga ta'sir etishining eng umumiy yo'lini (asosiy funksiyalarini) qisqacha tahlil etamiz. Birinchisi – **baholash funksiyasi**. Norma doimo u yoki bu xulq, hatti-harakat, faoliyat namunasi, etalonining izohini o'z ichiga oladi. Ushbu namuna o'zida baholash xususiyatlarini ham mujassamlantiradi. Chunki, normani qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy birlik unda nazarda tutilgan hatti-harakatni foydali, zarur, ihtiyorga muvofiq deb biladi. Bunday baholar barcha ijtimoiy normalar tomonidan beriladi. Norma katta miqdordagi xususiy holatlar (qilmish, munosabat, voqea) ni umumlashtirib va sxemalashtirib, ularga xos bo'lgan umumiylikning modelini o'zida ifodalaydi.

Axborot funksiyasi ijtimoiy normaning asosini tashkil etadi. Ayniqsa, bu ma'naviy, diniy normalarda aniq namoyon bo'ladi. Huquq sohasida esa, qat'iy ravishda u yoki bu element so'zma-so'z qayd etiladi. Shu ma'noda, huquqlar ko'proq ixtisoslashgan normalar hisoblanadi. Zamonaviy sharoitlarda tobora to'g'ridan-to'g'ri qonun orqali ta'qiqlanmagan barcha narsalarga ruxsat etilgani haqidagi tamoyil mustahkamlanib bormoqda. Ta'kidlash kerakki, «qonunlarning eng asosiy ijtimoiy vazifasi – jamiyatda tartib-intizom va barqarorlikni ta'minlashdan iboratdir. Aslida qonun ijtimoiy tajribaning mujassamlashgan ifodasi, qayta-qayta takrorlanish oqibatida hayotdan o'rin olgan va umume'tirof etilgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy qoidalarda aks etilganligidir. Qonun chiqaruvchining maqsadi esa samarali qonunlar vositasida ijtimoiy munosabatlarni davlat va jamiyat manfaati nuqtai nazaridan muhimlik darajasini belgilash va tartibga solishdan iboratdir».

Normativ-tartibga solish funksiyasi. Bu haqda gap ketganda uni faqat individ erkinligini cheklash, unga kimningdir irodasini tiqishtirish, hatti-harakatlarini chegarada ushlab, ta'sir o'tkazish tarzida tushunmaslik zarur. Bularning barchasi muayyan ma'noda normalarga xos bo'lsa-da, ularning bosh xususiyati – bu, ijtimoiy munosabatlarni pozitiv tartibga solishdir. Mazkur funksiyaga to'g'ri baho bera olmaslik jamiyatning har

bir a'zosini potensial ravishda "norma buzuvchi" sifatida talqin etilishiga olib keladi. Aslida esa, bunday emas. Aksariyat pozitiv ijtimoiy dasturilamalga ega bo'lgan odamlar uchun ijtimoiy normalarga amal qilish jamiyat va davlat hayotiga kirib borish, o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda muhim omil hisoblanadi.

Xullas, ijtimoiy normalar individni yo'naltirgan holda, unga xulq-atvorning oqilona, optimal va ma'qullangan variantlarini taklif etadi. Shu orqali normalar kishilarning o'ylamay qilgan hatti-harakatlari oqibatidagi xaos va noratsionallikning oldini olishga imkon beradi. Demak, ular keng miqyosda barcha ijtimoiy munosabatlarni pozitiv, ijtimoiy foydali oqimga soladi. normalar axborot beradi, yo'naltiradi, tashkil etadi, ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtiradi.

Diniy normalar. Diniy xulq-atvor me'yorlari muqaddas kitoblarning (masalan, Injil yoki Qur'on) matnlarida belgilanadi va diniy jamoat tomonidan o'rnatiladi. Ularning aksariyati axloq va qonun normalariga to'g'ri keladigan me'yorlar bo'lib, ular marosimlar, urf-odatlar va an'analarni o'z ichiga olib, ular bilan chambarchas bog'lanib ketgan bo'ladi.

Teokratik davlatlarda dinning ko'rsatmalari huquqiy normalar vazifasini bajaradi. Demokratik davlatlarda fuqarolarga vijdon erkinligi beriladi, diniy me'yorlar dinga e'tiqod qiluvchilar shaxsiy hayotini tartibga soladi. Diniy me'yorlarga ibodatlar, marosimlar va boshqa xulq-atvor qoidalari kiradi. Ushbu me'yorlarga rioya qilish diniy jamoat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va me'yordan chetga chiqish esa gunoh hisoblanadi, oxiratda muqarrar jazoga tortiladi, deb tushuntiriladi.

Estetik normalar. Estetika me'yorlari jamiyatda qabul qilingan xunuklik va go'zallik g'oyalarni aks ettiradi. Ushbu me'yorlar nafaqat san'atga, balki inson tomonidan ishlab chiqarilgan barcha narsalarga (texnologiya, arxitektura va h.k.) tegishlidir. Bundan tashqari, ular insonning tashqi qiyofasini va kundalik hayotdagi xatti-harakatlarini tartibga soladi. Xususan, odob-axloq qoidalari va gigiena estetik me'yorlar bilan bog'liq. Har bir jamiyat rivojlanishning har bir bosqichida vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin bo'lgan o'ziga xos go'zallik g'oyalari bilan ajralib turadi.

Korporativ normalar. Korxonalar me'yorlarining shakllanishi sanoat davrida boshlangan va shu vaqtdan boshlab ular ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynagan. Ushbu ijtimoiy normalar jamoat tashkilotlari (sanoat korxonalari, kasaba uyushmalari, xayriya jamiyatlari va boshqalar) ishini, shuningdek ular a'zolarining huquqlari va majburiyatlarini tartibga soladi. Huquqiy me'yorlar singari, korporativ qoidalar ham yozma ravishda – tashkilotlarning nizomlarida mustahkamlangan. Muvofiqlikni kompaniyalarning o'zi nazorat qiladi.

Til normalari. Norma bir vaqtda ta'qiq, ijozat va yo'l-yo'riq elementlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ayniqsa, bu til normasida aniq namoyon bo'ladi. Til normalari so'zlovchi yoki yozuvchining muayyan gazeta, jurnal maqolalari, ilmiy asarlar, idoraviy rasmiy hujjatlar, ijtimoiy reklama va e'lonlar tilini tatbiq qilish faoliyati davomida yo'l qo'yadigan xatoliklari o'rtasidagi chegarani belgilab beruvchi normalar sanaladi. Nutq aniq, ravon, oson tushuniladigan bo'lishi zarur.

Tilning normasi so'zda vujudga kelib, matnda mustahkamlanadi. Biz bu o'rinda nafaqat tilshunoslar, balki til normalari barcha soha vakillari faoliyati uchun asos bo'lishi lozim, deb hisoblaymiz.

Til normalarini ijtimoiy falsafiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, u o'zining asosiy vazifasi bilan birga kishilarning xulq-atvorini boshqarish vazifasini ham ma'lum ma'noda bajaradi, ya'ni til siyosiy, iqtisodiy, estetik, huquqiy, axloqiy, diniy munosabatlarni boshqaradi. Olimlarning tadqiqoti asosida quyidagi xulosani berish mumkin: "Qonun xuddi alifbo, xuddi maktab darsligi kabi o'ta sodda va tushunarli bo'lishi kerak. Hozirgi ko'pgina qonunlar beso'naqay, katta, uzundan uzun tuzilganligi, tushunish va qo'llash qiyinligi bois amal qilinmayapti".

Qayd qilish mumkinki, normaning qisqa, tushunarli ifodalanishi ijrochilarning kuch va vaqtini ham tejaydi, shuningdek, me'yoriy hujjatlarning amaliyotda qo'llanilishi konkret asoslanadi, ularning turlicha shakllanishining oldi olinadi, ommada aniqlik va ravonlik asosida hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi shakllanadi, takomillashadi va zarur shart-sharoitlar yaratilib, targ'ib qilinadi.

Deviant xulq-atvorni oldini olishda ijtimoiy normalarning roli. Ijtimoiy hayot o'ziga xos umumiy qonuniyatlarga, inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy tartibotlarga, davlat qonunlariga, turmush

tamoyillariga muvofiq rivojlanadi, taraqqiy etadi, jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga qat'iy rioya qiladi. Ammo bu ijtimoiy me'yorlardan ham chetga chiqish, qonunlarga bo'ysinmaslik, huquqlarni buzish hollari ham jamiyatda uchray turadi. Ana shu holatlar bevosita ijtimoiy jamiyat qonunlariga, siyosiy boshqarishga, jamiyat umumiy qoida-qonunlarini o'zida mujassamlashtiradigan umumxalq irodasiga muvofiq harakatda bo'ladigan asosiy qonunlar majmuasi hukmron bo'lib, undan chetga chiqishlar jinoyat hisoblanadi va qoralanadi. Shu sababli jamiyatning huquqiy, qonuniy tartibotlari bevosita xalq urf-odatlarini, o'z istak-maqсадlariga muvofiqlashgan amaliy udumlari bilan uyg'unlashib ketadi va u turmushda, ijtimoiy hayotda amal qiladi va bu tartibotlarga rioya qilish ijtimoiy normalar deb ataladi.

Ana shu ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqishlik, ya'ni bu ijtimoiy normalarni buzish, ularga rioya qilmaslik, jinoyatga qo'l urib, shu yo'ldan borishlik holatlari – **deviant xulq-atvor** deb ataladi.

Deviant hatti-harakatlar (lotincha deviation - og'ish) – bu umumiy qabul qilingan, keng tarqalgan va yaxshi shakllangan ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqadigan beqaror shaxs xulq-atvori. Bunday xulq-atvor jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy axloq me'yorlaridan chetga chiqqan, bu me'yorlarga mos kelmaydigan insonlar faoliyati, xatti-harakati va boshqa ijtimoiy hodisalaridagi turli qiliqlari, munosabatlari, fikr-mulohazalari hisoblanib, bular jamiyat xulq-atvori va normalariga zid hisoblanadi. Bunday shaxslar yolg'onchi, dangasa, o'g'ri, bezori, "yozuvchi", hasadchi, baxil, giyohvand, tovlamachi, firibgar, iymonsiz, e'tiqodsiz, behayo, fohisha, orsiz, ginakash va shu kabi atamalar bilan nomlanadi.

Jamiyatning ijtimoiy me'yorlardan og'ish holatlari deviant xulq-atvorni o'rganishda muammoli vaziyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan va bo'ladi. Muammoli vaziyat shunday vaziyatki, u sub'ektdan muammoning yechimini talab qiladi, uning yechimi ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan bo'lsada, u yoki bu sabablarga ko'ra, ushbu me'yorlarni qo'llash qiyinroq bo'ladi.

Umuman olganda jamiyatda shaxs shakllanishi nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, bu jarayonga ta'sir etadigan holatlar va bu holatlarga muvofiq muammolar, bu muammolarni hal qilish imkoniyatlari ham

cheksiz va murakkabdir. Ushbu muammolarning hozirgi kunda to'rtta holati aniqlangan bo'lib, ular quyidagilar:

- jamiyatda shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi hech qanaqa muammo yo'q holat, bunda namoyon bo'ladigani shundan iboratki, bu holatda hech qanaqa qaror yo'q va qaror qabul qilish uchun ham talab yo'q, talab qilinmaydigan holat;

- shaxs shakllanishida muammo bor, biroq qiyinroq yoki osonroq bo'lsa-da, uning yechimi ham ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan holat bo'lib, muammoni hal qilish uslubi aniq bo'lgan holat;

- shaxs shakllanishida mavjud muammoni sub'ekt ijtimoiy me'yor doirasida hal qila olmaydi;

- shaxs shakllanishi jarayonida mavjud muammoni hech qanaqasiga hal qilib bo'lmaydigan holat (jumladan, tabiiy kamchilik bilan bino bo'lgan insonni normal to'laqonli insonga aylantirish, o'g'ilni qiz, yoki qizni o'g'ilga aylantirish mumkin bo'lmagan muammolar). Bu holatlar bevosita fanda, deviant xulq-atvor masalasiga jiddiy e'tibor beriladigan ijtimoiy me'yorlar doirasida o'rganiladigan holatlardir.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirishlar, o'z joniga, o'zgalar joniga qasd qiluvchilar va boshqa turlari bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va ularning ijtimoiy oqibatlariga ko'ra bir-biridan mohiyatan jiddiy farqlarga ega bo'lgan jinoyatlar hisoblanadi. Ammo bu jinoyatlarga ta'sir etish holatlarini ham, farqini ham ijtimoiy mohiyati jihatidan o'rganish talab etiladi.

Jumladan, bu deviant xulq-atvor turlarini bir-biridan ajratib turuvchi farqlardan biri u ham bo'lsa ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishi va bu deviant inson xulqiga, turmush tarzining uzviy bo'lagiga aylanib ketishidan iboratdir. Ulardan biri oilaviy kelishmovchilikning doimiy tus olishi, oila va atrof muhitdan norozilik, ish joyidagi tushunmovchiliklar, rahbariyatning ishchilarga, xodimlarga adolatsiz munosabatlarining uzluksiz davom etishi, qonunlarga rioya qilmaydigan, ko'proq rahbariyatga, amaldorlarga xos nohaqlik holatlarining doimiylikka aylanib borishi va hokazolar, bularning barchasi sub'ekt ruhiyatining buzilishiga, jamiyatdagi mavjud vaziyatdan qat'iy norozichiligiga sabab bo'ladi va bu jarayon sub'ekt uchun go'yo "abadiy"dek ko'rinadi va u

ya'ni sub'ekt bu vaziyatni, kuchi, imkoniyati bormi, yo'qmi uni o'zgartirishga harakat qiladi.

Agarda ana shu sub'ekt guruhga aylansa ijtimoiy tus oladi va unga qarshilik ko'rsatuvchi siyosiy boshqaruv bor imkoniyatini, himoya kuchlarini ishga soladi, hatto sub'ektni himoya qiluvchi ijtimoiy institutlar ham, hukumat kuchlariga murosaviy pozitsiyaga o'tadi, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, ziddiyatlar tobora kengayib, huquqiy, nazoratlar ham salbiy rol uynab, ijtimoiy norozilik adolatli hal bo'lmasdan "kuch" bilan bostiriladi va bu holat sub'ektda ijtimoiy norozi guruhda abadiydek his qilinadi, ijtimoiy norozilikni vujudga keltiradi. Bu ijtimoiy farq hisoblanadi.

Deviant xulq-atvor shakllanishining ikkinchi farqi esa yoki farqli jihati shundan iboratki, yuqoridagi holatlarni hal qilishning ma'lum qiyinchiliklari mavjud bo'lib, bu qiyinchiliklarni yengish uchun harakat qilinib, qanday holat bo'lishidan qat'iy nazar, ko'p qurbon berib bo'lsada, to'g'ri va tez yechimga erishish mumkin bo'ladi.

Ammo hamma ma'no shundaki, sub'ekt yoki guruh qancha qurbon bergan bera oladimi yoki yo'qmi undan qat'iy nazar: er-xotindan ajraladimi, eski tizim yangi tizimga aylanadimi, yomon, yoqmagan kasbdan yangisiga o'taboladimi yoki yo'qmi deviant vaziyati yuz beradi. Agarda bu vaziyat sub'ektning o'ziga taalluqli bo'lsa, bu vaziyatdan chiqish uchun qat'iyatlik yetishmasligi, ma'lum bir qat'iy qarorga kela olmay turgan sub'ekt "o'rinbosar" vositalarga murojaat qilaboshlaydi (bu jarayonda sub'ekt xarakteriga bog'liq) va ulardan foydalanishning turli yo'llarini axtara boshlaydi. Jumladan, sub'ekt uchun ana shunday "o'rinbosar" imkoniyatlar va vositalar bu ichimlik, giyohvandlik, qotillik, o'g'rilik, ig'vo-fisqfasod, buzg'unchilik, foxishalik va h.k.dan iborat vositalardan foydalanishga kirishadi. Bu yo'l ijtimoiy tus olib, ziddiyatning tobora chuqurlashuviga, turmush tarzining buzila borib zararlantiruvchi kuchga ega bo'lgan omilga aylana boradi.

Shunday qilib, deviant xulq-atvorning har qanday ko'rinishi qanday holatda bo'lishidan qat'iy nazar ijtimoiy normalarga zid zararli bo'lib, bu ziddiyatli zararlar shakllanishi va tobora kengayib borishida, bog'liqli sabablar mavjud bo'lib, zararli holatlarga olib kelgan sabablarni aniqlash lozim. Buning ma'nosi jamiyatdagi muammoli vaziyatdan chiqish,

muammoli holatni hal qilish sub'ektning individual maqsadlari bilan jamiyat manfaatlari bir-biriga mos kelishidir.

Jamiyatda deviant xulq-atvorga manba bo'la oladigan holatlar jahondagi boshqa xalqlarga nisbatan Markaziy Osiyo xalqlarida uzoq o'tmishda qadimdan oldin paydo bo'lgan bo'lib ijtimoiy me'yordan chetga chiqishlik, axloq-odobdan chekinish holatlariga qat'iy chek qo'yilgan, buzilishiga yo'l qo'yilmagan, harakatdagi qonundan ham ta'sirchan kuchga ham dunyoviy, ham diniy yo'l bilan, insonlar ruhiyatiga ta'sir etguvchi kuchga aylangan va hozir ham xalqimiz ana shu ijtimoiy me'yorlar doirasida yashamoqda. Istiqlol tufayli yanada ta'sirchan kuchga aylanib bormoqda.

Chunki ijtimoiy hayotda jamiyatda insonlar faoliyatini, hatti-harakatlarini, xulq-atvorlarini diniy, dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy me'yorlar boshqaradi. Ijtimoiy norma jamiyat boshqaruvining ajralmas ma'naviy, ruhiy va moddiy qismlaridan biri bo'lib, inson, shaxs yoki ijtimoiy guruh, qavm, elat xulq atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi, muvozanatini saqlab, tobora mustahkamlab boruvchi tamoyil, qoidalar majmuasidan iboratdir. Ijtimoiy normalarning bir necha turlarini biz yuqorida tahlil etib o'tdik.

Ijtimoiy normalar o'z-o'zidan yuzaga keladigan ma'naviy omil emas, balki vujudga kelgunga qadar bilim, ko'nikma, tajriba kabi omillar ta'sirida shakllanadi. Ularga asos vazifasini bajarib, jamiyatdagi kishilarning manfaatlari, ehtiyojlarini qondirish borasidagi faoliyatlarini nazorat qiladi. Demak, normalar harakatlanishi uchun muayyan maqsadlar taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak.

“Ammo maqsadlar va manfaatlarning turli tumanligi, ularning ayrimlari umumtaraqqiyotga xizmat qilsa, ayrimlari tor doiradagi maqsadlar va manfaatlarga xizmat qilib taraqqiyotga zid xarakterga ham ega bo'lishi mumkin... Shu ma'noda, uning yo'nalishi nimaga hamda kimlarga qaratilganligini aniqlash hamda mohiyat mazmunini bilish orqali, uni baholash asosiy mezon sifatida qarash lozim”.

Mana shu sharoitda normalar o'zini namoyon etadi. Alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy normalar inson ehtiyojlariga qarab o'zgarib, jamiyat hayotidagi funksiyalari takomillashib boradi. Tartib-qoidalar, qonunlar sharoit nuqtai nazaridan o'zgarishi mumkin, ayrimlarining esa,

zamonga moslashtirish talab qilinadi va ayni paytda jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun xizmat qilishi talab etiladi. Ularning hayotiy qudratga egaligi kishilarning moddiy va ma'naviy, intellektual faoliyatida nechog'lik ahamiyatga molik ekanligi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy normalarning afzalliklari shundaki, har bir inson yoshligidanoq o'tmish ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan muayyan me'yorlarga moslashtirib borilgan va shaxs darajasiga ko'tarilgan. Ana shunday shaxslar umumavlod tomonidan qabul qilinib, kelajakka meros sifatida qoldirilgan tamoyillarga muvofiq tarbiya berilgan va bu tamoyillar doirasidan chetga chiqarilmagan va boshqalardan ham, o'zidan keyingi avlodlardan shuni talab qilingan. Markaziy Osiyo xalqlari ana shu me'yorlarga qat'iy rioya qilgan, xalqimiz o'tmish ota-bobolariga, ular merosiga izzat-hurmatda, sadoqatda bo'lgan. Shu sababli bo'lsa kerak, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz degan da'vat ularning qalbida doimo aks sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin" – deb ta'kidlagan. Bu bilan Yurtboshimiz ijtimoiy normalarining asl manbaini ko'rsatib bergan.

Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojida ijtimoiy normalarning ahamiyati. Jamiyat taraqqiy etib borgan sari hayotda amal qilinib kelinayotgan normalar ham zamonasiga muvofiq o'zgarib, yangilanib, davrga moslashib, omma ongiga singib, amalda qo'llanila boradi, eskilari tarkibiga yangilari kirib, ijobiy me'yorlar tarkibi kengayib boradi.

Albatta, bu o'zgarishlar bevosita jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tizimlarini siyosiy jihatdan boshqarish amaliyotiga, qabul qilinayotgan qonunlarga ham bog'liq bo'ladi.

2016 yildan Shavkat Mirziyoyev mamlakat Prezidenti etib saylanishi bilan **"Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak"** tamoyili e'lon qilindi. Davlat boshqaruvi va xizmatini fuqarolik jamiyati talablariga moslashtirish uchun **"O'zbekistonda ma'muriy islohotlar konsepsiyasi"** qabul qilindi. Binobarin, yurtimizda fuqarolik jamiyati qurishning yangi bosqichi boshlandi. "Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va

erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarimizda nodavlat notijorat tashkilotlarning o‘rni va roli beqiyos ekanligini alohida ta’kidlash joiz. Hozirgi kunda yurtimizda 10 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlar mavjud, 29 ta xalqaro va xorijiy nohukumat tashkilotlarning filiali va vakolatxonalarini faoliyat ko‘rsatmoqda... ularni qo‘llab quvvatlashga qaratilgan alohida farmon va qarorlar qabul qilindi”.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida eng avvalo insonga oliy qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish, uning manfaatlarini islohatlarning asosiy mezonini tarzida tushunish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev alohida ta’kidlaganidek, “Yurtimizda uzoq yillar davomida “davlat – jamiyat – inson” tamoyiliga amal qilib kelindi. Davlat qurilishi va boshqaruvi, barcha siyosiy tuzilmalar, ularning ish uslubi va faoliyati ham ana shu tamoyil asosida shakllanadi.

Aslida esa, avvalo inson, uning haq-huquqlari va baxt-saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadi bo‘lishi lozim. Jamiyat qurilishi va davlat siyosati ana shu g‘oyaga tayanishi “davlat – inson uchun” tamoyili asosida tashkil etilishi darkor”¹.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil nashr etilgan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida alohida ta’kidlangan mazkur xulosaga amal qilish esa, siyosiy sohada va boshqaruv tizimining hozirgacha saqlanib kelayotgan yuqoridagi paradigmasini tubdan o‘zgartirish, insonni va uning manfaatlarini davlat siyosati va islohotlarning asosiy mezoniga aylantirish lozimligidan dalolat beradi. Bunday holda ushbu sohadagi asosiy paradigma “inson – jamiyat – davlat” shakliga aylandi va bu ayni bugungi hayot haqiqatini, hozirgi davr zaruriyatini aks ettiradi. Ya’ni, davlatning mavjudligidan asosiy maqsad – inson hayoti va jamiyat taraqqiyotiga doir siyosatni to‘g‘ri tashkil qilish, bu boradagi tizim va tuzilmalar faoliyatini xalq manfaatlari yo‘lida samarali tashkil etishdan iborat.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda ijtimoiy normalarni amalga oshirishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar bosqichma bosqich o‘tkazilmoqda.

¹ Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti, 2022. - bet 59.

Avvalo, Konstitutsiyamizda davlatning jamiyat oldidagi mas’ulligi mustahkamlab qo’yildi. Shuningdek, 2014-yil 16-aprelda qabul qilingan qonunga asosan Konstitutsiyamizning 32-moddasi jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga oid yangi norma bilan to’ldirildi. Asosiy Qonunda bunday normalarning aks etishi, jamoatchilik nazorati institutiga konstitutsiyaviy – huquqiy maqom berdi. Shu bilan birga, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga oid qonunchilik tizimi shakllanishiga zamin yaratdi. Shundan kelib chiqib 2018-yil 12-aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.¹

Hozirgi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat sharoitida jamiyat a’zolarining mazkur ijtimoiy me’yorlarga amal qilib yashashlarini doimo ijtimoiy tizimlarning o‘zgarishi yoki o‘zgarmasligiga bog‘liq bo‘lmagan holda nazorat qilib boruvchi jamoatchilik nazorati mavjuddir. Fuqarolik jamiyati sharoitida jamoatchilik nazorati deganda fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari tomonidan davlat hokimiyati organlarini qonunga amal qilishga majbur etish, ularning o‘z vazifalarini mas’uliyat bilan bajarishi va buning oqibati o‘laroq jamiyatda malakali va samarali boshqaruvni amalga oshirishi majburiy bo‘lishi darkor. Mazkur maqsadga erishmoq uchun davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlari faoliyati ustidan nazorat o‘rnatish va tekshiruv olib borish zarur.

Umumiy ma’noda jamoatchilik nazorati – bu jamiyatning alohida fuqarolari tomonidan hamda fuqarolik jamiyati institutlari vositasida davlat hokimiyati organlarining qonunlarga itoat etishi, o‘z qarorlarini qo‘llashi, shuningdek bu jarayonlar natijalarini baholash mexanizmidir.

Inson tarbiyasida, ijtimoiy normalar talabida tarbiyalashda eng muhim, eng birinchi ijtimoiy nazorat instituti – bu oila, faqat nikohli oiladir. Chunki farzand tarbiyasi beshikdan boshlanib, barkamol inson bo‘lib shakllanishida nikohli sog‘lom oila muhitining o‘rni benihoya kattadir va salohiyati cheksizdir. Har bir farzand inson bo‘lib, shaxsga aylanishining dastlabki manbai ota-onaga, oilaga maktabga bevosita bog‘liqdir. Chunki insondagi xulq-atvor, axloq-odobning dastlabki normalari oilada shakllanib, maktab, mahallada, jamoatchilik o‘rtasida

¹ O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati – Toshkent, Info, Kaptal Group, 2019 yil, 249 b

ta'lim-tarbiya tizimi faoliyati jarayonida takomillashadi, atrof-muhit ta'sirida yanada rivojlanadi, insoniy fazilatlari yanada takomillashadi. Shundagina biz ko'zlagan komil inson vujudga keladi.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. "Ijtimoiy normalar" tushunchasi va uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati to'g'risida gapirib bering.
2. Ijtimoiy normalarning vazifalari nimalardan iborat?
3. Axloqiy va huquqiy normalarning inson ma'naviy kamolotidagi o'rni nimalardan iborat?
4. Estetik normalar to'g'risida gapirib bering.
5. Til normalari deganda nimalarni tushunasiz?
6. Deviant xulq-atvorni oldini olishda ijtimoiy normalarning roli qanday?
7. Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojida ijtimoiy normalarning ahamiyati to'g'risida gapirib bering.

12-MAVZU. SIVILIZATSIYA, UNING MOHIYATI VA SHAKLLARI

Reja:

1. Sivilizatsiya tushunchasi. sivilizatsiya haqidagi falsafiy qarashlar.
2. Sivilizatsiya va madaniyatning o'zaro bog'liqligi va o'ziga xosligi.
3. Sharq va G'arb sivilizatsiyalari, ularning o'zaro ta'siri va o'ziga xosligi.
4. Jahon sivilizatsiyasi va regional sivilizatsiyalar.

Tayanch tushunchalar: sivilizatsiya tushunchasi, sivilizatsiya va madaniyatning o'zaro bog'liqligi, Sharq va G'arb sivilizatsiyalari, jahon sivilizatsiyasi, regional sivilizatsiyalar

Sivilizatsiya tushunchasi. Sivilizatsiya haqidagi falsafiy qarashlar. Ijtimoiy falsafaning so'nggi asr mobaynida juda dolzarb ahamiyat kasb etgan tushunchalaridan biri – sivilizatsiya kategoriyasidir. Ayniqsa, XX asrning 90-yillarida sobiq ittifoq parchalangach, S.Xantington "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" konsepsiyasini muhokamaga tashlagach, bu mavzuga qiziqish yanada ortti. Yana bir muhim jihat – insoniyat tarixida ikkita Uyg'onish davriga "beshik" bo'lgan, Uchinchi Renessansga poydevor qo'yayotgan yurtimiz olimlari, shu jumladan

bo'lajak mutaxassislar oldida "O'zbekiston sivilizatsiyasi" tushunchasini nazariy asoslash va jahonga tarannum etish vazifasi turibdi.

Sivilizatsiya so'zi lotincha bo'lib, u fuqarolik, grajdanlikka oid, shaharga xos degan ma'nolarni anglatadi. Sivilizatsiya tushunchasini dastlab shotland tarixchisi va faylasufi A.Fergyusson (1723 – 1816) jahon tarixiy jarayonining ma'lum bir bosqichini ifodalash uchun ishlatgan edi. Bu tushunchani fransuz ma'rifatparvarlari aql-idrok va adolatga asoslangan jamiyat degan ma'noda qo'llagan edilar. Fransuz ma'rifatparvarlaridan keyin ham sivilizatsiya tushunchasiga turlicha mazmun berish davom etdi. Ayrim olimlar uni madaniyatning, ba'zan faqat moddiy madaniyatning sinonimi sifatida ishlatdilar. Nemis faylasufi O.Shpengler, aksincha, uni madaniyatning antipodi (muqobili) ma'nosida, ya'ni madaniyatning halok bo'lish jarayoni, bosqichini xarakterlash uchun qo'lladi. Ingliz sotsiologi va tarixchisi A.Toynbi o'ziga xos va nisbatan yopiq bo'lgan jamiyatlarni ifodalash uchun sivilizatsiya tushunchasidan foydalandi.

«Sivilizatsiya» tushunchasiga yondashishda XIX asr boshlarigacha 3 xil qarash mavjud edi: sivilizatsiya – insoniyatning yagona, yaxlit progressiv rivojlanish ideali; sivilizatsiya – insoniyatning yagona, yaxlit progressiv rivojlanishining bir bosqichi; lokal-tarixiy sivilizatsiya yaxlitligi, etnoslarning yoki tarixiy, ijtimoiy uyushmalarining noyob va betakrorligini e'tirof etish.

F.Gizo sivilizatsiyaning etnotarixiy konsepsiyasini yaratdi. Uning fikricha, insoniyatning yagona progressiv rivojlanishi turli xalqlarning madaniy-realligi o'rtasida qarama-qarshilik va ziddiyat mavjud. Gizo lokal sivilizatsiyalar mavjudligini, shuningdek, yaxlit kishilik jamiyati progressi uchun ham sivilizatsiya g'oyasini qo'llash mumkinligini e'tirof etdi. Yevropa falsafiy-tarixiy tafakkurida progressning to'g'ri chiziq asosida borishi to'g'risida metodologik ta'limot yaratildi. Bu metodologiyaning mohiyati shundan iboratki, harakat qiladigan kuchlar ularning xususiy tomonlari, xolos. Jahon tarixi quyi holatdan yuqori rivojlangan va takomillashgan holatga o'tadigan jarayondir. Har bir xalq ana shu to'g'ri chizikli progress yo'lidan boradi.

Keyinchalik shu metodologiya asosida «tarixiy» va «notarixiy» xalqlar konsepsiyasi vujudga keldi: a) «ma'naviy rivojlanishning uch bosqichi» qonuni (oilal, fuqarolik jamiyati va davlat) - Gegel ta'limoti; b)

«tafakkur evolyusiyasining uch bosqichi» qonuni (teologiya, metafizika, pozitizm) - Kont nazariyasi; v) «ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya» nazariyasi - K.Marks ta'limoti shakllandi va keng yoyildi.

N.Danilevskiy «Rossiya va Yevropa» asarida (1869 yil) Rossiya sivilizatsiyasining tug'ilishi va rivojlanishi masalalarini tahlil qildi. U, birinchidan, insoniyatning «yaxlit sivilizatsiya sifatida yashashi» to'g'risidagi ta'limotini inkor etdi, ikkinchidan, tarixiy jarayonlarda faqatgina xalqlar va ularning betakror, o'ziga xos sivilizatsiyasi, «madaniy - tarixiy tiplar» mavjud, bo'lib, bu xususiyatlar boshqa xalqlarda shakllanmasligini, ularni o'zlashtirib bo'lmasligini, ular faqat shu xalqdagina mavjud ekanligini ko'rsatdi.

Madaniy - tarixiy tiplar bir-biri bilan uzluksiz kurashish jarayonida quyidagi davrlarni bosib o'tadi: etnik holatdan davlatchilikka; davlatchilikdan esa sivilizatsiyaga o'tadi; madaniy - tarixiy tiplar o'zgaradi.

N.Danilevskiy g'oyalari XX asrning 20-30 yillarida nemis faylasufi O.Shpengler tomonidan yanada rivojlantirildi. O.Shpengler «Yevropa quyoshining so'nishi» asarida G'arbiy Yevropa tarixiga xos yevropotsentrizm, panlogizm, istorizm, to'g'ri chizikli progressizm prinsiplarini tanqid qildi va madaniy-tarixiy jarayonning aylanma harakat nazariyasini yaratdi. Uning fikricha: jahon madaniyati turli-tuman bo'lib, sikilli rivojlanishdan iborat; turli-tuman madaniyatlar yetuklik jihatdan o'zaro teng va barobardir.

Jahon madaniy-rivojlanish jarayoni muqarrar ravishda quyidagi 3 bosqichni o'z ichiga oladi: a) yoshlik (mifologik, timsoliy, ilk madaniyat); b) gullab-yashnash, yuksalish (metafizik - diniy madaniyat); v) tushkunlik (qotib qolgan madaniyat).

O.Shpenglarning fikricha, tushkunlikka yuz o'giran va qotib qolgan madaniyat sivilizatsiyaga o'sib o'tadi. Shuning uchun sivilizatsiya hamma joyda bir xil sifat, belgi va xususiyatga ega bo'ladi: - yaxlit madaniy olamning organizm sifatida barham topishi uning o'lganligida ko'rinadi; - bu ilhomlantiruvchi, rivojlantiruvchi madaniyatning so'ngida o'z ifodasini topadi; - madaniyatning yo'qlikka qaytishi etnik tartibning buzilishi, ya'ni borliqqa qaytishi demakdir.

O.Shpengler, tarixiy jarayonning aylanma harakati, tarixiy «ritmi» (maromi) g'oyasini olg'a surdi: Bu nazariya sivilizatsiyaning sikilli rivojlanishi, ya'ni takrorlanib turishi haqidagi konsepsiyaga olib keldi.

A.Toynbi XX asr o'rtalarida yozgan ko'p jildli asarlarida sivilizatsiyaga sistema sifatida yondashdi va bu sistemaning elementlari, qismlari va bo'laklariga uzviy aloqadorlikda qaradi. Uning fikricha, sivilizatsiyalarning vujudga kelishi, xalqlarga nisbatan tabiat tomonidan («hosilsiz yerlar» va «siquv yo'llar» stimullari) yoki insoniy muhit («zarba» va «siquv») stimullari tomonidan qo'yilgan chaqiriqqa javobi hisoblanadi.

Hozirgi davrda sivilizatsiya tushunchasi quyidagi hodisalarni ifodalash uchun qo'llaniladi:

- ijtimoiy rivojlanishning yovvoyilik va varvarlikdan keyin keladigan bosqichini;

- umuman kishilik jamiyati rivojlanishining ma'lum bir bosqichini (masalan, neolit, kapitalistik, yoki hozirgi zamon sivilizatsiyasi);

- ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyani (masalan, quldorlik yoki kapitalistik sivilizatsiyalar);

- geografik jihatdan farqlanuvchi birliklarni (masalan, Yevropa, Osiyo yoki Yaqin Sharq sivilizatsiyasi);

- diniy mansubligi bilan farqlanuvchi madaniy birliklarni (xristian yoki islom sivilizatsiyasi);

- kelib chiqishi va planetar mansubligiga ko'ra ajratiluvchi birliklarni (masalan, yer sivilizatsiyasi va yerdan tashqari sivilizatsiyalar);

- etnik mansubligiga ko'ra farqlanuvchi ijtimoiy-madaniy birliklarni (masalan, arab yoki hind sivilizatsiyasi);

- makon va zamonda cheklangan jamiyatlarni (masalan, Qadimgi Misr yoki Vavilon sivilizatsiyasi) va h.k.

Hozirgi zamonda ijtimoiy fanlar o'z maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda sivilizatsiya tushunchasini yuqoridagi kabi turlicha mazmunni ifodalash uchun ishlatishni davom ettirmoqda. Sivilizatsiya tushunchasi mazmunini belgilashdagi bunday yondashuvlarning barchasiga bitta umumiylik xos – ular tarixiy jarayondagi ma'lum o'ziga xosliklarni ifodalab kelmoqda.

Har qanday ilmiy tushuncha ma'lum mazmuni ifodalagan holda muayyan ijtimoiy hodisa, jarayonni tushuntirishga xizmat qilmog'i, demakki metodologik ahamiyatga ega bo'lmog'i lozim. Aynan mana shu nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, sivilizatsiya tushunchasini yuqoridagi ma'nolarda ishlatishning hammasi ham to'g'ri emasligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Sivilizatsiya tushunchasini ijtimoiy rivojlanishning yovvoyilik va varvarlikdan keyin keladigan bosqichini ifodalash uchun ishlatish ma'lum ma'noda o'rinli. Chunki bunday ma'noda ishlatilganda, sivilizatsiya tushunchasi kishilik jamiyati rivojlanishining ibtidoiy tuzumdan keyingi davrdagi butun holatini to'laligicha qamrab oladi. Varvarlikdan sivilizatsiyaga o'tish hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralishi, tovar ishlab chiqarishning yuzaga kelishi, savdo-sotiqning paydo bo'lishi va uni kasb qilib olgan savdogarlar qatlamining shakllanishi, metall pulning muomalaga kiritilishi, yozuvning paydo bo'lishi, aqliy va jismoniy mehnatning bir-biridan ajralishi, siyosiy hokimiyatning qaror topishi kabi xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Bunday yondashuvda sivilizatsiya tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya tushunchasiga nisbatan kengroq mazmun kasb etadi. Jamiyatning formatsiyalarga bo'linishi sivilizatsiyaga ijtimoiy muayyanlik, tarixiy konkretlik bag'ishlaydi. Ammo, sivilizatsiya tushunchasiga bunday mazmun berilganda, ibtidoiy holatdan o'sib chiqqan jamiyatlar o'rtasidagi farqlar formatsiyaviy tafovutlargagina olib borib taqaladi. Formatsiya nazariyasi esa, varvarlikdan keyingi davrda ijtimoiy rivojlanishning xilma-xil kechganligini ham, hozirda dunyoning aksariyat mamlakatlari taraqqiyotning kapitalizm deb atalishi mumkin bo'lgan bosqichda turgan, yoki u tomon borayotgan paytda ham ular o'rtasida keskin farqlar mavjudligini tushuntirib berolmaydi.

Sivilizatsiya tushunchasi umuman kishilik jamiyati rivojlanishining ma'lum bir bosqichini, shuningdek, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyani ifodalash uchun ishlatilganda ham uning gnoseologik ahamiyati yo'qqa chiqadi. Chunki, birinchi holda, masalan, kapitalizmga bo'lgan sivilizatsiya deb ishlatilganda mohiyatan rivojlanishning turli bosqichlarida turgan xalqlar, mamlakatlar sun'iy tarzda birlashtirganligi uchun biror-bir ilmiy qimmatga ega bo'lmasa, ikkinchi holda esa sivilizatsiya ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya

tushunchasining sinonimiga aylanib qolib, o'zining mustaqil mazmunini yo'qotadi.

Sivilizatsiya ob'ektiv ijtimoiy hodisa bo'lib, odatda biron bir xalq, mintaqa, jamiyat, davlat va hatto butun jahonga nisbatan qo'llaniladi: sivilizatsiyaga erishgan xalq, Sharq sivilizatsiyasi, G'arb sivilizatsiyasi, sivilizatsiyali jamiyat, sivilizatsiyali davlat.

Sivilizatsiya tushunchasini geografik jihatdan farqlanuvchi birliklarni ifodalash uchun ishlatish esa o'rinsizdir. Masalan, Osiyo qit'asi hech qachon muayyan iqtisodiy, madaniy yaxlitlikni tashkil qilmagan. Hozir ham Osiyoda rivojlanishning turli darajalarida turgan xalqlar mavjud. Albatta, ma'lum geografik makonda yashash ijtimoiy-madaniy hayotda qandaydir o'xshash, umumiy tomonlarini keltirib chiqarishi tabiiy. Ammo, bu o'zining dini, tili, madaniyati, hayotiy tamoyillariga ko'ra bir-biridan farqlanuvchi turli xalqlarni mustahkam tarixiy birlik deb baholash uchun asos bo'la olmaydi.

Sivilizatsiya tushunchasi diniy mansubligiga ko'ra farqlanuvchi kishilar birligiga nisbatan ishlatilganda ham ilmiy tushuncha sifatida biror bir qimmatga ega bo'la olmaydi. Birinchidan, o'tmishda ham, hozir ham, na islom olami, na xristian dunyosi mustahkam bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etmagan. Ikkinchidan, yuqoridagi dinlarning har birining ichida turli oqimlar mavjudki, bu ularning mustahkam birlikni tashkil etmasligidan dalolat beradi. Uchinchidan, diniy mansublik muayyan iz qoldiradi, lekin hech qachon xalqlar hayotini to'laligicha belgilab bermasligini unutmash lozim.

Tahlil etilayotgan tushunchamizni «yer sivilizatsiyasi», «yerdan tashqari sivilizatsiyalar» shakllarida ishlatilishiga ham yuqoridagicha munosabat bildirish mumkin. Bir tomondan, sivilizatsiya tushunchasi bunday mazmunda ishlatilganda «tarix», «kishilik jamiyati» tushunchalarining sinonimiga aylanib qoladi. Boshqa tomondan, yerdan tashqaridagi sivilizatsiyalar va ularning xususiyatlarining noma'lumligi «yer sivilizatsiyasi» tushunchasini ishlatishning o'zini mantiqsiz qilib qo'yadi.

Sivilizatsiya tushunchasini aynan qanday o'ziga xoslikni ifodalash uchun qo'llash o'rinli ekanligi uni «ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya» va «madaniyat» tushunchalari bilan solishtirganda oydinlashadi.

Formatsiya tushunchasi jamiyatning o'zini yuzaga kelish va rivojlanish tarixiga ega bo'lgan bir butun ijtimoiy organizm sifatida qarash imkonini beradi. U jamiyatning umumiy, ichki, asosiy, takrorlanuvchan aloqa va munosabatlarini ochishga sharoit yaratadi. Formatsiya tarixni, jamiyatni hodisalar darajasida emas, balki mohiyat darajasida aks ettiradi.

Shuning uchun ham tarixni formatsiyalar darajasida bo'lish tarixiy jarayonlarning real kechishiga mos kelmasligi mumkin. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar tarixni ob'ektiv, zaruriy, qonuniyatli jarayon sifatida qaraydi va turli tasodifiy chekinishlarni nazardan soqit qilib, uning rivojlanish mantig'inigina aks ettiradi.

Shunday qilib ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar nazariyasidagi muhim tomon, bu rivojlanishning ob'ektiv qonunlari nuqtai nazaridan taraqqiyotning ma'lum bosqichida turgan mamlakatlarga xos bo'lgan umumiy tomonni topishdir.

Formatsiya tushunchasidan farqli o'laroq sivilizatsiya tushunchasi tarixning, jamiyatning sifatii o'ziga xosligini, u yoki bu mamlakat doirasida amal qiladigan, ishlab chiqarish kuchlari (texnologiya), inson faoliyati, madaniyati tomonidan belgilanadigan umumiy ijtimoiy qonuniyatlarning spesifikasini ifodalaydi.

Har qanday sivilizatsiya:

- 1) muayyan ijtimoiy ishlab chiqarish texnologiyasiga;
- 2) takrorlanmas madaniyati, qadriyati, falsafiy qarashlari, odob-axloq normalariga;
- 3) o'z hayotiy tamoyillariga ega bo'ladi.

Bularning barchasi sivilizatsiyani yaxlit birlik sifatida mavjud bo'lishi uchun imkon yaratadi. Bu sifatii xususiyatlarning yo'qolishi sivilizatsiyaning halok bo'lishiga olib keladi.

Yuqoridagi mulohazalardan xulosa qilib aytish mumkinki, sivilizatsiya tushunchasi muayyan xalq, mamlakat (jamiyat)ga, yoki uning rivojlanishining sifatii jihatdan farqlanuvchi ayrim bosqichlariga nisbatan ishlatilgandagina u aniq ilmiy mazmunga va binobarin metodologik ahamiyatga ega bo'ladi. Aynan etnik birliklar, mamlakatlar sivilizatsiyaning o'ziga xosligi, asosiy xarakteristikalarini o'zida yaqqol namoyon qiladi.

Jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida sivilizatsiya va madaniyatning o'zaro munosabatiga bo'lgan turlicha qarash va konsepsiyalar mavjuddir.

Sivilizatsiya va madaniyatning o'zaro bog'liqligi va o'ziga xosligi. sivilizatsiyaning mohiyatini tushunishda unga mansub bo'lgan madaniyatning rolini anglash muhimdir. Agar ishlab chiqarish kuchlari sivilizatsiyaning moddiy asosini tashkil qilsa, madaniyat ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi, uning qiyofasini, o'ziga xos rangini belgilab beradi, hatto ishlab chiqarish kuchlariga ham o'ziga xos xarakterlilik, ahamiyatlilik beradi. Bu bilan madaniyat ijtimoiy hayotning ijtimoiy tashkillashuvini, ya'ni sivilizatsiyaning shakllanishi, mavjud bo'lishi va rivojlanishini belgilab beruvchi o'ziga xos negiz vazifasini o'taydi.

Demak, sivilizatsiya madaniyatning konkret namoyon bo'lishini, uning real mavjud hayotini aks ettiradi. sivilizatsiyani madaniyatsiz, madaniyatni sivilizatsiyasiz, undan tashqarida mavjud bo'lishi mumkin emas. Chunki, inson ma'lum bir sivilizatsiya bag'rida o'tmish ajdodlari tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni o'zlashtirgan holda shakllanishi, kamol topishi mumkin.

Madaniyat – sivilizatsiyaning muhim bir elementidir. Adabiyotlarda sivilizatsiyaga sof moddiy hodisa deb qarash hollari ham uchraydi. Moddiy taraqqiyot o'sa borishi bilan kishilarning faoliyat sohalarida o'ziga xos o'xshashliklar va ma'lum qulayliklar paydo bo'ladi va ular to'planib «sivilizatsiya»ni tashkil etadi.

Sivilizatsiya butun bir xalq yoki millat, tarixiy davr va mamlakat tomonidan yaratiladi.

Sivilizatsiya tushunchasiga inson tomonidan yaratilgan predmetlar, hodisalar kiritilmoqda: moddiy boyliklar, transport vositalari; kasb-kor, ilmiy-tadqiqot o'tkazish usullari; ichki tartib, qoida, nizomlarni himoyalash usullari; insonlarning turmush tarzi; oziq-ovqatlarni is'temol qilish sifati, darajalari, me'yorlari; ehtiyojlarini ta'minlash me'yori va darajalari; sanoat, qishloq xo'jaligi, taqsimot, rivojlanish darajalari; kiyim-kechak ishlab chiqarish, kiyinish, orastalik, estetik did va boshqalar.

Fan taraqqiyoti, uning amaliyotga tatbiq etilishi, ta'lim-tarbiya tizimi va uni amalga oshirish usullari sivilizatsiya yutuqlari hisoblanadi. Xalqlar,

davlatlar, mintaqalar rivojlanishidagi o'ziga xos farqlar sivilizatsiyalararo tafovutlarni tashkil etadi.

Demak, sivilizatsiya ko'proq moddiy taraqqiyotdagi farqlarga tegishlidir. Madaniyat esa ma'naviy taraqqiyot sohasidagi tafovutlardan kelib chiqadi.

Sivilizatsiya va madaniyat o'rtasida o'zaro aloqadorlik, shuningdek, ular o'rtasida tafovut va ziddiyatlar bo'lishi ham mumkin. sivilizatsiya va madaniyat ayni bir vaqtda vujudga kelishi mumkin. Biroq ular bir tekis rivojlanmaydi.

Sivilizatsiya rivojlangan bo'lishi, lekin madaniyat qoloq ahvolda qolishi mumkin va aksincha. Ko'pgina davlatlar taraqqiyoti shundan guvohlik beradi. Masalan: Qadimgi Rim o'zining gullab-yashnagan davrida o'ta rivojlangan sivilizatsiyaga ega edi, ammo unda madaniyat kam taraqqiy etgan edi. Chunki uning san'at va falsafasi ma'lum bir hayotiy dunyoqarashdan ildiz otib chiqmagan edi, mavjudlari esa, biron bir dunyoqarashning ta'sirida rivojlangan edi.

Xristian dini vujudga kelishi bilan dastlabki davrlarda u sivilizatsiyaga biror narsa bera olmadi, ammo u dunyoga yuqori darajali madaniyat berdi. Bu madaniyat xristianlik dunyoqarashidan kelib chiqqan edi.

Rimlik aql-idrok egalarining faoliyat tarzi moddiylik talablariga bo'ysungan edi. Demak, Qadimgi Rim taraqqiy etgan sivilizatsiyaga misol bo'la oladi. Keyinchalik Rimda sivilizatsiya va madaniyat uyg'unlashdi, ya'ni xristianlik tufayli Rim ham sivilizatsiyaga, ham madaniyatga erishdi. Biroq sivilizatsiya madaniyatga bo'ysundirilgan, madaniyatga bo'lgan e'tibor kuchaygan edi.

Yevropa mamlakatlarida asosan jamiyatning moddiy tomoniga e'tibor kuchaytirilib, madaniyatni sivilizatsiyaga bo'ysundirishga harakat qilinayapti.

Madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lish inson faoliyatining ikki asosiy sohasi – moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liqdir. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohalarini va natijalarini o'z ichiga oladi. Moddiy madaniyatning muhim elementlari ishlab chiqarish, transport, aloqa vositalaridir. Moddiy madaniyatga uy-joy, kiyim-bosh, uy-ro'zg'or buyumlari, iste'mol

vositalari deb ataladigan hodisalar ham kiradi. Moddiy madaniyat yuqoridagi vositalarni yaratish va foydalanish sohasidagi faoliyat usulini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Aynan shunday faoliyat jarayonida insonning bilimi, tajribasi, kasbiy malakasi moddiy madaniyatning tarkibiy qismiga aylanadigan jismiy ko‘rinishga kiradi.

Ma’naviy madaniyat esa, ma’naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy ong shakllarini yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatning barcha sohalarini qamrab oladi.

Ma’naviy madaniyat namoyon bo‘lishining turli shakllari har xil tasavvurlar va g‘oyalar, nazariyalar va ta’limotlar, ilmiy bilimlar va san’at asarlari, axloqiy va huquqiy normalar, falsafiy, siyosiy qarashlar, mifologiya, din va hokazo ana shunday faoliyat natijasidir. Bundan ko‘rinib turibdiki, ma’naviy madaniyat ma’naviy faoliyat natijasi sifatida kelib chiqayotgan hodisalarnigina emas, balki, ularni yaratish jarayonida kishilar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni ifodalash uchun ham xizmat qiladi.

Har bir avlod madaniy rivojlanishini bo‘sh joydan emas, balki, o‘zidan oldingi ajdodlar yaratgan qadriyatlarni o‘zlashtirishdan boshlaydi. Boshqa tomondan, bu o‘zlashtirish o‘ziga xos bir «xomashyo», yangi qadriyatlar yaratish, madaniyatni yangi bosqichga ko‘tarish yo‘lidagi tayanch vazifasini o‘taydi. Agar mana shu ikki jarayon bo‘lmas ekan madaniyat rivojlanishi haqida gapirish mumkin emas. Ikki jarayon – eskilik bilan yangilik o‘rtasidagi ob’ektiv zaruriy bog‘lanish **vorislik** deb ataladi.

Insoniyatning tafakkur tarixidan yaxshi ma’lumki, taraqqiyotning ayrim davrlarida falsafa, madaniyat, ma’naviyat birlamchi, ustuvor o‘rinni egallagan. Lekin shuni alohida ta’kidlash joizki, madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarining o‘zagi bir xil emas: din ruhiyat, ma’naviy kamolot, ilohiyot bilan bog‘langan, sivilizatsiya esa insoniyatning mehnati, yaratuvchan faoliyati asosida vujudga kelgan ijtimoiy jarayondir.

Demak, sivilizatsiya va madaniyat turlicha tushunchalar va kategoriyalarga asoslanadi. Yahudiylarning muqaddas kitobi bo‘lgan Tavrotda ijtimoiy g‘oyalar va moddiylik birlashtirilib, yaxlit holda berilgan. Yahudiylar o‘z ta’limotlarida sivilizatsiya va madaniyatni bir-biri bilan bog‘lashga, qo‘shishga uringanlar.

Sivilizatsiya va madaniyatni bir-biri bilan bog'lash, qo'shishga bo'lgan urinish hinduizm va zardushtiylik dinlarida ham bo'lgan.

Lekin bu ikki sohani ayniylashtirish va bir xil hodisa deb qarash yaramaydi. Chunki sivilizatsiya va madaniyat bir-biridan o'z mohiyati va tuzilishi jihatidan keskin farq qiladi.

Sivilizatsiya tabiiy va sotsial-madaniy uyushmalarning yaxlitligi, xalq bunyodkorlik faoliyatining mahsuli hisoblanadi.

Bunda shu xalqning madaniyati, an'analari, udumlarining o'ziga xos xususiyatlari, yashash joylarining geografik va iqlim sharoitlari o'z ifodasini topadi.

Sivilizatsiya - millatlararo totuvlik, iqtisodiy aloqalar birligi (xo'jalik munosabatlari), tabiiy-geografik sharoitlar, madaniy va antropologik tomonlarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, bunda milliy til va madaniyat benihoya ahamiyatlidir. Chunki har qanday sivilizatsiyaning mohiyati va mazmuni ana shu tushuncha va belgilarga bog'liqdir. Lekin har qanday sivilizatsiya o'zaro aloqadorlik, o'zaro ta'sir asosida shakllanadi. Har qanday sivilizatsiya o'zining shakllanishida boshqa sivilizatsiyalarning yutuqlari va imkoniyatlaridan iloji boricha keng foydalanadi, ularni o'ziga singdirishga harakat qiladi.

Odatda yirik sivilizatsiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi sistemali ravishda o'rganiladi. Ya'ni sivilizatsiyani o'rganishga kompleks yondashish, inson va uning madaniyatini atroflicha o'rganish, shu xalqning madaniyati, faoliyat tarzi, hulq-atvori va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Sivilizatsiyaga xos xususiyatlar badiiy, madaniy, ma'naviy yodgorliklarda o'z ifodasini topadi.

O'zbekiston sivilizatsiyasi va madaniyati ancha boy va uzoq rivojlanish tarixiga egadir. U islom dini, madaniyati orqali Sharq mamlakatlari uchun xos bo'lgan umumiy madaniyat manbalari bilan uyg'unlashdi. Bu esa o'zbek sivilizatsiyasining sharqona asosini belgiladi. Ammo o'zbek sivilizatsiyasi o'ziga xos xususiyatlarining betakrorligi, noyobligi va milliyligini saqlab qoldi. O'zbek sivilizatsiyasi qator xususiyatlari bilan Markaziy Osiyo davlatlari va xalqlari bilan yaqindan hamkorlik qilish, yaxlit sivilizatsiyani yaratish imkoniyatini kuchaytirmoqda. Hozirgi davrda O'zbekiston sivilizatsiyasining yo'nalishi hamkorlik va birlikni mustahkamlashga, ayniqsa, Markaziy Osiyo

mamlakatlarida madaniyat, din va urf-odatlarini hisobga olib integratsiyalashuv jarayonini amalga oshirish, mintaqada sivilizatsiyalararo ziddiyatlar keskinlashuvining oldini olishga, madaniyat va qadriyatlarni o'rganish, avaylab-asrash, davrga moslashtirishga, mavjud sivilizatsiyalar o'rtasidagi umumiy tomonlarni topish, sivilizatsiyalarni sintezlashtirishga qaratilgandir.

Sivilizatsiya va texnika. Texnogen sivilizatsiyada til va kommunikatsiya dialektikasi. Inson ehtiyojini qondirishda lison (til), ma'naviyat, tafakkur qanchalik kerak bo'lsa, texnika ham shu qadar zaruriy ehtiyojga aylanib bormoqda. Biroq texnikaning yuksak imkoniyatlari turli mamlakat va xalqlar ijtimoiy-madaniy hayotida turlicha namoyon bo'lmoqda. Ya'ni u ba'zi mamlakatlarda turli sohalarni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa, boshqa bir o'rinda u turli ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga erishish vositasiga aylanib bormoqda. Shu ma'noda texnogen sivilizatsiya muammosi Sharq va G'arb faylasuf olimlari tomonidan murakkab fenomen sifatida talqin qilinmoqda. Bunda olimlar texnogen sivilizatsiyaning asosiy tushunchalari hisoblangan texnomuhit, texnika va texnologiyaga asosiy e'tiborni qaratmoqdalar.

Ijtimoiy xayot axborotsiz, muloqotsiz va kommunikatsiyalarsiz mavjud bo'la olmaydi. Axborot ijtimoiy va texnik taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi, bilishning muhim bo'g'ini hisoblanadi, xaqiqat bilan aniq va ko'pqirrali aloqalarni belgilab beradi. Bilish sub'ektidan mustaqil ravishda mavjud bo'lib, axborot bilish jarayonida namoyon bo'ladi. Olamning axborotlashgan surati kelajakka qaratilgan, moddani keyingi rivojini o'zga sayyora sivilizatsiyalari bilan muloqot orqali rivojlantirish istiqbollari qaratilgan. XX asrda ilm-fan va texnikani yutuqlari (masalan, raketa-koinot texnikasi, radio, televidenie, EHM, Internet) bunday aloqalarni amalga oshirish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda ommaviy kommunikatsiya va informatsiya vositalarining insonning shaxsiy hayotiga aralashishi, bunda matbuot, radio, televideniedan foydalanib, inson ongiga ko'rsatiladigan ta'sir, davlat hokimiyatining insonlar hayoti ustidan har tomonlama nazorati odamlar hayotining eng yaxshi ideallarini amalga oshishi haqidagi orzu-umidlarini shubhaga solib qo'ydi. Shu narsa aniqlandiki, uchinchi ming yillik

boshlarida jahon hamjamiyatining asosiy resurslari sanoat industrial va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining imkoniyatlari bilan emas, balki informatsion-kommunikatsiya texnologiyalar potentsiali bilan o‘lchanmoqda. Informatsion texnologiyalar tomonidan ta‘minlanadigan portlash havfi sayyora aholisining me‘yoridan ortib ketishi yoki atrof-muhitning ifloslanishidan kam emas. Bugungi kunda informatsion resurslar ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda yetakchi rol o‘ynay boshladi. Informatsiya va bilim iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ma‘nolarda umuminsoniy kapitalga aylandi. Informatsion texnologiyalar – hisoblash mashinalari va raqamli informatsiyani telekommunikatsiya tarmoqlari bo‘ylab uzatish usullarining sintezidir. Har qanday informatsion texnologiyalar asosida matn, tovush va vizual tasvirni raqamli shaklda namoyon qilish imkoniyati yotadi.

Hozirgi informatsiya asri jamiyat hayotining turli sohalarida bevosita o‘z ta‘sirini namoyon qilmoqda. Informatsion texnologiyalarning iqtisodga ta‘siri ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini takomillashtirishda aks etmoqda. Informatsion texnologiyalar tarixda, bilimlar yaratishda, ilmiy tadqiqotlar imkoniyatlarini kengaytirishda, modellashtirishda, tajriba ma‘lumotlarini tahlil qilishda va yangi bilim hosil qilishda foydali tarzda xizmat qilmoqda. Tez ishlovchi kompyuterlar va sun‘iy intellekt alohida ahamiyat kasb etmoqda. Global kommunikatsiyalar tarmog‘i eng muhim omil bo‘lmoqda. Ular Yerning sun‘iy yo‘ldoshlari, telefon kabellarining qit‘alararo va qit‘alar ichida tarmoqlangani, yangi elektron aloqalarining paydo bo‘lishi yagona xalqaro axborot tarmog‘i tizimini shakllantirdi. Har qanday informatsiyani Yer sharining istalgan nuqtasiga yorug‘lik tezligida uzatish mumkin bo‘lgan vaqt keldi.

Informatsion-kommunikatsion texnologiyalarning intensiv taraqqiy qilishi, globallasuvi va nomarkazlashuvi – bularning hammasi kelajakdagi yuqori texnologiyali jamiyatning belgilaridir. Internet (va shunga o‘xshash tarmoqlar) ning informatsiyaning sayyoraviy manbalariga aylanib borishi bilan odamlar orasida Interaktiv muloqotning umumiy muhitini yaratish imkoni tug‘iladi. Biz doimiy o‘zgarib turuvchi dunyoda yashay boshladik. Informatsion-kommunikatsiya texnologiyalarini tashuvchisi bo‘lgan sohiblar hozirgi zamon hayotining qaynoq markazidagina bo‘lib qolmasdan, ayni shu bilan barcha o‘zlarining hayot

tarzlarini ham, o'z hulq-atvori va tafakkur tarzini ham o'zgartirmoqdalar. Odamlar o'z tafakkuri va xulq-atvorini qay darajada o'zgartirsa, ularning kasbiy tajribalari ham shu darajada boyib, samarali mahsul xossalarga ega bo'lib bormoqda. Hozirgi zamon kommunikatsiyalar fazosida yetarlicha tezkor moslashish va harakat qilish zarurgina bo'lib qolmay, ayni shu jamiyatning informatsion-kommunikatsiya texnologiyalarining global taraqqiyotini bilgan holda, o'zining hulq-atvorini namoyish qilish muhitini his qilishi va shu muhitda qanday harakat qilishini bilishi ham kerak bo'ladi. Informatsion paradigma nihoyatda yuksak darajada konkretlikda va ishonch bilan kelajak eshiklarini ochib bermoqda. Informatsion paradigmaning eng muhim jihatlarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Avvallari informatsiya industrial jamiyatning texnologik va texnik amaliyotiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xomashyo deb qaralgan bo'lsa, bugungi kunda informatsiyaga ta'sir qilish uchun informatsion texnologiyalar yaratilgan (bu narsada jamiyat hayotining turli-tuman maqsadlari hisobga olinadi).

Informatsiya insonning har qanday faoliyatining integral omili bo'lgani sababli buning individual va kollektiv hayotimizning barcha jarayonlari bevosita yangi informatsion texnologiyalar bilan shakllanadi. Informatsion tarmoqlar turli-tuman ijtimoiy o'zaro ta'sirlari va jamiyat taraqqiyotidagi noaniqliklarga to'la bo'lgan va tobora ortib borayotgan murakkabliklarga yaxshi moslashadi. Informatsion tarmoqlar nihoyatda sezgir, harakatchan va yangiliklar kiritish uchun ochiqdir. Informatsion jarayonlar faqat qaytar jarayonlargina emas; ijtimoiy tashkilotlar va institutlarni modifikatsiya qilish va ularning komponentlarini qayta guruppalash yo'li bilan fundamental o'zgartirib yuborish mumkin. Yangi informatsion-texnologiya paradigmasi konfiguratsiyasi shundayki, u o'z konfiguratsiyasini qayta tuzishi, rekonfiguratsiyalanishi mumkin – bu hozirgi kunda doimiy o'zgarib turuvchi va tashkiliy jihatdan qotib qolmagan jamiyatda xarakterli jihatidir.

Jamiyat taraqqiyoti informatsion paradigmasining istiqboli konkret texnologiyalarning yuksak integrallashgan sistemaga konvergentsiyasi an'analari bilan bog'langan bo'lib, bu sistemada eski, izolyatsiyalangan texnologik traektoriyalar deyarli bir-biridan farqlanmay, ajralmay qoladi. Masalan, mikroelektronika, telekommunikatsiya, optik elektronika va

kompyuterlar endi informatsion sistemada mujassamlashgan. Biznesda, masalan, hozircha chiplarni ishlab chiqaruvchilar va programmistlar orasida farq bor va hozircha bu farq bir muncha muddat saqlanib qoladi.

Bizga ma'lumki, texnogen sivilizatsiya asosini tashkil qiluvchi texnomuhit deganda texnika va texnologik jarayonlarning yig'indisi tushuniladi. Bugungi kunda jamiyat postindustrial jamiyat yoki axborotlashgan jamiyat deb atalishidan qat'iy nazar, insoniyatning bugungi kuni va ayniqsa kelajagini texnika va texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Darhaqiqat, shu kungacha ba'zi olimlar hozirgi davr jamiyatida an'anaviy tarzda sodir bo'luvchi ijtimoiy inqiloblar ta'sirida ulkan o'zgarishlar ro'y beradi, degan fikrga o'rganib qolganlar.

Bizning nazarimizda, masalaga bunday yondashuv doimo to'g'ri bo'lmaydi. Chunki aynan sanoat va uni rivojlantiruvchi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot jamiyat hayotida yangicha tafakkur, munosabat, voqelik, hodisa va o'zgarishlarni hosil qilmoqda. To'g'ri, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot insoniyatga farovon turmush tarzini yaratib berishi bilan bir qatorda bir qancha muammolarni hal etishni ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Chunki biomuhit hozirgi davrga o'xshab shiddat bilan yemirilib, ekotizimlar yo'qolib boraveradigan bo'lsa, demak bu kelajak avlod tomonidan insonning ongsiz ravishda yo'l qo'ygan xatti-harakatlari bilan bog'liqligi natijasida yuz bergan, deb sanaladi va ularning ajdodlari oxir-oqibatda tabiatni qanday ayanhli ahvolga solib qo'yganligi to'g'risida g'amgin fikr-mulohaza yuritishlariga asos bo'ladi. Bunday muammolarni oldini olish uchun dunyo hamjamiyatini ezgu maqsadlarda birlashtiruvchi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, kommunikatsion aloqalarning tezkorligini oshiruvchi yondashuvlar kerak bo'ladi. Bu yondashuvlar yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishga katta yordam beradi. Zero, bunday munosabat orqali turli mamlakatlar va mintaqalarning o'zaro bog'liqligi ortadi.

To'g'ri, global texnogen sivilizatsiya bir sektorda inqirozli holatni yuzaga keltirsa, boshqa sektorda barqarorlikka tahdidni tug'dirishi ham mumkin. Ayni paytda o'zaro globallashtirgan texnogen munosabatlar shaxs va jamiyat ehtiyojini birmuncha samarali qondirish uchun qabul qilingan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotdagi o'ziga xos munosabatlar, bilim va qadriyatlarni tezkorlik bilan butun sayyoramiz uzra keng yoyilishga imkon

yaratadi. Biroq, bularning barchasi yoppasiga bir xillashtirish deganini anglatmaydi.

Birinchiidan, texnogen sivilizatsiya yutuqlarini insonlar o‘z iqtisodiy va madaniy imkoniyatlari doirasida o‘zlashtira oladilar va bunda har bir jamiyat yoki ijtimoiy guruhda umuminsoniy tajriba ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchiidan, texnogen sivilizatsiya rivojiga turli jamoalarning, ayniqsa madaniyat, milliy va diniy tafakkurda kuchli namoyon bo‘luvchi shaxsiy identiklikni saqlab qolishga bo‘lgan instinktiv intilish aks ta‘sir ko‘rsatadi. Natijada zamonaviy global texnogen sivilizatsiya yaxlit-tizimli tus olibgina qolmay, balki ichki plyuralistik tasnifga ham ega bo‘ladi. Chunki bunday sivilizatsiyada iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy shakllarning gomogenlashuvi kuchayib, ayrim turdagi madaniy ehtiyoj va rang-baranglik o‘zaro uyg‘unlashadi.

«Sivilizatsiyali inson», «sivilizatsiyali jamiyat» tushunchalari. sivilizatsiyali inson ya‘ni madaniyatli inson mehnatning so‘nggi vositalari, yutuqlari, uni tashkil etish, eng samarali mehnat qobiliyatlari va bilimlarini o‘zlashtirishga intiladi, shu bilan birga boshqa odamlarning tajribasini ham o‘zlashtiradi. U o‘z faoliyati haqida fikr yuritadi, loyihalashtiradi, bashorat qiladi, tanqidiy aks ettiradi va doimo yaxshilaydi. Shunday qilib, sifatli, samarali, ijodiy, aqlli, malakali ish, mehnatga hurmat va o‘zini ishchi, egasi sifatida faxr bilan hurmat qilish - bu madaniyatli shaxsni ajratib turadigan xususiyatlarning birinchi guruhidir.

Madaniyatli odamni varvarlikdan ajratib turadigan ikkinchi guruh belgilari erkinlik, qadr-qimmat, mas‘uliyat - ham o‘zlariga, ham boshqa shaxslarga, mamlakatlarga, xalqlarga munosabat bilan bog‘liq. Madaniyatli odamni ajratib turadigan belgilarning uchinchi guruhini uning ishlash va dam olish sharoitlari, boshqa odamlar bilan muloqot qilish, shuningdek, o‘zini tutish uslubi bilan bog‘lash mumkin. U varvarlikdan, shu jumladan, vahshiylik botqog‘iga botgan zamonaviy yovvoyilardan o‘zining kundalik hayotini tartibga solish istagi va qobiliyati bilan ajralib turadi

Sivilizatsiya shaxsning o‘ziga xos xususiyati sifatida - mavjud ma‘naviyat, axloq, fan va texnika taraqqiyoti, ta‘lim, moddiy va ma‘naviy madaniyat darajasiga mos kelish qobiliyatidir.

Insoniyat sivilizatsiyasini har qanday joyda namoyish etishga loyiq shaxsning qaysi xususiyatlari bo'lishi kerak? Demak:

- u o'qimishli bo'lishi kerak, ya'ni amalda eng kam hayotiy tajriba, maxsus ma'lumot, madaniyat va bilimga ega bo'lgan yaxshi shaxsiy xususiyatlarning uyg'un birligini ko'rsatishi kerak. U o'zining hayotiy tajribasining bir qismiga aylangan bilimlarga tayanib, o'zida doimo ongni tarbiyalashga, mustaqil ravishda muammolarni yechishga qodir bo'lishi lozim;

- koinot qonunlariga muvofiq holda yashash; ichki to'liqlik, mo'l-ko'llik, muvaffaqiyat va baxt holatini boshdan kechirish; hayotiy maqsadini amalga oshirishdan qoniqish; jismoniy, hissiy, intellektual va ma'naviy ehtiyojlarini muntazam ravishda qondirish; mehr-muhabbat ulashish va qabul qila olish;

- dunyoviy sivilizatsiya vakili ichki to'qnashuvlarsiz, ruh va ongni birlashtirib, o'zi va tashqi dunyo o'rtasidagi hayotning jismoniy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlarining optimal muvofiqligini ta'minlashga qodir bo'lgan uyg'un inson bo'lishi mumkin.

XX asrning buyuk mutafakkirlaridan biri bo'lmish Bertran Rassel bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish - bu eng yuqori sivilizatsiya darajasidir, degan, Albert Eynshteyn esa, Vatanga muhabbat – madaniyatli insonning birinchi qadriyati, deb ta'kidlagan.

Sharq va G'arb sivilizatsiyalari, ularning o'zaro ta'siri va o'ziga xosligi. Ma'lumki, eng yirik sivilizatsiyalar Sharq va G'arb sivilizatsiyalari hisoblanadi. Bu sivilizatsiyalar o'rtasida umumiylik va o'ziga xoslik mavjud. G'arb va Sharq madaniyati sivilizatsiyalarining barqaror rivojlanishi va sintezlashuvi hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lgan prinsipial masala, muhim falsafiy muammodir.

Yer yuzidagi ko'pgina davlatlarning rivojlanish istiqbollari ayni shu modelga asoslanadi. Chunki unda jamiyatning barcha jabhalari o'ziga xos tarzda tugallangan va qiyomiga yetkazilgan jarayondir. Shunday xususiyat Sharq sivilizatsiyasiga ham xosdir.

Sharq sivilizatsiyasiga xos bo'lgan quyidagi muhim xususiyatlarni ko'rsatish mumkin:

- Sharqdagi barcha dunyoviy, diniy va falsafiy ta'limotlar tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni, sabr-toqatlilikni targ'ib etgan;
- odamlar orasida bag'rikenglik, birdamlik va hamkorlik ruhi kuchli bo'lgan;
- milliy qadriyat va an'analar e'zozlangan;
- kattalar va ota-onaga hurmat bilan qarashga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston o'zining ulkan tarixiy taraqqiyoti va o'ziga xos rivojlanish xususiyatiga ega bo'lgan mamlakatdir. U jahon sivilizatsiyasiga buyuk hissa qo'shgan, jahon tarixida chuqur iz qoldirgan davlat hisoblanadi. Qator adabiyotlarda O'zbekiston jamiyati qaysi sivilizatsiya asosida taraqqiy etadi, degan masala qo'yilyapti.

O'zbekistonning tarixan Sharq tarixining bir qismi ekanligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, jahon tarixi, insoniyat tarixi yaxlit, bir butun, umumiy birlikdan tashkil topgan, o'zaro aloqada, o'zaro bog'liqdir. O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- 1) tarixiy o'tish davri muammolarini dalillar asosida aniq idrok etish, uning mohiyatini seza bilish;
- 2) milliy an'ana, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish va takomillashtirish asosida rivojlanish konsepsiyasini yaratish va unga qat'iy amal qilish;
- 3) jamiyatning barcha jabhalarida: iqtisodiy, siyosiy, sotsial, ma'naviy jihatlarni sivilizatsiyali yo'nalishga o'tkazish muammolarini hal etish;
- 4) xalqlar, davlatlar, millatlar rivojlanishidagi o'zaro o'xshashliklar, tafovutlar va ayrim xususiyatlarni qunt bilan o'rganish, ulardan foydalanish, moslashtirish va boshqalar;
- 5) shuningdek, jamiyat rivojlanishining eng muhim omillari sifatida geografik muhit va umuman «tabiiy» omillar rolini aniqlash;
- 6) davlatning hududiy joylanishi, daryolar, tog', cho'l regionlarning joylanishi, ularning xo'jalik tarmoqlari, yer usti, tabiiy boyliklar, iqlim, inson salohiyati va boshqalarning o'rni va rolini aniqlash va boshqarish.

G'arb sivilizatsiyasi hozirgi davrda rivojlanishning eng yuqori bosqichiga yetdi. U jahondagi mavjud sivilizatsiyalar yutuqlarini o'ziga singirdi, mazmunan boyidi. Lekin G'arb sivilizatsiyasi o'z mohiyati, xususiyatlari bilan boshqa sivilizatsiyalardan, xususan, islom, konfutsiychilik, yapon, hind, buddizm va pravoslav madaniyatidan farq qiladi.

Jahon sivilizatsiyasi va regional sivilizatsiyalar. Jahon sivilizatsiyasi deganda Sharq sivilizatsiyasi va G'arb sivilizatsiyalari, mintaqaviy, hududiy sivilizatsiyalarning yaxlit, bir butun ijtimoiy tizimi bo'lgan umuminsoniyat, sayyoramizdagi jamiyat tushuniladi. Bu tushuncha, umumiy ma'noda, zaminimizda yashagan barcha odamlarning umumiy makoni bo'lgan Yer yuzidagi hayot, tarixning hamma davrlarida mavjud bo'lgan davlat, jamiyat, xalq va millatlarning umrguzaronlik qilishi bilan bog'liq jarayonlar majmuasini o'zida aks ettiradi.

Insoniyat taraqqiyotining bugungi holati zamonaviy sivilizatsiyaning asosiy tamoyillari bilan uzviy aloqador ekan, O'zbekistonning umuminsoniy sivilizatsiya bilan uyg'unlashuvi ham ko'p jihatdan ana shunga bog'liq. Hozirgi paytda insoniyat o'z rivojining yangi bosqichiga ko'tarildi. U o'zida moddiy ishlab chiqarish yutuqlarini, insoniyat tomonidan ortirilgan tajribalarni jahon miqyosida, paydo bo'lgan muammolarni oqilona hal etish yo'llari va usullarini mujassamlashtiradi.

Bugungi tahlikali dunyoda insoniyatning eson-omon yashab qolishi va kelajakda baxtiyor bo'lishi jahon sivilizatsiyasining asosiy maqsadi va yo'nalishiga aylanib qoldi. Zero, jahon sivilizatsiyasi xalqlar va millatlar, davlatlar va turli hududiy sivilizatsiyalarning umumiy tizimidir. Ayrımlık, o'ziga xoslik va umumiylik o'rtasidagi munosabatni teran anglash hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasining shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini falsafiy idrok etishga imkon beradi. Yer yuzidagi har bir mamlakat jahon sivilizatsiyasi deb ataladigan yaxlit tizimning turli tarkiblari bo'lib, ularning o'zaro ta'siri, hamkorligi sivilizatsiyaning takomillashuvi, barqaror yashashiga imkon beradi.

To'g'ri, bu tizim tarkibida Amerika, Rossiya, Xitoy, Yaponiya kabi salmoqli tarkiblar ham bor. Ular ko'p jihatdan jahon tizimi taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi, muayyan jarayonlarning yo'nalishlarini belgilaydi. Ammo bu tizimda har bir davlatning, kichkina Vatikan yoki Lixtenshteyndan

tortib Germaniyagacha, Andorra yoki Monakodan toki Fransiyagacha o'z o'rnini, o'ziga xos ta'sir kuchi va doirasi bor. Shu ma'noda, ularning har biri, hududining katta-kichikligi, aholisining soni qanchaligidan qat'iy nazar, Birlashgan Millatlar Tashkilotida teng ovozga ega. Demak, tarkiblar tizimida muayyan tarzda amal qilgani singari, har bir mamlakat jahon sivilizatsiyasiga teng huquqli a'zo va muhim element sifatida kirib boradi. Jahon hamjamiyati o'zida umumiylikni, har bir mustaqil mamlakat esa ayrimlik va o'ziga xoslikni ifodalaydi. Bu holda Osiyo yoki Markaziy Osiyo mamlakatlari xususiylikni aks ettirsa, O'zbekiston alohidalikni ifodalaydi. O'zbekiston mustaqillikka erishganiga ko'p bo'lmaganiga qaramay, jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega. Uning Markaziy Osiyodagi mavqei esa bu mintaqaning asosiy taraqqiyot yo'nalishlarini ko'p jihatdan belgilaydi.

Har bir xalq, millat o'zining betakror, noyob xususiyatlarini saqlagan holda mustaqil rivojlanadi va jahon hamjamiyatiga qo'shilib boradi. Bunday qo'shilish ko'p qirrali, rang-barang bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy, davlatlararo munosabatlarni qamrab oladi. Jahon hamjamiyatiga qo'shilish tabiiy-qonuniyatli jarayon bo'lib, har bir mamlakatning har tomonlama taraqqiy etishi, yer yuzida umumiy xavfsizlik, tinchlik va farovonlikni ta'minlashga, tabiiy resurslar, ilm-fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanishga, ekologik muvozanatni ta'minlashga imkon beradi. Mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan xalqlarning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini e'tirof etish, xalqaro huquq me'yorlariga amal qilish, inson huquqlarini himoya etish, demokratiya tamoyillariga amal qilishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Jahon sivilizatsiyasiga qo'shilish natijasida nafaqat iqtisodiy sohada, balki xalqlar ma'naviyati, siyosati va dunyoqarashida ham muhim ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi. Bunday jarayonga tushgan xalqdar o'rtasida bir-biriga ishonch, o'zaro hurmat, hamkorlik hamda sodir bo'ladigan ziddiyat va ixtiloflarni o'zaro kelishuv, konsensus asosida hal qilishga intilish vujudga keladi. Bir-birining madaniy yutuqlari, qadriyatlaridan, tajribalaridan bahramand bo'lish xoxish-istagi shakllanadi. Xalqdarning bir-biri bilan jiplashish tendensiyasi yaxlit, bir butun sivilizatsiyani, insoniyatni e'zozlash kabi sayyoraviy ongni shakllantiradi. Ya'ni, milliylik

va umuminsoniylikning uyg'unligi jahon sivilizatsiyasida yaqqol namoyon bo'ladi va dunyo hamjamiyatining harakat dasturiga aylanadi.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini erkin tanlash, milliy davlatchilik asoslarini yaratish va jahon sivilizatsiyasiga qo'shilish imkoniga ega bo'ldi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligining dastlabki yillaridanoq jahon sivilizatsiyasiga qo'shilish yo'lini tanladi. Jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan bahramand bo'lish mustaqil rivojlanish yo'liga kirgan davlatning dunyo hamjamiyatida o'ziga xos rivojlanishini ta'minlaydi. Binobarin, har bir xalq mustaqil bo'lganidan keyin o'zining iqtisodiyoti, madaniyati, milliy davlatchilik siyosatini amalga oshiradi. U o'z imkoniyatlariga tayanib, jahon hamjamiyatiga kirib borar ekan, bu jarayon milliy falsafada ham o'z ifodasini topadi.

Jahon sivilizatsiyasiga qo'shilish har bir mustaqil rivojlanayotgan davlatning taraqqiyotida o'z kuchi va imkoniyatlariga, ilg'or an'alariga, qadriyatlariga, milliy davlatchilik tajribalariga, intellektual salohiyatiga, tabiiy boyliklariga tayanishini inkor etmaydi, balki ularning keng rivojlanishini taqozo etadi.

O'zbekiston mustaqilligi ob'ektiv zaruriy jarayon, ajdodlarimizning azaliy orzusi, o'zbek xalqining buyuk tarixiy yutug'idir. Bunda quyidagilar alohida e'tiborga molik. Ya'ni: O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi; milliy mustaqillik ramzlari bo'lgan davlat bayrog'i, davlat madhiyasi, davlat gerbining qabul qilinishi; milliy davlatchilik demokratik tizimining shakllanganligi; xalqimiz tabiat ato etgan barcha boyliklarga egalik huquqini o'z qo'liga olganligi; milliy armiya va xavfsizlik tizimi yaratilganligi; milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish – asosiy yutuqlardir.

O'zbekistonning sivilizatsiyali rivojlanishi jahon hamjamiyati bilan bevosita bog'liqdir, ammo bu jarayonda u o'zligi va noyobligini saqlab qolishi kerak. "Insoniyat hozirgi jahon hamjamiyatining ochiqdan-ochiq ko'rinib turgan xilma-xilligi va ko'p qirraligini, uning barcha sub'ektlari o'rtasidagi turli teng huquqlikni ham butun jahon sivilizatsiyasi muvaffaqiyatli rivojlanishini tabiiy va zaruriy shart sifatida e'tirof etishni talab qiladi¹".

¹ Karimov I. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" – Toshkent, O'zbekiston, 1997 yil, 51-52 bet

O‘zbek xalqi Sharq sivilizatsiyasi bag‘rida kamol topdi. Vatan va onaning muqaddasligi, jamoaviylik, o‘zaro yordam, tabiatga oqilona munosabat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik, kattalarga hurmat, kambag‘alparvarlik Sharq sivilizatsiyasiga xos belgilardir. O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga, ilm-fan, axloq, din, san’at va madaniyat sohasidagi ulkan yutuqlari bilan munosib hissa qo‘shmoqda. Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma’naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o‘zida mujassam etgan buyuk arboblari ko‘p bo‘lgan. Prezident Sh.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganidek, “Imom Buxoriy, Burxoniddin Marg‘inoniy, Iso va Xakim Termiziyalar, Maxmud Zamaxshariy, Muhammad Qaffol Shoshiy, Bahovuddin Naqshbandiy, Xoja Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va boshqa ko‘plab daholar nomi nafaqat islom, ayni vaqtda jahon sivilizatsiyasi tarixida haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan”¹.

Hozirgi kunda Yangi O‘zbekiston o‘z milliy qadriyatlari, ma’naviy merosi va boy madaniyatiga tayanib Sharq va G‘arbning umumbashariy qadriyatlari va tajribalarini ijodiy o‘zlashtirib dunyoviy sivilizatsiya yo‘lidan bormoqda. Respublikamizda bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar butun dunyo hamjamiyati faoliyati bilan hamohang kechmoqda.

Umuman olganda, Yangi O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari ichida iqtisodiy, madaniy-sotsial jihatidan ilg‘or mamlakat hisoblanadi. U o‘z taraqqiyoti istiqbollari, imkoniyatlari jihatidan qulay geografik-strategik mavqega ega bo‘lib mintaqada joylashga, har tomonlama qulay imkoniyatga ega bo‘lgan istiqbolli mamlakatdir. Yangi O‘zbekiston hozirgi davrda jahon sivilizatsiyasiga integratsiya bo‘lib, bu yo‘lda u o‘ziga xos va o‘ziga mos an‘analar, betakror noyob xususiyatlarini saqlab qolmoqda. Mustaqil taraqqiyot yo‘lidan sobitqadamlik bilan odimlanayotgan mamlakatimiz hayotida nihoyatda muhim jarayonlar ro‘y bermoqda. Yurtimiz rivojining yangi davri boshlanib, Uchinchi Renessans davriga poydevor qo‘yilib, xalqimizning huquqiy demokratik davlat va taraqqiy etgan fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan azmu qarori

¹ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent, O‘zbekiston, 2017 yil, 1 tom, - 28 bet

eskirgan aqidalardan tamoman voz kechish va zamonaviy tafakkurni shakllantirishni davr talabiga aylantirdi.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Sivilizatsiya tushunchasi. Ta'rif bering.
2. Madaniyat tushunchasi va uning bugungi kundagi ahamiyati. Izohlab bering.
3. Sivilizatsiya va madaniyatning o'zaro bog'liqligi va o'ziga xosligini asoslab bering.
4. Moddiy va ma'naviy madaniyat tushunchasi bogliqligi va farqini asoslang.
5. O'zbekiston sivilizatsiyasi va madaniyatining o'ziga xosligi nimalarda namoyon bo'ladi?

13- MAVZU: MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR - SIVILIZATSIYALI TARAQQIYOT OMILI

Reja:

1. Milliy o'zlikni anglash va sivilizatsiyali taraqqiyot yo'liga o'tishda milliy qadriyatlarning o'rni va roli.
2. Umuminsoniy qadriyatlarning milliy qadriyatlardan ustuvorligi - sivilizatsiyali taraqqiyotning bosh yo'nalishi.
3. Qadriyatlar tizimi.
4. Qadrlash tamoyillari.

Tayanch tushunchalar: Milliy o'zlik, qadriyat, milliy o'zlikni anglash, milliy ong, millat, ma'naviyat, milliy uyg'onish, milliy tiklanish, milliy taraqqiyot, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, milliy model, qadrlash tamoyillari

Milliy o'zlikni anglash va sivilizatsiyali taraqqiyot yo'liga o'tishda milliy qadriyatlarning o'rni va roli. O'zbekiston o'z istiqloliga erishganidan so'ng jamiyat ma'naviy hayotini sog'lomlashtirish va rivojlantirish, inson omiliga katta e'tibor berish mamlakatimiz oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri sifatida kun tartibiga qo'yildi. Bu esa, moziyning ko'p asrlik saboqlariga, jamiyat oldida ko'ndalang turgan yangi vazifalarni hal etishga oqilona yondashishning ko'rinishidir. Milliy o'zlikni anglash jamiyatimiz hayotida ro'y bergan ma'naviy

o'zgarishlarning asosidir. Milliy o'zlikni anglash shaxsning, xalqning ma'naviy kamoloti bilan bog'liq. Milliy o'zligini to'la-to'kis va to'g'ri anglash imkoniga ega bo'lish uchun inson yuksak ma'naviyat sohibi bo'lishi lozim. Tarix saboqlari shuni ko'rsatadiki, milliy o'zligini, manfaatlarini, taraqqiyoti istiqbolini chuqur, har taraflama xolisona, odilona anglagan xalqgina keng rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'la oladi.

Milliy o'z-o'zini anglash – har bir millat (elat) ning o'z-o'zini real sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarning egasi, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishi. Milliy o'z-o'zini anglashning shakllanishi, rivojlanishi va takomillashib borishi ob'ektiv jarayon hisoblanadi. Undan mahrum bo'lgan millatning istiqboli ham bo'lmaydi.

Milliy o'z-o'zini anglash – milliy shakllanish jarayonining yuqori bosqichi. Millat o'ziga xos bo'lgan urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarni shakllantirishi zaminida davlat atrofiga birlashishi mumkin. Milliy o'zligini, o'z manfaatlarini, o'z mamlakati taraqqiyoti istiqbolini chuqur, xolisona anglagan inson va xalqgina keng rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'la olishini tarix saboqlari har doim isbotlab kelgan.

Milliy o'zlikni anglash murakkab jarayon. Bu jarayon millat vakillarining umummilliy manfaatlarini ustuvor qo'ya bilish malakasi bilan bevosita bog'liqdir.

Milliy o'zlikni anglash milliy ongdan farq qiladi. Milliy ong har bir millatning yagona tili, urf-odatlari, an'analari, qadriyatlari va ma'naviyatining pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishining muhim mezoni. O'z navbatida milliy ongning rivojlanib borishi har bir millatning o'z-o'zini anglash darajasiga ko'taradi. Milliy ong millatning o'ziga xosligini muhim belgisi bo'lsa, milliy o'zlikni anglash esa milliy manfaatlarini himoya qilishda ichki turtki beruvchi ma'naviy-ruhiy salohiyatdir.

Yoshlar milliy ruhini ko'tarish uchun ajdodlarini tanishi, hozirgi va kelajak avlodlarni mana shu ruhda tarbiyalash lozim. Odamlar o'z qadriyatlarini anglashlari, faqat moddiy emas, ma'naviy boyish huquqiga ega bo'lishlari, o'zlarining insoniy haq-huquqlarini, odamiyliklarini chuqur his qilishlari, milliy o'zliklarini anglashlari zarur. Milliy o'zlikni anglash

esa, millatning jipsligi va birligini ta'minlovchi, millatning o'zi mavjudligini anglashga xizmat qiluvchi omildir.

Milliy o'zlikni anglash real moddiy kuch sifatida, millat sha'ni, qadriqimmati, obro'-e'tibori, or-nomusi poymol etilganda yoki millatning moddiy va ma'naviy manfaatlariga zid harakatlar yuzaga kelganda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Sha'ni, qadr-qimmati, or-nomusi, obro'-e'tibori va manfaatlari poymol etilganda millat vakillari qaysi lavozimda xizmat qilishi, boy yoki kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar yagona umummilliy kuch bo'lib birlashadilar va o'zligini himoya qiladilar. Shunday qilib, milliy o'zlikni anglash millat manfaatlarini himoya qiluvchi omil hisoblanadi.

«Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlarini tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullas, Vatanining tarixini bilishni istaydi ¹». Haqiqatdan ham har bir odamda, u qaysi millatga mansubligidan qat'iy nazar, o'z Vatani, milliy madaniyati va qadriyatlarini tarixini bilishga bo'lgan ehtiyoji uning ichki dunyosi bilan bog'liq bo'lib, bu o'zlikni anglash jarayonida amalga oshadi.

Milliy o'zlikni anglash etnik birlik shakllanishi jarayonida yuzaga kela boshlaydi va millatning mustaqil sub'ekt sifatidagi maqomini egallashi sharoitida rivojlanish va takomillashish bosqichlarini boshdan kechiradi.

Milliy o'zlikni anglash nafaqat etnik mansublikni va u bilan bog'liq burch, mas'uliyat, manfaatlarni bilish, balki millatning ongli faoliyatini hamda kelajakka ishonchini ifodalaydi. Zero, milliy o'zlikni anglashda millatning kelajagi bevosita uning manfaatlarini himoya qilish orqali namoyon bo'ladi.

Milliy o'zlikni anglash millatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga, jamiyat va davlatni boshqarishga, tuzumga, ijtimoiy borliqni o'zgartirishga qaratilgan islohotlarga, taraqqiyot modellariga, jamiyatning kelajagiga oid etnosiyosiy munosabatlar hamdir. Bu munosabatlar millatning, fuqarolar o'z siyosiy-huquqiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda, ya'ni ijtimoiy-

¹ Karimov I.A. Barqaror taraqqiyotga erishish – ustuvor vazifa // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7jild. -Toshkent:O'zbekiston, 1999. -B. 3.

siyosiy hayotda o'z manfaatlarini himoya etuvchi sub'ektlar sifatida qatnashishida namoyon bo'ladi. Ushbu vazifalarni muvafaqiyatli amalga oshirishda fuqarolar tomonidan sodir bo'layotgan o'zgarishlarni ongli tarzda idrok etish, ularning mohiyatini teran anglash, jamiyat va davlat manfaatlariga aloqador ishlarga faol ravishda kirishishni talab etadi. Aynan shuning uchun ham milliy o'zlikni anglash ma'naviy-axloqiy jihatdan mukammal, ma'naviy jihatdan yetuk shaxsni shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Milliy o'zlikni anglash tasodifan paydo bo'lmaydi, ma'lum shaxslar tomonidan yaratilmaydi ham. U millatning uzoq davom etgan moddiy-ma'naviy hayotining mahsuli sifatida shakllanadigan ijtimoiy-tarixiy hodisadir. Ya'ni, insonlarning o'zligini anglashi, barcha aqliy va ruhiy imkoniyatlari, his-tuyg'ulari, xarakteri, dunyoqarashi jamiyatdagi hayoti va faoliyati davomida shakllanadi.

Aristotel e'tirof etganidek, inson siyosiy, ijtimoiy mavjudot¹ bo'lgani holda, uning asosiy faoliyati o'zi yashab turgan ijtimoiy muhit ta'sirida kechadi. Forobiy ham Aristotelning fikrlarini rivojlantirib, «har bir inson o'z tabiati bilan shunday yaratilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi², deb ta'kidlagan.

Haqiqatdan ham, inson faqat jamiyatdagina shaxs sifatida kamolotga erishadi va ijtimoiy munosabatlar jarayonida takomillashadi. Millatning rivojlanishi umumiy maqsad, manfaatlar hamda ehtiyojlarni anglash va ularga erishish uchun hamjihatlikning ahamiyatini tushunib yetishi orqali sodir bo'ladi. Shuningdek, kishilarning siyosiy madaniyati, huquqiy ongining o'sishi bu jarayonga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Milliy o'zlikni anglash – bu milliy rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan tabiiy qonuniy, ob'ektiv jarayondir. Toki, millatlar, milliy manfaatlar mavjud ekan, milliy munosabatlar ham, milliy o'zlikni anglash ham taraqqiyotning ruhiy ma'naviy omili sifatida saqlanib qolaveradi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, milliy o'zlikni anglash, bir tomondan, ob'ektiv, boshqa tomondan esa sub'ektiv omillar ta'sirida rivojlanadi.

¹ Qarang: Введение в философию. М.: Политиздат, 1990, Т. 1. – С.111.

² Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: Sharq, 1993. – B.186.

Ob'ektiv omillar insonning ichki ma'naviy ruhiy holati, moddiy va ma'naviy qadriyatlarga munosabati bo'lsa, sub'ektiv omillarni davlat, uning olib boradigan siyosati, siyosiy partiyalar, jamoatchilik tashkilotlari, ijtimoiy harakatlar va ommaviy axborot vositalarini tashkil qiladi. Milliy o'zlikni anglash rivojlanishida sub'ektiv omillar ham katta ahamiyatga ega. Ularning o'z faoliyatlarini milliy rivojlanishga to'siq bo'lib turgan omillarga qaratishi milliy o'zlikni anglashning rivojlanishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Milliy o'zlikni anglash millat abadiyligini ta'minlaydigan omillardan biridir. O'zini-o'zi anglash, shu jumladan milliy o'zlikni anglashning qaror topishi va rivojlanishida shuni e'tiborga olish lozimki, butun insoniyat sivilizatsiyasi tarixi – jamiyat o'zligini anglashining qaror topishi tarixidir. Ammo bu jarayon muayyan davrlarga bog'liq o'zlikni anglashning o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

“Milliy o'zlikni anglash” tushunchasi murakkab ma'no-mazmuni bilan alohida ajralib turadi. Uning o'zagini tashkil etuvchi “milliy” va “o'zlikni anglash” tushunchalari ko'pgina tahliliy munosabatlarni shakllanishiga olib keladi. “Milliylik”¹ tushunchasi ijtimoiy-siyosiy jihatdan tahlil qilinganda, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti mobaynida ma'lum millat, elatning tili, joylashgan hududi, ijtimoiy-siyosiy hayoti, psixologik holati va dunyoqarash tuzilmasini o'zida aks ettirgan murakkab voqelik sifatida namoyon bo'ladi. O'zlikni anglash to'g'risidagi yondoshuvlarga e'tibor qarasak, bu atama ilk bor miloddan avvalgi IX asrda qadimgi Hind eposlarida, Yunonistonda ishlatilganligi to'g'risida ilmiy dalillar mavjud

Milliy o'zlikni anglash o'zlikni anglash bilan uzviy bog'liqdir. O'zlikni anglash bir necha ko'rinishda bo'ladi: shaxsiy, ijtimoiy va umuminsoniy uzlikni anglashdan iborat. Shaxsiy o'zlikni anglash ijtimoiy o'zlikni anglash zamirida vujudga keladi. Har bir kishi o'zligini anglashi uchun avval o'zi mansub bo'lgan etnik guruhning qaysi etno ijtimoiy guruhga mansubligini idrok etib, bu guruhni boshqa etnomadaniy guruhlar bilan taqqoslagandagina o'z etnik guruhga mansubligini anglaydi. Bu jarayonda til, hudud, din, etno ijtimoiy guruhga mansublik, qadriyatlar umuminsoniy o'zlikni anglashning asosiy belgilari bo'lib hisoblanadi.

¹ Qarang: Qo'chqorov V. Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar-T.:Akademiya, 2007, - 15 bet

Umuminsoniy o'zlikni anglash esa, u butun insoniyatning yagona maqsad sari birlashib, ijtimoiy hayotga tahdid soluvchi muammolarni birgalikda hal etishni ko'zda tutadi.

Milliy o'zlikni anglash millatning mavjudligi va istiqbolini ta'minlash uchun zarur bo'lgan asosiy omillardan biri hisoblanadi. U insonlarning ongi va e'tiqodidagi murakkab, ko'p qirrali ma'naviy-ruhiy holat bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotning barcha hodisalariga o'z ta'sirini ko'rsatib boradi. Qaramlikdan qutulib, o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan millatning o'zligini anglashi uning taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Ana shu omil millatning to'laqonli sub'ekt darajasiga ko'tarilishidagi o'rnini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Milliy uyg'onish, milliy tiklanish, milliy taraqqiyot konsepsiyasining ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tish davrida milliy o'zlikni anglash bilan sintezlashuvi va uning bugungi turmush tarzimiz hamda tafakkurimiz taraqqiyotida namoyon bo'lishi sivilizatsiya yo'lidir. Bu yo'l esa, taraqqiyotning yangi bosqichi bo'lib, insonning shakllanish jarayoni, shaxsiy fazilatlarini hayotiy maqsadlar va qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini o'zgartiradi. Xususan, o'sib kelayotgan yosh avlod uchun ta'lim-tarbiya tizimi sifat jihatdan yangicha talablarni qo'yadi.

Mustamlakaga qarshi Oharakatlar, rivojlangan industrial davlatlardagi milliy o'zlikni anglash va milliy harakatlar ko'plab sotsiolog, siyosatshunos, antropolog va sotsial psixologlarni shu muammoni o'rganishga undamoqda. Bir tomondan, insonlarning o'z xalqi, o'z ona tili va madaniyati butunligini asrab qolishga qaratilgan intilishi adolatli ekanini tan olmasdan iloj yo'q. Boshqa tomondan esa, bu holat etnoslarning boshqa etnoslardan o'zini ustun deb bilishiga olib keladi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida milliy o'zlikni anglash jarayoni nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun jahon miqyosidagi asosiy masalalardan biri sifatida e'tirof etildi. Bunday holatning yuzaga kelishi albatta tabiiy, chunki har bir millatning muayyan tarixiy yo'li va etnogenezi mavjud bo'lib, ular millat istiqbolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday faoliyat jarayoni bu yo'nalishdagi turli maqsadlar bilan ham ifodalanadi. Milliy o'zlikni anglashning asosiy maqsadini biz keng va tor ma'nolarda talqin etishimiz ham mumkin. Keng ma'noda u har bir insonga munosib turmush tarzini yuzaga keltirish va

jahon sivilizatsiyasida o‘z o‘rniga ega bo‘lish kabi voqelik sifatida dunyo miqyosida ahamiyatga ega bo‘lsa, tor miqyosda esa u insonning yashayotgan mamlakati, viloyati, tumani, mahallasi, o‘z qarindosh-urug‘lari oldida ham muhim e‘tiborga molik bo‘lgan hodisa sifatida tushuniladi. Shu bois bugungi kunda O‘zbekiston va unda o‘zbek millati o‘z - o‘zini anglash jarayonida nimalarga e‘tibor qaratishi, mazkur jarayonda namoyon bo‘luvchi ijobiy va salbiy tomonlarni tahlil etish, bu faoliyatni chuqurroq tushunib yetishdagi saviyasining yuqori yoki pastlik darajasini aniqlash, keyingi avlodlarga nimalarni meros qilib qoldirayotganligini bilish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Har bir millat o‘zining kelib chiqishi, hayotga munosabati, mehnat qilish qobiliyati, maishiy turmush buyumlarini ishlab chiqarishi, qolaversa dunyoni bilish va anglash borasida ilm-fanga qiziqishi, o‘ziga xos va mos turmush tarzini, urf-odatlar, go‘zallik namunalarini yaratishi borasida tabiiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirib kelgan. Turli millat vakillari o‘rtasida ijtimoiy taraqqiyot maqsadlarida yakdillik bo‘lishi milliy ongning, o‘zlikni anglashning bosh mezonlaridir.

Xo‘sh, millatlar qanday paydo bo‘lgan, nima uchun bir millat ikkinchi bir millatdan farq qiladi, nimasi bilan, kabi savollar fikrimizga aniqlik kiritadi. Falsafa qomusiy lug‘atida millat tushunchasiga zamonaviy ta’rif beriladi. Jumladan, unda «millat - bu til, ma’naviyat, milliy o‘zlikni anglash, ruhiyat, urf-odatlar, an’analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi ijtimoiy aloqalar bilan bog‘langan mustaqil sub’ekt sifatida o‘ziga xos moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligidir»¹, - deyilgan. Shuningdek, boshqa xorijiy adabiyotlarda millat deganda siyosiy va etnik munosabatlarga kirishuvchi tili, o‘z-o‘zini anglash faoliyatiga ega bo‘lgan xalq tushunilishi ta’kidlab o‘tilgan.

Millat haqidagi konseptual qarashlar K.Doych (Natsionalizm va ijtimoiy kommunikatsiya), E.Gelner (Natsiya va natsionalizm), B.Anderson, E.Smit tomonidan ilgari surilganligi ham alohida qayd etib o‘tiladi. Ulardagi asosiy e‘tibor millatning turli o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy,

¹ Qarang: Falsafa qomusiy lug‘uat. Q.Nazarov tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2004.

ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy jihatlariga qaratiladi¹. Biroq, ularda millatning shakllanishidagi ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar e'tibordan chetda qolganligini ham kuzatishimiz mumkin. Yana bir adabiyotda millat tushunchasi davlat tushunchasiga uzviy bog'liqligi, o'z hududi, chegarasiga egaligi, boshqa millat vakillari manfaatlarini hurmat qilishi kabilar bilan ifodalanishi ko'rsatib o'tilgan².

Aytish joizki, etnik birliklar uzoq davom etgan tarixiy bosqichlarda dastlab urug', qabila, el, elat, millat, xalq tushunchalarida o'z ifodasini topadi. Demak, millatning dastlabki shakllanish davri urug'chilikdan boshlanadi. Urug'da barcha xususiyatlar, ya'ni bunda nasl-nasab, ongining rivojlanish darajasi, iqtidor, qobiliyat, ruhiyat - fe'l-atvor, sezgirlik, faxm-farosat, boshqaruvchilik, o'z nasliga e'tibor, ya'ni tarbiya, o'zini tuta bilishi-odobi kabi dastlabki xususiyatlar shakllana boshlaydi va yetarli vaqtdan keyin muayyanlashadi. Odamlar jamoasi shakllana boshlaydi, ya'ni urug'chilikdan qabilalar paydo bo'ladi. Ijtimoiy munosabatlar doirasi ham kengaya boradi, yashash uchun kurash borasida inson tabiatni o'zlashtiradi va shu bilan birgalikda o'zi ham madaniylashib borayveradi. Ong darajasi ijtimoiy munosabatlar girdobida tobora rivojlanib, til, urf-odat va an'analar, e'tiqod shakllari, turli xil ishlab chiqarish usullari va munosabatlarini yuzaga keltiradi. Biroq, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishiga bir qator tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'ladi.

Xalqni, millatni o'z-o'zini anglash darajasi qachonki unda o'zi yashayotgan hududini boshqalardan himoya qila olsa, o'z tamg'asi va bayrog'iga ega bo'lsa, ma'lum bir urf-odatlarga asoslanib madaniy hayot kechira boshlasa, farovonlikni o'ylab mahsulot ishlab chiqarsa va ayirboshlasa, ilm egallashga, dunyoni o'rganish va anglashga e'tibor qarata boshlasa, ko'pchilikni o'z izidan olib bora oladigan yo'l boshchiga ega bo'lsagina haqiqiy millat shakllanganligini hisobga olish mumkin.

Milliy o'zlikni anglash to'g'risida so'z borganida, eng avvalo xalqaro huquq tamoyillari haqidagi (1970 yil 24 oktabrda) 10-BMT Bosh

¹ Qarang: Эрнест Геллнер. Нации и национализм. — М.: Прогресс, 1991. Андерсон Б. Воображаемые сообщества. Размышления об истоках и распространении национализма. — М.: Канон-Пресс-С, 2001

² Философский энциклопедический словарь. — М.: ИНФРА — М, 1999. — 291 с.

Assambleyasi Rezolyusiyasi kabi xalqaro hujjatlar va davlat Qomusi belgilangan qonuniy huquq yodga tushadi. Ularda «xalqlarning teng huquqliligi va o‘z-o‘zini anglashi» tamoyillari keltirib o‘tilgan. Shuningdek, «Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha xalqaro pakt», «Iqtisodiy, sotsial va madaniy huquqlar bo‘yicha pakt» bunga asos bo‘ladi. Ammo milliy o‘zlikni anglash huquqi millatchilik reaksiya ko‘rinishlarining huquqiy asosiga aylanmasligi lozim. Chunki huquqqa ega bo‘lgan inson jamiyat oldida qator majburiyatlarni bajarishi lozim.

Milliy o‘zlikni anglash jamiyatimiz hayotida ro‘y bergan ma‘naviy o‘zgarishlarning asosidir. Milliy o‘zlikni anglash ham shaxsning, xalqning ma‘naviy kamoloti bilan bog‘liq. Milliy o‘zligini, o‘z manfaatlarini, o‘z mamlakati taraqqiyoti istiqbolini chuqur, xolisona anglagan inson va xalqini keng rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘la olishini tarix saboqlari har doim isbotlab kelgan.

Milliy o‘zlikni anglashning o‘zi g‘oyaviy immunitet vazifasini o‘taydi. Chunki unda xalqimizning, millatimizning tub manfaatlarini mujassamdir. Mafkuraviy immunitet kishining o‘zi yashab turgan yurt qadriyatlarini, tarixiy madaniy boyliklarini asrash, ularni ko‘paytirish tuyg‘usidir. Bugun kishilarda «biz boy tarixga egamiz» degan quruq shiorlar bilan mafkuraviy immunitetni shakllantirish qiyin. Shu o‘rinda, OAV o‘z faoliyatida ommaviy kommunikatsiya vositalarining milliy o‘zlikni namoyon qilishda: ziyolilarni, ijtimoiy ongi yuqoriroq kishilarni hamkorlikka jalb etish; ijtimoiy fikrni shakllantirish; fuqarolar bilan jamiyat, davlat o‘rtasida muloqot, dialog o‘rnatish; u yoki bu g‘oyalarni, asarlarni, guruhlar faoliyatini reklama va targ‘ib qilish; yoshlarda milliy istiqbol g‘oyasini va g‘oyaviy immunitetni shakllantirish; tarixiy-madaniy boyliklarni, gumanistik merosni tashviq etish; dunyoda kechayotgan jarayonlar, voqealar haqida xolis xabarlar tarqatish; kishilarda, xalqda, mamlakatda kechayotgan o‘zgarishlarda faol ishtirok etish ishtiyoqini, fikrini uyg‘otish kabilarga asosiy e‘tibor berishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, OAVda milliy g‘oya va milliy o‘zlikni anglash davlat va jamiyat qurilishida, xususan, yoshlarda “mafkuraviy immunitet”ni shakllantirish hamda fuqarolik jamiyati qurilishining muhim omili bo‘lib qoladi.

O‘zbekistonda shakllanib borayotgan fuqarolik jamiyati o‘zining tarixan tarkib topgan zalvorli qiyofasi bilan millat sha’ni, xalqning milliy mentaliteti, bir-biri bilan uyg‘unlashgan holda rivojlangan to‘qson ikki urug‘li o‘zbekning qon tomirini birlashtirgan milliy va umuminsoniy xususiyatlarga egaligini XXI asrda butun jahonga namoyish etmoqda. Bunday tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ildam borayotgan O‘zbekiston o‘zining ertangi farovon kelajagini bugungi sog‘lom avlod turmush tarzi, axloqiy va ma’naviy madaniyati orqali rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan.

Milliy o‘zlikni anglash va taraqqiyot yo‘lida milliy qadriyatlarning o‘rni katta. Insoniyat taraqqiyoti shunday bir tarixiy bosqichga qadam qo‘yadiki, endi hech bir xalq, millat, davlat, boshqa xalq, millat va davlatlar bilan keng integratsiyaga kirishmay, umumjahon taraqqiyotiga o‘zining hissasini qo‘shmay, global muammolarni hal etishda qatnashmay, hamda umuminsoniy me’yorlardan, boyliklardan, yutuqlardan – qadriyatlardan foydalanmay rivojlana olmaydi.

“Milliy ma’naviyatning o‘ziga xosligini tiklashga aloxida e’tibor berilishi kerak, shu bilan birga milliy o‘z-o‘zini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlari ideallaridan, bizning ko‘p millatli jamiyatimiz an’analaridan ajralib qolishi mumkin emas¹”.

Qadriyatlar tizimida millat, unga xos belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayonlariga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan hudud va u bilan bog‘liq tuyg‘ular, millatning o‘tmishi, tarixi, madaniyati, u yaratgan madaniy boyliklar va ma’naviy meros bilan bog‘liq qadriyatlar ham muhim o‘rinni egallaydi. Bu qadriyatlar biror millat kishilari uchun umumiy bo‘lib hisoblangan.

Ular alohida shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lovchi xalqalardan biridir. Muayyan kishi yoki shaxs umuminsoniy qadriyatlarni anglashda, o‘z faoliyatini ushbu qadriyatlar mezoniga moslashtirishda milliy qadriyatlarni hisobga oladi, ular bilan bog‘liq jihatlarni ham nazarda tutadi.

Millat bir tomondan, o‘zining qadriyatlarini mutassil vujudga keltirib turadi, o‘tmishdan kelajakka rivojlanish jarayonida ularni doimiy takomilashtirib, yangi-yangi qirralarini shakllantirib turadi, ikkinchi

¹ Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlovlari va taraqqiyot yo‘li – Toshkent, O‘zbekiston, 1992, - 73 bet

tomondan esa, uning o‘zi ham mavjud qadriyatlar tizimi ta’siri ostida o‘zgarib va rivojlanib boradi¹. Millat – o‘zining qadriyatlarini vujudga keltirib, makon va zamondagi ilgarilanma harakatdan iborat o‘zgarishlar jarayonida ularni o‘tmishdan kelajakka tomon yetkazib beradigan eng asosiy ob’ektdir.

Milliy qadriyatlar tushunchasi muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarigina emas, balki ular yashayotgan hudud madaniy-ma’naviy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruhi, tarixi, o‘tmishi, turmushi va yashash tarzi, millat hayotining tartib-qoidalari hamda ular bilan bog‘liq milliy xususiyatlar, jihatlar va boshqalarning ahamiyatini ifodalaydi. U umumiy qadriyatlar tizimida millatga xos bo‘lgan qadriyatlarning eng umumiy jihatlarini aks ettiradi.

Har bir millat o‘z qadriyatlarining yaratuvchisigina emas, balki uni asrab avaylovchi va kelajakka yetkazuvchisi hamdir. Milliy qadriyatlarning saqlanishi uchun har bir millatning o‘zi mas’uldir. Bu esa mas’ullikning faqat alohida shaxslarga emas, balki butun millatga ham xos namoyon bo‘lishini anglatadi. Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zi bo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha yerda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi.² Millat ozod bo‘lmasligi, siyosiy jarayonlar natijasida biror imperiya yoki davlatga qaram bo‘lishi mumkin, ammo unda o‘z milliy qadriyatlarini saqlash tuyg‘usi yo‘qolib ketmaydi.

Milliy qadriyatlar: kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllanadi, rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo‘ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o‘ziga xos tarzda ta’sir qiladi; kishilarning o‘zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko‘zga tashlanib turadi hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma’naviy asos bo‘ladi; moddiy, ma’naviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarida muayyan natija sifatida yuzaga kelishlari, kishilar uchun zaruriyat sifatida o‘ziga xos ahamiyat kasb etishlari, ularga foyda keltirishlari ham mumkin; ijtimoiy

¹ Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi – Toshkent, Akademiya, 2011, - 127 bet

² Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.-T.:Ma’naviyat, 2008, 116-b

rivojlanish jarayonida o'zgarib, takomillashib, rang-barang jihatlar avloddan-avlodga o'tadi, meros qoladi.

Milliy qadriyatlar:

a) millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlaydigan etnik makonda shakllanadigan, rang-barang tarzda, turli shaklda namoyon bo'ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o'ziga xos reallik sifatida ta'sir qiladigan;

b) millatdoshlarning o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatida ko'zga tashlanib turadi, bu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma'naviy asos bo'ladigan;

v) millatning moddiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa hayotida muayyan natija sifatida yuzaga keladigan, kishilar uchun zaruriyat tarzida o'ziga xos ahamiyat kasb etadigan;

g) millatning ijtimoiy rivojlanishi jarayonida o'zgarib, takomillashib, rang-barang jihatlar kashf etib boradigan, doimiy yangilanib turadigan, shu bilan birga, vorislik orqali avloddan – avlodga o'tadigan, meros qoladigan qadriyatlarni ifodalaydigan tushunchadir.

Milliy qadriyatlar va ularning aloqadorligini ifodasi bo'lgan qadriyatlar tizimi, millatning o'zi bilan birga tarix silsilalari, zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar orasidan o'tmishdan kelajakka tomon o'tib turadi. Bu qadriyatlar ko'proq millatning etnik xususiyatlari va etnik makoni bilan bog'liq. Xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy-etnik qadriyatlari ravnaqi bilan uzviy aloqadorlikda davom etadi. Har bir xalq yoki millat, o'ziga xos rang-barang qadriyatlarni takomillashtirib borishi natijasida, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning qirralarini rivojlantirib boradi.

Milliy qadriyatlar tabiatiga ko'ra faqat tor doira saqlanib qolmaydi, balki ravnaq topib, turmush jarayonida mutassil yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatlarini yutuqlari bilan boyib boradi.

Umuminsoniy qadriyatlarning milliy qadriyatlardan ustuvorligi - sivilizatsiyali taraqqiyotning bosh yo'nalishi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar – O'zbekistonda milliy istiqlol mafkurasining shakllanishi va rivojlanishida bir-biridan aslo kam bo'lmagan ikki hayotiy manbadir. Dunyodagi birorta xalq va millat o'zidan boshqa xalqlar va millatlardan, umumjahon sivilizatsiyasidan ajralgan, o'zining alohida ilmi, ya'ni

madaniyati va tarixiga ega bo'lgan holda yashamagani singari uning mafkurasi ham o'zga millatlar va xalqlarning yutuqlaridan ijodiy va tanqidiy foydalanmay yuzaga kelmaydi va rivojlanmaydi.

Shuning uchun ham har bir jamiyat, har bir millat o'z mafkurasi doirasida cheklanib qolmay, balki millat va xalqlar yutuqlaridan bahramand bo'lgan holda taraqqiy etadi. Millatning ruhiyati, tarixiy an'analari, ma'naviy ehtiyojiga mos kelmaydigan begona qadriyatlarni unga zo'rlab singdirib bo'lmaydi. Xalqlarga yangi ma'naviy qadriyatlarni singdirish uchun, avvalo, ularga nisbatan ehtiyoj tug'dirmoq kerak. Ma'naviy ehtiyojsiz, tarixiy an'analarni e'tiborga olmay singdirilmoqchi bo'lgan qadriyatlar millatning hayotidan ma'lum o'rin olsa ham, uning ruhiyatiga singmaydi, qalbidan o'rin olmaydi, chunki har bir xalq qadrlagan narsa yoki hodisa birinchi navbatda, uning milliy ma'naviyati bilan bog'liq bo'ladi.

Jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yuksalishi har bir insonning voqelikka zavqiy munosabat asosida vujudga keladi. Shu boisdan ma'naviy madaniyat madaniyatning bir turi sifatida o'zini milliy va umuminsoniy xususiyatlarini rivojlantirib boradi. Demak, "madaniyat odamlar ma'naviy dunyosini boyitishning bosh omiligina emas, balki shaxsni o'z vataniga sadoqat, o'z madaniy merosiga muhabbat hamda boshqa xalqlar, ularning madaniyatlari an'analari va urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash vositasi sifatida namoyon bo'ladi"¹.

Har bir davrda milliy va umuminsoniy qiyofa kasb etib boruvchi shaxs estetik madaniyati davlatimiz rahbarining nigohidan hech qachon chetda qolmagan. Jamiyatimizda mana shunday yuksaklikka intiluvchi shaxsni tarbiyalash shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda barchaning diqqat-e'tibori aniq va ravshan g'oyani ko'zlashi, ya'ni "Yangi O'zbekiston uchinchi renessans (uyg'onish) davri ostonasida" g'oyasini chin yurakdan his etishi dolzarb bo'lib borayotganligini unutmasligimiz darkor.

Jamiyatda qadriyatlarning rivojlanib borishi jarayonida ajdodlarimizning ming yillar davomida kamol topib kelgan va o'zining qadr-qimmatini yuksak ma'naviyat namunalariga aylantirib borayotgan

¹ Sadulla Otamurodov, Sarvar Otamurodov. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. T., "Yangi asr avlodi", 2003, 69-bet.

milliy va umuminsoniy xususiyatlarni ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ko'rishimiz lozim. O'zbekistonda mustaqil fikrlaydigan barkamol avlodni tarbiyalash masalasi xalqimizning qadriyatlariga xos milliy xususiyatlarni o'zida ifodalagan holda o'tmish merosimizning chuqur ildizlarini "Avesto"dan tortib mustaqillik davri falsafasining qon tomirlariga ko'rishimiz mumkin. Mana shunday jarayonda jamiyatning milliylik va umuminsoniylik "shaxsning chinakkam e'tiqodiga aylanmog'i uchun bilimning o'zi-dunyo va ilm sirlaridan boxabarlik, naqadar chuqur bo'lmasin baribir kamlik qiladi"¹. Barchamiz bu borada avvalambor tevarak-atrofimizda bo'layotgan voqea-hodisalardan o'zimizning ongimizni boyitishga intilamiz, voqelikning inson ruhiy dunyosiga ta'sirini bilishga intilamiz. Tashqi muhitdan zavq olish bilan bir paytda voqelikning nafosat olamiga nisbatan qarama-qarshi munosabatning shakllanishi, ya'ni shaxsning tanqidiy mulohaza yuritishi, kamchiliklarni ko'rib, ulari bartaraf etish, mamlakati, xalqi, milliy qadriyatlarini takomillashtirish yo'lidagi harakatiga uyg'un bo'lishi lozim.

Kishilik jamiyati tarixidan ma'lumki, shaxsning qadriyatlarga intilishi davrlar almashinuvi jarayonida yangilanib, o'zining qiyofasini xilma-xil tarzda falsafiy tafakkur durdonalari bilan boyitib kelgan. Bunday taraqqiyot jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlardagi dunyoqarash bir mamlakat bilan ikkinchi mamlakat o'rtasida katta farqni vujudga keltirib, milliy va umuminsoniy xususiyatlarini rang-barangliliga olib kelgan. Jamiyatda shaxsning faoliyati qonun bilan mustahkamlanar ekan, uning amaliy ifodasi mehnat faoliyatidagi dunyoqarash bilan uyg'unlashib, ro'yobga chiqariladi.

Ma'lumki, Respublikamizda ta'lim sohasida "Milliy model" asosida amalga oshirilayotgan islohotlarning asl mohiyati – milliylikning ustuvorligini ta'minlash emas, balki, jahon fani va ta'lim tizimi erishgan eng ilg'or yutuqlar hamda milliy o'zlikni shakllantirish asosida, milliy taraqqiyotimizni ta'minlab beradigan ta'lim tizimini yaratishdan iborat. Bu borada, falsafani o'qitish va yoshlarda falsafiy tafakkurni shakllantirish muammosini yangicha paradigmalar asosida hal etish zarurati yuzaga keladi. Shu bois, asrlar davomida jahon falsafasi, xususan Sharq falsafasi qadriyatlari asosida yoshlarda falsafiy mushohada, tafakkur etish

¹ Bunyodkor g'oyalar. - Toshkent., "Ijod dunyosi" nashriyot uyi, 2002, 7-bet.

ko'nikmalarini shakllantirishni uzluksiz ta'lim tizimiga kiritish, nazarimizda, milliy mentalitetimizning milliy taraqqiyot g'oyasi asosida yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Chunki, aynan Sharq falsafasida qadimdan tabiat va insoniyatning o'zaro uyg'unligi (daosizm), inson tabiatning bir bo'lagi, shu bilan birga gultojisi ekanligi (Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalar), ma'naviy komillik kishilar, shuningdek, inson va tabiat o'rtasidagi barqaror munosabatlarni ta'minlovchi buyuk qadriyat (buddaviylik, tasavvuf), axloq, nafosat, insonparvarlik, vazminlik, bag'rikenglik, mutanosiblik (garmoniya) kabi qadriyatlarning o'zaro uzviy aloqadorligi, inson va jamiyatning barqaror rivojini ta'minlovchi muhim omillar ekanligi, olamni bilish va ilm olishni – insonni baxt – saodatga yetaklovchi asosiy yo'l, deb qarash, Sharqda xususan, musulmon Sharqida haqiqatni izlab topishga harakat qilgan barcha falsafiy ta'limotlarga, shu jumladan, Kalom, Sharq peripatetizmi, tasavvufga xos bo'lgan.

Ushbu g'oyalar bir necha o'n asrlik tarixga ega bo'lishiga qaramay, shaxs va jamiyat uchun o'zining qadrini yo'qotmagan. Bugungi kunda aynan shunday falsafiy qadriyatlar asosida yoshlarni erkin falsafiy tafakkurga o'rgatish, ularni turli shakllardagi tashviqotlarga, fanatizm, aqidaparastlik, ekstremizm, sabrsizlikka qarshilik ko'rsatishga, hozirgi dunyoning turli tahdidlariga, ayniqsa, axloq sohasidagi tahdidlarga qarshi turishga, jamiyat va bashariyatning barqaror rivojlanishi uchun mas'ulligini anglashga xizmat qiladi. Aynan, ajdodlarimizdan qolgan boy falsafiy merosimizni o'rganmasdan turib, yoshlarda hayotga adekvat refleksif va kreativ tafakkurni shakllantirish mumkin emas. Ijtimoiy hayotning globallashib, madaniyatlar, sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot tobora intensivlashib borayotgan hozirgi davrda, milliy o'zlik va milliy g'ururni yo'qotmaslikning muhim sharti, o'z milliy madaniyatimiz qadriyatlarini bilish, anglash, rivojlantirishdan iborat. Bu esa har bir shaxsda, Sharq falsafasi qadriyatlari bilan birga zamonaviy falsafiy dunyoqarashning shakllangan bo'lishini taqazo etadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Biz barchamiz – fuqarolar ham, jamiyat ham, davlat ham Vatanimiz ravnaqi uchun, mamlakatimizda tinchlik – barqarorlikni mustahkamlash uchun, tarixiy, ma'naviy va

madaniy merosimizni saqlash boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish uchun birdek mas'ulmiz.¹”

Umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq muammolar hozirgi davrga kelib faylasuflar va tadqiqotchilarning diqqatini jalb etayotgan asosiy mavzulardan biriga aylanmoqda. Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlar qanchalik muhim ahamiyat kasb etsa, o'z navbatida umumbashariy qadriyatlarga tayanmasdan turib, milliy qadriyatlar rivojlana olmaydi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning har ikkalasi dialektik aloqadorlik prinsipi asosida rivojlanib, takomillashib boradi. Diniy qadriyatlar esa, milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasida zanjir vazifasini o'taydi.

Umuminsoniy qadriyatlar, barcha insonlarning tarixi, me'rosi, istiqloli, istiqboli va manfaatlarida mavjud bo'lgan tutash, umumiy zaminlar va manfaatlar asosida tashkil topgan, taraqqiyotning yangi bosqichida ham barchaning manfaatiga mos keladigan ijtimoiy siyosiy, ma'naviy hodisalar hamda boyliklarga aytiladi².

Umuminsoniylik bir millat qadriyatlarini butun olamga yoyish yo'li bilan emas, balki hamma millat va elatlarning qadriyatlarini asrab-avaylash, murosallashtirish, tarix tarozusi saqlab qoladigan qadriyatlarni hurmat qilish va olamdagi milliy rang - baranglikning tabiiy rang-baranglik bilan uzviy aloqada ekanligini anglash yo'li bilan boyib boradi.

Umuminsoniy qadriyat – jamiyat va odamzod nasli uchun eng qadrli va umumijtimoiy ahamiyatiga ega bo'lgan narsalar, hodisalar, sifat, faoliyat va boshqalarning ismi yoki nomini emas, balki ularning ijtimoiy qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy-aksiologik tushunchadir.

Umuminsoniy qadriyatlar ildizlari barcha davrlarda mamlakatlarda mavjud bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlar, kishilarning mehnat turmush sharoitlari va ularning yetuklik darajalari, niyat va intilishlari maqsad va manfaatlaridagi umumiylik uyg'unlik bilan belgilanadi. Har bir davr mamlakat va millatning bu sohalarida o'ziga xos jihatlaridan tashqari umumiy tomonlari ham bor.

¹ Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir – Toshkent, O'zbekiston, 2018, 2 tom, - 37 bet

² To'xtayev X. Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o'rni. – Toshkent, Universitet, 2001, - 19 bet

Umuminsoniy qadriyatlar qandaydir o'zgarimas aqidaviy tushunchalar emas, davrlar o'tishi, sharoitlar talab va ehtiyojlarning o'zgarishi bilan ularning mazmuni baholash mezonlari ham o'zgarib boradi. Lekin bu o'zgarishlardan qat'iy nazar umuminsoniy qadriyatlar barcha odamlarni jipslashtiruvchi, ma'lum maqsadlar, ijtimoiy ma'naviy kamolot yo'lida birgalashib harakat qilishga chorlovchi ijtimoiy ma'naviy omillardir.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlarning umumlashgan ifodasidir. U butun insoniyatga xos qadriyatlar asosida tashkil topadi va rivojlanadi; ular ayni vaqtda, barcha milliy qadriyatlarning bir – biriga yaqinlashishi va rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etadigan tamoyillaridan – bu insonparvarlik g'oyalari sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat hamma yerda barqaror bo'lishiga intilish, inson huquqlarini paymol etishiga yo'l qo'ymaslik, hamma xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo'lgan kurashlarini qo'llab – quvvatlash, kishilarning do'stlik, hamkorlik, hamdardlikka chorchash, hamma yerda tinchlik osoyishtalik qaror topishiga harakat qilish, atrof – muhitni toza saqlash kabilardir. Bu qadriyatlar tamoyillari butun insoniyat tomonidan qo'lga kiritilgan fan texnika, madaniyat, ishlab chiqarish munosabatlarni rivojlantirish borasidagi yangi jihatlar, demokratik, qonunchilik adolatni barqarorlashtirish borasidagi yutuqlardan ham iborat bo'lib, ulardan oqilona foydalanish, respublikamizning jahondagi taraqqiy etgan davlatlardan biriga aylantirish ishiga xizmat qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lish shakllari nisbiy xususiyatga ega, ammo bu nisbiylik doimo ham ko'zga tashlanavermaydi. Bizningcha, umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lish shakllarini o'rganishda quyidagilarga e'tibor berish lozim: butun insoniyatga xos bo'lgan tabiiy-tarixiy jihatlar, ya'ni inson vujudining tirikligi, sihat-salomatligi, ijtimoiy faoliyatga qobilligi, ongi, bilim, muomala vositasi; madaniyat, ma'naviyat, fan, din, huquq, siyosat, mafkura va ijtimoiy ongning boshqa shakllari biln bog'liq yutuqlar, kashfiyotlar. Yaratilgan boyliklar, ta'lim-tarbiya va ma'naviy kamolotning yo'nalishlari, usullari, vositalari; insoniyat rivojining hozirgi davri bilan bog'liq mintaqalar, ijtimoiy tuzumlar, davlatlar oldida turgan va butun jahon ahamiyatiga

molik eng umumiy olamshumul muammolar, dolzarb vazifalar, kelajakning istiqbollari; sayyoramiz hududlari, davlatlari va ijtimoiy tuzumlaridan qat'iy nazar, hamma uchun umumiy foydalanish imkonini beradigan universal texnologiyalar, ishlab chiqarish, boshqarishni tashkil qilish, kosmonavtika, EHM, kibernetika va boshqa yo'nalishlardagi umumjahon ahamiyatiga ega bo'lgan jarayonlar.

Umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lish shakllari orasida o'z ahamiyatini, ijobiylik hamda foydalilik xususiyatlarini doimo saqlab qoladiganlari ham bor: inson vujudining tirikligi, uning ijtimoiyligi, insonning umri va hayoti, sihat-salomatligi, ijtimoiy faoliyati va munosabatlari, mehnati, bilim, muomalasi va boshqalar. Bu qadriyatlar inson va jamiyat bor ekan o'zining ijtimoiy ahamiyatini saqlab qoladi, ularning qarama-qarshisi bo'lgan o'lim, kasallik, ma'nosiz hayot kechirish, bilimsizlik va boshqalar ham tarixiy jarayonlarning doimiy hamrohidir. Tiriklik bor ekan o'lim, borliq eng buyuk ma'no ekan –yo'qlik, inson tirik jonzod ekan – kasallik, hayot kechirishdan maqsad mazmunli umr ekan – ma'nosiz qo'yilgan ba'zi qadamlar. Yashashning zaruriy shartlaridan biri bilish va anglash ekan – bilimsizlik, taraqqiyotga intilish bor ekan – tanazzul va boshqalar insoniyatni doimo ta'qib qiladi. Yuqoridagi ijobiy qadriyatlarning ahamiyati ham ularga teskari bo'lgan jihatlarga nisbatan umuminsoniy talablarga to'la-to'kis javob beradigan, yoppasiga hayotidan mamnun, sog'-salomat.

Umuman olganda, umuminsoniy qadriyatlarning eng oliy shakllari ideal qadriyatlar sifatida qaraladi. Jamiyat tarixining hamma davrdarida odamlar ana shu ideal-qadriyatlarga intilib, ularga erishishni orzu qilib yashaydilar.

Qadriyatlar tizimi. Qadriyatshunoslik mavzulari orasida qadriyatlar tizimi bilan bog'liq masalalar muhim o'rin egallaydi. “Qadriyatlar tizimi” muayyan ijtimoiy sub'ektlarga (shaxs, millat, jamiyat va boshqalar), biron bir davr tarixiy bosqich yoki soha bilan bog'liq bo'lgan qadriyat shakllarining o'zaro aloqadorligi va bog'liqligini ifodalaydigan tushuncha.

Tizim tuzilish, tizimni tashkil etuvchi qismlar, tizimlilik asosida yondoshish usuli kabi muammolar, ularning mohiyati, mazmun va ahamiyatiga doir falsafiy adabiyotlar nihoyatda ko'p. Sistema, struktura, va element tushunchalari falsafiy kategoriyalar tizimida o'z o'rniga ega.

Sistemalilik prinsipi esa ilmiy bilish va tadqiqotlarning asosiy usullaridan biriga aylangan. Eng muhimi ana shu prinsip va uni ilmiy bilishda namoyon bo'lish qonuniyatlarining aksiologik tadqiqotlar, qadriyatlar va qadriyat tizimlarining amaliyotini tahlil qilishda kashf etadigan o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdir. Bu borada tarixiylik mezonining qo'shilishi, hamda masala sistemalilik va tarixiy usul qoidalaridan aksiologik tizimlarga tatbiqan foydalanish tarzida qo'yilayotgan muammoni yanada dolzarblashtiradi. Bu usul muqarrar ravishda vaqt va zamon bilan bog'liq jarayonlarni har qanday tizim amaliyotining asosiy shartlaridan biri sifatida qarashni e'tirof etadi.

Har qanday tizim vaqt va zamon bilan bog'liq xususiyatlarini tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor beriladi: muayyan tizim cheksiz tarixiy jarayonida, muayyan vaqtda paydo bo'ladi, aniq bir zamonda amal qiladi, o'ziga xos yashash davrini boshidan kechiradi. Shu ma'noda har qanday tizimning ibtidosi - vujudga kelishi, intihosi muqarrar ravishda o'z o'rnini boshqasiga bo'shatib berishi orasidagi tarixiy amal qilish davri mavjud.

Ma'lum bir sivilizatsiya yoki etnoslar taraqqiyotining muayyan davriga xos umumiy qadriyat tizimlari xususida ham ana shunday mulohaza yuritish mumkin. Ularning har biriga xos tarixiy amal qilish davrlari bo'ladi. Tarixiylik prinsipini qadriyatlar tizimining ijtimoiy rivojlanish bilan bog'liqligi masalasiga nisbatan qo'llanilganda quyidagicha xulosa chiqarish imkoni tugiladi: taraqqiyot jarayonida muayyan qadriyat tizimlari shakllanadi, takomillashadi, inkor qiladi va boshqasiga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Bu jarayonda inkor va vorislik dialektikasi aloxida o'rin tutadi. Shu ma'noda o'tmish, tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy jarayonlarning ketma ketligi bo'lgani singari qadriyat tizimlarining o'rin almashuvi, inkori va yangilanishidan iborat jarayon hamdir. Inkor va yangilanish dialektikasi faqat bir qadriyat tizimi boshqasiga aylanayotganidagina ro'y beradi deyish nojoiz. Bunday hol muayyan qadriyat tizimining amaliyotida ham ko'zga tashlanadi. Unda ham yangilanish jarayoni miqdoriy o'zgarishlarning hosilasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga har qanday qadriyatlar tizimining o'ziga xos evolyusion rivojlanish jarayoni ham bor. Bu jarayonning tahlilida vaqt va zamon bilan bog'liq xususiyatlar asosiy o'rin egallaydi. Chunki bunda mazkur tizimning o'ziga xos ichki

o'zgarishlari, uni tashkil etgan tarkibiy qismlarning muayyan vaqt doirasidagina barqaror va mutannosiblik holatini saqlab qolishi, aslida esa tizimda mavjud bo'lgan aloqalar zanjirida uzluksiz o'zgarishlarning bo'lib turishi ko'proq e'tiborga olinadi. Demak, u yoki bu tizimning amaliyoti nafaqat makon balki zamondagi o'zgarish hamda aloqalar bilan ham uzviy bog'langan. Bu ayniqsa muayan davrda yashayotgan jamiyat bilan bog'langan umumiy qadriyatlar tizimining amaliyotida yaqqol namoyon bo'ladi.

Qadriyatlar tizimi amaliyotida bir tomonidan qadriyat shakllariga xos turli xususiyatlar, jihatlar va farqli tomonlarning dialektik birligi mutanosibligi, ikkinchi tomondan esa ular o'rtasidagi farq tafovut va nomutanosibliklar asosida vujudga keladigan ziddiyatli holatlar ham muhim ahamiyatga ega. Bu ikki jihat tizimning zamondagi ikki xil holati, amaliy jarayondagi nisbiy tinchlik yoki abadiy o'zgarishlar ifodasidir.

Umuman olganda, har qanday qadriyatlar tizimi shakllanish, amal qilish, takomillashuv va tanazzul davrlarini boshidan kechiradi. Ammo har qanday holatda ham uni tashkil etadigan qadriyat shakllari tizimning amaliyotida, aniq holatda namoyon bo'lishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Qadrlash tamoyillari. Hamma zamonlarda kishilarda qadrlash tuyg'usini shakllantirish va to'g'ri tarbiyalash nihoyatda muhim bo'lgan. Bu tuyg'u insonga ona suti, ota nasihati, bobolar ugiti, avlodlar yodi, moziy saboqlari bilan birga o'tadi, meros qoladi. U faqatgina merosiy tuyg'u emas, balki kishining butun hayoti davomida tarbiyalanadi, sayqallanadi, biror yo'nalish asosida takomillashadi, turli darajalarda namoyon bo'ladi.

Qadrlash tuyg'usining qanday shakllanganligi qadrlash darajalarida ko'zga tashlanadi. Shaxsiy darajada u insonning ma'naviy kamolotini, uni qanday qadriyatlarni ustivor bilishini bu qadriyatlarni barqaror qilishdagi faoliyatini ifodalaydi. Qadrlashning milliy va umuminsoniy darajalarida esa muayyan millatning ma'naviy yetukligi, jamiyatning barkamolligi, undagi mavjud hayot tarzining insonparvarligi namoyon bo'ladi. Ammo hayotda doimo ham qadrlash mo'ljallari to'g'ri belgilanavermaydi. Gohida qadrlash mezonlariga amal qilinmaydi yoki ularga ahamiyat berilmaydi. Bu esa qator salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi ham mumkin.

Jahon tarixi shaxsiy mahdudlik milliy manqurtlik buyuk davlat shovinizmi, ma'nosiz kosmopolitizm, fashistlaracha oliy irq da'vosi kabi illatlar paydo bo'lmasligi uchun qadrlash me'yorlari va qadriyat mo'ljallari to'g'ri belgilangan bo'lishi kerak. Ular kishilarning hayoti va faoliyatining ma'naviy mezonlariga lozimligini isbotlab turibdi. Qadrlashning belgilab qo'yilgan chegarasi bo'lmasada, u cheksiz hissiy jarayon emas, balki muayyan qadrlash me'yorlari mavjud.

Qadrlash me'yorlari, qadriyat mo'ljallari va qadrlash mezonlari bilan uzviy bog'langan. Qadrlash me'yorlari va qadriyat me'zonlari – qadrlash tuyg'usi natijasida shakllangan ma'naviy kamolot hamda ijtimoiy komilliy darajasini, axloqiy yetuklik, nafosat, madaniyatlilik, huquq va odillikning zaruriy talablarini o'zida aks ettiradigan aksiologik tushunchalardir. Bu tushunchalar ostida turmushning qog'ozlarda yozilmagan aql va idrok bilan anglab olinadigan faqat o'qib emas, uqib o'rganiladigan hayotiy qonunlari, talablari ifodalangan. U yoki bu narsa voqelik shakli kishi unga xos faoliyat va xususiyatni qadrlashda ana shularga e'tibor bermoq kerak.

Qadrlash me'yorlarning buzilishi ko'ngilsiz holatlarga, ma'naviyat talablarining siyqallashuviga olib keladi. Bunday hollar ijtimoiy sub'ektlarning faoliyat ko'rsatish darajasiga e'tirof etilgan holatiga bog'liq bo'ladi. To'g'ri tarbiyalangan qadrlash me'yorlari diyonat, shijoat, qanoat, sabr, intizom, vijdon, or – nomus, go'zallik, nafosat, iffat, hayo, odillik va boshqalarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Milliy o'zlikni anglash deganda nimani tushunasiz.
2. Milliy uyg'onish, milliy tiklanish, milliy taraqqiyot konsepsiyalarini tahlil etib bering.
3. Milliy o'zlikni anglash va taraqqiyot yo'lida milliy qadriyatlarning o'rni qanday namoyon bo'ladi.
4. Milliy qadriyat va umuminsoniy qadriyat dialektikasi to'g'risida gapirib bering.
5. Umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lish shakllari nimalardan iborat.

14-MAVZU: GLOBALLASHUVNING JAMIYAT IJTIMOIIY HAYOTIDA NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI

Reja:

1. “Globallashuv” tushunchasi. Globalistika fanining paydo bo‘lishi.
2. Globallashuv jarayonining asosiy bosqichlari.
3. Hozirgi davrning asosiy global muammolari tasnifi. Global jarayonlarni bashorat qilishning ahamiyati.
4. Iqtisodiy integratsiya, uning asosiy yo‘nalishlari. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlarining mintaqaviy xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: “Globallashuv” tushunchasi, globallashuv hodisasi, globalistika, globallashuv jarayoni chuqurlashib borishining asosiy bosqichlari, hozirgi davrning asosiy global muammolari tasnifi, iqtisodiy integratsiya, uning asosiy yo‘nalishlari

“Globallashuv” tushunchasi. Globallashuv (inglizcha global – butun yer yuziga tegishli, umumjahon miqyosini anglatadi) atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T.Levittning “Garvard biznes revyu” jurnalida e‘lon qilgan maqolasida qo‘llanilgan edi. Bu mutaxassis yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorining yagonalashuv jarayonini “globallashuv” deb atagan.

Shavkat Mirziyoyev "Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" asarida ta’kidlaganidek, "XX asrning oxiri – XXI asrning boshlariga kelib insoniyat ko‘plab umumbarchilik muammolarga duch keldi. Ushbu muammolar va ularning yechimlariga doir masalalar bugungi kunda nihoyatda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Avvalo, globallashuv hodisasining o‘zi alohida mavzuga aylandi va bu haqda alohida globalistika fani shakllandi"¹.

Globallashuvni ilmiy muammo sifatida o‘rganish Roland Robertson tomonidan 1985 yili boshlandi; u globallashuvni jahonni yagona bir butun qilish maqsadini ko‘zlagan ob‘ektiv jarayonlar majmuasi sifatida ta’rifladi. Globallashuv jarayoni axborot inqilobi, ayniqsa, internetning rivojlanishi hamda moliyaviy bozorlarning integratsiyalashuvi bilan uzviy bog‘liq. Bugungi kunda globallashuv atamasi shunchalik mashhur bo‘lib ketdiki,

¹ Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent, O‘zbekiston, 2021, B.303.

uni XXI asr mahsuli desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu o‘rinda xilma-xil yondashuvlar, nazariyalar, paradigmalarni ishlab chiqilganini qayd etish lozim. Bularni sharhlab quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Globallashuv – turli mamlakatlar iqtisodiyoti, savdo-sotig‘i, madaniyati, ma’naviyati, odamlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va bog‘liqlikning kuchayishidir. Albatta, globallashuv tushunchasiga berilgan tariflar juda ko‘p. Masalan, fransuz tadqiqotchisi B.Bandi globallashuv jarayonining uch belgisini quyidagicha keltiradi:

- 1) globallashuv bu – doimiy davom etuvchi tarixiy jarayon;
- 2) globallashuv bu – jahonning gomogenlashuvi va universallasuvi jarayoni;
- 3) globallashuv bu – milliy chegaralarning “yuvilib ketish” jarayoni.

Globallashuv xalqlar, mamlakatlar transformatsiyasi, insoniyatning bir butunlikka integratsiyasini keltirib chiqaradi. Shu ma’noda, muayyan jamiyat o‘zidan yetuk deb hisoblagan boshqa jamiyatning mafkura, qarashlar, ilmiy-texnikaviy, madaniy yutuqlarni o‘zlashtirishi globallashuv ta’siri ostida sodir bo‘ladi.

Ko‘pchilik mutaxassislar buni jahonning yangi tarkibi shakllanishida xalqlarning yaqinlashuviga, iqtisodiy farovonlikka ijobiy ta’sir etadi, deb hisoblaydi (masalan, K.Omae, P.Draker, T.Piters, S.Reysmit, S.Xantington va b.). Boshqa olimlar globallashuv milliylikni yo‘qotadi, bir mamlakatning ilmiy salohiyati yuqori boshqa davlatlarga qaramligini oshiradi, deb hisoblaydilar (Z.Bauman, N.V.Zagladin, F.Fukuyama, G.P.Martin, X.Shuman, M.G.Delyagin, V.I.Dobrenkov va b.).

Bundan tashqari, globallashuv masalasiga oid zamonaviy bahslar ushbu muammoni yanada chigallashtirib yubormoqda hamda yangi muqobil g‘oya, nazariyalarning paydo bo‘lishiga turtki bermoqda. Jumladan, fransuz olimi Jak Le Dyumgi quyidagi yondashuvlarni ishlab chiqdi:

- 1) liberal yondashuv. Globallashuv faqatgina ob’ektiv jarayon emas, foydali fenomen sifatida iqtisodiy, ijtimoiy samaradorlikka olib keladi;

2) madaniy yondashuv. Milliy madaniyatlar inqirozi tarixiy jamiyatlar to‘qnashuviga, “chatishgan madaniyat” (multikulturalizm) ning paydo bo‘lishiga olib keladi”¹.

Yuqoridagi yondashuvlardan farqli o‘laroq, golland tadqiqotchisi Ya.N.Piters globallashuvni izohlashda quyidagi paradigmalarni tipologiyasini taklif etadi:

1) "sivilizatsiyalar to‘qnashuvi". Turli madaniyatga mansub jamiyat mamlakatlarining konfrontatsiyasi;

2) “makdonaldlashuv”. Transmilliy kompaniyalar amalga oshirayotgan moderinizatsiya orqali (vesternlashuv, yevropalashuv, amerikalashuv) mayllarining kuchayib borishi;

3) “gibridlashuv”. Xalqaro munosabatlar ostida umumiy, aralash madaniyatning paydo bo‘lishi”².

L.E.Grinin fikricha, “Globallashuv mintaqalar va umuman jahonning integratsiyasi va yaqinlashuvining natijasidir”. U globallashuvga jarayon sifatida qaraydi va unga quyidagi ta’rifni beradi: “Globallashuv bu jarayon, uning natijasida dunyo o‘zining barcha sub’ektlariga yanada aloqador va yana ham bog‘liq bo‘ladi”.

Shunday qilib, globallashuv ko‘p qirrali jarayon bo‘lganligi uchun uni sharhlashda ancha muammolarga duch kelamiz. Buni bartaraf etish maqsadida jahonda globallashuv ta’siri ostida bo‘layotgan jarayonlarni to‘liq va mukammal tahlil etib ko‘rish maqsadga muvofiq. Ushbu vazifani keyingi yillarda jadal shakllangan **globalistika** fani amalga oshiradi.

Globalistika fanining paydo bo‘lishi. Hozirgi kunda “globalistika” termini zamonaviy fan tilining ajralmas qismidir, ammo uning ma’nosi haqida hanuz turlicha fikrlar bildirilmoqda. Ba’zilar bu yangi fan, u hali shakllanish jarayonida deb aytsalar, boshqalar ilmiy bilish integratsiyasi natijasi deb bilib, o‘ziga xos fanlararo tadqiqotlar sohasi, deb tan olmoqda. Globallashuv jarayoni kuchayib borayotgan hozirgi dunyoda davlatning raqobat shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy ustunligi – ta’lim tizimining holati bilan

¹ Qarang: Богомолов Б.А Глобализация: некоторые подходы к осмыслению феномена. Вестн. Моск. Ун-та Сер. Политические науки. 2004. №3.

² Qarang: Богомолов Б.А Глобализация: некоторые подходы к осмыслению феномена. Вестн. Моск. Ун-та Сер. Политические науки. 2004. №3.

aniqlanadigan, shaxsni ma'naviy rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog'liq.

Globalistikani vujudga kelish asosida qarama-qarshi jarayonlar – hozirgi zamon faniga xos bo'lgan integratsiyalashuv jarayonlari yotadi. Globalistika – ilmiy tadqiqotlar va bilishning shunday jabhasiki, bu yerda turli fanlar bir-biri bilan uzviy aloqada, har biri o'z predmeti va metodi nuqtai nazaridan globallashuvning turli jihatlarini tahlil qiladi. Global muammolarni bir-biridan alohida va yaxlit tizim sifatida o'rganib, ularni yechimini taklif qiladi. Ilmiy yo'nalish sifatida globalistika o'tgan asrning 70 yillari boshida shakllana boshlagan.

Ushbu fan rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan o'zbek olimlari S.Otamurodov¹, Sh.Qahhorova² globallashuvning ham ijobiy jihatlarini, ham salbiy tomonlariga borligiga alohida urg'u berganlar. Birinchi Prezident Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch"³ asarida ham bu masalalar atroflicha sharhlab berilgan. Binobarin, globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri turlicha ekanini hisobga olib, salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim.

Bir necha yillik tadqiqotlari natijasida A.Chumakov "Globallashuv ijtimoiy hayotning barcha sohalarning, ma'naviy qadriyatlar, dunyoqarash yo'nalishlarini universallashtirishga olib kelishi bilan birga, an'anaviylik, o'ziga xoslik va madaniy xilma-xillikni saqlashni istisno qilmaydi", - degan xulosaga keladi. Bunday davrda shaxs murakkab ijtimoiy muhit sharoitida faoliyat ko'rsatishga majburdir.

XX asr o'rtalarida globallashuvning institutsionallasuvi, ya'ni tashkillashuvi kuchaygandan so'ng, bu jarayonning o'zi ham shiddatli tus oldi. Bugungi globallashuv jarayonida asosiy e'tibor iqtisodiyot sohasiga qaratiladi. Ammo, bu jarayon ma'naviyatga, madaniyatga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon chetdan o'tkaziladigan mafkuraviy hurujlarning kuchayishiga ham sabab bo'lmoqda.

¹ Qarang: S.Otamurodov. Globallashuv va millat (siyosiy-falsafiy tahlil). Toshkent. 2015.

² Qarang: Sh.Qahhorova. Global ma'naviyat – globallashuvning ma'naviy asosi. Toshkent, "Tafakkur", 2009. 448 bet.

³ Qarang: Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent, "Ma'naviyat" 2008. B.67-72.

Hozirgi kunda birorta ham xalq yo‘qki, boshqa xalqlar madaniyati va ma’naviyatidan to‘liq to‘silgan bo‘lsa, qolaversa tarix boshqa xalqlar ma’naviyatidan bahramand bo‘lgan xalqlar yuksaklikka erishganidan guvohlik beradi. Ajdodlarimiz tajribasi jahon xalqlari ma’naviyatiga hurmat bilan qarash, kerakli joylarini o‘rganib, ijodiy rivojlantirish orqaligina ma’naviyat cho‘qqisiga erishish mumkinligidan guvohlik beradi.

Bizga ta’sir o‘tkazayotgan yoki ta’sir o‘tkazmoqchi bo‘layotgan g‘oyalarni qay birini qabul qilish va qay birini rad etish lozimligini aniqlash uchun jiddiy tahlil lozim. XX asr insoniyat taraqqiyotida ko‘plab yirik o‘zgarishlar, tarkibiy siljishlar, bo‘hronlar (krizislar) asri sifatida o‘rin oldi. Insoniyat o‘z taraqqiyot yo‘lida hamkorlikda va hamjihatlikda hal etishi lozim bo‘lgan muammolar ko‘lami, sohalari tobora ortib bormoqda. Yangi ming yillikda bu o‘zgarishlar yanada chuqurlashuvi va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lib borishi tabiiydir.

Globallashuv o‘z mohiyati jihatidan olamdagi har bir inson, har bir davlat, qolaversa jahon hamjamiyatini befarq qoldirmaydigan va uni faqatgina hamkorlikdagina hal etilishi lozim bo‘lgan muammolarni o‘z tarkibiga oladi. Global jarayon asosiy ziddiyati shakllanayotgan umuminsoniy turmush tarzi bilan milliy turmush tarzlari o‘rtasidagi farq va tafovutlarni umumiy maxrajga olib kelish masalalari bilan bog‘likdir.

Ammo umumbashariy turmush tarzining poydevori barcha millat va elatlar qabul qilgan jihat va xislatlarini umumlashtirish asosida quriladi. Shu nuqtai nazardan olganda, har bir xalqning turmush tarzi o‘ziga xos ijobiy xislat va xususiyatlarini saqlab qolgan holda, umuminsoniy mazmunga ega bo‘lib, barcha xalqlarning asosiy talablariga javob berishi kerak.

Globallashuv jarayonining asosiy bosqichlari. Global miqyosdagi muammolar ilmiy munozaralar predmeti sifatida XX asrning 60-70-yillarida jahon hamjamiyatida jiddiy qiziqish uyg‘otdi. Dastlab 1930 yillarda E.Lerua, Teyyar de Sharden va V.I.Vernadskiy insoniyat hamjamiyatining global mohiyatini, insonning Yerda yashash uchun mas’ulligini anglashga chaqirdilar. Keyin bu masala ma’lum vaqtda unutildi va bir necha yildan keyingina 1970-80 yillarda yana esga olindi.

Bugungi kunda globallashuv jaryonining jadallashuvi o‘zaro aloqadorlik va o‘zaro ta’sir dialektikasi qonunlari asosida ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga ta’sir o‘tkazmoqdaki, bu o‘z navbatida yoshlardagi ijtimoiy mas’ullik jarayoni zamonaviy ilm-fan yutuqlari, texnika - texnologiya, xalqaro axborot almashinuvining jadal rivoji bilan o‘zaro aloqadorlikda yuzaga keladi.

Globallashuvning asosiy ko‘rinishlari, tendensiyalari va oqibatlari tevaragidagi munozaralar so‘nggi yillarda nafaqat jonlandi, balki qizg‘in tus oldi. Bugun nafaqat bir davlatda, balki butun dunyoda bir-biriga qarshi kurash olib borayotgan "globalistlar" va "anti globalistlar" ajralib chiqdi. Ayrim olimlar globallashuvni farovon turmush, tanlash huquqi va yanada ko‘proq erkinlik, ya’ni ko‘chib yurish, to‘liq axborot olish, ko‘proq haq to‘lanadigan joyda ishlash, eng yaxshi universitetlarda ta’lim olish erkinligi bilan bog‘lasalar, boshqalar uchun globallashuv insoniyatga tahdid soluvchi, global isish, atrof-muhitning ifloslanishi, nazoratsiz migratsiya omillarining vujudga kelishi, ishsizlarning ko‘payishi, an’anaviy qadriyatlarga putur etishi kabi muammolarni tug‘diruvchi jarayon sifatida baholamoqdalar.

Globallashuv jarayonining yani bir o‘ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilmoqda. Ana shunday sharoitda milliy ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash yoshlar tarbiyasida katta ahamiyatga ega.

“Dunyo shiddat bilan o‘zgarib barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan. turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish kamolotga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”¹.

Globallashuv jarayoni milliy davlatchilik suverenitetiga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan bir qancha holatlar mavjud. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

birinchidan, jahon siyosiy sahnasida transmilliy korporatsiyalar, nodavlat hamda xalqaro tashkilotlar, xalqaro kapital kabi yangi qudratli

¹ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent, O‘zbekiston, 2017, 1 tom, - 27 bet

siyosiy sub'ektlar shakllanmoqda. Ular siyosatning an'anaviy subekti – milliy davlatchilik suverenitetining ikkinchi darajaga tushib qolishiga sabab bo'lmoqda;

ikkinchidan, globallashuv xalqaro huquq asoslariga sezilarli ravishda ta'sir etayapti. Bu esa davlatlarning o'z hududida huquqiy suverenitetidan qisman ayrilishiga olib kelmoqda. Natijada milliy davlatlarning nafaqat tashqi, balki ichki siyosiy masalalarini mustaqil yechish imkoniyatlari chegaralanmoqda. Ma'lum bir davlatning ichki siyosatini tashkil etadigan muammo (ichki ixtilof, siyosiy kurash, saylov jarayonlari va boshqalar) bugungi kunga kelib global ahamiyat kasb etib, boshqa davlatlarning manfaatlariga ham daxldor bo'lib qolmoqda;

uchinchidan, kishilar ongida davlatchilik suvereniteti asosini tashkil etuvchi hududiy omil globallashuv samarasi o'laroq, o'zining an'anaviy ahamiyatini yo'qotmoqda va tabiiy ravishda davlat hokimiyati mavqeiga ham putur yetmoqda. Boshqacha aytganda, milliy chegaralar tobora shaffoflashib, "yuvilib" ketmoqda;

to'rtinchidan, butun dunyo bo'ylab bir qator G'arb davlatlari rahnamoligida "demokratiyalashuv" jarayoni jadallashmoqda va buning natijasida ayrim davlatlarning o'ziga xos demokratik taraqqiyotiga chetdan kuchli ta'sir o'tkazilayapti.

Ya'ni bu jarayondan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga urinayotgan globalizm g'oyasi asoschilari boshqa mamlakatlarning siyosiy boshqaruv tizimini o'z qo'llariga olishga urinmoqdalar. Misol uchun, MDHga a'zo bir qator davlatlarda 2005 yilda yuz bergan "inqiloblar", siyosiy globallashuv mahsuli bo'lib, ushbu voqealar yuqori darajada taraqqiy etgan davlatlar boshqa davlatlarning suvereniteti va ichki ishlariga aralashmaslik prinsipini pardalangan shaklda buzayotganidan dalolat beradiki. Bunda siyosiy globallashuv jarayonining yana bir mahsuli – nodavlat tashkilotlarning resurslari va nufuzidan tashkiliy niqob sifatida foydalanish dunyo bo'ylab keng tarqalmoqda.

Globalashuv jarayoni insoniyat taraqqiyotining malum bosqichida yuzaga kelgan obektiv jarayon bo'lib, u biror-bir shaxs yoki davlatning xoxish-irodasi bilan paydo bo'lgani yo'q. Lekin mana shu obektiv jarayonni insoniyatning umumfoydasiga o'z davlatining iqtisodiy, siyosiy qudratini yanada yuksaltirishga, bu yo'lda boshqa davlatlarning

manfaatlari-yu kelajak taqdiri bilan hisoblashmaslik globallashuv jarayonini ko‘proq salbiy jarayonga aylantirib, insoniyatning unga bo‘lgan umid va ishonchini yo‘qqa chiqarmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Avvalambor, ommaviy madaniyat ko‘rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta’lim tarbiyasiga har birimiz mas’ul ekanimizni unutmasligimiz kerak. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosiga tayanamiz.¹”

Internet – inson tafakkuri, aqli va bilimi qudratining mahsuli bo‘lib, bugungi kunda butun dunyoni qamrab olgan global kompyuter tarmog‘idir. Internet tarmog‘ining tezkorligi, arzon va keng qamrovli aloqa, hamkorlik ishlardagi qulaylik, hammaning ishlashi uchun imkon beruvchi dastur hamda ma’lumotlarning noyob bazasi ekanligi bilan o‘ziga tortmoqda. Global tarmoq afzalliklarini inkor etmagan holda, uning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri, xavf-xatarlarini ham e’tiborga olmoq darkor.

Jahonning bir necha mamlakatida uyushgan terrorchi guruhlar va tashkilotlarning saytlari mavjud bo‘lib, ular orqali yoshlarning ongiga, turmush tarziga to‘g‘ri kelmaydigan yot g‘oyalar targ‘ib qilinmoqda. Shuningdek, pornografik mazmunga ega bo‘lgan sahifalar yosh avlodning tarbiyasiga, xulq-odobiga zarar yetkazmoqda. Bugungi kunda yoshlar internetga asosan yangiliklarni izlash, yangi do‘stlar orttirish va muloqot qilish, musiqa ko‘chirib olish, o‘zlariga kerakli ma’lumotni olish uchun kiradilar. Yoshlar internetdan umummilliy manfaatga xizmat qiladigan va uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotlarni tanlab tahlil qilib foydalansalar, ularning ma’naviyati va tafakkuri o‘sib, axborot istemol madaniyatga ega yoshlar salbiy va noxolis ta’sirga tushib qolmaydilar.

Globallashuv natijasida migratsiya jarayonlarining faollashayotganligi ham sezilmoqda. Bu jarayon keltirib chiqarayotgan ayrim salbiy oqibatlar, jumladan, transmilliy jinoyatlar (xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, xalqaro narkobiznes, odam savdosi va boshqalar) ning ko‘payishi kuzatilmoqda. Xalqaro globallashuv insoniyat, mamlakat

¹ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent, O‘zbekiston, 2017, 1 tom, - 89 bet

hayotining borgan sari yangi-yangi sohalarini egallab, uning natijasida hozirgi davrga qadar bo'lgan xalqaro tartibot, madaniyatlar, qadriyatlar yangi ma'no va mazmun bilan to'lib bormoqda. Ayniqsa, inson qadriga ham o'z ta'sirini kuchli o'tkazmoqda. Noqonuniy migratsiya oqibati sifatida mavjud bo'layotgan "odam savdosi" dek holat dunyo jamoatchiligini tashvishga solmoqda.

Jahon amaliyoti ko'rsatib turganidek, xalqaro globallashuv o'tish davrida turgan davlatlardagi demokratiyalashuv jarayonlariga birdek ijobiy ta'sir ko'rsatmayapti. Aksincha, globallashuv ayrim jamiyatlarda demokratiyalashuv jarayonlarini murakkablashtirmoqda. Bundan tashqari, har bir jamiyat amaliyotidagi demokratiyalashuv jarayonlariga ta'sir qiluvchi tashqi omillar soni ham tobora ortayapti. Demokratiyalashuv jarayonlarining milliy mamlakat doirasidagi barqarorligi ichki omillar bilan bir qatorda tashqi omillarga ham bog'liq bo'lib, ko'pgina mamlakatlarda kuzatilganidek, jamiyat a'zolarining mas'ullik hissi pasaymoqda. Chunki globallashuv tufayli ro'y beruvchi o'ta kuchli integratsiya jarayonlari: iqtisodiy hamda axborot almashish sohlalardagi chuqur integratsiyalashuv ma'lum darajada va obektiv ravishda milliy davlatlar rolini chegaralab qo'yadi. Buni integratsiyalashuv natijasida vujudga keluvchi xalqaro tashkilotlarning ba'zi hollarda milliy davlatlar taraqqiyotining yo'nalishlariga ta'sir o'tkazishga harakat qilayotganliklaridan ko'rish mumkin.

Qadriyatlar tizimiga globallashuvning ta'sir etish muammosiga nazar soladigan bo'lsak, bunga asosiy sabab jadal o'zgarib borayotgan fan va texnologiya, san'at, axloq, turmush tarzi ekanligini sezamiz. Bunday o'zgarishlar kishilarning qulaylikka, moda va zamonaviylikka intilishida, uning oqibatida esa, kundalik turmush tarzining transformatsiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ko'plab olimlarning fikriga ko'ra, globallashuv jarayonlari tufayli kelib chiqayotgan muammolar ko'pchiligi rivojlangan davlatlarning manfaatlariga xizmat qilmoqda.

Hozirgi davrning global muammolari tasnifi. Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar uyg'unligi. Global muammolarning o'ziga xos xususiyatlari: jami insoniyat manfaati va taqdiriga ta'sir ko'rsatish; iqtisodiy va ijtimoiy sohada inqirozlarga sabab bo'luvchi, chuqurlashgan taqdirda esa jahon sivilizatsiyasining

mavjudligiga xavf soluvchi; yechimini topishga umumsayyoraviy miqyosdagi hamkorlikni va birgalikda harakat qilishni talab qiluvchi muammolardir.

Global muammolarning eng muhimlari quyidagilar:

1) rivojlangan mamlakatlar bilan qoloq davlatlar orasidagi tafovutning kuchayishi, rivojlanayotgan mamlakatlarni qashshoqlik va qaramlikdan chiqarish muammosi;

2) yadro urushi xavfi, jahon bo‘ylab tinchlikni saqlash va qurolsizlanish muammosi;

3) ekologik muammolar;

4) energetik muammolar;

5) xom ashyo muammosi;

6) oziq-ovqat muammosi;

7) gumanitar muammolar;

8) koronavirus pandemiyasi (2020 yildan boshlangan va bugun insoniyat hayotini xavf ostiga solayotgan kasallik) va h.k.

Bundan tashqari, koinot fazosi va jahon okeanining ifloslanishi, ichimlik suv tanqisligi, sog‘liqni saqlash tizimining notekis rivojlangani, ishsizlik, diniy ekstremizm va terrorizmning xalqaro tus olishi va shu kabi xavflar ham insoniyat boshi soya solib turibdi.

Yuqorida qayd etilgan global muammolarga qisqacha to‘xtalamiz.

Qoloq mamlakatlarni rivojlantirish muammosi; hozirgi kunda jahonda mavjud barcha mamlakatlarning 30 foiziga yaqini qoloq hisoblanadi. Shularning 75 foizi Afrikada, 1 tasi Yevropada, 4 tasi Janubiy Amerikada va 11 tasi Osiyoda joylashgan. Iqtisodiy qoloqlik mazkur mamlakatlarda siyosiy barqarorlik hamda ijtimoiy tengsizlik, irqiy va diniy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, jahonda eng rivojlangan yetti davlatda hamda G‘arbiy Yevropaning rivojlangan 24 mamlakatida dunyo aholisining 23 foizi yashaydi. Ammo shu aholi jahonda ishlab chiqarilayotgan energiyaning 75 foizini, yoqilg‘ining 79 foizini, o‘rmon mahsulotlarining 95 foizini iste’mol qiladi. Eng qizig‘i bu ashyolarning asosiy qismi uchinchi dunyo davlatlaridan olinadi.

Tinchlikni saqlash va qurolsizlanish muammosi har qachongidan ham jiddiy bo‘lib bormoqda. Zotan bir necha qudratli davlat shu paytgacha

to'plagan yadro quroli 18 milliard tonna trotilga to'g'ri keladi. Bu esa, Yer yuzidagi har bir odamga 3,6 tonna portlash moddasi tayyorlab qo'yilganini bildiradi. Agar shu yadroning 1 foizi portlasa, faqat insonlar emas, barcha tirik jonzot qirilib ketadi¹.

Ekologik muammolarning ildizi faqat inson faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ilmiy asoslanmagan, betartib tarzda tabiatdan foydalanish oqibatida atrof-muhitning degradatsiyalashuvi, sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi va zaharlanishi. Ushbu muammolar O'zbekiston hududini ham chetlab o'tgani yo'q. Prezident Shavkat Mirziyoev BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida jahonga ko'rsatgan Orol xaritasi XX asrning global miqyosdagi ekologik va gumanitar halokatidir desak, mubolag'a bo'lmaydi. Yurtboshimiz quyidagilarni ta'kidlaydi:

“Hozirgi vaqtda Orol fojiasi tufayli 5,5 million gektardan ortiq maydonda Orolqum sahrosi paydo bo'ldi. Har yili 100 million tonna qum va tuz havoga ko'tarilmoqda...

Orol bo'yini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish bo'yicha BMT Bosh Assambleyasining rezolyusiyasini hayotga tatbiq etish borasida quyidagi tizimli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz lozim:

❖ Orol dengizining qurigan tubida 500 ming gektar yashil maydonlar barpo etib, ularning umumiy hajmini 2,5 million gektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish;

❖ Orol bo'yida xalqaro "Yashil iqlim" va "Global ekologik jamg'arma"larning bioxilma-xillik, iqlim o'zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million dollarlik loyihalarni amalga oshirish;

❖ Orol bo'yi hududida sog'liqni saqlash, ta'lim, ichimlik suvi ta'minoti, yoshlar tadbirkorligi, ayllar bandligi yo'nalishlarni moliyalashtirish uchun BMT shafeligidagi Trast jamg'armasiga jami 1 million dollar grant va imtiyozli kreditlar jalb qilinadi"².

Biz yuqorida eslatib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasi 2020 yil 18 may kuni bir ovozdan qabul qilindi. Ushbu rezolyusiyani ishlab chiqishda AQSh, Rossiya, Xitoy, Turkiya,

¹ <https://skysmart.ru/articles/obshchestvoznanie/globalnie-problemi-chelovechestva>

² Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent, O'zbekiston, 2021, B.315-316.

Ozorbayjon kabi dunyodagi nufuzli davlatlar, jami 50 mamlakat hammuallif sifatida ishtirok etgani bu tashabbus jahon hamjamiyatida shunday katta qiziqish uyg‘otganidan dalolat beradi¹.

Energetik muammolar kelib chiqishining sabablari quyidagilar: yer yuzidagi tabiiy zaxiralarning kamayib borishi, atrof-muhitning ifloslanishi, neft-gaz qazib chiqarishning globallasuvi, bular narxining o‘sib borishi, shunga qaramay to‘lash qobilyatiga ega yirik istemolchilarning paydo bo‘lishi, uglevodorod xom ashyosi bilan ko‘plab davlatlarning past darajada ta‘minlangani va h.k. 1973-yilda yuz bergan energetika inqirozining oqibatlari hozirgacha sezilmoqda. Energetika muammosi xom ashyo va uni saqlash, to‘g‘ri taqsimlash, oqilona foydalanish, resurslarni asrash zaruratini ko‘rsatadi. Chunki buning ortidan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolar yuzaga keladi va beqarorlik avj oladi.

Oziq-ovqat muammosi ko‘plab mintaqalarda juda keskin tus olgan. Ma‘lumki, insonning bir kunlik normasi 2400 – 2500 kilokaloriyadan past bo‘lmasligi lozim; 1800 kkal.dan pasaygan holat to‘yib ovqat yemaslik deb yuritiladi. Ocharchilik esa 1000 kkal.dan kam bo‘lganda kuzatiladi. Ming afsuski, hozirgi ilmiy-texnika va axborot davri bo‘lgan XXI asrda ham millionlab odamlar ochlikdan azob chekmoqda, dunyodagi 47 mamlakat aholisi ochlik yoqasida turibdi. Bu jarayonlarni bartaraf etishning yagona yo‘li – sivilizatsiyani qayta tiklash va insonlar ongini, e‘tiqodi, ruhiy tarbiyasini yangilashdir. Insoniyat bu ishni uddalay oladi, deb umid qilish mumkin.

Gumanitar muammolar jiddiy masalaga aylanmoqda. Hozirgi paytda 1 milliard aholi o‘ta qashshoq va ochlikda, 4,8 milliard aholi tibbiy xizmatdan mahrum, 1,5 milliard aholi yashash sharoitiga ega emas. Xalqaro darajadagi Our World In Data portali ma‘lumotlariga ko‘ra, yer yuzi aholisining $\frac{2}{3}$ (uchdan ikki) qismi kuniga 10 dollar sarf etar, 10 foizi esa, 2 dollardan kam mablag‘ga kuni qolgan ekan.

COVID-19 pandemiyasi, odamzot boshiga o‘ta og‘ir kulfatlar soldi, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining yangilangan ma‘lumotlariga ko‘ra, ushbu kasallikdan 15 milliondan ziyod odam vafot etgan. Yana bu

¹ Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Yangi O‘zbekiston gazetasi bosh muharriri savollariga javoblari asosida) – “Yangi O‘zbekiston” gazetasi № 165(421) 2021 yil 17 avgust.

pandemiya kambag'al davlatlarni yanada qashshoqlashtirdi, boshqa global muammolarni esa yanada chigallashtirdi.

Xulosa qilib aytganda, global muammolar ko'lami kengayib, insoniyat kelajagi uchun xavfi ortib bormoqda. Bunday vaziftda barcha davlatlar, ayniqsa, milliardlab mablag'ini qurollanishga, urush-janjallarga, sanksiya va cheklovlarga sarfida qilayotgan zo'rovon davlatlar o'z sa'y-harakatlarini birlashtirsagina – bu muammolar, qisman bo'lsa-da, hal etiladi.

Global jarayonlarni bashorat qilishning ahamiyati. Hozirgi davrni aksariyat faylasuf olimlar global inqirozlar davri deb atamoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda falsafa va fan sohasi vakillari uchun insoniyat kelajagini bashorat qilish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Olimlar o'rtasida "prognostika", "futuurologiya", "innovatsion loyihalashtirish", "globalistika" va boshqa shu kabi sohalarga tegishli bo'lgan muammolar tahliliga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi tizimli global inqirozni oldindan bashorat qila olmagan, uning sabablari va ildizlarini yorita olmayotgan an'anaviy fanning inqirozi yuz bermoqda. Shuning uchun ham murakkab global o'zgarishlarni atroflicha tahlil qilish va insoniyat kelajagini bashorat qilishda yangi ilmiy paradigmalarga bo'lgan ehtiyoj tobora oshib bormoqda.

Darhaqiqat, an'anaviy fan doirasidan turib global inqirozni bartaraf etish va barqaror taraqqiyot modeliga o'tish mumkin emas. Budan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda insoniyat ham global, ham milliy miqyoslarda sifat jihatdan butkul yangi taraqqiyot yo'liga kirish uchun chiziqli tafakkurdan ancha yuqori bo'lgan va eng to'g'ri paradigmal yondashuvni izlab topish va unga amal qilishga zarurat sezmoqda. Bu boradagi muammolarni hal etishda ilmiy bashorat imkoniyatlariga katta ilinj va qiziqish bilan qaralmoqda.

Shu o'rinda takidlash kerakki, globallashuv tufayli yuzaga kelgan muammolarni tushuntirish bir qiymatli ahamiyatga ega bo'lmaydi. Faqatgina ayni bir xulosani global o'zgarishlarga doir turli qonunlar va shartlardan keltirib chiqarilishi mumkin. Chunki agar empirik gipotezadan bir muncha bashoratlar yani avvaldan aytish kelib chiqsa, ularning hammasi bir-biriga muvofiq va ularning hammasini konyunksiya

vositasida bitta murakkab asosga birlashtirish mumkin. Hozirgi kunlarda noxush prognozlar va pessimistik bashoratlar har qancha ko‘p bo‘lmasin, baribir, odamlarning orzu – umidlari kelajakning yaxshi bo‘lishiga qaratilganligi bilan xarakterlanmoqda.

Faqat alohida shaxsga emas, balki butun insoniyatga xavf solayotgan global muammolarning to‘la bo‘lmagan ro‘yxatidan kelib chiqib, kelajakni avvaldan bashorat qilishga doir asosiy ilmiy-falsafiy qarashlarni rivojlantirib bo‘lmaydi. To‘g‘ri, istiqbolni avvaldan bilish qobiliyati eng qadimgi davrlardan boshlab rivojlanib kelgan. Bunga eng qadimgi xalq, millat va elatlardagi turli karomatchi avliyolar va bashoratchilarning bo‘lganligini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bugungi kunda ham istiqbolni bilishga bo‘lgan intilish so‘ngani yo‘q, aksincha, bilimning kelajak taraqqiyotni asosli bashorat qilib beruvchi ko‘p sonli mutaxassislarni birlashtiruvchi turli fan sohalari yuzaga keldi. Bu bashoratlar hozirgi zamonda mavjud ilmiy talablar, qonun va qonuniyatlarga asoslanishi bilan utopiyalardan farq qiladi, ularning mohiyati shundaki, hozirgi zamon texnologiyalarining kelgusi taraqqiyotining va hayotiy turmush tarzining qanday natijalarga olib kelishini oldindan bashorat qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ham keyingi yillarda futurolog olimlar jamiyatning ichki muammolariga: ijtimoiy, psixologik, madaniy va boshqa masalalarga alohida etibor qaratmoqdalar. Bu jarayonda ular ijtimoiy, madaniy, axloqiy va boshqa o‘zgarishlarni nazarda tutmagan ilmiy bashoratlardan farqli ravishda kelajakka ishonch bilan bog‘langan, yaxshiroq kelajakni kutishga asoslangan va hatto hozirgi zamonning oson bo‘lmagan muammolarini noan’anaviy yo‘llar bilan yechish masalalarini hal etishni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqdalar. Bunday munosabatlar tizimida esa texnokratik va axloqiy – siyosiy, yoki ijtimoiy bashoratlar alohida o‘rinni egallamoqda. Shu bilan birga, klassik ilmiy bashoratlarda birinchi darajada axloqiy ideal turgan bo‘lsa va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik shu idealni eng samarali amalga oshirish tarzida modellashtirilgan bo‘lsa, istiqbolning bugungi innovatsion asosga ega bo‘lgan loyihalar butun insoniy munosabatlarni oqilona tashkil qilishga qaratilganligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodiy integratsiya, uning asosiy yo‘nalishlari. Iqtisodiy integratsiya – turli korxonalar va tarmoqlarning, shuningdek, mamlakatlarning ishlab chiqarish sohasida bir-biriga yaqinlashuvi, ular o‘rtasida uzviy iqtisodiy aloqalar o‘rnatilishi, mamlakatlararo yagona umumiy xo‘jalikning shakllanishi jarayonidir. Iqtisodiy integratsiya butun bir mamlakatlar milliy xo‘jaliklari darajasida, shuningdek, korxonalar, firmalar, kompaniyalar, korporatsiyalar darajasida ham kuzatiladi. Iqtisodiy integratsiya ishlab chiqarish-texnologik aloqalarning kengayishi va chuqurlashuvida, resurslardan hamkorlikda foydalanish, kapitalarni birlashtirishda hamda iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida bir-biriga qulay sharoitlarni yaratishda, o‘zaro to‘siqlarni olib tashlashda namoyon bo‘ladi.

Iqtisodiy integratsiya asosida mehnat taqsimoti yotadi. Mehnat taqsimoti tufayli ayrim mahsulotlar emas, balki detallar ham ixtisoslashgan korxonalar va tarmoqlarda ishlab chiqariladi. Shu tariqa korxonalar va tarmoqlar o‘zaro yaqin va muntazam iqtisodiy aloqa bog‘laydi. Avvalo, korxonalar o‘rtasida iqtisodiy integratsiya yuz beradi va ularning birlashmasi vujudga keladi, so‘ngra iqtisodiy integratsiya tarmoqlararo miqyosda yuz berib, yirik ishlab chiqarish majmualari paydo bo‘ladi. Bir tarmoq doirasida gorizontal integratsiya, tarmoqlararo esa vertikal iqtisodiy integratsiya yuz beradi. Vertikal iqtisodiy integratsiyaga agrosanoat majmui misol bo‘ladi, u qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Mehnat taqsimoti xalqaro miqyosda amalga oshishi bilan xo‘jalik hayoti baynalminallashadi, moddiy mahsulot yaratishda turli mamlakatlarda korxonalar va tarmoqlar qatnasha boradi, binobarin, mamlakatlararo iqtisodiy integratsiya yuzaga keladi, buning natijasida mamlakatlar iqtisodiyotida ixtisoslashish yuz beradi va mamlakatlar bir-birlariga mahsulotlar va xizmatlar yetkazib beradi. Shu sababli hozirgi davrda xalqaro iqtisodiy integratsiya eng yuqori darajadagi va yetakchi integratsiya ko‘rinishi hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya uzoq davom etadigan ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, turli shakllarda yuz beradi: **birinchi bosqichda** turli mamlakatlar o‘rtasida erkin savdo-sotiq olib boriladi, bojxona to‘lovlari, eksport kvotalari bekor qilinadi erkin savdo zonalari tashkil etiladi. Natijada davlatlararo tovar ayirboshlashda integratsiyalashuv yuz beradi;

ikkinchi bosqichda erkin iqtisodiy zonalar shakllanib, bu yerda ham bir necha mamlakatlar birlashadi. Bu bosqichda integratsiya aloqalari savdo-sotiq bilan cheklanmasdan, sanoat, bank, sug'urta ishi va texnologiya sohasida ham yuz beradi. Bu zonalar ochiq iqtisodiy hududlar hisoblanadi, iqtisodiy aloqalar erkin va ko'p qirrali bo'lib, barcha iqtisodiyot sub'ektlari imtiyozlarga ega bo'ladilar;

uchinchi bosqichda umumiy bozor shakllanadi. Umumiy bozorni tashkil etgan mamlakatlarning milliy bozorlari bir-biri uchun ochiq bo'ladi, amalda milliy bozorlar birlashib, mamlakatlararo umumiy bozor vujudga keladi. Bu bozorda barcha tovarlar erkin, hech bir cheklovlarsiz ko'chib yuradi. Ish kuchi, kapital va tovarlar bir mamlakatdan boshqasiga o'tadi, qaysi mamlakatda resursni ishlatish qulay bo'lsa, u shu yerga borib joylasha oladi. Umumiy bozorda iqtisodiy chegaralar amalda bekor qilinadi, bojxona to'lovlari, eksport kvotalari, tovar sifatiga talab minimal darajaga keltiriladi;

to'rtinchi bosqichda iqtisodiy va valyuta ittifoqi doirasida integratsiya yuz beradi. Bu yerda integratsion aloqalar savdo-sotiq va ishlab chiqarish bilan cheklanmay, moliya, pul muomalasi va bank tizimiga ham kirib boradi. XXI asr boshlaridagi integratsiyaning eng yuqori shakli bo'lgan **iqtisodiy va valyuta ittifoqi** mamlakatlar iqtisodiyotini yuksak darajada birlashtiradi, iqtisodiy umumiylikka ustuvorlik beradi, ammo ayrim mamlakatlar mustaqilligini ma'lum darajada cheklaydi.

Hozirgi davrda jahonning boshqa mintaqalarida ham integratsiya jarayonlari jadal bormoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, AQSh, Kanada va Meksikani birlashtirgan Shimoliy Amerika uyushmasi, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi (ASEAN), Tinch okean region uyushmasi (ATES), Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar o'rtasida integratsion hamkorlik kuchayib bormoqda. Hozirgi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy integratsiyasini chuqurlashtirish yo'lida jiddiy ishlar amalga oshirildi: zaruriy huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratildi, davlatlararo kengash tuzildi, ijroiya qo'mitasi, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etildi.

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishining shart-sharoitlari va tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari Respublika

davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilan vujudga kela boshladi. Bunday vaziyatda tashqi iqtisodiy majmuini boshqarishning o‘ziga xos tizimini shakllantirish, tashqi aloqalarni yo‘lga qo‘yish borasida qoida va tamoyillarni ishlab chiqish, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilish yo‘llarini belgilash taqozo etildi. Respublika tashqi siyosatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik negizida qurilsa, uning qoidalari ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnoma munosabatlarida o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatish, xalqaro iqtisodiy ittifoqlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga asoslanadi. O‘zbekistonning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo‘jalik aloqalarida ishtirok etishining asosi ochiq turdagi iqtisodiyotni vujudga keltirishdir. Shu sababli respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin qisqa davr ichida 80 dan ortiq davlat bilan diplomatiya munosabatlarini o‘rnatdi, dunyoning 20 dan ortiq davlatida diplomatiya elchixonalarini ochdi, ko‘pgina xalqaro tashkilotlar – BMT iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro bank, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko‘maklashuvchi tashkilot, Islom taraqqiyot banki kabi boshqa xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a‘zo bo‘lib kirdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonining mintaqaviy xususiyatlari. Bugungi kunda O‘zbekistonning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi ko‘p darajali tizim sifatida amal qilib, uni quyidagi **beshta darajaga** ajratish mumkin: **global; transkontinental; mintaqalararo; mintaqaviy; mahalliy**. Har bir darajadagi integratsion aloqalarning o‘ziga xos vazifalari mavjud.

O‘zbekistonning **global darajada** amalga oshiriluvchi strategik integratsion vazifasi – bu mamlakatdagi barcha xo‘jalik sub’ektlarining tashqi bozor bilan o‘zaro aloqasini ta‘minlash uchun teng huquqli va milliy manfaatlarga mos keluvchi shart-sharoitlarni yaratish asosida uning xalqaro valyuta-moliya va savdo mexanizmlariga bevosita qo‘shilishidir.

Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, “Globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal

sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangi yondoshuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda"¹.

O'zbekistonning BMT, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE), Yevropa hamjamiyati, NATO, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) kabi tashkilotlar faoliyatidagi faol ishtiroki uning jahon xo'jaligiga yanada kengroq integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

O'zbekistonning **transkontinental darajada** amalga oshiriluvchi integratsion vazifasi – bu xalqaro transosiyo Iqtisodiy ham korlik tashkiloti (EKO) doirasidagi o'zaro aloqalarni yanada kuchaytirishdan iborat. Bu tashkilot 1992 yilda tashkil etilgan bo'lib, o'z ichiga Osiyo qit'asining 10 ta davlati (Turkiya, Eron, Pokiston, Afg'oniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Ozarbayjon) ni oladi. Uning asosiy maqsadi – xo'jalikning transport, kommunikatsiyalar, sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, turizm, ishchi kuchi resurslarini rivojlantirish kabi sohalarida mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yishdan iborat. O'zbekiston mintaqalararo darajada yangi mustaqil davlatlar – MDH mamlakatlari bilan integratsiyaga kirishdi. O'zbekiston birinchilar qatorida MDHni tashkil etish g'oyasini qo'llab-quvvatladi, uning tashkilotchilari tarkibiga kirdi, integratsion va kooperatsion aloqalarini mustahkamlash hamda uning Xalqaro iqtisodiy qo'mita (MEK), Davlatlararo bank (MGB), MDH Statistika qo'mitasi kabi institutsional tuzilmalarini shakllantirishda faol ishtirok etmoqda.

O'zbekistonning **mintaqaviy darajadagi** integratsiyasi – bu umumiy tarixga, yagona madaniy an'analarga, o'xshash turmush tarzi va mentalitetga ega bo'lgan qardosh xalqlarni birlashtiruvchi Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirishdan iborat. Bunday integratsion aloqaning aniq shakli sifatida 1992 yilning yanvar oyida tashkil etilgan Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorligi (SARS) tashkil etildi. Yana bir istiqbolli, kuchli salohiyatga ega bo'lgan mintaqaviy birlashmalardan biri – Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)dir. Bu tashkilot 2001 yilning 15 iyunida oltita – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Rossiya va Xitoy mamlakatlari hamkorligida tashkil etildi. Bugungi kunda Shanxay hamkorlik

¹ Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent, O'zbekiston, 2021, B.304.

tashkilotining xalqaro maydondagi nufuzi, obro‘-e‘tibori sezilarli darajada oshib bormoqda. Ushbu tashkilot safidan joy olish istagini bildirgan davlatlar soni ham ko‘paymoqda. ShHTning salohiyati haqida gapirganda masalaning faqat iqtisodiy jihati hisobga olinsa ham, uni yirik iqtisodiy-integratsiyaviy tashkilot deb atash uchun barcha asoslar yetarlidir. ShHTning salohiyat va imkoniyatlari to‘g‘risida so‘z ketganda, eng avvalo, unga a‘zo mamlakatlar egallagan hudud ko‘lamining ahamiyatli darajada kattaligini ta‘kidlash o‘rinlidir.

Samarqand shahrida 2022 yil 16-17 sentabr kunlari o‘tkazilgan sammitda Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekistonning 2021-2022 yillarda ShHTga raisligi natijalari yuzasidan axborot berdi. Qayd etilganidek, bu davrda 80 dan ortiq yirik tadbir o‘tkazildi. Pandemiyaning murakkab oqibatlari va yangi xavf-xatarlarga qaramay, O‘zbekistonning ShHTga raisligi rejasi to‘liq bajarildi. Prezidentimiz ShHT tarixan qisqa davrda mintaqaviy va global jarayonlarning ta‘sirchan ishtirokchisiga aylanganini ta‘kidladi. Xavfsizlik va iqtisodiy o‘shishning muhim omili sifatida, tashkilotning barqarorlashtiruvchi roli kuchayib bormoqda. Davlatimiz rahbari ShHTning bloklarga qo‘shilmaslik maqomini, ochiqlik va keng hamkorlikka qaratilgan ruhini saqlash, murosa, teng huquqlilik va o‘zaro hurmat prinsiplariga amal qilish zarurligini alohida ta‘kidladi¹.

O‘zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkiloti mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiyasining kuchayishi ko‘p jihatdan mazkur mamlakatlarning milliy manfaatdorligi bilan belgilanadi. Eng avvalo, O‘zbekiston raqobat jihatidan nisbatan ustunlikka ega bo‘lgan ishlab chiqarish sohalari tovarlari – paxta xom ashyosi, mashinasozlik, kimyo sanoati, qurilish materiallari sanoati, elektr energetikasi tovarlarining savdosini kengaytirishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, telekommunikatsiyalar, suv va energiya resurslaridan foydalanish, xalqaro turizm, hamkorlikdagi ekologik loyihalarni amalga oshirish borasida integratsiya aloqalarini kuchaytirish lozim.

Korrupsiya – ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida. Korrupsiyaning tarixiy o‘zaklari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma‘lum mavqega ega bo‘lish uchun qabila sardorlariga sovg‘alar berish odatidan

¹ Samarqand sammiti Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida yangi sahifa ochdi. https://uza.uz/posts/samarqand-sammiti-shanxay-hamkorlik-tashkiloti-faoliyatida-yangi-sahifa-ochdi_408437

kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziydashuvi Korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan malum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Jumladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, Chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Quroni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar" deyilgan.

Ikki xil mano'ni anglatuvchi qonunlar — ushbu vaziyat huquqni qo'llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo'llash imkonini yaratadi. Shuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, mamuriy qonunchilikdagi "vilka" sanksiyalarni ham Korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr yuritishgan. Yani sanksiyaning aniq miqdori yo'qligi sudyada uni o'z hohishiga qarab qo'llashga sharoit yaratib beradi. Aholi huquqiy savodxonligining pastligi — aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o'zining shaxsiy manfaati yo'lida qonunlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda umumdavlat etikasi va xalqaro hamkorlikning ahamiyati. Jahon mamlakatlarida Korrupsiyaga qarshi kurashning quyidagi usullari mavjud.

Ichki nazorat - bu usul boshqaruv apparatining o'zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar (har xil ichki inspeksiyalar va boshqa nazorat organlari tuzish orqali) yaratishni taqazo etadi. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi xodimlarning ichki etiket qoidalariga rioya qilishini nazorat qilishdir. Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham bir qator huquqni muhofaza qilish organlarida aynan shu vazifani bajaruvchi ichki tuzilmalar yaratilgan.

Tashqi nazorat — bu usulda ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligini oshirish nazarda tutilib, aynan ushbu tuzilmalar orqali Korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. Yani sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga erishish ommaviy axborot vositalariga ko‘proq erkinlik berish va h.k.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvesiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, Korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish Korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o‘rin egallaydi.

BMT Kodeksida Korrupsiyaga munosabat. Xorijiy mamlakatlardagi kriminologiyaga doir adabiyotlarda "Korrupsiya", "huquqiy hujjatlarning anti Korrupsiyaviy ekspertizasi", "anti Korrupsiyaviy monitoring", "anti Korrupsiyaviy standart" tushunchalarining mazmuni yetarlicha ochib berilgan. Keyingi paytlarda bunday atamalar MDH davlatlari qonunchiligiga ham faol ravishda kiritilmoqda. Bunday jarayonlar ortida davlat va jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashga bo‘lgan irodasi yotadi. Ilgarilari bu davlatlarda Korrupsiyaga uncha muhim ahamiyatga ega bo‘lmagan jinoiy voqelik sifatida qaralgan bo‘lsa, hozir u jamiyat tomonidan qattiq tanqid qilinib, davlat siyosati darajasida qoralanmoqda. Chunki Korrupsiya jamiyat va mamlakat iqtisodiyoti rivojiga salbiy ta‘sir etadigan illatdir. Korrupsiyaning boshqa jinoyatchilik turlari, ayniqsa, uyushgan va iqtisodiy jinoyatchilik bilan aloqalari uzviylik kasb etib borishi butun ijtimoiy munosabatlar uchun yanada xatarlidir. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yirik Korrupsiyalashgan guruhlar sekin-asta davlat hokimiyati idoralariga kirib borib, hokimiyat tizimini ham o‘ziga ishlashga majbur etishi mumkin.

Xalqaro miqyosda ham Korrupsiya xavfsizlikka tahdid sifatida baholanadi. Shu sababdan XX asrning 90-yillari boshidan xalqaro va mintaqa doirasida Korrupsiyaga qarshi qaratilgan shartnomalar qabul qilina boshlandi. Bularga misol qilib quyidagi xalqaro hujjatlarni ko‘rsatish mumkin:

– Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan 1997 yil 21 noyabrda qabul qilingan Xalqaro tijorat bitimlarida xorijiy davlatlar

mansabdor shaxslarini sotib olishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya;

- Yevropa Kengashi Vazirlar Qo'mitasi tomonidan 1999 yil 27 yanvarda qabul qilingan Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik;
- Fuqarolik-huquqiy javobgarlik to'g'risidagi konvensiyalar;
- Afrika Ittifoqining Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash to'g'risidagi 2003 yil 12 iyuldagi konvensiyasi;
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka hamda Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr).

BMT Korrupsiyaga qarshi kurashish davlatning majburiyati va uni samarali bajarish uchun keng qamrovli choralar qo'llanilishi lozim, deb hisoblaydi. MDH doirasida esa, unga azo davlatlar Parlamentlararo assambleyasi tomonidan Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to'g'risidagi model qonun qabul qilingan (2003 yil 15 noyabrdagi 22-15-qaror).

O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga 2008 yil 7 iyuldagi O'RQ-158-sonli Qonuni bilan qo'shilgan bo'lib, ushbu Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi Korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi-davlatlarga yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan organlar sifatida belgilab qo'yilgan. Ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan va Korrupsiya sifatida etirof etilishi mumkin bo'lgan qilmishlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining bir qator moddalari bilan jinoiy qilmish sifatida taqib qilinadi.

O'zbekistonda Korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi, Korrupsiyaga qarshi kurashning ahamiyati. 2017-yil 4-yanvardan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni kuchga kirgani Korrupsiyaga barham berish uchun barcha asoslarni yaratib berdi. Mazkur qonun ijrosi to'liq va samarali taminlanishi uchun 2017-yil 2-fevralda davlatimiz rahbarining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi

qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-iyuldagi PF-6013-sonli Farmoniga binoan "O'zbekiston respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi" faoliyati tashkil etilgan.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2021 y. PF-6257-son "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida Korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, mamlakatimizda Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish bo'yicha izchil choralar ko'rilmoqda. Jumladan, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Ilk bor Korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas'ul bo'lgan alohida organ - Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Davlat hokimiyati organlari va yirik xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda.²

Jamiyatda Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat qaror toptirish o'ta dolzarb masala bo'lib, garchi uni bajarish doirasida ma'sul idoralar belgilangan bo'lsa-da, uning to'laqonli ro'yobga chiqishi uchun har bir fuqaro o'zida masuliyat his esa, qo'yilgan maqsad va muddaolar yechimi paydo bo'ladi. Har birimiz qaerda, qanday muammoga duch kelsak, uning hal etilishida ma'sul shaxslarning masuliyatsizligi yoki tamagirligiga guvoh bo'lgan sharoitga bo'ysunish, indamay ketaverish yoxud chidash o'rniga bong urishimiz kerak.

¹ Qarang: <https://lex.uz/docs/-4875782>

² Qarang: <https://o'zbekiston-respublikasi-prezidentining-06-07-2021-y-pf-6257-son-korrupciyaga-qarshi-murosasiz-munosabatda-bo'lish-muhitini-yaratish-davlat-va-jamiyat-boshqaruvida-korrupciyaviy-omillarni-keskin-kamaytirish-va-bunda-jamoatchilik-ishtirokini-kengaytirish-chora-tadbirlari-to'g'risidagi-farmoni>.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Keyingi yillarda tub islohotlar davriga qadam qo'ygan mamlakatimizda taraqqiyot kushandasi bo'lgan illat – Korrupsiyaga qarshi izchil kurash olib borilmoqda. Misollarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2020-yilda turli darajadagi mansabdorlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun 1723 shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ular tomonidan yetkazilgan zarar 500 million so'mni tashkil etgan. 2021-yilning 5 oyida esa 1696 nafar mansabdorga nisbatan jinoiy ish ochilgan. Yetkazilgan zarar 450 million so'mni tashkil etmoqda. Hech shubhasiz, bu moddiy zararlar aybdorlardan undirib olinadi. Korrupsiya balosini jamiyatimiz hayotidan yo'q qilishga qaratilgan siyosat kelgusida ham qat'iy davom ettiriladi."¹

Mas'uliyatsizlikka, adolatsizlikka nisbatan murosasizlikni o'zimizdan boshlashimiz darkor. Shunda mudrayotgan mansabdor uyg'onadi, zimmasida qanday mas'uliyat borligini his etadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "...bugungi kundagi yana bir ustivor vazifamiz, mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'layotgan yovuz illat, ya'ni Korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish huquq buzarlilarning oldini olish masalalarini samarali hal etishdan iborat."²

Umuman olganda, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunda bizning bu boradagi huquqlarimiz kafolatlangan. Qonunga ko'ra, jismoniy va yuridik shaxslarning Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik faktlariga doir murojaatlari to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqiladi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot bergan shaxslarning himoya qilinishi taminlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi va hamkorligini taminlaydi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etadi.

¹ Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Yangi O'zbekiston gazetasi bosh muharriri savollariga javoblari asosida) – "Yangi O'zbekiston" gazetasi № 165(421) 2021 yil 17 avgust.

² Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2017, 1 tom, - 52 bet

Zero, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qarorlari barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Globallashuv tushunchasiga ta'rif va tavsif bering.
2. Globallashuvning asosiy bosqichlari qaysilar?
3. Internet – Global muammomi?
4. Hozirgi davrning global muammolarini tasniflab bering.
5. Bashoratning ilmiy asoslari nima?
6. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy integratsiyaning mintaqaviy xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Korrupsiya – nima? O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi olib borilayotgan ishlar to'risida o'z fikr-mulohazalaringizni qisqacha bayon eting.

15-MAVZU. YANGI O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI BARPO ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: YUTUQLAR, IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR

Reja:

1. «Fuqarolik jamiyati» tushunchasi. Fuqarolik jamiyati barpo etish – jahon ijtimoiy hayotining bosh yo'nalishi.
2. Fuqarolik jamiyatida davlatning o'rni.
3. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etish imkoniyatlari va istiqbollari.
4. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari tamoyili.

Tayanch tushunchalar: «Fuqarolik jamiyati» tushunchasi, fuqarolik jamiyatida davlatning o'rni, milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari tamoyili.

«Fuqarolik jamiyati» tushunchasi. Ushbu tushuncha – insoniyatning bir necha asrlar mobaynida shakllangan tafakkuri mahsuli bo'lib, u jamiyatning o'ta siyosiydashgan shaklidan insoniy, fuqaroviy shakliga o'tish, inson huquqlari va erkinliklarini yuqori darajada ta'minlash mezoni sifatida namoyon bo'lmoqda.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslari qadim zamonda, mahalla instituti sifatida paydo bo‘lgan. Mustaqillik yillarida bunday jamiyatni rivojlantirish bo‘yicha konsepsiyalar qabul qilindi va amalga oshirildi. Taraqqiyot strategiyasining “Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotga eng asosiy va zarur shartiga aylashtirish” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida 20-maqсад – Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o‘rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish” deb belgilangan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida ham “Erkin va ochiq fuqarolik jamiyati”¹ to‘g‘risida nazariy g‘oyalar bayon qilingan.

“Fuqarolik jamiyati” g‘oyasi – umuminsoniy g‘oya bo‘lib, xalqaro ingliz tilida “Civil society”, rus tilida – “гражданское общество” deb yuritiladi. Jahonda bunday jamiyatni tadqiq etuvchi talay ilmiy markazlar mavjud: Centre for Civil Society Studies of John Hopkins University, University of California, Harvard University, Centre for Civil Society of London School of Economics and Political Sciences, University of Glasgow, sentr izucheniya grajdanskogo obshchestva (MGU), Seoul of National University va hokazo.

Fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi tasavvurlar ilk bor qadimgi Gresiya va Rimda vujudga kelgan. Aristotel “Siyosat” asarida bu haqda fikr yuritib, insonning erkin yashashi uchun jamiyatda qonunlar ustuvor bo‘lishi, ayni paytda bu qonunlar adolatli bo‘lmog‘i kerak², deb ta’kidlagan edi. Buyuk yunon mutafakkiri “fuqaro” deganda jamiyatning har qanday a’zosini emas, balki erkin va ozod kishilarni nazarda tutgan. Uning mulohazalariga ko‘ra, davlat – bu fuqarolar yig‘indisi, ya’ni fuqarolar jamiyatidir³. Binobarin, Aristotel “davlat” va “fuqarolar jamiyati” tushunchalarini aynan bir xil ma’noda ishlatgan.

Uning ustози Platon fuqarolik jamiyatini qonun ustuvorligi tamoyili nuqtai nazaridan tahlil etgan. Uning fikricha, qonunlarning majburiyлиги – fuqarolik jamiyati asoslarini tashkil etishi kerak; xatto din va axloq ham, xudolarning mavjudligi tufayli emas, qonun e’tirof etgani uchun zaruriyatga aylangan. Ko‘rinib turibdiki, Platon, o‘z shogirdi Aristoteldan

¹ Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent,O‘zbekiston, 2021, B.93

² Аристотел. Политика. Власт. Искусство правит миром. АСТ. 2018. - 320 с.

³ Qarang: Аристотел. Политика. Власт. Искусство правит миром. АСТ. 2018. 320 с

farqli o'laroq, fuqarolik jamiyatining markaziga davlatchilik va qonunchilik institutini qo'yadi¹. Ammo, bu ikki buyuk faylasuf "fuqarolik jamiyati" va "davlat" tushunchalarini alohida ajratmagan. Ular nazarida fuqarolik jamiyati davlatning muayyan sifat belgisi, taraqqiyot darajasidir. Mazkur konsepsiya Platon fikricha, qonunchilikning ta'minlanishi, Aristotelga ko'ra esa, fuqarolar manfaatining ifodalanishidir.

Falsafa va jamiyatshunoslik tarixida fuqarolik jamiyatiga davlatning adolat va farovonlikni ta'minlashda erishgan darajasi, deb qarash Yangi davrgacha saqlanib qolgan. Konfutsiy jamiyatning barqaror ishlashini tashkil etishda, davlat boshqaruvida ma'naviyat va axloqning o'rmini yuksaklikka ko'targan. U shunday deb yozgan edi: "Agar qonunlar yordamida boshqarilsa, tartibot jazolashlar vositasida ta'minlansa, odamlar jazolashlardan o'zlarini olib qochishga intiladi. Lekin ular or-nomusni o'zlarida his qilmaydilar; agar davlat ma'naviy-axloqiy vositalar yordamida boshqarilsa, tartibot qadriyatlar yordamida ta'minlansa, odamlar or-nomusni his qiladilar, halol va sofdil bo'ladilar"².

O'rta asrlarda fuqarolik jamiyati haqidagi g'oyalar, ayniqsa Sharq allomalari tomonidan keng tahlil etildi. Ular o'z asarlarida "fuqarolik jamiyati" tushunchasini "fozil shahar", "saodatli jamiyat" tushunchalari orqali ifodalaganlar. Xususan, Abu Nasr Forobiy Sharq falsafasida ilk bor fuqarolik jamiyati (fozil shahar) barpo etish uchun mamlakatda adolatli boshqaruvni joriy qilish zarurligini ta'kidlaydi. Jumladan, u mutafakkir boshqaruv shakllari xususida mulohaza yuritir ekan, davlatning ichki va tashqi funksiyalarini sanab o'tadi. Ushbu funksiyalar samaradorligi (ichki – fuqarolar baxt-saodatini ta'minlash; tashqi – shaharni muhofaza etish) boshqaruvning oqilona tashkil etilishiga borib taqaladi. Forobiy bunday boshqaruv shakllariga yakka hokimlik, kichik guruh tomonidan mamlakatning boshqarilishi va xalq tomonidan saylangan hukmdor hokimiyatini kiritadi. Oqilona siyosatgina insonning jamiyatdagi huquq va mas'uliyatini kuchaytiradi, deb hisoblaydi³. Forobiy orzu qilgan fozil va adolatli jamoaning johil jamoalaridan farqi shundaki, unda odamlar eng

¹ Qarang: Aflotun. Qonunlar. Urfon Otajon tarjimasini. – Toshken– Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2002. 75-bet.

² Конфуций. Суждения и беседы. Конфуций -М.: Рипол Классик 2017. – 360 с

³ Qarang: Farobiy A.Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: Xalq merosi, 1993. 159-161-betlar.

go‘zal va yaxshi maqsadlarga hamda umumiy manfaatlarga erishish yo‘lida bir-birlariga yaqindan yordam beradilar.

Forobiy fozil jamoa qurish uchun insonlarning ma‘naviy yuksalishi, fuqaroviy fazilatlarga ega bo‘lishi talablarini ilgari suradi. Forobiy X asrning boshlaridayoq adolatli fuqarolik jamiyatining sodda va oddiy modeli loyihasini quyidagicha ta‘riflangan: “Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb- hunarda ozod, hamma barobar bo‘ladi, har kim o‘zi istagan yoki tanlagan kasb-hunari bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma‘noda ozod bo‘lib, biri ikkinchisiga xo‘jayin bo‘lmaydi. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton (ya‘ni, podshoh) bo‘lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo‘ladi”¹.

Ko‘rinib turibdiki, mutafakkir ilgari surgan “madaniy jamiyat”ning asosiy belgisi, ya‘ni fuqarolik jamiyatining eng asosiy unsurlaridan biri – inson erkinligidir. Shu bilan birga, “madaniy jamiyat” va “madaniy shahar” xalqning erkin ravishda o‘zlari xoxlagan kasb-hunar bilan shug‘ullana olish huquqlariga ega bo‘lishi fuqarolik jamiyatining muhim unsurlaridan biridir.

Ma‘lumki, fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri – fuqarolarning erkinlik huquqi asosida o‘tkaziladigan saylovlardir. Saylovlar davrida fuqarolar o‘z xohish-irodasini erkin ifodalash, o‘z manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va muhofaza qilishda haqiqiy shart-sharoit, huquqiy zaminga ega bo‘ladilar. Bu kabi jamiyatda inson huquqlari va erkinliklari har tomonlama himoya qilinadi. Hozirgi davr vakillik demokratiyasining ana shu muhim unsuri ham Forobiy e‘tiboridan chetda qolmagan. Mutafakkir shunday deb yozgan: “Ularning o‘zlaridan saylangan rahbar yoki boshqalar hokimi mutloq bo‘lmaydi. Ular odamlar ichidan ko‘tarilgan, sinalgan, eng olijanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo‘ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o‘z saylovchilarini to‘la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar. Bunday rahbarlar hammaga barobar munosabatda bo‘ladi, hatto hammaning manfaatini o‘zlarining manfaatlaridan ortiq ko‘radilar,

¹ Qarang: Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 1993. 190-bet.

umumning manfaati uchun o‘zlarining shaxsiy manfaatlaridan voz kechadilar, xalq manfaati uchun o‘zlaridagi kuch-g‘ayrat va boyliklarini ayamaydilar”¹.

Forobiy fuqarolik jamiyati qonuniyatlari, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining yangi tajribalari va ilmiy tahlili asosida o‘ziga xos fikr yuritadi². U shaharni ijtimoiy uyushishning yetuk shakli, insoniyat kamolotga erishishi uchun zaruriy vositasi, deb hisoblaydi. Alloma butun insonlarni o‘zaro hamkorlikka, xalqlarni tinchlikka chaqiradi, dunyoda yagona inson jamoasini tuzish haqida orzu qiladi. U inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatga qarshi chiqadi. «Davlat arbobining hikmatlari» risolasida esa, u doimiy urushlar va bosqinchilikka asoslanuvchi jamiyatning adolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralaydi.

Forobiyning komil inson va fuqarolik jamiyati xususidagi fikrlariga yakun yasab, shuni aytish lozimki, ushbu buyuk ajddimiz g‘oyalarida inson komilligi bevosita jamiyat taraqqiyotiga, Vatan ravnaqiga uzviy bog‘liq ekanligi yaqqol aks ettirilgan. Forobiy dunyoqarashini IX-X asrlarda erishilgan yutuqlar yakuni, deyish mumkin. Uning ijtimoiy g‘oyalari keyinchalik buyuk mutafakkirlar: Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ibn Rushd, Baxmanyor, Nizomiy, Sa‘diy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar ijodi rivojlanishiga asos bo‘ldi.

Yangi davrga kelib (XVII asrda) fuqarolik jamiyati borasidagi g‘oyalar ingliz faylasufi T.Gobbs asarlarida rivojlantirildi. XVIII asrda ro‘y bergan Buyuk Fransuz inqilobi bois “Inson va fuqarolar huquqlari deklaratsiyasining” e‘lon qilinishi orqali fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi³. Kant, Russo, Gegel singari taniqli mutafakkirlar ilgari surgan fikrlari fuqarolik jamiyatining keng mohiyati va yangi qirralarini ochib berdi⁴. Gegel ta’kidlashicha, fuqarolik jamiyati - bu, eng avvalo, xususiy mulkka asoslangan ehtiyojlar tizimi, shuningdek, oila,

¹ Qarang: Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: A.Qodiriy nomidagi adabiyot va san‘at nashri, 1993. 190-bet.

² Narzulla Jo‘rayev. Tarix falsafasining nazariy asoslari. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008, 64-bet .

³ Всеобщая декларация прав человека - начало новой философии прав человека и народов. Материалы конференции СПб СПбГУ 2009. - 118с

⁴ Кант Иммануил. Сочинения. Т.5. Ч.1: Метафизика нравов. На немецком и русском языках. — М.: Канон.РООИ Реабилитация. 2014. - 1120 с.; Жан-Жак Руссо. Политические сочинения. СПб Росток 2013. - 640с.; Гегел Георг Вилгелм Фридрих. Философия права. Серия: Великие мыслители - М. Мир книги 2009.

tabaqa, davlat tuzumi, huquq, axloq, burch, madaniyat, ta'lim-tarbiya, qonunlar va ulardan kelib chiqadigan sub'ektlarning o'zaro yuridik aloqalaridan iborat. Uning ta'biricha, tabiiy, "madaniyatsiz" holatdan odamlar fuqarolik jamiyatiga kirib kelishlari kerak edi, zero, ana shu jamiyatda huquqiy munosabatlar haqiqatga aylanadi"¹.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida bir qancha olimlar ushbu masalaning yurtimizga taalluqli jihatlarini keng tadqiq etdilar. 2010 yilda Fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Nodavlat notijorat tashkilotlar soni va sifati ortib bordi, ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi roli oshdi.

Demak, fuqarolik jamiyati – bu, ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishda faol qatnashadigan, davlatning bedodligi va aralashuviga yo'l qo'ymaydigan huquq hukmron bo'lgan, fuqarolar va davlat hamkorlik asosida ishlaydigan ongli individlar jamiyatidir.

Fuqarolik jamiyati barpo etish – jahon ijtimoiy hayotining bosh yo'nalishi. "Fuqarolik jamiyati" tushunchasini ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj faqat fuqarolik jamiyati vujudga kelganidan so'nggina keskinlashdi. XVI-XVII asrlarda Yevropadagi qator davlatlardagi jamiyat fuqarolari mulk egalari sifatida bir-biriga teng bo'lgan, erkin hamjamiyatga aylandi. Pul-tovar munosabatlari rivojlandi, ish kuchi tovarga, individning esa, o'z kuchi va qobiliyatining egasiga aylandi, bozor munosabatlari tartibga solindi, xususiy mulk qo'llab-quvvatlandi va himoya qilindi; bularning bari keyinchalik fuqarolik jamiyatiga aylangan asoslar va elementlarni belgilab berdi. Ushbu yangilanishlar dunyoqarashlarda chuqur o'zgarishlarga olib keldi.

Shu boisdan ham yetuk o'zbek siyosatshunosi J.Mavlonov quyidagi xulosaga keladi: "Fuqarolik jamiyatining dastlabki tarixiy ilmiy paradigmasi sifatida antik davrdagi tasavvurlarni keltirish mumkin. Fuqarolik jamiyatini Sharqda axloqiy-ma'naviy, G'arbda esa ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy xususiyatga ega degan qarash shakllangan. Bu esa fuqarolik jamiyatining sharqona va g'arbona antik paradigmalari shakllanishiga zamin hozirlagan. O'rta asrlarda ijtimoiy-falsafiy qarashlardagi diniy me'yorlarning hukmronligi fuqarolik jamiyatining

¹ Гегел Георг Вилгелм Фридрих. Философия права. Серия: Великие мыслители- М. Мир книги 2009. - 464с.

mohiyati va mazmuniga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Xususan, xristian va Islom dinlaridagi g'oya va qarashlar fuqarolik jamiyatining diniy paradigmasi shakllanishiga asos bo'lgan"¹.

Demak, fuqaroning aql-zakovoti, ruhiy-ma'naviy kamoloti yuqori saviyada bo'lgandagina fuqarolik jamiyatini barpo etishga zamin yaratish mumkin. Chunki tabiatning oliy mahsuli, gultoji bo'lgan inson aql-idroki bilan ijtimoiy hayotda o'z o'rnini egallashi uchun doimiy ravishda intellektual (aqliy) saviyasini takomillashtirib boradi va bu, o'z navbatida, adolatli ijtimoiy-ma'naviy hayotni, turmush tarzini, xullas, fuqarolik jamiyatini barpo etishga zamin yaratadi. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatini barpo etishning qon tomiri, bosh mezonni insonni qadrlash, insoniylikni tarannum etishdan iborat.

Fuqarolik jamiyati iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma'naviy omillarning mushtaraklashgan, mujassamlashgan sifat ko'rsatkichlari indikator bo'lib hisoblanadi. Uning darajalari bilan fuqarolarning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy madaniyati rivojlanishi parametrlari o'rtasida korrelyatsion bog'lanish mavjud.

Iqtisodiy omil – shaxs va jamiyat manfaatlarining umumiyligiga asoslangan mulk shakllarining xilma-xilligi, iqtisodiy plyuralizm, ko'p ukladlilik, erkin bozor munosabatlari, jamiyat har bir a'zosini o'z mulkiga ega, u bu mulkni o'z xohishi bilan tasarruf eta olish erkinligining mavjudligi, bu mulkdan foydalanish va uni sarflash huquqiga ega bo'lishi, xususiy mulk daxlsizligi, har bir shaxsning davlat tomonidan kafolatlangan tadbirkorlik, mehnat va iste'mol faoliyati erkinligi bilan ta'minlanganligidan iborat.

Ijtimoiy-siyosiy omil – fuqarolik jamiyati qurilayotgan davlatning mustaqil va suveren ekanligi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatlarning bir – biridan ajratilganligi; fuqarolarning o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida, ma'lum nodavlat tashkilotlariga birlashgan bo'lishi, hokimiyatning 3 tarmoqqa bo'linishi prinsipi amalda o'z aksini topganligi, hokimiyatlarni turli markazlar, guruhlar yoki shaxslar qo'lida to'planib qolmasligi; siyosiy plyuralizmning mavjudligi; davlat hokimiyati vakolati

¹ Mavlonov J.Yo. Fuqarolik jamiyatiga oid zamonaviy konseptual diskursning asosiy yo'nalishlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Avtoreferat. «Akademiya noshirlik markazi» DUK, 2017.- B.15.

funksiyalarining asta-sekinlik bilan quyi vakillik organlari va o‘z-o‘zini boshqarish organlariga berib borilishini taqozo qiladi.

Huquqiy omil – jamiyatda insonning yashashi va rivojlanishi uchun muhim zarurat bo‘lgan erkinlik, tenglik, adolat qadriyatlarining qaror topganligi, shaxslar va fuqarolar o‘rtasida o‘zaro tenglikning ta‘minlanganligi, ularning huquq va erkinliklarini davlat tomonidan to‘liq ravishda e‘tirof e‘tilishi; adolat prinsiplariga amal qilinishi; bir shaxsning erkinligi ikkinchi shaxsning erkinligiga daxl etsa, uning erkinligi shu yerda to‘xtatilishi, davlat jamiyat va shaxs manfaatlari o‘zaro mushtarakligining shakllanishida namoyon bo‘ladi.

Ma‘naviy omil – insonlar o‘z qadr-qimmatini har qanday tajovuzlardan himoya qila olish qobiliyatini shakllanganligi, xalqning jamiyat qadriyatlarini himoya qila olish salohiyatining mavjudligi, vijdon erkinligining amal qilishi, jamiyatda axloqiy me‘yorlarga amal qilish, urf-odatlarining shakllanganligi, biron bir mafkuraning yakka hokimlik qilishiga urinishlarining cheklab qo‘yilganligi, fuqarolarning ma‘naviy va ijtimoiy jarayonlarda bevosita va bilvosita ishtirok etishlari uchun barcha shart-sharoitlarning mavjudligi, har bir fuqaroning o‘z mustaqil fikrlashi va qarashiga ega ekanligini namoyon qilish uchun barcha sharoitlarning mavjudligi, ma‘naviy jarayonlarning faqat jamiyat va fuqarolar tomonidan amalga oshirilishi har bir fuqaroning ilmiy dunyoqarash yoki diniy e‘tiqodga ega bo‘lishi, uning o‘zi tomonidan hal etilishi, diniy erkinlik barcha g‘oya va mafkuralarning o‘zaro hamkorlikda yashashlari uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarning yaratilganligidir.¹

Davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorlik strategiyasi hamda taktikasi samaradorligi mavjud qonunlarni yanada takomillashtirish va ularni ratsional anglash hamda o‘z vaqtida tadbiq etish jarayoniga bog‘liq. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, fuqarolarning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniyati rivojlanishidagi uyg‘unlik jamiyatda mavjud ob‘ektiv va sub‘ektiv omillar talabidan kelib chiqadi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarining mezoni sifatida o‘zining harakatlantiruvchi motivlariga, mexanizmlariga hamda ichki strukturasi ega, ya‘ni:

¹ O‘tamurodov A. va boshqalar O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati. / Uslubiy qo‘llanma – T-Info Kapital Group, 2019, - 6 bet

birinchidan, fuqarolik jamiyati shaxsning ijtimoiy-siyosiy munosabatlar majmuasida tutgan konkret tarixiy o‘rni bilan belgilanadi;

ikkinchidan, shaxsning siyosiy manfaatlari va ehtiyojlari, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda, nisbatan mustaqil, individual tarzida, namoyon bo‘ladi;

uchinchidan, shaxsning o‘z haq huquqlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari fuqarolik jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy rivojlanish darajalariga mos keladi;

to‘rtinchidan, siyosiy va huquqiy bilimlarning, amaliy harakatlarning e‘tibodga aylanishi fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim omilidir.

Shu metodologik tamoyilga ko‘ra, fuqarolik jamiyatining strukturaviy elementlari va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarini aniqlash mumkin, ya’ni:

1) fuqarolarning maqsadi va vazifalari bunday jamiyatni rivojlantirishning zaruriy xususiyatlaridan kelib chiqadi;

2) mamlakatimizda fuqarolik jamiyati tuzilmasini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va fondlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, mustaqil ommaviy axborot vositalari tashkil etar ekan, bu tuzulmalar muqarrar ravishda, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayot yo‘nalishlariga o‘z ta’sirini ob’ektiv baholash o‘rinli bo‘ladi;

3) fuqarolik jamiyati ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida, jamiyat va shaxsning jismoniy hamda intellektual imkoniyatlari doirasida yanada rivojlanib boradi;

4) fuqarolik jamiyati stixiyali hodisa emas, aksincha, ongli, aniq maqsadga yo‘naltirilganligi uchun muayyan nazariy va hayotiy bilimlar majmuasini taqozo qiladi.

Bu hodisalar va ularning strukturaviy elementlari fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ob’ektiv va sub’ektiv omillari darajasida, umumiy tarzda namoyon bo‘lib, bir-biridan farqi ob’ekt ko‘lamida, xususiy qonuniyatlarida ko‘zga tashlanadi. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyatini rivojlanishi uzluksiz jarayon bo‘lganligidan, strukturaviy elementlarning nisbatan mustaqil rivojlanishini ham ichki birlikda, aloqadorlikda olib qarash lozim. Shu boisdan ham M.Qirg‘izboev bunday deb ta’kidlaydi: “Fuqarolik jamiyati jamiyatning eng yuqori shakli

hisoblanib,... inson ulug‘vorligini yuksaklikka ko‘taradi, uning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy sohalaridagi erkin faoliyatini ta‘minlaydi”¹.

Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatini bunyod etish – umumjahon taraqqiyotining bosh yo‘nalishi hisoblanadi. Bu haqiqatni tan olmaslik – jamiyat taraqqiyotining ob‘ektiv qonuniyatlarini, xalq ommasining o‘z taqdirini o‘zi belgilovchi buyuk kuch ekanini rad qilish demakdir.

Fuqarolik jamiyatining mazmun-mohiyati, uning ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda faoliyati to‘g‘risidagi turli xil ilmiy qarashlar tahlilini umumlashtirgan holda shuni ta‘kidlash lozimki, fuqarolik jamiyati bu davlat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solinmaydigan va boshqarilmaydigan erkin fuqarolar, jamoat tashkilotlari va ko‘ngillilar uyushmalarining o‘zaro samarali ijtimoiy aloqalari tizimidan tashkil topadi.

Fuqarolik jamiyati – murakkab tarkibli va plyuralistik tizim. Tabiiyki, har qanday ijtimoiy organizm o‘ziga xos tizim bo‘lib, uning muayyan xossalari bo‘ladi. Fuqarolik jamiyati ham ko‘plab xossa va xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlar to‘liq, barqaror va samarador tarzda namoyon bo‘ladi. Bunday jamiyatda rang-barang ijtimoiy shakllar va institutlar mavjud bo‘ladi. Chunonchi, kasaba uyushmalari, partiyalar, tadbirkorlar assotsiatsiyalari va hokazolarning mavjudligi individlarning turli-tuman ehtiyojlari va manfaatlarini ifodalash va qondirish, insonning barcha qobiliyat va salohiyatini namoyon etish imkoniyatlarini beradi.

Fuqarolik jamiyati – o‘zini-o‘zi rivojlantiruvchi va o‘zini-o‘zi boshqaruvchi tizim. Insonlar har xil tashkilotlarga birlashib bir-biri bilan rang-barang munosabatlar o‘rnatib, o‘zlarining ba‘zan qarama-qarshi, ba‘zan umumiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarib, jamiyat siyosiy hokimiyati kuchiga ega bo‘lgan davlatning aralashuvisiz uyg‘un va izchil rivojlanishini ta‘minlaydi. Fuqarolik jamiyati davlatda mustaqil ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirishning ichki manbalariga egadir.

Fuqarolik jamiyati o‘zining kommunikatsiyalarini, mamlakatning iqtisodiy va siyosiy sohalariga tegishli prinsiplardan farq qiladigan, o‘ziga xos qonuniyatlar – tenglik, birdamlik, ochiqlik, o‘zaro hurmat, ishonch asosida shakllantiriladi. Shuning bilan birga, fuqarolik jamiyatining yetuklik darajasini asosiy ko‘rsatkichi – bu jamoat tashkilotlarning soni

¹ Qirg‘izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2006. - B. 99 .

emas, balki fuqarolarning mazkur tashkilotlarga jalb etilganligi, ya'ni mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni belgilab beradigan fuqarolik jamiyatining ijtimoiy bazasini tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyati huquqiy davlat bilan uyg'unlikda yashaydi. Bu yerda inson va fuqaroning tabiiy va o'zlashtirilgan huquqlarini tan olish, ta'minlash va himoya qilish ularni bir – biriga bog'lovchi omil sifatida amal qiladi. Fuqarolik jamiyati hokimiyatning oqilonaligi va odionaligi, shaxs erkinligi va farovonligi haqidagi g'oyalarning huquqiy ustunligi, huquq va qonunning birligi, davlat hokimiyatining turli tarmoqlari faoliyatini huquqiy chegaralash g'oyalari bilan mushtarakdir¹.

“Fuqarolik jamiyati” kategoriyasi nafaqat yuridik, balki tarixiy, falsafiy va siyosiy kategoriya hamdir. Shu sabab so'nggi yillarda eng turli yo'nalishlardagi olimlar “fuqarolik jamiyati” tushunchasining mazmuni borasida o'z fikrlarini bayon qiladilar.

Jumladan, S.A.Kislitsin, S.V.Sirajudinovalar fuqarolik jamiyati modellari hududlardan kelib chiqqan holda turli mazmundagi paradigmalarni ko'rinishida mavjud bo'lishini alohida ta'kidlab o'tadilar².

Jahondagi barcha xalqlar va davlatlarning fuqarolik jamiyatini qurishga bo'lgan qiziqishlari tobora kuchayib bormoqda. Shuningdek, fuqarolik jamiyatining barqarorligini ta'minlovchi shart-sharoitlar ham borki, ularsiz jamiyat institutlari rivojlanmaydi. Bular jumlasiga jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning turlicha manfaatlarini ifoda etuvchi rivojlangan ijtimoiy tizimlarning mavjud bo'lishi zarurligi kiradi. Qolaversa, jamiyat a'zolarining to'la mustaqillik bilan faoliyat ko'rsata olish qobiliyati, ularning eng rivojlangan darajadagi ijtimoiy, intellektual, ruhiy jihatlardan yuksalishi sodir bo'lishi ham taqozo qilinadi. So'nggi shart - sharoit esa har bir fuqaroning o'z shaxsiy mulkiga ega bo'lishi, bu mulkni o'zi istagan tarzda tasarruf qila olishi uchun uning bu mulkka nisbatan shaxsiy yoki jamoaviy huquqi ta'minlagan bo'lishini anglatadi.

Fuqarolik jamiyatining istiqboli porloq bo'lib, kelajakda jamiyat hayotini adolatli boshqaruvchi kuchli va ta'sirchan ijtimoiy institut darajasiga ko'tariladi. Chunki fuqarolik jamiyati inson hayotining barcha

¹ O'tamurodov A. va boshqalar. O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati. / Uslubiy qo'llanma – T-Info Kapital Group, 2019, - 12 bet

² Кислитсин С.А., Сиражудинова С.В. Гражданское общество на постсоветском пространстве: Концепти, спетсифика, тренди ЛЕНАНД 2018. - 336 с

(iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy) sohalarini qamrab olgan shunday bir insonparvar demokratik ijtimoiy makonki, unda har bir shaxs va jamoa a'zolarining manfaatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, xohish-istaklari hisobga olinadi, himoya qilinadi va eng muhimi – ular ruyobga chiqariladi. Ya'ni, har bir shaxs oila a'zosi, jamoat birlashmasi ishtirokchisi yoki ijtimoiy institut faoli sifatida fuqarolik jamiyati ichidagi huquqiy munosabatlar jarayonida ishtirok etadi. Shuning bilan birga, insonlar umumiy muammolarini birgalikda hal qilishi, jamiyatning barcha sohalarida o'zlarining talab va manfaatlarini himoya qilishida fuqarolik jamiyatining muhim va ajralmas elementi hisoblangan fuqarolik jamiyati institutlari asosiy rol o'ynaydi.

“Fuqarolik” sifatlovchisi, o'zining shartligiga qaramay, boy mazmunga ega. Ushbu atama ma'nosi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Biroq, fuqarolar istiqomat qiluvchi har qanday jamiyat ham fuqarolik jamiyati deb atalmasligi hammaga ravshan. Zotan, huquq amal qiladigan har qanday davlat ham huquqiy bo'lavermaydi. Misol uchun, sobiq sho'ro tuzumi hech qachon fuqarolik jamiyati bo'lmagan, shuningdek, hech qachon huquqiy davlat ham bo'la olmagan. Shunisi qiziqki, ko'p vaqtlardan ma'lum bo'lgan fuqarolik jamiyati tushunchasi sobiq sho'rolar makonida huquqshunos olimlar uchun nisbatan yangi va bo'sh ishlangan mavzu bo'lib qolgandi. Shuning uchun ham ushbu g'oyaning o'zi o'sha davr ijtimoiy ongida juda kam tarqalgan. Hozirgi davrda “fuqarolik jamiyati” va “siyosiy jamiyat” tushunchalari olimlar va siyosiy arboblardan bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishiga zo'r berilayotgan bo'lsa-da, ular etimologik jihatdan sinonim bo'lgan tushunchalar haqida fikr yuritayotgandek ko'rinadi.

Hozirgi davrdagi fuqarolik jamiyatining takomillashgan unsurlari, rivojlanish hosilasi o'laroq shakllangan institutlari va ular bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarning barchasi chuqur anglab yetilgan va qat'iy siyosiy mulohazalar asosida barpo etilgan.

Fuqarolik jamiyati hayot, jamiyat va mehnat tizimlarini qaytadan o'zgartirishni tezlashtirishga moyilligi bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyati shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratib, unda har bir shaxs boshqalar bilan birlashishi yoki boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsata olishi mumkin. Fuqarolik jamiyati shu tarzda inson ulug'vorligini

yuksaklikka ko'taradi, uning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy sohalaridagi erkin faoliyatini ta'minlaydi.

Umuman, hozirgi zamon ilg'or demokratik mamlakatlar siyosatshunos olimlarining fuqarolik jamiyati to'g'risidagi nazariy qarashlari bir tizimga keltirilsa, u holda fuqarolik jamiyati bu:

birinchidan, jamiyat hayoti faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang'ich nodavlat tizimlarini o'z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir;

ikkinchidan, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma'naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir;

uchinchidan, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar tazyiqlari, aralashishlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyati bo'lib, unda ular o'zligini namoyon qila olishlari uchun doimiy imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Shu bilan bir qatorda, rivojlangan mamlakatlarning XX asr ikkinchi yarmidagi tajribalari umumlashtirilganida, hozirgi zamonaviy fuqarolik jamiyatining asosiy belgilariga doir tasavvurlar namoyon bo'ladi. Ular asosan quyidagilardan iboratdir:

Iqtisodiy sohada: nodavlat tashkilotlar; kooperativ-shirkatlar; ijara jamoalari; aksiyadorlik jamiyatlari; uyushmalar; korporatsiyalarning mavjudligi;

Ijtimoiy sohada: oila; partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar; ish va yashash joylaridagi o'z-o'zini boshqarish organlari; nodavlat ommaviy axborot vositalari; jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning madaniylashgan tartibotlari; ijtimoiy ixtiloflarni kuch ishlatmasdan, tazyiqsiz, qonunlar doirasida hal qilish amaliyotining mavjudligi;

Ma'naviy sohada: so'z, vijdon va fikrlar erkinligi; o'z fikrini ochiq bildira olishning real imkoniyatlari; ijodiy, ilmiy va boshqa uyushmalar mustaqilligining ham qonuniy, ham amaliy jihatdan ta'minlanganligi.

Fuqarolik jamiyati shakllangan mamlakatlarda nafaqat inson erkinligi, davlatning jamiyat uchun xizmat qilish mas'uliyatining yuksakligi, o'zini-o'zi boshqarishning avj olishi kabi qadriyatlarga amal

qilinadi, bu jamiyatlarda inson farovonligini har tomonlama ta'minlash sohasida ham mislsiz natijalarga erishilmoqda. Jahondagi mamlakatlar o'rtasida yalpi milliy mahsulotning o'rtacha kishi boshiga taqsimlanishida ham fuqarolik jamiyati shakllangan mamlakatlar peshqadamlik qilishmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, inson siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy erkinliklar bag'ridagina o'zining yaratuvchilik qobiliyatini to'la namoyon qila oladi.

Fuqarolik jamiyati insonning o'zini - o'zi hayotda ifoda qila olishi uchun nisbatan keng shart - sharoitlar yaratib berishi bilan alohida ajralib turishi o'z isbotini topganligi ham bejiz emas. Shu bois jahondagi barcha xalqlar va davlatlarning fuqarolik jamiyatini qurishga bo'lgan qiziqishlari tobora kuchayib bormoqda.

Fuqarolik jamiyatida davlatning o'rni. “Fuqarolik jamiyati” tushunchasi ham “davlat” tushunchasi kabi qadimiydir. Ob'ektiv voqelikning ushbu ikki holati ham o'zaro aloqador bo'lib ikki ming yildan ortiq vaqt moboynida mavjuddir. Ular shu vaqt davomida ushbu tushunchalarning yuzaga kelishi va mavjudligi borasidagi nihoyatda ziddiyatli nazariyani ilgari surgan olimlar tomonidan tadqiq qilinadi. Aristotel davlatda yashovchi insonlar – fuqarolik jamiyatini tashkil etishi to'g'risidagi nazariyani ilgari suruvchi ilk olimlardan biri bo'lgan. Uning yozishicha: “Davlat nima ekanligini aniqlashdan avval, fuqaro to'g'risidagi tushunchani oydinlashtirish zarur. Chunki davlat – fuqarolar yig'indisi bo'lib, fuqarolik jamiyatidan o'zga narsa emas”¹. Qadimgi yunon demokratiyasida aksariyat erkin fuqarolar davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etgan, boshqaruv mehnatiga esa haq to'lanmagan. Bu nuqtai nazar to'g'rimi yoki noto'g'ri – buni siz hal qiling.

Biroq birmuncha keyinroq tadqiqotchilar Aristotelning: davlat – bu fuqarolik jamiyati emas, degan fikrini qo'llab-quvvatlamadilar. “Fuqarolik jamiyati” tushunchasi Gegel va boshqa faylasuflar asarlarida yanada rivojlantirildi².

Zamonaviy fuqarolik jamiyati tushunchasiga Gegel ko'proq yaqin keldi. U fransuz, anglosakson va nemis ijtimoiy fikri yutuqlarini

¹ Аристотел. Политика. Серия: Эксклюзивная классика М.: Из-во АСТ 2017. - 384 с.

² Гегел Георг Вилгелм Фридрих. Философия права. Серия: Великие мыслители - М.: Мир книги 2009. - 464с

tizimlashtirdi va fuqarolik jamiyati oiladan davlat tomon dialektik harakatlanishda o'zida alohida bosqichni namoyon qiladi, degan xulosaga keldi. Gegel fuqarolik jamiyatini davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi ijtimoiy shartnoma nazariyasi bilan bog'ladi¹.

Fuqarolik jamiyati huquqiy davlatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy poydevori hisoblanadi. Insoniyatning keyingi asrlardagi taraqqiyoti zamirida to'plangan ilmiy nazariy talqinlar asosida fuqarolik jamiyati deganda, birinchi navbatda, davlatdan xoli bo'lgan mulkiy, bozor tartiblari, oilaviy, axloqiy-ma'naviy munosabatlar sohasi tushuniladigan bo'ldi. Shu ma'noda, ma'rifiy, xususiy, norasmiy, siyosiylashmagan hayot sohasi majmui tarzida talqin etiladigan fuqarolik jamiyati tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning davlat nazorat qilmaydigan manfaatlarini amalga oshirish olami sifatida ta'riflanadi. Masalan, Gegelning ta'biriga ko'ra: "Fuqarolik jamiyati – bu eng avvalo, xususiy mulkka asoslangan manfaat (ehtiyoj) lar tizimi, shuningdek din, oila, tabaqalar, davlat tuzumi, huquq, axloq, burch, madaniyat, ta'lim, qonunlar va sub'ekt (inson)larning ulardan kelib chiquvchi o'zaro uzviy yuridik aloqalari majmuidir. Insonlar tabiiy, «nomadaniy» holatdan «fuqarolik jamiyatiga o'tishlari lozim. Zero, aynan, shu jamiyatda huquqiy munosabatlar asl voqelikka aylanadi»².

Fuqarolik jamiyatining belgilari, mezonlari va institutlarini tasavvur qila olgan har bir kishi, bunday demokratik jamiyatning asosini fuqarolik jamiyatining institutlari – siyosiy partiyalar, o'zini-o'zi boshqarish, nodavlat, jamoat tashkilotlari, ularning o'zaro munosabatlari majmuasi tashkil etishini ko'radi. Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning alohida o'z funksiyalari, fuqarolik jamiyati institutlarining esa alohida funksiyalari bo'ladiki, ular bir-birini to'ldirib, yuksak rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini ta'minlaydi. Davlatning ham, nodavlat tashkilotlarning ham o'z harakat doirasi yoxud belgilagan faoliyatlari u yoki bu tomonga ozgina o'zgarishi natijasida ijtimoiy siyosiy muvozanatlar buzilib, demokratik me'yordan chekinishi, chetga chiqib

¹ Qarang: Гегел Георг Вилгелм Фридрих. Философия права. Серия: Великие мыслители - М.: Мир книги 2009

² Qarang: Гегел Георг Вилгелм Фридрих. Философия права. Серия: Великие мыслители - М.: Мир книги 2009

ketish hollari sodir bo'lishi mumkinligini asrimizning so'nggi davrdagi taraqqiyot amaliyoti ko'rsatdi.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida shunday deyiladi: "Fuqarolik jamiyati - konstitutsiyaviy huquq nazariyasida huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko'ppartiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadigan hamda o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqei baland bo'lgan ijtimoiy tuzum. Bunda mamlakatning har bir fuqarosi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan o'z ehtiyojlarini jamoat birlashmalari va fondlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilotlar ishida faol ishtirok etib, ular orqali qondiradilar"¹.

Fuqarolik jamiyati hayot, jamiyat va mehnat tizimlarini qaytadan o'zgartirishni tezlashtirishga moyilligi bilan ajralib turadi. Hozirgi vaqtda ham turli olimlar o'rtasida fuqarolik jamiyatini Sharqda yoki G'arbda, shuningdek, uni turli mamlakatlarda har xil shart-sharoitlarda shakllanishiga doir bahslar davom etmoqda. Fuqarolik jamiyati shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratib, unda har bir shaxs boshqalar bilan birlashishi yoki boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsata olishi mumkin.

Fuqarolik jamiyati shu tarzda inson ulug'vorligini yuksaklikka ko'taradi, uning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy sohalaridagi erkin faoliyatini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, rivojlangan mamlakatlarning XX asr ikkinchi yarmidagi tajribalari umumlashtirilganida, hozirgi zamonaviy fuqarolik jamiyatining asosiy belgilariga doir tasavvurlar namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham fuqarolik jamiyati shakllangan mamlakatlarda nafaqat inson erkinligi, davlatning jamiyat uchun xizmat qilish mas'uliyatining yuksakligi, o'zini-o'zi boshqarishning avj olishi kabi qadriyatlarga amal qilinadi, bu jamiyatlarda inson farovonligini har tomonlama ta'minlash sohasida ham mislsiz natijalarga erishilmoqda. Jahondagi mamlakatlar o'rtasida yalpi milliy mahsulotning o'rtacha kishi boshiga taqsimlanishida

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 9 tom, 2005. 350-b.

ham fuqarolik jamiyati shakllangan mamlakatlar peshqadamlik qilishmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, inson siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy erkinliklar bag'ridagina o'zining yaratuvchilik qobiliyatini to'la namoyon qila oladi.

Demak, yetuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy davlat qurish mumkin emas. Chunki ongli va erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodirdir. Shunday qilib fuqarolik jamiyati erkin inson va davlat xoxish irodasi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblansa, davlatning vazifasi parchalanish, tartibsizlik, tanglik, tanazzul kabilarga qarshi ish ko'rish, erkin shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun shart –sharoitlar yaratib berishdan iboratdir.

Huquqiy davlat – bu shunday davlat hokimiyatidirki, u huquq normalariga binoan va ular doirasida ish ko'radi, bu normalarni buzish, bekor qilish yoki cheklashga jur'at etmaydi, fuqarolar va ularning birlashmalarining uzviy tabiiy – tarixiy huquqlarini e'tirof etadi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishning imkoniyatlari va istiqbollari. Mustaqillikning ilk kunlaridan fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Chunonchi, O'zbekistonda tub o'zgarishlar jarayonlaridagi davlatning bosh islohotchilik o'rni asosan fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayonlarida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oliy va markaziy, mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyatlari hamda boshqaruv idoralarining vazifalari, faoliyatining kafolatlari, mahalliy hokimiyat organlari bilan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabatlar tartibga solindi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatiga ta'rif berilmagan bo'lsa-da, unda fuqarolik institutlarini tashkil etish va ular faoliyatining huquqiy asoslari e'tirof etilgan, ularning davlat bilan o'zaro hamkorligi prinsiplari belgilangan.

Fuqarolik jamiyatidagi ijtimoiy munosabatlarning uch muhim negizi bor. Ulardan **birinchi ko‘rinishi** iqtisodiy munosabatlar bo‘lib, u turli mulkchilik shakllarining teng huquqliligiga asoslanadi. Natijada, fuqarolik jamiyati sharoitida shaxsning mulkdan begonalashuvining oldi olinadi.

Ijtimoiy munosabatlarning **ikkinchi ko‘rinishi** madaniy - ma’naviy munosabatlar bilan bog‘liqki, u millatlararo, sinflararo, tabaqalararo hamda diniy va oilaviy munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Fuqarolik jamiyati milliy mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishi va e’tiqodidan qat’i nazar, inson huquqlari va erkinliklarini e’tirof etgani bois, mazkur yo‘nalishdagi ijtimoiy munosabatlarning insonparvarlik me’yorlari asosida amalga oshirilishi uchun zamin tayyorlaydi.

Ijtimoiy munosabatlarning **uchinchi ko‘rinishi** esa, shaxslararo munosabatlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki davridanoq yangi jamiyatga mos siyosiy islohotlar o‘tkazish yo‘llari belgilab olindi. Tarixan qisqa davr ichida davlatchiligimizning konstitutsiyaviy va siyosiy-huquqiy asoslari yaratildi, ham markazda, ham joylarda davlat hokimiyati organlarining yangi tizimi qaror topdi. Eng muhimi, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat asoslarini shakllantirilib islohotlar amalga oshirilmogda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Fuqarolik jamiyati barpo etish, yurtdoshlarimizning erkinligi va tashabbuslarini mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi ishtirokini kengaytirish, kelgusida ham O‘zbekiston siyosiy tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi.¹”

Mustaqillik yillarida totalitar boshqaruv tizimidan qolgan davlatga sig‘inish va qaramlik siyosatining salbiy illatlari tugatilib, davlatning xalq irodasini ifoda etishi va uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida ma’sulligi kabi demokratik tamoyillarga asoslangan xalq hokimiyatchiligi qaror topdi. Darhaqiqat, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining barcha bo‘g‘inlarida aholining turli guruhleri va qatlamlari qancha faol ishtirok esa, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning, birinchi navbatda siyosiy tizimdagi yangilanishlarning ko‘lami va samaradorligi shuncha oshadi.

¹ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent, O‘zbekiston, 2017, 1 tom, - 44 bet

“Davlatning kuch-qudrati boshqaruvning barcha vakolatlarini o‘z zimmasiga olishi hamda davlat idoralarning hukm va tazyiq o‘tkazuvchi organ sifatidagi vazifalarini kuchaytirish bilan belgilanmaydi. Davlatning kuch-qudrati avvalo, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, fuqarolar va jamiyatning barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, tadbirkorlik va iqtisodiy tashabbuslar erkinligi uchun zarur imkoniyatlarni tashkil etib berish qobiliyati bilan o‘lchanadi.¹” Binobarin, fuqarolik jamiyati sharoitida davlat jamiyat taraqqiyotining strategiyasi va taktikasini belgilovchi, mahalliy hokimiyat organlari erkinligining me‘yorini aniqlab beruvchi, ular bilan o‘zaro munosabatlarini demokratik tamoyillar asosida tashkil etuvchi institut vazifasini o‘tamog‘i lozim.

Fuqarolik jamiyatining belgilari, mezonlari va institutlarini tasavvur qila olgan har bir kishiga ko‘rinib turibdiki, bunday demokratik jamiyatning asosini fuqarolik jamiyatining institutlari – siyosiy partiyalar, o‘zini – o‘zi boshqarish, nodavlat, jamoat tashkilotlarining o‘zaro munosabatlari majmuasi tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning alohida o‘z funksiyalari, fuqarolik jamiyati institutlarining esa alohida funksiyalari bo‘ladiki, ular bir-birini to‘ldirib, yuksak rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini ta‘minlaydi. Davlatning ham, nodavlat tashkilotlarning ham o‘z harakat doirasi yoxud belgilagan faoliyatlari u yoki bu tomonga ozgina o‘zgarishi natijasida ijtimoiy-siyosiy muvozanatlar buzilib, demokratik me‘yordan chekinishi, chetga chiqib ketish hollari sodir bo‘lishi mumkinligini asrimizning so‘nggi davrdagi taraqqiyot amaliyoti ko‘rsatdi.

Fuqarolik jamiyati insonlardagi o‘z-o‘zini anglash, ularning ob‘ektiv ravishdagi mas‘uliyat hissini sezish qobiliyatining yuksalishiga hamohang ravishda shakllanib boradi. Bu kabi jamiyatda shakllangan fuqarolar siyosiy va huquqiy madaniyatlari darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri, uning institutlari tizimidagi barcha – davlat va nodavlat jamoat tashkilotlariga a‘zolikning ixtiyoriy shaklda bo‘lishidir. Bu qoida, birinchidan, shu

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-jild. T.: O‘zbekiston, 2000. – B.334-335.

jamiyatdagi demokratiyaning yuqori darajasini namoyon qilsa, ikkinchidan, jamiyat a'zolarining ijtimoiy ongi va faolliklari yuksakligini bildiradi. Qolaversa, har bir fuqaro o'zi kirmoqchi bo'lgan tashkilot faoliyatida o'zining manfaatlari va ehtiyojlariga mos maqsadlarga erishishiga ishonch hosil qilganidan so'nggina shu tashkilotga ixtiyoriy ravishda a'zo bo'la oladi.

Hozirgi kunda deyarli barcha jamoat tashkilotlari, nodavlat va notijorat tashkilotlar mamlakatni demokratik yo'nalishda rivojlantirish, muayyan sohalar yuzasidan inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish kabi masalalarga o'zlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari sifatida qaramoqda. Jamoat, nodavlat va notijorat tashkilotlariga birlashgan fuqarolar ular orqali o'zlarining turli manfaat va huquqlarini amalga oshirishni ko'zlaydi. Bunday sharoitda jamoat, nodavlat va notijorat tashkilotlar oldiga fuqarolarning davlat ishlarini amalga oshirishdagi ishtirokini ta'minlash hamda ularning mavjud qonunchilikka nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish va shu orqali ularni qonunga itoatkor shaxs sifatida tarbiyalash kabi yangi vazifalar qo'yilmoqda. Darhaqiqat, Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, "Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarimizda nodavlat – notijorat tashkilotlarning o'rni va roli beqiyos ekanini alohida ta'kidlash joiz.¹"

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblangan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlaridan biri - mahallaning o'rni beqiyosdir.

Fuqarolik jamiyati jamiyatning eng yuqori shakli hisoblanib, u o'z ichiga turli "uyushmalar"ni qamrab oladi. Ular o'z mohiyatiga ko'ra jamiyatdagi adolatlilik tamoyiliga asoslangan hamjamiyat bo'lishini ifoda etadi. Bu jamiyatda har bir kishi o'zi uchun oliy farovonlik topishi mumkin. Fuqarolik jamiyati insonni va uning ulug'vorligini yuksaklikka ko'taradi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi tarixda ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zoliciga

¹ Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – 2 Tom – Toshkent, O'zbekiston, 2018 yil, 102 bet

saylanganligi, ushbu yo‘nalishdagi islohotlarimizning xalqaro hamjamiyat tomonidan e‘tirof etilayotganligi ayni haqiqatdir.

Demokratik jamiyat tuzumi va faoliyatida demokratik tamoyillar va me‘yorlar qanchalik to‘la va chuqur mujassam bo‘lsa fuqarolik jamiyatining faoliyati ham shunchalik keng, uning davlat bilan aloqalari xilma-xil bo‘ladi. Agar davlat fuqarolik jamiyati manfaatlaridan uzilib qolsa, unda albatta inqirozga uchraydi va bora-bora yo‘qoladi. Har bir davlatda demokratiya va fuqarolar jamiyatining tenglik darajasi fuqarolarning siyosiy va jamiyat tashkilotlarining ta‘siri va taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi.

Demokratik tuzum fuqarolik jamiyatining birinchi bosqichi bo‘lib, hisoblanadi. Demokratiyani anglash – shaxsning hamma uchun birday zarur bo‘lgan qonunlarga to‘la rioya etishi, aniq tartib intizomga tayanib yashash salohiyati. Demokratiya bizga inson haq-huquqlarini himoya qiladigan, umumxalq va umumdavlat manfaatlarini asraydigan barcha qonunlarga bo‘ysunib yashashni o‘rgatadi.

Fuqarolik jamiyati insonni yuksak ulug‘vorligini e‘zozlash munosabati bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyati insonning o‘zini o‘zi ongli boshqarishiga asoslanar ekan, u, albatta, adolatli qonun-qoidalarga rioya qilishi shart. Umuman olganda, mamlakatimizda olib borilayotgan jadal va keng ko‘lamli islohotlar yurtimizda yangi davrni — yangi O‘zbekiston davrini boshlab berdi.

Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari tamoyili. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etilayotgan bir paytda milliy istiqlol g‘oyasining keng ko‘lamda ijtimoiy - siyosiy hayotda qo‘llanila boshlaganligi – bu istiqlolli jamiyatning ob‘ektiv qonunining mahsulidir. Chunki istiqlolli jamiyatning istiqlolli g‘oyasi bo‘lishini hayot taqozo etmoqda.

Shuni ham ta‘kidlash lozimki, milliy g‘urur insonning rangi, gavda tuzilishi, irqi yoki diniga qarab belgilanmaydi. Agar milliy g‘urur shu mezonlar orqali belgilansa, unda nazariy - amaliy jihatdan xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘ladi va shovinizmga yo‘l ochib beradi. O‘zbek xalqi intellektual - mentalitetga saviyaga tarixan baland bo‘lganligi uchun ham bunday adolatsizlik qarashlarini o‘ziga yot deb bilgan, o‘z milliy g‘ururini adolatli insonparvarlik ruhi asosida shakllantirib kelgan va shuning negizida hozirgi vaqtda adolatli jamiyatni barpo qilishga safarbar etmoqda.

O‘zbekistonda adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida milliy mentalitetning roli haqida fikr yuritilganda, istiqlol mafkurasining negizlaridan biri bo‘lgan milliy iftixorning bu ijtimoiy - siyosiy masalalar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini e‘tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Milliy iftixor o‘zbek millatining o‘zligini anglash, o‘ziga xos tili, madaniyati, san’ati, urf - odatlari, turmush tarzi, kiyinishi, an’analari, rasm - rusumlari, boy ma’naviy - tarixiy obidalari bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Bunday ijtimoiy adolatli jamiyat qurishga safarbar etish ijtimoiy hayot ehtiyojlaridan kelib chiqadigan qonuniyatdir. Chunki bu bevosita milliy mentalitetning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, demokratik tamoyillarni adolatli turmush tarziga tadbqiq etishda asosiy omillardan biri sifatida xizmat qilishi mumkin.

Jahon miqyosida o‘zbek xalqi mehr - oqibatligi, mehmondo‘stligi, iymonli, e‘tiqodliligi, mehnasevarligi kabi insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan millat sifatida tanittirgan ekan, istiqlol sari qadam tashlayotgan bir paytda undan unumli foydalanish ijtimoiy hayot talabidan kelib chiqadigan ma’naviy ehtiyojdir. Adolatli ijtimoiy hayotning bunday ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ularni odillik yo‘li bilan kishilar turmushiga tadbqiq etib borish fuqarolik jamiyatini qurishning mohiyat va mazmuni bilan uyg‘unlashib ketadi.

O‘zbek xalqining shunday urf-odatlar, an’analar, udumlari, rasm-rusmlari borki, ular nafaqat milliy g‘ururni ijtimoiy hayotda namoyon etadi, balki shu bilan bir qatorda, adolatli milliy davlatchilikni barpo qilishda, ma’naviy hayotning ravnaq topib borishida ijobiy rol o‘ynab kelmoqda. Bunday an’analar Mustaqillik kunini nishonlash, Navro‘z va hayit bayramlari, Vatan xizmatiga yuborish arafasidagi tadbqirlar, hosillar sayli, Xotin-qizlar bayrami, Konstitutsiya nishonlanadigan kun, aholining to‘y marosimlari, yubileylari, xotira kunlari, salom va alik, gap - gashtak, holvi to‘ylari, hashar, ziyorat kabilar shular jumlasidan bo‘lib, xalqimizning erkin, ozod, farovon hayot kechirishlari uchun asosiy omil sifatida xizmat qilmoqda.

Bunday ijtimoiy - intellektual ahamiyatga molik bo‘lgan ishlarni hayotga tatbqiq etishda mahallaning roli nihoyatda kattadir. Chunki Vatanning beshigi hisoblangan mahalla fuqarolarning xulq - atvorini,

o‘zaro munosabatlarini adolat va ma’naviy mezonlar asosida tartibga solib turuvchi asosiy omil hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy negizini tashkil etuvchi o‘zini-o‘zi boshqarishga asoslangan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an‘analariga tayangan holda ulkan tarbiyaviy vazifani bajarib kelmoqda. Mahallada istiqomat qiluvchi barcha aholi keksalarning odilona bergan pand-nasihatlariga, shaxsiy ibratiga milliy qadriyatlarimizga, sharqona iffat va axloq - odob qoidalariga rioya qilgan holda yashab faoliyat ko‘rsatishlariga chaqirishlari joylarda sog‘lom, barqaror ijtimoiy muhitni barpo etish uchun zamin yaratilmoqda.

Umuman olganda, bugungi kunda O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Aynan mana shu jarayonlar olib borilayotgan islohotlarning eng katta natijasidir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek, “Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam.¹”

Ma’lumki, bugungi O‘zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg‘onish davriga – Birinchi (ma’rifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo‘lgani, bu – jahon ilm-fanida o‘z isbotini topgani ayni tarixiy haqiqatdir. Prezidentimiz tomonidan hozirda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg‘onish jarayoni kechayotganligi e’tirof etib o‘tilgani, “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangrayotganligi, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, sub’ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy

¹ Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. //O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, №165,(421), 2021 yil 17 avgust

intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan ob'ektiv zaruratdir¹.

Yangi O'zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsad xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir.

Bugungi Yangi O'zbekiston fuqarolarida jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy - iqtisodiy qiyofasi shiddat bilan o'zgarib, yangilanayotgan hayotda yangicha munosabatlar, yangi imkoniyat va qadriyatlar shakllanayotganini ko'rish mumkin. Ayniqsa, “inson huquq va erkinliklari”, “qonun ustuvorligi”, “ochiqlik va oshkoralik”, “so'z erkinligi”, “din va e'tiqod erkinligi”, “jamoatchilik nazorati”, “gender tenglik”, “xususiy mulk daxlsizligi”, “iqtisodiy faoliyat erkinligi” singari fundamental demokratik tushunchalar va hayotiy ko'nikmalar hozirgi vaqtda real voqelikka aylanib borayotganligi ayni haqiqatdir.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi dastlabki fikrlar Aristotelning “Siyosat” asarida yoritilgan. Asar mazmun-mohiyatini tahlil qilib bering.
2. Sharq allomalari tomonidan fuqarolik jamiyati masalasining tadqiq etilishi. Izohlab bering.
3. Forobiyning “Fozil shahar odamlari” asarining mazmun mohiyatini tahlil qilib bering.
4. Fuqarolik jamiyatini qurishda iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy, huquqiy, ma'naviy omilning o'rining namoyon bo'lishi.
5. Fuqarolik jamiyatida davlatning o'rni qay tarzda namoyon bo'ladi?
6. Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojining istiqbollari qanday?

¹ Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda.//O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. “Yangi O'zbekiston” gazetasi,№165,(421), 2021 yil 17 avgust

GLOSSARIY

Analitik - nafaqat ijtimoiy hodisalar va ularning tarkibiy qismlarini tavsiflash, balki ularning paydo bo'lish sabablarini, ishlash mexanizmlarini aniqlash va ularni ta'minlovchi omillarni aniqlashdan iborat.

Axloqiy ong - Axloq ham ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida kishilarning jamiyatdagi hatti-harakatlari, yashash normalari, yurish-turishlari, prinsiplari, qoidalari shuningdek ularning o'zaro bir-birlariga hamda ijtimoiy birlashmalarga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydi.

Aksiologik ong – qadriyatlarni anglash jarayonida vujudga keladigan qadrlash tuyg'usi, aksiologik tushuncha, qarashlarni, xulosalarni ifodalaydigan va aks ettiradigan ijtimoiy ong shakli. Aksiologik ongda qadriyatlar, ularning mohiyati, mazmuni namoyon bo'lish shakllari, ahamiyati va xususiyatlari o'z aksini topadi. Aksiologik ong – ijtimoiy ongning maxsus shakli bo'lib, biroq ijtimoiy fanlarda ijtimoiy ong shakllari ilmiy tushuncha sifatida qaraladi.

Axloqiy normalar – axloqiy ong va axloqiy amaliyotning tashkiliy – funksional xarakteristikasini ifodalaydi. Axloqiy normalarning ob'ekti ham huquqiy normalarniki bilan bir xil, biroq ularning ta'siri insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga keltirishga qaratilgan bo'ladi. Bu ikki normativ tizimning xususiyatlari bir birlaridan na faqat, tartibga solish ob'ektlari balki, uni amalga oshirish usullari bilan ham farq qiladilar.

Axborotlashgan jamiyat – ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish eng avvalo axborot tayyorlash, unga "ishlov berish", saqlash va jamiyat a'zolariga yetkazish bilan bog'liq bo'ladigan ishlarga sharoit yaratuvchi jamiyat. Axborotlashgan jamiyat muammolari bilan shug'ullangan olimlardan D.Bell, A.To'ffler, M.Kastels, U.Rostou va boshqalarning ishlarida kuzatish mumkin.

Barqarorlik – jamiyat taraqqiyotining tadrijiy rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko'rsatish imkoniyatidir.

Beqarorlik - ichki va tashqi jarayon va tahdidlar natijasida vujudga kelib, u bir ijtimoiy tizimdan boshqa ijtimoiy siyosiy tuzimga o'tish davrida keskinlashishi mumkin.

Gumanitarizm - ijtimoiy bilimlarni mutloqlashtirish g'oyasini ilgari suradi.

Globalashuv – turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, manaviyati,

odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir.

Globalistika – ilmiy tadqiqotlar va bilishning shunday jabhasiki, bu yerda turli fanlar bir – biri bilan uzviy aloqada, har biri o'z predmeti va metodi nuqtai nazaridan globallashuvning turli jihatlarini tahlil qiladi.

Dialektika – yunon tilida bahslashuv, munozara yuritish, suhbatlashuv san'ati ma'nolarini ifodalaydi.

Daosizm - (Xitoycha dao szya - dao maktabi). Konfutsiylik bilan bir qatorda e.o. birinchi ming yillikning II yarmida vujudga keladi. Uning asoschilari - Lao szi va Chjuan-szi hisoblanadi.

Diniy e'tiqod - u diniy goy'alar tasavvurlar tushunchalari afsonalarni haqiqat sifatida qabul qilish hamda iloxiy kuchning mavjudligiga ishonishni o'z ichiga oladi. Diniy e'tiqodda hissiyotlari qo'rqish, zavqlanish quvonch umid va boshqalar diniy tasavvurlar bilan qo'shilib ketib tegishli yo'nalish ma'no kasb etishi mumkin.

Diniy normalar - diniy xulq-atvor me'yorlari muqaddas kitoblarning (masalan, Injil yoki Qur'on) matnlarida belgilanadi, va diniy jamoat tomonidan o'rnatiladi. Ularning aksariyati axloq va qonun normalariga to'g'ri keladigan, marosimlarni o'z ichiga olib, urf-odatlar va an'analar bilan chambarchas bog'lanib boradi.

Yopiq jamiyat - bu turg'un ijtimoiy tuzilish, harakatchanlikning cheklanganligi, yangilik qila olmaslik, an'anaviylik, dogmatik avtoritar mafkura bilan ajralib turadigan jamiyat turi.

Jamiyat - inson, odamlarning maqsadga muvofiq faoliyati, uning natijalari va ular orasidagi munosabatlar.

Jadidchilik harakati - XIX asr oxiri - XX asr boshidagi ko'plab Sharq mamlakatlaridagi milliy - taraqqiyparvar ziyolilarning islohotchilik harakati. Bu harakat O'rta Osiyo xalqlarining madaniy, milliy-siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Jamiyatning ijtimoiy hayoti - deganda undagi mavjud turli birliklar, guruhlarning hayoti hamda, ular orasidagi turli-tuman ijtimoiy aloqa va munosabatlar nazarda tutiladi.

Jamiyat qonunlari – jamiyatning muayyan ijtimoiy – tarixiy – shart – sharoitida ijtimoiy jarayonlar rivojining xususiyati va yo'nalishini belgilaydigan, ma'lum bir qat'iy natijani taqozo etadigan, nisbiy barqaror munosabatlaridir.

Zamonaviy jamiyat. Jamiyat ochiq, yopiq, axborotlashgan va fuqarolik jamiyati kabi shakl ko‘rinishlarga ega. Bir qarashga ko‘ra, har qanday sivilizasiyalashgan jamiyatning asosiy masalasi uni tashkil etish masalasidir. Zamonaviy jamiyat ko‘plab iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy-madaniy determinantlar asosida tashkil etilgan. Uni sanoatdan postindustrial (informatsion) jamiyatga "o‘tish davri" deb atash mumkin.

Ilmiy bilish - o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra ob‘ektivlik, nazariy va empirik asoslarga tayanishi bilan xarakterlanadi. Bunda uning turli jihatlarini namoyon etuvchi shakllari g‘oya, muammo, gipoteza, nazariyalar muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy tizim - uning asosiy elementi odamlar, ularning aloqalari, o‘zaro aloqalari va munosabatlari, ijtimoiy institutlar va tashkilotlar, ijtimoiy guruhlar va jamoalar, me‘yorlar va qadriyatlaridir.

Iqtisodiy hayot sohasi - jamiyatdagi mavjud moddiy ishlab chiqarishni nazarda tutadi. U jamiyat hayotining iqtisodiy sharoitlarini yaratishdan iborat bo‘lgan murakkab ijtimoiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy hayot - bu odamlar faoliyatining jarayonlari va usullari majmuidir.

Ijtimoiy ong - tabiiy va ijtimoiy voqelikning in‘ikosi jamiyatning muayyan davriga yoki qismiga tegishli bo‘lgan umumiy his tuyg‘ular kayfiyatlar, qarashlar, g‘oyalar, nazariyalar majmuidir. Ijtimoiy ong tufayli jamiyatni o‘z - o‘zini anglash sodir bo‘ladi, kechayotgan jarayonlarga munosabati shakllanadi.

Iqtisodiy ong - iqtisodiy hayot sohasida kishilar tomonidan erishilgan natijalarni, jamiyat tomonidan qo‘lga kiritilgan iqtisodiy tajribani nisbatan umumlashgan holda aks ettiradi.

Individ - (lot. Individum - bo‘linmas) - inson shaxsi va uning hayotining alohidaligi, shaxs huquqlarining mutlaqligi hamda va o‘ziga xosligini ifodalovchi falsafiy tushuncha.

Individual ong - muayyan guruh, elat millatga mansub bo‘lgan ayrim shaxsning ongi. Voqelik va real borliqning alohida olingan shaxs ongida aks ettirishidir. Individual ong sohibi, sub‘ekti alohida olingan individdir.

Innovatsion ong - yangicha asosga ega bo‘lgan qadriyatlar, ko‘nikmalar, yangicha yo‘naltirilgan va ko‘proq yangilikka intilayotgan dunyoqarash asosida taraqqiy etadi. U ijodiy ong bo‘lib, u insonning o‘z hayotida

muntazam ijodiy yondashuvga ega bo'lishini, kreativlikni, o'zidan o'zib ketish uchun intilishini talab etadi.

Ijtimoiy bilish - jamiyatni, unda kechayotgan ijtimoiy hodisa, jarayonlarning mohiyatini, ularning kelib chiqishi, yashashi va rivojlanish qonuniyatlarini bilishdir. Ijtimoiy bilishdan ko'zda tutilgan maqsad jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot haqidagi ob'ektiv mazmunga ega bilimni - ijtimoiy haqiqatlarni hosil qilishdir.

Ijtimoiy mas'uliyat – shaxsdan boshlab, davlat va jamiyat qurilishi va uni boshqaruviga tomon tizim sifatida iyerarxik tarzda tavsiflanadi.

Ijtimoiy normalar - bu shaxslar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi tartiblilikni, barqarorlikni va ijtimoiy o'zaro ta'sirning barqarorligini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan, odatda tan olingan qoidalar, hatti-harakatlar shakli va faoliyat standartlari.

Internet – inson tafakkuri, aqli va bilimi qudratining mahsuli bo'lib, bugungi kunda butun dunyoni qamrab olgan global kompyuter tarmog'idir.

Kategoriya - istelosi falsafa fanining tarkibiy qismi sifatida ilk bor Aristotel tomonidan qo'llaniladi, u o'zining «Kategoriyalar haqida» nomli risolasida quyidagi kategoriyalarni qayd etadi: substansiya, miqdor, makon, vaqt, sifat, munosabat, joylashuvdir.

Kategoriyalar - ijtimoiy voqeylikning in'ikosi, uning muhim sifatliy belgilarini umumlashtiruvchi tushunchalardir. Ular o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birlarisiz mavjud bo'la olmaydilar, ular o'zaro dialektik bog'liqlikda bo'ladi.

Konfutsiylik - Uning asoschisi e.o.551-479 yillarda yashab ijod etgan Konfutsiydir. Konfutsiychilik ta'limoti bo'yicha har bir ijtimoiy qatlamning axloq normalari mavjud bo'lib, uni o'zgartirish mantiqqa ziddir.

Konfutsianchilik – qadimiy falsafiy maktab, insonni avvalambor ijtimoiy hayot qatnashchisi sifatida ko'rib chiqadi. Asosiy manbasi Lun Yuy («Suhbatlar va mulohazalar») asari.

Korporativ normalar - korxonalar me'yorlarining shakllanishi sanoat davrida boshlangan va shu vaqtdan boshlab ular ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynagan. Ushbu ijtimoiy normalar jamoat tashkilotlari (sanoat korxonalari, kasaba uyushmalari, xayriya jamiyatlari va boshqalar) ishini, shuningdek ularning a'zolarining huquqlari va majburiyatlarini tartibga

soladi.

Konformizm (lot. conformis — o‘xshash, muvofiq) — mavjud ijtimoiy tartib, hukmron g‘oya va fikrlarga moslashish, ularni passiv qabul qilish.

Modellashtirish usuli - ijtimoiy jarayonlar mohiyatini anglash uchun ob‘ekt asos bo‘la olmagan sharoitda uning o‘xshashini yaratish va shu asosda o‘rganish nazarda tutiladi.

Ma‘naviy erkinlik - bu dunyoqarash, milliy g‘oya, milliy qadriyat va umuminsoniylik tamoyillarini targ‘ib qilish erkinligi demakdir.

Mas‘uliyat - keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u falsafiy kategoriya sifatida ijtimoiy voqelikda inson hatti-harakatlarini anglagan holatda amalga oshirishini anglatadi. Falsafada bu tushuncha shaxsni jamiyatning ma‘naviy-axloqiy talablarini bajarishi nuqtai-nazaridan ta‘rif va tasnif etiladi.

Milliy o‘zlikni anglash – bu milliy rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy qonuniy, ob‘ektiv jarayondir. Toki, millatlar, milliy manfaatlar mavjud ekan, milliy munosabatlar ham, milliy o‘zlikni anglash ham taraqqiyotning ruhiy-ma‘naviy omili sifatida saqlanib qolaveradi.

Milliy qadriyatlar - tushunchasi muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma‘naviy boyliklarigina emas, balki ular yashayotgan hudud madaniy-ma‘naviy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruhi, tarixi, o‘tmishi, turmushi va yashash tarzi, millat hayotining tartib-qoidalari hamda ular bilan bog‘liq milliy xususiyatlar, jihatlar va boshqalarning ahamiyatini ifodalaydi.

Nutq - insonning tilga ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida individual murojaat akti hisoblanadi. Nutq gapirayotgan odamning kombinatorlik qobiliyatini, uning hissiy obrazlar, fikrlar, emotsiya, iroda, xotirani tildan foydalanib ifodalash malakasini ko‘zda tutadi.

Naturalizm - tabiiy bilimlarning ahamiyatini bo‘rtirish asosida ijtimoiy bilimlarning keragi yo‘qligini asoslaydi.

Homeostaz - (yunon tilidan. "homoyos" - xuddi shunday va "stazis"-davlat) o'z-o'zini boshqarish, ochiq tizimning dinamik muvozanatni saqlashga qaratilgan muvofiqlashtirilgan reaksiyalar orqali ichki holatining barqarorligini saqlab qolish qobiliyati. Tizimning o'zini qayta tiklash, yo'qolgan muvozanatni tiklash, tashqi muhitning qarshiligini engish istagi.

(atama birinchi marta 1929 yilda amerikalik fiziolog Valter Cannon tomonidan kiritilgan)

Ochiq jamiyat - bu dinamik ijtimoiy tuzilish, yuqori harakatchanlik, yangilik yaratish qobiliyati, tanqid qilish, individualizm va demokratik plyuralistik mafkura bilan ajralib turadigan jamiyat turi.

Sotsiologik tadqiqotlar - bu ularni keyinchalik amalda o'rganish uchun o'rganilayotgan hodisa yoki jarayon to'g'risida ob'ektiv, ishonchli ma'lumotlarni olishning umumiy maqsadi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan mantiqan izchil uslubiy, uslubiy va tashkiliy-texnik protseduralar tizimidir.

Sinergetika olamning o'z – o'zini tashkil etishi, makon va zamonda narsa va voqealarning azaliy ketma – ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuini ifodalaydi.

Siyosiy ong - jamiyat rivojlanishining ancha yuqori bosqichida, jamiyat siyosiy tizimining qaror topa borishi va siyosatning faoliyat sohasi sifatida paydo bo'lishi bilan bir vaqtda yuzaga keladi.

Siyosiy erkinlik - insonga normal hayotiy faoliyatni ta'minlovchi fuqarolar huquqlari yig'indisi deyishimiz mumkin.

Sivilizatsiyali inson - ya'ni madaniyatli inson mehnatning so'nggi vositalari, yutuqlari, uni tashkil etish, eng samarali mehnat qobiliyatlari va bilimlarini o'zlashtirishga intiladi, shu bilan boshqa odamlarning tajribasini o'zlashtiradi. U o'z faoliyatini o'ylaydi, loyihalashtiradi, bashorat qiladi, tanqidiy aks ettiradi va doimo yaxshilaydi.

Tarixiylik tamoyili - har qanday tarixiy hodisani rivojlanish jarayonida muayyan vaziyatni hisobga olgan holda o'rganishni talab qiladigan tarixiy bilim tamoyillaridan biri; o'tmish va hozirgi zamon o'rtasidagi farqni, tarixiy kontekstga rioya qilishni va tarixni jarayon sifatida idrok etishni nazarda tutadigan, ilmiy tarixiy tadqiqotlar jarayonida foydali bilimlarni olishning o'ziga xos usullarini ko'rsatadigan tarixiy ongning asosidir.

Tizimli yondashuv - eski va yangi bilimlarda mavjud kamchiliklar va ziddiyatlarni (qarama-qarshiliklarni) aniqlash va bartaraf etishga, shuningdek ilmiy hamjamiyat tomonidan rasman bekor qilinmagan, ammo eski ilmiy muomalada yo'qolgani tufayli amal qilmay qo'ygan dogmatik bilimlardan tozalashga ko'maklashadi.

Tizim strukturasi - uning mohiyatini belgilab, shu sohadagi hodisalarga

tegishli qonunlar majmuida o‘z aksini topadi. Agar ijtimoiy tizimning strukturasi haqida gap ketayotgan bo‘lsa, u faqat kishilarning bir-biriga munosabati tarzida namoyon bo‘lmaydi. Jamiyatning turli sohalari – iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy, huquqiy va boshqa sohalaridagi munosabatlar ham struktura elementlari hisoblanadi.

Til - bu fonetik, leksik va ifodalash vositasi bo‘lgan grammatik vositalar fikrlar, his -tuyg‘ular, iroda ifodasi va eng muhim vazifa odamlar orasidagi aloqa vositasi.

Tilning reprezentativ funksiyasi - uning intensional qobiliyati bilan juda mustahkam o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Tilning yo‘nalganligi yoki intensionallik xossasi inson muloqoti va ongining eng umumiy va chuqur sifatlarini ifodalaydi. Tilning intensionalligi avvalo ko‘rsatgich-so‘zlarda namoyon bo‘ladi.

Tilning nominativ funksiyasida so‘zning predmetlarni nomlash, ularni bilib olish va ma’lumotlarni uzatish qobilyati amalga oshadi.

Tilning ekspressiv funksiyasi insonning ongli faoliyatida ko‘p vositalar bilan amalga oshadi. Albatta, tilning ekspressiv imkoniyatlari uning reprezentativ, intensional va nominativ qobiliyatlarining resurlaridan foydalanadi.

Til normalari - so‘zlovchi yoki yozuvchining muayyan xususan, gazeta, jurnal, ilmiy asarlar, idoraviy rasmiy hujjatlar, ijtimoiy reklama va e’lonlar tilini tadbiq qilish faoliyati davomida yo‘l qo‘yadigan xatoliklari o‘rtasidagi chegarani belgilab beruvchi normalar sanaladi. Nutq aniq, ravon tezda tushuniladigan bo‘lishi zarur.

Tarixiylik va mantiqiylik metodi - tarixiylik ob’ektning real tarixini o‘rganishni, unda mavjud bo‘lgan hodisalarni aniqlashni talab etadi. Tarixiy dalillarni mantiqiy asoslar bilan berish ob’ektni to‘g‘ri anglash imkonini tug‘diradi.

Tarixiy parallellik usuli - bu avvalgi tarixiy tajribani bugungi kun bilan taqqoslashda umumlashtirishda qo‘llaniladigan usuldir.

Umuminsoniy qadriyatlar - barcha insonlarning tarixi, me’rosi, istiqloli, istiqboli va manfaatlarida mavjud bo‘lgan tutash, umumiy zaminlar va manfaatlar asosida tashkil topgan, taraqqiyotning yangi bosqichida ham barchaning manfaatiga mos keladigan ijtimoiy siyosiy, ma’naviy hodisalar hamda boyliklarga aytiladi.

Huquqiy ong – qisqacha qilib aytganda huquq va qonunchilikka oid odamlarning tasavvurlari, ularning his - tuyg‘ulari, amaliy tajribalar

ta'sirida paydo bo'lgan huquqqa nisbatan munosabatini ifodalaydi.

Huquqiy erkinlik - huquq ijtimoiy norma bo'lib, inson yashayotgan hayot me'yori, chegarasining xarakterini belgilab beradi.

Huquqiy normalar - ta'qiqlovchi, ruxsat etuvchi va majburlovchi xususiyatlar bilan xarakterlanadi va uni amalga oshirishda davlat hokimiyati organlari kuchiga tayanadi.

Estetik ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, estetik his – tuyg'ular, did, qarashlar, ideallar va nazariyalarning o'ziga xos betakror tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Inson voqelikni turlicha har xil ko'rinishlarda qabul qiladi.

Ekologik ong - ijtimoiy borliqning muayyan bog'lanishi va aloqadorliklarini, ifodalovchi ijtimoiy ongning barcha shakllari kabi ekologik ong ham ijtimoiy munosbatlar tizimida «tabiat-jamiyat» munosabatlarining aks etishi sifatida qaralmog'i lozim.

Estetik normalar - estetika me'yorlari jamiyatda qabul qilingan xunuk va go'zal g'oyalarni aks ettiradi. Ushbu me'yorlar nafaqat san'atga, balki inson tomonidan ishlab chiqarilgan barcha narsalarga (texnologiya, arxitektura va boshqalar) tegishlidir. Bundan tashqari, ular insonning tashqi qiyofasini va kundalik hayotdagi hatti-harakatlarini tartibga soladi. Xususan, odob-axloq qoidalari va gigiyena estetik me'yorlar bilan bog'liq. Har bir jamiyat rivojlanishning har bir bosqichida vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin bo'lgan o'ziga xos go'zallik g'oyalari bilan ajralib turadi.

Erkinlik - insonga yuklatilgan yuksak mas'uliyatdir. Bunday mas'ullik insonning jamiyat oldidagi muhim vazifalaridan hisoblanadi. Erkinlik va mas'uliyat insonning o'zligini anglash darajasini ham anglatadi. Inson o'z mohiyatini, vazifasini, ayniqsa jamiyat va yaqinlari oldidagi mas'ulligini chuqur anglab yetgan holda ish tutsagina yuksak darajada erkin bo'lib boraveradi.

Faktga munosabat - fanning empirik darajasining asosiy vazifasi faktlarni to'plashdir. Lotin tilida "factum" (facere fe'lidan - qilish) "bajarilgan", "mukammal" degan ma'noni anglatadi. Ish tartibi sifatida aytishimiz mumkinki, fakt allaqachon mavjud bo'lgan aniq faktning bir qismidir.

Shaxs - aloxida kishi, ijtimoiy-axloqiy mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan individ ma'nosini anglatadigan tushunchadir. Bu tushuncha barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'z predmeti nuqtai nazaridan ishlatiladi.

Shaxs erkinligi - u yashayotgan ijtimoiy tuzum mohiyatiga, ijtimoiy munosabatlarning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy xarakteriga, odamlar ma'naviyatining darajasiga bog'liq bo'ladi.

IJTIMOIIY FALSAFA FANIDAN TEST VARIANTLARI

№1. Forobiyning jamiyat haqidagi fikrlari bayon etilgan asarlari ko'rsatilgan qatorni aniqlang

- a) *As-siyosat al-madaniyya, Fozil odamlar shahri, Majmuar rasoil
- b) Muqaddima, Fozil odamlar shahri
- c) Donishnoma, Fozil odamlar shahri
- d) Mafotih al-ulum, Fozil odamlar shahri

№2. Inson ongidagi komplekslarni bartaraf etish nazariyasini yaratgan olim bu-

- a) *Zigmund Freyd
- b) Zigmund Ford
- c) Karl Gustav Yung
- d) Zigmund Berg

№3. Arxitiplar bu-

- a) *Bir qator avlodlarning bir xil tajribalari
- b) Insonning kelib chiqishini o'rganish
- c) Insonning xotirasi
- d) Jamiyatning eng qadimgi shakllanish davrlari

№4. Axloq yaxlit ijtimoiy hodisa sifatida nimalarni o'z ichiga oladi?

- a) *Axloqiy ong, axloqiy hatti-harakatlar, axloqiy munosabatlarni
- b) Insonning hatti - harakatlarini
- c) Umumijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan qadriyatlarni
- d) Kishilarga xos sifatlarning muhim tomonini

№5. Axloqning sub'ekti va mezoni to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang

- a) *Sub'ekti-inson, mezoni- vijdon
- b) Sub'ekti -inson, mezoni- kamtarinlik
- c) Sub'ekti-jamiyat, mezoni- qonunlar
- d) Sub'ekti-inson, mezoni-din

№6. Qanday siyosat turi farqlanadi?

- a) *Ichki va tashqi
- b) Xalqaro va umummilliy
- c) Totalitar va respublika
- d) Demokratik va avtoritar

№7. Oila bu-

- a) *Kishilarning tabiiy-biologik, iqtisodiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligi
- b) Kishilarning fakatgina moddiy ehtiyojlarini qondiruvchi makon
- c) Jamiyatning o'ziga xos ichki tuzilmasi
- d) Insonlarning avlodning davomiyligi yo'lidagi uyushishi

№8. Zigmund Freyd tomonidan inson psixikasida bir-biridan nisbiy mustaqil bo'lgan tuzilmalar ajratilgan, ular-

- a) *Barcha javoblar to'g'ri
- b) Ong osti-u
- c) Ongli-men
- d) Oliy-ego

№9. Mifologik manbalarni o'rganish orqali nimalarni bilish mumkin?

- a) *O'sha davrda jamiyat muhitini his etish va davrda ustuvor bo'lgan mayllarni anglash mumkin
- b) O'sha davrdagi hudud chegaralarini
- c) O'sha davrda mavjud bo'lgan tarixiy joy nomlarini
- d) O'sha davrdagi qadimgi nomlarni o'rganish mumkin

№10. Ibn Sino jamiyatning paydo bo'lishi hakida qanday nazariyani ilgari surgan?

- a) *Emanatsion
- b) Genetik
- c) Bioximiyaviy
- d) Evolyusion

№11. Beruniy kishilik jamiyatining paydo bo'lishining asosiga nimani ko'radi

- a) *Ruhiy va moddiy ehtiyojlarni
- b) Insoniy munosabatlarni
- c) Iqtisodiy munosabatlarni
- d) Ma'naviy munosabatlarni

№12. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar asarining muallifi kim?

- a) *Abu Rayhon Beruniy
- b) Forobiy
- c) Abu Ali Ibn Sino

d) Muhammadrizo Ogahiy

№13. Avtomatizm bu-

a) *Insonning murakkab harakatlari bo‘lib, ko‘plab mashqlar natijasida nazoratdan chiqadi

b) Jamiyatning avtomatlashuvi

c) Inson ehtiroslarining majmui

d) Insonning tushkun kayfiyati bo‘lib, bunda u o‘zini boshqara olmaydi

№14. Zardushtiylik dinida birinchi odam qanday nomlanadi?

a) *Ilma

b) Azuramazda

c) Axriman

d) Zardusht

№15. Forobiy qanday jamiyat shakllarini farqlagan?

a) *Fozil va johil

b) Ibratli va nokomil

c) Komil va monarxiyaga asoslangan

d) Barqaror va beqaror

№16. Mulkdorlar o‘rtasidagi kurash qanday nomlanadi?

a) *Raqobat

b) Kompromiss

c) Bitim

d) Sino

№17. O‘z-o‘zini anglash darajasini nima belgilab beradi?

a) *Shaxs madaniyati, odobi va ongi

b) Shaxsning ruxiy holati

c) Shaxsning aqliy salohiyati

d) Shaxsning iktisodiy imkoniyatlari

№18. Ibn Sinoning jamiyat hakidagi fikrlari uning kaysi asarlarida bayon etilgan?

a) *Kitob ash-Shifo, Kitob An-Najot, Donishnoma asarlarid

b) Majmuar rasoil asarining inson ruhiyati hakidagi bo‘limida

c) Kitob ash-Shifo, Mukaddima, Qobusnoma asarida

d) Kitob an-Najot asarining ichki kasalliklar bo‘limida

№19. Jamiyatdagi barqarorlik bu-

a) *Tinchlik, osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti qat’iy bo‘lgan

sharoit

- b) Axloqiy prinsiplar qat'iy bo'lgan sharoit
- c) Turg'unlik
- d) Inson huquqlari qat'iy kafolatlangan muhit

№20. Jamiyatda beqarorlik nimaning natijasida yuzaga keladi?

- a) *Barcha javoblar to'g'ri
- b) Jamiyatda ishsizlik keskin ko'payganda
- c) Iktisodiy o'sish sur'ati pasayganda
- d) Ichki va tashqi jarayon hamda tahdidlar natijasida

№21. Ma'naviyat iqtisodi y jarayonlarni...

- a) *Harakatga keltiruvchi omildir
- b) Inqirozga olib boruvchi omildir
- c) Halqaro miqyosga olib chiquvchi omildir
- d) Huquqiy kafolatlovchi omildir

№22. Ijtimoiy barkarorlikni ta'minlashning ma'naviy-huquqiy asoslari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniklang

- a) *Barcha javoblar to'g'ri
- b) Shaxs ma'naviyatini yuksaltirish
- c) Madaniy-ma'naviy merosni o'rganish
- d) Demokratik qadriyatlarni rivojlantirish

№23. Mezon bu-

- a) *Falsafiy kategoriyani anglatadi
- b) Insonning aqliy imkoniyatlarining chegarasini anglatadi
- c) Taqqoslash yoki baholash uchun o'lchov, andozani anglatadi
- d) Mulkchilik nazariyasining kagegoriyasini anglatadi

№24. Jamiyatning barqaror rivojlanishi qanday omillarga bog'liq?

- a) *Barcha javoblar to'g'ri
- b) Nochorlikka qarshi kurash
- c) Yangi ish o'rinlarini yaratish
- d) Tabiiy muhitni tiklash va saqlab qolish

№25. Faoliyatning qanday turlari ajratiladi?

- a) *Maqsadli va refleksiya
- b) Instinktiv va produktiv
- c) Reprodukativ va produktiv
- d) Tartibli va tartibsiz

№26. Har qanday faoliyat nimani talab etadi?

- a) *Tayyorgarlik (ma'lumotlilik), tajriba, mutaxassislik
- b) Harbiy guvohnoma, ariza, sertifikat
- c) O'qish joyidan ma'lumotnoma, attestat, ariza
- d) Diplom, attestat, mutaxassislik

№27. Inson o'zida quyidagi xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudot:

- a) *Biologik, ijtimoiy, psixik
- b) Onglilik, ongsizlik, ijtimoiy
- c) Biologik, onglilik, jismoniy
- d) Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy

№28. Antropologiya bu-

- a) *Insonning mohiyati, kelib chiqishini o'rganadigan fan
- b) Jamiyatning paydo bo'lishini o'rganadigan fan
- c) Sinflarning kelib chiqishini o'rganadigan fan
- d) Dunyoning yaratilishi borasidagi nazariyalarni o'rganadigan fan

№29. Insonning shaxsga aylanish darajalari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang

- a) *Individ-shaxs-inson
- b) Yovvoyi odam-inson-jamoa
- c) Individ-odam-inson-shaxs
- d) Chaqalok-odam-inson

№30. Insonda ikki qarama-qarshi asos bor, bu-

- a) *Modda va ruh
- b) Ijtimoiylik va onglilik
- c) Ma'naviyat va tubanlik
- d) Axloqlilik va xudbinlik

№31. Faoliyat o'zida:

- a) *Barcha javoblar to'g'ri
- b) Maqsadni qamrab oladi
- c) Natijani qamrab oladi
- d) Jarayonni qamrab oladi

№32. Jamiyat bu-

- a) *O'z hayotiy zarur ehtiyojlarini qondirishda o'zaro aloqador bo'lgan odamlar birgalikda yashashining muayyan ijtimoiy tizimi hisoblanadi

- b) Faqat ma'naviy ehtiyojlarni qondirishda o'zaro aloqador bo'lgan odamlar birligi
- c) Muayyan huquqiy normalarga qat'iy rioya etilishi talab etiladigan maskan
- d) Oilalar, ijtimoiy guruhlar, sinflardan iborat bo'lgan kishilar jamoasidir

№33. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar qaysi faoliyat bilan bog'liq bo'ladi?

- a) *Barcha javoblar to'g'ri
- b) Oilaviy, iqtisodiy
- c) Siyosiy, huquqiy
- d) Axloqiy, diniy, estetik

№34. Jamiyatning paydo bo'lish shartlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlan

- a) *Odamlar o'rtasida muayyan ijtimoiy munosabatlar o'rnatiladi, ushbu munosabatlar kishilarning ob'ektiv ehtiyojlari va yashash sharoitlari natijasida shakllanadi.
- b) Kishilar o'rtasida axloqiy munosabatlar o'rnatiladi, ushbu munosabatlar kishilarning estetik ehtiyojlarini qondiradi.
- c) Odamlararo huquqiy munosabatlar o'rnatiladi va odamlar jamiyati tashkil topadi.
- d) Kishilar o'rtasida siyosiy bitimlar tuziladi, ushbu bitimlar kishilarning kelgusida jamiyat bo'lib rivojlanishiga yordam beradi.

№35. Jamiyat hayoti qanday sohalarga ajratiladi?

- a) *Barcha javoblar to'g'ri
- b) Iqtisodiy
- c) Ijtimoiy
- d) Siyosiy va ma'naviy

№36. Iqtisodiy soha-

- a) *Moddiy boyliklarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni o'z ichiga oladi
- b) Moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol qilishni o'z ichiga oladi
- c) Moddiy boyliklarni taqsimlashni o'z ichiga oladi

d) Moddiy boyliklarni asrab-avaylashni o'z ichiga oladi

№37. Jamiyatda beqarorlik nimaning natijasida yuzaga keladi?

a) *Ichki va tashqi jarayon hamda tahdidlar natijasida

b) Jamiyatda ishsizlik keskin ko'payganda

c) Milliy valyutaning qadrsizlanishi nagijasida

d) Iqtisodiy o'sish sur'ati pasayganda

№38. Jamiyatning ma'naviy sohasini-

a) *Ijtimoiy hayotning ma'naviy mazmunini tashkil qiluvchi barcha narsalar tashkil etadi.

b) Adabiyot va san'at tashkil etadi

c) Mafkura va fan tashkil etadi

d) Axloqiy me'yorlar tashkil etadi.

№39. «Falsafa» atamasini birinchi bo'lib qaysi faylasuf qo'llagan?

a) *Pifagor

b) Aristotel

c) Suqrot

d) Platon

№40. Sotsiologiyaning fan sifatidagi asoschisini aniqlang?

a) *O.Kont

b) T. Kun

c) Kant

d) Gegel

№41. Qaysi falsafiy konsepsiya tarafdorlari insonni uning tabiiy, biologik asosidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qiladi

a) *Biologizatorlik konsepsiya

b) Sotsiologizatorlik konsepsiyasi

c) Ekzistensializm konsepsiyasi

d) Kosmotsientrizm konsepsiyasi

№42. Falsafa tarixida «inson» kategoriyasini ilgari surdigan faylasuf kim?

a) *L.Feyerbax

b) I.Kant

c) J.J.Russo

d) F.Nisse.

№43. Hozirgi zamon fanida shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi uch muhim omilni ko'rsatilgan javob qaysi?

- a) *Irsiyat, yashash sharoiti va bilim
- b) Irsiyat, madaniy muhit va yashash sharoiti
- c) Iqtisodiy sharoit, bilim va irq
- d) Madaniy muhit, iqtisod va irsiyat

№44. Ijtimoiy ongning darajalarini aniqlang?

- a) *Kundalik va nazariy ong
- b) Amaliy ong
- c) Kundalik va amaliy ong
- d) Amaliy va nazariy ong

№45. Ijtimoiy ongning yaxlit tasviri qaysi tushunchalar yordamida yaraladi?

- a) *C va D javoblar to'g'ri
- b) Ijtimoiy ong holati, ommaviy ong holati, jamoatchilik fikri
- c) Ommaviy ong, individual ong
- d) Ijtimoiy ong, diniy ong ommaviy ong

№46. "Madaniyat" so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

- a) *Arabcha "madina" shahar degani
- b) Davlat so'zidan olingan
- c) Inglizcha "uy" degani
- d) Lotincha "kitob" so'zidan olingan

№47. Quyidagi so'zlar muallifi kim: «Inson o'zini dunyodan oldinroq va ko'proq biladi, ayni shu sababli u dunyoni o'zidan keyin va o'zi orqali anglab yetadi...»?

- a) *N.A.Berdyayev
- b) V.Solovev
- c) V.Kuznesov
- d) A.Chumakov

№48. «Inson-mashina» asarining muallifi kim?

- a) *J.Lametri
- b) Dj.Berkli
- c) Dj.Bruno
- d) B.Spinoza

№49. G‘oyalar, qarashlar, baholar almashinuvini nazarda tutadigan ma’naviy muloqot turi bu?

- a) *Kommunikatsiya
- b) Internatsiya
- c) Yangi bilimni aks ettiradigan axborot turi
- d) Axborotni idrok etuvchi shaxs yoki guruh xulq-atvorini o‘zgartiradigan xabar

№50. Siyosat bu-

- a) *Davlat miqyosida va davlatlararo munosabatlarda hokimiyatni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat
- b) Mamlakatda olib boriladigan iqtisodiy munosabatlar
- c) Faqat ma’lum hududda olib boriladigan faoliyat
- d) Davlatda olib boriladigan huquqiy munosabatlar

№51. Davlat boshqaruv shakliga ko‘ra...

- a) *Monarxiya va respublikaga bo‘linadi
- b) Unitar
- c) Federativ
- d) Unitar va federativ

№52. Davlat qurilish shakliga ko‘ra...

- a) *Unitar, federativ va konfederativ
- b) Monarxiya
- c) Respublika
- d) Unitar va monarxiya

№53. Siyosiy sub’ektlar (shtatlar, yerlar, federatsiya sub’ektlari va sh.k.), o‘z konstitutsiyalari, qonunchilik, ijro va sud organlariga ega davlatlar uyushmasi nima deb ataladi?

- a) *Federatsiya
- b) Konfederatsiya
- c) Unitar
- d) Monarxiya

№54. “Har qanday sivilizatsiya ko‘pdan ko‘p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali tar’sirining mahsulidir. Bir so‘z bilan aytganda ko‘chmanchilar, bosqinchilar kelib ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi” degan fikr muallifi kim?

- a) *I.Karimov
- b) Forobiy
- c) Ibn Xaldun
- d) Xaydegger

№55. Demokratiya so‘zining ma’nosi?

- a) *Xalq hokimiyati
- b) Davlat hokimiyati
- c) Fikrlar ko‘pligi
- d) Faqat A va B javoblar to‘g‘ri

№56. Ma’naviyat so‘zining lug‘aviy ma’nosi?

- a) *Arabcha ma’ni
- b) Lotincha ma’ni
- c) Yunoncha mohiyat
- d) Barcha javoblar to‘g‘ri

№57. Tarix mazmuni tushunchasining eng teran talqinlarini qaysi faylasuf taklif qilgan?

- a) *K.Yaspers
- b) Sartr
- c) Nisshe
- d) Kant

№58. Quyidagi faylasuflardan qaysi biri jamiyatni tushunishni qadriyatlar tizimi bilan bog‘lagan ?

- a) *E.Dyurkgeym
- b) Spenser
- c) Marks
- d) Engels

№59. Dyurkgeym ijtimoiy tuzilma dalillarining qaysi birlarini ko‘rsatib o‘tadi?

- a) *Moddiy va ma’naviy qadriyatlar
- b) Madaniy meros
- c) Ijtimoiy ong
- d) To‘g‘ri javob yo‘q

№60. Dyurkgeym ijtimoiy evolyusiyani nima bilan bog‘laydi?

- a) *Mehnat
- b) Mulk

- c) Oila
- d) Tabiiy tanlanish.

№61. “Protestantcha axloq va kapitalizm ruhi” asarining muallifi kim?

- a) *M.Veber
- b) Rikkert
- c) Dyurkgeym
- d) Spenser

№62. Ijtimoiy harakat va uning motivatsiyasi tushunchasini kim ta’riflab beradi?

- a) *Veber
- b) Spenser
- c) Kant
- d) Gegel

№63. Tarix falsafasining funksiyalarini belgilang?

- a) *Dunyoqarash, nazariy metodologik, prognostik
- b) Dunyoqarash, pedogogik, didaktik
- c) Eksperimental, prognostik
- d) Insonparvarlik, ontologik, gnoseologik

№64. Tarixiy harakat yo’llari to’g’risidagi konsepsiyalar antik davr faylasuflarining qaysi birida uchraydi?

- a) *Barcha javoblar to’g’ri
- b) Geradot
- c) Aristotel
- d) Pliniy

№65. “Inson uchun tarixdan judo bo’lish – hayotdan judo bo’lish demakdir” degan fikr muallif kim?

- a) *I.Karimov
- b) Aripov
- c) Beruniy
- d) Forobiy

№66. Falsafaning tarixiy jarayon mazmuni, uning qonuniyatlari va asosiy yo’nalishlarini tushuntirish bilan shug’ullanuvchi, shuningdek uni bilish metodlarini asoslovchi bo’limi nima?

- a) *Tarix falsafasi

- b) Iqtisod falsafasi
- c) Huquq falsafasi
- d) Din falsafasi

№67. Har qanday umumiy ijtimoiy-tarixiy jarayonga jalb qilingan turli etnik guruhlar ... deb nomlanadi.

- a) *qabila bo'yicha
- b) subetnos
- c) super etnos
- d) sinf

№68. Odamlarning tarixan shakllangan ehtiyojlarini qondirish uchun u yoki bu ob'ektni o'zgartirish maqsadidaga ta'sir ko'rsatish faoliyati, bu - ...?

- a) *Amaliyot
- b) Bilim
- c) Tajriba
- d) Gipoteza

№69. Jamiyat tomonidan iste'mol qilinadigan qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarning kamayishi ... ga tegishli.

- a) *demografik muammo
- b) ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish muammosi
- c) urush va tinchlik muammosi
- d) ekologik muammo

№70. Madaniyatning transformatsion funktsiyasining mohiyati ...

- a) *tabiatni, jamiyatni va odamni o'zgartirish
- b) yangi ma'naviy qadriyatlarni yaratish
- c) moddiy ehtiyojlarni qondirish
- d) shaxsiyat sotsializatsiyasi

№71. Ma'naviy sohadagi globallashuv ...

- a) *milliy biznes chegaralaridan chiqib ketadigan biznes
- b) xalqaro siyosiy tashkilotlarni yaratish
- c) birlashgan jahon iqtisodiyoti tizimini yaratish
- d) ma'naviy qadriyatlar almashinuvi - diniy va falsafiy g'oyalar, kino va televizion mahsulotlar, musiqiy san'at va boshqalar.

№72. O'z-o'zini tashkil etish ijtimoiy tizim rivojlanishining omili sifatida, u ...

- a) *sinergiya
- b) geografik determinizm
- c) providentializm bilan
- d) texnokratik determinizm

№73. Erkinlikning klassik tushunchasi uning ... bilan bog'liqligini nazarda tutadi.

- a) *erkinlik va irodaning o'ziga xosligi
- b) zarurat bo'yicha
- c) xoxlagan narsani qilish qobiliyati
- d) o'z-o'zidan harakat qilish orqali

№74. "Noosfera" tushunchasini ko'rib chiqadigan faylasuflar ...

- a) *V. I. Vernadskiy, P. Teilxard de Shardin
- b) T. Maltus
- c) C. Monteske
- d) E. Reclus

№75. "Futuroshok" asari muallifi ...

- a) *A.Toffler
- b) L.Oq
- c) J. Fourastier
- d) Z. Bjezhinskiy

№76. Texnika va elektronikaning ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga ta'siri haqidagi g'oyani ifoda etgan faylasuf ...

- a) *F.Fukuyama
- b) Z.Bzejnskiy
- c) S.Xantington
- d) K.Yaspers

№77. Fuqarolik jamiyatining umumiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- a) *universal qonun ustuvorligi
- b) qarindoshlikning mavjudligi
- c) imperatorlik davlati
- d) diktatorlik davlati

№78. Aksiologiya nuqtai nazaridan madaniyat ... kabi ko'rinadi.

- a) *qadriyatlar va ideallar tizimi
- b) inson faoliyatining o'ziga xos usuli

- c) axborot kodlari tizimi
- d) hissiyot ifodasi

№79. Turli mamlakatlar, mintaqalar, o'zaro bog'liqlikning o'sib borishi, insoniyatning iqtisodiy va madaniy integratsiyasi ...

- a) *globalashuv
- b) axborotlashtirish
- c) texnologizatsiya
- d) ideologizatsiya

№80. Teng huquqli oilaning o'ziga xos xususiyati ...

- a) *Oilaviy qarorlarni bo'lishish
- b) Oilaning bitta a'zosi tomonidan barcha mulkka egalik qilish
- c) bir necha avlod oilasida yashash
- d) erkak va ayolning oilaviy majburiyatlarini ajratish

№81. Diniy falsafa tarixning harakatlantiruvchi kuchini ...

- a) *taqdir
- b) tabiiy muhit
- c) ta'minlash
- d) sanoat, iqtisodiy munosabatlar

№82. Ijtimoiy falsafaning asosiy muammolari deganda:

- a) *Jamiyat, inson, ular orasidagi munosabatlar; Ijtimoiy taraqqiyot; Ijtimoiy bilish nazarda tutiladi.
- b) Ijtimoiy taraqqiyot; Ijtimoiy bilish nazarda tutiladi.
- c) Jamiyat, inson, ular orasidagi munosabatlar tutiladi.
- d) jamiyatni harakatga keltiruvchi qonunlar

№83. Ijtimoiy falsafa boshqa ijtimoiy fanlardan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

- a) Barcha javoblar to'g'ri/
- b) ijtimoiy hayotni yuqori darajada tahlil qiladi, mavhum tushunchalar, qonunlar va tendensiyalarni ochib beradi, o'z xulosalarini umumiy nazariya shaklida umumlashtiradi;
- c) konkret ijtimoiy fanlar uchun ijtimoiy hodisalarni bilishda metodologik asos hisoblanadi;
- d) jamiyat rivojlanishining umumiy qonunlari va tendensiyalarini o'rganadi, u tarixiy taraqqiyotning umumiy nazariyasi hisoblanadi.

№84. «Insonning tabiat bilan yangicha dialogi» asar muallifi....

- a) *I.Prigojin
- b) A.Toffler
- c) S.Xantington
- d) K.Yaspers

№85. “Davlat”, “Qonunlar”, “Siyosat” va “Kritiy” nomli asarlar muallifi....

- a) *Aflotun
- b) Seneka
- c) Mark Avreliy
- d) Plotin

№86. Qadimgi Xitoy ta’limotlari ...

- a) *Daosizm, Legizm
- b) Veda
- c) Upanishada
- d) Avesto

№87. Ibn Sino insonlarning jamiyatdagi o’rni va vazifalariga qarab uch guruhga ajratadi:

- a) *barcha javoblar to’g’ri
- b) davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishlari bilan shug‘ullanuvchilar;
- c) bevosita xom ashyo zarur mahsulotlar ishlab chiqarish bilan mashg‘ul bo‘lganlar;
- d) davlatni qo‘riqlash uni turli tashqi hujumlardan saqlovchi harbiylar.

№88. Jan Jak Russo «Odamlar o‘rtasidagi tengsizlikning kelib chiqishi va uning sabablari haqidagi mulohazalar» asarida ... deb hisoblaydi.

- a) *mulkiy tengsizlik, jamiyatning boy va qashshoqlarga bo‘linishi ijtimoiy tengsizlikning birinchi bosqichidir
- b) Hokimiyatning ijro etuvchi organlari
- c) Hokimiyatning qonun chiqaruvchi tizimi
- d) hokimiyat zulm va adolatsizlik hokimiyatga aylanadi

№89. «Pozitiv siyosat sistemasi» asari muallifi

- a) *Kont
- b) G.Spenser

- c) Maks Veber
- d) I.Kant

№90. Ingliz faylasufi ... jamiyatni tabiatning ajralmas bir qismi, umumiy evolyutsion jarayon sifatida tushuntirdi; jamiyat va tabiatni bir-biri bilan qiyoslash orqali ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni ko‘rsatdi.

- a) *G.Spenser
- b) Gegel
- c) O.Kont
- d) I.Kant

№91. Ijtimoiy ong shakllariga ...

- a) *Huquqiy, axloqiy, estetik, diniy, aksiologik, iqtisodiy, ekologik, innovatsion ong
- b) Axloqiy, normativ, estetik, diniy, aksiologik, iqtisodiy, ong
- c) Ijtimoiy, siyosiy, diniy, ijtimoiy aloqalar, aksiologik, individual ong
- d) Iqtisodiy, ekologik, estetik, innovatsion, ijtimoiy va individual ong

№92. Naturalizm - ...

- a) *tabiiy bilimlarning ahamiyatini bo‘rtirish asosida ijtimoiy bilimlarning keragi yo‘qligini asoslaydi.
- b) ijtimoiy bilimlarni mutloqlashtirish g‘oyasini ilgari suradi.
- c) jamiyatni, unda kechayotgan ijtimoiy hodisa, jarayonlarning mohiyatini, ularning kelib chiqishi, yashashi va rivojlanish qonuniyatlarini bilishdir
- d) ijtimoiy bilimlarning ijtimoiy borliqqa, jamiyatga mos kelishi (adekvatligi) nazarda tutiladi

№93. ... «Yangi Organon» asarida insoning tabiat ustidan hukmron bo‘lishida fan yutuqlariga tayanish zarurligini isbotlab berdi.

- a) *F.Bekon
- b) Tomas Gobbs
- c) Jan Jak Russo
- d) Lyudvig Feyerbax

№94. “Erkinlik, tafakkurning ne‘mati emas, inson irodasining xususiyati” fikr muallifi ...

- a) *Avreliy Avgustin
- b) B.Spinoza

- c) M.Xaydegger
- d) K.Yaspers

№95. Ijtimoiy mas'uliyat ...

- a) *barcha javoblar to'g'ri
- b) shaxsning xulq – atvorida namoyon bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlar va ularning bajarilishini ta'minlash
- c) shaxsning ijtimoiy munosabatlardagi faolligi va ratsional faoliyatini belgilab beruvchi axloqiy omil
- d) o'z mohiyatiga ko'ra muayyan shaxsning oila, millat, davlat, jamiyat oldidagi burchi, vazifalarini anglash asosida yuzaga keladigan, ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy axloqiy, ruhiy-emotsional tuyg'ular mushtarakligi

№96. Pozitivizm tarafdorlari...

- a) *O.Kant, J.Mill, G.Spenser
- b) L.Vitgenshteyn, M.Shmik, R.Karnal
- c) D.Merse, J.Mariten, E.Jilson
- d) M.Xaydeger J.P.Sartr, A.Kamyu

№97. “Sinergetika” (yunonchada synergos – o'zaro muvofiqlik (kelishuv) asosida faoliyatda bo'luvchi, birgalikda) degan ma'noni anglatadi. Uning asosiy g'oyalari ...tomonidan

- a) *I.Prigojin, G.Xaken, A.Samarskiy
- b) S.Kurdyumov, N.Moiseyev, Z.Freyd
- c) Z.Freyd, A.Adler, K.Yung
- d) D.Merse, J.Mariten, E.Jilson

№98. Ijtimoiy normalarning vazifalari:

- a. *barcha javoblar to'g'ri
- b. ijtimoiylashuvning umumiy yo'nalishini tartibga solish
- c. shaxslarni guruhlarga, guruhlarni esa jamiyatga birlashtirish, deviant hatti-harakatlarni boshqarish;
- d. modellar, xulq-atvor standartlarini shakllantirishdan iborat.

№99. Milliy qadriyatlar ...

- a) *barcha javoblar to'g'ri
- b) millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlaydigan etnik makonda shakllanadigan, rang – barang tarzda, turli shaklda namoyon bo'ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o'ziga xos reallik sifatida ta'sir qiladigan;

c) millatdoshlarning o‘zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatida ko‘zga tashlanib turadi, bu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma’naviy asos bo‘ladigan;

d) millatning moddiy, ma’naviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa hayotida muayyan natija sifatida yuzaga keladigan, kishilar uchun zaruriyat tarzida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadigan; millatning ijtimoiy rivojlanishi jarayonida o‘zgarib, takomillashib, rang – barang jihatlar kashf etib boradigan, doimiy yangilanib turadigan, shu bilan birga, vorislik orqali avloddan – avlodga o‘tadigan, meros qoladigan qadriyatlarni ifodalaydigan tushunchadir:

№.100. Ijtimoiy falsafa rivojlanishining asosiy davrlari...

a) *Barcha javob to‘g‘ri

b) Ijtimoiy falsafiy fikrlarning shakllanishi va taraqqiyoti. Eng qadimiy davrlardan XIX asrlarga qadar.

c) XIX asrda ijtimoiy falsafa. Ijtimoiy falsafaning fan sifatida falsafadan ajralib chiqishi.

d) XX asr ijtimoiy falsafasi.

№.101. Inson ongidagi komplekslarni bartaraf etish nazariyasini yaratgan olim bu-

a. *Zigmund Freyd

b. Zigmund Ford

b) Karl Gustav Yung

c) Zigmund Berg

№.102. Ibn Sinoning jamiyat haqidagi fikrlari uning qaysi asarlarida bayon etilgan?

a) *Kitob ash-Shifo, Kitob An-Najot, Donishnoma

b) Majmuar rasoil asarining inson ruhiyati haqidagi bo‘limida

c) Kitob ash-Shifo, Muqaddima, Qobusnoma

d) Kitob an-Najot

№.103. Mehnat bu-

a) *kishining aql yoki kuch bilan amalga oshadigan maqsadli faoliyati

b) kishilarning ham jihatligi

c) insonning avtomatik hatti-harakatlari

d) insonning ongli faoliyati

№.104. O‘z-o‘zini anglash darajasini nima belgilab beradi?

- a) *Shaxs madaniyati, odobi va ongi
- b) Shaxsning ruhiy holati
- c) Shaxsning aqliy salohiyati
- d) Shaxsning iqtisodiy imkoniyatlari

№.105. Jamiyatsdagi barqarorlik bu-

- a) *Tinchlik, osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti qat’iy bo‘lgan sharoit
- b) Axloqiy prinsiplar qat’iy bo‘lgan sharoit
- c) Turg‘unlik
- d) Inson huquqlari qat’iy kafolatlangan muhit

№.106. O‘z-o‘zini anglash darajasi to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang

- a) *O‘z-o‘zini his etish-idrok etish-muayyan ijtimoiy guruhga mansubligini anglash-o‘z "Men"iga ega bo‘lish
- b) Muayyan ijtimoiy guruhga mansubligini anglash-o‘z "Men"ini anglash
- c) O‘z-o‘zini sezish-muayyan guruhga mansubligini anglash
- d) O‘z-o‘zini his etish-o‘z "Men"iga zga bo‘lish

№.107. Jamiyatning paydo bo‘lish shartlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.

- a) *Odamlar o‘rtasida muayyan ijtimoiy munosabatlar o‘rnatiladi, ushbu munosabatlar kishilarning ob’ektiv ehtiyojlari va yashash sharoitlari natijasida shakllanadi.
- b) Kishilar o‘rtasida axloqiy munosabatlar o‘rnatiladi, ushbu munosabatlar kishilarning estetik ehtiyojlarini qondiradi.
- c) Odamlararo huquqiy munosabatlar o‘rnatiladi va odamlar jamiyati tashkil topadi.
- d) Kishilar o‘rtasida siyosiy bitimlar tuziladi, ushbu bitimlar kishilarning kelgusida jamiyat bo‘lib rivojlanishiga yordam beradi.

№.108. Siyosiy sohada o‘z faoliyatini amalga oshiradi:

- a) *Davlat, guruhlar, milliy birliklar, siyosiy partiyalar va harakatlar, turli jamoat tashkilotlari
- b) Oilalar, mahallalar, xalq harakatlari, baynalminal markazlar
- c) Elchixonalar, mahallalar, turli jamoat tashkilotlari.
- d) To‘g‘ri javob yo‘q.

№.109. Ijtimoiy institutlarni

- a) *Oila, millatlar, tashkilotlar, davlat tashkil etadi
- b) Oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etadi
- c) Ijtimoiy guruhlar, shaxslar, liderlar tashkil etadi
- d) Mahallalar, xalqaro tashkilotlar, vazirliklar tashkil etadi

№.110. Insonni faoliyatga undovchi sabablarni ko'rsating?

- a) *Ehtiyojlar
- b) Maqsadlar
- c) Orzular
- d) Hayollar

№.111. «Tarix kurtaklari va uning maqsadi» asari muallifi ...

- a) *A.Toynbi
- b) K.Yaspers
- c) M.Born
- d) F.Jollo Kyuri

№.112. Ijtimoiy falsafaning predmeti bu..

- a) *jamiyat, uning shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini yaxlit tarzda o'rganishdan iboratdir.
- b) Tabiat qonunlarini o'rganishdan iborat
- c) Predmetga ega emas.
- d) To'g'ri javob yo'q.

№.113. Ijtimoiy falsafaning dunyoqarashlilik funksiyasi...

- a) *Ijtimoiy falsafa xuddi falsafa kabi insonning jamiyat haqidagi ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi.
- b) Xaosdagi tartibsiz bilim beradi
- c) Tarixiy jarayonlar mazmuni haqida bilim beradi
- d) Shaxsning tarixga individual munosabatini shakllantiradi

№.114. Ijtimoiy falsafa pedagogik-didaktik funksiyasi nimani bajaradi?

- a) *B va C
- b) Insonning tarbiyalashga, unda yuksak insoniy, axloqiy xislatlarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan.
- c) Insonni shakllantirish va rivojlantirish unda falsafiy fikrlash madaniyatini karor toptirishni nazarda tutadi.
- d) To'g'ri javob yo'q.

№.115. Ijtimoiy falsafa qaysi fan bilan aynanlashtiriladi?

- a) *Sotsiologiya
- b) Tarix
- c) Tibbiyot
- d) Psixologiya

№.116. Ijtimoiy bilishning hozirgi zamonga xos talqini qanday?

- a) *Naturalizm va gumanitarizm
- b) Metafizik
- c) Sinergetik
- d) To'g'ri javob yo'q.

№.117. Naturalizm g'oyasida nima mutloqlashtiriladi?

- a) *Tabiiy bilimlarning ahamiyatini ko'rtirish asosida ijtimoiy bilimlarning keragi yo'qligini asoslaydi.
- b) Ijtimoiy bilimlarni mutloqlashtirish g'oyasini ilgari suradi
- c) Inson manfaatlari e'tirof etiladi.
- d) To'g'ri javob yo'q.

№.118. Gumanitarizm g'oyasida nima mutloqlashtiriladi?

- a) *Ijtimoiy bilimlarni mutloqlashtirish g'oyasini ilgari suradi
- b) Tabiiy bilimlarning ahamiyatini ko'rtirish asosida ijtimoiy bilimlarning keragi yo'qligini asoslaydi.
- c) Inson manfaatlari e'tirof etiladi.
- d) To'g'ri javob yo'q.

№.119. Ijtimoiy xaqiqat deganda...

- a) *Ijtimoiy bilimlarning ijtimoiy borliqqa, jamiyatga mos kelishi (adekvatligi) nazarda tutiladi.
- b) Xaosdagi tartibsiz bilim nazarda tutiladi
- c) Tarixiy jarayonlar mazmuni deb nazarda tutiladi
- d) Shaxsning tarixga individual munosabatini shakllantirish deb nazarda tutiladi.

№.120. Modellashtirish usulida ...

- a) *ijtimoiy jarayonlar mohiyatini anglash uchun ob'ekt asos bo'la olmagan sharoitda uning o'xshashini yaratish va shu asosda o'rganish nazarda tutiladi.
- b) Modellashtirish usuli mavjud emas.
- c) Tarixiy jarayonlar ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish nazarda tutiladi.
- d) To'g'ri javob yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi./To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent, "O‘zbekiston", 2022, - 440 bet
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022 yil 20 dekabr. // <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi>
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi – Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti, 2021, - 464 bet
5. Mirziyoyev Sh.M. - Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. - Toshkent, O‘zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi, 1 - jild, 2017 yil
6. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir - Toshkent, O‘zbekiston" nashriyot -matbaa ijodiy uyi, 2 - jild, 2018 yil
7. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi - Toshkent, O‘zbekiston" nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 3 - jild, 2019 yil
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari - Toshkent, O‘zbekiston" nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 4 - jild, 2020 yil
9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz -Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017
10. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017
11. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017
12. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017
13. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Yangi O‘zbekiston gazetasi bosh muharriri savollariga javoblari asosida) – “Yangi O‘zbekiston” gazetasi № 165(421) 2021 yil
14. Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada ham jihat bo‘lib qat’iyat bilan harakat qilaylik. Xalq so‘zi, 2017, 16 iyun

15. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnoma. 22 dekabr 2017 yil. – Toshkent, O‘zbekiston, 2017
16. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlari va ma’ruzalaridan olingan fikrlar. – Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2019
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni: "2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida" 2022 yil 28 yanvar. // <https://lex.uz/ru/docs/5841063>
18. Samarqand sammiti Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida yangi sahifa ochdi. <https://uza.uz/uz/posts/samarqand-sammiti-shanxay-hamkorlik-tashkiloti-faoliyatida-yangi-sahifa-ochdi>
19. Karimov I.A. Tanlangan asarlar to‘plami. Tom 1-24- Toshkent, O‘zbekiston, 1996 – 2015 yy.
20. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. – Toshkent, O‘zbekiston, 2008
21. Tuxtayev X. Ijtimoiy falsafa. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, Universitet, 2022, 352 bet
22. Nazarov Q., Tuxtayev X. Aksiologiya. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent, “Universitet” nashriyoti, 2022, b.276
23. Тўйчиев Б.Т. Основы социальной философии. - Т.: 2010.
24. Falsafa asoslari. Q.Nazarov tahriri ostida. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2018. – 380 bet
25. Falsafa. Madayeva va boshq. –Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2019.
26. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida.-Toshkent: UFMJ, 2006.
27. Falsafa qomusiy lug‘uat. Q.Nazarov tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2004.
28. To‘rayev B.O. Tanlangan asarlar: Jild II: Ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, milliy g‘oya va publitsistika. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015. – 360 b
29. Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy huquqiy asoslari. -T.: O‘zbekiston, 2007.
30. Choriyev A. Inson falsafasi - O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent, 2007
31. Qobulniyazova G. Falsafiy antropologiya. Darslik–Toshkent, 2021 y
32. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb - Toshkent, 1997
33. Otamuratov S. Globallashuv va millat. (siyosiy-falsafiy tahlil).-T.: Yangi asr avlodi, 2008.
34. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas’uliyati (siyosiy-falsafiy qirralari).-Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018.-352 b.

35. Qo'chqorov V. Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarT.:Akademiya, 2007
36. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi – Toshkent, Akademiya, 2011
37. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq // Tanlangan asarlar. Toshkent, 1998.
38. To'xtaev X. Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o'rni. – Toshkent, Universitet, 2001
39. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent. Yangi asr avlodi, 2016.-318 b.
40. Аристотель. Сочинения. В четырех томах. Том 4. М., 1983, 462-бет.
41. Аристотель. Политика. Власт. Искусство правит миром. АСТ.2018.320 с.
42. Aflotun. Qonunlar. Urfon Otajon tarjiması. – Toshken– Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2002.
43. Avesto. A.Mahkamov tarjiması. -T.: Sharq, 2001. -B. 248.
44. Alisher Navoiy Maxbub ul-qulub.-T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.-262 b.
45. Amir Temur tuzuklari.-T.: Navro'z, 1996.-81 b.
46. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud ahloq // Tanlangan asarlar. Toshkent, 1998
47. Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T.: Fan, 1988. B.12
48. Бачинин В.А. Философия права и преступления. Худож. -офор - мител Д.Гапчинский. -Харков: Фолио, 1999. -559 с
49. Beruniy A.R. Turar joylar [orasidagi] masofalarni aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash [Geodeziya] // Tanlangan asarlar. III jild. -Toshkent: Fan, 1982. - 83 b.
50. Бердяев Н. Смысл истории. – М.: Мисл, 1990. .
51. Богомолов Б.А Глобализация: некоторые подходы к осмыслению феномена. Вестн. Моск. Ун-та Сер. 12. Политические науки. 2004. №3.
52. Барулин В.С. «Социальная философия» Учебник дня вузов.- Москва, ФАИР-ПРЕСС, 1999 йил
53. Boboyev H.B. Siyosiy huquqiy ta'limotlar tarixi. –T.: TDYuI, 2003.–205 b.
54. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti.-T.: Yangi asr avlodi, 2004.- 36 b.
55. Bozorov D. Sinergetik paradigma - Toshkent, Tafakkur" nashriyoti-2010.

56. Социальная философия. Учебник. Керимов У. – Екатеринбург, 2018, 314 стр
57. Социальная философия. Учебник. Под редакции Гобозова И.А.- Москва, 2003, 528 стр.
58. Ramatov J. Xayotga falsafiy nigoh. -Toshkent: "ITA-press", 2017, 380b.
59. Моисеев Н.Н. Логика динамических систем и развитие природы и общества // Вопросы философии. 1999. №4
60. Абдуллаева М.Н. Синергетика-новые возможности познания и действия. Sinergetikaning tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolari. (Ilmiy nazariy seminar) tahrir hay'ati M.N.Abdullayeva va boshq. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Namangan davlat un-ti, O'zR FA I.Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. – Namangan, 2009
61. Бердимуратова А.К. Философско-методологические проблемы современной экологической ситуации. (на метериалах Приаралья). Афтореф. дис... д-ра.филос наук.Тошкент.2000.С. 66
62. Хошимова И.С. Экология проблемасида глобал ва зонал муносабатлар диалектикаси. - Тошкент. 1986.- Б.102.
63. Jo'rayev Z. "Movardiyning Sharq davlatchilik ta'limoti" (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti (№ 7228/1) va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nodir (№ 63) qo'lyozmalari asosida), - T.:A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015 y.
64. Muhiddinova F. "Adolatnoma" // "Huquq va burch" ijtimoiy huquqiy jurnali № 12. -T.: 2008 B.3.
65. G'ulomov Ya.G'. Abu Rayxon Beruniy yashagan davr. //Beruniy va ijtimoiy fanlar. Mas'ul muharrir: O'zFa akademigi I.M.Mo'minov — T.: "Fan", 2635-sahifalar.
66. Abu Rayhon Beruniy tarvihalar "Javohirot kitobi"dan.// Ushbu kitobning muqaddimasi tarvihalardan iborat bo'lib, uni arabchadan o'zbek tiliga A.Irisov tarjima qilgan: –T.: Meros, 1991 yil
67. Muqimov Z. "O'zbekiston davlati va huquqi tarixi", // Darslik, - Toshkent, "Adolat", 2003 y.
68. Xo'jayev F. Uch jildlik. 1-jild. Toshkent, 1996 yil
69. Fitrat A. Najot yo'li (Raqbari najot). Toshkent, 2001.
70. Тадевосян Э.В. Социология. - М., 1999. 120-130-стр.
71. Поппер К. Открытое общество и его враги.- М., 1992. 15-стр.
72. История философии. - Москва, 1999, 28-бет.
73. Степанянс М.Т. Восточная философия. М., 1997.

74. Шаповалов. В.Ф. Основы философии от классики к современности. Учебное пособие. – М.: Фаир -Пресс, 1998.
75. Системный подход и психиатрия / Под общ. ред. П. П. Волкова. — Минск: Вишэйшая школа, 1986. - 304
76. Спиноза Бенедикт. Сочинения: В 2-х т. Том II. (Изд-е второе, стереотипное) серия: Слово о сущем. СПб Наука СПб. 2006. – 489 с
77. Новакова О.В. Гуманистические идеи экзистенциализма в развитии современной педагогической мысли Германии: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук: (13.00.01) / О.В. Новакова. - Волгоград, 2002. - 19.
78. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sogʻlom avlod tarbiyasi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2000.
79. Шодиметов Ю. Человек: Социально - экономические аспекты здоровья. – Т.: Ўзбекистон, 1990. -18 с
80. Наср С.Х. Исломда илм -фан ва цивилизация. – АКШ; Гарвард, 2002.
81. Федотов. Г. П. Россия и свобода (Судба и грехи России) СПб: 1992. - 286 с.
82. Фрейд З. Методика и техника психоанализа. – М.: Госиздат, 1993.
83. Koshifiy. Axloqi Muhsiniy. – Konpur: 1994. –В. 136 -137.
84. Yangiboyev B.J. Oʻzbekiston Respublikasida huquqiy normalarning amalga oshirilishi muammolari. Avtoref. Yurid. Fan. Nomz.-Т.: 2004.
85. Koʻchimov Sh.N. Huquqiy normalarni Oʻzbek tilida ifodalashning ilmiynazariy muammolari.fil. fan. dokt. diss.-Т.: 2004. -В. 221
86. Sharifxoʻjayev M. Oʻzbekistona ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi – Toshkent., “Sharq”. 2003.
87. Narzulla Joʻrayev. Tarix falsafasining nazariy asoslari. Toshkent, “Maʼnaviyat” , 2008.
88. Muqimov Z. “Oʻzbekiston davlati va huquqi tarixi”, // Darslik, - Toshkent, “Adolat”, 2003 y.
89. Mavlonov J.Yo. Fuqarolik jamiyatiga oid zamonaviy konseptual diskursning asosiy yoʻnalishlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Avtoreferat. «Akademiya nashirlik markazi» DUK, 2017.- B.15.
90. Oʻtamurodov A. va boshqalar Oʻzbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati. / Uslubiy qoʻllanma – T-Info Kapital Group, 2019

91. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2006. - B. 99 .
92. Кислицин С.А., Сиражудинова С.В. Гражданское общество на постсоветском пространстве: Концепти, специфика, тренди ЛЕНАНД 2018. - 336 с
93. Чаттверджи С. и Датта Д. Введение в индийскую философию. - Москва, 1995, 73-105-бетлар.
94. Гегел Георг Вилгелм Фридрих. Философия права. Серия: Великие мыслители М.: Мир книги 2009. - 464с
95. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 9 tom, 2005. 350-b.
96. Ergashev I.S. Shaxs ma’naviy kamolotida erkinlik va ijtimoiy mas’uliyat uyg‘unligi// Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. -Toshkent-2011
97. www.gov.uz – Ўзбекистон Республикаси ҳукумат портали.
98. www.lex.uz – Ўз.Р. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
99. <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/ozbekiston>
100. <https://yuz.uz/news/jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-joni-va-ruhi-manaviyatdir>
101. <http://urss.ru/cgi-in/db>
102. <https://studfilosed.ru>
103. www.ziyonet.uz
104. <http://www.filosofia.ru>.
105. <http://www.falsafa.dc.uz>.
106. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

MUNDARIJA:

Soʻz boshi		4
1- mavzu	Ijtimoiy falsafaning predmeti maqsad va vazifalari	5
2 - mavzu	Ijtimoiy falsafaning nazariy-metodologik asoslari	19
3 - mavzu	Sharq va Gʻarb sivilizatsiyasida shakllangan ijtimoiy - falsafiy taʼlimotlar	40
4 - mavzu	Jamiyat yaxlit ijtimoiy tuzulma sifatida	70
5 - mavzu	Jamiyat hayotining asosiy sohalari	90
6 - mavzu	Ijtimoiy ong	111
7 - mavzu	Ijtimoiy bilish	135
8 - mavzu	Inson falsafasi	155
9 - mavzu	Ijtimoiy falsafada erkinlik va masʼuliyat masalasi	181
10- mavzu	Ijtimoiy falsafada ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik mezonlari	199
11- mavzu	Ijtimoiy normalar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni	214
12- mavzu	Sivilizatsiya, uning mohiyati va shakllari	235
13- mavzu	Milliy va umuminsoniy qadriyatlar - sivilizatsiya taraqqiyot omili	257
14- mavzu	Globalashuvning jamiyat ijtimoiy hayotida namoyon boʻlish shakllari	278
15- mavzu	Yangi Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etishning oʻziga xos xususiyatlari: yutuqlar, imkoniyatlar va istiqbollari	302
Glossariy		326
Test variantlari		334
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati		355

СОДЕРЖАНИЕ:

Введение	4
1-тема. Предмет, цели и задачи социальной философии	5
2-тема. Теоретико-методологические основы социальной философии	19
3-тема. Социально-философские учения цивилизаций Востока и Запада	40
4-тема. Общество как единая социальная структура	70
5-тема. Основные сферы жизни общества	90
6-тема. Общественное сознание	111
7-тема. Социальное познание	135
8-тема. Философия человека	155
9-тема. Проблема свободы и ответственности в социальной философии	181
10-тема. Критерии социальной стабильности и неустойчивости в социальной философии	199
11-тема. Социальные нормы и их роль в развитии общества	214
12-тема. Цивилизация, ее сущность и формы	235
13-тема. Национальные и общечеловеческие ценности как критерий развития цивилизации	257
14-тема. Формы проявления глобализации в социальной жизни	278
15-тема. Особенности формирования гражданского общества в Новом Узбекистане: достижения, возможности и перспективы	302
Глоссарий	336
Варианты тестов	334
Список использованной литературы	355

CONTENTS:

Introduction	4
1-topic. The subject, goals and objectives of social philosophy	5
2-topic. Theoretical and methodological basics of social philosophy	19
3-topic. Socio-philosophical doctrines of the civilizations of the East and West	40
4-topic. Society as a unified social structure	70
5-topic. The main spheres of society's life	90
6-topic. Social consciousness	111
7-topic. Social cognition	135
8-topic. The philosophy of man	155
9-topic. The problem of freedom and responsibility in social philosophy	181
10-topic. Criteria of social stability and instability in social philosophy	199
11-topic. Social norms and their role in the development of society	214
12-topic. Civilization, its essence and forms	235
13-topic. National and universal values as a criteria for the development of civilization	257
14-topic. Forms of manifestation of globalization in social life	278
15-topic. Features of the formation of civil society in the New Uzbekistan: achievements, opportunities and perspectives	302
Glossary	326
Test options	334
List of used literature	355

HAKIM TO‘XTAYEV

IJTIMOIIY FALSAFA

DARSLIK

60220500 – Falsafa (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi

Muharrir Z.N.Buranov

Bosishga ruxsat etildi 18.05.2023y. Bichimi 60X84 ¹/₁₆.

Bosma tabog‘i 22,75. Shartli bosma tabog‘i 22,75. Adadi 100 nusxa.

Buyurtma № 032. Bahosi kelishilgan narxda.

“Ma‘rifat” nashriyoti. Toshkent, Salorbo‘yi kochasi, 35A.

O‘zbekiston Milliy universiteti bosmaxonasida bosildi.

Toshkent, Talabalar shaharchasi, O‘zMU.